

PEDAGOGIK MAHORAT

10

2023



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

10-son (2023-yil, noyabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2023

<https://buxdu.uz>

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2023, № 10

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY‘ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti

Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti

Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jumaev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nurulloev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 10, 2023

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор

Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Андрюченко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)

Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)

Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)

Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), доцент

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор

Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор

Курбонова Гулноз Нематовна, доктор педагогических наук (DSc)00

Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук, доцент

Назаров Акмал Мардонович, доктор философии психологических наук (PhD), доцент

Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент

Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)

Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD)

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

№ 10, 2023

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov

Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov

Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)

Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Doc. Alijon R. Hamroev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova

Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov

Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova

Doctor of Philology, Doc. Qahramon R.Tuxsanov

Doctor of Psychology, Doc. Akmal M. Nazarov

PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev

PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev

PhD in Economics Sciences, Layli B. Navruz-zade

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	<i>ELOV Ziyodullo Sattorovich</i>	Suitsidial xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o‘rganilishi: tahlillar va nazariyalar	9
2.	<i>RAXMATOV Faxriddin Umarovich</i>	Voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishining empirik o‘rganish tahlili	18
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
3.	<i>АДИЗОВ Бахмуёр Раҳмонович</i>	Ўқитувчиларда мулоқотни шакллантиришнинг педагогик омиллари	22
4.	<i>AHMADOV Shohruh Rahmatullo o'g'li</i>	Oilaning ijtimoiy-psixologik muammolari hamda o‘smirlarda nizolar to‘g‘risidagi tasavvurlarning shakllanishi	27
5.	<i>ALLAMOVA Shahista Yuldashboyevna</i>	Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning intellektual muvaffaqiyatlarini shakllantirishning psixologik asoslari	33
6.	<i>ATAMURADOV Jamshid Jalilovich</i>	Masofaviy ta’lim tizimlarining qiyosiy tahlili	36
7.	<i>ATAMURATOVA Feruza Baxtiyarovna</i>	O‘smirlarning psixologik salomatligiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganishni tashkil etish usullari	42
8.	<i>DJALALOVA Mohinur Abdusattor qizi</i>	Ruhiy salomatlikni maktabgacha yosh davridagi bolalarda yuzaga kelishida ota-onaning roli	46
9.	<i>ESHMURODOV Sherdil Ergashevich</i>	Kutubxona faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash o‘quv modulining mazmuni va hozirgi holati	51
10.	<i>G’ANIYEV Shaxruz Rajabovich</i>	Texnikaviy oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’limni tashkil etishning maqsad va vazifalari	55
11.	<i>ISMOILOVA Nurjaxon Zuxuriddinovna</i>	Shaxsda o‘ziga bahoni adekvatlashtirish orqali stressga barqarorlikni oshirish imkoniyatlari	59
12.	<i>JO'RAYEVA Barchinoy Meyliyevna, MUQIMOV Bayramali Raximovich</i>	Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish usullari	63
13.	<i>MAXMUDOVA Zulfiya Mexmonovna</i>	Qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligi	67
14.	<i>NEKBOYEV Xurshid Xoliyorovich</i>	Mediata’lim jarayonida maktab o‘quvchilari va talabalar yosh xususiyatlarining mediadagi afzalliklari	74
15.	<i>OCHILOVA Gavhar Farxodovna</i>	Oliy ta’limning pedagogik samaradorligi mezonlari va ijtimoiy xizmatlar	78

16.	QALANDAROVA O‘rinposhsha Yuldashovna	Kasbiy kompetentlikda pedagogik faoliyatni amalga oshirishning asosiy omili sifatida	82
17.	QO‘ZIYEV Nodir Murodillayevich	Oliy ta’limda bo‘lajak muhandislarning texnik tafakkurini rivojlantirish usullari	86
18.	SAMADOVA Malika Xasan qizi	Ta’lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyasi - zamonaviy muhandis tayyorlashning metodik asosi	90
19.	SHARIPOV Abror Anvar o‘g‘li	Improving the methodology of training students of professional educational institutions to practice with the help of modern pedagogical technologies	94
20.	SHONAZAROV Asror Maxmaisoyevich	Zamonaviy rahbar kadrlarini tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	98
21.	TILLAYEVA Rayxona Tuxtasinovna	O‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari	102
22.	TOSHEVA Dildora Iskandarovna, ERGASHEV Xolmurod Elmirodovich	Pedagogik konfliktlar va ularning oldini olish omillari	108
23.	TOSHEVA Mohinur Yusupovna	11-15 yoshli o‘smirlarda stressga barqarorlikni ta’minlashning psixologik omillari	113
24.	TOSHNIYAZOV Umirbek Xurramovich	Pedagogika nazariyasining yo‘nalishlari va uning ratsional tafakkurdagi o‘rni	117
25.	TURAXONOV Abdukarim Eshkuziyevich	Shaxs mas’uliyati va xulq-atvorining shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlar	121
26.	XASANOVA Marxabo Nosirovna	Oliy ta’lim muassasalarida “Muhandislik grafikasi” fanini o‘qitishning ijtimoiy-ta’limiy zaruriyat sifatidagi bugungi tahlili	126
27.	XOLIQOV Ixtiyor Roziqovich	Harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida pedagogik kompetensiyani takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar	133
28.	YAXYOYEVA Gulhayo Murot qizi	O‘quvchilarda kasbiy mas’uliyat hissini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	140
29.	YOZIYEVA Umida Lutfullayevna	O‘quvchilar virtual addiksiya profilaktikasida tanqidiy fikrlashning ahamiyati	144
30.	SAFAROV Dilmurod Xalimovich	Rahbar boshqaruv faoliyatining o‘ziga xos individual-psixologik xususiyatlari	149
31.	SADULLOYEVA Mahfuza Gaybulloyevna	Pedagogical practice in primary school (using the example of 4+2)	152
32.	SAMADOV Abdulaziz Ashurovich	O‘zgaruvchan ta’lim sharoitida harbiy rahbar qobiliyatining psixologik komponentlari	156
33.	ЗАРИПОВА Гульбахор Комиловна	Духовно-педагогическая роль самовоспитания в формировании учащихся общих средних школ как совершенных	161

		личностей	
34.	ЗЕМЛИНА Юлия Вячеславовна	Педагогическое мастерство учителя начальных классов как фактор развития ключевых компетенций учащихся	170
35.	МЕЛИБАЕВА Рузахон Насировна	Тиббиётда тиббий психодиагностика мақсадларида қўлланилаётган методикаларнинг татбиқ этилиш ҳолати	175
36.	САГИНДИКОВА Наргиза Жубаткановна	Бўлажак педагог шахсининг гендер буйича масъулиятининг компонентлик таркиби	180
37.	ISMATOVA Dilafruz Tuymuratovna, BO‘RONOVA Kamola Baxtiyorovna	Oilada ota-ona psixologiyasi shakllanishining psixologik xususiyatlari	186
38.	QODIROV Baxtiyor Eshmurzayevich	Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari	191
39.	XALIKOVA Umida Mirovna	Raqamli dasturiy ta’lim vositalari asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy va metodik asoslari (Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari misolida)	195
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM			
40.	QORAYEV Abduvafu Fazliddinovich	Refleksiv videotreninglar asosida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarning kasbiy o‘shish samaradorligini oshirish	202
41.	КАМИЛОВА Гулмира Алимовна	Мактабгача ёшдаги болаларни халқ оғзаки ижоди намуналари билан таништириш муаммолари	206
FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH			
42.	ТКАЧЕВА Anastasiya Aleksandrovna	Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish jarayonida refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishning roli (ispan tili misolida)	211
43.	DAVRANOVA Gulbahor Numondjonovna	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida rus tilini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari	220
44.	NORQULOVA Muqaddas Baxriddinovna	A2 darajali maktab o‘quvchilarning ingliz tili grammatik kompetensiyasini oshirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning uslubiy xususiyatlari	229
45.	НОРОВ Жамшид Нуруллоевич	Лингвокультурологик бирликларни ўқитишнинг илмий-методик асослари	233
ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH			
46.	ABDULLAYEVA Muhayyoxon Abduvohid qizi	Ba’zi masalalarni yechishda arifmetik va geometrik progressiyaning tadbirlari	239

47.	ISMANOVA Odinaxon To'iqinboevna	Fizika yo'nalishi talabalariga loyiha ishlarini bajartirish orqali kreativ fikrlashlarini rivojlantirish usullari	245
48.	JUMAYEVA Charos Ilhomjon qizi	“Jegalkin ko'phadi” mavzusini o'qitishda interfaol metodlarni qo'llash	250
49.	KARSHIBOYEV Shavkat Esirgapovich	Oliy ta'lim muassaslarida umumiy fizika fanidan mustaqil ishlarni bajarishda virtual laboratoriyalardan foydalanishni takomillashtirish	254
50.	SOBIROVA Dilfuza Zokirovna	Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitish bosqichlari	263
51.	XUDAYAROV Sa'nat Samadovich	Logarifmik tengsizliklarni yechishning nostandart usullari haqida	269
52.	АЖИЕВА Мухаббат Бахтыбаевна	Компетентностно–ориентировочные задания как способ формирования ключевых компетенций на уроках химии	274
53.	UBAYDULLOYEV Alisher Nematilloevich	Teng kuchli parametrli tenglamalar sistemasini yechish usullari	278
54.	JAMOLOVA Shahlo Qobilovna	O'quvchilarning bilimini baholashda mobil dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatlari	283
JISMONIY MADANIYAT VA SPORT			
55.	IKRAMOV Amirbek Aminovich	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini takomillashtirishda harakatli o'yinlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	287
SAN'AT			
56.	AZIMOV Sanjar Samadovich	Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy va ijodiy faoliyatida estetik ehtiyojlarni shakllantirish metodikasi	294
TA'LIM MENEJMENTI			
57.	AVAZOV A'zam Januzaqovich	Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini boshqarishni pedagogik modellashtirish	298
58.	BEKNIYAZOV Bayrambay Saparbaevich	Umumta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv ko'nikmalarini taym menejment yondashuvi asosida rivojlantirish strategiyalari	306
59.	NURULLOYEV Firuz No'Monjonovich, G'AYBULLAYEV Shonazar Mirboboyevich	Zamonaviy maktab ta'limi sifatini innovatsion boshqarish mexanizmlari	310
MA'NAVIYAT VA TARBIYA			
60.	DOVRANOVA Oysulton Dovrankulovna	Oila instituti va demografik jarayonlarning o'zgarishi ularning o'zbek oilalarning shakllanishiga ta'siri	314
61.	JABBOROVA Saodat Zoirovna	Milliy qadriyatning oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashdagi ma'naviy-ijtimoiy ahamiyati	318
62.	MAMATOVA Nazira Djurakulovna	Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqini	322

DOLZARB MAVZU

SUITSIDIAL XULQ-ATVORNING ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA O'RGANILISHI: TAHLILLAR VA NAZARIYALAR

*Elov Ziyodullo Sattorovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Maqolada bugungi muhim va global sharoitda suitsid muammosi yuzasidan, dunyo va yurtimiz olimlari tomonidan olib borilgan qator tadqiqotlar va ularning natijalari yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar tahlil qilingan bo'lib, qo'lga kiritilgan ilmiy va empirik natijalar atroflicha tahlil etilgan va muallif qarashlari bilan boyitilgan. Shuningdek, o'z joniga qasd qilishga sabab bo'luvchi psixologik omillar va ularni yuzaga keltiruvchi jarayonlarga ilmiy qarashlar berilib, profilaktira, psixokorreksiya ishlarni olib borish va ularning natijalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *suitsid, jamiyat, depressiya, krizis, affekt, psixologik ta'sir, voyaga yetmagan, o'zgarish, diniy qarashlar, xalqlar tarixi, psixologik hodisa, umidsizlik, kasallik, o'lim.*

ИЗУЧЕНИЕ СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ: АНАЛИЗ И ТЕОРИИ

В сегодняшних важных и глобальных условиях анализируются научные выводы, выработанные учёными мира и нашей страны относительно проблемы суицида и их результаты. Кроме того, приводятся научные взгляды на психологические факторы, вызывающие суицид, и процессы, их вызывающие, профилактика, психокоррекционная работа и их результаты.

Ключевые слова: *самоубийство, общество, депрессия, кризис, аффект, психологическое воздействие, несовершеннолетний, изменение, религиозные убеждения, история народов, психологический феномен, отчаяние, болезнь, смерть.*

THE STUDY OF SUICIDAL BEHAVIOR IN MODERN PSYCHOLOGY: ANALYSIS AND THEORIES

In today's important and global situation, the scientific conclusions developed by the scientists of the world and our country regarding the problem of suicide and their results are analysed. Also, the psychological factors that cause suicide and the processes that cause them are given scientific views, prevention, psycho-correction and their results are highlighted.

Key words: *suicide, society, depression, crisis, affect, psychological impact, juvenile, change, religious beliefs, history of people, psychological phenomenon, despair, disease, death.*

Kirish. Hozirgi vaqtda zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar insoniyat uchun nafaqat tezlashtirilgan o'zgarishlar sur'atiga ko'nikish, balki o'zgaruvchan ijtimoiy hayotga moslashish qobiliyati muammosini ham qo'ymoqda. Albatta, jamiyatdagi mavjudlik va hayot muayyan bilimlarni talab qiladi. Va bu bilim tug'ma emas, balki inson hayoti jarayonida orttirilgan. Shunday qilib, biologik shaxsdan o'rganish jarayonida o'smir asta-sekin ijtimoiy mavjudotga aylanadi va olimlar bu jarayonni sotsializatsiya deb atashadi. Biroq inson hayotining har qanday sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, shu jumladan, jamiyatimizdagi qadriyatlar ierarxiyasidagi tub o'zgarishlar munosabati bilan sotsializatsiya muammosi yanada keskinlashmoqda va dolzarb bo'lib bormoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz aholining eng zaif qatlamlari, birinchi navbatda, yosh avlod, xususan, voyaga yetmagan o'smirlar ahvolini yomonlashtirdi.

Jamiyat o'zini biologik va ijtimoiy jihatdan yosh avlod orqali rivojlantiradi. Ma'lumki, yoshlar mamlakat kelajagini ifodalaydi, shu bilan bog'liq holda ularning kayfiyati, xulq-atvori muayyan jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik, siyosiy muhitning o'ziga xos "o'lchovi"dir. I.S. Kon yoshlarga keng quyidagicha tarif beradi: "Yoshlar - bu yosh xususiyatlari, ijtimoiy mavqeyi va ma'lum ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining kombinatsiyasi asosida aniqlangan demografik guruhdir. Yoshlik hayot tezligining ma'lum bir bosqichi sifatida biologik mukammallikdir, lekin uning o'ziga xos yosh chegaralari, ijtimoiy mavqeyi bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik xususiyatlar ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir.

Nazariy tahlillar. Suitsidal xulq-atvor muammosi psixologiya nuqtayi nazaridan olganda yangi atama sifatida qaralmaydi. Sababi u qadimgi davrlardan beri olimlarning (Aristotel, Pifagor, Platon) muhokamasi, o‘rganishi va talqini mavzusi bo‘lib kelgan. O‘z joniga qasd qilish inson xatti-harakati sifatida barcha dinlarda aks ettirilgan va aksariyat hollarda qoralangan, ba‘zilari bundan mustasno, masalan, Hindiston xalqlari orasida ayolning erining jasadi bilan o‘zini-o‘zi yoqib yuborishi, xotinning eriga sodiqligining belgisi sifatida qaralgan.

Jahonga mashhur faylasuflarning ilmiy qarashlarida doimiy tarzda o‘z joniga qasd qilish qoralansa-da, ayrim antik davr olimlari mazkur holatni oqlashga xarakat qilishadi.

Qadimgi arman faylasufi E.Daffioz joniga qasd qilishni oqlash mumkin bo‘lgan quyidagi oltita sababni tan oladi:

- yashash uchun mablag‘larning yetishmasligi bilan;
- kuchli og‘riq bilan kechadigan kasallik;
- umidsiz holat (asir, tahdid, qiynoqlar);
- chuqur qarilik;
- nopok yoki kamsitivchi harakatga majburlash;
- umumiy baxtsizlik. [1]

Yuqoridagi ilmiy-amaliy dalillarning ilmiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘z joniga qasd qilish jamiyatning kuchli ta‘siriga asoslangan shaxsning alohida psixologik holatining natijasidir. Bu esa S.Bogomlova ta‘rificha: “O‘z joniga qasd qilish psixologik hodisa bo‘lib, uni tushunish uchun o‘z joniga qasd qilishga qaror qilgan odamning ruhiy holatini... psixologiyasini tushunish kerak deb ta‘kidlab o‘tadi. Bundan tashqari u o‘z joniga qasd qilish - bu, birinchi navbatda, umidsizlik psixologiyasi ... ” deb aytib o‘tadi [2].

Umuman, suitsidal xulq-atvor va suitsidal xavf omillari bir qator mamlakatimiz va chet el olimlari tomonidan tadqiq qilinib kelinmoqda. Ushbu masalalarga bag‘ishlangan ilmiy mushohadalar: G.Deshais, E.Dyurkgeym, Z. Freyd, G.K.Yung, G.S.Salliven, K.Rodjers, V.Frankl, E.Shneydman, M.Farber, N.Farberou, F.Baumeister, S.J.Sher, Dj.Mann, M.Asberg, V.I.Braunlarning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan.

"O‘z joniga qasd qilish" atamasi lotincha "sui" - o‘zini-o‘zi, "caedere" – o‘ldirishdan kelib chiqqan va insonning hayotdan o‘zini-o‘zi mahrum qilish harakati degan ma‘noni anglatadi. "O‘z joniga qasd qilish xulq-atvori" atamasi birinchi marta 1947-yilda G.Deshais tomonidan kiritilgan.

E.Dyurkgeym ta‘rifiga ko‘ra, (o‘z joniga qasd qilish haqidagi birinchi fundamental ish muallifi): "O‘z joniga qasd qilish bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita jabrlanuvchining o‘zi tomonidan sodir etilgan o‘limi deb ataydi [3].

Tadqiqotchilar suitsid fenomenini ko‘pincha psixologik inqiroz haqidagi tasavvurlar bilan bog‘laydilar. Ushbu vaziyatda inqiroz, shaxsning hayotiy o‘ta zarur ehtiyojlarini qondirish yo‘lidagi to‘siqlarga duch kelishi vaziyatida kelib chiqadigan emotsional holat sifatida tushuniladi, ya‘ni shunday to‘siqlarki, odam uni o‘zini oldingi hayotiy tajribasidagi muammolarni hal qilish usullari bilan bartaraf etolmaydi.

Shunday qilib, psixologik inqiroz, tashqi sharoitlar tomonidan kelib chiqadigan xavf ta‘siri ostida yuzaga keladigan (inson psixikasiga) emotsional turg‘unlikning ichki buzilishi sifatida ko‘riladi.

Adabiyotlarda ko‘pincha suitsidal xatti-harakatlar bilan solishtiriladigan, «autatratmatizm» (o‘ziga jarohat yetkazish), «autoagressiv hatti-harakat» terminlari uchraydi. Agar autoagressiv harakatning oxirgi maqsadi o‘z joniga qasd qilish bo‘lsa, uni suitsidal xatti-harakatlarga bog‘lash mumkin. Zamonaviy, ayniqsa, xorijiy adabiyotlarda «autodestruktiv» (o‘ziga zarar yetkazish bilan bog‘liq xulq-atvor), «o‘zini-o‘zi yo‘q qilish» xulq-atvori tushunchasi keng tarqalgan. Psixologik-ruhiy og‘riq, og‘ir inqirozli holatning umumiy belgisi hisoblanadi. Ko‘ngil og‘rig‘iga chiday olmaslik, uni har qanday yo‘l bilan to‘xtatishga, unga barham berishga olib keladi, inqirozli vaziyatdagi odamga esa suitsid o‘z muammolaridan qutilish va hal etish usuli sifatida tanlanadi.

E.Dyurkgeymning (Dyurkgeym,1994) o‘z joniga qasd qilishning ijtimoiy nazariyasiga muvofiq suitsidal fikrlari, avvalo, shaxsning ichki shaxsiy aloqalarining uzilishi, o‘zi taalluqli bo‘lgan ijtimoiy guruhdan begonalashuvi oqibatida paydo bo‘ladi. Uning qarashlariga muvofiq, suitsidning uchta asosiy ko‘rinishlari mavjud. Birinchi turi – o‘z joniga suiqaqd qilish harakatlari **egoizmni** bildiradi va ko‘pgina holatlarda o‘zini-o‘zi yo‘q qilish individning o‘zini jamiyatdan, oilasi va do‘stlaridan begonalashgan va yaklangan deb his qilishi bilan shartlanadi. Ikkinchi turi – **anomik** o‘z joniga suiqaqd qilish bo‘lib, u shaxsning ijtimoiy guruh bilan o‘zaro aloqasining buzilishiga olib keladigan jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashishdagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida yuz beradi. Ular, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar vaqtida ko‘payadi, biroq ijtimoiy yuksalishda ham saqlanib qoladi, chunki farovonlikning tezlik bilan o‘sishi

oldingi hayotiy sharoitlardan farq qiluvchi yangilariga moslashishni keltirib chiqaradi. O‘z hayotiga suiqasdning oxirgi, uchinchi ko‘rinishini E. Dyurkgeym **altruistik** deb nomlagan. Suitsidning ushbu turida odamning sotsiumning (jamiyatning) yoki guruhning obro‘li shaxsi (avtoriteti) tomonidan uning egoidentligini bostirishi oqibatida u jamiyat foydasi, qandaydir ijtimoiy, diniy yoki falsafiy g‘oya uchun o‘zini qurbon qiladi [7].

Psixozanaliz asoschisi, psixiatr Z.Freydning suitsid borasidagi tasavvurlari odamdagi mavjud ikkita asosiy mayl konsepsiyasiga asoslanadi: Eros – hayot instinkti va tanatos – o‘lim instinkti. Inson hayoti ular o‘rtasidagi jang maydoni hisoblanadi. Inson nafaqat yashashni, suyuqli bo‘lishni va o‘zining davomini farzandlarida ko‘rishni istaydi – shunday davrlar yoki ruhiy holatlar bo‘ladiki, bunda o‘lim istagi bo‘ladi. Yosh o‘tishi bilan eros o‘lib boradi, tanatos kuchli, qat‘iyatli bo‘lib boradi va odamni o‘limga olib borib, o‘zini to‘liq ro‘yobga chiqaradi. Freydga muvofiq suitsid va o‘zini o‘ldirish tanatosning buzg‘unchi ta‘sirining namoyon bo‘lishidir, ya‘ni agressiyaning natijasidir [4].

G.K.Yung o‘z joniga qasd qilish muammosiga to‘xtalib, suitsidning sababi sifatida, odamning ma‘naviy qayta tirilishga ongli intilishini ko‘rsatib o‘tgan. Ushbu intilish turli ko‘rinishlarni qabul qiluvchi jamoaviy ongsizlik arxetiplarining dolzarblashuvi bilan asoslangan [5].

- metempsixoz (ruhlarning ko‘chishi) bunda odam hayoti tanaga turli xosliklarni gavdalantirish orqali cho‘ziladi.

- yangi shaklga kirish, shaxsning uzluksizligini saqlab qolishni va inson tanasida yangitdan tug‘ilishni nazarda tutadi.

- inson hayotining o‘limdan so‘ng «nozlik tana» deb ataladigan holatida qayta yaralish – tiklanish.

- individual hayot doirasi o‘ladigan mavjudoddan o‘lmaydiganga aylanishi bilan birgalikdagi qayta tirilish.

- shaxsdan tashqarida ro‘y beradigan transformatsiya yo‘li orqali qayta yaralish.

K.Xorni psixodinamik yo‘nalish va ego psixologiyada suitsid borasida shunday fikrni taxmin etgan, ya‘ni odamlar o‘rtasidagi munosabatlar buzilishida xavotirlardan kelib chiqadigan asabiy (nevrotik) nizo paydo bo‘ladi. U bolalik davridayoq atrofda dushmanlikni his etish bilan boshlaydi. Xavotirlikdan tashqari, odam asabiy vaziyatda yolg‘izlik, oqizlik, tobelik va dushmanlikni his etadi. Ushbu fenomenlar suitsidal xulq-atvorning asosi bo‘lib chiqishi mumkin (masalan, katta odamdagi chuqur nomukammallik hissi va ideal «Men» obrazi yoki ijtimoiy standartlarga nomuvofiqligi bilan birgalikdagi bolalarcha tobeligi namoyon bo‘ladi. K.Xorni dushmanlik nizoda dolzarblashadi, deb hisoblagan. U suitsidal xulq-atvor shakliga kirmasligi ham mumkin, biroq nafrat, ijirg‘anish yoki global rad etish ko‘rinishlarida namoyon bo‘lishi mumkin. Agar tashqi qiyinchiliklar odamning egotsentrik ustanovkalari yoki illyuziyalari bilan uyg‘unlashsa, ular kuchayadi. Bunda o‘ziga va o‘zgalarga bo‘lgan nafrat va dushmanlik shunchalik kuchli bo‘lishi mumkinki, o‘zining o‘limi qasos olishning jozibali usuli bo‘lib chiqadi. Bir qator hollarda xohishga ko‘ra o‘lim o‘z «Men»ini tasdiqlashning yagona usuli bo‘lib qolishi mumkin. Taqdirga tan berish, ya‘ni bunda autodestruktivlik ustunlik qiluvchi moyillik bo‘lib chiqishini K.Xorni, o‘zini – o‘zi o‘ldirishning latent (yashirish) shakli sifatida ta‘kidlaydi [6].

A.Adler, suitsidni noloyiqlik hissi va boshqa salbiy hissiyotlar hosilasi sifatida talqin qiladi. Adlerning fikricha, agar insonda salbiy hislar yetakchilik qilayotgan bo‘lsa u muayyan darajadagi suitsidal harakatni sodir etishi mumkin [7].

E.Berne o‘z asarlarida suitsidal xulq-atvor emotsional buzilishlar bilan bog‘liq. Affektiv ta‘sirilanish holatlarini tadqiq qiladi.

M.Lewenson va K.Neyranger konsepsiyasida suitsidal xulq-atvorni o‘rganish o‘ziga xos individ sifatlarini tahlil qilish bilan bog‘liq ekanligi e‘tirof etiladi. Muallifning fikricha, suitsidga moyillikni bartaraf etilishi muhitning ko‘pgina omillari bilan mustahkamlanishi mumkin, masalan, televidenie ta‘siri, inson uchun qadri odamlarining suitsidi, submadaniyat me‘yorlari va boshqalar.

Shu yerda ta‘kidlab o‘tish joizki, Yevropa madaniyatida suitsidal arxetip rolini ikki asr oldin Gyote tomonidan yaratilgan adabiy qahramon ijro etadi. Suitsidologiyada suitsidal stereotip, o‘z joniga qasd qilish roli bilan bog‘liq hamma narsa, “Verter sindromi” sifatida o‘rganiladi.

J. Mans nazariyasida, suitsidal xulq-atvorni izohlab beruvchi asosiy omil bu – koping-faktor hisoblanadi. Jumladan, muallif psixologik autopsiya usuli asosida muallif stressni bartaraf etishning omadsiz urinishlar tajribasi autodestruktiv xulq-atvorga olib kelishi haqida xulosaga kelgan.

Transakt tahlil namoyondalari V.Bratko, V.Djoyns, S.Steyner, L.Styuart negativ oilaviy tajribasining o‘zgacha ahamiyatini ko‘rsatib beradilar, natijada “o‘zini vayron etish” tipidagi “hayot ssenariysi” tuziladi [8]. Bob va Meri Gulding bunday ssenariy suitsidentlarga xos deb e‘tirof etadilar. Bu turdagi ssenariyda, mualliflar fikricha, ota-onalarning... “Yashama!” ko‘rsatmasi asos bo‘lib keladi. Ushbu ko‘rsatma bir qator vaziyatlarda berilishi mumkin. Masalan, infantitsid urinishi paytida, omadsiz abort, onaning tug‘ish vaqtidagi

o‘limidan keyin, ota-ona tomonidan suitsid sodir etilganida; krizis vaziyatlarda esa bu ko‘rsatma dolzarblashadi va amalga oshiriladi.

Psixologiyada gumanistik yo‘nalishning namoyondasi K.Rodgers, suitsidal tendensiyalari o‘limni ideallashtirish, hayotga nafrat paydo bo‘lishi, o‘ziga ishonchning yo‘qolishi natijasida paydo bo‘ladi deb taxmin qilgan. Rodgers fikricha, ushbu holatda “menlik” tuzilish rigid holatda va real hayotiy tajriba u bilan mos kelmasligi, xavfli deb qabul qilinishi, shuning uchun rad etilishi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishidan sodir bo‘ladi[8].

MDH mamlakatlari olmlarining ham bir qator tadqiqotlarida suitsid muammosi bo‘yicha ilmiy ishlar olib borilgan.

A.G.Ambrumovanning ta‘kidlashicha, psixologik inqiroz individda zaruriy ehtiyojlar ko‘rinishidagi frustratsiyani keltirib chiqaradi va frustratsiyaga nisbatan o‘ziga xos shaxsiy reaksiya beradi. Uning ko‘rsatishicha, «suiqasdga moyillik kelajakni konstruktiv rejalashtirishning birdaniga tushib ketishi bilan (ya‘ni umidsizlik darajasi bilan) belgilanadi [8].

A.G.Ambrumova, V.A.Tixonenkolar psixik sog‘lom odamlarda mujassamlashgan suitsidal reaksiyalarning quyidagi asosiy turlarini ajratdilar: [8].

- egotsentrik o‘tish reaksiyasi – shaxsning ahamiyatli vaziyatga javoban qisqa muddatli tez namoyon bo‘ladigan reaksiya;

- ruhiy azoblanish reaksiyasi – odatda achchiqlanish, qat‘iy qarshilik, umidsizlik, norozilik salbiy emotsiyalar kechishining yuqori sur‘ati bilan kechadigan shaklda paydo bo‘ladi;

- salbiy interpersonal munosabatlar reaksiyasi – qadri insonning salbiy munosabati yoki qadr-qimmatli munosabatlarning uzilishi natijasida namoyon bo‘ladi;

- salbiy muvozanat reaksiyasi – hayotda erishilgan yutuqlarni oqilona sarhisob qilishda aks etadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan reaksiyalardan tashqari suitsidal xulq-atvorning aralash va o‘tuvchan ko‘rinishlari ham paydo bo‘lishi mumkin.

Binobarin, turli hududlarida suitsidal xulq-atvorninigi epidemiologik tadqiqotlarini o‘tkazishda V.A.Tixonenko suitsidal reaksiyalarning quyidagi turlanishini taklif etdi: qat‘iy qarshilik; mehr-oqibatga undash; o‘zini-o‘zi jazolash; to‘liq taslim bo‘lishdan voz kechish; jazo, kasallik, azoblanish, o‘limdan o‘zini olib qochish; o‘z jonini fido qilish va hokazo [8].

Mualliflar tomonidan taklif etilgan konsepsiyada ijtimoiy va shaxs omillari, nizo, ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiya, qadriyatlar ustanovkalarining qulashi va suitsidal harakatlar o‘rtasida ketma-ket aloqadorlik mavjud. Bu vaqtda shaxs o‘zining hamma individual xususiyatlari bilan, ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiya sifatida, suitsidal xulq-atvorni anglash negizini tashkil etadi.

Muammoga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘z joniga qasd qilish psixik yoki organik kasalliklar natijasida bo‘lmay, balki shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarining izdan chiqishi yoki buzilishining mahsuli hamdir.

Mashhur, rus suitsidologlari Y.Gilinskiy va P.Yunatskevichlarning ta‘rifi bo‘yicha, "O‘z joniga qasd qilish - qasddan o‘zini-o‘z hayotidan mahrum qilishdir" deb keltiriladi.

S.Avanesov ta‘rifiga ko‘ra, o‘z joniga qasd qilish - bu shaxs tomonidan o‘z-o‘zidan amalga oshirilgan ongli, ixtiyoriy va maqsadli o‘limga erishishdir [5]. Suitsidologiyaning ilmiy rivojlanishiga Platon, Lucretiya, Seneka, D.Yum, D.Kanter (axloq metafizikasi) asarlari bevosita metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Suitsid muammosi ko‘p qirralik jarayon sanalib, turli yo‘nalishdagi tadqiqotchilar ushbu mavzuni yoritishga harakat qilishgan. Masalan, o‘z joniga qasd qilishning ijtimoiy jihatlarini P.F.Bulatsel, M.A.Gubskiy, A.V.Lixachev, N.Muxin, P.Olxin va T.K.Sheinislar o‘z tadqiqotlarida ilmiy jihatdan o‘rganishgan. O‘z joniga qasd qilishning madaniy-antropologik va etnografik jihatlarini V.G.Bogoraz, D.K.Zelenin, A.N. Moxovikovlarning asarlarida o‘z aksini topgan. Ushbu yo‘nalish vakillari o‘z joniga qasd qilishning kelib chiqishidagi eng asosiy omil sifatida madaniy va etnografik omillarning rolini ta‘kidlaydilar.

Psixologik jihatlarini A.G.Ambrumova, T.A.Donskix, Ts.P.Krolenko, S.G.Smidovich, V.A.Tixonenko, Y.I.Gilinskiy, P.I.Yunatskevichlar mazkur muammoni kelib chiqishining ko‘p omilli xususiyatini, shaxsiy xususiyatlari hamda ijtimoiy mohiyatini, o‘z joniga qasd qilishning tashqi ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ko‘proq bog‘liqligini qayd etadi [9].

O‘z joniga qasd qilish xulq-atvori mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o‘z-o‘zini buzuvchi xatti-harakatlarning ekstremal ko‘rinishi sifatida ko‘rib chiqiladi, uning asosiy xususiyati o‘z sog‘lig‘i va shaxsiyatini buzishga ongli moyillikdir.

K. Ozvatning fikriga ko‘ra, o‘z-o‘zini yo‘q qilish xatti-harakati to‘satdan yoki haddan tashqari kuchli stress holatida xatti-harakatlarning individual mexanizmlarining muvaffaqiyatsizligi yoki yetarli emasligining oqibatidir.

O‘z joniga qasd qilish munosabati - bu o‘z joniga qasd qilish fikrlari, niyatlari va salbiy his-tuyg‘ular (depressiya, tashvish, aybdorlik), shuningdek, o‘z joniga qasd qilish harakatlariga tayyorgarlik ko‘rish va amalga oshirish bilan tavsiflangan o‘ziga nisbatan zo‘ravonlik harakatini qilishga potentsial tayyorlikdir. O‘z joniga qasd qilish munosabatlarining shakllanishi, hayotiylikka qarshi kechinmalar va o‘z joniga qasd qilish fikrining paydo bo‘lishi ko‘p hollarda 14-15 yoshda sodir bo‘ladi. Agar o‘z joniga qasd qilishning dastlabki bosqichlarida fikrlar ustunlik qilsa va hissiy xulq-atvor komponentlari kamroq ifodalangan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda o‘z joniga qasd qilish harakatlari ustunlik qiladi.

Bolalar va o‘smirlarda o‘z joniga qasd qilishdan oldingi sindromning mezonlarini quyidagicha bo‘lishi mumkin [Lochel Mi, 1983]:

- o‘z joniga qasd qilish haqidagi fikrlar majmuyi;
- disforik holatlar (xafagarchilik, tushkunlik hissi);
- uyqusizlik, ovqatlanish xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlar, charchoq, vegetativ kasalliklar kabi buzilishlar;

- o‘z joniga qasd qilish haqida aniq g‘oyalar shakllanadi.

Prodromal belgilari bo‘lgan presuitsid sindromining 3 bosqichi mavjud bo‘lib, ular quyidagilar [EnachescuC., RetezeanuA., 1991]:

- ruhiy stress bosqichi;
- chegaraviy vaziyat;
- ruhiy tushkunlik bosqichi.

O‘z joniga qasd qilishni muvaffaqiyatsiz tarzda amalga oshirilishi shaxsning suitsid qilish niyati yo‘ligidan dalolat bermaydi. O‘rganilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mazkur holatni boshidan kechirgan shaxslar ushbu holatni yana takrorlashadi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘z joniga qasd qilgan o‘smirlarning 40 foizi allaqachon ushbu holatni oldin ham turli ko‘rinishlarda takrorlashgan. Birinchi o‘z joniga qasd qilishga urinishdan keyin bir yil ichida o‘z joniga qasd qilish harakatlari 30% hollarda takrorlanadi va 1-2% odamlar o‘z joniga qasd qilish natijasida vafot etadi. O‘z joniga qasd qilishga uringan shaxslarni o‘z fikridan qaytarish mumkin. Sababi inson ko‘p hollarda o‘lishni xohlamaydi, bunday xarakterlardan asosiy maqsad muammoni yechimi deb o‘ylanadi. Takroriy o‘z joniga qasd qilishga urinishlarning oldini olish uchun psixoterapevtik ta’sirlardan foydalanish mumkin [10].

K.Menninger tadqiqotlarida, 7-11-sinflardagi 1621 nafar maktab o‘quvchilarini o‘rganib chiqib, odamlarning 22 foizi o‘z joniga qasd qilish fikri va o‘z o‘limi haqida g‘oyalarga ega ekanligi, 8 foizi namoyishkorona yoki “shantaj” bo‘lgan o‘z joniga qasd qilishga urinishlari, 5 foizi impulsiv o‘z joniga qasd qilishga urinishlarini aniqladi va 2% haqiqiy o‘z joniga qasd qilishga urinishlar bo‘lganligini qayd qildi.

O‘smirlar orasida tugallangan o‘z joniga qasd qilish chastotasi nisbatan past va barcha o‘z joniga qasd qilish harakatlarining 1% dan oshmaydi. Bu yoshdagi o‘z joniga qasd qilish harakatlari ko‘pincha namoyishkorona xarakterga ega va ko‘pincha "o‘z joniga qasd qilish" shantajining xususiyatlarini ko‘rsatishi mumkin.

“Yashama” ko‘rsatmasi alkogolizm bilan bog‘liq suitsidal irsiyatni aniqlashda P.I Kovalevskiy, D.I. Shustov, D. Dj. Bruksbenk, T.Xalsrum, D. Rozenfild tomonidan o‘rganib chiqilgan. 1916- yilda A.F. Koni o‘zining “O‘z joniga qasd qilish” va 1803- yildan 1912- yilgacha “Rossiyaning Yevropa qismida aroqning iste‘mol qilinishi” asarida ta‘kidlaganidek, ichuvchilarning kelib chiqishi badavlat oilalar, bolalar o‘limining yuqori surati bilan farqlanadi. Shunday qilib, ko‘pgina tadqiqotlar natijasi, negativ hayotiy saylashni aniqlashtiruvchi “Yashama” dasturi autoagressiya bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatib o‘tadi.

A.R. Korshunova, depressiv tartibsizliklar va suitsidal urinishlari mavjud bo‘lgan shaxslarda reprezentatsiya munosabatlarining “Men-Boshqa” usulini Rorshax testi, Tematik apperseptiv testi yordamida tadqiq etdi. Natijada, suitsidlar urinishlari mavjud bo‘lgan guruhda integratsiya reprezentatsiyalarining buzilishi, dushmanlik shaklidagi munosabatlar, atrofdagilar bilan hamkorlikda passiv pozitsiya, “devitalizatsiya” (“o‘zini o‘ldirish” va jabrlanuvchi pozitsiyasidan solishtirish) mexanizmi yordamida boshqaradigan, yo‘qotish emotsional tajribasining intensiv kechinmalarining belgilari aniqlangan. Suitsidal urinishlarsiz depressiv tartibsizliklari mavjud bo‘lgan shaxslarda reprezentatsiyalar mazmunini, ko‘proq bavosita muhofaza mexanizmlari bilan boshqaradigan, ajralishning emotsional tajribasi tashkil etadi (xayol surish, ramziy ma‘noda bog‘liqlik munosabatlarini saqlashga yo‘naltirgan, ajralish tajribasini rad etish).

A.M.Sisoyev tomonidan keltirilgan ma‘lumotlarda, sudlangan autoagressantlarda (anamnezda suitsidal urinishlar va o‘ziga jarohat yetkazish) autoagressiyasiz sudlanganlardan farqliroq, o‘zini qo‘lga olishining yuqori darajasi, isteriyaga moyillik, yuqori agressivlik qayd etilgan, bu borada umumiy aqliy imkoniyatlarda katta farqlar aniqlanmagan.

A.V.Boeva, psixonevrologik dispanser bemorlarining klinik va ijtimoiy-psixologik xarakteristikalarini Zunga, Spilberger-Xanin, K.Tomas testi yordamida, suitsidal xulq-atvorning muhim psixologik determinantlari shaxs xarakteristikalari ekanligini aniqladi. Bular, emotsional zaiflik, murosasizlik, mustaqillikka intilish va distimiya. Shu bilan birga, muallifning ta’kidlashicha, “distimiya” omilini belgilovchi, “gipertimlik” va “namoyish etish” parametrlari bo’yicha salbiy ma’nosi, hayotdan ketishning haqiqiylikni tasdiqlaydilar.

N.V.Vereshagina suitsidal urinish va depressiv tartibsizliklari mavjud bo’lgan bemorlarni Rorshax testi yordamida tadqiq etganda suitsidentlarning quyidagi xususiyatlarini aniqladi: xulq-atvorning past darajada o’zini-o’zi nazorat qilishi, impulsivlik, oldindan taxmin qilib bo’lmazlik, yuqori ishonuvchanlik, strategik zahiralarning past rivojlanish darajasi, frustrir kechinmalarning past pog’onasi, ishonch munosabatlarga intilish, hamkorlikka yetarli qobiliyatlari yo’qligida empatiyaning yuqori darajasi. Shu yerda muallif tomonidan ta’kidlanganki, suitsidal xulq-atvori mavjud shaxslar uchun ijtimoiy izolyatsiyaga intilish, refleksiyaning me’yordan ortiq darajasi, o’zini-o’zi negativ idrok qilishi, o’zini-o’zi tanqid qilishi, o’xshashlikning shakllanmaganligi, o’zini olib qochishdek xulq-atvorning turi, depressiv reaksiyalarga moyillik, nochorlik va aybdorlik hissiyoti, me’yordan ortiq aqlli bo’lishi, konseptual rigidlik, murosasizlik, motivatsion zo’riqishning yuqori darajasi bilan tavsiflangan.

A.E.Lichko tomonidan suitsidal xulq-atvor va xarakter aksentuatsiyaning o’zaro korrelyatsion bog’liqligi belgilangan.

A.A.Yavorskiy, o’z tadqiqotlarida harbiy xizmatni o’tagan shaxslarda suitsidal xulq-atvor xususiyatlarini o’rganib chiqib, haqiqiy suitsidal xulq-atvor astenik, shizoid va affektiv shaxslarga xos bo’lishini ilmiy asoslab beradi.

V.V. Nicheporenko ma’lumotlariga ko’ra, askar va serjantlar suitsid holatlarini o’rganib chiqib, u xarakterning urg’ulari tizimida quyidagi turlarni aniqladi: astenonevrik (51%), infantil-voyaga yetmagan (22%), senzitiv (11%), emotsional-bog’liq (9%), chegarlangan-konform (7%). Suitsidal xulq-atvorning shakllanishi uchun eng ahamiyatli shaxs xususiyatlari, V.V.Nicheporenko fikricha, ta’sirchanlik, fe’l-atvorning giperaktiv foni, o’zini-o’zi past baholash, yakkalikka intilish bo’lib kelgan.

G.A.Fastovsov (2004) tomonidan ko’pchilik suitsidentlar uchun ko’ngli noziklik, ta’sirchanlik, oson xavotir paydo bo’lishi, uzoq taxminlar shakllanishida keskinlik, affektiv rigidlik, kechinmalarning pessimistik tus olishi, yashirin geteroagressivlik, kognitiv rigidlik kabi xulq-atvor ko’rinishlari xarakterli ekanligi aniqlanadi [11].

V.V.Logvinenkoning suitsidal urinishlar sodir etgan, muddatli xizmat o’tayotgan harbiylarda kommunikativ bag’rikenglik darajasi va muloqot bo’yicha kasbdoshlarining kommunikativ ustanovkalar xususiyatlarini o’rganishga bag’ishlangan empirik tadqiqotida, suitsidal urinishlar sodir etgan harbiylar boshqalarni baholashda o’zini namuna-etalon sifatida ko’rib chiqmaslik, kasbdoshlarining kamgapligiga javoban o’z his-tuyg’ularini yashirish bilan tavsiflanadi. Bunda, suitsidal urinishlari bor harbiylarda o’zini qabul qilishning past darajasi, yuqori internallik bilan tavsiflanadi.

V.F. Voysex ta’riflagan zamonaviy tadqiqotlarda, “Gaplarni tugatish” Strelyau, Sondi testi, Dj.Kagan metodikasi bo’yicha o’xshash rasmlarni solishtirish yordamida, suitsidentlarda dixotomik fikrlashning ustunligi, affektiv zo’rlilikning yuqori darajasi, affektga moyillik mavjudligi haqida ilgari olingan ma’lumotlar o’z tasdig’ini topgan.

Suitsid muammosi psixoterapevtik, diniy va ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazar jihatidan ko’rib chiqilgan. O’z joniga qasd qilish hodisasi diniy ilmlar tomonidan ham o’rganilgan bo’lib, u barcha dinlarda qoralanadi. Xususan, islom dinida bu hodisaga nisbatan salbiy munosabat bildirilib, jumladan, “Hadis” to’plamlarida ta’kidlanishicha: “Bir kishi o’zini-o’zi jarohatlab o’ldirdi, shunda Alloh-Taolo: Bandam mendan ilgari o’z jonini o’zi oldi, uni men jannatdan mahrum qildim” – deydi.

Umumjahon muammolardan biri hisoblangan o’z joniga qasd qilish hodisasini tadqiq qilishda barcha mamlakatlar qatori respublikamizda ham qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo’lib, ularda suitsid muammosi, shu jumladan, suitsidal xulq-atvorga moyil o’smirlar suitsidini psixiatrik, psixologik va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi.

Xususan, 1989- yilda O’zbekiston hukumati qarori asosida Nizomiy nomli Toshkent davlat Pedagogika instituti “Psixologiya” kafedrasida tashkil etilgan “O’zbek xotin-qizlarining o’zini-o’zi yondirishining ijtimoiy psixologik sabablarini o’rganish” yuzasidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot guruhi va laboratoriyasi xodimlarining olib borgan ilmiy ishlari o’z joniga qasd qilish hodisasini ijtimoiy psixologik jihatdan tahlil qilishga muhim hissa qo’shdi. Ilmiy tadqiqot guruhi a’zolari O’zbekistonda nafaqat xotin-qizlar o’rtasida o’zini-o’zi yondirish sabablarini, balki, umuman, suitsid muammosi, shu jumladan, suitsidal xulq-atvorga moyil o’smirlarni suitsid muammosi yuzasidan ham qimmatli fikr va mulohazalarini ilgari suradilar.

Ilmiy – tadqiqot guruhi tomonidan va professor M.G.Davletshin tahriri ostida chop etilgan “O‘zbekiston sobiq SSRda o‘zbek ayollarining o‘zini yondirishining ijtimoiy psixologik sabablarini o‘rganish” nomli ilmiy metodik tavsiyanoma O‘zbekistonda o‘z joniga qasd qilish ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq qilishga bag‘ishlangan dastlabki yirik asarlardan biri bo‘ldi.

Asarda mualliflar tomonidan o‘zbek xotin-qizlarining o‘zi-o‘ziga o‘t qo‘yish sabablarini ko‘rsatish bilan bir qatorda o‘smirlarda suitsidal xulqning kelib chiqish sabablari, yosh xususiyatlari va kattalar suitsidan farqi va o‘ziga xosligi haqidagi qimmatli fikr va mulohazalarini ilgari suradilar. Jumladan, mualliflar fikriga ko‘ra, yosh inqirozi ma‘lum bir yoshga to‘g‘ri kelib, suitsidal xulqning kelib chiqishiga bu xususiyat alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, tanglik holatlari o‘smirlarda ijtimoiy psixologik moslashishning izdan chiqishiga sabab bo‘lib, ruhiy jarohatlanish holatlarini keltirib chiqaradi. Ruhiy jarohatlanish esa suitsidal xulqning kelib chiqishida eng asosiy sabablardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ruhiy tanglik holatida suitsidal xulq-atvoriga moyil o‘smirlarda ham xuddi kattalar singari o‘zining “Men” obraziga nisbatan bo‘lgan munosabati izdan chiqib, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, natijada nizoli vaziyatga barham berishning to‘g‘ri yo‘li o‘rniga noto‘g‘ri, qaltis va suitsid yo‘lini tanlaydilar. Shuningdek, oilaviy munosabatlardagi turli xil nizolar va oilada bolalar tarbiyasida yo‘l qo‘yilgan nuqsonlar ham suitsidal xulq-atvoriga moyil o‘smirlarda suitsidal xulqning kelib chiqishiga ta‘sir qiladi degan fikr mualliflar tomonidan ilgari suriladi.

E.Usmanov, G‘.Shoumarov, B.Umarov, N.Soginov, U.Kodirov va boshqalarning ilmiy ishlarida ayollar o‘z-o‘zini yoqib yuborishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, bolalar o‘rtasida suitsid omillari, sabablari va turlarining ijtimoiy-psixologik yosh xususiyatlari, O‘zbekistonda suitsid epidemiologiyasining ijtimoiy-psixologik jihatlari o‘rganilgan. I.Maxmudov, B.Botirov, E.Sattorov va S.Axundjanova tomonidan Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi materialida suitsidning huquqiy jihatlari o‘rganilgan [7].

Hozirda Respublikamizda deviant xulqli, og‘ir tarbiyali, suitsidga moyil muammoli o‘smir yoshlar bilan maktab psixologi, pedagoglar jamoasi, mahalla qo‘mitalari, voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari, bolalar psixologlari ish olib borishmoqda. Professor B.M.Umarovning ta‘kidlashicha, 13-17 yosh oralig‘ida sodir etilayotgan jinoyatlarning sababi, asosan, kattalarning bee‘tiborligi, ota-ona va o‘qituvchilar bilan o‘zaro kelishmaslik holati, yoshlarning muqaddam sudlangan shaxslarning salbiy ta‘siriga tushib qolish holati, spirtli ichimliklarga, giyohvandlik moddalari kabilarga berilishi oqibatida kelib chiqmoqda [7].

Psixologik adabiyotlarda o‘smirlarning 11-15 yoshgacha bo‘lgan davri jinsiy yetilish, faol jismoniy o‘shish, shaxs sifatida shaklanish davri deb sifatlanadi. Ayni shu davrda insonlarning fe‘li, ijtimoiy munosabatlari shakllanib, odamlarga va atrof voqealikka bo‘lgan munosabatlari ham yaqqol ko‘zga tashlana boshlaydi.

Z.D.Paluanovanning “Qoraqalpog‘iston respublikasida suitsidning ijtimoiy-psixologik muammolari va ularni oldini olish” nomli nomzodlik dissertatsiyasida Qoraqalpog‘iston Respublikasida ijtimoiy-psixologik muammolarni o‘rganish va suitsidni oldini olish bo‘yicha choralarni ishlab chiqish mexanizmlari, suitsidga ta‘sir etuvchi ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik, ekologik, iqtisodiy va psixologik omillarni tadqiq etgan.

B.M.Umarovning “Suitsidologiya” nomli o‘quv qo‘llanmasida O‘zbekiston sharoitida o‘smirlarning o‘z joniga qasd qilishning ijtimoiy-psixologik jihatlari o‘rganilgan. Unga ko‘ra turli yoshlarda suitsid dinamikasi, motivlari gender jihatdan tahlil qilingan [7].

O‘zbekistonda ilk marotaba Bosh prokuratura tinglovchilari uchun I.I. Maxmudov, B.M. Botirov, E.N. Sattorov, S.A. Axundjanovalar tomonidan “Suitsidologik dalillarga psixologik yondashuv (Qoraqalpog‘iston va Xorazm hududlari misolida)” nomli o‘quv qo‘llanmasi nashr ettirilgan. Mazkur qo‘llanmadan prokuratura xodimlari o‘z kasbiy faoliyatida o‘z joniga qasd qilish mohiyatini psixologik tushunishda samarali foydalanishlari mumkin.

G.A. Qarshiboeva o‘z tadqiqotlarida Jizzax va Namangan viloyatlari ma‘lumotlaridan kelib chiqib, o‘z joniga qasd qilishning viloyat (shahar, qishloq), jinsi (erkak, ayol), yoshi (maktab o‘quvchilari, kattalar), ta‘limiy, oilaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan.

N.J.Xodjaevanning tadqiqotlarida o‘z joniga qasd qilishning tibbiy, klinik, epidemiologik jihatlari ochib berilgan. U o‘z tadqiqotlari natijasida O‘zbekistonda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish maqsadida aholiga psixiatriya yordamini takomillashtirish uchun asos bo‘lgan qimmatli natijalarga erishildi.

G.B.Shoumarov, N.A.Sog‘inov, U.D.Qodirov va Z.D.Palvanovalar tomonidan suitsid mavzusi bo‘yicha amaliy tavsiyalar shakllantirilgan o‘quv qo‘llanma chop ettirilgan [7].

Jumladan, G.Z.Tojiboeva tomonidan maktab psixologining nizoli vaziyatlardagi psixokorreksion faoliyati xususiyatlari o‘rganilgan va ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘smirlar o‘rtasidagi shaxslararo nizolar o‘quvchilar va o‘quv guruhlariga ham salbiy, ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan maktab

psixologlarining o‘smirlar o‘rtasidagi shaxslararo nizolar sharoitidagi ishi shaxslararo nizoning shaxslilikni rivojlantiruvchi salohiyatini maksimal amalga oshirishga va uning salbiy oqibatlarini yuzaga kelishi ehtimolini kamaytirishga yo‘naltirilishi kerak deb xulosa qilingan.

Y.K.Normetova tomonidan sog‘liqni saqlash tizimida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq qilinib, bemorlar sog‘ayishida, shifokorlarning faoliyatida ijtimoiy-psixologik xizmatning o‘rni keng yoritib berilgan. Aholi o‘rtasida psixologik bilimlar targ‘ibotini yo‘lga qo‘yish sog‘liqni saqlash tizimida psixologik xizmatni tashkil etishning muhim elementlaridan biri bo‘lib, odamning psixologik xizmat muassasalariga o‘z vaqtida murojaat qilishlariga zamin hozirlaydi va ularni kasallik ta‘sirida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan bir qator noxush psixologik holatlarni o‘z vaqtida aniqlash hamda davolash imkoniyatini beradi degan xulosalar chiqarilgan.

F.F.Rasulova tomonidan o‘smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari o‘rganilib, agressiyaga moyil o‘smirlar xulq-atvorini psixoprofilaktika qilish va psixokorreksiyalash maqsadida ota-onalar, pedagoglar va psixologlar hamkorlikda samarali ish olib borishning algoritmi ishlab chiqilgan.

G.I.Sattorova tomonidan ilk o‘spirinlar irodaviy sifatlarini psixodiagnostika qilish va psixokorreksiyalash jarayonini takomillashtirish yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan. Muallif psixologlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida iroda diagnostikasiga bag‘ishlangan o‘quv-mashg‘ulot blokini yo‘lga ko‘yish muhimligini e‘tirof etgan.

D.R. Abdumajidova o‘smirlarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash orqali psixodiagnostika va psixokorreksiya tadbirlari samaradorligini oshirish muhim masalalar sarasiga kirishini ta‘kidlab, olib borilgan tadqiqot natijasida o‘smirlar o‘quv faoliyatida assertiv xulqning intellektual (erkin fikrlovchi, axloqiy me‘yorlarga amal qiluvchi), shaxsiy (ma‘suliyat, dadillik, intiluvchanlik) va emotsional (kayfiyat, optimizm) darajalarini aniqlagan. Shuningdek, o‘smirlarda assertiv xulqni shakllantirishga yo‘naltirilgan “O‘smirlarda assertiv xulqni shakllantirish darajasini aniqlash” psixologik trening dasturi samaradorligini isbotlagan.

X.X.Jabborov tadqiqotlari asosida, o‘smirlar o‘rtasida vayronkor g‘oya va buzg‘unchi mafkuralarga nisbatan barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik treninglar o‘tkazish orqali, o‘smirlardagi mafkuraviy immunitet beqarorlik darajalarini baholashning uslubiy ta‘minoti ishlab chiqib, amalda sinovdan o‘tkazdi. Tadqiqot natijasi, barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish ishlarining ilmiy-metodik ta‘minotini kuchaytirishga qaratilgan [12].

O.S.Qodirovning “O‘smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida o‘smirlarda jinoyat motivlari shakllanishini o‘rganish, o‘smirlar xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishida salbiy omillardan himoya qiluvchi (huquqiy ongning shakllantiruvchi) zamonaviy-psixologik mexanizmlar tuzilmasi, o‘smirlarning individual va ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga salbiy ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan “o‘zini tasdiqlash”, “o‘z manfaatlarini boshqalardan ustun qo‘yish”, “o‘g‘rilik”, “bezorilik”, “buzg‘unchilik”, “qasoskorlik”, “o‘z kuchi va jasoratini ko‘rsatuvchi” jinoyat motivlarini oldini olishga xizmat qiluvchi uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan [13].

R.Z.Jumayev olib borgan tadqiqotlarida o‘smirlarda milliy o‘zlikni anglashning psixologik xususiyatlarini tadqiq qilgan. Olim ijtimoiy xulqning ichki, ma‘naviy regulyatori sifatida milliy o‘zlikni anglash xususiyatlarini ishning asosiy maqsadi qilib olgan. Bunda, asosan, o‘smirlar ongida diniy his-tuyg‘u va e‘tiqodning shakllanishi ma‘naviy hayot doirasida muhim ahamiyatga egaligi va ularning ijtimoiy axloqini, xulqini takomillashtiruvchi yoki ulardagi salbiy xulq-atvor shakllanishiga nima sabab bo‘lishini tadqiq qilgan.

G.T.Yadgarovanning «Noto‘liq oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» nomli dissertatsiyasida esa o‘smirlarning ijtimoiylashuvi normal kechishi inson psixikasida barcha jarayonlarga tezlik bilan adaptasiya (moslashuv) hosil qilinishi va mazkur jarayonlarning shaxs xulq-atvoriga ta‘siri ilmiy psixologik jihatdan asoslab beriladi [14].

D.M.Anvarovanning «O‘smirlar ma‘naviyati shakllanishi va rivojlanishining psixologik xususiyatlari» nomli nomzodlik dissertatsiyasida esa o‘smirlarning hissiy-emotsional xususiyatlarni ularning ma‘naviyatini shakllanishi va rivojlanishining psixologik qonuniyatlari va aynan o‘smirlik yoshida kechadigan inqirozli holatlarda shaxsda shakllangan ma‘naviy bilimlar uning ko‘plab salbiy ilatlarga og‘ishishini bartaraf qilishi mumkinligi ilmiy asoslab berilgan.

Mazkur tadqiqotchilar suitsid bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlarni olib borgan bo‘lsalar-da, aynan deviant xulq-atvorli o‘smirlarda suitsidial xulq-atvorni kelib chiqishi va profilaktikasi bo‘yicha konkret ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

Shunday qilib, oʻzini oʻldirish barcha tadqiqotchilar tomonidan shaxsning nizolarni kechirish sharoitidagi ijtimoiy psixologik dezadaptatsiyasi oqibati sifatida qaralgan. Bunda suitsid oʻzida shaxsning favqulotda vaziyatlardagi xulq-atvorining variantlaridan birini namoyon etadi, shu bilan birga, vaziyatning suiqasdga mosligi bilan emas, balki subyektning oʻziga xosliklari, uning hayotiy tajribasi, intellekti, ichki shaxsiy aloqalarining mustahkamligi bilan aniqlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, suitsidial holatlar uchrashi, ularni ijtimoiylashuvi jarayonida maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarining buzilishi singari salbiy tendensiyalar, muhim hayotiy ahamiyatga ega tushunchalarning notoʻgʻri idrok etilishi natijasida vujudga keladigan stixiyali ijtimoiylashuv, shaxslarning oʻzini namoyon qilishga intilishi bilan bogʻliq ravishda shakllanadigan deviant xulq-atvor, dezadaptatsiya kabi sifatarni rivojlanishi uchun xizmat qilishi mumkin.

Nazorat obyektlarida esa mazkur omilga nisbatan adekvatlik va noadekvatlik koʻrsatkichlari orasida salmoqli tafovutlar sezilmadi. Umuman, deviant xulq-atvorli oʻsmirlarda suitsidial holatlarning oldini olishga qaratilgan psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlarning olib borilishi ularning ijtimoiy-psixologik taraqqiyotni taʼminlashga xizmat qilgan ekan.

Adabiyotlar:

1. Daffi. E Child care and the growth of love // Abridged and edited by Frym. –London and Tonbrige, 2019. –P. 104-130.
2. Богомолова С.Н. Психологическая теория преступности Айзенка / С.Н.Богомолова // Юридическая психология/сост.иобщ.редак-цияТ.Н.Курбатовой.–СПб.:Питер,2001.–С.32–45
3. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд. Пер. с франц. М.: Просвещение, 2004. – 375 с.
4. Фрейд З. Мы и смерть // Рязанцев С. Танатология (учение о смерти). СПб.: Восточно-Европейский институт психоанализа, 1994. – С. 5-42.;Freud S.Mourningandmelancholia //HogarthPress, London – 1957.
5. Юнг К.Г. Душа и миф: шесть архетипов. - Киев, 1996. – 384 с.; Юнг К. Г. Структура психики и процесс индивидуализации. — М.: Наука, 1996.-200
6. Хорни К. Наши внутренние конфликты; Невроз и развитие личности // Хорни К. Собр. соч. в 3 т. - М.: Смысл, 1997.
7. Elov Z.S. Oʻsmirlarda suitsidga moyillikni korreksiyalashning psixologik mexanizmlari. Avtoreferat 2023 y.
8. Z.M.Maxmuddova, Z.S.Elov, L.Y.Olimov Deviant xulq-atvor psixlogiyasi. darslik. “Kamolot nashriyoti”. 2022.
9. Elov Z.S. Deviant xulq-atvorli oʻsmirlar shaxsida ruhiy-jinsiy buzilishlar ijtimoiy psixologik muammo sifatida // Taʼlim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy metodik jurnal. –Buxoro: 2023. – №/7
10. Элов З.С. Ўсмир шахсида деликвент ахлоқ – девиант хулқ-атвор шакли сифатида// Таʼлим va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy metodik jurnal. –Buxoro: 2023. – №/6, – В. 376-378.
11. Элов З.С. Девиант хулқ-атворли ўсмирларда суицидал ахлоқ психологияси//Таʼлим va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy metodik jurnal. –Buxoro: 2023. – №/3, – В. 313-318.
12. Элов З.С. Девиант хулқ-атворли ўсмирлар томонидан содир этилаётган ноқонуний хатти-харакатларнинг психологик сабаблари// Таʼлим va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy metodik jurnal. – Buxoro: 2023. – №/2, – В. 292-296.
13. Elov Z.S. Barnoyeva Y.R. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning ijtimoiy psixologik sabablari. Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya. Buxoro – 2023 y.
14. Элов З.С. Девиант хулқ-атворли ўсмирлар орасида суицидал ахлоқ тушунчаси ва илмий таҳлиллар. //Педагогик психологик тадқиқотлар (Илмий амалий журнал). Январь 2023 №1. 170-178

VOYAGA YETMAGANLARDA JINOYAT MOTIVLARI SHAKLLANISHINING EMPIRIK O‘RGANISH TAHLILI

Raxmatov Faxriddin Umarovich,

*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti erkin tadqiqotchisi*

Maqolada voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishining empirik o‘rganish tahlili o‘rganilgan. Mazkur maqolada voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishiga ta’sir etadigan muhim omillarni (tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-psixologik va tarbiyaviy-pedagogik) o‘rganish bilan ularning mohiyati va xususiyatlarini tarbiyaviy-psixologik me’yorlar asosida baholashga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: *yoshlar tarbiyasi, mas’ul bo‘lgan ota-onalar, o‘qituvchi-tarbiyachilar, jamoatchilik, barkamol yoshlar, ustuvor vazifalar, tarbiyasida yuzaga kelayotgan muammolar, kamchiliklar.*

АНАЛИЗ ЭМПИРИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕСТУПНЫХ МОТИВОВ У НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

В статье рассматривается эмпирический анализ формирования преступных мотивов у несовершеннолетних. В данной статье предпринята попытка изучить важные факторы (естественно-биологические, социально-экономические, духовно-психологические и учебно-педагогические), влияющие на формирование преступных мотивов у несовершеннолетних, и оценить их природу и особенности на основе педагогико-психологических норм.

Ключевые слова: *воспитание молодёжи, ответственные родители, педагоги-воспитатели, общественность, всесторонне развитая молодёжь, приоритетные задачи, проблемы, возникающие в их воспитании, недостатки.*

AN ANALYSIS OF EMPIRICAL RESEARCH ON THE FORMATION OF CRIMINAL MOTIVES IN JUVENILES

Empirical study analysis of the formation of criminal motives in minors is studied in the article. In this article, an attempt was made to study the important factors (natural-biological, socio-economic, spiritual-psychological and educational-pedagogical) that influence the formation of criminal motives in minors and evaluate their nature and characteristics based on educational-psychological standards.

Key words: *youth education, responsible parents, teachers-educators, the public, well-rounded young people, priority tasks, problems arising in their education, shortcomings.*

Kirish. Yoshlar tarbiyasi uchun mas’ul bo‘lgan ota-onalar, o‘qituvchi-tarbiyachilar va jamoatchilik oldida barkamol yoshlarni tarbiyalashdek ustuvor vazifalar turgan bir paytda ba’zi yoshlar tarbiyasida yuzaga kelayotgan muammolar, kamchiliklar, xususan xulq-atvorida namoyon bo‘layotgan jinoyat motivlari va unga mos xatti-harakatlarning uchrab qolayotganligi tarbiya uchun mas’ullarni tashvishga solmoqda.

Psixologiya fanlari sohasida erishilgan jahon tajribasining ko‘rsatishicha motivlarning yuzaga kelishi va motivasion yo‘nalganlik ko‘p jihatdan oila tarbiyasi bilan bog‘liqdir. Oilada qaror topgan o‘zaro munosabatlar, uning ta’sirida yuzaga kelgan tarbiya muhiti va farzandlar tarbiyasiga bo‘lgan e’tibor buning asosini tashkil qiladi.

Shu nuqtayi nazardan mazkur maqolada voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishiga ta’sir etadigan muhim omillarni (tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-psixologik va tarbiyaviy-pedagogik) o‘rganish bilan ularning mohiyati va xususiyatlarini tarbiyaviy-psixologik me’yorlar asosida baholashga harakat qildik.

Yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq muammolar, xususan yoshlar xulq-atvorida yuzaga kelayotgan jinoiy xatti-harakat motivlari, ularni yuzaga kelishi va shakllanish sabablari, yoshlar tarbiyasiga, ma’naviyatiga va dunyoqarashiga putur yekazishi bilan bog‘liq oqibatlar va boshqa salbiy natijalar salmog‘ini asoslashga urindik.

Shunga tayanib, biz ushbu paragrafda voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishini ta’minlaydigan salbiy omillarni, jinoiy xatti-harakatlarning shakllanganlik holatini, yo‘nalganligi va ularga

ta’sir ko’rsatayotgan tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy-psixologik omillar hamda shar-sharoitlar ta’sirini o’rganishni tadqiqotimizning muhim maqsadi sifatida belgiladik.

Dastlab, biz voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishini ijtimoiy-psixologik asoslarini aniqlashga yo’naltirilgan ijtimoiy-psixologik so’rovnoma (IPS)ni tayyorladik va undan foydalandik (mualliflar: dots. O.S.Qodirov va tadqiqotchi F.U.Raxmatov).

Asosiy qism. Voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishini tub sabablari va mohiyatini aniqlashga yo’naltirilgan ijtimoiy-psixologik so’rovnoma (IPS) quyidagicha ilmiy-uslubiy tuzilishga ega. «Quyida sizga berilayotgan savollarga o’ylab, o’zingiz aynan to’g’ri deb bilgan sabab va omillarga tayanib aniq javob berishingizni (munosabat bildirishingizni) so’raymiz. Javoblaringiz hayotiy va real voqelikka asoslanib, ilmiy nuqtayi nazardan baholanadi».

Tadqiqot uchun o’rganilayotgan jadvallardagi voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishiga ta’sir etadigan muhim sabablar, omillar va manbalarni aniqlash uchun voyaga yetmaganlar va ularning tarbiyasi uchun mas’ul kishilar tomonidan omillarning ahamiyatiga qarab tanlanishi aytiladi. Ular tomonidan tanlanganlik darajasi (o’rni) 1-o’rin (maksimal) dan 5-o’rin (minimal)gacha belgilandi. Tadqiqot o’tkazilgandan so’ng yoshlarda uchrab qolayotgan jinoiy xatti-harakatlar manbalarini aniqlash uchun yoki belgilarning ahamiyat darajasi (o’rni)ni aniqlash va shunga nisbatan foiz imkoniyatini chiqarish maqsadida biz quyidagi tahlil (formula)dan foydalandik. 1-darajali deb tanlangan belgilar 5 imkoniyatga, 2-darajalilar 4 imkoniyatga, 3-darajalilar 3 imkoniyatga, 4-darajalilar 2 imkoniyatga, 5-darajalilar 1 imkoniyatga ega ekanligini belgiladik.

Ahamiyatiga qarab 1-darajali (5 imkoniyatga ega) deb ko’rsatilgan belgi uchun 100 % (eng yuqori ko’rsatkich) belgilansa, u holda 5-darajali (1 imkoniyatga ega) deb ko’rsatilgan belgi o’z-o’zidan ($100\% : 5=20\%$) 20% ga teng bo’ladi. Agar tadqiqot o’tkazilgan o’smir yoshlardagi jinoyat motivlarini aniqlashga xos manbalar yoki belgilar tanlovda ahamiyatiga ko’ra, 1,59 darajani olgan bo’lsa, unda ushbu ko’rsatkich 1-darajalidan 0,59 daraja pastligini bildiradi. Yoki 5 imkoniyatdan 0,59 imkoniyat chiqarib tashlanadi, natijada 4,41 imkoniyat ($5-0,59=4,41$) hosil bo’ladi. Bir imkoniyat 20 % ga teng bo’lganida 4,41 imkoniyat 88,2 % ($20\% \times 4,41 = 88,2\%$) ga teng bo’ladi. Boshqa manba yoki belgilarning ko’rsatkichlari ham xuddi shu tartibda ishlandi.

1-jadval.

O’smir xulq-atvorida jinoyat motivlari yuzaga kelishining manbalari n=423

№	M A N B A L A R	Tanlov natijalari	
		O’rin	Foiz
1.	Voyaga yetmaganlardagi mavjud ehtiyojlarning qondirilmay qolishi ta’sirida	1	90,8
2.	Hayotiy zarur bo’lgan moddiy va ma’naviy narsalarga o’zi xohlaganidek erishish maqsadida	2	82,9
3.	Tengdoshlari va jamoa orasida o’z mavqeyini saqlash va barqarorlashtirish maqsadida	3	77,6
4.	O’zini namoyon qilish, o’z ta’sirini o’tkazish va o’zini tan oldirish uchun	4	75,6
5.	«Kuchlilik»ni qo’lga kiritish, boshqarishga erishish, o’z mavqeyini orttirish hamda boshqalarga ta’sir doirasini kengaytirish maqsadida	5	65,7

Ijtimoiy-psixologik so’rovnoma (IPS) voyaga yetmaganlar xulq-atvorini aniqlash va atroflicha o’rganishga yo’naltirilgan savollardan tarkib topgan bo’lib (1-jadval), ularning hayoti va faoliyatida ko’proq qaysi motivlar (xususan jinoyat motivlari) yetakchilik qilishi aniqlandi. So’rovnoma shunday tuzilganki, uni tashkil etgan savollar yordamida inson mohiyatini, uni shaxs sifatida shakllanishi va taraqqiyotini ta’minlaydigan tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-psixologik va tarbiyaviy-pedagogik omillarning ta’sir doirasini, ular o’rtasidagi qonuniyatlarning mushtarakligini, zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarning ahamiyatini baholash o’rganildi.

Natijalarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilish shuni ko’rsatdiki, o’rganilayotgan voyaga yetmaganlarning xulq-atvorida jinoiy xatti-harakatlarni shakllanishiga ta’sir ko’rsatadigan motivlardan quyidagilar boshqa omillarga nisbatan ustunlik qilayotganligi aniqlandi.

Mazkur jadvalda bayon qilingan natijalar tahlili bizga voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari yuzaga kelishining sabablari, manbalari va yo’nalganligini aniqlashga doir yaqqol tasavvurga ega bo’lishimiz uchun zarur edi.

Biz o’rgangan respondentlar tomonidan voyaga yetmaganlar xulq atvorida yuzaga keladigan jinoyat motivlarining sabablari (manbalari) ulardagi mavjud ehtiyojlarning o’z vaqtida qondirilmay

qolayotganligining ta'siri natijasi (1-o'rin 90%), sifatida baholandi. Bunda, birinchi navbatda o'smirning ota-onasi, yaqin qarindoshlari, o'qituvchilar va boshqa bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishi uchun mas'ul kishilar voyaga yetmaganlarda kechadigan jismoniy-biologik, ma'naviy-psixologik va tarbiyaviy-pedagogik qonuniyatlarni bilishlari, shunga amal qilib yoshlar tarbiyasida doimiy nazoratda bo'lishlari, tarbiyada o'zgarishlar yoki yutuqlar bo'lganda muntazam kuzatish orqali ularni qayd qilib borishlari, o'smirning keyingi bosqich tarbiyaviy taraqqiyotini ta'minlash va to'g'ri yo'nalish olishi uchun kundalik zarur tarbiyaviy shar-sharoitlarni maslahatli va kengashilgan holda tashkil qilib takomillashtirib borishlari lozim bo'ladi.

Ana shunday tarbiyaviy jarayon va tarbiyaviy bosqichlarda (oilada, maktabda va mahalla-guzarda) voyaga yetmaganlardagi mavjud ehtiyojlarni qondirilmay qolishi yoki bu ehtiyojlarga e'tiborsizlik, loqaydlik, o'zi bo'larchilikka qoldirish ular tarbiyasida qator muammolar shakllanishiga, eng muhimi voyaga yetmaganlar xulq-atvorida ulardagi mavjud qondirilishi zarur bo'lgan ehtiyojlarni “Voyaga yetmaganlarga xos vaziyatdan chiqish” yoki muammoni yechish maqsadida noqonuniy yo'llar bilan, jamiyatda odamlar orasida, xususan voyaga yetmaganlar o'rtasida amal qilib turgan qadriyatlar, urf-odatlar va me'yorlarga (xalq psixologiyasiga) amal qilmay, jinoiy xatti-harakatlarga tayanib, ulardan foydalangan holda amalga oshiriladi (erishiladi). Bunday holatda maqsadga osonlikcha erishish yoki noqonuniy xatti-harakatlarning tez-tez takrorlanib turishi voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishiga asos bo'ladi. Voyaga yetmaganlarda bunday chora va usullarning yuzaga kelishi, takrorlanishi natijasida sterotiplashishi (barqaror sifat va xususiyatlarga aylanishi) voyaga yetmaganlar uchun hayotiy zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy narsalarga o'zi xohlaganidek erishish maqsadini motivatsion tizimini shakllantiradi.

Biz olib borgan tadqiqotlarimiz tahlillariga ko'ra, respondentlarning (2-o'rin, 82,9%) voyaga yetmaganlar xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishining muhim sabablaridan yana biri voyaga yetmaganlar kundalik hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy narsalarga o'zi xoxlaganidek erishish yo'llarini o'zi belgilashidir.

O'smirlik yoshida ko'zga tashlanadigan eng muhim xususiyatlardan biri, bu ularning o'zini-o'zi anglashga bo'lgan e'tiborlarining kuchayishidir. Bu o'rinda o'smir o'zida mavjud bo'lgan, endi yuzaga kelayotgan va yuzaga kelishi kutilayotgan (orzu qilgan) xususiyatlar, sifat va fazilatlariga o'rganadi, aynanlashtiradi, nazorat qiladi, baholaydi va ulardan amaliy turmushida va faoliyatida foydalanib ko'radi. O'zidagi mavjud imkoniyat va imkoniyatsizliklarni yaqinlari, tengdoshlari va boshqa yoshlarniki bilan taqqoslaydi farqlar va imkoniyatlarni baholaydi. Voyaga yetmaganlardagi bu xususiyat tengdoshlari va jamoa orasida o'z mavqeini saqlash va barqarorlashtirish choralarini ko'rishni taqozo etadi. Tadqiqotlarimizda o'rganilgan voyaga yetmaganlarga xos ana shunday xususiyatlar ham ular xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishiga muhim sabab sifatida ta'sir qilishi aniqlandi (3-o'rin 77,6%).

Voyaga yetmaganlarda xulq-atvor rivojlanishining bunday tus olishi, motivatsion yo'nalganlik o'z tengdoshlari va jamoa orasida “o'zini namoyon qilish, ularga o'z ta'sirini o'tkazish va o'zini tan oldirish” munosabat tizimini shakllantirib boradi. O'rganilgan respondentlar tomonidan voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishi uchun ana shunday xususiyatlarning mavjudligi (4-o'rin 75,6%) eng muhim sabablar sifatida e'tirof etilgan.

O'smir xulq-atvorida jinoyat motivlari shakllanishining yuqori bosqichi sifatida yuzaga keladigan “Kuchlilikni qo'lga kiritish, boshqarishga erishish, o'z mavqeini ortirish hamda boshqalarga ta'sir doirasini kengaytirish”ga intilish (5-o'rin 65,7%) jinoiy xatti-harakatlarga tayyorgarlik, yo'nalganlik, natijalarga erishishni ta'minlash bosqichini ham ifodalaydi.

Bu holatlar aynan shunday voyaga yetmaganlar yashayotgan oilalarda ota-ona munosabatlaridagi beqarorlik, tarbiyaviy jarayonlarga yengil-yelpi qarash oqibatida tarbiyaning yaxshi kechmayotganligi, oilaning moddiy va ma'naviy taqsimotidagi kamchiliklar, uzilishlar eng muhimi, oilaviy tarbiyada loqaydlik, beparvolik, o'zi bo'larchilikka qoldirish, e'tiborsizlik holatlarining hukm surishi natijasidir.

Tadqiqotlarimiz maqsadiga ko'ra 1-jadvalda bayon qilingan natijalar tahlili bizga o'smir xulq-atvorida jinoyat motivlari yuzaga kelishining manbalari va yo'nalganligini aniqlash maqsadida yaqqol tasavvurga ega bo'lishimiz uchun zarur edi. Biz shunga tayanib, voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishining asosiy sabablarini aniqlashga harakat qildik. O'zbek milliy-madaniy muhitida shakllanayotgan o'smir yoshlar, ularning ota-onalari, o'qituvchilari, tarbiya uchun mas'ul huquq-tartibot organlari va jamoatchilik bilan voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishining asosiy sabablarini aniqlash maqsadida tadqiqot ishlari olib borildi.

Xulosa.

1. Voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi muammosini tadqiq qilishda hozirgi zamon psixologiyasi amaliyotida samarali qo'llashga mo'ljallangan insonning shaxslilik xususiyatlari, motivatsion yo'nalganligi, hissiy-irodaviy holatlari va individual-tipologik

imkoniyatlarini hamda ularning aqliy, axloqiy-ma'naviy, huquqiy tarbiyalanganlik darajasi va dunyoqarashini o'rganishga yo'nalgan anketa hamda test metodikalaridan foydalanildi. Metodologik pozitsiyalarni birlashtirish esa bugungi kun voyaga yetmaganlarining xulq-atvori, motivasion yo'nalganligi, tarbiyalanganlik darajasi va tarbiyaning istiqbolli andozalarini izchilroq o'rganish imkoniyatini yaratdi.

2. Voyaga yetmaganlarga xos jinoyat motivlarining shakllanishi, yo'nalganligi, mazmuni, mexanizmi, manbalari, boshqa kategoriyalar bilan izchil aloqasi, iyerarxiyasi, ularning faoliyat, xulq-atvor va muomala jarayonida namoyon bo'lishi aynan shu yoshdagilarning turmush tarzi bilan bog'liq bio-fiziologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va tarbiyaviy-psixologik omillar hamda ularni ta'minlovchi zarur shar-sharoitlarga uzviy bog'liqligi aniqlandi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni, 2016 yil 14 sentyabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 37-son, 426-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni, 2008 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. - Toshkent: Adolat, 2017. - 112 b.
5. Jabborov A.M. O'qituvchi etnopsixologiyasi. Qarshi “Nasaf” nashriyoti, 2015, -180 b.
6. Karimova V.M. Yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar. Psix. fan. dok. diss. - T.: ToshDU, 1994. - B.309.
7. Ғозиев Э.Ғ., Жабборов А.М. Фаолият ва хулқ-атвор мотивацияси. Т.: 2003, -124 б.
8. Qodirov O.S.. Umumiy psixologiya // O'quv qo'llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
9. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N.. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, 2023.-346 b.
- 10.Safarovich Q. O. et al. O'quvchilar xulq-atvori profilaktikasida maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sir modeli //Pedagog. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 382-386.
- 11.Safarovich Q. O. et al. Tarbiyasi qiyin o'quvchilarning xulq-atvori bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish masalalari // Pedagog. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 367-371.
- 12.Safarovich Q. O. et al. Teenager child psychology //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 5. – S. 454-462.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

ЎҚИТУВЧИЛАРДА МУЛОҚОТНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ОМИЛЛАРИ

Адизов Бахтиёр Раҳмонович,

Бухоро давлат университети профессори, п.ф. д.

Мақолада ўқитувчиларда мулоқотни шакллантиришнинг педагогик омиллари, шунингдек, ўқитувчининг ўқувчиларга нисбатан қизгин мулоқот қила олиш қобилияти, яъни коммуникатив хусусиятларини ривожлантириб бориш хусусида аниқ илмий ечимлар ва таҳлиллар ва муҳим боғлиқ масалалар ёритилган. Мақолада педагогик мулоқот ва унинг ижтимоий-психологик жараён сифатидаги функциялари ҳамда характеристикаси назарий жиҳатдан тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: мулоқот, жараён, фан, педагогик омил, таълим, интеграция, педагогик мулоқот, педагогик фаолият, функция, касбий-педагогик мулоқот

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАЦИИ У ПЕДАГОГОВ

В статье освещены педагогические факторы формирования общения учителей, а также умение учителя активно общаться с учениками, т. е. развитие коммуникативных особенностей, представлены чёткие научные решения и анализ, а также важные сопутствующие вопросы. В статье в теоретическом аспекте исследованы педагогическое общение, его функции и характеристики как социально-психологического процесса.

Ключевые слова: общение, процесс, наука, педагогический фактор, образование, интеграция, педагогическое общение, педагогическая деятельность, функция, профессионально-педагогическое общение.

PEDAGOGICAL FACTORS OF COMMUNICATION FORMATION IN TEACHERS

The article highlights the pedagogical factors of the formation of teachers' communication, as well as the teacher's ability to actively communicate with students, i.e. the development of communicative features, presents clear scientific solutions and analyses, as well as important related issues. The article investigates pedagogical communication, its functions and characteristics as a socio-psychological process in the theoretical aspect.

Key words: communication, process, science, pedagogical factor, education, integration, pedagogical communication, pedagogical activity, function, professional pedagogical communication.

Кириш. Ўқитувчининг энг муҳим сифатларидан бири унинг ўқувчилар билан ўзаро ҳамкорликда таълим-тарбиявий фаолиятни самарали ташкил қилиши, улар билан мулоқот қила олиши ва уларга жонкуяр, меҳрибон раҳбар бўлишидир. Педагогик-психологик йўналишларда олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишларида, ўқитувчиларнинг сермахсул педагогик фаолиятни амалга оширишлари учун зарур бўлган коммуникатив қобилияти тўғрисида кўплаб фикр ва мулоҳазалар юритилган. Ўқитувчи ўз касбига қизиқмаса, ўқувчиларга нисбатан меҳр-муҳаббати бўлмаса, улар билан қизгин мулоқот қила олиш қобилияти, яъни коммуникатив хусусиятлари ривожланмайди. Узок йиллар давомида педагогика соҳасида олиб борилган тажрибалар шундан далолат берадики, коммуникатив фаолиятда муваффақиятга эришиш учун, ўқитувчининг интеграл фанлар асосларини ва ўқув - тарбиявий ишлар методикасини чуқур билиши етарли эмас. Зеро, у билим ҳамда амалий қўникма ва малакаларини ўқувчиларга фақат жонли ва бевосита мулоқот воситасида бера олади. Ўқитувчи ва ўқувчиларнинг жонли мулоқоти, таълим муассасаларида педагогик фаолиятнинг муҳим шарти ва мазмуни сифатида намоён бўлади.

Инсоннинг хаёт тарзида энг муҳим таркибий восита бўлган мулоқот, ҳар қандай касбий фаолиятнинг барча турларида мавжуд. Бироқ бир қатор касб эгаларида (чунончи, педагог, шифокор ва ҳоказо) у касбий фаолиятга шунчаки ҳамроҳ бўлган оддий омил эмас, балки касбий аҳамият касб этадиган, унинг асосини ташкил этадиган муҳим категория саналади. Бу ҳолда мулоқот инсонлар

ўртасидаги одатий ўзаро ҳамкорлик шакли эмас, балки касбий фаолиятнинг муваффақиятини таъминловчи категория сифатида мавжуддир. Айниқса, педагогик фаолиятда мулоқот муҳим функционал, ўқитувчи учун касбий жиҳатдан аҳамиятли восита саналиб, ўзаро таълим ва тарбиявий таъсир курули сифатида намоён бўладики, бунда мулоқотнинг муҳим шартларига ва қонуниятларига, кўшимча вазифаларига риоя қилишга тўғри келади.

Асосий қисм. Тажрибалар шуни кўрсатадики, ҳар қандай касб эгасининг кишилар билан одатий ўзаро ҳамкорлик тизимида мулоқот гўё, шунчаки ўз-ўзича содир бўлади. Маълум бир мақсадга қаратилган таълим-тарбиявий жараёнда эса, мулоқот ижтимоий вазифага айланади, натижада ўқитувчи педагогик мулоқот қонуниятларини пухта билиши, коммуникатив қобилият ва коммуникатив маданиятта эга бўлиши талаб қилинади. Педагогик касби ўз хусусиятига кўра “инсон-инсон” типидagi касблар сирасига киради ва шунинг учун ҳам мулоқот қила олиш кўникмаси педагог учун етакчи, касбий муҳим кўникмалардан саналади. Педагогнинг ўқувчилар билан олиб борадиган мулоқот ва муомаласига қараб болаларнинг ўқув предметига қизиқиши, демакки, ўқув мотивлари шаклланади. Педагогик мулоқот услуги ўқувчилар томонидан предметли билим, кўникмаларнинг натижавийлиги, шахслараро муносабат маданиятига таъсир кўрсатади, таълим жараёнида ўзига хос ахлоқий-психологик иқлимни вужудга келтиради. Мулоқот шахс ижтимоийлашувининг муҳим шарти саналади.

А.Н.Леонтьев педагогик мулоқотнинг тарбиявий-дидактик аҳамиятини баҳолар экан, куйидаги фикрларни билдиради: фаол педагогик мулоқот-ўқитувчининг, умуман олганда, педагогик жамоанинг таълим-тарбия жараёнида ўқувчиларни билиш ва ўрганиш калити ва ўқув фаолиятининг ижодий характери, ўқувчи шахсининг шаклланиши учун энг яхши шароит яратадиган, таълим-тарбияда мақбул бўлган эмоционал муҳитни таъминловчи, жумладан, рухий психологик тўсиқларнинг пайдо бўлишини олдини оладиган, таълим олувчилар жамоасида ижтимоий-психологик жараёнларни тўғри йўлга солиб бошқаришни таъминлайдиган ва ўқув тарбиявий жараёнда ўқитувчининг ўз педагогик маҳоратидан оқилона фойдаланиши учун имкониятлар яратадиган муҳим воситадир.

Педагогик фаолиятда мулоқот ўқувчиларга замон талаблари асосида таълим бериш вазифаларини ҳал қилиш воситаси, тарбиявий жараёнларни ижтимоий-педагогик жиҳатдан таъминлаш тизими сифатида намоён бўлади.

Педагогик мулоқот ижтимоий-психологик жараён сифатида куйидаги функциялар билан характерланади: шахсни ўрганиш (билиш), ахборот алмашиш ва фаолиятни ташкил этиш. Мулоқотнинг ахборот алмашиш функцияси маънавий бойлик ва янгиликлар билан ўртоқлашиш жараёнини ривожлантириш учун ижобий иштиёқлар, ҳамкорликда ишлаш ва фикрлаш учун шароитлар яратишдан иборат.

Мулоқотнинг энг муҳим функцияларидан бири-ҳамдард бўлишдир. У бошқа киши ҳиссиётларини тушуниши, бошқалар нуқтаи назарини маъқуллаш қобилиятини шакллантириши жараёнида амалга ошади ва жамоадаги муносабатларни меъёрга келтиради. Бунда ўқувчига унинг истакларини тушуниш ва булар асосида ўқувчига таъсир этиш зарурлигини англаш ўқитувчи учун жуда муҳимдир.

В.А.Кан-Калик педагогик мулоқотни муносабатлар ва ўзаро таъсир услублари ташкил этишини таъкидлаб, уларни куйидаги тарзда туркумлайди:

ҳамкорликда олиб бориладиган ижодий ишга бўлган қизиқишга асосланган мулоқот. Ҳамкорликда олиб бориладиган ижодий ишга бўлган қизиқиш асосидаги мулоқотда педагог таълим олувчилар ва ишга нисбатан ижобий ёндашади; дўстона муносабатлар асосида қурилган мулоқот. Дўстона муносабатлар асосида қурилган мулоқот юқорида кўриб чиқилган мулоқот турига яқиндир. Айрим педагоглар дўстона мулоқотни нотўғри тушуниб, чегарадан чиқиб кетишади. Ўқитувчи ва тингловчи ўртасида маълум бир масофа бўлиши керак. Ушбу масофани аниқлашда ўқитувчининг маданияти, педагогик тактик муҳим рол ўйнайди; ўқитувчи ва таълим олувчиларни маълум масофада ушлаб турувчи мулоқот. Маълум масофада ушлаб турувчи мулоқотни ҳам самарарали деб бўлмайди. Шунга қарамасдан, бу кенг тарқалган услубдир. Бунда педагог ва тарбияланувчилар ўртасида маълум чегара мавжуд бўлиб, уларни куйидагича таърифлаш мумкин: “Мен биламан - сизлар билмайсизлар”; “Мени айтганимни қилинлар - менинг ёшим каттароқ, тажрибам кўпроқ, бизни тенглаштириб бўлмайди”. Бу услуб кўпроқ авторитарга яқинроқ бўлиб, у ташқаридан қараганда тартибли фаолиятни амалга оширишга ёрдам бергандай бўлади, лекин юқори самарани бермайди;

Кўрқитишга асосланган мулоқот. Ўқитувчи ва таълим олувчиларни маълум масофада ушлаб турувчи мулоқотнинг юқори даражадаги кўриниши бу кўрқитишга асосланган мулоқотдир. У ўзида таълим олувчиларга салбий муносабат ва авторитар бошқарувни мажассам этади. Ушбу услубни

ёркин ифодаси сифатида қуйидаги гапларни келтириш мумкин: “Кунт билан тингланглар, бўлмаса икки кўяман”, “Ҳали кунларингни кўрсатаман”. Бундай услуб дарс пайтида салбий муҳитни юзага келтиради.

Педагогик мулоқот – бу ўқитувчи ва тарбияланувчиларнинг ўзаро ҳамкорлиги бўлиб, у ўзаро ахборот (энг аввало, ўқув ахбороти) алмашилишга асосланади, педагогик мулоқот шеригининг шахсини англашга, шунингдек, ўзаро ҳамкор фаолиятни амалга оширишга ёрдам беради. Бунда ахборот ҳам вербал (нутқ орқали), ҳам новербал воситалар орқали етказилади.

Ўқитувчининг коммуникатив фаолияти мақсадли фаолиятга нисбатан кўпинча иккиламчи характерга эга бўлади, педагогик меҳнатнинг ўзига хослиги ҳам айнан коммуникатив фаолият унинг асосини ташкил этишидан иборат эканлигидадир.

Педагогик мулоқот ўқитувчи педагогик ижодкорлигининг яхлит тизимида қандай аҳамият касб этади? Педагогик фаолиятнинг муҳим микроэлементлари ностандарт ечимлардан иборат, гарчи ўқитувчи фаолиятида педагогик вазиятлар бир қарашда бир бирига ўхшаш кўринса-да, ўқитувчининг ушбу вазиятлардаги ҳар бир хатти-ҳаракати мутлақо ноёб ва бетакрордир. Ўқитувчининг ижодий педагогик фаолияти таҳлил қилинганда, мукамал шаклга эга бўлган тизимлардан иборат эканлигини кўрамиз:

- ўқитувчининг синфда, ўқувчилар жамоаси билан таълим-тарбиявий мақсадларга қаратилган ижодий тайёргарлиги;

- ўқувчилар билан бевосита ўзаро ҳамкорлик асосидаги ижодкорлик.

Ўқитувчининг педагогик мулоқоти жараёнидаги ижодкорлиги бир нечта кўринишда намоён бўлади:

ўқитувчининг ўқувчиларни мукамал билиш жараёнидаги ижодкорлиги;

улар билан ўзаро ҳамкорлик тизимидаги ижодкорлик;

ўқувчига бевосита таъсирни ташкил қилишдаги ижодкорлиги;

ўз хулқ-атворини бошқара олишда (мулоқотни ўзини-ўзи билган ҳолда бир маромда олиб бориш) ижодкорлик;

ўқувчилар билан ўзаро муносабатларни ташкил қилиш жараёнида ижодкорлик. Модомики, шундай экан, таъкидлаш лозимки, ўқитувчининг мулоқоти касбий-ижодий категория бўлиб, педагогик фаолиятда ўқитувчи томонидан кўплаб коммуникатив вазибаларни ҳал қилиш жараёни ва ижобий натижалар мажмуасидир.

Касбий-педагогик мулоқот асосларини бўлажак ўқитувчи олий педагогик таълим ташкилотларида, қизғин педагогик фаолияти давомида ҳамда ўз-ўзини тарбиялаш жараёнида эгаллаши мумкин. Бунда ўқитувчи қуйидаги муҳим коммуникатив вазибаларни бажаришни мукамал билиши лозим: касбий-педагогик мулоқотнинг узлуксиз жараёнларини ўрганиш қонуниятлари, тизими ва тамойилларини англаб етиш.

Педагогик коммуникацияни таълим-тарбия жараёнида бевосита қўллаш тартиби ва технологияларини эгаллаш. Касбий-педагогик мулоқотнинг кўникма ва малакаларини узлуксиз ўзлаштириб бориш, коммуникатив қобилиятларни ривожлантириш.

Ушбу йўналишлар ўқитувчининг касбий мулоқот кўникмаларини эгаллаш жараёнини тўла таъминлай олади, деб ўйлаш хато бўлади. Умумий ижодий позицияларни ўзининг касбий-педагогик, мулоқот фаолияти тажрибаси билан доимий равишда ўзаро нисбатлаш, ўзи учун унинг тизими, мантиқи, оптимал индивидуал шакллари аниқлаш педагогик мулоқотни эгаллаш буйича олиб бориладиган фаолиятнинг муқаррар шарти саналади.

Ўқитувчининг коммуникатив маданияти – бу унинг ўқув-тарбия жараёни субъектлари билан профессионал-педагогик мулоқотидир. Коммуникатив маданиятнинг зарурий даражаси сифатида шуни белгилаш мумкинки, бунда ўқитувчи ўз тарбияланувчилари ва ҳамкасбларини ижобий қабул қила олади ҳамда таълим ва тарбия мақсадларига эришишни сўзсиз таъминлай олади.

Ҳар бир ўқитувчи учун ўқувчиларга тўғри, омилкор ахборот узатиш ва унга суҳбатдошини ишонтира олиши касбий зарурият ҳисобланади. Бунда ўқитувчининг мулоқот маданияти, маънавий оламнинг кенглиги муҳим аҳамиятга эга. Ўқитувчининг педагогик фаолияти узлуксиздир, шу сабабли у мулоқот маданиятини ҳам мунтазам шакллантириб боришида қуйидаги йўналишларга эътибор бериши лозим:

1) юксак педагогик фаолият нуқтаи назаридаи ўз-ўзини англаши, (муомалада ўзининг ўзаро фикр алмашилишга доир сифатларини, ижобий ва заиф томонларини билиши) ва шу асосда ўзаро фикр алмашиш йўли билан ўз-ўзини тарбиялаши.

2) кишилар билан ўзаро муносабатда коммуникатив иқтидорини шакллантириб бориши, мулоқот асосида башорат қилиш сезгиларини машқ қилдириши, мулоқотда ўзининг идеал

тасаввурларини, имкониятларини бошқалар (ўқитувчилар жамоаси, ўқувчилар, ота-оналар) қандай баҳолаши ҳақидаги рефлексив тасаввурларини таҳлил қилиши.

Ўзида одобнинг муҳим хусусиятларини ривожлантириш юзасидан машқлар асосида ишлаши.

5) ўқувчилар ва ота-оналар билан тарбиявий мақсадларга қаратилган турли жамоат ишларини олиб бориши, бунда ўзаро фикр алмашиш асосида педагогик ташкилотчилик қобилиятини такомиллаштириб бориши.

6) мулоқот жараёнида пайдо бўладиган салбий ҳолатларни енгиш кўникмаларини шакллантириши, дилкашлик ва хушмуомалаликни ривожлантирадиган вазиятлар тизимини яратиши.

Хўш, қандай қилиб ҳамма кутган ва ҳамма учун керакли педагог бўлиш мумкин? Ўқитувчи ва ўқувчилар, уларнинг ота-оналари ҳамда ҳамда касбдошлар ўртасида ўзаро ишонч, бир-бирини тушунишга қандай эришиш мумкин?

Биз педагог-ўқитувчиларга педагогик мулоқотнинг муайян услубларини эгаллаш орқали мулоқот маданиятини такомиллаштиришни тавсия этамиз. Бу борада М.Тален томонидан таклиф этилган модел диққатга сазовордир.

1-МОДЕЛ – “СОКРАТ”. Бу баҳс-мунозара ва савол-жавоблар билан ўқувчини дарсга жалб қиладиган ўқитувчи модели. Доимий конфронтациянинг мавжудлиги туфайли бундай ўқитувчи индивидуаллиги ва нотизимлиги билан ажралиб туради; ўқувчилар ўз позицияларини мустақамлашга интиладилар, уларда ўзининг фикрини баён этиш ва уни ҳимоя қила олиш кўникмалари такомиллашади.

2- МОДЕЛ – “ГУРУҲЛИ МУНОЗАРА РАҲБАРИ”. Бундай ўқитувчи ўқув-тарбия жараёнида ўқувчилар орасида ўзаро мурося ва ҳамкорлик устун бўлишини истади ва шунга интилади. Унинг учун мунозара натижасидан кўра унинг демократик мурося йўлини қидириш муҳимроқ.

3-МОДЕЛ – “УСТА”. Бунда ўқитувчи ибрат олиш учун намуна бўлиб ҳисобланади, ундан фақат таълим жараёнидагина эмас, балки ҳаётга муносабати нуқтаи назаридан ҳам ўрнат олиш мумкин.

4-МОДЕЛ – “ГЕНЕРАЛ”. Бундай ўқитувчи ҳар қандай иккиламчи фикрлардан йироқ бўлади, ўта талабчан, қатъият билан ўқувчиларнинг қулоқ солишларига эришади, у ҳар доим ва ҳамма нарсдан ўзини ҳақ деб ҳисоблайди, ўқувчи эса худди янги чақирилган аскар сингари унинг талаб ва буйруқларига сўзсиз бўнсуниши керак деб билади. Муаллиф (М.Тален)нинг ёзишича педагогик амалиётда айнан шу модел кенг тарқалган экан.

5-МОДЕЛ – “МЕНЕДЖЕР”. Бундай модел шахсга йўналтирилган таълимга асосланган таълим муассасаларида кенг тарқалган бўлиб, унда ўқувчининг самарали фаолияти учун барча шароитлар яратилади, унинг эришган натижалари рағбатлантириб борилади. Ўқитувчи ҳар бир ўқувчи билан ҳал этилаётган топшириқнинг моҳиятини ҳар бир ўқувчи билан муҳокама қилишга, иш натижаларини назорат этиш ва сифатли баҳолашга интилади.

6-МОДЕЛ – “МУРАББИЙ-ТРЕНЕР”. Синфда ўзаро мулоқот корпоративлик руҳи билан суғорилган. Бундай моделда ўқувчилар бир жамоанинг аъзоси, улар алоҳида олганда муҳим аҳамиятга эга эмас, биргаликдаги фаолиятдагина ҳар бири юқори натижани қўлган киритиш мумкин. Ўқитувчи жамоа ишини руҳлантирувчи ва рағбатлантириб боровчи вазифасини бажаради, унинг учун энг асосийси – якуний натижа, ёрқин муваффақият, ғалаба.

7-МОДЕЛ – “ГИД”. Оёқда юрадиган қомус образи. У хотиржам, аниқ ҳаракат қилади. Барча саволларга жавоб ҳам, саволларнинг ўзи ҳам унга олдиндан маълум. Техник жиҳатдан нуқсонсиз, ва айнан шунинг учун ҳам кўп ҳолларда зерикарли бўлиши мумкин.

Хулоса. М.Тален бу таснифнинг асосига алоҳида эътибор беради ва уларнинг ҳаммаси ўқувчининг истагидан келиб чиқиб эмас, балки ўқитувчининг ўз истаги ва имкониятларидан келиб чиқиб танланишига урғу беради. Ўқитувчи фақат ўз коммуникатив маҳоратини эмас, балки ўқувчиларнинг ҳам муомала маданиятини шакллантириш лозим. Ўқитувчи болалар психологиясини яхши билиши, уларнинг ижтимоий қарашларини, ижтимоийлашув жараёнларини пухта билиши талаб этилади. Шунини алоҳида таъкидлаш лозимки, педагогик мулоқот якуний натижага кўра муваффақиятли бўлиши ёки муваффақиятсизликка учраши – бу педагог-ўқитувчининг қандай муомала услубини танлаши ва уни қандай олиб боришига боғлиқдир.

Адабиётлар:

1. Айви А. Лицом к лицу. Практическое пособие для освоения
2. Белогуров А.Ю. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. — М.: МАКС Пресс, 2016. — 116 с.

2. Бриткевич М.С. Инновационный педагогический опыт как фактор профессионального совершенствования учителя в условиях системы повышения квалификации. дисс... кан.пед.наук. – М.: 2018. - 229 с.

3. Головей Л.А., Манукян В.Р., Рыкман Л.В. и др. Профессиональное развитие личности: начало пути (эмпирическое исследование)/ Л.А. Головей, М.В. Данилова, Л.В. Рыкман, М.Д. Петраш, В.Р. Манукян, М.Ю. Леонтьева, Н.А. Александрова. - СПб.: Нестор-История, 2015. -336 с.

4. Бубенов А.В. Коммуникационная культура: Философско-методологический анализ Электронный ресурс.: дис. . канд. философ, наук. М., 2006. URL.: <http://diss.rsl.ru>

OILANING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI HAMDA O‘SMIRLARDA NIZOLAR TO‘G‘RISIDAGI TASAVVURLARNING SHAKLLANISHI

*Ahmadov Shohruh Rahmatullo o‘g‘li,
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*

Mazkur maqolada oilaning ijtimoiy-psixologik muammolari hamda o‘smirlarda nizolar to‘g‘risidagi tasavvurlarning shakllanishi, shuningdek, oilaning ijtimoiy-psixologik muammolari hamda o‘smirlarda nizolar to‘g‘risidagi tasavvurlar masalasining xorijiy mamlakatlarda o‘rganilishi, o‘smirlarda nizolar to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanishiga ota-onalardagi oilaviy ustanovkalarining ta‘siri bilan bog‘liq ilmiy mushohadalar berilgan. Shuningdek, o‘smirlarning o‘z oilasi va oilaviy munosabatlari to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlarini o‘rganish natijalari, o‘smirlarning oilaviy hayot va undagi nizoli vaziyatlarga nisbatan ijtimoiy ustanovkalarini o‘rganish natijalari, o‘smirlarda oilaviy nizolar to‘g‘risidagi tasavvurlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smir, oilaviy nizolar, oilaviy qutblanish, konflikt, ijtimoiylashuv, oilaviy sikl, genogramma, konstruktiv, destruktiv, ijtimoiy-psixologik mavqeyi.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СЕМЬИ, А ТАКЖЕ ФОРМИРОВАНИЕ У ПОДРОСТКОВ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О КОНФЛИКТАХ

В данной статье рассматриваются социально-психологические проблемы семьи и формирование представлений о конфликтах у подростков, а также социально-психологические проблемы семьи и изучение вопроса о представлениях о конфликтах у подростков в зарубежных странах, влияние семейных установок у родителей на формирование представлений о конфликтах у подростков, результаты изучения социальных представлений подростков о своей семье и семейных отношениях, представлены результаты исследования социальных установок подростков в отношении семейной жизни и конфликтных ситуаций в ней, социально-психологические особенности представлений подростков о семейных конфликтах.

Ключевые слова: подросток, семейные конфликты, семейная поляризация, конфронтация, социализация, семейный цикл, генограмма, конструктивный, деструктивный, социально-психологический статус.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF THE FAMILY, AS WELL AS THE FORMATION OF ADOLESCENTS' PERCEPTIONS OF CONFLICT

In this article, the socio-psychological problems of the family and the formation of ideas about conflicts in teenagers, as well as the study of the issue of social-psychological problems of the family and ideas about conflicts in teenagers in foreign countries, conflicts in teenagers scientific observations related to the influence of parents' family institutions on the formation of ideas are given. Also, the results of the study of the social perceptions of adolescents about their family and family relations, the results of the study of the social attitudes of adolescents in relation to family life and conflict situations in it, family conflicts in adolescents socio-psychological characteristics of their perceptions are illuminated.

Key words: adolescent, family conflict, family polarization, conflict, socialization, family cycle, genogram, constructive, destructive, socio-psychological status.

Kirish. O‘zbekistondagi besh milliondan ziyod oilalar va ulardagi shaxslararo munosabatlarning o‘ziga xosligi shundaki, munosabatlarning maromini belgilashda, er-xotin o‘rtasidagi muomalani tashkil etish va o‘ziga kelayotgan avlodni komil inson qilib tarbiyalashda ota-onalardan tashqari, oiladagi katta avlod vakillari, jumladan, buva-buvilarining ham sezilarli roli bor. O‘smir psixologiyasining shakllanishida bundan tashqari, aka, opalar, uka-singillar o‘rtasidagi konstruktiv hamda destruktiv o‘zaro munosabatlar ta‘siri ham mavjudligini olimlar o‘z izlanishlari, monografiya va qo‘llanmalarida alohida ta‘kidlaganlar.

Oilaning ma‘naviy-psixologik muhitini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda oilaviy baxt yoki kelishmovchiliklar to‘g‘risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanganlik darajasi undagi ma‘naviy muhit va oila a‘zolarining sog‘lom fikrlashi darajasiga bog‘liq ekanligi isbotlangan. Biz tanlagan muammoning dolzarbligi o‘smirlik davrining noyoblighi bilan bog‘liq bo‘lib, aynan shu davrda bola ongida shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlar tizimida oilaviy o‘zaro munosabatlarda namoyon bo‘ladigan ziddiyatli, nizoli holatlar, ularning

kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llari to‘g‘risidagi tasavvurlar alohida o‘rin tutadi. Bu tasavvurlar majmuyi shaxsni nafaqat oilaviy o‘zaro munosabatlarda o‘z o‘mini topish va muammoli vaziyatlardan chiqishning optimal yo‘lini belgilashga imkon beradi, balki, o‘smirlik davridan keyingi mustaqil taraqqiyot davrida jamiyat miqyosidagi ijtimoiy munosabatlarga, jumladan, istiqboldagi oilaviy hayotga ham tayyorlaydi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, oilaviy nizolarning ham konstruktiv (ijobiy oqibatli) ham destruktiv (salbiy oqibatli) asoratlari bo‘lib, ularni idrok etishdan hosil bo‘lgan obrazlar o‘smirning ijtimoiy xulqidagi salbiy va ijobiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Aynan shuning uchun ham oilaviy nizolarning namoyon bo‘lishi, shakllari, oqibatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish ijtimoiy psixologiya uchun amaliy ahamiyatga molikdir.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili. Oilaviy hayot psixologiyasi, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi o‘zaro munosabatlar, undagi ziddiyatlar, ajralishlar va uning oqibatlari keyingi yillarda psixologiya fanining keng tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Bu sohada psixolog olimlardan G.B.Shoumarov, M.G.Davletshin, E.G‘oziyev, V.M.Karimova, N.A.Sog‘inov, X.Karimov, F.R.Ro‘ziqulov va boshqalar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Respublikamizning yetakchi psixolog olimlaridan G.B.Shoumarov o‘z tadqiqotlari natijalariga tayanib, oilaning mustahkam bo‘lishi, er-xotinning baxtiyor hayot kechirishlari va tinch-totuv yashashlarida ularning o‘zaro qovushishi muhim rol o‘ynaydi, deb ko‘rsatib beradi. U o‘zaro qovushuvlarni shartli ravishda 3 tarkibiy qismga bo‘linishni e‘tirof etadi.

- biologik
- psixologik
- sotsial qovushuv

E.G‘oziyevning oilaviy hayot muammolari sohasida olib borgan tadqiqotlarida ta‘kidlanishicha, oilaviy munosabatlar turli negiz: iqtisodiy, mafkuraviy, hissiy-irodaviy, axloqiy-aqliy, qarindosh-urug‘chilik, yaqinlik va do‘stlik- birodarlik asosida quriladi. Ana shu negizlar baquvvat oilada er-xotin totuvligi, oila barqarorligi, oilaning baxti va farovonligi ta‘minlanadi.

Oila muhitidagi o‘zaro munosabatlarning asosini tashkil etgan oilaviy rollarga oid tasavvurlar va ularning differentsiatsiyasi o‘zining yosh, hududiy va jinsiy xususiyatlariga ega bo‘lib, ular, avvalo, har bir oilaning ruhiy ma‘naviy muhiti, u yerdagi milliy qadriyatlar, an‘analar, rasm-rusumlar qanchalik saqlanib qolganligiga ham bog‘liqligi asoslab berilgan. Oilaviy nizolarning shakllanishi va ularning buzilib ketishida er-xotin fe‘l- atvorining mos kelmasligi, farzandsizlik, sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi, uning byudjetini oqilona boshqara olmaslik asosiy omillar bo‘lib, ro‘zg‘or ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi, iqtisodiy ta‘minotdagi kamchiliklar, rashk va ishonchsizlik, ota-onalarning er-xotin munosabatlariga aralashuvi, dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi, jinsiy nomoslik kabi omillar ham oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarni kelib chiqarishda muhim o‘rin tutadi.

Ko‘pchilik muvaffaqiyatli oilada tarbiya topgan yoshlar, o‘zlarining bo‘lajak oilaviy hayotlari uchun o‘z ota-onasi oilasini ideal qilib oladilar. Shunday ideal oila qurishni istagan yoshlarning esa turmushlari kutganlaridek kechmasa, moslashish jarayonlarida yuzaga keladigan muammolar oldida esankirab, oila qurishda adashganliklaridan noliy boshlaydilar. Shu sababdan ham er-xotin munosabatlarini faqat yaxshi tomondan ko‘rsataverish emas, balki, bu munosabatlarda uchraydigan, real hayotda mavjud psixologik holatlarni ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shundagina yoshlarimizda oilaviy hayot haqida nisbatan adekvat tasavvur shakllanadi. Yosh oila yuzaga kelganidan so‘ng unda er-xotin munosabatlarining rivojlanishiga xalaqit qiladigan ko‘plab ijtimoiy- psixologik, etnik, hududiy, jinsiy omillar ham mavjud bo‘ladi. Yoshlarga bu psixologik omillar haqida aniq va asoslangan tushunchalar berish lozim bo‘ladi. Bu kabi oilaviy nizolarning oldini olishga asos bo‘ladi. Yana bir jihat esa, oilada oila a‘zolari o‘rtasida bir-birini tushunishning yetishmasligi, hamda ko‘pincha muloqot jarayonida bir-birini tinglashni, anglashni bilmaslikdan nizolar kelib chiqadi. Alohida ta‘kidlash joizki, er-xotin, qaynona-qaynota, kelin-kuyov munosabatlarida, fikrlar va qarashlardagi paydo bo‘ladigan ayrim kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni uni tashkil etuvchi shaxslar o‘zaro kelishib, muammoni konstruktiv tarzda yechishga qodir bo‘lsalar, oiladagi ijtimoiy-psixologik hamda ma‘naviy muhit yosh avlod ongida insoniy munosabatlar to‘g‘risida teran va ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi.

O‘smirlar o‘rtasidagi shaxslararo nizolar muammosining turli jihatlari E.M. Aleksandrovskeya, Y.E.Aleshina va A.C.Konovodova, N.U.Zaichenko, E.G. Zlobina, V.A.Kan-Kalika, D.V.Kolesov va I.F.Myagkova, I.Y.Kulagina, X. Remshmidt, A.B.Tolstix va boshqalarning asarlarida keltirilgan.

Shu bilan birga, o‘smirlarda muammoli vaziyatlarni ularning salbiy oqibatlarining oldini olish uchun konstruktiv hal qilish qobiliyatini rivojlantirish zarurati bilan psixologik-pedagogik sharoit va mexanizmlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi o‘rtasida aniq qarama-qarshilik mavjud. Bu – muammoning yechimi.

Ushbu qarama-qarshilikni hal qilishda psixologik yondashuvlar va ilmiy va amaliy tadqiqotlar muhim rol o'ynaydi, ularning mohiyati A.I. Alekseeva, B.M. Afonkova, M.Y. Kondratyeva, V.N. Lozovtseva, A.B. Mudrika, M.M. Rybakova, A.I. Sorokina, V.B. Tarabaeva va boshqa olimlar. Ushbu sohadagi zamonaviy empirik tadqiqotlar ham o'smirlar nizosining salbiy tomonlarini bartaraf etish usullari va vositalarini izlashga, ham shakllanayotgan shaxsning boshqalar bilan munosabatlarini optimallashtirish uchun yosh bosqichining o'ziga xos xususiyatlaridan samarali foydalanishga bag'ishlangan.

Biroq barcha afzalliklariga qaramay, bu tadqiqotlar yuqorida aytib o'tilgan qarama-qarshilikni to'liq hal qilishga imkon bermaydi. Aksariyat asarlar mavjud o'smirlik mojarolarini qanday hal qilishga qaratilgan. Salbiy hodisalarning, xususan, konfliktlarning buzg'unchi tabiatining oldini olishga, shuningdek, nizolarni konstruktiv hal qilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradigan o'smirlar bilan ishlashning o'ziga xos psixologik usullariga kamroq e'tibor beriladi.

Oilaviy sharoitlarda o'smirlarda konfliktlarni hal qilishning optimal usullarini shakllantirish shartlari quyidagilardir:

- o'smirlarning shaxslararo nizolarning psixologik mohiyatini tushunishi;
- konflikt va ularni qayta ishlash bilan bog'liq salbiy his-tuyg'ularni aniqlash;
- konfliktida konstruktiv xulq-atvorning optimal strategiyasini ishlab chiqish.

Xorijiy mamlakatlarda oila va nikoh muammolarining ortib borishi munosabati bilan, so'nggi yillarda oilaviy masalalar quyidagi ikki yo'nalishda o'rganilmoqda:

a) jamiyat tomonidan oilaga nisbatan alohida munosabatning shakllanayotganligi, ya'ni nasl qoldirish, bolalar tarbiyasi kabi qator ijtimoiy rollar ahamiyatining ortishi;

b) oilada sodir bo'layotgan ayrim salbiy hodisalar, jumladan, oilaviy ajrimlarning ko'payishi, bolalar tarbiyasidagi kamchiliklar, o'zaro munosabatlardagi turli xil nizolar, er-xotin mojarolarini ortishi kabi holatlarning jamiyatga keltirayotgan zararining ortishi kabilar.

Hozirgi paytda xorijda olib borilayotgan qator ilmiy tadqiqot ishlari “Ayol - oila” tizimidagi ijtimoiy-psixologik muammolariga yo'naltirilgan. Yuksak darajadagi taraqqiyot ta'sirida ayollar psixologiyasining ommaviy ravishda o'zgarayotganligi darajasi hamda oilaviy munosabatlar tizimida ro'y berayotgan yangilanishlar oqimini o'rganish, quyidagi ikki yo'nalishdagi tadqiqotlarni o'z ichiga qamrab olmoqda:

- 1) xotin-qizlar mavqeyining professional sohada o'zgarishi va uning oilaviy munosabatlarga ta'siri;
- 2) ayollar xarakteridagi o'zgarishlar oqibatida, uning qarama-qarshi jinsga nisbatan munosabatini o'rganishga qaratilgan maxsus tadqiqotlar.

O'tkazilgan ko'plab tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ayollar erlaridan ko'ra ko'proq oiladagi shaxslararo munosabatlar xarakteriga (erning xushmuomalaligi, qo'llab-quvvatlashi, qo'llamasligi, muloqot shakli va boshqalarga) e'tibor berishar ekan. Shaxslararo munosabatlar xususidagi qarashlarda, ayolning shaxs sifatida o'zini oilada namoyon etish jarayonida unga ta'sir etuvchi omillarning ahamiyati katta ekanligi e'tirof etiladi. Zamonaviy ayollardan, ayniqsa, ularning ichida biror kasb yoki ma'lumotga ega bo'lganlarining o'zini-o'zi baholashi va “Men” obrazlari alohida tadqiqotlar predmeti sifatida o'rganilgan. Natijalarning ko'rsatishicha, bu ayollarda boshqa toifadagilarga nisbatan aqlli, bilimdon, jozibali, muloqotga kirishuvchanlik xususiyatlari kuchliligi aniqlangan (89. 312). Bu holat esa, o'z navbatida, farzandlar ongida turli xil (sog'lom - nosog'lom) munosabatlar to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishiga turtki bo'ladi.

Shunday qilib, er-xotin munosabatlarining shakllanishi, o'zaro munosabatlar tizimida qanday namoyon bo'lishi, avvalo, oilada ayolning professional mavqeyi va ma'lumotlilik darajasiga bog'liqdir. Bu holat mavjud muammo yechimining bir tomoni hisoblanadi. Ma'lumki, oila doimo bolalar tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan jamiyat bo'g'inidir. Shu bois ham, oilaning katta va kichik a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yoritilgan ayrim tadqiqotlar natijalarini nazariy jihatdan tahlil qilish ham bu o'rinda maqsadga muvofiqdir.

An'anaviy oilalarning bosh vazifasi, bu - bola tarbiyasidir. Mohiyatan, mazkur jarayon oilani tashkil etuvchi shaxslarning o'zaro munosabatlari xakteri bilan bog'liqdir. Xorijlik qator mutaxassislar, mazkur muammoni yoritish maqsadida, ijtimoiy mehnatdagi ayol bandligining bola tarbiyasiga ta'siri hamda oiladagi zamonaviy erkak mavqeyini o'rganishga bag'ishlangan muhim ilmiy izlanishlarni olib borishgan. Tahlillar shundan dalolat beradiki, onasi ijtimoiy mehnatda ishtirok etadigan qizlar faolroq, mustaqilroq, maqsadga intiluvchanroq bo'lib, uy bekalarining qizlariga nisbatan raqobatga intiluvchanroq va dadilroqdirlar. Ulardagi shaxs sifatleri feminin xislatlar shkalasi bo'yicha tekshirilganda, ayollik fenomenlari indeksi pastroq ekanligi hamda ijtimoiy hayotning turli vaziyatlariga ko'nikish darajasi osonroq ro'y berishi ma'lum bo'ldi. Shu ayol mavqeining o'g'liga ko'rsatadigan bevosita ta'siri o'rganilganda esa, uning o'ziga xos ekanligi, ya'ni xotin-qizlarga nisbatan yangicha qarash ruhi mavjudligi kuzatilgan. Oilaviy munosabatlar jarayonida esa, an'anaviy ustanovkalardan chekinish aniqlangan (89. 312).

Otaning bolalarga taʼsirini oʻrganishga bagʻishlangan tadqiqotlar natijalarining koʻrsatishicha, zamonaviy erkakning bolalarida shaxs sifatlarini tarbiyalashdagi roli onalarnikidan past boʻlib chiqdi (89. 312).

Hozir paytda muammolarni amaliy jihatdan bartaraf etish borasida ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, chexiyalik olim Stanislav Kratoxvil (89. 312) oʻz qarashlarida, oiladagi kelishmovchiliklarning bosh sababi sifatida, intim munosabatlardagi buzilish va funksional patologiya hodisalarini koʻrsatib oʻtgan. Oʻz tajribasi asosida bunday buzilishlarning oldini olish yoʻlida, zamonaviy psixologiyaning ilgʻor metodlaridan biri hisoblangan trening – oʻrgatish yordamida oilaviy munosabatlarni meʼyorida shakllantirishga harakat qilgan.

Amerikalik psixolog va psixoanalitik Erik Bern (89. 312) oilaviy psixoterapiyaga asos solib, koʻp yillik izlanishlari samarasida transaksion tahlil uslubini yaratdi. Bu uslub yordamida esa, oilaviy oʻzaro munosabatlar tizimi oʻrganildi. Natijalar asosida muallif, psixologik tanglik holatlarini keltirib chiqaradigan oilaviy oʻzaro munosabatlardan iborat klassifikatsiyani yaratdi. U oʻzaro munosabatlarni “oʻyin” deb atab, bu tushuntirish barobarida faoliyatni “halol emas, nohaq”, deb baholagan. Chunki undagi ishtirokchilardan biri boshqalarning magʻlubiyati hisobiga oʻz hukmini uqtiradi.

Soʻzsiz E. Bern formulasi asosida oʻtkazilgan oilaviy treninglar katta amaliy ahamiyatga ega. Lekin, afsuski, u ham er-xotin munosabatlaridagi nizolarning farzandlar ongi (tasavvurlari)ga qanday taʼsir koʻrsatishi mumkinligiga eʼtiborni qaratmagan. Qolaversa, mazkur modelni oʻzga xalqlar psixologiyasi muhitida joriy etish mumkin emas. Fikrimizcha, ijtimoiy-psixologiyaning faol metodlari – treninglar va rolli oʻyinlarni qoʻllashda har bir xalqning milliy rasm-rusmlari, odatlari, didini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Ingliz faylasufi Frensis Bekon qarashlarida, ayrim psixologik omillar inobatga olinganligini koʻrish mumkin. U ijtimoiy tartibsizliklarning moddiy, siyosiy va psixologik shart-sharoitlarini sinchiklab oʻrgangan holda, ularni bartaraf etish yoʻllari toʻgʻrisida oʻz mulohazalarini bayon etgan. Xususan, u ijtimoiy tartibsizlik – nizoning asosiy psixologik omili sifatida “rahbarlarning tilidan chiqqan keskin va achchiq soʻz”, “jamiyat hayotidagi koʻrolmaslik illati”, “jamiyatda odamlar oʻrtasida tez-tez koʻtariladigan va oson tarqaladigan mish-mishlar, yolgʻon yoki boʻhton tashviqotlar” kabilarni alohida eʼtirof etgan.

F. Bekon qarashlarida nizolarning oldini olish, uni bartaraf etishda siyosiy manyovr sanʼati alohida xususiyat kasb etgan. U shunday yozgan: “Odamlarni bir umiddan ikkinchisiga yetaklash – norozilikning oldini oladigan eng yaxshi vosita. Insonlarning ehtiyojlarini qondira olmasalarda, ularni kelajakka faqat umidlar bilan ishontira oladigan, har qanday adovatni oʻz vaqtida orzu va umid uchqunlari bilan yumshata oladigan hukumat oqildir; bu narsa aytarli mushkul emas, zero, shaxslar va baʼzan butun boshli partiyalar oʻz istiqbollariga ishonmasalar-da, baribir, orzu-umidlar toʻgʻrisida ochiq gapirib, oʻzlarini ana shular bilan ovutadilar” (71. 207).

Yangi davr ingliz demokrati va fransuz maʼrifatparvarlaridan D. Pristli, Sh. Monteskye, D. Didro, J. Russo, Volterlar nizolarni koʻproq salbiy jarayon sifatida baholashgan. Ulardan tashqari, I. Kant, T. Gobss, Gegel, T. Maltus, Ch. Darvin, G. Spenser, U. Samner, L. Gumplovich, G. Zimmel, R. Park kabi sosiolog, faylasuf, iqtisodchi olimlarning asarlarida ham mazkur muammo, bevosita jamiyat miqyosida, siyosiy jarayonlar doirasida oʻrganilganligini koʻrishimiz mumkin. Bu esa, oʻz navbatida, tadqiqot predmetini aniqlash va umumiy xulosalar chiqarish jarayonida muhim manba boʻlib xizmat qildi.

Amerikalik amaliyotchi psixolog Charlz Likson, nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi omillar toʻgʻrisida toʻxtalib, muammoning inson psixikasiga salbiy taʼsiri va vaziyatdan chiqishning yetti yoʻlini kitobxonlar hukmiga havola etib: “Nizo – bu hayot normasi”, – deb yozadi. U koʻp yillik advokatlik va amaliyotchi psixologlik tajribasidan kelib chiqqan holda, oilaviy nizolar xususida oʻzining mazmunli fikrlarini bayon etadi. Uning fikricha, oilaviy nizo maʼlum maʼnoda shaxs taraqqiyotini boshlab beruvchi ilk nuqtadir. Shu bois, bunday nizolar pozitiv nuqtayi nazardan baholanishi mumkin (101. 17-104). Zero, nizo yuz berayotgan jarayonda er-xotin hamda bolalarning, unga nisbatan bahosi hamisha salbiy boʻladi.

Likson er-xotin oʻrtasida mavjud nizolarning bolalarda oʻzaro roʻy beradigan hamda ota-onalar bilan farzandlar orasidagi kelishmovchiliklardan farq qilishini alohida eʼtirof etadi. Uning fikricha, er-xotin oʻrtasidagi nizo, asosan, jinsga oid tafovutlarning borligi, doimiy hukmronlik yoki zoʻravonlikka intilish hislarining mavjudligidan kelib chiqadi. Bu holat oilada tarbiyalanayotgan farzandlar ongi va tasavvurlariga ham oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Ota-ona bilan farzandlar orasidagi nizolar esa, koʻproq hissiy-emotsional xususiyat kasb etib, ularning negizida yoshga oid tafovut yotadi (101. 17-104). Yaʼni kattalar oʻzlaridan ancha yosh va kuchsizlar bilan oʻzaro nizoga borishadi. Agar bu holat tez-tez takrorlansa, boladagi mavjud kuchsizlik yoki nochorlik xususiyati keyinchalik bemehrlikka aylanib, ota-onaga nisbatan shafqatsizlik, rahmsizlik tuygʻusining shakllanishiga olib kelishi mumkin. Olimning yozishicha, ota-onalar bilan bolalar oʻrtasidagi nizolar yosh davrlariga monand (jismaniy, fiziologik, psixologik jihatdan) turlicha kechadi. Bu

esa ularni bartaraf etish yo'llarining ham xilma-xil bo'lishini taqozo etadi. Ayniqsa, oilada bo'ladigan aka-uka, opa-singil o'rtasida yoki oilaviy biznes doirasida kelib chiqadigan nizolar taraqqiyotning yosh davrlari bo'yicha farqlanib, ijtimoiy tasavvurlar va ustanovkalarining asoratlari ham har xil namoyon bo'ladi. Aka-uka, opa-singil nizolari yoshlararo tafovut bois, adolatsizlik, tengsizlik, nohaqlik kabi hissiyotlarni keltirib chiqaradi. Bu sharoitda ota-ona bolalariga bir-birini kechirishga, shafqatliroq bo'lishga o'rgatishlari lozim bo'ladi.

Ch. Likson tomonidan olib borilgan izlanishlarning barchasi amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ular mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqib, oilalardagi nizolarning psixologik tizimini yaxlit o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Xulosa. Shuni alohida ta'kidlash joizki, oilaviy turmush masalalari, oila-nikoh muammolari, undagi o'zaro munosabatlar bo'yicha tadqiqot ishlari qanchalik keng miqyosda olib borilmasin, hali ham ularning yetarli darajadagi yechimi masalasi mavjud emas. Oilaviy munosabatlar va uning muhim jihatlari, uning asoschilari bo'lmish er-xotin va unda voyaga yetayotgan farzandlar kamoloti, oiladagi shaxslararo munosabatlar va unda yuzaga keladigan nizolar shakllanish jarayonini ijtimoiy psixologik xususiyatlarini tashkil etadi. Hozirgi sharoitda oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishda oilaviy psixoterapiya vositalari va usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, ular oilaning me'yorli faoliyat ko'rsatishiga, undagi ziddiyatlarning turlari va ularning shakllanish sabablarini o'rganishga, profilaktikasini tashkil etishga hamda shaxslararo munosabatlar muvofiqligini ta'minlashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Shoumarov G.B., Haydarov I.O. "Oila psixologiyasi" o'quv qo'l. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun. 2008 y. "Sharq" nashriyoti.
2. G'oziyev E., Xolmuhammedov M., Ibrohimov X.. Psixologiya metodologiyasi.- T.: "Sharq",2002.- 123 b
3. Vachkov I.V.Guruhda o'qitish texnologiyasi asoslari. Psixotexnika: darslik. 2-nashr, qayta ko'rib chiqilgan. va qo'shimcha - M.: "Os-89" nashriyoti, 2000. - 224 b.
4. Vishnyakova N.F. Mojaro ijodkorlikmi? Mojarolarni boshqarish bo'yicha o'quv seminari. - Minsk: RIVSHIGO, 1996. - 315 p.
5. Koser J.L. Ijtimoiy konfliktning funksiyalari. M.: G'oya - Matbuot, 2000. -208 b.
6. Kozlov A.C. Nizolarni hal qilishda protsessual yordam: osonlashtirish usuli // Amaliy psixologiya. 1998. - No 4. - B. 10-15.

**TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL
MUVAFFAQIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI**

*Allamova Shahista Yuldashboyevna,
Urganch davlat universiteti Pedagogika
va psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi
azizbekyarasev@mail.ru*

Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning intellektual muvaffaqiyatlarini shakllantirishning psixologik asoslarini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, bu borada olib borilgan tadqiqot natijalari berilgan.

***Kalit so'zlari:** o'smirlar, intellekt, muvaffaqiyat, ta'lim, tarbiya, individuallik.*

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ
УСПЕШНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

В данной статье рассматриваются исследования психологических основ формирования интеллектуального успеха учащихся в образовательном процессе, а также совершенствования его специфических социально-психологических факторов, приводятся результаты исследований, проведённых в этой сфере.

***Ключевые слова:** подростки, интеллект, успех, образование, воспитание, индивидуальность.*

**PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMATION OF STUDENTS' INTELLECTUAL
SUCCESS IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

This article discusses the research of the psychological foundations of the formation of intellectual success of students in the educational process, as well as the improvement of its specific socio-psychological factors, and the results of the research conducted in this regard are given.

***Key words:** teenagers, intelligence, success, education, upbringing, individuality.*

Kirish. Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining ahamiyatli bosqichi bo'lmish, umumiy ta'lim tizimida Prezidentimiz tashabbusi bilan bir qator tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Yetuk bilimli va yuksak saviyali kadrlar tayyorlash masalasiga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.02.2023- yildagi PF-27-sonli 2022 — 2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi farmonida ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xududlarda yangi o'rta ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi [1].

Mazkur islohotlar zahirida xalq ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchilar, ayniqsa, hozirgi kunda ta'lim oluvchi o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish masalasi, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ilm-fanning taraqqiyoti, borliqdagi barcha jarayonlar o'zgarib turishi kabi inson intellekti muvaffaqiyatlarining ham evolyutsion tarzda tubdan qayta qurilishiga olib kelgan. Har qanday tuzumdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar inson intellekti muvaffaqiyatlarining yangi qirralarini uzluksiz ravishda ochib boraveradi.

Hozirgi davrda qaysi bir sohani tahlil qilib qaramaylik, uning yuksalishini insonlar intellektining yangi qirralarini shakllantirmasdan, aslo tasavvur qilib bo'lmaydi. Xuddi shu bois, inson intellekt muvaffaqiyatlarini shakllanish, rivojlanish jarayonlari, qonuniyatlari hamda psixologik mexanizmlarini o'rganish bilan psixologiya fanining juda ko'p tarmoqlari shug'ullanadi va hozirgi davrda bu soha ularning eng muhim tadqiqot obyektiga aylangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ijtimoiy-tarixiy hamda psixologik tahlillarga ko'ra, o'quvchilarda intellektning intellektual va irodaviy muvaffaqiyatlarini shakllantirish uzoq ijtimoiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan ko'p qirrali va keng qamrovli tushunchadir. Kishilik jamiyatining taraqqiyot yo'lini, bosqichlarini insonlar hayoti va faoliyatini shaxsning intellekt muvaffaqiyatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ehtimol, dastlabki davrlarda intellekt yoki uning muvaffaqiyatlari ko'rinishi, shakllanishi, rivojlanishi, boshqacha so'z bilan aytganda, yashash sharoitlari ta'siri va insonlarning ehtiyojlarini qondirish bilan uzviy bog'liqdir.

Rus va sobiq sovet psixologiyasi namoyondalari K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, V.M.Myasishev, A.A.Uxtomskiy, D.N.Uznadze, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson, V.S.Merlin, L.I.Bojovich, V.I.Selivanov, V.G.Aseev va boshqalar mazkur muammo yuzasidan tadqiqot ishlari olib borganlar. Insonlarda bilim va tajribaning ortib borishi, turmush tarzining o'zgarishi, o'zaro munosabatlarning takomillashuviga, o'z navbatida, intellekt muvaffaqiyatlari ham rivojlanib, mukammallasha borishga olib kelgan. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida odamlarni yashash uchun kurashi, insonni o'rab turgan borliqni o'rganish, ishlab chiqarish turlarining kengayishi shaxs intellekti muvaffaqiyatlarini ko'pqirrali shakllana borishiga va rivojlanishiga imkon yaratadi[2].

Mamlakatimiz psixologiyasida inson shaxsining intellektual muvaffaqiyatlari shakllanishi jamiyatimiz taraqqiyotining doimo ustuvor vazifasi sifatida qarab kelinmoqda. Mantiqiy nuqtayi nazardan mazkur muammoning hal qilinishi masalasiga quyidagicha tartibda yondashish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

1. O'zbek xalqining milliy va diniy qadriyatlari aks etgan noyob manbalar, etnopsixologiyada inson intellekti muvaffaqiyatlarini shakllantirish va uning ahamiyati yoritilganligi.

2. Buyuk ajdodlarimiz ta'limotida inson shaxsi va intellektning ijobiy sifatlarini rivojlantirish masalarining hal etilganligi.

3. Mamlakatimiz psixologiyasida intellekt va uning muvaffaqiyatlarini shakllantirish muammosi o'rganilganligi darajasi va boshqalar.

Bu sohada mamlakatimiz psixologi E.G'ozievning mazkur psixologik kategoriyaga yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi va original muvaffaqiyatga ega. Ularning mulohazalariga qaraganda, milliy intellekt umuminsoniy intellektning negizidan kelib chiqib, aks ettirishda o'ziga xos tarzda ajralib turadi. Umuminsoniy intellekt kishilarning tabiatga, narsalarga, o'zga odamlarga, o'z-o'ziga nisbatan munosabatlarida nomoyon bo'lib, ijtimoiy shartlangan fazilatlar, xislatlar tarkibiga kiradi. Ularning bayon qilishicha, intellektning shakllanishi mikro, makro va mize muhit ta'sirida amalga oshishi bilan bir qatorda yana eng kamida ikkita omilga, mustahkam manbaga, ya'ni shaxsning o'zini o'zi takomillashtirishiga, ma'naviy mohiyati, vositalari va ruhiy qurollaridan unumli foydalanishga bog'liq ravishda obyektiv va subyektiv tarzda kechadi. Uning ta'kidlashicha, intellektning shakllanishi keng ma'noda olib qaralganda, hayot intiqomlari, tabiat, jamiyat va biologik omillari osoyishtaligi, bir maromdaligi, dinamikligi, statikligi ko'rsatkichlari negizida amalga oshadi.

Tadqiqot ishining metodologik asosi (Research methodology). Ta'lim jarayonida maktab o'quvchilarida intellektning o'ziga xos muvaffaqiyatlarini shakllantirish hozirgi davr nuqtayi nazaridan har bir shaxsning kamolot bosqichi uchun e'tibor talab etadigan muammo sanaladi. Mazkur jarayonning qaysi bosqichida yuqori samara berishi mumkin, degan savol to bugungi kungacha psixologlarni o'ziga jalb etadi. Intellekt to'g'risidagi R.S.Nemov, V.A.Krutetskiy, M.A.Vorobyova va E.G'G'oziyev X.N.Pardayev, Z.K.Xaqnazarov, F.R.Abdurahmonov, Z.E.Abdurahmonova, S.X.Jalilova, F.I.Haydarov, N.I.Xalilova, Z.Yunusxo'jayevlarning ilmiy ishlari tadqiqot ishimizning metodologik asosini tashkil qiladi[3].

O'smirlarda intellektual muvaffaqiyatning uzluksiz ravishda shakllanishini shaxsiy pozitsiyadan kelib chiqqan holda bir qator munosabatlar tizimi orqali baholashga to'g'ri keladi. Bunda, birinchidan, qaysidir o'rinlarda intellekt muvaffaqiyatlarining rivojlanishi muayyan ko'rinish olishi, ikkinchidan, shaxsning muvaffaqiyati tarzida o'rin egallashi lozim, degan mulohaza orqali ushbu holatni uyg'unlashtirish mumkin. Ammo pedagogik jarayonda o'quvchilar shaxsining muvaffaqiyatlarini ko'p jihatdan belgilovchi o'qituvchi va unga mutanosib ravishda o'z xatti-harakatini, xulq-atvorini aniqlovchi sinaluvchining ma'lum vaziyatlarda o'zini o'zi boshqarishini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Biz mazkur holatni pedagogik jarayonda umum ta'lim tizimida o'quvchilarda intellektual muvaffaqiyatlarni shakllantirishning samarali jihatlarini tadqiq etishni lozim topdik. Ushbu muammo yuzasidan ayrim psixologik sifat tahlillaridan namunalar keltirib o'tamiz.

Uzluksiz ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida intellekt muvaffaqiyatlarining shakllanishi to'g'risida so'z yuritilganda bir qator omillarga e'tibor qaratish lozim. Ammo bizning tadqiqot obyektimiz maktab o'quvchilari bo'lganligi sababli ularni o'rganishning ikki ahamiyatli jihatini hisobga olishga to'g'ri keladi. Birinchidan, ular kichik maktab yoshidagi o'quvchilar singari o'quvchilik maqomiga ega bo'lsa, ikkinchidan, ularning oldida maktabni tugatish orqali ta'lim jarayonida ishtirok etishda o'zining shaxsiy fazilatlarini bilan bir qatorda shaxsiy xislatlarini shakllantirishni taqozo etuvchi subyekt faoliyatining gavdalanishi turibdi. Maktab o'quvchilarida intellektning intellektual muvaffaqiyatlarini shakllantirishni muammo sifatida o'rganishimizning mazmun-mohiyatida ham xuddi shu masala ko'ndalang turadi. Chunki, maktabning shart-sharoitida u o'zida dastlabki pedagogik kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lmas ekan, unda shaxsiy namuna sifatida ta'lim jarayonida o'z o'rnini topish yuzasidan o'zi ham jamiyat tomonidan shubha ostida qoladi. Biz shunga o'xshash holatlarni hisobga olgan holda

o‘quvchilarda intellektning irodaviy va intellektual muvaffaqiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan dastlabki aniqlovchi tadqiqot natijalarining tahliliga murojaat etib ko‘ramiz.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqotimizda maktab o‘quvchilarining intellektual muvaffaqiyatlarini o‘rganishning yaxlit metodikalari majmuasi mavjud bo‘lmaganligi sababli ham bir qator shaxsning irodaviy sifatleri hamda intellektual muvaffaqiyatlarini shakllanganlik darajasini aniqlash metodikalarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan tarzda foydalanishni lozim topdik. Bunda A.Alekseev va L.Gromovalarning “Individual tafakkur stili” testi, boshqa shunga o‘xshash bir qator metodikalardan foydalanishni nazarda tutdik. Tadqiqotimizga tatbiq etilgan metodika A.Alekseev va L.Gromovalar tomonidan ishlab chiqilgan “Individual tafakkur stili” testidir. Bu metodika yordamida intellektning intellektual muvaffaqiyatlarini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Mazkur metodika intellektning intellektual muvaffaqiyatlaridan sintetiklik, g‘oyaviylik, pragmatik, analitik, realistik, labillik muvaffaqiyatlarini aniqlashga yordam berdi[4].

Tadqiqotimizda maktab o‘quvchilarida intellektual muvaffaqiyatlarini shakllanganligini aniqlash uchun “Individual tafakkur stili” testidan foydalandik. Bu metodika umum ta‘lim maktabiningning 7-sinfidagi o‘quvchilarda fikrlash faoliyatining o‘ziga xos muvaffaqiyatlarini aniqlashga yordam berdi. Bu metodika yordamida sintetik tafakkur, g‘oyaviylik, pragmatik fikrlash, analitik tafakkur, realistik tafakkur, labillik kabi intellektning intellektual muvaffaqiyatlarini aniqlashga imkoniyat yaratildi.

O‘smirlarda intellektual muvaffaqiyatlarini o‘rganishning umumiy natijalari

Umumiy	1	2	3	4	5	6
Sintetik	45%					
G‘oyaviy		34%				
Pragmatik			23%			
Analitik				44%		
Realistik					12%	
Labillik						33%

O‘quvchilarda aqliy muvaffaqiyatlarning shakllanganligini baholashda quyidagi ahamiyatga ega bo‘lgan korrelyasiya koeffitsientlari aniqlandi: “sintetik” muvaffaqiyatlar 45%, “g‘oyaviy” 34%; bundan ko‘rinadiki, ularning ta‘lim jarayonida o‘quv predmetlarini o‘rganishdagi aniq munosabatlarini shakllantirishga e‘tibor qaratilganligi ular uchun emotsional, utopik va subyektiv momentlarning ahamiyatidan ko‘ra, umumlashtirish natijalarini bir-biriga bog‘lay olish, ularda taqqoslash operatsiyasining o‘sishi muhimroq ahamiyat kasb etganligini ko‘rsatdi. Ammo o‘z o‘rnida pedagogning timsolida muvaffaqiyatlarni shakllanish jarayonida o‘quvchilar subyektiv momentlarni hisobga olishga va emotsional omillar ahamiyatini esa baholashga to‘g‘ri keladi.

O‘quvchilar shaxsida mujassamlashishi kuzatilayotgan “nazariy mulohazalash” o‘z o‘rnida fan taraqqiyotida ilgari surilgan mulohazalarni isbotlashning guvohi bo‘ldi: “g‘oyaviylik” ularning “amaliyotchilik” muvaffaqiyatlarini o‘z-o‘zidan taqozo etmoqda: - “pragmatik”23%; analitik -44% fikrlash qobiliyati mujassamlashganligidan dalolat bermoqda. Korrelyasiya koeffitsientlaridagi bunday ijobiy holatlar o‘quvchilarning pedagog sifatida shakllanishida nazariy mulohazalash bilan amaliy tajribalarga va yaqqol natijalar olishning oson yo‘llariga tayanishni, har bir qilinadigan ish nimagadir qo‘l kelishi lozim tamoyiliga amal qilishlarini ko‘rsatadi. Biroq tatbiq etilgan metodika shakllarining muvaffaqiyatiga ko‘ra, pragmatik mulohaza yuritishga moyil o‘quvchilar xulqida yuzakichilik, betartiblik kuzatilishi mumkinligini izohlaydi. Shuningdek, ularning fikrlashida ayrim voqea-hodisalar tasodifiy holatlarga bog‘liq, degan tamoyilga tayanadi. Tadqiqotdan olingan bunday natijalarga binoan pedagog mutaxassis sifatida bu tarzda fikrlash maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaymiz.

Ularning pragmatik fikrlashi, o‘z navbatida -“analitik”-23%; va “realistik”-12% fikrlash stili bilan uyg‘unlashtira olingan. Bunday psixologik voqelikni ijobiy holat, deb baholash mumkin. O‘quvchilarda amaliy fikrlashning o‘sishi bilan ularda mantiqiy fikrlash, ko‘rilayotgan masalaga tizimli va atroflicha yondashish, uslubiy talqin, muammoni hal etish manyovrlarining shakllanishi; faktlarga tayanish, voqea-hodisalarga o‘zi shaxsan guvoh bo‘lish istagini bildirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalarini tahlil etish jarayonida afsuslanish bilan e‘tibor qaratishga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkich mavjud, ya‘ni o‘quvchilarda “analitik” fikrlash stili tafakkurning labilligi bilan teskari korrelyasiyani hosil qilgan; agar ularda tafakkur labilligida sustlik bo‘lsa, o‘z navbatida, analitik muvaffaqiyatning ham pasayishiga ta‘sir ko‘rsatishi tabiiy holdir. Chunki, tafakkur qilishdagi labillikning zaifligi ta‘lim jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish uchun qiyinchilik tug‘diradi. Demak, o‘quvchilarining intellektida tahlilchanlik

muvaffaqiyati shakllanishida labillikning etishmasligi muhim omillardan biri bo‘lib qolmoqda, deyishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Umum ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual muvaffaqiyatlarini hisobga olmasdan turib, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, mustaqil, ijodiy fikrlovchi, ma’naviyati mukammal shaxsni shakllantirish mumkin emas. Mazkur mavzuga bag‘ishlangan tadqiqotimizning natijasida ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning intellektual muvaffaqiyatlarni shakllantirishning psixologik asoslari, omillari, qonuniyatlari to‘g‘risidagi farazlarimiz tasdiqlandi. Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagicha xulosalar chiqarishga imkon bo‘ldi.

1. Maktab o‘quvchilarida intellektual muvaffaqiyat muvaffaqiyatlarni shakllantiruvchi, samaradorligini ta’minlovchi, ularda o‘zlashtirishning tarkib topishiga salbiy ta’sir qiluvchi pedagogik-psixologik, hissiy-emotsional, tarbiyaviy omillarni hisobga olish ham nazariy, ham amaliy muvaffaqiyatga ega bo‘lgan materiallarni tiplarga ajratishga imkon tug‘dirdi.

2. Tadqiqotda to‘plangan ma’lumotlar tahlilining ko‘rsatishicha, uzoq tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining ijtimoiy-madaniy muhiti, turmush tarzi, madaniyati, ta’lim-tarbiyasi, milliy ongi va o‘z-o‘zini anglashi, qadriyati o‘ziga xosligini o‘rganish ta’lim-tarbiya jarayonida maktab o‘quvchilarida intellektual muvaffaqiyat muvaffaqiyatlarni shakllantirishning psixologik mexanizmlarini aniqlashga imkon berdi.

3. Zamonaviy ta’lim va tarbiyaning inson kamolotidagi o‘rni, o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish qonuniyatlari, o‘qituvchi namunasi, uning psixologik ta’sir o‘tkazishiga qo‘yiladigan talablar aks etgan asarlar maktab maktab o‘quvchilarida intellektual muvaffaqiyatni shakllantirishda samarali material, obyektiv va subyektiv omillarning yaqqol manbai sifatida xizmat qildi.

4. Zamonaviy ta’lim va tarbiyaning o‘smirlar kamolotidagi o‘rni, o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish qonuniyatlari, ilimolishda o‘qituvchi namunasi, uning psixologik ta’sir o‘tkazishiga qo‘yiladigan talablar aks etgan manbalar maktab o‘smirlarda intellektual muvaffaqiyatni shakllantirish orqali komil insonni shakllantirishda obyektiv va subyektiv omillarning manbasi ekanligini ko‘rsatdi.

5. Maktab o‘quvchilarida ta’lim-tarbiya jarayonida intellektual muvaffaqiyatni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi, unumini oshiruvchi, ularda o‘zlashtirishning tarkib topishiga ijobiy ta’sir qiluvchi pedagogik-psixologik, hissiy-emotsional omillarni hisobga olish ham nazariy, ham amaliy muvaffaqiyatga ega bo‘lgan manbalarni mavjudligi namoyon bo‘ldi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2023- yildagi PF-27-sonli 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmoni.

2. Елисеев О.П. Практикум по психологии личности. – СПб.: Питер 2002 – 512 с

3. Jalilova S.X., Haydarov F.I., Xalilova N.I. “Kasb psixologiyasi” o‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2010 y. -25-46-betlar.

4. Jumayev U.S. O‘smirlarda kasb tanlashga munosabat tizimi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixol. f. n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. – T. O‘zMU, 2004.- 185 b.

5. Jo‘rayev N.S. O‘quv motivlarini shakllantirish. – T: TDPU, 2008.- 62 b.

6. Илин. Э.П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер, 2000. – 512 с.

7. Маслоу А. Мотивация и личность. Пер. с англ. СПб.: Питер. 2008. – 352 с.

MASOFAVIY TA’LIM TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI

Atamuradov Jamshid Jalilovich,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

j.j.atamuradov@buxdu.uz, atamuradov727@gmail.com

Zamonaviy ta’limda raqamlashtirilgan ta’lim resurslari hamda raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalarga bo’lgan ehtiyoj kun sayin o’sib bormoqda. Bugungi kunda masofaviy ta’limga alohida ahamiyat beriladi, chunki masofaviy ta’lim o’qituvchilar uchun ham, o’quvchilar uchun ham ham bir qator qulayliklarga egadir. Jamiyatimizni zamonaviy axborotlashtirish sharoitida ta’lim sifatini oshirish, ta’lim sohalarida onlayn ta’lim usullari foydalanib, zamonaviy ommaviy axborot vositalari yordamida boyitish natijasida ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim bozorida masofaviy ta’limda foydalaniladigan tizimlarning asosiy turlari va ushbu ta’lim tizimlarining tavsiflari, hamda ularning ijobiy va salbiy tomonlari haqida bayon etilgan. Masofaviy ta’limda foydalaniladigan zamonaviy LMSlar haqida umumiy ma’lumotlar va qisqacha tasniflari keltirilgan. Maqolada qiyosiy tahlil uchun umumiy mezonlar shakllantirilgan bo’lib, ma’lumotlarga asosanib qiyosiy jadval shakllantirilgan bo’lib maqola yakunida qiyosiy jadvaldan kelib chiqib umumiy xulosalar ham keltirilgan.

Kalit so’zlar: *E-learning, LMS, onlayn platforma, LMS Moodle, LMS WebTutor, REDCLASS Learning, LMS CompetentumMagister, onlayn kurs, masofaviy ta’lim, qiyosiy tahlil, masofaviy ta’lim tizimi, dasturiy ta’minot to’plami, texnologiya.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СИСТЕМ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

В современном образовании потребность в оцифрованных образовательных ресурсах, а также в цифровых технологиях и образовательных платформах растёт с каждым днём. Сегодня дистанционному обучению придаётся особое значение, поскольку дистанционное обучение имеет ряд преимуществ как для учителей, так и для учащихся. Повышение качества образования в условиях современной информатизации нашего общества в результате обогащения с помощью современных средств массовой информации с использованием методов онлайн-обучения в образовательных областях. В этой статье описаны основные типы систем, используемых в дистанционном обучении на современном рынке образования, и описания этих систем образования, а также их плюсы и минусы. Рассматривается краткая классификация современных LMS, используемых в дистанционном обучении. В статье сформулированы общие критерии сравнительного анализа, на основе данных сформирована сравнительная таблица, в конце статьи также приводятся общие выводы на основе сравнительной таблицы.

Ключевые слова: *электронное обучение, LMS, онлайн-платформа, LMS Moodle, LMS WebTutor, redclass Learning, LMS Competentum Magister, онлайн-курс, дистанционное обучение, сравнительный анализ, система дистанционного обучения, программный пакет, технология.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF DISTANCE LEARNING SYSTEMS

In modern education, the need for digitized educational resources, as well as digital technologies and educational platforms are growing every day. Today, distance learning is given special importance, since distance learning has a number of advantages for both teachers and students. Improving the quality of education in the conditions of modern information of our society as a result of enrichment with the help of modern mass media using online learning methods in educational fields. This article describes the main types of systems used in distance learning in the modern education market, and descriptions of these education systems, as well as their pros and cons. Here is an overview and a brief classification of modern LMS used in distance learning. The article formulates general criteria for comparative analysis, a comparative table is formed on the basis of the data, and general conclusions based on the comparative table are also given at the end of the article.

Keywords: *e-learning, LMS, online platform, LMS Moodle, LMS WebTutor, redclass Learning, LMS Competentum Magister, online course, distance learning, comparative analysis, distance learning system, software package, technology.*

Kirish. Yurtimizda hozirgi vaqtda ta’lim va tarbiyaning zamonaviy texnologiyalariga sifat jihatidan jadal o’tish uchun jiddiy obyektiv asoslar shakllantirildi, chunki bugungi kunda ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi innovatsion jarayonlarning o’zi ham ta’limda tub o’zgarishlarni talab qilmoqda. Ertami-kechmi yurtimizdagi ta’lim muassasalarida bu jarayonga qo’shilmagan birorta ham o’qituvchi-pedagog yoki pedagogik faoliyat bilan shug’ullanayotgan biror kishi chetda qolmaydi. 2020- yilda boshlangan global pandemiya davrida Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining tashabbusiga asosan mamlakatimiz oliy o’quv yurtlari masofaviy ta’limga o’tdi va 2020-yil 27-martdan O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limni joriy etish to’g’risidagi 233-sonli buyrug’iga asosan masofaviy ta’limga o’tish jarayoni boshlandi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28- yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan sohada samarali foydalanish maqsadida O’zbekiston Respublikasi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 599-sonli “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Qarori O’zbekistonda masofaviy ta’limni yangi bosqichga chiqardi.

Hozirgi davrda ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish sharoitida ta’limning yangi shakliga ehtiyoj paydo bo’ldi. Ushbu shaklga bo’lgan zamonaviy talablar maktab o’quvchilari, ayniqsa, o’rta maktab o’quvchilari va nogiron bolalarni o’qitishda, shuningdek, ishchilarning malakasini oshirishda va ularning geografik joylashuvidan qat’i nazar, o’z-o’zini tarbiyalashda ifodalanadi. Bunda bizga elektron ta’lim degan tushuncha juda katta yordam berishi mumkin. Elektron ta’lim-bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining muhiti va ta’lim muhiti o’rtasidagi bog’liqlikdir. Elektron ta’limni tushunish mukammal rejalashtirilgan va tashkil etilgan o’quv muhitining asosi bo’la oladi, ammo hech bir holatda bunday ta’lim mavjud pedagogik modellar va standartlarni almashtira olmaydi. ELearning-bu ta’limni qo’llab-quvvatlash uchun axborot texnologiyalari tomonidan taqdim etiladigan ta’lim shaklining zamonaviy vositasidir. Boshqacha qilib aytganda, u bilim olish uchun imkoniyatlarni kengaytiradi. Elektron ta’limning katta afzalligi masofalarni yo’q qilish va vaqt moslashuvchanligini joriy etish orqali har qanday rasmiy va norasmiy to’siqlarni olib tashlash imkonini yaratadi. Bugungi kunda elektron ta’lim zamonaviy hayotimizda muhim rol o’ynaydi, aniq bilimlarni taqdim etishdan tortib, kasbiy tayyorgarlikka qadar, nafaqat odatdagi ta’lim formatidagi talabalar uchun, balki o’quv ishtirokchilarining barcha toifalari uchun (ish paytida o’qish, yangi kasblar uchun malaka oshirish) bir qator vazifalarni bajaradi. Shunday qilib, masofaviy ta’limni qo’llash mamlakatda va birinchi navbatda, nogironlar, imkoniyati cheklanganlar hamda sport maktablari uchun ta’limni rivojlantirishga yordam bera oladigan asosiy vositalardan biri bo’la oladi. Masofaviy ta’limning aniq afzalliklariga qaramay, ishtirokchilarning aksariyati ushbu ta’lim shakli bilan amaliy tajribaga ega emasligi bilan bog’liq aniq muammolar yuzaga kelish ham tabiiy holdir: o’quvchilarning vaqtni rejalashtira olmasligi; o’qituvchi bilan cheklangan shaxsiy aloqa; o’quv materiallarini talabchanlik bilan tayyorlash.

Tadqiqot obyekti. O’quv muhitini shakllantirishni osonlashtirish uchun kunimizdagi ta’lim bozorida turli xil masofaviy ta’lim platformalari mavjud. Ular virtual tarzda ta’lim faoliyatini qo’llab-quvvatlashga qodir bo’lgan o’zaro ta’sir kanallaridan foydalangan holda o’qitish usullarini ishlab chiqish uchun texnologik va pedagogik vositalarni o’z ichiga oladi. LMS-bu o’quv va o’qitish jarayoni ustidan to’liq nazoratni ta’minlash imkonini bera oluvchi dasturiy ta’minotdir. Bunday tizim o’quvchilarni ro’yxatdan o’tkazish, kataloglardagi yaratilgan kurslarni tartibga solish, o’quvchirning yutuqlarini kuzatish va o’qituvchi yoki guruh rahbariga qilingan barcha ishlari to’g’risida hisobot berish imkoniyatini beradi, shuningdek, bunday platformalar nafaqat o’quv materiallarni yaratish va saqlashga, balki ularni turli xil bilim sohalarida va turli xil o’quvchi va foydalanuvchilar tomonidan qayta ishlatishga imkon beradi. Bunday qayta ishlatiladigan obyektlarga matn, taqdimotlar, animatsiyalar, rasmlar va boshqalar kiradi.

Bugungi kun ta’lim talablaridan kelib chiqib zamonaviy ta’lim platformalariga ham ma’lum bir qator talab va standartlar qo’yilganligi sir emas. Bunday standartlarning asosiylaridandan biri bu SCORM standartidir. Masofaviy ta’lim tizimlari orasida SCORM standartiga muvofiqlik asosiy mezon hisoblanadi. Sharable Content Object Reference Model (SCORM) masofaviy ta’lim tizimlari uchun ishlab chiqilgan spetsifikatsiyalar va standartlar to’plamidir. SCORM standartlarida o’quv materialini tashkil etish va masofaviy ta’limning butun tizimiga qo’yiladigan talablar mavjud. SCORM standartlari masofaviy ta’lim tizimlarida komponentlarning mosligini va ularni qayta ishlatish imkoniyatini ta’minlashga imkon beradi. O’quv materiali kim, qaerda va qanday vositalar bilan yaratilganligidan qat’iy nazar, turli o’quv kurslariga kiritilishi va masofaviy ta’lim tizimi tomonidan ishlatilishi mumkin bo’lgan alohida kichik bloklar bilan

ifodalanadi. Buning yordamida ta’lim obyektlaridan turli xil masofaviy ta’lim tizimlarida foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot maqsadi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslangan holda ushbu maqolamizda ta’lim jarayonida joriy etilishi mumkin bo’lgan bir qator zamonaviy masofaviy ta’lim platformalarini solishtirib qiyosiy tahlil o’tkazishga qaror qildik va va qiyosiy tahlil uchun o’quv jaronidan kelib chiqqan holda tahlil mezonlari ishlab chiqildi.

Qiyosiy tahlil natijasida ta’lim jarayonida qo’llanilishi mumkin bo’lgan masofaviy ta’lim platformalarning qaysi biri joriy etilganda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish imkoni yuqoriroq ekanligini bilib olishimiz mumkin bo’la oladi va shunga asoslanib tegishli xulosalar beriladi.

Moodle masofaviy ta’lim tizimi

LMS Moodle – masofaviy ta’limda ta’lim kurslarini yaratish va ulardan foydalanishga mo’ljallangan masofaviy ta’lim muhiti. Imkoniyatlari bo’yicha Moodle ta’lim bozorida taniqli tijorat ta’lim jarayonlarini boshqarish tizimlari bilan taqqoslanadi, shu bilan birga u ochiq kodli bo’lib kodlarni tarqatilishi bilan bozorda ijobiy taqqoslanadi. Bu hususiyati tizimni o’ziga mos funksiyalarini dasturlashga imkonini beradi. Har bir ta’lim loyihasi, uni yangi xizmatlar bilan to’ldirish imkonini beradi.

eLearning serveri masofaviy ta’lim tizimi

– **LMS eLearning Server** - bu vosita Internetda masofaviy ta’lim markazlarini yaratish imkonini beruvchi dasturiy ta’minot bo’lib, masofaviy ta’lim jarayonini tashkil etish bo’yicha keng ko’lamli vazifalarning bajarilishini ta’minlay oladi.

Serverdagi o’quv tadbirlari o’quv jadval shaklida tartibga solinib, bu o’quv materiallari, topshiriqlar yoki treninglar, qo’shimcha aloqa vositalari va boshqalarning vaqt bo’yicha tartiblangan ketma-ketligini tashkil etadi.

REDCLASS Learning masofaviy ta’lim tizimi

REDCLASS Learning masofaviy ta’lim tizimi - bu sizga masofadan turib o’qish, malaka oshirish, inson faoliyatining barcha sohasidagi bilimlarni nazorat qilish, shuningdek, o’quv muassasalarining dasturiy mahsulotlardan, uskunalar va texnologiyalardan foydalanish va boshqarish bo’yicha amaliy ko’nikmalarni rivojlantirish imkonini beruvchi dasturiy-texnik vositalar, o’quv materiallari va o’qitish usullari to’plamidir.

WebTutor masofaviy o’qitish tizimi

WebTutor tizimining "Masofaviy ta’lim" moduli - elektron o’quv kurslari yordamida foydalanuvchilarni o’qitish jarayonlarini rejalashtirish o’tkazish va natijalarini tahlil qilish, shuningdek, talabalar, o’qituvchilar, ekspertlar va tizim administratorlar o’rtasida aloqa va axborot almashinuvini ta’minlash imkonini beradi.

Tizim tarkibiga elektron kurslarning asosiy muharriri tashkil topgan bo’lib, bu muharrir matnlar, illyustratsiyalar, hujjatlar va portal obyektlari, shu jumladan, multimedia resurslariga havolalarni o’z ichiga olgan, hamda ixtiyoriy miqdordagi bo’limlar va hujjatlardan iborat kurslarni yaratish imkonini beradi. [4]

Competentum Magister masofaviy ta’lim tizimi

Competentum Magister masofaviy ta’lim tizimi - o’rta, o’rta maxsus va oliy o’quv yurtlari uchun mo’ljallangan ta’limni boshqarish tizimi. Competentum MAGIST elektron ta’lim texnologiyalarini ham kunduzgi, ham sirtqi va masofaviy ta’limda joriy etish imkonini beradi.

Competentum Magister masofaviy ta’lim tizimi Internet yoki lokal tarmoq orqali o’quv jarayonini tashkil etish uchun maxsus ishlab chiqilgan to’liq funksional yechimdir. Tizim multimediali o’quv materiallarini tayyorlash, o’quv jarayonini rejalashtirish va monitoring qilish uchun qulay vositalarni, ko’rsatkichlarni tahlil qilishning ishlab chiqilgan mexanizmini, shuningdek, imkoniyatlari bo’yicha boshqa LMSlarga o’xshashi bo’lmagan intellektual test tizimini o’z ichiga oladi. Competentum Magister yordamida ta’lim muassasasi talabalar yoki maktab o’quvchilarini yashash joyidan qat’i nazar, individual o’quv rejasi bo’yicha tayyorlashni tashkil qilishi mumkin. Talabalar tizimga kirish uchun qo’shimcha dasturiy ta’minotni sotib olishlari shart emas - ularga tarmoqqa ulanish va Internet Explorer yoki Mozilla kabi web-brauzerlar kerak bo’ladi.

Masofaviy ta’limni qo’llab-quvvatlash dasturlarini qiyosiy tahlil qilish mezonlari.

Tadqiqot metodi. Masofaviy ta’limda foydalanishi mumkin bo’lgan beshta eng mashhur va yuqori talab dasturiy mahsulotlar ko’rib chiqildi va ularning asosiy funksiyalari tavsiflandi. Dasturiy vositalarni qiyosiy tahlil qilish mezonlari ajratildi. Ushbu mezonlarning har birida turli funksiyalar to’plamiga ega bo’lgan juda ko’p dasturiy mahsulotlar mavjud. Qiyosiy tahlil jadvalida masofaviy ta’limni o’tkazish uchun foydalaniladigan dasturiy ta’minotning besh turi ko’rib chiqildi - bular LMS Moodle, LMS eLearning Server, LMS REDCLASS Learning, LMS WebTutor, LMS Competentum magister. Ushbu tizimlarning barchasi SCORM standartiga mos keladi.

Qiyosiy tahlil uchun quyidagi mezonlar tanlangan:

1. litsenziya turi;
2. arxitektura turi;
3. modullarning mavjudligi;
4. tinglovchilarni o‘z-o‘zini ro‘yxatga olish;
5. tizim foydalanuvchilarining tashriflari jurnalining mavjudligi va ularni nazorat qilish;
6. hisobot berish funksiyasining mavjudligi;
7. nazorat vazifalari jadvalini ko‘rish imkoniyati;
8. tinglovchining elektron portfelining mavjudligi;
9. tinglovchilar uchun aloqa vositalarining mavjudligi (chat, forum);
10. elektron doskaning mavjudligi;
11. Internet-konferensiyalarni o‘tkazish imkoniyati;
12. dasturlash tillarini bilmasdan ma’ruzalar, testlar, nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish imkoniyati;
13. tizimdagi tinglovchilar soni;
14. dizaynni o‘zgartirish funksiyalarining mavjudligi;
15. Internetda LMS bilan veb-sayt manzili (URL).

1-jadval. LMSlarning qiyosiy tahlili

Mezonlar tizimi	LMS WebTutor	LMS Competentum. magister	LMS eLearning Server	LMS REDCLASS Learning	LMS Moodle
Litsenziya turi	tijorat	tijorat	tijorat	tijorat	bepul
Arxitektura turi	Yopiq	Yopiq	Yopiq	Yopiq	Ochiq
Modullarning mavjudligi	Administrator, tinglovchi, boshqa modullar qo‘shimcha ravishda sotib olinadi va birlashtiriladi	Administrator, talaba, o‘qituvchi (tyutor)	Talabalar, o‘qituvchilar, ta’lim boshqaruvi texnik administratsiyasi	Boshqaruvchi, administrator foydalanuvchi	Administrator talaba o‘qituvchi
LMS veb-sayti orqali talabalarni ro‘yxatdan o‘tkazish	-	-	+	+	+
Nazorat jurnali mavjudligi va foydalanuvchi nazorati	+	+	+	+	+
Kurs bo‘yicha o‘quvchilar ma’lumotlarini boshqarish	-	-	+	+	+
Hisobotlarni shakllantirish	+	+	+	+	+
Tizim kontentini tahrirlash	+	-	+	+	-
Nazorat vazifalari jadvalini ko‘rish imkoniyati	+	-	+	+	+
Tinglovchilarning elektron muloqoti	+	+	+	+	+
Internet-konferensiyalarni	-	+	+	-	+

i o'tkazish xizmati					
Ma'ruza, test va nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish	+	+	+	+	+
O'rganuvchilar soni cheklovi	cheklanmagan	Enterprise versiyasida cheklanmagan	cheklanmagan	cheklanmagan	cheklanmagan
Tizimning bazaviy dizaynini o'zgartirish	-	+	-	+	+
URL	http://www.webssoft.ru	http://competentum.ru	http://www.learnware.ru	http://www.redcenter.ru	http://moodle.org

Olingan natijalar tahlili. Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, LMSlar bir-birilariga o'xshashdir, chunki ularning barchasi bitta funksiya, ya'ni masofaviy o'qitish uchun ishlab chiqilgan. Tizimlar o'quv jarayonini boshqarish uchun zarur bo'lgan vositalar to'plamini ifodalaydi. O'quv kurslarini yaratish modullari, dekanat vazifalari va boshqa qo'shimcha komponentlar yaratilgan. Masofaviy ta'lim tizimlarining qiyosiy tavsiflariga asoslanib, tijoriy LMS bo'lgan "eLearning Server" va erkin tarqatiladigan LMS "Moodle" ning asosiy afzalliklarini ta'kidlab o'tishimiz mumkin:

- ko'p sonli rollarning mavjudligi;
- sayt orqali tinglovchilarni o'z-o'zini ro'yxatdan o'tkazish;
- kurslar bo'yicha ma'lumotlarni boshqarish (guruhlarining mavjudligi, o'qitish tartibi, davomiyligi, o'quv rejasi va boshqalar)mumkinligi;

- Internet-konferensiyalarni o'tkazish xizmatining mavjudligi;

- tinglovchining elektron jildini shakllantirish imkoniyatining mavjudligi.

Taqdim etilgan imkoniyatlar darajasi bo'yicha Moodle taniqli tijorat LMSlar bilan taqqoslarni ko'tara oladi, shu bilan birga, u ochiq manba kodida tarqatilganligi - bu tizimni o'ziga xos xususiyatlarga moslashtirishga ma'lum bir ta'lim loyihasi va agar kerak bo'lsa, unga yangi modullarni kiritish imkonini berishi bilan, ajralib turadi.

LMS "eLearning Server" boshqa LMS bilan solishtirganda turli fakultetlar, filiallar, universitetlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun universitetlararo tizimga ega.

LMS "WebTutor", LMS "Competentum.Magister", LMS "REDCLASS" kichikroq vositalar va funksiyalar to'plamiga ega va tijoriy tizimlardir.

Tizimlarning muhim parametrlardan biri - bu o'rganayotgan foydalanuvchilar sonidir va bu jihatdagi masofaviy o'qitish uchun noqulay vaziyat yaratadigan dasturiy ta'minot Competentum.Magister. Bu faqat ma'lum bir versiyalarda cheklanmagan. Tizimning asosiy dizaynini o'zgartirish qobiliyatining yo'qligi, shuningdek, uni ma'lum bir ta'lim muassasasi uchun to'g'ridan-to'g'ri moslashtirishdir, mening fikrimcha, WebTutor va eLearning Server dasturiy mahsulotlarini boshqa tizimlar bilan taqqoslaganda raqobatbardosh bo'lmagan mahsulotlar sifatida tasniflash imkonini beradi.

Xulosa. Shunday qilib, Moodle dasturiy mahsuloti to'plagan maksimal ijobiy funksiyalar soniga ko'ra, biz ushbu mahsulot ko'rib chiqilgan bir qator mahsulotlardan o'zini raqobatbardosh deb hisoblash huquqiga ega, degan xulosaga kelishimiz mumkin va u masofaviy ta'lim jarayonlarni tashkil etish va o'tkazish uchun yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi.

Tahlil natijalariga asoslanib xulosa qilib aytganda qiyosiy tahlil natijasida ma'lum bo'ldiki, ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etish uchun LMS ni tanlash muassasaning aniq maqsadlariga bog'liq, ammo masofaviy ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yaxshi variant LMS "Moodle" tizimidir.

Xulosaga qo'shimcha qilib shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, bugungi kunda dunyoda masofaviy ta'lim imkoniyatini beruvchi ko'plab dasturiy mahsulotlar mavjud. Ular umumiy funksiyaga ega - talabalar (tinglovchilar) uchun masofaviy ta'limni ta'minlash, lekin ularni turli yo'llar bilan maqsadga yo'naltirishi mumkin bo'ladi. Ba'zi tizimlar o'rganishni osonlashtirish uchun qabul qilingan standartlarni saqlashga qaratilgan bo'lsa, boshqalari o'quv materialiga kirish, guruhli o'rganish va bilim darajasini baholash uchun vositalarning to'liq to'plamini ishlab chiqishga qaratilgan. Umuman, muayyan dasturiy mahsulotni tanlash masofaviy ta'lim usullari va vositalarining maqsadlariga bevosita bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2020-yil 27-martdagi 233-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limni joriy etish to‘g‘risida”gi Buyrug‘i.
2. O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabr 599-sonli “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.
3. Крук Б.И., Журавлева О.Б., Стругова Е.Г. Избранные главы теории и практики дистанционного обучения. Москва: Издательские решения, 2017.
4. Полат Е.С. Теория и практика дистанционного обучения. Москва: Издательство Юрайт, 2020.
5. Андреев А.А. Дидактические основы дистанционного обучения. Москва: Издательство МЭСИ, 1999.
6. Андреев А.А., Солдаткин В.И. Дистанционное обучение: сущность, технология, организация, Москва: Издательство МЭСИ, 1999.
7. Зайцева О. Н. Использование LMS Moodle в образовании // Обучение и воспитание: методики и практика. 2012. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-lms-moodle-v-obrazovanii> (дата обращения: 04.07.2023).
8. Лавриненко Ирина Юрьевна Перспективы использования lms в рамках современного высшего образования // Концепт. 2023. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/perspektivy-ispolzovaniya-lms-v-ramkah-ovremennogo-vysshego-obrazovaniya> (дата обращения: 04.07.2023).
9. J.J. Atamuradov. Principles of construction of effective information systems. «Science and practice: a new level of integration in the modern world» Conference proceedings 11th International Conference. September, 10 - November, 30, 2020.UK, S Yorkshire, Sheffield DOI: http://doi.org/10.15350/UK_6/11.39
10. Атамурадов Ж.Ж. Анализ проблемы организации и управления дистанционного образования в общеобразовательных учреждениях // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2021. 4(85). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11472>
11. Атамурадов Жамшид Жалилович Роль преподавателя в проектировании этапов построения дистанционного обучения. Журнал “ACADEMY” №10 (61) 2020 год [Электронный ресурс]: URL: <http://academicjournal.ru/home/arkhiv-zhurnala-academy.html>
12. Системы дистанционного обучения E-Learning Софт/ «Преимущества внедрения СДО для учреждений образования»
13. Юн, С.Г. Программные платформы электронного обучения/ Электронное обучение в традиционном университете: сб. статей / отв. Ред. Г.Б. Паршукова, О.В. Казанская. – Новосибирск: Изд-во НГТУ; 2010. – 134 с.

O‘SMIRLARNING PSIXOLOGIK SALOMATLIGIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLARNI O‘RGANISHNI TASHKIL ETISH USULLARI

*Atamuratova Feruza Baxtiyarovna,
Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti,
psixologiya yo‘nalishi mustaqil izlanuvchisi*

Ushbu maqolada o‘smirlarning psixologik salomatligiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganishni tashkil etish usullari haqida fikr yuritilgan. O‘smir o‘quvchilarning psixologik salomatligi o‘ziga xosliklarga ega bo‘lib, ular o‘smir psixikasi va uning rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘liq. Yoshga oid turli fiziologik o‘zgarishlar ularni sog‘lom turmush tarziga rioya qilishga undovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Aynan shu omillar qatoriga o‘smirning psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan, birinchi navbatda, maktab hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan tashvishlarining yuqori darajasini, tengdoshlar bilan munosabatlardagi muammolarni, buzg‘unchi tarbiya uslubini, ota-ona hamda bola munosabatlaridagi muammolarni o‘rganish yo‘llari ochib berilgan.

***Kalit so‘zlar:** o‘smirlar, psixologik salomatlik, ta’sir qiluvchi omillar, ijtimoiy psixologik xususiyatlar, oila, ota-ona.*

МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИССЛЕДОВАНИЯ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ ПОДРОСТКОВ

В данной статье рассматриваются методы организации исследования факторов, влияющих на психологическое здоровье подростков. Психологическое здоровье подростков имеет свои особенности, связанные с психикой подростка и особенностями его развития. Различные возрастные физиологические изменения служат основным фактором, побуждающим их вести здоровый образ жизни. Среди этих факторов, оказывающих негативное влияние на психологическое развитие подростка, в первую очередь мы обнаружили высокий уровень тревожности, связанной со школьной жизнью, проблемы во взаимоотношениях со сверстниками, деструктивный стиль воспитания, проблемы в детско-родительских отношениях.

***Ключевые слова:** подростки, психологическое здоровье, влияющие факторы, социально-психологические особенности, семья, родители.*

METHODS OF THE STUDY OF FACTORS AFFECTING THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF ADOLESCENTS

This article discusses methods for organizing research into factors influencing the psychological health of adolescents. The psychological health of adolescents has its own characteristics associated with the psyche of the teenager and the characteristics of his development. Various age-related physiological changes are the main factor that motivates them to lead a healthy lifestyle. Among these factors that have a negative impact on the psychological development of a teenager, first of all, we found a high level of anxiety associated with school life, problems in relationships with peers, a destructive parenting style, and problems in parent-child relationships.

***Key words:** adolescents, psychological health, influencing factors, social psychological characteristics, family, parents.*

Kirish. Hozirgi davr psixologiyasining eng dolzarb muammolaridan biri, o‘smirlik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan muammolardir, bu birinchi navbatda, ushbu davrni, hech qanday qiyinchiliksiz, sog‘lom va avtonom shaxsni shakllantirish jarayonida eng muhim muammo deb hisoblash mumkinligi bilan bog‘liq. Bolaning hayotida bu jismoniy, aqliy, intellektual, axloqiy va ijtimoiy salomatlikni jadal, maqsadli rivojlantirish va shakllantirish davri hisoblanadi. Shuningdek, balog‘at yoshi va bu jarayon bilan bog‘liq fiziologik o‘zgarishlar bolaning shaxsiyatini shakllantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlash kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, shu bilan birga, o‘sish davri bolaning qulay rivojlanishini buzishi mumkin bo‘lgan bir qator muayyan qiyinchiliklar bilan ham bog‘liq.

Aynan shu omillar qatoriga o‘smirning psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan, birinchi navbatda, maktab hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan tashvishlarining yuqori darajasini, tengdoshlar bilan munosabatlardagi muammolarni, buzg‘unchi tarbiya uslubini va ota-ona hamda bola munosabatlaridagi

muammolarni o‘rganishimiz lozim. Bundan tashqari, o‘smirlik davri turli xil giyohvandlik va yomon odatlarning yuzaga kelishiga ham moyillik davri hisoblanadi [1].

O‘smir o‘quvchilarni salomatlikka yo‘nalganligini rivojlantirishning psixologik omillarini o‘rganish hamda o‘smirlarning psixologik salomatligi muammolari ko‘plab ilmiy tadqiqotlar obyekti hisoblanadi. Turli davrlarda bu masala turli xil nuqtayi-nazardan o‘rganilgan hamda tahlil qilingan.

Ayniqsa, o‘smir psixikasining tuzilishini psixologik, fiziologik jihatdan tadqiq etish hamda ilmiy va falsafiy jihatlarini o‘zaro bog‘langan holda o‘rganish o‘smir o‘quvchilarning psixologik salomatligi muammosini hal qilishda ta‘sir etuvchi omillarni o‘rganish muammoning dolzarbligini belgilab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). O‘rganilayotgan muammoga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, olimlarning tadqiqot ishlarining ko‘pchiligi jahon olimlaridan I.V.Dubrovina, O.V.Xuxlayeva, R.Mey, E.N Surkov, V.Vigotskiy, G.Ollport, A.Maslou, K.Rodjers, mahalliy olimlarimizdan V.M.Karimova, S.X.Jalilova, U.Isayeva, O.E.Xayitov. Sh.T.Xalikova va boshqa olimlarimiz tadqiqotlarida o‘smir o‘quvchilarning psixologik salomatligi, shaxsning psixologik barqarorligi, iqtisodiy salomatlik, hissiy-irodaviy salomatlik ko‘rsatkichi sifatida ilmiy tadqiqotlarida keng o‘rganilgan[2].

Shu bilan birga, bevosita o‘smir o‘quvchilarni salomatlikka yo‘nalganligini rivojlantirishning psixologik omillari bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Shunday qilib, o‘rganilayotgan muammoning ijtimoiy ahamiyatliligi, psixologik tajribaga bo‘lgan zarurat, ilmiy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi mazkur mavzuni tanlashga undadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqotda 120 nafar o‘smir o‘quvchilar qatnashdi. Ular 11 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar, umumiy ta‘lim maktabining 5, 6, 8, 9 - sinf o‘quvchilari, 60 nafari o‘g‘il bolalar, 60 nafari qizlar. Empirik tadqiqot strategiyasi o‘smirlarning psixologik salomatligi ko‘rsatkichlarini maktabdagi tashvish darajasi, oilaning psixologik salomatligi, o‘ziga bo‘lgan munosabatning rivojlanish darajasi kabi psixologik farovonlik omillari ko‘rsatkichlari bilan o‘rganish va taqqoslash edi. Ushbu maktabda psixolog va sinf rahbarlari yordamida o‘smirlar test sinovlaridan o‘tkazildi. O‘smirlar bilan ishlashda biz diagnostikaning axloqiy me‘yorlaridan, ya‘ni o‘smirlar manfaatlarini himoya qilish me‘yorlari va tamoyillaridan foydalandik: imtihonning maxfiyligi, kasbiy kompetentsiya, har bir o‘smirning shaxsiga hurmat, xushmuomalalik va boshqa holatlar inobatga olindi. Urganch shahridagi "19-son IDUM"da o‘smir o‘quvchilarda psixologik salomatligini o‘rganish maqsadida quyidagi so‘rovnoma va testlar o‘tkazildi (1-jadval).

1-jadval.

Yosh xususiyatlariga ko‘ra sog‘lom turmush tarzi so‘rovnoma natijalar tahlili (Man Uitni mezoni bo‘yicha n=122)

Shkalalar	Sinfi	N	O‘rtacha qiymat	Ranglar summasi	U	P
Sog‘lom turmush tarzi	6-sinf	62	72,64	4503,50	1169,500	,000**
	9-sinf	60	49,99	2999,50		
	Jami	122				

Izoh: ** - $p < 0,01$

Tadqiqotimiz natijalar tahliliga ko‘ra, sog‘lom turmush tarzi shkalasida 9-sinf va 6-sinf o‘quvchilari o‘rtasida ishonch darajasidagi tafovut kuzatildi ($u=1169,500$; $p < 0,01$). Sog‘lom turmush tarziga ijobiy munosabat 6-sinf o‘quvchilarida 9-sinf o‘quvchilariga qaraganda yuqori darajada bo‘lar ekan. Ya‘ni ularda yoshga oid turli fiziologik o‘zgarishlar ularni sog‘lom turmush tarziga rioya qilishga undovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. 9-sinf o‘quvchilarida esa jismoniy-fiziologik o‘zgarishlarga nisbatan adaptatsiya kuzatilishi bilan ham izohlanadi (2-jadval).

2-jadval.

O‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash so‘rovnoma natijalar tahlili gender tafovutga ko‘ra (Man Uitni mezoni bo‘yicha n=122)

Shkalalar	Sinfi	N	O‘rtacha qiymat	Ranglar summasi	U	P
Oila	O‘g‘il bolalar	60	66,63	3998,00	1552,000	,112
	Qiz bolalar	62	56,53	3505,00		
	Jami	122				
Maktab	O‘g‘il bolalar	60	59,37	3562,00	1732,000	,511
	Qiz bolalar	62	63,56	3941,00		
	Jami	122				
Tengdoshlar	O‘g‘il bolalar	60	64,45	3867,00	1683,000	,360

	Qiz bolalar	62	58,65	3636,00		
	Jami	122				
Suitsid	O‘g‘il bolalar	60	53,00	3180,00	1350,000	,009**
	Qiz bolalar	62	69,73	4323,00		
	Jami	122				
OAV	O‘g‘il bolalar	60	63,00	3780,00	1770,000	,643
	Qiz bolalar	62	60,05	3723,00		
	Jami	122				
Ijtimoiy fikr	O‘g‘il bolalar	60	72,03	4322,00	1228,000	,001**
	Qiz bolalar	62	51,31	3181,00		
	Jami	122				
O‘z-o‘ziga baho	O‘g‘il bolalar	60	63,01	3780,50	1769,500	,641
	Qiz bolalar	62	60,04	3722,50		
	Jami	122				

Izoh: ** - $p < 0,01$

Tadqiqotimizda 6-sinf va 9-sinf o‘quvchilari orasida gender tafovutga ko‘ra o‘g‘il bolalar va qiz bolalar orasida oila shkalasida ishonch darajasidagi tafovut kuzatilmadi ($u=1552$; $p > 0,05$). Shuningdek, maktab shkalasi bo‘yicha ham o‘g‘il bolalar va qiz bolalar orasida ahamiyatli tafovutlar kuzatilmadi ($u=1732$; $p > 0,05$).

Tengdoshlar shkalasida o‘g‘il bolalar va qiz bolalar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($u=1683$; $p > 0,05$). Suitsid shkalasi bo‘yicha o‘g‘il bolalar va qiz bolalar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi ($u=1350$; $p < 0,01$). Tahlil natijalariga ko‘ra qiz bolalarda o‘g‘il bolalarga qaraganda suitsidga moyillik yuqori bo‘lar ekan.

Ommaviy axborot vositalari (OAV) shkalasi bo‘yicha o‘g‘il bolalar va qiz bolalar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($u=1770$; $p > 0,05$).

Ijtimoiy fikr shkalasi o‘g‘il bolalar va qiz bolalar orasida ahamiyatli tafovutlar kuzatildi ($u=1228$; $p < 0,01$). Natijalarga ko‘ra o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga qaraganda ijtimoiy fikrga munosabati yuqori darajada bo‘lar ekan. Quyida o‘g‘il bolalar va qiz bolalar orasidagi ishonch darajasidagi tafovutlar diagrammada keltirib o‘tildi. O‘z-o‘ziga baho shkalasi bo‘yicha o‘g‘il bolalar va qiz bolalar orasida ahamiyatli tafovutlar kuzatilmadi ($u=1769,500$; $p > 0,05$) (3-jadval).

3-jadval.

Sog‘lom turmush tarzi so‘rovnomasi natijalar tahlili (Spirman korrelyatsiyasi bo‘yicha $n=122$)

Shkalalar	Sog‘lom turmush tarzi
Oila	-,056
Maktab	,199*
Tengdoshlar	,112
Suitsid	-,002
OAV	-,038
Ijtimoiy fikr	-,013
O‘z-o‘ziga baho	,215*

O‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash va sog‘lom turmush tarzi so‘rovnomasi natijalar tahliliga ko‘ra maktab va sog‘lom turmush tarzi shkalalari orasida ijobiy korrelyatsion bog‘liqlik kuzatildi ($r=,199$; $p < 0,05$). Ushbu holat o‘quvchilar hayotida sog‘lom turmush tarziga munosabatning yaxshi bo‘ishi maktab o‘quv faoliyatida ham jismoniy, ham psixologik o‘shish omili bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, o‘z-o‘ziga baho va sog‘lom turmush tarzi shkalalari orasida ham ijobiy korrelyatsion bog‘liqlik kuzatildi ($r=,215$; $p < 0,05$). O‘quvchilarda o‘z-o‘ziga bahoning yaxshi bo‘lishi, ularning sog‘lom turmush tarziga amal qilishi, jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lish orqali tengdoshlar orasida o‘ziga bahoning oshishiga olib keladi.

Xulosa va tavsiyalar (Conclusion/Recommendations). Yosh avlodni har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashda, ya‘ni, ma‘naviy boy, jismonan sog‘lom, dunyoviy bilimlarni egallashga qodir, vatanga e‘tiqodli, hayotga faol, o‘zlikni anglash kabi fazilatlarini shakllantirishda mahalla, ota-ona va jamoatchilikning hamkorligi zarur. Ana shu maqsad asosida o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini o‘rganish so‘rovnomasi o‘tkazildi. Mazkur so‘rovnoma orqali o‘quvchilarning bugungi kundagi turmush

tarziga bo‘lgan munosabatlari, fikri, vatanga e‘tiqodi, bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi hamda kelajakda oldiga qo‘ygan maqsadlariga intilishlari hamda ularning ijtimoiy fikri, aqidaparastlik, jinoyatchilik va suitsid holatlariga munosabatlari o‘rganildi.

O‘smir o‘quvchilarning psixologik salomatligini o‘rganish va so‘rovnomalarni tahlil qilish natijalari quyidagicha xulosalar qilishga imkon berdi:

1. O‘smir o‘quvchilarning psixologik salomatligini o‘rganish psixologiya fanida ko‘plab tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi.

2. Quyidagilar o‘smir o‘quvchilarning psixologik salomatligiga ta‘sir qiluvchi asosiy omillar sanaladi:

a) ota-onaning bolaga munosabati;

b) oiladagi muhit;

c) tengdoshlarining ta‘siri;

d) maktab, maktab jamoasi;

e) ommaviy axborot vositalari.

O‘smir o‘quvchilarning psixologik salomatligi o‘ziga xosliklarga ega bo‘lib, ular o‘smir psixikasi va uning rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘liq. O‘smir o‘quvchilarning psixologik salomatligining ijobiy fazilatlarini o‘smirlarning deyarli hammasida kuzatish mumkin. Bu xulqning yetarlicha ma‘naviy, axloqiy normalarning shakllanmaganligi o‘smirlarning psixologik salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, deyarli barcha o‘smir o‘quvchilarda psixologik salomatligining nomaqbul vaziyati: tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlarning buzilishi, tarbiyalanganlik darajasiga oilaviy muhitning ta‘siri hamda ta‘lim olish jarayonining ta‘siri kuchli ekanligi kuzatiladi.

Adabiyotlar:

1. Дубровин И.В. Мактаб психологик хизмати. И.В. Дубровин. - М., 1997. - 186 б.
2. Дубровин И.В. Таълимнинг амалий психологияси. Эд. - Санкт-Петербург: Пётр, 2004.-592п.
3. Jalilova S.X., N.A.G‘ayiboyeva - “ Umumiy psixodiagnostika” T-2018
4. Ismailov .U, M.Ziyayeva, F.Inoyatov, Sh.Maqsudova, L.Ataxanova “Sog‘lom turmush tarzi asoslari va oila” – UNFPA, Toshkent, 2018- yil.
5. Калю П. И. «Саломатлик тушунчасининг асосий хусусиятлари ва соғлиқни сақлашни қайта тузишнинг айрим масалалари: батафсил маълумот» Киев, 1980. - 176 п.
6. Мей Р. “Смысл тревоги”. Р. Май. - М .: ЭКСМО Пресс, 2001. - 432 б.
7. Хухлаева О.В., Хухлаева О.Э. Ўқувчиларнинг психологик саломатлиги мактаб психологик хизматининг мақсади сифатида. 2007.

RUHIY SALOMATLIKNI MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARDA YUZAGA KELISHIDA OTA-ONANING ROLI

Djalalova Mohinur Abdusattor qizi,

Farg‘ona davlat universiteti psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi

Maqolada ruhiy salomatlikni yuzaga kelishida ota-onalarning va oilaviy muhitning o‘rni borasida olimlarning fikrlari va o‘tkazilgan emperik tadqiqotning natijalari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Bundan tashqari bolalarda uchraydigan bu muammolarning oldini olishda tavsiyalar ham keltirib o‘tilgan, ota-onalar o‘rtasidagi janjal ko‘pincha bola tomonidan tashvishli hodisa, xavfli vaziyat (ona bilan hissiy aloqa tufayli) sifatida qabul qilinadi, ikkinchidan, u yuzaga kelgan nizo uchun o‘zini aybdor his qilishga moyil bo‘ladi. Sodir bo‘lgan baxtsizlik, chunki u sodir bo‘layotgan voqealarning asl sabablarini tushunolmaydi va hamma narsani yomonligi, ota-onasining umidlarini oqlamasligi va ularning sevgisiga loyiq emasligi bilan izohlanishi misollar bilan bayon etilgan.

Kalit so‘zlar : bola, bog‘cha yoshi , tarbiyachi , ota-ona , tarbiyalanuvchi , holat, emotsiya , kasallik , soha , somatik , buzilishlar , tibbiy-ijtimoiy.

РОЛЬ РОДИТЕЛЕЙ В РАЗВИТИИ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

В статье кратко рассмотрены мнения учёных и результаты эмпирических исследований о роли родителей и семейного окружения в развитии психического здоровья детей. Кроме того, даются рекомендации по предотвращению этих проблем у детей, ссоры между родителями часто воспринимаются ребёнком как тревожное событие, опасная ситуация (из-за эмоциональной связи с матерью), а во-вторых, как возникший конфликт. Ребёнок в таких ситуациях склонен чувствовать себя виноватым. На примерах объясняется несчастье, случившееся оттого, что он не может понять истинных причин происходящего и всё объясняет тем, что он плохой, не оправдывает ожиданий родителей и не достоин их любви.

Ключевые слова: ребёнок, детсадовский возраст, воспитатель, родитель, ученик, состояние, эмоция, заболевание, поле, соматическое, расстройство, медико-социальное.

THE ROLE OF PARENTS IN THE DEVELOPMENT OF MENTAL HEALTH IN PRESCHOOL CHILDREN

The article briefly discusses the opinions of scientists and the results of empirical research on the role of parents and family environment in the development of mental health. In addition, recommendations are given to prevent these problems in children, quarrels between parents are often perceived by the child as a worrying event, a dangerous situation (due to the emotional connection with the mother), and secondly, for the conflict that arose tends to feel guilty. The unhappiness that happened because he cannot understand the true reasons of what is happening and everything is explained by the fact that he is bad, does not live up to his parents' expectations and is not worthy of their love is explained with examples.

Key words: child, kindergarten age, educator, parent, student, condition, emotion, disease, field, somatic, disorders, medical and social.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy salomatligi bolaning rivojlanishidagi eng qiziqarli va diqqatga sazovor davrlardan biri bu maktabgacha yoshdagi bolalik bu vaqtda bolaning shaxsiyati, o‘zini o‘zi anglashi va dunyoqarashi haqiqatda shakllanadi. Bu jarayonlar, birinchi navbatda, umumiy aqliy rivojlanish, aqliy funksiyalarning yangi tizimini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lib, bu yerda bolaning tafakkuri va xotirasi muhim o‘rin egallay boshlaydi. Endi u nafaqat o‘ziga xos lahzali qo‘zg‘atuvchilar nuqtayi nazaridan harakat qilishi va uning bevosita tajribasida qabul qilinmagan umumiy tushunchalar va g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatishi mumkin. Shunday qilib, bolaning tafakkuri sof vizual asosdan ajralib chiqadi, ya‘ni vizual-faoldan vizual-majoziyga o‘tadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning xotirasi va tafakkurining bunday rivojlanishi faoliyatning yangi turlariga o‘tishga imkon beradi - o‘yin, vizual, konstruktiv.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. D.B.Elkoninning fikricha, «vaziyatdan fikrga emas, balki g‘oyadan uni amalga oshirishga, fikrdan holatga o‘tish imkoniyatiga ega». Nutqning rivojlanishi fikrlash jarayonlarining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Maktabgacha yoshda nutq bolaning faoliyatini

rejalashtirish va tartibga solish vazifasini bajara boshlaydi, nutqning so'z boyligi va grammatik tuzilishi tobora boyib boradi. Endi bola nafaqat ma'lum bir voqeani sharhlash va bir lahzalik xohish bildirish, balki tabiat, boshqa odamlar, o'zi va dunyodagi o'zni haqida o'ylash va mulohaza yuritishga qodir. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolaning dunyoqarashi va o'zini o'zi anglashining paydo bo'lishi xotira, fikrlash va nutqni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Agar biz bolaning butun rivojlanishida kattalar o'ynaydigan rolga e'tibor bermasak, bu tavsif kamroq to'liq bo'ladi. Bolaning aqliy rivojlanishi va ruhiy salomatligi uchun kattalar va eng muhimi, kattalar bilan muloqot qilishning ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin. Bola hayotining dastlabki bosqichlarida yaqin kattalar (onasi, otasi, buvisi va boshqalar) bilan uchrashadi va ular orqali va ular orqali u atrofidagi dunyo bilan tanishadi, birinchi marta inson nutqini eshitadi, o'z faoliyatining obyektlari va vositalarini o'zlashtira boshlaydi va kelajakda insoniy munosabatlarning murakkab tizimini tushunadi. Tarixda ko'plab misollar borki, bolalar hayotining dastlabki yillarida negadir kattalar bilan muloqot qilish imkoniyatidan mahrum bo'lib, keyin fikrlashni, “odam kabi gapirishni” o'rgana olmagan, ijtimoiy hayotga moslasha olmagan shaxslar haqida ma'lumotlar bor. Xuddi shunday yorqin misol "kasalxonaga yotqizish" hodisasi bo'lib, unda bolaning kattalar bilan o'zaro munosabati rasmiy bola parvarishi bilan chegaralanadi va bola va kattalar o'rtasidagi to'liq hissiy aloqa imkoniyatini istisno qiladi. Bunday bolalar jismoniy, intellektual va hissiy rivojlanishida ko'p jihatdan tengdoshlaridan orqada qolishlari isbotlangan: ular keyinroq o'tirishni, yurishni, gapirishni boshlaydilar, ularning o'yinlari yomon va monoton va ko'pincha obyektini oddiy manipulyatsiya qilish bilan chegaralanadi. Bunday bolalar, qoida tariqasida, passiv, qiziquvchan emas, boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatiga ega emaslar. Albatta, tasvirlangan misollar ekstremal, atipik hodisalardir, ammo ular bolaning kattalar bilan muloqoti bolalarning aqliy rivojlanishi va ruhiy salomatligini asosiy belgilovchi omil ekanligining yorqin ifodasidir. Oila ichidagi nizolarning sabablari va tabiati ajratib ko'rsatiladi, ularni tuzatish yo'llari ko'rib chiqiladi. Keling, nomutanosib oilaviy munosabatlarni bola nuqtayi nazaridan, bunday munosabatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy salomatligiga ta'siri nuqtayi nazaridan qarashga harakat qilaylik. Keling, yana bir bor e'tibor qaratamizki, maktabgacha yosh bolaning ota-onasiga (ayniqsa, onasiga) yaqin hissiy bog'liqligi bilan tavsiflanadi, ularga qaramlik shaklida emas, balki sevgiga bo'lgan ehtiyoj ko'rinishida nomoyon bo'ladi. Bu yoshda bola hali ham shaxslararo muloqotning nozik jihatlarida yaxshi harakat qila olmaydi, ota-onalar o'rtasidagi nizolarning sabablarini tushuna olmaydi, o'z his-tuyg'ulari va tajribalarini ifodalash uchun vositalarga ega emas. Shuning uchun, birinchidan, ota-onalar o'rtasidagi janjal ko'pincha bola tomonidan tashvishli hodisa, xavfli vaziyat (ona bilan hissiy aloqa tufayli) sifatida qabul qilinadi, ikkinchidan, u yuzaga kelgan nizo uchun o'zini aybdor his qilishga moyil bo'ladi. Sodir bo'lgan baxtsizlik, chunki u sodir bo'layotgan voqealarning asl sabablarini tushunolmaydi va hamma narsani yomonligi, ota-onasining umidlarini oqlamasligi va ularning sevgisiga loyiq emasligi bilan izohlaydi. Shunday qilib, ota-onalar o'rtasidagi tez-tez to'qnashuvlar, baland janjallar maktabgacha yoshdagi bolalarda doimiy tashvish, o'ziga ishonchsizlik, hissiy stressni keltirib chiqaradi va ularning ruhiy kasalliklarining manbai bo'lishi mumkin. Aksariyat psixologlarning fikricha, bolaning ruhiy salomatligi yoki sog'lig'ining yomonligi ham ota-ona tarbiyasi uslubi bilan uzviy bog'liq va ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning tabiatiga bog'liq.

A. Bolduin ota-ona tarbiyasining demokratik, nazorat qiluvchi va aralash uslublarini aniqlaydi. Demokratik bolani yuqori darajada qabul qilish, bolalar bilan yaxshi rivojlangan og'zaki muloqot, bolaning mustaqilligiga ishonish, agar kerak bo'lsa, unga yordam berishga tayyorligi bilan ajralib turadi. Bunday tarbiya natijasida bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilish qobiliyati, faollik, tajovuzkorlik, boshqa bolalarni boshqarish istagi va yaxshi jismoniy rivojlanish bilan ajralib turadi. Ota-onalarni nazorat qilish uslubi bilan ota-onalar bolalarning xatti-harakatlarini nazorat qilish funksiyasini o'z zimmalariga oladilar: ular o'z faoliyatini cheklaydilar, lekin taqiqlarning mohiyatini tushuntiradilar. Bunday holda, bolalar itoatkorlik, qat'iyatsizlik, tajovuzkorlik kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi. Aralashirilgan tarbiya uslubi bilan bolalar ko'pincha itoatkor, hissiy jihatdan sezgir, taklif qilinadigan, tajovuzkor bo'lmagan, qiziquvchan, tasavvurga ega emaslar. Masalan, V.I.Garbuzov, A.I.Zaxarov, D.N.Isaev (1987) noto'g'ri tarbiyaning uch turini ajratib ko'rsatadilar. 1. Bolani rad etish, hissiy jihatdan rad etish (ongli yoki ongsiz), qat'iy tartibga solish va nazorat qilish choralarning mavjudligi, ota-onalarning "yaxshi bolalar" tushunchalariga muvofiq bolaga muayyan turdagi xatti-harakatlarni yuklash. Rad etishning boshqa qutbi ota-onalar tomonidan to'liq befarqlik, kelishuv va nazoratning yetishmasligi bilan tavsiflanadi. 2. Gipersotsiallashtiruvchi tarbiya - ota-onalarning sog'lig'iga tashvishli va shubhali munosabati, o'z farzandini o'qitishdagi muvaffaqiyat, uning tengdoshlari orasidagi mavqeyi, shuningdek, uning kelajagi uchun haddan tashqari tashvish. 3. Egosentrik - barcha oila a'zolarining bolasiga haddan tashqari e'tibor berish, unga "oila buti", "hayotning ma'nosi" rolini belgilash. Muhokama qilingan barcha salbiy omillar bolaning nevrotizmi muammosi, ya'ni kasallikning kelib chiqish sabablari va kechishi bilan bog'liq. Ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarning ijtimoiy-madaniy tabiati zamonaviy hayot sur'atining tezlashishi, vaqt yetishmasligi, hissiy stressni bartaraf etish va dam olish uchun

sharoitlarning yetarli emasligi bilan bog'liq. Buning oqibati ota-onalarning haddan tashqari ish yuki, ularning nevrotizmi, ko'plab shaxsiy muammolarning paydo bo'lishi, shaxsiy ichki nizolarni hal qilish yo'llari va psixologik va psixoterapevtik yordam imkoniyatlari to'g'risida yetarli darajada xabardor bo'lmasliklari sabablidir. Ota-onalarning bunday shaxsiy nomutanosibligi bolalarning rivojlanishida namoyon bo'ladi va ularning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Oiladagi hissiy muhit va uning a'zolarining ruhiy holatiga ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham ta'sir qiladi, ular orasida A.I.Zaxarov qoniqarsiz turmush sharoiti, ota-onalarning ish bilan ta'minlanishi, onaning ishga erta ketishi va bolani ishga joylashtirish kabi omillarni ajratib ko'rsatadi. Bolalar bog'chasidagi bola. Bolalarni erta yoshda (3 yoshgacha) maktabgacha ta'lim muassasasiga joylashtirish yoki ularni tarbiyalash uchun enagani jalb qilish kabi xatoliklarni takidlab o'tadi. Bola va uning onasi o'rtasidagi normal hissiy muloqot sharoitida, 3 yoshga kelib, bolalarda "men" tuyg'usi rivojlanadi, ya'ni o'zini alohida shaxs sifatida idrok etish, ota-onaga qaramlik hissi asta-sekin kamayadi. Onadan tez-tez va uzoq vaqt ajralish (bolalar bog'chasi yoki sanatoriya joylashtirish) bilan yosh bolalarda nevrotik reaksiyalarning paydo bo'lishiga olib keladigan biriktirishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. O'rtacha, faqat 3 yoshga to'lgan bolada onasi bilan "ajralish" va yanada mustaqil bo'lish istagi paydo bo'ladi. Bundan tashqari, bu yoshda allaqachon tengdoshlar bilan muloqot qilish, boshqa bolalar bilan qo'shma o'yinlarda kuchli ehtiyoj bor. Shuning uchun, 3 yoshga to'lgan bola, uning ruhiy salomatligini xavf ostiga qo'ymasdan, bolalar bog'chasiga joylashtirilishi mumkin. Bolalarning ruhiy salomatligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarga, birinchi navbatda, oilaviy munosabatlardagi nomutanosiblik va oilaviy tarbiyadagi nomutanosiblik yoki ota-ona va bola munosabatlari sohasidagi buzilishlar kiradi. Nikoh va bola-ota-ona munosabatlari muammosiga mahalliy va xorijiy adabiyotlarda katta e'tibor beriladi. Oila ichidagi nizolarning sabablari va tabiati ajratib ko'rsatiladi, ularni tuzatish yo'llari ko'rib chiqiladi. Aksariyat psixologlarning fikricha, bolaning ruhiy salomatligi yoki sog'lig'ining yomonligi ham ota-ona tarbiyasi uslubi bilan uzviy bog'liq va ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning tabiatiga bog'liq. Adabiyotda tarbiyalash uslublari va turlarining turli tasniflarini, ma'lum bir ta'lim uslubi amaliyotidan kelib chiqadigan oqibatlarni tahlil qilishni topish mumkin (tahlil ko'pincha klinik xarakterga ega). Masalan, A. Bolduin ota-ona tarbiyasining demokratik, nazorat qiluvchi va aralash uslublarini aniqlaydi. Demokratik bolani yuqori darajada qabul qilish, bolalar bilan yaxshi rivojlangan og'zaki muloqot, bolaning mustaqilligiga ishonish, agar kerak bo'lsa, unga yordam berishga tayyorligi bilan ajralib turadi. Bunday tarbiya natijasida bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilish qobiliyati, faollik, tajovuzkorlik, boshqa bolalarni boshqarish istagi (va ularning o'zlarini nazorat qilish mumkin emas) va yaxshi jismoniy rivojlanish bilan ajralib turadi. Ota-onalarni nazorat qilish uslubi bilan ota-onalar bolalarning xatti-harakatlarini nazorat qilish funksiyasini o'z zimmalariga oladilar: ular o'z faoliyatini cheklaydilar, lekin taqiqlarning mohiyatini tushuntiradilar. Bunday holda, bolalar itoatkorlik, qat'iyyatsizlik, tajovuzkorlik kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi. Aralashdirilgan tarbiya uslubi bilan bolalar ko'pincha itoatkor, hissiy jihatdan sezgir, taklif qilinadigan, tajovuzkor bo'lmagan, qiziquvchan, tasavvurga ega emaslar. Turli xil nevrozlarning shakllanishiga olib keladigan noto'g'ri ta'lim turlarini o'rganish va tasniflash alohida qiziqish uyg'otadi. Bola, nizolarning kuchayishi va oilaning ijtimoiy izolyatsiyasi; bolaning yetarli darajada tarbiyalanmaganligi va uning ta'lim va xulq-atvori uchun javobgarlikni ta'lim muassasasiga o'tkazish zarurati mavjudligida nomoyon bo'ladi. Eng muhim qo'zg'atuvchi omil - bu ruhiy kasalliklarga genetik moyillik.

Boshqa sabablarga quyidagilar kiradi:

aql bilan bog'liq muammolar (aqliy zaiflik va (va boshqalar) u bilan);

miyaning organik shikastlanishi;

chaqaloq va ota-onaning temperamentining mos kelmasligi;

oilaviy kelishmovchilik;

ota-onalar o'rtasidagi nizolar;

psixologik travma qoldirgan voqealar;


psixotik holatga olib kelishi mumkin bo'lgan dorilar;

gallyutsinatsiyalar yoki aldanishga olib kelishi mumkin bo'lgan yuqori isitma; neyroinfektsiyalar.

Natijalar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ruhiy salomatligini o'rganish maqsadida biz Farg'ona shahar maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi 5-sonli DMTTda tarbiyalanayotgan 100 nafar 5-7 yoshli bolalardan I.P. Podlasiyning "O'zingni angla" so'rovnomasini o'tkazdik. Aynash shu bolalarning ota-onalaridan esa Y.K. Lyutova va G. B. Moninaning "Agressiya belgilari" so'rovnomasini o'tkazib empirik tadqiq qildik. Uning natijalari quyidagi jadvalda berilgan:

0-2 ball - tajovuzkorlikning past darajasi;	0
3-4 ball - tajovuzkorlikning o'rtachadan past darajasi;	40
5-6 ball - tajovuzkorlikning o'rtacha darajasi;	11
7-8 ball - tajovuzkorlik o'rtachadan yuqori darajasi;	29
9-10 ball - yuqori darajagi tajovuzkorlik.	12

1-diagramma.




Jadval va diagrammadan ko'rinib turibdiki, bolalarning 40 foizi o'rtachadan past tajovvuzkorlikni, 29 foizi esa, o'rtachadan yuqori natijani, 12 foizi yuqori natijani, 11 foizi esa o'rtacha darajadagi agressivlini nomoyon etmoqdalar. Bu bolalarda past tajovvuzkorlik aniqlangan bo'lsa-da, 29 foizda o'rtadan baland ekanligi va 12 foizda yuqori agressivlik, ya'ni tajovvuzkorlik mavjudligi aniqlandi.

Emperik tadqiqot ishimizning ikkinchi bosqichida aynan shu bolalarning ota-onalaridan ham bolalarining agressivligini aniqlash uchun Y.K. Lyutova va G. B. Moninaning "Agressiya belgilari" so'rovnomasini o'tkazdik. Unga ko'ra onalar quydagicha javob berishgan. Ota-onalardan olib borgan so'rovnomamiz natijalari onalar farzandlarini 15 foizida past darajali ekanligini, 35 foizida o'rtachadan past natijani, 24 foizida o'rta darajani, 16 foizida o'rtadan yuqori darajani va 20 foizlari bolalarida yuqori agressiya borligini belgilab berishdi. Quyida jadval va diagramma holida ham keltirib o'tilgan. Olingan natijalarni qiyoslaydigan bo'sak aynan tajovvuzkorligi yuqori natijani qayt etgan bolalarning ota-onalari ham aynan ularni o'zini tutishida shu belgilar bor ekanligini qayd etishgan.

2-jadval.

0 - 4 ball – agressiyaning past darajasi;	15
5-8 ball – o'rtacha darajadan past agressiya;	35
9-12 ball – o'rta darajagi agressiya;	24
13-15 ball – o'rtachadan yuqori darajadagi agressiya;	16
20 ball – agressiyaning yuqori darajasi.	20



Muhokama. Demak, bolalarimizda uchraydigan agressivlik belgilarini kamaytirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratishimiz zarur. Bolalarning hissiy farovonligini ta'minlash uchun quyidagilar zarur:

- har bir bolani kattalar tomonidan so'zsiz qabul qilish, unda hayotiy xavfsizlik hissi va o'ziga ishonch, o'z qobiliyatiga ishonch hosil qilish;

- bolalarni o'rab turgan muhitning ijobiyliigi (guruhlarda qo'llab-quvvatlovchi, do'stona, samimiy, uy muhitini yaratish);

- kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarda tenglik (bosqichma-bosqich samarali hamkorlikni tashkil etish, maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan o'z vaqtida yordam olish, ularga kerak bo'lganda qo'llab-quvvatlash va himoya qilish);

- bolalarga guruh maydonida va bolalar bog'chasining boshqa binolarida (musiqa va sport zallarida) erkin harakat qilish, tengdoshlari bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatini berish;

- moslashuvchan, shaxsiyatga yo'naltirilgan yondashuv: har bir bolaning aqliy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, masalan, vazifalar va mashqlarni tabaqalashtirilgan tanlashda, shuningdek, ularning individual tezligida ifodalangan har qanday "yorliqlarni" rad etish;

- maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'zaro munosabatlarni rejalashtirish va tashkil etishda (xususan, sog'lig'i va rivojlanishida muammolar bo'lgan bolalar uchun individual ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqishda) o'qituvchi-psixolog, tarbiyachilar va boshqa bolalar bog'chasi mutaxassislarining yaqin professional hamkorligi;

- o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini ochib berish uchun sharoit yaratish, ya'ni ularning ijodiy qobiliyatlari va qobiliyatlarini erta aniqlash, o'z vaqtida monitoring qilish (dinamikani davriy nazorat qilish), har bir bolaning kichik bo'lsa ham yutuqlarini va uning mustaqillikka intilishini rag'batlantirish;

- bolalarning paydo bo'lgan muammolari, tashvishlari va qo'rquvlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish va sezgir munosabat; haddan tashqari hayajonli taassurotlarni (ko'pincha salbiy) birgalikda "qayta ishlash" uchun ularni asta-sekin kamaytirish va yengish, shuningdek, o'z-o'zini hurmat qilishni oshirish uchun bola bilan xushmuomalalik bilan muloqot qilish;

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bolalarda uchraydigan ruhiy salomatlikdagi bu kamchiliklarning asl sababi oilaviy faravonlikni yetishmasligi yoki bolalarga yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, eng katta e'tiborni qaratib yuborishda, ya'ni erkalatib yuborishda bolalarga o'zlaridek samimiy muomala qilish, ularning oldida oilaviy muammolarni hal etmaslik orqali farzandlarimizda ruhiy farovonligini ta'minlashimiz mumkin .

Adabiyotlar:

1. Бим-Бад Б.М., Днепров Э.Д., Корнетов Г.Б. Мудрост воспитания: Кн. для родителей. - М.: Педагогика, 1987.

2. Винникотт Д.В. Маленькие дети и их матери. - М.: Класс, 1998.

3. Гальперин. П. Я, А.В. Запорожец, А.Д. Кошелева. Психология. - М., 1976.

4. Голубева Л.Г., Лещенко М.В. Развитие и воспитание детей раннего возраста. - М., 2002.

5. Гордон Т.Р. Повышение родительской эффективности. - Екатеринбург, 1997.

6. Гребенников И.В. Воспитательный климат семьи. - М., 1975.

7. Дубровина И.В. Психическое здоровье детей и подростков. - М.: Академия, 2000.

KUTUBXONA FAOLIYATIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH O‘QUV MODULINING MAZMUNI VA HOZIRGI HOLATI

Eshmurodov Sherdil Ergashevich,

Qashqadaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi

Ushbu maqolada kutubxona faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash o‘quv modulining mazmuni va hozirgi holati, ARMLarini takomillashtirish, rivojlantirish, avtomatlashtirish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bugungi kunda informatika va axborot texnologiyalarining asoslari ma‘lumotlarni strukturali saqlash, saralash va izlash algoritmlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kutubxona, kutubxona faoliyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘quv moduli, ARM, kasbiy kompetentlik.

СОДЕРЖАНИЕ И СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ УЧЕБНОГО МОДУЛЯ ПО ПРИМЕНЕНИЮ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В БИБЛИОТЕЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В данной статье рассматриваются содержание и текущее состояние учебного модуля по применению информационно-коммуникационных технологий в библиотечной деятельности, совершенствование, развитие, автоматизация АРМ. Наряду с этим рассматриваются основы информатики и информационных технологий как алгоритмы структурированного хранения, сортировки и поиска информации на сегодняшний день.

Ключевые слова: библиотека, библиотечная деятельность, информационные и коммуникационные технологии, учебный модуль, ARM, профессиональная компетентность.

THE CONTENT AND CURRENT STATUS OF THE STUDY MODULE USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN LIBRARY ACTIVITY

This article discusses the content and current state of the training module on the application of information and communication technologies in library activities, improvement, development, automation of automated workstations. Along with this the basics of informatics and information technology as algorithms of structured storage, sorting and search of information today are considered.

Keywords: library, library activities, ICT, teaching module, ARM, professional competence.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda ARMLarini takomillashtirish, rivojlantirish, avtomatlashtirish bo‘yicha juda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, dastlab yaratilgan kompyuterning xotiralari ham bibliografik yozuvlarni saqlashga xizmat qilgan. Shuningdek, bugungi kunda informatika va axborot texnologiyalarining asoslari ma‘lumotlarni tartibli saqlash (strukturali saqlash), saralash va izlash algoritmlar kabilarni ham shu sohadaga masallarning yechimlari asosida tajribadan o‘tgan.

Ishdan ajralgan holda ta‘lim olish shaklidagi uzlyuksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi quyidagi o‘quv modullardan iborat:

Kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quv moduli; Kutubxona xodimi faoliyatida AKT va media savodxonlik o‘quv moduli; O‘zini-o‘zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari o‘quv moduli; kutubxona ishini tashkil etish va boshqarish, kutubxona xizmatini ko‘rsatishdagi innovatsiyalar o‘quv moduli;

Kutubxonachining kasbiy kompetentligi va mahoratli o‘quv moduli; elektron kataloglar, resurslar va ma‘lumotlar bazalari bilan ishlashdagi yangiliklar o‘quv moduli;

Malaka oshirish toifasi bo‘yicha ta‘lim dasturlarini to‘liq o‘zlashtirgan kurs tinglovchilariga davlat namunasidagi sertifikat beriladi. O‘quv modulining har 2 soatini o‘zlashtirganligi uchun tinglovchiga 1 kredit ball beriladi[1;14-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

M.Y.Volobuyeva tadqiqotlari asosida maktab kutubxonalarini takomillashtirish va xodimlarni malakalarini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarida eng so‘ngi texnika va texnologiyalarni ARM xodimlarining o‘rganishlari nazarda tutilishi kerak. Shuningdek, har yili bu kabi o‘quv modullari va ularning mazmunlarini o‘zgartirish maqsadga muvofiq.

Y.N.Yastrebseva maktab ARMLarini jihozlash, media markaz sifatida ma'lumotlarni taqdim qilish, xodimlarning savodxonlik darajasi va ularga belgilangan talablarni ishlab chiqish g'oyalarini ilgari surgan. Shun ta'kidlash lozim, har bir ARMning muhiti uchun mavqiyeni belgilab beradi va uning kitobxonlar, resurslari soni, elektron resurs va boshqalar bilan ta'minlash qulay bo'ldi. Bunga esa ARM xodimining IKT va dasturiy vositalarning bilishi talab qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Axborot texnologiyalarini turli sohalarda qo'llanilishi, jamiyatimizda olib borilayotgan chora-tadbirlar, tadqiqot ishlari shuni qo'rsatadiki, Informatika va Axborot texnologiyalari sohasi bo'yicha "Kutubxona faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash" o'quv modulining mazmunini takomillashtirish talab qilinmoqda.

O'quv modulning maqsadi: umumiy o'rta ta'lim maktablarining ARM xodimlarining malakasini oshirish kurs tinglovchilarini ish faoliyatida qo'llaniladigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularning imkoniyatlari haqidagi kompetensiyalarini rivojlantirish.

Ushbu maqsad, haqiqatan ham axborot texnologiyalarini va ularning imkoniyatlari asosida yaratilgan va ishlaydigan ARMLarining avtomatlashtirilgan tizimlari va ularning imkoniyatlarini faoliyatlariga joriy qilindan va shu bo'yicha malakalarini oshirishdan iborat [2;144-b.].

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi o'quv modulining vazifalari ishlab chiqilgan: umumiy o'rta ta'lim maktablari ARM xodimlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haqidagi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish; umumiy o'rta ta'lim maktablari ARM xodimlarining ish faoliyatlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llay olish kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Yuqorida keltirilgan vazifalarda AKTni ARM xodimlarining malakalari va ularni faoliyatlarida qo'llash bo'yicha malakalari yetarli deb hisoblaymiz. Bu bo'yicha onlayn o'tkazilgan so'rovnomalarning natijalari asosida aytish mumkin. Shuningdek, kunlik turmushda AKTlarning dasturiy va texnik vositalarini qo'llab kelinishi hamda maktab o'quvchilari bu kabi bilimlarni tezroq o'zlashtirishlarini inobatga olish lozim.

O'quv modulining vazifalarini mazmunan takomillashtirish hamda kutubxonalarda foydalanib kelinayotgan avtomatlashtirilgan tizimlar va ular asosida ishlovchi elektron kutubxona, MOOC, QR code, RFID texnologiyasi, masofali murojaat, raqamli kutubxona tushunchalarini o'rgatish va ularni amaliyotga qo'llash bo'yicha kompetensiyalarni rivojlantirishni maqsad qilib olish lozim.

Tinglovchilarga kutubxona faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash o'quv moduli quyidagi talab ishlab chiqilgan:

1.O'quv modulini muvaffaqiyatli tugatgan tinglovchi bilishi zarur:

1.1. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularning turlari.

1.2. Multimedia va uning tashkil etuvchilari.

1.3. Virtual borliq va unda qo'llanadigan texnologiyalar.

1.4. Kompyuter tarmoqlarini va uning turlari.

1.5. Internet tarmog'ining asosiy xizmatlari;

1.6. Multimedia va uning texnik-dasturiy vositalari.

1.7. Mobil ta'lim va ommaviy onlayn ochiq kurslar.

Tinglovchi bilishi zarur bo'lgan bilimlarga ARMning avtomatlashgan tizimining imkoniyatlari, soha uchun zaruriy dasturiy vositalar, ularni joriy qilinishi kabi zamonaviy ATlarining imkoniyatlarini qo'shish kerak.

2. Mazkur o'quv modulini muvaffaqiyatli tugatgan tinglovchi quyida keltirilgan ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

2.1. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanish.

2.2. Multimedia va uning texnik-dasturiy vositalarida ishlay olish.

2.3. Internet tarmog'ining asosiy xizmatlari va resurslaridan foydalana olish.

2.4. Ziyonet.uz ta'lim portalida va ta'limga oid internet saytlarida ishlash ko'nikmalarga ega bo'lishi;

Yuqorida sanab o'tilgan ko'nikmalar, fikrimizcha, ARM xodimlarining asosiy faoliyatidan tashqari yoki faoliyatiga yordamchi bo'lgan ko'nikmalar deb hisoblaymiz.

Birinchiidan, ARM xodimi o'quv jarayoni AKTni qo'llashni emas, balki ARMning o'zida qo'llashi, axborot-kutubxona tizimlaridan faoliyatida foydalanish, yangi kutubxona servis xizmatlarini tashkil qilish, elektron kutubxona, ma'lumotlarni izlash kabi ko'nikmalarni egalashi lozim.

Ikkinchiidan, 2.2, 2.3, 2.4 ko'nikmalar o'quvchilarning global tarmoq, internet va multimediali tizimlaridan foydalanishlarini qo'llab- quvvatlash, ARMning kompyuter-o'quv xonalaridan faoliyat olib

boruvchi xodimlarga kerakli ko‘nikmalardir. Qolaversa, tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, bu yuqorida sanab o‘tilgan texnologiyalar rivojlangan va jadal kirib kelayotgan hududlarda o‘quvchilarni o‘zlari yuqori mobillikka ega hisoblanmoqda. Shuning uchun ARM xodimlari o‘z kitobxonlarining axborotga bo‘lgan ehtiyoji, ARM xizmatidan muvofaqiyatli foydalanishi tashkil qilish bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

3. Mazkur o‘quv modulini muvaffaqiyatli tugatgan tinglovchi quyida keltirilgan malakalarni egallagan bo‘lishi shart:

3.1. ARM faoliyatida o‘z mutaxassisligi bo‘yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

3.2. multimedia va uning texnik-dasturiy vositalaridan foydalanish;

3.3. ziyonet.uz ta‘lim portali va ta‘limga oid internet saytlari imkoniyatlaridan foydalangan holda darslarni tashkil etish malakalarga ega bo‘lishi;

Yuqorida sanab o‘tilgan malakalar bilan birga aynan ARM faoliyatiga oid yig‘ma katalog, elektron katalog, kataloglashtirish, MARC21, UZMARC, kitobxonning avtomatlashtirgan o‘rni, onlayn murojaat, kutubxona uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan dasturiy vositalar (masalan, IRBIS, ARMAT, ARMAT++, CODil, Ruslan, Data-lib, Nat-lib) bo‘yicha ham ega bo‘lish talab etiladi.

4. Mazkur o‘quv modulini muvaffaqiyatli tugatgan tinglovchi quyida keltirilgan kompetensiyalarni egallagan bo‘lishi shart:

4.1. O‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z ustida ishlash kompetentligi ko‘rsatkichlari:

4.2. ARM faoliyatini tashkil etish, o‘z mutaxassislik sohasini rivojlantirish hamda kasbiy faoliyati ish samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va qo‘llay olish kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim.

Shuningdek, tadqiqotlari asosida ARM faoliyati uchun zarur bo‘lgan tashkiliy, texnik va dasturiy ta‘minotlarni, soha bo‘yicha yangi texnikava iynologiyalarni mustaqil egallash, resurslarni yig‘a olish kabi kompetensiyalarga ham ega bo‘lishi lozim[3;233-b.].

O‘quv modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar:

Ta‘limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quv moduli nazariy va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Bunda malaka oshirish tizimi bo‘lganligini inobatga olib, markazlardagi, namunaviy ARMLarga, internet kutubxonalarga tashrif darslarini tashkil qilish lozim.

Nazariy mashg‘ulotlarda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ulardan ta‘lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari haqida ma‘lumotlar beriladi. Bunda esa, aynan, yuqorida sanab o‘tilgan, ARM uchun zarur bo‘lgan tushunchalar va ularni yaratish uchun zarur bo‘lgan dasturiy vositalarning imkoniyatlarini, tinglovchilarning tajribasini inobatga olgan holda o‘qitish lozim.

Amaliy mashg‘ulotlarda ma‘lumotlar bazasini tashkil etuvchi dasturlar imkoniyatlaridan foydalanib kasbiy faoliyatga oid ma‘lumotlarni shakllantirish va amaliy dasturlardan foydalanish o‘rgatiladi. Bunda yig‘ma katalog, korporativ tarmoq, ARMning ATlaridan foydalanib, Arm faoliyati uchun barcha hodisalarni amalga oshirish mexanzmlarini o‘rganish va amaliyotda joriy qilish bo‘yicha topshiriqlarni bajaritirish lozim.

Soatlar taqsimoti asosida tinglovchilarga ARM faoliyatida AKTni qo‘llash o‘quv modulining har birining joriy holatdagi mavzulari rejalari quyidagicha ishlab chiqilgan.

Tadqiqot olib borish natijasida malaka oshirish kurslarini kuzatishda ARM xodimlariga AKTdan foydalanish o‘quv modulida quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalanib kelinmoqda: ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma‘lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash); davra suhbatlari (ko‘rilayotgan topshiriqlar yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish); bahs va munozaralar (topshiriqlar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

Mustaqil ta‘limda tinglovchilar bitiruv malaka ishi bo‘yicha internet resurslaridan foydalanishlari va taqdimotlar tayyorlash asosida mustaqil tashkil etiladi [4;323-b.].

Maktab ARM xodimlarini malakasini oshirish namunaviy o‘quv rejasining mutaxassislik fanlar bloki bo‘limi ham mavjud bo‘lib, unda kutubxona faoliyatini rivojlantirish tendensiyalari, kutubxona ishini samarali tashkil etish va boshqarish metodikasi tushunchalari o‘rgatiladi. Tendensiyalari, samarali tashkil etish va boshqarish metodikalari ATlarining imkoniyatlari, maxsus ARM ATlari asosida bo‘lishi lozim.

Jilsova Olga Vladimirovnaning fikricha, kutubxonachilarni malaka oshirish o‘quv modullari 3 ta bo‘limdan iborat bo‘lishi kerak: kutubxona fondi bilan ishlash; kitobxon bilan ishlash; shaxsiy bilimlarni oshirish kompetensiyasi.

Har bir bo‘lim uchun tinglovchi aniv nazariy va amaliy topshiriqlarni bajarib, hisobot yozib topshiradi. Maktab ARMLarida asosiy element sifatida kitobxonlar bilan ishlash bo‘lib hisoblanadi. Ularga barcha

zamonaviy AKT imkoniyatlariga ega elektron kutubxonalarni yaratib berish uchun bilimlarni takomillashtirish lozim.

Olib borilgan tahlillar va o'rganishlar asosida quyidagilarni muammo va vazifalar sifatida aniqlab olindi:

1. ARM faoliyatida AKTdan foydalanish o'quv modulining mazmuni, mavzulari va tinglovchilarning ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini takomillashtirish lozimligini ko'rsatmoqda va ilmiy tadqiqot ishi sifatida o'rganishga ehtiyoj borligini anglatadi.

2. Tinglovchilarning aksariyatlari tajribali bo'lganligi uchun o'quv modulining o'qitish metodikalarini ham kattalar pedagogikasini moslashtirish orqali takomillashtirish maqsadga muvofiq.

3. O'qitish metodikasini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalar, kichik guruhlarda ishlash, differensiallangan holda mashg'ulotlarni olib borish uslubini ishlab chiqish talab qilinadi. Chunki, ayrim yosh mutaxassis kutubxonachilar AKT va ARM ATlarni, internet, elektron kutubxonalardan foydalanishlarni yaxshi bilsa, tajribali xodimlar esa kutubxona faoliyatini tashkil qilish ish yuritish metodikalarini yaxshi biladi [5;559-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Zamonaviy maktab kutubxonasini yaratish uchun uning xodimlari, jihozlari va dasturiy ta'minotlarni milliy darajada ta'minlangan bo'lishi kerak. Yig'ma katalog, elektron katalogning mavjudligi, bu resurslarga masofadan murojaat qilish, ARM orqali boshqa kutubxona, internet resurslari bilan bog'lanish imkoniyatlari bo'lishi kerak. Buning uchun esa, yuqorida sanab o'tilgan muammo va vazifalarni hal qilish orqali ARM faoliyatida AKTlarni joriy qilish o'quv modulini ARM ATlarining tendensiyalari va fanning mazmunini, o'quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, mashg'ulotlarni o'tkazish metodikalarini va sohaga oid bilimlarni o'zlashtirish, bilimlarni tekshirish uchun PDVlardan foydalanish lozim.

Adabiyotlar:

1. Ergashev N.G'. Talabalarga o'quv materiallarini dasturiy vizallashtirish asosida taqdim etish metodikasi (Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari fani misolida) / Pedagogika fanlari falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Qarshi, 2021. 46 bet.

2. Норенков И.П., Зимин А.М. Информационные технологии в образовании: Учебное пособие.– М.: Изд. МГТУ им. Н. Баумана, 2002. - 352 с.

3. Анисимова Наталья Сергеевна. Теоретические основы и методология использования мультимедийных технологий в обучении : Дис. ... д-ра пед. наук : 13.00.02 : Санкт-Петербург, 2002 330 с. РГБ ОД, 71:03-13/113-9

4. Akhmedova, M. M., & Khomidova, M. M. K. (2021). Modern methods and technologies in teaching literature. Scientific progress, 2(3), 317-325.

5. Boltaboyeva U., Rakhmonova N., Usmonov S. Characteristics of speech Art: problems and solutions //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 4. – С. 559-567.

TEXNIKAVIY OLIY TA'LIM MUASSASALARDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

G'aniyev Shaxruz Rajabovich,

*Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti mustaqil tadqiqotchisi,
shaxruzganiyev88@gmail.com*

Ushbu maqola hozirgi kunda oliy ta'limda eng dolzarb mavzulardan sanalgan mustaqil ta'limning maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berilgan. Biz bilamizki, texnikaviy oliy ta'limda mustaqil ta'limni o'rni beqiyos va aynan shu fikr o'z isbotini topgan. Mustaqil ta'limni tashkil etishda resurslarni taqdim etish, mustaqil o'rganish uchun muhitni tashkil etish, baholash va tekshiruv jarayonini ta'minlash, amaliy mashg'ulotlar va loyihalar vazifalaridan iboratligi va shu vazifalarning xususiyatlari keng ochib berilgan. Texnikaviy oliy ta'lim muassasarda talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini faollashtirishda yordam berilgan metodlar, ularning qo'llanilishi haqida qo'shimcha tarzda ma'lumot ochiqqlangan.

Kalit so'zlar: ta'lim, mustaqil ta'lim, talaba, kritik fikrlash, resurs, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, multimedia, kommunikatsiya, guruhda ishlash, loyiha.

ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ

В данной статье представлена информация о целях и задачах самостоятельного образования, которое сегодня является одной из самых актуальных тем в высшем образовании. Мы знаем, что роль самостоятельного образования в техническом высшем образовании несравненна, и эта идея доказана. Организация независимого образования состоит из задач обеспечения ресурсами, создания среды для самостоятельного обучения, обеспечения процесса оценки и проверки, практического обучения и проектов, причём природа каждой из этих задач широко раскрыта. Раскрыта дополнительная информация о методах и их применении, способствующих активизации самостоятельной учебной деятельности студентов технических вузов.

Ключевые слова: образование, самостоятельное обучение, студент, критическое мышление, ресурс, виртуальные лаборатории, симуляторы, мультимедиа, общение, групповая работа, проект.

GOALS AND TASKS OF ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

This article provides information about the goals and objectives of independent education, which is one of the most pressing topics in higher education today. We know that the role of independent education in technical higher education is incomparable and this idea has been proven. The organization of independent education consists of the tasks of providing resources, creating an environment for independent learning, providing a process of assessment and testing, practical training and projects, the nature of each of these tasks being widely disclosed. Additional information is disclosed about methods and their application that contribute to the activation of independent educational activities of students of technical universities.

Keywords: education, independent learning, student, critical thinking, resource, virtual laboratories, simulators, multimedia, communication, group work, project.

Kirish. (Introduction) Bugungi kunda mamlakarimizda oliy ta'lim sohasida katta o'zgartirishlar kiritilib, bunda asosiy maqsad talabalarni yetuk mutaxassis qilib tarbiyalashdan iboratdir. Talabani yuksak bilimli, inovatsion g'oyalarini ilgari suruvchi yetuk shaxs sifatida rivojlanishini asosi bu o'zini o'zi rivojlantirishidir. Shu sababdan ham oliy ta'lim sohasida mustaqil ta'limni tashkil etishdan va mustaqil ta'limni ulushini oshirishning asosiy maqsad fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish lozim. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida o'tkazilayotgan islohotlar, shuningdek, oliy ta'limning o'z oldiga qoygan vazifalaridan biri bo'lajak mutaxassisning o'z-o'zini rivojlantirishiga, mustaqil bilim olish salohiyatini takomillashtirishga, innovatsion faoliyatdan keng qamrovda foydalanishga tayyorlashni taqozo etadi [1].


Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning asosiy maqsadi talabalarni mustaqil fikrlaydigan, muammolarni hal qiladigan va yangiliklarni qabul qilishga tayyor bo'lgan mutaxassislar sifatida tayyorlashdan iborat. Bu talabalarga o'zlarining o'rganish jarayonlarini boshqarish, o'z-o'zini tekshirish, kritik

fikrlash va o'z fikrlarini ifodalash kabi mahoratlarni rivojlantirishga hamda manbalarni qidirish, qidirib topilgan ma'lumotlar ustida qayta ishlash, va ularni amaliyotga tadbiiq qilishga o'rgatishdan iborat.

Mustaqil bilim olish texnologiyasi va mustaqil bilim olish sabablari bir-biri bilan bog'likdir: aniq natijaga erisha olishiga ishonmaslik ta'lim oluvchini mustaqil bilim olishdan har qanday boshqa sabablardan ko'ra ko'proq cho'chitadi va mustaqil ishlanishiga to'sqinlik qiladi. Bu esa o'z o'rnida oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalarining o'z kasbini yetuk mutaxasissi bo'lishiga halal beradi.

Mustaqil bilim olish texnologiyasini yaratish bir necha alohida muammolarni hal etishni ko'zda tutadi. Ular orasida muntazam bilim olishning maqsadini qo'yish muammosi alohida ajralib turadi. Agarda ta'lim olish umumiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilsa, mustaqil bilim olishning maqsadi esa kasbiy shakllanish yoki kasbiy mahoratni o'stirishga xizmat qilish bo'lib hisoblanadi [2].

Asosiy qism. Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning quyidagi vazifalari mavjud.



1-rasm. Mustaqil ta'limni tashkil etishning to'rtta vazifalari ko'rsatilgan

Ya'ni bular resurslarni taqdim etish, mustaqil o'rganish uchun muhitni tashkil etish, baholash va tekshiruv jarayonini ta'minlash, amaliy mashg'ulotlar va loyihalar vazifalardan tashkil topgan.

1. Resurslarni taqdim etish - talabalarga mustaqil o'rganish uchun kerakli o'quv materiallari, darsliklar, ilmiy maqolalar, online kurslar va boshqa resurslarni taqdim etish hamda talabalarining o'zi o'rganish jarayonlarini boshqarishga yordam beradi. Bu resurslar talabalarga ma'lumotlarni izlash, o'rganish, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq qilishda yordam beradi. Mustaqil ta'limda resurslarni taqdim etish quyidagi usullarni o'z ichiga;

- *Darsliklar va kitoblar:* bu resurslar asosiy ma'lumotlar manba sifatida xizmat qiladi. Ular talabalarga ma'lumotlarni tushunish va o'rganishga yordam beradi.

- *Onlayn kurslar:* onlayn kurslar o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Ular video darsliklar, interaktiv mashqlar, tekshiruvlar va forumlar orqali talabalarga ma'lumot taqdim etadi.

- *Ilmiy maqolalar va jurnallar:* ular soha bo'yicha eng so'nggi tadqiqotlarni va yangiliklarni o'z ichiga oladi. Talabalarga yangi ilmiy fikrlar va tadqiqotlar bilan tanishishga yordam beradi.

- *Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar:* ular amaliyotni o'rganishga yordam beradi. Talabalarga real dunyodagi muammolarni hal qilish va yangi mahoratlar rivojlantirishga yordam beradi.

- *Forumlar va muhokamalar:* ular talabalarga boshqalar bilan fikrlarini almashish va muhokamalarda ishtirok etishga yordam beradi.

- *Multimedia resurslari:* video darsliklar, audio darsliklar, infografikalar, slaydlar va boshqa multimedia resurslari talabalarga ma'lumotni tushunishga yordam beradi.

- *Open-source software va tools:* ular talabalarga o'rganish jarayonida kerak bo'ladigan mahsulotlarni yaratish uchun kerak bo'lgan vositalarni taqdim etadi.

Bu resurslarni talabalarga taqdim etish, ularning mustaqil ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli bo'lishlarini ta'minlaydi. Bu resurslar o'z vaqtida va samarali ravishda ishlatilganda, talabalarining bilimlari va tajribalarini yanada oshiradi.

2. Mustaqil o'rganish uchun muhitni tashkil etish - bu muhit talabalarga o'z-o'zini boshqarish, o'rganishni rejalashtirish va o'rganish natijalarini tekshirish uchun imkoniyatlar yaratishi kerak va talabalarining o'rganish jarayonida faolliklarini kuchaytirish, bilim va tajribalarini oshirishga yordam beradi. Bu muhit talabalarga foydali o'rganish resurslarini ishlatish, bilimlarni qayta ishlash, va o'rganilgan bilimlarni tatbiq qilish uchun imkoniyatlar yaratadi.

- *O'quv materiallarining muhitga joylashtirilishi*: o'quv materiallari, darsliklar, maqolalar, video darsliklar, interaktiv mashqlar va boshqa resurslar tashkil etilgan muhitda oson topish mumkin bo'lishi kerak [5].

- *Interfaollik va muhokama*: talabalarga o'zaro fikr almashish, muhokama qilish va bir-biriga yordam berish uchun platformalar yaratilishi zarurligi hamda talabalarining o'rganish jarayonida ishtirok etishini rag'batlantiradi va o'rganish jarayonini interfaol va samarali qiladi.

Bu asoslar orqali tashkil etilgan muhit, talabalarining mustaqil o'rganish jarayonida o'zlarining ma'lumotlarini oshirishga, yangi mahoratlarni rivojlantirishga, o'z fikrlarini ifodalashga va bilimlarini amaliyotga tatbiq qilishga yordam beradi.

3. Baholash va tekshiruv jarayonini ta'minlash - talabalarining o'rganish jarayonini va natijalarini tekshirish va baholash uchun tizimli usullar ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligi hamda baholash va tekshiruv jarayonini ta'minlash muhimdir, chunki u talabalarining o'rganish jarayonida o'zlarining tushunish darajasini aniqlaydi. Bu jarayon, shuningdek, o'qituvchilarga talabalarining o'rganish darajasini, ularga qanday yordam berish kerakligini va o'qitish usullarini qanday takomillashtirish kerakligini ko'rsatadi.

- *Formative Assessment (Shakllanuvchi baholash)*: bu turi bilan o'qituvchilar talabalarining o'rganish jarayonini nazorat qilishadi, ularning tushunish darajalarini tekshiradi va o'rganish jarayonida yordam beradi. Bunda, muhokamalar, interaktiv mashqlar, o'z-o'zini tekshirish uchun testlar va boshqa shakllanuvchi baholash usullari ishlatiladi.

- *Summative Assessment (Yig'indisini baholash)*: bu o'rganish jarayonining oxirida yoki kursning tugashidan keyin amalga oshiriladi. Bu jarayon talabalarining bilimlarini, mahoratlarini va tushunishini baholash uchun amalga oshiriladi. Bunda, testlar, loyiha prezentatsiyalari, final imtihonlari va boshqa yig'indisi baholash usullari ishlatiladi.

Bu usullar, baholash va tekshiruv jarayonini ta'minlashning muhim qismlaridir va o'qituvchilarga va talabalarga o'rganish jarayonini yaxshilash uchun kerakli ma'lumotlarni beradi.

4. Amaliy mashg'ulotlar va loyihalar – bu talabalarni real dunyodagi vaziyatlar bilan bog'lanish uchun amaliy mashg'ulotlar va loyihalar tashkil etish hamda bu usul talabalarining bilimlarni amaliyotda qo'llashga, tajribani o'zlashtirishga va kritik fikrlash mahoratlarini rivojlantirishga yordam beradi [4].

- *Amaliy mashg'ulotlar*: bu mashg'ulotlar odatda talabalarga amaliy mahoratlar yoki tajribalar beradi. Misol uchun, texnikaviy kurslarda bu, bir narsani qurish yoki tuzish bo'lishi mumkin; fizika kursida, bu bir tajriba o'tkazish bo'lishi mumkin; yoki dasturlash kursida, bu bir dastur yozish bo'lishi mumkin. Amaliy mashg'ulotlar talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qanday qo'llash kerakligini ko'rsatadi.

- *Loyihalar*: Loyihalar talabalarga biror bir muammo yoki vaziyatga mukammal yechim topish uchun kerak bo'lgan bilim va mahoratlarni jamlash uchun imkoniyat beradi. Loyihalar talabalarga o'zlarining tahlil qilish, muammolarni hal qilish, guruhda ishlash, va kommunikatsiya qilish kabi mahoratlarini sinash va rivojlantirishga yordam beradi.

Amaliy mashg'ulotlar va loyihalar talabalarga o'rganish jarayonida mustahkam o'zini boshqarish, muntazamlik, tahlil qilish va mustaqil o'rganish kabi mahoratlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular, shuningdek, o'qituvchilarga talabalarining bilim va mahoratlarini tekshirish va baholash uchun muhim vosita bo'ladi.

Muhokama va natijalar. Mustaqil ta'lim, texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida talabalarining o'rganish jarayonini kuchaytiradi va ularning mustaqil o'rganish, o'z-o'zini boshqarish, muntazamlik va tahlil qilish kabi muhim mahoratlarini rivojlantiradi. Shuningdek, u talabalarining nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq qilishga yordam beradi, bu esa ularning texnikaviy sohada ishlashga tayyorligini oshiradi.

Texnikaviy oliy ta'lim muassasarda talabalarining mustaqil ta'lim olish faoliyatini faollashtirish uchun quyidagi metodlardan foydalanganimiz yaxshi natijalar beradi.

– ma'ruza matni va darslik bilan ishlash, mavzuga oid materiallarni qunt bilan o'qib chiqishga undash;

– ma'ruza jarayonida ko'rsatilgan va amaliyot darslarida o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan ko'rgazmali ma'lumotlarni takrorlash mohiyatini anglatish;

– har bir mustaqil ishni bajarishda o'tilgan mavzuning xususiyatlarini hisobga olgan holda qiziqarli didaktik o'yinlar tashkil qilish, qiziqarli mavzular tavsiya etish [3].

Mustaqil ta'limni tashkil etish texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida, birinchi navbatda, talabalarining o'zini boshqarish, o'rganishga doimiy qiziqish va mustaqil fikrlash kabi muhim qobiliyatlarni rivojlantirishga

yordam beradi. Bu, ularning kasbiy hayotlarida o'zlarini takomillashtirishga va mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishga imkon beradi.

Xulosa. Mustaqil ta'lim texnikaviy oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilganida, avvalo, mustaqil O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning ro'yobini qisman bo'lsa-da yuzaga keltiradi. Va o'z o'rnida talabalarning o'z-o'zini boshqarish, o'rganish, tahlil qilish va mustaqil o'rganish kabi muhim mahoratlarini rivojlantiradi. Bu esa, ularning o'zlarini takomillashtirish va kasbiy hayotga tayyor bo'lishi uchun muhimdir.

Adabiyotlar:

1. L. Zaripov N., Xayitov Z., Tohirov. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish. [Matn] Metodik qo'llanma. — T.: “Sano-Standart”, 2023. — 32 b.
2. Alqorov Q., Doniyorova Sh., Burxonov R. Talabalar mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish texnologiyasi Maqola. — J.: Vestnik nauki i tvorchestva, 2021. — 5 b.
3. Xayitova Sh., Allazov I. Talabalar mustaqil ta'lim olishini faollashtirish bugungi davr talabi Maqola. — Samarqand: Analytical journal of education and development, 2021. — 5b.
4. Rakhmonov I.U, Ganiev Sh.R. Effectiveness of using artificial intelligence technologies in teaching laboratory courses in higher education institutions // «Elektr ta'minoti tizimining dolzarb muammolari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjumani II-qism. Toshkent shahri 11-12 - noyabr 2022- yil. 45-46 b.

**SHAXSDA O‘ZIGA BAHONI ADEKVATLASHTIRISH ORQALI STRESSGA
BARQARORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI**

*Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Psixologiya” kafedrası dotsenti*

Mazkur maqolada talaba yoshlarda stressga barqarorlikni oshirishda muhim omillardan biri bo‘lgan o‘z-o‘zini baholashni adekvatlashtirish orqali stressga barqarorlikni oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: stressga barqarorlik, determinant, o‘z-o‘zini baholash, adekvat baho, trening, kognitiv, affektiv, konativ, fiziologik, aloqadorlik.

**ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ СТРЕССОУСТОЙЧИВОСТИ ПОСРЕДСТВОМ
АДЕКВАТНОСТИ САМООЦЕНКИ ЛИЧНОСТИ**

В данной статье анализируются возможности повышения стрессоустойчивости путём корректировки самооценки, которая является одним из важных факторов повышения стрессоустойчивости студенческой молодёжи.

Ключевые слова: стрессоустойчивость, детерминанта, самооценка, адекватная самооценка, обучение, когнитивное, аффективное, волевое, физиологическое, отношение.

**POSSIBILITIES TO IMPROVE STRESS RESILIENCE THROUGH THE ADEQUACY OF
PERSONAL SELF-ESTEEM**

This article analyses the possibilities of increasing resilience to stress by adjusting self-assessment, which is one of the important factors in increasing resilience to stress in young students.

Key words: resilience to stress, determinant, self-esteem, adequate assessment, training, cognitive, affective, conative, physiological, relational.

Kirish. Yoshlar mamlakatimizning kelajagi va muhim zaxirasi hisoblanishi hech kimga sir emas. Shunga ko‘ra, davlatimiz siyosatida yoshlar tarbiyasi, ularning jismoniy va ruhiy salomatligi masalasiga alohida e‘tibor qaratilib kelinadi.

Yoshlar orasida mamlakatning intellektual asosini tashkil etuvchi talabalarga bo‘lgan e‘tibor esa undan-da muhim ahamiyatga ega. Talabalik davri o‘zining boy imkoniyatlarga ega ekanligi bilan birga o‘ziga xos qiyinchilik va muammolari, boshqacha aytganda, stressogen ta’sirlarga egaligi bilan ham barcha yo‘nalishdagi, ayniqsa, pedagogika va psixologiya yo‘nalishdagi tadqiqotlarning e‘tibor markazidir.

Keyingi yillarda psixologiya sohasida talabalar va ularning ruhan salomatligiga aloqador muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar ko‘lami kengaydi. Ayni shunday dolzarb mavzulardan biri talabalar stress holatiga tushishi, stressni keltirib chiqaruvchi omillar va stressga barqarorligi masalalariga aloqadordir.

Ma’lumki, shaxsda stressga barqarorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda turli xil ijtimoiylashuv institutlarining roli katta bo‘lib, ulardan biri – oliy ta’lim tizimidir. Oliy ta’lim olish jarayonida talaba faqat umumkasbiy va mutaxassislik fanlaridan ta’lim olibgina qolmasdan, balki o‘z shaxsini rivojlantirishga, psixologik savodxonligini oshirishga ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishga imkon beruvchi omillarga ham duch keladiki, bu omillardan to‘g‘ri foydalana olishi uning stressga barqarorligini oshirish va shaxs sifatida kamol topishini belgilab beradi. Shuning uchun psixolog talabalarni har tomonlama stressga barqaror qilib tarbiyalashi ularning o‘quv faoliyatini tashkil etishda asosiy yo‘nalishlardan birini tashkil etishi lozim.

“Ko‘ra olish uchun bilish kerak, ko‘ra olish esa harakat qilish uchun kerak”, – deb yozgan edi XIX asrning buyuk faylasufi Ogyust Kant. Agar uning fikrini “Stress holatini yaxshi bilish uchun uni ko‘ra olish kerak, stress holatni ko‘ra olish esa shu vaziyatda to‘g‘ri harakat qilish uchun kerak”, deb biroz o‘zgartirilsa, inson hayoti va faoliyati mobaynida stressga barqarorlikning roli katta ekanligi aniq bo‘ladi.

Asosiy qism. Stressli vaziyatlarda stressga nisbatan barqarorlik shaxsning ijtimoiy hayotdagi eng muhim ko‘nikmalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, talaba shaxsida ham stress holatida o‘zini va o‘zining xulq-atvorini nazorat qilish uning xarakteriga xos muhim jihati bo‘lib, aytish mumkinki, har qanday qiyin vaziyatlarda o‘zini va xulq-atvorini nazorat qila oladigan talaba o‘z hissiyotlarini ham boshqara oladi.

L.M.Abolin, B.X.Vardanyanning fikrlariga ko‘ra, stress barqarorligiga ta‘sir etuvchi omillar qatoriga stressning inson ongida idrok etilishiga ta‘sir etuvchi ichki psixologik mexanizmlarni ham hisobga olish lozim.

Shuni alohida e‘tiborga olish kerakki, stressga beriluvchanlik aslida bir qancha omillarga bog‘liq bo‘lib, bular stressorning kuchi va davomiyligi, stress omillariga nisbatan shaxsning munosabati kabilardir. Shular bilan bir qatorda mavzuga oid adabiyotlar sharhi asosida aytish mumkinki, talabalarda stress yuzaga kelishini asoslash uchun faqatgina tashqi omillarning sababi bilan cheklanishning o‘zi yetarli emas, bu borada talabaning ichki ruhiy holati, uning shaxs xususiyatlari ham muhim rol o‘ynashiga alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi. Nazariy tahlillarga ko‘ra, bunday xususiyatlardan biri shaxsning o‘z-o‘ziga beradigan bahosidir.

Shaxsning o‘ziga bahosi uning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi va bunday rivojlanish ma‘lum bir faoliyat va shaxslararo munosabatlar jarayonida sodir bo‘ladi.

O‘z-o‘zini baholash tarkibiga ko‘ra ikki komponentdan iborat bo‘lib, bular: emotsional va kognitiv komponentlardir. Bu komponentlardan dastlabkisi shaxsning o‘zi haqidagi bilimlardan iborat bo‘lsa, ikkinchisi esa shaxsning o‘ziga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Buni aniqroq va talaba misolida aytadigan bo‘lsak, kognitiv komponent talabaning o‘zi, imkoniyatlari, qobiliyatlari va h.k.lar haqidagi tasavvurlarining umumlashgan holda anglanganligidir. Emotsional komponent esa talabaning o‘ziga bo‘lgan munosabati va bahosidan iborat bo‘lib, bu holatlar talabaning bajarayotgan faoliyatiga va jamiyatda namoyon qiladigan xulq atvoriga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, o‘z-o‘zini baholash ikki xil: boshqaruvchi va himoyalovchi vazifalarini bajaradi. O‘z-o‘zini baholashning boshqaruvchilik vazifasi - shaxs tanlagan muammolarni hal qilishga yordam bersa, himoyalash vazifasi - shaxsning barqarorligi va mustaqilligini ta‘minlaydi.

O‘z-o‘zini baholashning mazkur vazifalari shaxsning faoliyatiga, xulq-atvoriga va shaxs sifatida rivojlanishiga, shuningdek, uning boshqa odamlar bilan munosabatlariga ham ta‘sir qiladi, bundan tashqari, shaxsning o‘z muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligini idrok etishi va keyingi maqsadlarni belgilashiga ta‘sir ko‘rsatadi, ya‘ni shaxsning ma‘lum bir muvaffaqiyat uchun intilishlarining darajasini belgilab beradi.

O‘z o‘rnida qayd etib o‘tish kerakki, shaxsning o‘z-o‘zini baholashi 3 xilda bo‘ladi.

1. O‘z-o‘zini yuqori baholash – bunday kishilar o‘z shaxsi, qadr-qimmatini haqida ideal tasavvurlar mavjudligi bilan ajralib turadi, ularning aksariyati o‘zini atrofida uchun, ayniqsa, yaqinlari uchun “tuhfa” deb bilishadi va ularning nazarida hamma ularni qadrlashi lozim deb hisoblaydi. Bunday shaxslar o‘z xatolari, bilimsizligi, xulq-atvoridagi kamchiliklarni, ayniqsa, yalqovligini tan olmaydi, buning ustiga ular o‘zini boshqalarga nisbatan anchagina aqlli deb hisoblaydilar va qattiqqo‘llik, agressivlik, arazlash, murosai-madorani bilmaslik kabi salbiy holatlarni o‘z xulqida tez-tez namoyon qilib turadilar.

2. O‘z-o‘zini past (noadekvat) baholash – shaxsning o‘ziga nisbatan noadekvat, negativ munosabati bo‘lib, bunday shaxs o‘zini haqiqatan qanday bo‘lsa, shundayligicha baholay olmaydi. Bunday shaxslarda ko‘zga tashlanuvchi eng muhim jihatlari sifatida quyidagilarni sanash mumkin: o‘ziga ishonmaslik, uyatchanlik, tortinchoqlik, o‘z iqtidor va qobiliyatlaridan foydalana olmaslik, o‘zini ko‘rsata olmaslik, o‘z imkoniyati nuqtayi nazaridan erisha olishi mumkin bo‘lganiga nisbatan arzimagan maqsadlar qo‘yish, o‘zi bilan sodir bo‘lgan omadsizliklarni bo‘rttirib qabul qilish, atrofdagilarning qo‘llab-quvvatlashiga o‘ta muhtojlik, o‘ziga nisbatan o‘ta tanqidiy munosabatda bo‘lish va shu kabilar.

3. O‘z-o‘zini adekvat (mos, to‘g‘ri) baholash – bunday baholash shaxsda talabgorlikning o‘zaro mosligini ta‘sinlaydi, ya‘ni shaxs o‘z oldiga qobiliyat va imkoniyatlariga mos maqsadlarni qo‘yadi va ehtiyojlari ham shunga mos bo‘ladi, bunday shaxslar o‘z muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan hushyorlik va aql-idrok bilan munosabatda bo‘ladilar. Bunday shaxslar odatda faol, serg‘ayrat, shijoatli va optimistik pozitsiyada bo‘ladi, bu esa shaxsda yaxshi emotsional holatni ta‘minlaydi, yaxshi emotsional holat esa shaxsning kundalik hayotida uchraydigan turli xil muammo va to‘siqlarni muvaffaqiyatli yengib o‘tishiga imkon beradi. Muammo va to‘siqlarni yengib o‘tish esa anglash, o‘z emotsiyalarini va vaziyatni boshqarishni ta‘minlaydi. Aynan mana shu sifat, ya‘ni o‘zini adekvat baholash natijasida o‘z emotsiyalari va vaziyatni boshqara olish ko‘nikmasi talabalarga stressogen omillarni ham yengib o‘tishga hamda o‘qish faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirishga yordam berishini hisobga olgan holda tadqiqotimizning maqsad va vazifalarini belgilaganmiz.

Biz tadqiqotimizda sinaluvchi talabalarda stressga barqarorlikni oshirish maqsadida uning o‘zini baholashini adekvatlashtirish orqali ma‘lum bir ijobiy natijani qo‘lga kiritishni vazifalarimiz qatoriga kiritdik va buning uchun maxsus trening dasturi tarkibiga sinaluvchilarning o‘ziga bahosini adekvatlashtirishga xizmat qiluvchi mashqlar tarkibini kiritdik.

Talabalarda stressga barqarorlikni oshirishga qaratilgan psixologik trening dasturining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda 4 ta asosiy komponent qamrab olingan bo‘lib, dastlab talabalarining mavzu yuzasidan, ya‘ni shaxsning o‘zini baholashi, uning turlari va stressga barqarorlik haqidagi bilimlariga

oydinlik kiritiladi, ikkinchi navbatda talabalarda stressogen vaziyatga nisbatan salbiy munosabatni bartaraf etish yo‘llari o‘rgatiladi, uchinchi galda talabalarga stressogen vaziyatga tushganda bildiriladigan ijobiy reaksiya turlari o‘rgatiladi va nihoyat, to‘rtinchi holat – talabalarni stress vaziyatida yuzaga keladigan fiziologik reaksiyalari meditatsion yo‘l bilan bartaraf etilib, tinchlanish yo‘llari o‘rgatiladi. Trening dasturining 4 ta komponenti quyidagi rasmda o‘z ifodasini topgan.

Kognitiv	Affektiv	Konativ	Fiziologik
Stress, stressogen omillar, o‘z-o‘ziga baho, frustratsiya va frustrasion tolerantlik, koping-strategiya, stressga barqarorlik tushunchalari haqida ma’lumotlar beriladi va bu tushunchalarga nisbatan ishtirokchilarda bilimlar oshiriladi.	Shaxsning o‘z-o‘ziga, stressogen voqega va frustrasion to‘siqqa, koping-strategiyaning “Muammoni hal etish”, “Ijtimoiy qo‘llab quvvatlashni izlash” strategiyalariga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiriladi	Hayot davomida yoki o‘quv faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan stressogen voqeaning vaziyatli modeli yaratiladi va bunday sharoitlarda stressga barqarorlikni namoyon qilishga yo‘nalgan xulq-atvorga o‘rgatiladi.	Stressga tush-ganda organizmni fiziologik jihatdan tinchlantirishga yo‘naltirilgan meditatsion va autogen mashqlarni bajarishga o‘rgatish orqali Fiziologik jihatdan tinchlanishga o‘rgatiladi

1-rasm. Eksperiment guruhida o‘tkazilgan trening dasturining komponentlari

Taklif etilgan trening dasturining davomiyligi 20 soatga mo‘ljallangan bo‘lib, haftasiga 2 kun 2 soatdan o‘tkazilganda jami 10 kunda yakuniga yetadi. Trening dasturida belgilangan va rejalashtirilgan har bir vazifa (o‘ziga bo‘lgan munosabat va bahoning ijobiy tomonga o‘zgarishi, frustrasion tolerantlikning ortishi bilan birgalikda stressli vaziyatlarni yengib o‘tishda koping-strategiyaning faol usullarini egallash va ulardan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilish, oxir-oqibat talabalarda stressga barqarorlikni oshirish)ni amalga oshirish jarayonida sinaluvchilarda stressga barqarorlik ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirib borilishi ko‘zda tutilgan.

Eksperiment guruhida aniqlovchi va nazorat tajriba natijalari o‘rtasidagi statistik tafovut (St’yudent mezon bo‘yicha)

Psixologik determinantlar	Stressga barqarorlik	Aniqlovchi	Nazorat	Tafovutning statistik ahamiyati (t-mezon bo‘yicha)
O‘z-o‘ziga baho		22,3	22,0	0,10

Ma’lumki, shaxsning o‘z-o‘zini baholash tizimi talabaning ma’lum bir stressli vaziyatga tushganida uning xulq-atvorini belgilovchi omillar sirasiga kiradi. Talabalarda ham, aksariyat o‘ziga past baho beruvchilar stress vaziyatida o‘z “Men”ini himoya qilish uchun yuzaga kelgan vaziyatda boshqalarni ayblash, agressiv munosabatda bo‘lish, boshqalardan ranjish kabi xulq-atvorni namoyon etadi. O‘tkazilgan mashg‘ulotlar davomida talabalarda o‘tkaziladigan shakllantiruvchi tajriba modelida quyidagilar ko‘zda tutilgan:

- o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘ziga baho berish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘ziga nisbatan ijobiy emotsional munosabatlarni shakllantirish;

- o‘zini kasbiy va shaxsiy anglash jihatlariga e’tiborini kuchaytirishga erishish. Lekin eksperiment guruhi sinaluvchilarning o‘ziga adekvat baho berish va o‘ziga nisbatan ishonchi sezilarli darajada o‘zgarmaganligini statistik ko‘rsatkichlar isbotlab turibdi, ya’ni sinaluvchilarning o‘ziga baho berishi aniqlovchi tajribada $M_1=22,0$; nazorat tajribada $M_2=22,3$ ni ($t=0,10$) ko‘rsatgan. Buni sinaluvchi talabalarning trening mashg‘ulotlaridan kerakli ko‘nikmalarni o‘zlashtirmaganligi bilan izohlash mumkin.

Talabalarda stress vaziyatida o‘z xulq-atvorini boshqarishning rivojlanishi ularning o‘z-o‘zini anglashi va o‘z-o‘ziga adekvat baho berishidan boshlanadi, talaba o‘ziga adekvat baho berganidan va o‘ziga ishonchi ortganidan so‘ng turli favqulodda va qiyin vaziyatlarda o‘zining xulq-atvorini nazorat qilishga o‘rganib boradi. Talaba yildan yilga tajribasi ortib, o‘z shaxsini mustaqil tahlil qila olish va baholash imkoni ortgan sayin o‘z xulq-atvorini ham nazorat qilishga odatlana boradi. Shu o‘rinda sinaluvchi talabalarning o‘z-o‘ziga

baho berish ko‘rsatkichining shakllantiruvchi tajribadan so‘ng ahamiyatli darajada o‘zgarmaganligini quyidagilar bilan asoslash mumkin: bu xususiyat bolalikdan atrof-muhitdagilarning bahosi va munosabatining ta‘siri ostida shakllanadi va uni belgilangan qisqa vaqt davomida kutilgan darajada o‘zgartirish qiyin ekanligi tasdiqlandi.

Xuddi shu kabi ma‘lumot A.I.Lipkina tomonidan ham bildirilgan, u o‘z-o‘zini baholashni shaxsning o‘z-o‘zini baholashi sifatida qaraydi va bu shaxsning o‘z imkoniyatlari, sifatleri va boshqa odamlar orasidagi o‘rni haqidagi tasavvurlari yig‘indisi bo‘lib, uni adekvatlashtirish oson amalga oshmasligini qayd etadi. Muallifning fikricha, insonning atrof-dagilar bilan o‘zaro munosabati, bu munosabatning tanqidiyligi, insonning o‘z-o‘ziga nisbatan talabchanligi, o‘z muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan obyektiv munosabati kabilar uning o‘z-o‘zini baholashi bilan bevosita bog‘liqdir. Shunga ko‘ra, o‘z-o‘zini baholash – inson faoliyatining samaradorligiga va uning shaxs sifatida kamol topishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi haqida xulosa qilish mumkinligi qayd etiladi [1].

Shakllantiruvchi tajribadan keyingi olingan natijalar talabalarda aynan bunday xususiyatlar uzoq vaqt davomida shakllantirilishi va o‘tkazilgan mashg‘ulotlar ularning o‘z-o‘zini anglashi va baho berishida katta o‘zgarishlar qilish uchun yetarli emasligini asoslovchi natijalarni berdi.

Qolaversa, talabaning o‘z-o‘zini anglashi va baholashida unga nisbatan o‘quv muassasasidagilar – dekanat xodimlari va o‘qituvchilar, shuningdek, o‘zi o‘qiydigan guruhidagi shaxslararo munosabatlar ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Agar bu jarayonda va guruhdagi shaxslararo munosabatlarda ijobiy munosabatlar tarkib topgan bo‘lsa, bu holat talabaning o‘z kuch va imkoniyatlariga ishonishiga va ularni ro‘yobga chiqarishiga imkon beradi va aksincha. Bizningcha, sinaluvchi talabalarda o‘zini baholash natijalarining kutilgan darajada o‘zgarmaganligiga shu kabi omillar qatori o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin.

Shaxsda stressga barqarorlikning shakllanishida uning o‘z-o‘zini anglashga harakat qilishi, o‘zi haqida dunyoqarashining kengayishi va o‘zining ma‘lum bir pozitsiyada tura olishini belgilashi ham muhim rol o‘ynaydi. Bu sifatlar shaxsning o‘zi haqidagi tasavvurlarini va o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, o‘ziga beradigan bahosini pozitiv va adekvat bo‘lishiga imkon beradi.

Olingan tadqiqot natijalari va adabiyotlar tahliliga asoslanib, quyidagi fikrlarni tahlil qilish mumkin. Sinaluvchi talabalarining o‘zi haqidagi fikr va tasavvurlari haqiqatan ham mavjud imkoniyatlariga mos bo‘lsa, ularning o‘z-o‘ziga baho berish ham adekvat bo‘ladi. Bunday talabalar o‘z imkoniyat va qobiliyatlariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish bilan birga, o‘ziga nisbatan yetarlicha tanqidiy munosabatda bo‘lishi, o‘z muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan real nazar tashlashi, o‘z oldiga erisha olish mumkin bo‘lgan maqsadlarinigina qo‘ya olishi bilan boshqa talabalardan ajralib turadilar.

Talaba o‘zini obyektiv baholay olmaydigan holatlarda, ya‘ni uning o‘zi haqidagi fikrlari boshqalar uni qanaqa deb hisoblashi bilan keskin mos kelmasdan qolgan hollarda o‘z-o‘zini baholash ko‘pincha noto‘g‘ri (neadekvat) bo‘ladi va bu xildagi o‘z-o‘zini baholash yuqori va pastga bo‘linadi. Talabada o‘z-o‘zini baholash noadekvat past bo‘lsa, bunday talaba o‘zining real imkoniyatlarini ham past baholaydi. Bu esa odatda o‘z-o‘ziga ishonmaslikka, jur‘atsizlik, tortinchoqlik, o‘z imkoniyat va qobiliyatlarini to‘g‘ri ishga sola olmaslik kabilariga olib keladi. O‘z-o‘zini haddan ortiq past baholash o‘zidan qoniqmaslik, o‘ziga ishonmaslik, befarqlik, tashabbussizlik, o‘z-o‘zini ayblash va hadiksirovchanlik kabi komplekslardan darak beradi. Bunday talabalar o‘z oldiga qiyin erishiladigan maqsadlarni qo‘ymaydi, kundalik odatlanilgan vazifalarni bajarish bilangina qanoatlanishadi, o‘z-o‘ziga nisbatan nihoyatda tanqidchan bo‘lishadi [2].

S.D.Sheoldinning ta‘kidlashicha, “Shaxsning tashqi olam va unda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni chuqur anglashining asosida uning ichki olami yotadi. Bu ichki olam shaxsning o‘zi va o‘zining shaxsiy hayotini, o‘zining shaxsiy sifatlarini va o‘z ehtiyojlarini boshqalarniki bilan taqqoslashga nisbatan qiziqish hosil qilishga imkon beradi. Shaxs stressga barqarorligi uning o‘zi va boshqalar haqida real tasavvurlarning shakllanishi bilan bog‘liq ravishda kechadi” [3; 57-b.].

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkin, ishlab chiqilgan dasturda va o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda sinaluvchi talabalarda o‘zi va boshqalar haqidagi real tasavvurlarning shakllanishi, o‘zining ma‘lum bir pozitsiyada tura olishi kabi xususiyatlarni kutilgan darajada shakllantirish uchun dastur imkoniyatlarini ko‘rib chiqish zarur. Bundan tashqari, shaxsning o‘zini baholashini adekvatlashtirish maqsadida o‘tkaziladigan treninglarda, albatta, o‘ziga baho berishning kognitiv va emotsional komponentlariga ta‘sir etuvchi mashg‘ulotlarni ham qo‘shish lozim.

Adabiyotlar:

1. Липкина А.И. Самооценка школьника. – М.: Знания, 2014. – 64 с
2. Небылицын В.Д. Психологические исследования индивидуальных различий. – М.: Наука, 2016. – 336 с
3. Щеколдин С.Д. Тренинг толерантности. - М.: Смысл, 2004. –96 с

BO’LAJAK MUHANDISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Jo‘rayeva Barchinoy Meyliyevna,

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
“Umumtexnik fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi*

Muqimov Bayramali Raximovich,

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
“Umumtexnik fanlar” kafedrasida mudiri, t.f.f.d.*

Ushbu maqolada bo‘lajak muhandislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llari haqida ma‘lumot va tavsiyalar keltirilgan. Ma‘lumki, zamonaviy ta‘limning asosiy maqsadi - barkamol shaxsni shakllantirish. Shunga ko‘ra, oliy ta‘limning vazifasi malakali mutaxassis tayyorlashdan iborat. Bu ijtimoiy va tabiiy rivojlanish jarayonlarining murakkab dinamikasini tushunishi, ularga ta‘sir ko‘rsatishi va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yetarli darajada harakatlanishi kerak bo‘lgan shaxsdir. Shu bilan birga, u o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlarini baholash, o‘z e‘tiqodi va harakatlari uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

***Kalit so‘zlar:** grafik, diagramma, kompetensiya, texnologiya, texnik, transversal.*

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ

В данной статье представлена информация и рекомендации по способам развития профессиональных компетенций будущих инженеров. Известно, что главная цель современного образования – формирование всесторонне развитой личности. Соответственно, задачей высшего образования является подготовка квалифицированного специалиста. Это человек, который должен понимать сложную динамику процессов социального и природного развития, влиять на них и адекватно двигаться во всех сферах общественной жизни. В то же время он должен иметь способность оценивать собственные возможности и способности, брать на себя ответственность за свои убеждения и действия.

***Ключевые слова:** график, диаграмма, компетентность, технология, техник, поперечный.*

METHODS OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE ENGINEERS

This article is provided information and recommendations on ways to develop professional competencies of future engineers. It is known that the main goal of modern education is to form a well-rounded person. Accordingly, the task of higher education is to train a qualified specialist. This is a person who must understand the complex dynamics of social and natural development processes, influence them and move sufficiently in all spheres of social life. At the same time, he must have the ability to assess his own capabilities and abilities, to take responsibility for his own beliefs and actions.

***Key words:** graph, diagram, competence, technology, technician, transversal.*

Kirish. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan foydalanish zarurati kasb-hunar ta‘limi sifatini oshirish sharti sifatida texnik universitetda o‘qitishning maqsadi va natijasini aniqlashtirishdan kelib chiqadi. Umumyevropa ta‘lim makonining shakllanishi pedagogik jamoatchilikni kasb-hunar ta‘limida barcha ma‘noda modernizatsiya jarayonining asosiy jihatlarini aks ettiruvchi kompetensiyaga asoslangan yondashuvga o‘tish zarurligini tushunishga olib keldi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv doirasida ikkita asosiy tushuncha ajratiladi: “kompetensiya” va “kompetentlik”. Tahlildan ko‘rinib turibdiki, kompetensiya va kompetentlik o‘rtasidagi farq shundaki, kompetentsiya - bu shaxsning maqomini belgilovchi institutsional tushuncha, kompetentlik esa funksional tushunchadir.

Bizning fikrimizcha, mutaxassisning kasbiy kompetensiyasining mohiyati va mazmunini tushunish uchun faoliyatga asoslangan yondashuv eng istiqbolli hisoblanadi. Ushbu yondashuv nuqtayi nazaridan,

kasbiy kompetensiya, mutaxassisning kasbiy faoliyatining mazmuni bilan belgilanadi va shu bilan birga uning muvaffaqiyati uchun zarur shartdir. Binobarin, kasbiy kompetensiya mutaxassis shaxsining ajralmas xususiyati sifatida namoyon bo'lishi mumkin, u ilmiy va nazariy bilimlar tizimini, shu jumladan, ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha maxsus bilimlarni, kasbiy ko'nikmalarni, tajribani, malakali bo'lishga doimiy ehtiyojning mavjudligini, qiziqishning mavjudligini o'z ichiga oladi.

Ko'pgina mamlakatlarda muhandislik ta'limi tendentsiyalari juda o'xshash. Agar Yevropa muhandislik ta'limining holati haqida gapiradigan bo'lsak, tadbirkorlikni rivojlantirish, ta'lim va sanoat sektori integratsiyasi, fanlararo aloqadorlik va transversal ko'nikmalarni shakllantirish ko'pincha ustuvor vazifalar sifatida belgilanadi.

Kasbiylik kasbiy bilim va shaxsiy fazilatlar sohalari kesishmasida rivojlanadi. Muhandisning bilimi va shaxsiy fazilatlar qanchalik faol bo'lsa, u qanchalik muvozanatli va chuqur tahlil qilingan qarorlar qabul qilsa, uning professionalligi shunchalik yuqori bo'ladi. Ijodkorlik shaxsiy fazilatlar bilan birgalikda kompetensiyaning innovatsion tomonini keltirib chiqaradi. Mutaxassisning ijodiy salohiyati va hayotiy pozitsiyasi qanchalik faol bo'lsa, uning motivatsiyasi qanchalik jiddiy bo'lsa, u o'z kasbiy sohasini o'zgartirishga, ko'rsatilgan muhandislik kamchiliklarini yaxshilashga shunchalik intilishga ega bo'lsa, unda yangilik ruhi kuchayadi.

Hozirgi vaqtda kasb-hunar ta'limi tizimi talabalarni innovatsion faoliyatga alohida tayyorlash sifatida rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari asosida o'qitishning mazmuni va texnologiyasini qayta ko'rib chiqish yo'lidano bormoqda. So'nggi yillarda innovatsiyalarga, shuningdek, ta'lim va fanga katta sarmoya kiritilishiga qaramay, muhandislik ta'limi darajasi pasayib ketdi, bu esa oliy ta'lim oldiga yangi vazifalarni qo'yarmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshiradigan muhandislik ta'limi yakuniy natijaga - kompetensiya bilan o'lchanadigan bo'lajak bakalavr faoliyatining sifatiga qaratilgan tuzilma va butun o'quv jarayonini shunday tashkil qilishni nazarda tutadi. Ta'lim mazmuni fanlararo, yaxlit xususiyatga ega bo'lgan kelajakdagi kasbiy faoliyat kontekstida kompetensiyani shakllantiradigan bo'limlarni o'z ichiga oladi, bu esa bitiruvchilarni kasbiy muhitning o'zgaruvchan sharoitlarida muhandislik faoliyatiga tayyorlashga imkon beradi.

Muhandislik ta'limi hozirda loyihaga yo'naltirilgan. Muhandislik loyihasing tuzilishi oxir-oqibat muammolarni shakllantirish va hal qilish bilan bog'liq bo'lib, bakalavrlar universitetda o'qiydigan muammolarning xilma-xilligidir. Bilim va faoliyat tajribasini yangilashning pedagogik vositasi sifatidagi vazifa haqidagi tadqiqotlar berilgan yondashuv nazariyasini shakllantirishga imkon berdi.

I.D.Beloiovskaya, I.A.Zimnyaya, A.P. Trianitsinlar nazarda mutaxassisning muhandislik kompetensiyasining ajralmas xususiyatlariga ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lish va muhandislik faoliyati natijalari uchun shaxsiy javobgarlik, doimiy o'zini-o'zi takomillashtirish zarurati va kasbiy muvaffaqiyatga yo'naltirilganlik kiradi.

I.D.Belonovskaya talqinicha, "Mutaxassisning muhandislik kompetensiyasi - bu muhandislik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kognitiv, faoliyat va qiymat komponentlarini birlashtirgan integratsiyalashgan kasbiy va shaxsiy sifatidir". Muhandislik kompetensiyasining mohiyati hozirgi va kelajakdagi muhandislik muammolari va vazifalarini hal qilishga tayyorlik bilan belgilanadi.

Natija. Bugungi kunda xorijiy mualliflar muammoni hal qilish uchun kognitiv-o'rganish modelini hamkorlikda o'rganish strategiyasi bilan birlashtirgan *gibrid* yondashuvni targ'ib qiladi. Talabalarning muammoni yechish qobiliyati bunday gibrid ta'lim kontekstida tekshiriladi. Eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, eksperimental guruhdagi o'rtacha talabalar an'anaviy tarzda o'qiganlarga nisbatan gibrid yondashuvdan sezilarli farq qilishgan. Ta'limni amaliyotga aylantirish muhimligini ko'plab xorijiy tadqiqotlar natijalari ham tasdiqlaydi. Bilish metodi monodisiplinerlik tamoyilidan chetga chiqib, fanlararo tamoyilga o'tishi kerak. Universitet bitiruvchilari global yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Tadqiqotchilar fikricha, so'nggi yigirma yil ichida kompetensiyalarga yo'naltirilgan ta'lim yetakchi tendensiya bo'lib kelgan.

"Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari boshqa fanlarda, birinchi navbatda, menejment nazariyasi va kasbiy psixologiyada, mehnatni tashkil etish va kasbiy faoliyat sohasida paydo bo'ldi. Kompetensiya deganda, eng avvalo, ma'lum bir kompetensiyalar majmuasiga ega bo'lish tushuniladi, ya'ni kompetensiyalar asosiy tushunchalardir. Kompetensiya so'zi (lotincha *competo* - "birga erishaman, erishaman, mos kelaman, yaqinlashaman") ikkita ma'noga ega: "kimdir bilimdon bo'lgan bir qator masalalar" va "kimdirning vakolatlari, huquqlari doirasi" va kompetensiya so'zning ikkala ma'nosida ham "kompetensiyaga ega bo'lish".

Kompetensiyaning yana bir tushunchasi mehnatni tashkil etish va boshqarish nazariyasini ishlab chiqish jarayonida keng tarqaldi. Lug'atda bu tushuncha quyidagicha ochiladi: kompetensiya - o'z biznesini, bajarilayotgan ishning mohiyatini, ko'zlangan maqsadlarga erishish usullari va vositalarini, shuningdek,

tegishli ko'nikma va qobiliyatlarni chuqur, puxta bilish; mutaxassisning shaxsiy xususiyati, bu mavjud vaziyatni to'g'ri baholash va shu munosabat bilan zarur qaror qabul qilish qobiliyatidan iborat.

N.S.Saxarovanning so'zlariga ko'ra, "kompetensiya", "kompetentlik" tushunchalari fanlararo tushunchalar bo'lib, ilmiy faoliyatning turli sohaslarida keng qo'llaniladi: falsafa, mantiq, tilshunoslik, tibbiyot, huquq, pedagogika, psixologiya, tabiatshunoslik.

O.V.Churakovanning fikriga ko'ra, kompetensiya subyektning ma'lum bir maqsadga erishish uchun o'z resurslarini o'zini o'zi tashkil etishi sifatida tushunilishi kerak.

Mualliflar (Elly de Bruijn, Ivonne Leeman) kompetensiyani rivojlantirishda hal qiluvchi masala - bu professionallikka asoslangan bilish va fikrlash usullarini egallash va ulardan foydalanishni rag'batlantirish deb hisoblaydilar. Ularning fikriga ko'ra, aks ettirish, haqiqiylik va o'qitish amaliyotning asosini tashkil qilishi kerak bo'lgan tegishli xususiyatlardir. Shu ma'noda kompetensiya "shaxsning o'z imkoniyatlari, uning kasbiy bilimlari va tajribasini samarali amalga oshirish qobiliyatining ajralmas xususiyatidir".

Mahalliy va xorijiy mualliflarning asarlarini tahlil qilish tadqiqotning bir nechta yo'nalishlari bo'yicha xulosa chiqarishga imkon beradi.

V.A. Bolotov va V.V. Serikov kompetensiyani o'rganish mahsuli deb hisoblaydi, lekin bevosita uning natijasi emas, balki talabning o'zini o'zi rivojlantirishi, uning texnologik emas, balki shaxsiy o'sishi, faoliyat va shaxsiy tajribani umumlashtirish natijasi sifatida paydo bo'ladi. Kompetensiya, ularning fikricha, mavjud bilim, ko'nikma, ta'lim, shaxsiy o'zini o'zi anglash va talabalarning dunyoda o'z o'rnini topishiga hissa qo'shish usulidir.

J.Ravanning fikricha, kompetensiya - bu muayyan predmet sohasida ma'lum harakatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus inson qobiliyati, jumladan, yuqori ixtisoslashgan bilim, ko'nikma, fikrlash usullari va o'z harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorlik.

A.G. Bermus ta'kidlaydi: "Kompetensiya – shaxsiy, predmetli va instrumental xususiyatlar va komponentlarni o'zida mujassamlashtirgan tizimli birlikdir". M.A. Choshanov ta'kidlaydiki, kompetensiya bilimlarni yangilash va undan muayyan sharoitlarda foydalanishga doimiy intilishdir; Bu eng maqbul va samarali yechimlarni tanlash va yolg'onni rad etish qobiliyatiga asoslangan moslashuvchanlik va tanqidiy fikrlashdir.

A.P. Tryapitsynaning tadqiqotlarida, kasbiy kompetensiya bilim va ko'nikmalarni egallash darajasi, kasbiy muammolarni hal qilishga tayyorlik, o'z ishini oqilona tashkil etish va rejalashtirish, nostandart vaziyatlarda bilim va tajribadan foydalanish bilan belgilanadi. Tadqiqotchi haqli ravishda kompetensiya shaxsning o'zini o'zi belgilash va o'zini o'zi anglash muammolari bilan bog'liq deb hisoblaydi. Eng yuqori daraja megodologik kompetensiya bo'lib, u shaxsning dunyoqarash muammolarini, tadqiqot va ijodiy vazifalarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyati bilan bog'liqdir.

Ushbu sohadagi tadqiqotlarni birlashtirish orqali kompetensiyani uchta asosiy jihatini aniqladik: o'rganilgan bilim, ijodkorlik va shaxsiyat. Ushbu uch jihatning juftlik kombinatsiyasi kompetensiyani uchta qo'shimcha jihatining paydo bo'lishiga olib keladi.



Kasbiylik kasbiy bilim va shaxsiy fazilatlar sohalari kesishmasida rivojlanadi. Muhandisning bilimi va shaxsiy fazilatlarini qanchalik faol bo'lsa, u qanchalik muvozanatli va chuqur tahlil qilingan qarorlar qabul qilsa, uning professionalligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Xulosa. Ijodkorlik shaxsiy fazilatlar bilan birgalikda kompetentsiyaning innovatsion tomonini keltirib chiqaradi. Mutaxassisning ijodiy salohiyati va hayotiy pozitsiyasi qanchalik faol bo'lsa, uning motivatsiyasi qanchalik jiddiy bo'lsa, u o'z kasbiy sohasini o'zgartirishga, ko'rsatilgan muhandislik kamchiliklarini yaxshilashga shunchalik intilishga ega bo'lsa, unda yangilik ruhi kuchayadi.

Nihoyat, kasbiy bilim ijodkorlik bilan uyg'unlashib, zukkolikni yuzaga keltiradi. Yana bo'lajak muhandisning bilimi qanchalik chuqur bo'lsa, ijodiy salohiyati qanchalik baland bo'lsa, u shunchalik ixtirochi bo'ladi va faoliyatining ko'p sohalari bu zukkolik bilan qamrab olinadi.

Adabiyotlar:

1. Зимняя, И. А. Социально-профессиональная компетентность как целостный результат профессионального образования (идеализированная модель) / И. А. Зимняя // Проблемы качества образования. Компетентностный подход в профессиональном образовании и проектировании образовательных стандартов. Книга 2. – [Актуальные проблемы качества образования и пути их решения в контексте европейских и мировых тенденций] : матер. XV Всерос. научно-метод. конф. – М.-Уфа : Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2005. – С. 10

2. Иванова Т. В. Формирование информационно-технологической компетентности будущих инженеров: система дидактических элементов / Иванова Т. В. // Казанский педагогический журнал. – 2011. – №3. – С.123-128.

3. Краснова, О.В. Развитие информационно-технологической компетентности в вузе: шестиуровневая модель / О.В. Краснова, А.А. Краснов // Вестник ПензГУ. – 2013. – №1. – С.14-21.

4. Разработка электронных учебных изданий: учебно-практическое пособие / Н. Д. Изергин [и др.]. – Коломенский институт МГОУ, 2005. – 159 с. 194.

5. Ахмедьянова, Г.Ф. Инженерная компетентность как результат интеграции творческого и технологического компонентов обучения [Текст] / Г. Ф. Ахмедьянова // Фундаментальные исследования.– 2011. – № 8 – С. 13-16.

6. Безрукова, В.С. Словарь нового педагогического мышления [Текст]. – Екатеринбург:Альтернативная педагогика, 1996. – 198 с.

7. Белоновская, И.Д. Формирование инженерной компетентности специалиста в условиях университетского комплекса : дис. ... д-ра пед. наук : 13.00.08/ И.Д. Белоновская. – Оренбург, 2006. – 454 с.

8. Гордієнко, М.Г. Визначення професійної компетентності інженера-електромеханіка [Электронный ресурс]. – Режим доступа [www.url:http://librar.org.ua/sections_load.php?s=energy&id=86](http://librar.org.ua/sections_load.php?s=energy&id=86). – Загл с экрана.

9. Зеер, Э.Ф. Психология профессий [Текст]: учеб. пособие / Э. Ф. Зеер. – М.: Академический Проект;Фонд «Мир», 2006. – 336 с.

10.Зимняя, И.А. Педагогическая психология [Текст]: учеб. пособие / И.А. Зимняя. – Ростов н/Д:

QO‘RIQLASH XIZMATI XODIMLARI KASBIY KOMPETENTLIGI

*Maxmudova Zulfiya Mexmonovna,
Buxoro davlat universiteti Psixologiya va
sotsiologiya kafedrasida katta o‘qituvchisi
azizbekyarasev@mail.ru*

Ushbu maqolada qo‘riqlash xizmati xodimlari ijtimoiy-psixologik va kommunikativ kompetentligi omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi va kommunikativ kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, kasbiy faoliyat, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕРСОНАЛА СЛУЖБЫ ОХРАНЫ

В данной статье рассматриваются исследования проявления и развития факторов социально-психологической и коммуникативной компетентности сотрудников органов безопасности и совершенствования ее специфических социально-психологических факторов, раскрываются механизмы определения компонентов.

Ключевые слова: компетентность, социально-психологическая компетентность работника, профессиональная компетентность, компетенция, профессиональная деятельность, профессиональные знания, умения и навыки, профессионально-психологические характеристики.

PROFESSIONAL COMPETENCE OF PROTECTIVE SERVICE PERSONNEL

This article discusses the research of the manifestation and development of the factors of social-psychological and communicative competence of security service employees and the improvement of its specific social-psychological factors, the mechanisms for determining the components are revealed.

Key words: competence, social-psychological competence of an employee, professional competence, professional activity, professional knowledge, skills and competencies, professional psychological characteristics.

Kirish. Jahonda jinoyatchilikning oldini olish va xavfsizlikni ta’minlash masalasiga e’tibor kundan kunga ortib bormoqda. O‘zbekiston 2023-yilning birinchi yarmida jinoyatchilik va xavfsizlik darajasi bo‘yicha 144 davlat orasidan 115-o‘rinni egallab, jinoyatchilik darajasi bo‘yicha 31,3 ball, xavfsizlik darajasi bo‘yicha 68,7 ball bilan baholangan. Reytingda quyidagi o‘rinlarni egallashi mamlakatda xavfsizlik darajasi yuqoriligidan dalolat beradi. Reytingda jinoyatchilik eng avj davlat sifatida Venesuela (jinoyatchilik darajasi 82,1 ball), Papua-Yangi Gvineya (80,4 ball), Afg‘oniston (78,4 ball) o‘rin olgan. Eng xavfli davlatlar TOP-10 taligiga Gaiti, Janubiy Afrika, Gonduras, Trinidad va Tobago, Suriya, Gayana, Yamayka kirgan. Qatar eng xavfsiz davlat deb topilgan, xavfsizlik darajasi 85,7 ballga baholangan. Shuningdek, BAA (85,4), Tayvan (83,9), Man oroli (82,1), O‘mon sultonligi (80,4), Armaniston (78,4), Gonkong (78,3), Yaponiya (77,1), Singapur (76,9), Baxrayn (75,8) xavfsiz davlatlar o‘ntaligiga kirgan¹. Shu nuqtayi nazardan, jahonda muvaffaqiyatli tarzda olib borilayotgan islohotlar jarayonida jinoyatchilikni oldini olish va xavfsizlikni ta’minlashda huquq-tartibot organlari xodimlari faoliyatiga qo‘yiladigan talablar, ularning shaxsiy, kasbiy va intellektual salohiyatini har tomonlama, xususan, psixologik jihatdan yuksak darajaga ko‘tarish masalasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda huquq-tartibot organlari faoliyati samaradorligini oshirish, qo‘riqlash xizmati xodimlari tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. «Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida qo‘riqlash xizmati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu qonunda ko‘rsatib o‘tilgan bunday muhim vazifalarni bajarishda qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat

¹ https://www.numbeo.com/crime/rankings_by_country.jsp?title=2023-mid

kasb etadi. Shu boisdan, qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy sifatlariga xos bo‘lgan xususiyatlarni ro‘yobga chiqarish, psixokorreksion va rivojlantiruvchi usullar orqali ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta‘sir etuvchi kasbiy, kommunikativ va ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzarb muammo sifatida belgilangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o‘rganish jarayonida bir nechta yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ko‘pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek, ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi va shu bilan bir qatorda, uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo‘lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo‘naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko‘nikma), kognitiv va operatsional.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosining umumiy jihatlari G.M.Andreyeva, Y.A.Abulxanova-Slavskaya, V.P.Bederxanova, A.A.Bodalyev, M.Kyarest, V.A.Labunskaya, A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Mayers, Ye.S.Mixaylova, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, A.V.Xutorskiy, A.J.Yujaninova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

A.K.Markova ijtimoiy kompetentlikni mazmun jihatdan tahlil qilib, uning jarayonli va natijali tomonlarini ajratib ko‘rsatgan. Muallif kompetentlik tuzilmasini jarayon (pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, o‘qituvchi shaxsi) va pedagogik faoliyat natijalari, ya‘ni ta‘lim oluvchining ta‘lim olganlik va tarbiyalanganlik nuqtayi nazaridan tizimlashtirilgan.

Chunonchi, mehnat foydalanishining barcha jihatlari uchun psixologik modul deb nomlanuvchi kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar ishtirok etadi. Shuningdek, kompetentlik tuzilmasi faoliyatning ichki vositasi, ya‘ni motiv, bilim, ko‘nikma va malaka kabi elementlarni qarab chiqish uning jarayonli va natijali ko‘rsatkichlarini hisobga olish haqidagi tasavvur paydo bo‘ladi.

A.V.Xutorskiyning o‘tkazgan ilmiy izlanishlarida, kompetentlik – o‘ziga xos individual-psixologik xususiyat sifatida namoyon bo‘lishi, kompetensiya esa insonning aniq bir muhitda samarali va sifatli faoliyati uchun zarur bo‘lgan tayyorgarlikka qo‘yilgan va oldindan belgilangan ijtimoiy talablardan iboratligini ta‘kidlaydi.

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G.Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko‘nikma, malaka va fikrlash asosida talqin qiladi:

1) kategoriyalar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar, hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo‘yicha refleksiv aqliy faoliyat);

2) amaliy, ijrochilik, ya‘ni insonlar bilan o‘zaro ta‘sir o‘tkazish malaka va ko‘nikmalar tizimi. Yuqoridagi ikkala yo‘nalish kompetentlikning refleksiv va progressiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo‘lmaganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to‘laqonli hisoblanmasdi.

O.A.Bulavenkoning ta‘kidlashicha, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o‘ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg‘un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo‘luvchi holati sifatida qarash kerakligini taklif etadi. Fikrimizcha, kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi, faoliyatda qanaqadir turg‘unlik bo‘lishi uni muvaffaqiyatga erishishida to‘siq bo‘lishi mumkin.

I.A.Zimnaya kompetentlikni yo‘naltirilganlik, maqsadni qo‘ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o‘z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:

a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon qilishga tayyorlik;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositasi, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni yecha olish, tartib-intizom talablari va o‘ziga xos bo‘lgan me‘yorlariga rioya qilish. Bu kompetensiyaning asosiy mazmun-mohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

c) bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish tajribasi, ya‘ni ko‘nikma va malaka;

d) hissiy-irodaviy regulyatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o‘zaro ta‘sir holatlariga bog‘liq holda namoyon bo‘lishini muvofiqlashtirish sifatida.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, kompetensiya tarkibida ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlikning namoyon bo‘lish holatlarida o‘zini-o‘zi nazorat qilish, shaxsiy va kasbiy imkoniyatini namoyon qilish qobiliyatini aks ettiruvchi o‘ziga xos belgilarni ajratish zarur. Sud psixologik ekspertizasi jarayonida o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarni samarali qo‘llash sud psixolog xodimidan o‘zini-o‘zi idora qilish va o‘zini-o‘zi boshqarishning psixologik mexanizmlarining shakllanishini talab qiladi.

Pedagog A.A.Dunyushin shaxsning ijtimoiy-psixologik kompetentligi kasbiy faoliyatda insonlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llay olish

qobiliyati ekanligini ta’kidlaydi. Ko‘rinib turibdiki, fikr muallifi quyidagi bir necha mulohazalar orqali aniqlashtirilgan:

- a) kompetentlik aniq bir faoliyat subyekti tavsifi sifatida baholanishi mumkin;
- b) kompetentlikning mazmuni kasbiy faoliyat maqsadi, tuzilishi va maxsus talablariga bog‘liq;
- c) kompetentlik hissiy-irodaviy sifatlar, shaxsning muloqotmandligi, intellektual salohiyati, shaxsning yo‘naltirilganligi kompetentlikka asos bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, yuqoridagi tahlillarga tayangan holda, sud psixolog xodimlarining kommunikativ kompetentligiga aloqador bo‘lgan jihatlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi, sud psixolog xodimlari kasbiy faoliyatining turli tomonlarini tadqiq etishni hozirgi zamon talabi sifatida tushunish lozim.

A.V.Raysev tamonidan kompetentlik tushunchasining mohiyatida quyidagi bosqichlar keltirilgan: intellektual, amaliy, qadriyatli-mo‘ljalli va nutqli. Shu tufayli mutaxassis kompetentligi har doim faoliyat turiga bog‘liq bo‘lgan aniq holatda namoyon bo‘ladi.

L.G.Semushina asarlarida talqin qilishicha, malaka past, o‘rtacha va yuqori darajada bo‘lganligi tufayli mutaxassis tomonidan biror bir kasb yoki mutaxassislikning egallaganlik darajasini beligab beradi, deb ta’kidlaydi. Olim bu yerda malakani kompetentlik tushunchasiga yaqinlashtirishga uringan.

N.S.Aulova olib borilgan nazariy tahlillarga asoslanib shuni aytish mumkinki, mutaxassislarni faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy kompetentlikning quyidagi mezonlarini asos qilish kerakligini ko‘rsatadi:

– shaxs refleksiv faolligi darajasi – hamkasblarga munosabat, shaxsiy ahamiyatli kasbiy sifatlarda ifodalangan ideal mutaxassis obrazini tanlash, o‘z kasbiga mosligini baholash, refleksiv (o‘z tushunchasi va xatti-harakatlarni anglash) harakatlarning shakllanganligi;

– asosiy texnologik tayyorgarlik sifatida mazmunli-jarayonli, operatsional komponentning shakllanganlik darajasini, kasbiy faoliyatning vositalari, metodlari va yo‘llarini egallash;

– bilish faollik darajasining o‘zlashtirilgan kasbiy bilimlar tizimi, kasbiy masalalarni hal etish usullarini qo‘llash ko‘nikmasi;

– kasbning yuqori ijtimoiy belgilanganligida ishonchning shakllanganligi darajasi;

– samarali kasbiy faoliyat ko‘nikmalarini o‘zlashtirish zaruriyatining ahamiyatini anglash;

– ularni o‘z kasbiy faoliyatida amalga oshirish yo‘llarini topishga intilish;

– anglashning faollik darajasi.

Bizningcha, muallifning mazkur ta’rifida o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik omillar tizimiga alohida e’tibor qaratadi.

Bugungi kunda jahonda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning quyidagi asosiy jihatlariga alohida ahamiyat beriladi:

a) ijtimoiy – o‘ziga mas’uliyatni his etish, hamkorlikda qarorlar qabul qilish va unda faol ishtirok etish qobiliyati, turli etnik madaniyat va dinlarga tolerantlik, shaxsiy qiziqishning jamiyat talablari bilan mosligi;

b) kommunikativ – turli tillardagi yozma va og‘zaki tarzda muloqot qila olish qobiliyatiga egalik;

c) ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ijtimoiy axborotga tanqidiy munosabat;

d) kognitiv – doimiy ravishda ta’lim olish darajasini oshirishga intilish, o‘zining imkoniyatini faollashtirish va amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyoj, ya’ni bilim va ko‘nikmalarni mustaqil egallash, o‘zini-o‘zi rivojlantirish qobiliyati;

e) madaniyatlararo kompetensiyalar;

f) mustaqil bilish faoliyati sohasidagi kompetentlik;

j) maxsus – kasbiy amallarni mustaqil bajarishga tayyorgarlik, o‘z mehnati natijalarini baholash.

Yuqorida qayd etilgan ishlarda kompetentlik mezonlari umumilmiy, ijtimoiy, siyosiy-huquqiy va umumkasbiy bilimlar asosida talqin etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash kerakki, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni ijtimoiy-psixologik kompetentlik omili sifatida talqin qilish an’anasi ham mavjud.

Jumladan, psixologiya fanining fundamental asoslarini ochib bergan olimlardan E.F.Zeer va G.M.Romansevlarning metodologik xizmati shundaki, malaka insonning ijtimoiy va kasbiy qobiliyatlariga qo‘yiladigan ijtimoiy va kasbiy malakaviy talablar majmuasi ekanligini isbotlab berishganligidadir.

Shunday qilib, malaka ham kompetentlik kabi asosiy va kasbiy bo‘lishi, shu bilan birga, kasbiy malakalarni ko‘pincha oddiy malakalar deb nomlash ham mumkin. Ilmiy adabiyotlarda asosiy malakalar sifatida quyidagilar kiritiladi:

– shaxsning kasbiy tayyorgarligi darajasidan tashqaridagi uning ekstrofunktsional bilimi, ko‘nikmalari, individual xususiyatlari;

– aniq kasblar guruhlari sohasidagi ishni bajarish uchun zarur bo‘ladigan shaxsning umumkasbiy bilimlari, ko‘nikmalari va malakalari, shuningdek, qobiliyatlari va sifatleri;

– turli jamoalarga moslashish va ularda samarali faoliyat uchun zarur madaniyatlararo va sohalararo bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va qobiliyatlar.

Natijalar. «Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi» metodikasi asosida olingan natijalar tahliliga qaraydigan bo‘lsak, nazorat tajriba natijalari barcha ijobiy omillarning o‘shishga erishilganligini qayd etish lozim.

1-jadval.

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi bo‘yicha olingan ma’lumotlar tahlili (n=260)

Omillar		uch yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan xodimlar (n ₁ =130)				uch yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan xodimlar (n ₂ =130)			
		Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba		Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba	
		n	%	n	%	n	%	n	%
«A» omil	Muloqotchan	53	40,07	112	86,15	81	62,30	121	93,07
	Muloqotga kirishishga qiynaladigan	77	59,30	18	13,85	49	37,70	9	6,93
«B» omil	Mantiqiy fikrlaydigan	87	66,92	109	83,84	84	64,61	118	90,77
	Zaif fikrlaydigan	43	33,08	21	16,16	46	35,39	12	9,33
«C» omil	Barqaror	76	58,46	114	87,69	85	65,38	108	83,07
	Beqaror	54	41,54	16	12,31	45	34,62	22	16,93
«D» omil	Optimizm	81	62,30	106	81,54	102	78,46	125	96,15
	Pessimizm	49	37,70	24	18,46	28	21,54	5	3,85
«K» omil	Ijodiy tafakkuri rivojlangan	49	37,70	63	48,46	91	70,00	116	89,23
	Realist	81	62,30	67	41,54	39	30,00	14	10,77
«N» omil	O‘zini nazorat qila oladigan	89	68,46	113	86,92	95	73,07	117	90,00
	Nazoratda qiyinchilikka uchraydigan	41	31,54	17	13,08	35	26,93	13	10,00
«M» omil	O‘ziga yo‘nalgan	84	64,61	52	40,00	64	49,23	48	36,92
	O‘zgalarga yo‘nalgan	46	35,39	78	60,00	66	50,77	82	63,08
Jami		130	100	130	100	130	100	130	100

Xususan, uch yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan xodimlarda muloqotchanlik (86,15%), optimizm (81,54%), mantiqiy fikrlaydigan (83,84%), barqaror (87,69%), o‘zgalarga yo‘nalganlik (86,92%), o‘zini nazorat qila olish (86,92%) omillari bo‘yicha ko‘rsatkichlarning yuqori darajada o‘shish kuzatilgan bo‘lsa, uch yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan xodimlarda barcha omillarning ijobiy tomoni bo‘yicha ko‘rsatkichlarning yuqori darajada o‘shish kuzatildi, tabiiyki, salbiy omillar bo‘yicha ko‘rsatkichlarning pasayganligi qo‘llanilgan psixotexnikaning korreksion ahamiyat kasb etganligini ko‘rsatadi. Bu esa xodim kasbiy faoliyati sifat-samaradorligining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi (1-jadval).

Qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kommunikativ kompetentlik bilan o‘zaro proporsionallikda takomillashtirishga qaratilgan psixotexnikalarni qo‘llash orqali yuqori samaradorlikka erishilganligini ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval.

Qo‘riqlash xizmati xodimlari emotsional intellektining qiyosiy ko‘rsatkichlari tahlili (N.Xoll usuli bo‘yicha)

Omillar	uch yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan xodimlar n ₁ -130				uch yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan xodimlar n ₂ -130			
	Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba		Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba	
	M ₁	S	M ₂	S	M ₁	S	M ₂	S
Emotsional bilimdonlik	9,02	2,13	13,68	1,99	10,26	2,01	15,38	1,38
O‘z emotsiyasini boshqarish	8,03	1,23	15,49	2,13	11,72	1,13	16,25	1,36

O‘zini-o‘zi rag‘batlantirish	9,03	1,41	15,73	1,53	11,84	1,33	15,80	1,51
Empatiya	9,12	1,52	15,54	1,94	11,02	2,01	16,46	1,18
O‘zga insonlarning kechinmalarini sezish	7,33	2,43	15,87	2,21	11,87	2,12	16,67	0,68

Izoh: *M* – o‘rtacha qiymat. *S* – standart xatolik

Yuqoridagi jadvallardan ko‘rinib turibdiki, trening dasturi qo‘llanilgandan keyin uch yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan xodimlarning emotsional intellektining umumiy natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘rtacha ko‘rsatkich emotsional bilimdonlik 4,66, o‘z emotsiyasini boshqarish 7,46, o‘zini-o‘zi rag‘batlantirish 6,70, empatiya 6,42, o‘zga insonlarning kechinmalarini sezish 8,54 ball doirasida o‘shishga erishilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Uch yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan xodimlar emotsional intellektining umumiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilar ekanmiz, emotsional bilimdonlik 5,12, empatiya 5,44, o‘zga insonlarning kechinmalarini sezish 4,80, o‘z emotsiyasini boshqarish 4,53, o‘zini-o‘zi rag‘batlantirish 3,96 ball yuqorilaganligi faoliyat jarayonida hamkasblari va fuqarolar bilan muloqotda samarali natijaga erishish imkonini berishi bilan ahamiyat kasb etib, emotsional kechinma chegaralari, emotsional intellektning ikki tomoni, ya‘ni o‘zining emotsiyalarini tushunish uchun intellektual boshqaruvga yoki aksincha kasbiy faoliyat jarayonida ijodiy impulslar va intuitsiyalarni ta‘minlashda emotsiyaga zarurat borligini anglash, muloqot qilinayotgan shaxs emotsiyasining vazifalari to‘g‘risidagi bilimlarga, faoliyat jarayonida emotsional barqarorlik va beqarorlik, salbiy emotsional holatlar, xususan, affekt, stress, frustratsiya, depressiya va ulardan chiqish yo‘llarini izlash to‘g‘risidagi psixologik tomonlari va hayotiy tajribadan yetarli darajada boxabar ekanligidan dalolat beradi (2-jadval).

Trening mashg‘ulotlari o‘tkazilgandan so‘ng, barcha kompetentlik omillari bo‘yicha o‘shish kuzatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, uch yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan xodimlarda sotsial-perseptiv kompetentlik omili 4,8, kommunikativ kompetentlik 5,8, kognitiv kompetentlik 5,1, individual psixologik kompetentlik esa 4,1 balga ko‘tarilganligini ko‘rishimiz mumkin. Uch yildan ortiq ish tajribasiga ega bo‘lgan xodimlarda ham ko‘rsatkichlarning yuqori darajasi kuzatildi: sotsial-perseptiv kompetentlik omili bo‘yicha 5,1, kommunikativ kompetentlik 4,8, kognitiv kompetentlik 4,2, individual psixologik kompetentlik esa 5,2 ball yuqoriladi.


Sotsial-perseptiv kompetentlik omili bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan respondentlarda muloqot jarayonida ijtimoiy persepsiya mexanizmlari, ya‘ni refleksiya, identifikatsiya, empatiya muvaffaqiyatli darajada ishlashidan dalolat beradi. Ular o‘z suhbatdoshlarini har qanday holatda ham tushunib, emotsional qo‘llab-quvvatlashlarini anglatadi. Xodimlar kasbiy faoliyatida sotsial-perseptiv kompetentlik kasbdoshlari, rahbariyat va fuqarolar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, kasbiy kompetentligi yuqori bo‘lgan xodimlarda mazkur omilni yuqori darajada namoyon bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

3-jadval.

Qo‘riqlash xizmati xodimlarida kasbiy kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanganlik darajalari (IPS natijalari asosida) (n=260)

№	Omillar	uch yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan xodimlar n ₁ -130			uch yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan xodimlar n ₂ -130		
		M ₁	M ₂	S	M ₁	M ₂	S
1	Sotsial-perseptiv kompetentlik	15,4	20,2	1,37	17,7	22,8	1,09
2	Kommunikativ kompetentlik	13,8	19,6	1,52	16,9	21,7	1,75
3	Kognitiv kompetentlik	16	21,1	1,23	18,6	22,8	1,05
4	Individual psixologik kompetentlik	16,8	20,9	2,02	18,4	23,6	1,02

Izoh: *M* – o‘rtacha qiymat. *S* – standart xatolik



1-rasm. Qo'riqlash xizmati xodimlarida kasbiy kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanganlik darajalarining qiyosiy tahlili (IPS natijalari asosida) (n=260)

Kommunikativ kompetentlik bo'yicha yuqori natijalarning qayd etilishi, xodimlarda muloqotda so'zning motivatsion funksiyasidan samarali foydalanish, ma'lumotlarni aniq, tizimli bayon qilish, nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun paralingvistik ta'sir vositalarini qo'llash ko'nikmasining ustuvor ekanligini ko'rsatadi. Xodimlardagi muloqot auditoriyasining rang-barangligi axborotni qabul qilish va uzatish jarayonida paralingvistik, ekstrolingvistik ta'sir mexanizmlaridan samarali foydalanishni talab etadi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillaridan navbatdagisi kognitiv kompetentlikdir. Aslida kognitiv kompetentlikning yuqori darajada namoyon bo'lishi xodimlarda kasbiy ma'lumotlarni to'plash, mantiqiy operatsiyalar yordamida qayta ishlash, ijodiy tafakkur doirasida uning ahamiyatlilik darajasini baholash hamda tahlil qilish, kasbiy funksional vazifalarni bajarishda tezkor qaror qabul qilish hamda vaqtni rasional taqsimlash xususiyatining ustuvorligini anglatadi. Umuman olganda, mazkur omil bo'yicha aniqlangan holat kognitiv kompetentlik omilini namoyon bo'lishida xodimlarda kasbiy faoliyat bilan bog'liq vaziyatli to'siqlarni yengib o'tish ko'nikmasining rivojlanganlik darajasini ijtimoiy ish tajribasiga bog'liq ravishda namoyon bo'lishi muhim ahamiyatga ega ekanligi kuzatilmoqda.

Autopsixologik kompetentlik omili bo'yicha yuqori natijaga ega bo'lgan xodimlarda o'z xatti-harakatlarini to'g'ri boshqara olish, o'z shaxsiy xususiyatlarini adekvat baholay olish, o'zini-o'zi tartibga solish qobiliyati yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Xodimlarning doimiy o'z ustida ishlab, atrofdagilarning, ayniqsa, fuqarolar hamda hamkasblarining ijtimoiy kutuvlariga o'zlarini moslashtirib, o'z-o'zlarini nazorat qilishlari, o'z-o'zlarini kuzatishlari, tahlil qilishlari asosida o'z-o'zlarini anglashlari muhim kasbiy-professional xususiyatlaridan biri hisoblanadi (3-jadval, 1-rasm).

Xulosa. Shaxsning kasbiy va akmeologik rivojlanishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan psixologik xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan psixologik trening dasturni samaradorligini baholashda aniqlovchi hamda nazorat tajribalaridan olingan natijalarni tahlillariga asoslanib, qolaversa, qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish dasturi va uni qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy faoliyatiga ta'siri natijasini tadqiq qilish bo'yicha quyidagilar aniqlandi:

1. Qo‘riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega va xodimlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish dasturida turli vaziyatlar va shaxslararo munosabatlar tizimining ta’sirchan mexanizmlariga alohida e’tibor qaratildi.

2. Biz tomonimizdan taklif etilgan rivojlantiruvchi psixologik trening dasturi qo‘llanilganidan so‘ng xodimlarda kasbiy kompetentlik omillarining rivojlanganligi aniqlandi. Jumladan, tajriba guruhimizda kasbiy kompetentlik va uning omillari indeksatsiyasi darajasi ortib, ularning o‘z-o‘ziga beradigan bahosi, ijtimoiy vaziyatni adekvat baholash, o‘z emotsiyalarini refleksiv boshqarish ko‘nikmasi, muloqotchanlik, muvaffaqiyatga intilish tendensiyasi kuchayganligi aniqlandi.

3. Kasbiy kompetentligini rivojlantirish trening dasturi qo‘riqlash xizmati xodimlarida tadqiq qilindi va shu asosda muayyan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu dasturni qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy faoliyatining barcha bosqichlarida foydalanish mumkin.

4. Barcha bosqich qo‘riqlash xizmati xodimlarining psixologik trening dasturini qo‘llashda erishilgan natijalar kasbiy kompetentlik va unga ta’sir qiluvchi omillarning ko‘rsatkichida o‘z aksini topdi.

Qo‘riqlash xizmatida faoliyat olib boradigan xodimlarning kasbiy kompetentligi omillarining namoyon bo‘lishi va rivojlanishi masalasini chuqurroq tahlil qilish uchun kelgusida kasbiy kompetentlikning ish faoliyatiga tayyorlik darajasi bilan bog‘liqlik tomonlarini tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O‘smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.

2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.

3. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.

4. Olimov L.Y. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.

5. Olimov L.Y., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.

6. Olimov L.Y., Nazarov A.M.. Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.

7. Olimov L.Y., Bahronova M.O. O‘smirlar ma’naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

MEDIATA'LIM JARAYONIDA MAKTAB O'QUVCHILARI VA TALABALAR YOSH XUSUSIYATLARINING MEDIADAGI AFZALLIKLARI

*Nekboyev Xurshid Xoliyorovich,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
Axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri, p.f.f.d.(PhD), dotsent*

Maqolada bugungi kunda professional va ijtimoiy-siyosiy axborotni izlash, muloqot va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish auditoriyaning internetdagi asosiy vaqtini tashkil etishi haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari, raqamli mediamadaniyatida ommaviy axborot vositalarini qo'llashning asosiy sabablari keltirilgan.

***Kalit so'zlar:** pedagogika, ommaviy axborot vositalari, raqamli texnologiyalar, televizion o'yin, internet.*

ПРЕИМУЩЕСТВА ВОЗРАСТНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ШКОЛЬНИКОВ И СТУДЕНТОВ В МЕДИА В ПРОЦЕССЕ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ

В статье рассматривается то, что поиск профессиональной и общественно-политической информации, общение и организация свободного времени составляют основное время аудитории в Интернете. Кроме того, представлены основные причины медиапотребления в цифровой медиакультуре.

***Ключевые слова:** педагогика, средства массовой информации, цифровые технологии, телевизионная игра, интернет.*

ADVANTAGES OF AGE CHARACTERISTICS OF SCHOOLCHILDREN AND STUDENTS IN MEDIA IN THE PROCESS OF MEDIA EDUCATION

The article discusses that the search for professional and socio-political information, communication and organization of free time constitute the main time of the audience on the Internet. In addition, the main reasons for media consumption in digital media culture are presented.

***Keywords:** pedagogy, media, digital technologies, television game, Internet.*

Kirish. Mamlakatimiz mediata'lim modellarining o'ziga xosligi umumdidaktik tamoyillar (ta'lim jarayonida ijodiy shaxsning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi, ilmiylik, tizimlilik va izchillik, ta'limning hammabopligi, nazariya va amaliyotning bog'liqligi, ko'rgazmalilik, faollik, ta'limdan mustaqil ta'limga o'tish, ta'limning atrof- muhit bilan bog'liqligi, ijobiy emotsional fon, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish) hamda mediamadaniyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq tamoyillarga (audiovizual idrokni rivojlantirish, mediamatnlarni tahlil qilish ko'nikmalari va h.k.) rioya qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

O'quv jarayonining umumiy kontsepsiyasida mediata'lim fanining rivojlanishi butun dunyoda o'n yildan ortiq vaqt davomida sodir bo'lmoqda. Buyuk Britaniya, Kanada, AQSH, Avstraliya va boshqa dunyoning yetakchi mamlakatlarida mediata'lim konsepsiyasi bir necha o'n yillar davomida faol rivojlanib kelmoqda.

Mediata'limning zamonaviy nazariyasi asoschilaridan biri ingliz olimi Len Masterman edi. Uning mediata'lim modeli mediata'limning o'zi hech qanday madaniy va estetik qadriyatlarni yuklamaydigan tadqiqot jarayoni sifatida harakat qilishiga asoslanadi, lekin zamonaviy jahon hamjamiyatining har qanday a'zosi uchun so'z erkinligini olish huquqining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, mediata'lim tizimining samaradorligini talabalarning zamonaviy axborot sohasida egallagan bilimlarini qo'llash qobiliyati va ularning yangi paydo bo'lgan majburiyatlari, qiziqishlari va motivatsiyalarining darajasi bilan baholash mumkin.

L.Mastermanning o'zi mediata'lim konsepsiyasi mohiyatan media kanallari orqali olingan har qanday ma'lumotlarga nisbatan tanqidiy fikrlash asoslari va usullarini yoki o'ziga xos tanqidiy mustaqillikni joriy etish tamoyiliga asoslanadi.

O'zining mediata'lim konsepsiyasini ishlab chiqar ekan, L.Masterman OAV taqdim etayotgan axborotni shakllantirish va baholashda yoki har qanday voqeani yoritishda xolislik va xolislikka jiddiy e'tibor berishni taklif qildi. Olim, shuningdek, fuqarolarning umumiy va individual qadriyat nuqtayi nazarini

shakllantirishda zamonaviy ommaviy axborot vositalarining yetakchi rolini e'tirof etish muhimligiga e'tibor qaratdi. U talabalarda olingan ma'lumotni tanqidiy baholash qobiliyatini singdirishga va ongni manipulyatsiya qilish holatlariga duch kelganda ularda “Tanqidiy immunitet” ni rivojlantirishga chaqirdi. Xususan, “Ommaviy axborot vositalari ta'limi” asarida u ommaviy axborot vositalarining bunday yashirin manipulyatsiyasini batafsil tahlil qilgan va ommaviy axborot vositalari ta'limining nazariy asoslari va tamoyillarini, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining ta'lim-tarbiya jarayonini monitoring qilish usullarini o'z ichiga olgan keng qamrovli o'qitish modelini ishlab chiqqan. L. Mastermanning mediata'lim konsepsiyasi uning muallifining o'qituvchilar va talabalarni qabul qilingan ma'lumotlarning qiymati va uning auditoriyaga ta'sir darajasini tahlil qilish qobiliyatidan foydalangan holda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirish istagini aniq ko'rsatib beradi.

Mastermanning mediata'lim nazariyasi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usuli sifatida («Critical Thinking Approach, Critical Autonomy Approach, Critical Democratic Approach, Le Jugement critique, L'Esprit critique, Representational Paradigm») nafaqat butun dunyoda mashhur, balki o'qituvchilar jamoasida ko'plab tarafdorlari va izdoshlariga ega. U “To'rtinchi hokimiyat” deb ataladigan ommaviy axborot vositalari o'z iste'molchilari orasida muayyan xatti-harakatlar va ijtimoiy qadriyatlarini tarqatish qobiliyatiga ega ekanligini ta'kidlaydigan “Media nazariyasi”ga asoslanadi.

Olimning fikricha, “Mediamatn sifatini baholash masalalari mediata'limda markaziy o'rinni egallamasligi kerak, faqat yordamchi bo'lishi kerak. Asosiy maqsad talabalarga ommaviy axborot vositalari qanday ishlashini, ular kimning manfaatlarini aks ettirishini, media matnlarning mazmuni nima ekanligini, ular voqelikni qanday aks ettirishini va tomoshabinlar tomonidan idrok etilishini tushunishga yordam berishdir” [1; 60-b].

Televidenie, A.V. Sharikov fikricha, umumiy ijtimoiy darajada oltita asosiy funksiyani bajaradi: integrativ, kommunikativ, tartibga solish, targ'ibot, translyatsiya, prognostik, shuningdek, jamoatchilik fikrini shakllantirish. Bundan tashqari, televidenie ta'limiy, tarbiyaviy, ma'rifiy funksiyalarni bajaradi; madaniyatni tarqatish, badiiy-estetik tarbiya, ma'anaviy qadriyatlar, xulq-atvor me'yorlari va muloqot standartlarini uzatishga yordam beradi [2;79-b.].

Yosh auditoriyada tomoshabinning teleekran bilan faol o'zaro ta'siri, monitorda (ekranda) sodir bo'layotgan jarayonga tomoshabinning faol kirib borishiga asoslangan interfaol televidenie alohida qiziqish uyg'otadi. Interfaol televidenie ko'p hollarda o'yin elementlarini o'z ichiga oladi. Hozirgi paytda interfaol televideniening bir qator o'yinli shakllari mavjud, unda tomoshabin biron ma'lumot oladi, va u buni ta'lim olish uchun emas, balki ko'ngil ochish uchun qiladi. Shuningdek interfaol ma'rifiy televidenie mavjud, u o'yin emas, balki ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari xodimlari axborot oqimlari dengizida, ammo Internet eng mashhur media kanallardan biri bo'lib qolmoqda. Raqamli inqilob davrida rivojlanayotgan yangi media turmush tarzi va ijtimoiy xulq-atvorning yangi qirralarini shakllantirmoqda, bu Internetning zamonaviy shaxsning xususiyatlarini va uning faoliyati xususiyatlarini o'zgartirishga ta'siri bilan belgilanadi. Bugungi kunda professional va ijtimoiy-siyosiy axborotni izlash, muloqot va bo'sh vaqtni tashkil etish auditoriyaning internetdagi asosiy vaqtini tashkil etadi.

Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish insonning axborot olami chegaralarini kengaytiradi, uning idrok etish va psixomotor qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, olingan ma'lumotlarning tezligi va hajmini oshiradi. Biroq tadqiqotchilar ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilishning salbiy oqibatlariga e'tibor berishadi. Kuchli "mavjudlik effekti"ning paydo bo'lishi tufayli Internet shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy muloqot vaqtini qisqartiradi, ijtimoiy aloqalarning buzilishiga va ruhiy tushkunlik paydo bo'lishiga olib keladi. Yana bir muammo - foydalanuvchining onlayn ma'lumot va aloqaga bog'liqligi, ya'ni internetga qaramlik [3;131-b.].

Bugungi kunda raqamli muhitda media-kommunikatsiya jarayoni ishtirokchilarining xatti-harakatlari tamoyillarini o'rganishga qaratilgan kompleks tizimli fanlararo tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Ular insonning kundalik ijtimoiy-madaniy amaliyotlari qanday o'zgarishini, insonning gumanitar o'lchovi qanday o'zgarishini tushuntirishga mo'ljallangan.

Ularning asosiy vazifasi - axborot manbalarini tanlashda "raqamli yoshlar" motivatsiyasini va turli xil turlari, shuningdek, xatti-harakatlar, kommunikativ xususiyatlar va axborot kun tartibini shakllantirish jarayonini nazariy tushunish uchun zarur bo'lgan motivatsion omillarni o'rganishdir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Televideniada o'yinlarning tarqalishi “yangi ekran inqilobi” bilan birga kechadi, u elektron o'yinlar va kompyuter texnologiyalarining zamonaviy hayotga kirib borishi bilan bog'liq. Interfaollik televizor va

kompyuter imkoniyatlarining birlashishini ko'zda tutadi. Televizion o'yinlar, video o'yinlardan farqli o'laroq, televizion tomoshaning “o'yinchilari” va “tomoshabinlari” bo'lgan tarqibiy qismini ifodalaydi.

V.Ya.Surtayevning fikriga ko'ra, o'yinli televizion mediamadaniyatning vujudga kelishi “yosh inson shaxsining maksimal darajada o'z-o'zini ochib berishga ko'maklashishi, uni xilma-xil va emotsional jihatdan to'yingan muloqot va ijtimoiy-madaniy improvizatsiyalar dunyosiga tortadi”. Darhaqiqat, “Quvnoqlar va zukkolar klubi”, “Nima? Qaerda? Qachon?” kabi dasturlar Rossiyaning turli yoshdagi teletomoshabinlari uchun an'anaviyga aylangan [4;336-b].

Televizion o'yin muayyan qoidalar asosida tashkil qilinadi: unda boshlovchilar (olib boruvchilar), o'yinchilar va tomoshabinlar qatnashadi. Ishtirokchilar ularga bergan savollarga javob topish yoki u yoki bu sovg'a orasidan bittasini tanlash uchun turli epizodlarni ijro etadilar. Tomoshabinda har gal “Keyin nima bo'ladi?” degan savolga javob kutish bilan bog'liq toqatsiz kutish, ya'ni badiiy asar, masalan, detektiv yoki psixologik dramani idrok qilishga xos holat vujudga keladi.

Shu bilan birga, lotereya yoki ko'ngil ochar shoular (hozirda Rossiya TVsida ko'plab namoyish qilinayotgan) mustaqil fikrlash, tasavvurning rivojlanishiga yordam bermaydi. Tomoshabinlar (ayniqsa yoshlarning) rivojlanishi yoki o'zini o'zi ro'yobga chiqarishi, shuningdek, intellektual darajasini oshirish uchun eng unumli “Kim millioner bo'lmoqchi?” “Eng aqli” kabi viktorinalarga o'xshash o'yinlar hisoblanadi. Bunda qiziqish bilan birga rivojlantiruvchi elementlar bo'lib, o'z-o'zini intellektual jihatdan namoyon qilish imkoniyati beriladi.

Maktab o'quvchilari va yoshlar o'rtasida seriallar – turli janrdagi ko'p seriyali televizion filmlar keng tarqalgan. So'nggi yillarda mamlakat televizion ekranlarida bolalar va yoshlarga mo'ljallangan seriallarni namoyish qilish ko'payib bormoqda. Maktab hayoti, do'stlik, tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar kabilar ularning asosiy mavzularini tashkil qiladi. Ushbu muammolar bolalarga tushunarli, ularda qiziqish tug'diradi, personajlardan birontasini yoqtiradilar, boshqalarining o'zini tutishi yoqmaydi. Ba'zida bunday serial bola uchun “hayot maktabiga” aylanadi, unga zarur hayot tajribasiga ega bo'lish imkonini beradi. Bunday kinohikoyalarning badiiy darajasi bir xil emasligi, ya'ni qiziqarli rejissiyorlik va aktyorlik yechimlar bilan birga, bolalarga sifati past, siyqasi chiqqan “mediasan'at” asarlari taklif qilinishi – boshqa masaladir. Shunga qaramasdan, ularning har birining tegishli estetik va badiiy talablari bo'lgan o'zining auditoriyasi mavjud.

Bolalar auditoriyasining seriallarga (nafaqat bolalarga mo'ljallangan seriallarga) qiziqishi doimiy personajlarning bo'lishi, sevimli qahramonlar bilan birga hayotning muayyan qismini “yashab o'tish” imkoniyati bo'lganligi bilan shartlab berilgan. Aksariyat seriallarning asosini (har qanday “ommaviy madaniyat” asardagi kabi) afsona, rivoyat, ertak tashkil qiladi. Shu bilan birga, seriallar tomoshabinlarda doimiy qiziqishni qo'llab-quvvatlashga asoslangan – har bir seriya “eng qiziq joyda” tugaydi, bu serialni ko'rish jarayoniga yechish hissini tug'diradigan jumboq, fitna elementini kiritadi [5;423-b].

Maktab yoshidagi bolalar va yoshlar tarqalgan ommaviy madaniyat audiovizual asarlarining asosiy tizim tashqil qiluvchi xususiyatlariga ega realiti-shoularning asosiy auditoriyasini tashkil qiladi. Bu xususiyatlarga, birinchi navbatda, ko'p seriyalilik tegishli. Shuning bosh qahramonlari, doimiy boshlovchilar, yillar davomida o'zgaraydigan dekoratsiyalar, fitna – bularning hammasiga yosh tomoshabin o'rganib qoladi va sodir bo'layotgan hodisalarni o'z hayotining bir qismi sifatida idrok qilishi imkonini beradi.

Janr qonunlariga binoan, realiti-shou “eng qiziq joyida” tugaydi, bu esa auditoriyani emotsional zo'riqish holatida ushlab turish imkonini beradi, sodir bo'layotgan hodisalarga qiziqishning ortishiga yordam beradi. Bundan tashqari, har bir qism “butun bir kunni” bosh qahramonlar bilan birga “yashab o'tishni” modellashtiradigan muayyan barqaror tuzilishga ega. Bu xususiyat shouni qat'iy o'rnatilgan tartibga ega real voqealar uzluksiz zanjiri sifatida idrok qilish imkonini beradi.

Realiti-shou (mediamadaniyatning boshqa ommaviy audiovizual asarlari singari) uchun “shok” va “tinchlantiruvchi” reaksiyalar tug'diradigan epizodlar almashinuvi xosdir. Boshqacha aytganda, «emotsional tebrangich» mexanizmi amal qiladi, u ijobiy va salbiy qismlarning almashinuvi yo'li bilan har xil (yosh tomoshabinlar dasturning sevimli qahramonlari bilan birga boshdan kechirishga tayyor bo'lgan juda xursand bo'lishdan ruhiy tushkunlikgacha bo'lgan) his-tuyg'ularni boshdan kechirishga imkon beradi.

Raqamli texnologiyalar ta'siri ostida jamiyat shu qadar o'zgardiki, ommaviy kommunikatsiya nazariyasi, sotsiologiya va psixologiyadan ba'zi asosiy va klassik yondashuvlar ishlamayapti. Ijtimoiy media platformalarining rivojlanishi va “raqamli mahalliy aholi” ning yangi avlodining paydo bo'lishi raqamli media madaniyati jamiyatining shakllanishiga olib keldi. Ushbu turdagi madaniyat yangi ijtimoiy dunyoni yaratadi, hech bo'lmaganda Z avlodi uchun. Rossiya yoshlari uchun ommaviy axborot vositalari jismoniy voqelikning tasvirlari yoki jarayonlari endi aks ettirilmaydigan yoki ko'paytirilmaydigan, balki yaratilgan va amalga oshiriladigan ijtimoiy muhit va madaniy makondir. Biz real va virtual voqelik o'rtasidagi media

vositachiligini yo'qotdik va yoshlar uchun yangi - gibridd voqelikning paydo bo'lishiga duch keldik, bu erda haqiqiydan farq qiladigan virtual muhit yo'q [6;25-b].

Internet muhiti virtual haqiqat emasmi? Rasmiy ravishda, ha, lekin aslida aynan ijtimoiy tarmoqlarning onlayn makonida bugungi kunda inson rivojlanishining asosiy ijtimoiy-psixologik jarayonlari - sotsializatsiya va o'zini o'zi anglash va boshqa ko'plab ehtiyojlar qondirilmoqda. Agar insonning birlamchi ijtimoiy tajribasining ko'p jihatlari ommaviy axborot vositalari muhitida shakllansa, u holda, albatta, u haqiqatdan ajralmas holga keladi. Buni uchta shaharda: Moskva, Nijniy Novgorod va Rostov-na-Donda ruslarning “raqamli avlodi” vakillari natijalari tasdiqlaydi.

Media tadqiqotchilari rus yoshlarining axborot, o'yin-kulgi, muloqot, ta'lim va instrumental ehtiyojlarini o'rgandik, ammo bu ehtiyojlarning hech biri sof shaklda taqdim etilmaganini angladik. Ularning barchasi ijtimoiylashuv va o'zini o'zi anglash ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilish jarayonida ijtimoiylashuv va o'z-o'zini namoyon qilish qanday amalga oshiriladi?

Raqamli mediamadaniyatida ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilishning asosiy sabablari an'anaviy ommaviy axborot vositalarida bo'lgani kabi nafaqat sotsializatsiya, balki mehr-muhabbatga bo'lgan ehtiyojni qondirish orqali ushbu jarayonni to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish bilan bog'liq. Ma'lum bir jamiyatda ishtirok etish, uning a'zolari tomonidan ma'qullanishi va unga integratsiyalashuvi va boshqalar jamiyatga tegishli bo'lish va muloqot qilish zarurati o'zini namoyon qilish zarurati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u muayyan ijtimoiy xatti-harakatlar uchun kutilgan mukofot sifatida paydo bo'ladi - yoqtirishlar, yangi obunachilar, repostlar.

O'ziga xoslik, o'zini o'zi qadrlash, o'zini ko'rsatish, maqom, obro'-e'tibor va boshqalarning shakllanishi bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida ijtimoiy muhitga qaraganda ertaroq va samaraliroq sodir bo'ladi. Aslida, biz shaxsning to'liq miqyosli vositachiligi haqida gapiramiz. n Raqamli yoshlarning ommaviy axborot vositalaridan foydalanishida gender farqlari bormi? Yoshga bog'liq psixologiya tufayli, yoshlar media matnini yaratish jarayonida o'zini o'zi anglashga kamroq qiziqish bildiradi, ular o'zlarini vazmin tutadilar, ba'zilari esa, hatto, ehtiyotkor bo'lishadi. Ular mavjud me'yorlar va qadriyatlarini o'zlashtirish va ko'paytirish orqali sotsializatsiyaning kaltaklangan yo'liga ko'proq jalb qilinadi. Masalan, ular guruh qadriyatlarini aks ettiruvchi kontentni baham ko'rishga tayyor. Har doim bo'lmasa ham. Qiziqarli, hayratlanarli, kulgili yoki ekstremal kontent bu siz baham ko'rmoqchi bo'lgan kontentdir. Yosh yigitlar videolarni onlayn tomosha qilganda, ular o'sha videodagi odamlar kabi his-tuyg'ularni boshdan kechirishlari mumkin va ular videoni yuborganlarida, ular qabul qiluvchining xuddi shunday his-tuyg'ularni his qilishini kutishlari mumkin. Ya'ni ko'ngilochar kontentni iste'mol qilish motivatsiyasi ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish istagi bilan belgilanadi [7;8-b].

An'anaviy ommaviy axborot vositalarida bo'lgani kabi, o'yin-kulgilarni faqat dam olish maqsadida qabul qilish bugungi kunda ishlamaydi. Qizlar, o'g'il bolalardan farqli o'laroq, ijodkorlik va tajribaga ko'proq moyil bo'lib, ular ijtimoiy rivojlanishdan ko'ra shaxsiy rivojlanishning individual traektoriyasiga ko'proq e'tibor berishadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Globalashuv jarayonida axborot manbalarining shiddat bilan tarqalishi, ijtimoiy ahamiyatga molik (ilmiy, texnologiyaga oid, madaniy va boshqalar) axborot ko'lamining nihoyatda oshib borishi har qanday jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Adabiyotlar:

1. Masterman L. A Rational for Media Education. In: Media Literacy in the Information Age. New Brunswick (U.S.A.) and London (U.K.): Transaction Publishers, 1997: 15-68.
2. Шариков А.В. Так что же такое медиаобразование? // Медиаобразование. – Москва: 2005. С. 77-83.
3. Суртаев В. Я. Социология молодежного досуга. С.-Петербург., 1998. С. 222.
4. Коджаспирова Г. М. , Коджаспиров А. Ю. . Словарь по педагогике (междисциплинарный) – М.: 2005. - 448 с.
5. Федоров А.В. Развитие медиакомпетентности и критического мышления студентов педагогических вузов. М.: 2007. 616 с.
6. Иванов В.Н., Назаров М.М. Массовая коммуникация в условиях глобализации.//Социс. – 2003. С. 24-29
7. Клустер Д. Что такое критическое мышление?//Критическое мышление и новые виды грамотности. М.: ЦГЛ, 2005. С. 5-13.

OLIV TA'LIMNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI MEZONLARI VA IJTIMOIV XIZMATLAR

*Ochilova Gavhar Farxodovna,
Navoiy davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

Ushbu maqolada Innovatsion iqtisodiyot taraqqiy etgan shakllarini mustahkamlash va qabul qilishda, jahon tajribasida bilimlar iqtisodiyotini shakllantirish ta'siri ostida jamiyat ijtimoiy sohasini, jumladan, ta'limni iqtisodiy tashkil etishning yangi modellari shakllanishi, oliy ta'limda pullik ta'lim xizmatlarini kengaytirish borasida, oliy ta'limni budjetdan moliyalashtirish mexanizmi ichiga bozor munosabatlari elementlarining kirib borishi, pedagogik samaradorligini iqtisodiy rag'batlantirish namunalari, ta'limda ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqishning turli yo'nalishlari haqida fikr bildirilgan. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish uchun davlatning o'zi egalik qilgan va tasarruf qilgan resurslarni ichiga oluvchi rivojlangan ijtimoiy sohadir. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqishda Ch.Tibu nazariyasining tahlili haqida tushunchalar berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik faoliyat, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, ijtimoiy ne'matlar, inson kapitali, ta'lim xarajatlari, xizmat, xizmat ko'rsatish va ijtimoiy xizmat, davlat sohasi va ijtimoiy soha.

КРИТЕРИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И СОЦИАЛЬНЫЕ УСЛУГИ

В данной статье рассматривается формирование новых моделей экономической организации социальной сферы общества, в том числе образования, под влиянием формирования экономики знаний в мировом опыте, расширения платных образовательных услуг в сфере высшего образования, внедрения выражены элементы рыночных отношений в механизме финансирования образования из бюджета, приведены примеры экономического стимулирования педагогической эффективности, различные направления развития социальных услуг в образовании. Это развитая социальная сфера, включающая в себя ресурсы, находящиеся в собственности и распоряжении самого государства для производства социальных услуг. Представлен анализ теории Ч. Тибу в развитии социальных услуг.

Ключевые слова: педагогическая деятельность, социальные услуги, социально-экономические условия, социальные льготы, человеческий капитал, затраты на образование, услуги, предоставление услуг и социальных услуг, государственный сектор и социальный сектор.

PEDAGOGICAL EFFICIENCY CRITERIA OF HIGHER EDUCATION AND SOCIAL SERVICES

In this article, the formation of new models of the economic organization of the social sphere of society, including education, under the influence of the formation of the knowledge economy in the world experience, the expansion of paid educational services in higher education the introduction of elements of market relations into the mechanism of financing education from the budget, examples of economic stimulation of pedagogical efficiency, various directions of development of social services in education are expressed. It is a developed social sphere that includes the resources owned and disposed of by the state itself for the production of social services. Insights into the analysis of Ch. Tibu's theory in the development of social services are provided.

Key words: pedagogical activity, social services, social-economic conditions, social benefits, human capital, education and training, services, provision of services and social services, the state sector and social sector.

Kirish. Innovatsion iqtisodiyot taraqqiy etgan shakllarini mustahkamlash va qabul qilishda, jahon tajribasida bilimlar iqtisodiyotini shakllantirish ta'siri ostida jamiyat ijtimoiy sohasini, jumladan, ta'limni iqtisodiy tashkil etishning yangi modellari shakllanmoqda. Oliy ta'limda bu, avvalo, pullik ta'lim xizmatlarini kengaytirish borasida namoyon bo'lmoqda. Shu bois ham oliy ta'limni budjetdan moliyalashtirish mexanizmi ichiga bozor munosabatlari elementlarining kirib borishini sezmaslik mumkin emas. Tadqiqot ishida moliyalashtirishning passiv distributiv shakllaridan pedagogik samaradorlikni iqtisodiy rag'batlantirishning faol (raqobatbardosh) shakllariga o'tish tendensiyasini aniqlash va tuzatish jihatlari e'tibor qaratiladi. Oliy ta'limi uchun bu yangi tendensiya normativ va ko'p kanalli

moliyalashtirish, davlat buyurtmalari va grantlar, yakuniy moliyalashtirish va ta’lim kreditlari shaklida namoyon bo’ladi.

Oliy ta’lim muassasalarining pedagogik samaradorligini iqtisodiy rag’batlantirish namunalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019- yil 8- oktabrdagi PF-5847-son farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020- yil 6- noyabrdagi PQ-4884 sonli Qarori hamda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirishga qaratilgan boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlardir. Ular budjetni moliyalashtirish tamoyillarini o‘zgartirishga, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga va bozor munosabatlari xarakterida immanent bo‘lgan iqtisodiy rag‘batlantirishning investitsion usullari bilan ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bunday usullar obyektiv, mustaqil baholashga va o‘quv natijalarini yuqori darajada o‘lchashga asoslangan bo‘lib, bu bilimlar iqtisodiyotining yetakchi tamoyili hisoblanadi. Ular bozor munosabatlarining asosiy tamoyillarini amalga oshirish va yuqori pedagogik samaradorlikni oshirish va innovatsion rivojlanish imkonini beradi.

Oliy ta’limda pedagogikaning yangi ilmiy yo‘nalishini rivojlantirishda, bir tomondan, neoliberalizm g‘oyalarning kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslik, unga ko‘ra, davlat oliy ta’limni boshqarish sohasidan chiqib, uni bosqichma-bosqich xususiy sektorga o‘tkaza borishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu model rivojlanishning strategik yo‘nalishlari va iqtisodiyotning kadrlarga bo‘lgan uzoq muddatli ehtiyojlarini hisobga olgan holda, oliy ta’lim tizimini xususiylashtirish va ta’lim xizmatlarini xususiy iste‘molchining joriy manfaatlariga bir tomonlama yo‘naltirish bilan faoliyat yuritishi uchun to‘liq ochiqdir. Boshqa tomondan, konservativ modelga qarshi turish juda muhim, unga ko‘ra, davlat ta’limni boshqarish, moliyalashtirish va rivojlantirish uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi kerak. Bu model ta’lim sifatiga qo‘yiladigan talablarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy sheriklik institutini shakllantirishga to‘sqinlik qiladi, ta’lim muassasalarining raqobat qilish imkoniyatlarini kamaytiradi va natijada oliy ta’limning barcha jarayonining pedagogik samaradorligini pasaytiradi.

Pedagogika fani hali oliy ta’lim tizimining eng iqtidorli subyektlarini aniqlash va iqtisodiy rag‘batlantirishga asoslangan oliy ta’limni boshqarish amaliyotini yetarli darajada o‘rganmagan. Bozor iqtisodiyoti yillarida to‘plangan tajriba allaqachon kasbiy pedagogikaning yangi yo‘nalishi — iqtisodiy rag‘batlantirish usullari bilan oliy ta’limning pedagogik samaradorligini oshirishni yuzaga keltirish mexanizmlarini aniqlash va tahlil etishni taqozo etadi.

Asosiy qism. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish sohasining yuzaga kelishi va rivojlanishining obyektiv zamini ijtimoiy ehtiyojlarning darajasi hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish sohasining faoliyat yuritishi uchun moddiy ishlab chiqarish asos bo‘lib hisoblanadi. Unda har qanday ishlab chiqarish, shu jumladan, ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarishning moddiy asosi yaratiladi. Ikkala soha o‘rtasida turli-tuman xizmatlarni ishlab chiqarish va iste‘mol qilish zarurati tufayli yuzaga kelgan uzviy o‘zaro bog‘lanish mavjud.

Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarishni alohida, nisbatan mustaqil, nobozor, ijtimoiy sohaga ajratib olish va uning bozor sohasi bilan integratsiyasining chuqurlashuvi ijtimoiy mehnat taqsimotining qonuniy natijasi bo‘lib, ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish unumdorligining obyektiv o‘shishi omili hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlar ijtimoiy qayta ishlab chiqarish jarayonida qayta ishlab chiqarish siklida ishtirok etadi, shuningdek, qayta ishlab chiqarish jarayonida mustaqil iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarishning tashabbuskori davlat bo‘ladi.

Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish uchun davlatga davlatning o‘zi egalik qilgan va tasarruf qilgan resurslarni ichiga oluvchi rivojlangan ijtimoiy soha zarur bo‘ladi. Iqtisodiyotning ijtimoiy sohasiga kiruvchi tarmoqlari, jumladan, ta’lim, sog‘likni saqlash, madaniyat, ijtimoiy muhofaza kabi tarmoqlari davlat aholisi uchun ijtimoiy xizmatlarni bevosita yetkazib beruvchisi hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish jamiyat tomonidan ajratilgan resurslarni alohida turdagi, ma’lum hajmidagi, muayyan tarkibli va sifat standartlariga muvofiqlik darajasiga ega bo‘lgan mahsulotga aylanishidir. Ushbu mahsulot ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun ishlatiladi. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish, har qanday ishlab chiqarish kabi, bir marotabalik va joriy xarajatlar qilinishini talab qiladi. Ushbu ta’rifdan ijtimoiy va xususiy ne’matlarni aniq belgilash zarurligi kelib chiqadi.

Fikrimizcha, ijtimoiy ne’matlarning xususiy ne’matlardan asosiy farqi quyidagilardan iborat. Bozor, tovar iqtisodiyotida ishlab chiqarishni tiklash avval ishlab chiqarilgan tovarlarni bozorda sotishni ko‘zda tutadi. Shu bilan birga, mahsulotning bir qismi tovarlar sifatida ishlab chiqariladi va sotiladi, bir qismi esa tovar sifatida ishlab chiqarilib, ijtimoiy ne’matlar sifatida realizatsiya qilinadi. Xizmatlar shaklida ijtimoiy ne’matlarni ishlab chiqarish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi, u xizmatlar nomoddiy asosda ishlab chiqarilishi bilan va ularning iste‘molchisi ma’lum obyektiv qonuniyatlarga muvofiq, lekin individual tarzda

jismoniy va aqliy rivojlanayotgan inson ekanligi bilan bog'liq bo'ladi. Shunga yarasha, iste'mol qilinadigan ijtimoiy xizmatlarning miqdori va sifatiga bo'lgan ehtiyojlar ham individual bo'ladi.

Shunday qilib, ijtimoiy soha tashkilotlarining soni va kattaligi xizmatlarning ma'lum guruhlari miqdori iste'molchilarining miqdori bilan, iste'molchiga hududiy yaqinligi talablarini hisobga olib, belgilanadi. Xizmatlarga bo'lgan talabning mahalliyliigi muammosini mahalliy ijtimoiy ne'matlar (local public goods) nazariyasini yaratgan Ch. Tibu tadqiq etgan edi. Tibu ularni har qanday alohida olingan geografik joylashuv uchun o'ziga xos bo'lgan ne'matlar kabi belgilagan, iste'molchilar esa o'z yashash joyi yuzasidan qaror qabul qilganda taqdim etiladigan ijtimoiy ne'matlarning miqdori va turlari yuzasidan ham tanlab olishi mumkin. Ularning jami foydalari, yangi doimiy yashovchilar ulardan biror bir qo'shimcha xarajatsiz foydalanishi mumkin bo'lsa-da, shunga qaramay, bitta mahalliy jamoa bilan cheklanadi.

Shuningdek, ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish jarayoni moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonidan shunisi bilan farq qiladiki, xizmatlarni saqlash, tashish, boshqa iste'molchiga foydalanishga berish mumkin bo'lmaydi. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarishning ushbu xususiyati iste'molchi tomonidan ularning xususiyatlarini baholash va tanlash imkoniyatini qiyinlashtiradi. Davlat institutsional majburlash mexanizmlarini nafaqat fuqarolardan davlatga, balki ayrim fuqarolardan boshqa fuqarolarga moliyaviy oqimlarning o'tishi yo'li bilan amalga oshiradi. Bunday vaziyat esa yuqoriroq daromad darajasi bo'lgan fuqarolar davlatga ko'proq hajmda soliq to'laganda va bu soliqlar hisobiga davlat jamiyatning barcha tabaqalari foydalana oladigan ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqaradigan holda yuzaga keladi.

Fikrimizcha, ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish institutining bozor institutidan asosiy farqi quyidagilar hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish institutiga xususiy soha korxonalari kiradigan bo'lsa ham, ularning ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishi davlat moliyalashtiruvchi hisobiga amalga oshiriladi, shuning uchun aholi xususiy sohada ishlab chiqarilgan ijtimoiy xizmatlarni nobozor asosida, iqtisodiy ahamiyatsiz narxlar bo'yicha iste'mol qiladi, ayni paytda bozorda aholi xususiy sohada ishlab chiqarilgan ijtimoiy xizmatlarni bozor narxlari bo'yicha sotib oladi. Quyida bozor instituti va ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish institutining qiyosiy xususiyatlari keltirilgan.

Bozor instituti va ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish institutining qiyosiy xususiyatlari. Tizimning elementi Bozor instituti Ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish instituti maqsadi foyda olish aholiga ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish orqali “bozor cho'kishlarini” kompensatsiyalash subyekti xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi iqtisodiyotning ijtimoiy sohasiga kiruvchi institutsional birliklar Obyekti aholi mexanizmlari bozor raqobati pulkredit, moliyaviy, monopoliyaga qarshi, tabiatni muhofaza qilish siyosati fikrimizcha, jamiyat uchun zarur bo'lgan hajmda ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish iqtisodiyotning ijtimoiy sohasiga resurslarni kiritmagan holda mumkin bo'lmaydi. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish iqtisodiyotning bozor sohasiga investitsiya kiritishga nisbatan kamroq investitsiyaviy jozibador bo'lishi iqtisodiyotning ijtimoiy sohasining o'ziga xos xususiyatidir. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish investitsiyalarida investitsiyaviy jozibadorlikning deyarli barcha asosiy ko'rsatkichlari pastroq bo'ladi, jumladan, o'zini oqlash muddatining uzoqligi.

Ijtimoiy xizmatlarni nobozor asosida ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar xususiy investitsiyalarni jalb qilishga erisha olmaydi va davlat ko'magisiz faoliyat yurita olmaydi. Davlat mablag'larini ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarishga investitsiyalash zarurligi, fikrimizcha, inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish zarurligi shaklidagi institutsional sabab tufayli yuzaga keladi va iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etib mamlakat iqtisodiyotining yuksalishiga hissa qo'shadi. Shuning uchun ham ta'lim tizimi va ilm-fan taraqqiyoti O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yo'nalish sifatida isloh qilib boriladi. [Ta'limning milliy iqtisodiyotga ta'sirini (Mt) ma'lum ko'rsatkichlar asosida baholashning ilmiy uslubiy yondashuvida quyidagi ifoda yordamida hisoblash mumkin bo'ladi: $Tx = Mt * 100\%$ YAIM Bunda: Tx- bir yilda ta'limga sarflangan xarajatlar miqdori. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida ijtimoiy xizmatlarning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni, jumladan, ta'lim tizimining milliy iqtisodiyotga ta'siri uni YAIM ni yaratishdagi hissasi bilan ham ahamiyatlidir. 2019- yilda ham davlat byudjetidan ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag'ning 37 foizidan ortig'ini ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilishi o'z samarasini berdi.]7

Bu o'z o'rnida jamiyat tomonidan ta'lim tizimiga yo'naltirilgan mablag'larning samarasi sifatida iqtisodiyot rivojlanishiga natija berdi. Buning uzviyligi shundaki, insonning bilimi, malakaviy ko'nikmalari qanchalik yuqori bo'lsa, daromadi ham shunchalik ortadi va iste'molchi sifatida real sektorga ko'proq hissa qo'shadi, jumladan, birinchidan, ta'lim tizimi resurslar bozoriga ta'sir ko'rsatadi, chunki ishchi kuchi sifati, malakasi uning bilim darajasiga bog'liq, ikkinchidan, ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari yuqori texnologiyalar yordamida birlashadi, bu esa ishchining axborot texnologik madaniyatini o'zlashtirishi o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmasiga bog'liq, uchinchidan, ishlab chiqarishning samarali faoliyat

ko'rsatishi uni boshqarishga, ya'ni ilmiy asoslangan menejment sohasidagi bilim va malakasiga bog'liq bo'ladi.

Umuman olganda, ta'lim va ilm fan bog'likligidagi iqtisodiy munosabatlar natijasida ishlab chiqarish samaradorligining oshishi tufayli innovatsiyalar, sifatli kadrlar, samarali boshqaruv, ya'ni inson kapitali orqali YAIM hajmi ortib aholining turmush farovonligi yaxshilanadi. Insonni “..tabiat bergan qobiliyatlar hamda ta'limtarbiya tizimi singdirgan va o'z-o'zini yaratish bo'yicha o'z faoliyati natijasida ega bo'lgan qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalarining ma'lum miqdori birikmasi, tabiiy qobiliyatlari ro'yobga chiqishi uchun ham individning o'zi, ham, birinchi navbatda, umuman, jamiyat tomonidan ma'lum sharoit yaratilishi lozim bo'ladi (masalan, ta'lim rivojlanishi va olinishi mumkinligi, ta'lim samaradorligi va hokazo)”. Iqtisodiy nazariyada jamiyat tomonidan inson kapitalini shakllantirish sharoitlari deganda inson kapitaliga investitsiyalar tushuniladi. Inson kapitali investitsiyalar natijasi bo'lib chiqadi.

Tadqiqotchilar investitsiyalarnig uchta asosiy turini ajratib ko'rsatadi: ta'lim xarajatlari, sog'liqni saqlash xarajatlari, mobillik xarajatlari. O'z navbatida, inson kapitali jamlanib borgan sari uning daromadlilik ortib boradi. Kapitalning o'zi inson kapitalini qayta ishlab chiqarishning asosi bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytilish kerakki, davlat aholisiga taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlar inson kapitaliga investitsiyalar bo'lib hisoblanadi. O'z navbatida, jamlangan inson kapitali ijtimoiy xizmatlarni keyingi qayta ishlab chiqarish uchun aqliy, ijodiy baza bo'lib hisoblanadi. [Inson kapitaliga investitsiya kiritish muddatiga ko'ra uzoq va xususiyatiga ko'ra integral bo'lgan ma'lum iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir ko'rsatishi lozim, u keng ko'lamlil inson ehtiyojlarini qondirish, hayot sifatini oshirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash shaklida ifodalanadi].⁸ Inson kapitalidan foydalanish samarali bo'lishi lozim. Mos holda, biz inson kapitaliga investitsiyalar deb ta'riflagan ijtimoiy xizmatlarni ham ularning sifat xususiyatlari – samaradorligi, yakuniy natijaga qaratilganligi nuqtayi nazaridan qarash lozim.

Shunday qilib, fikrimizcha, ijtimoiy rivojlanish jarayonida ijtimoiy xizmatlarning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi roli o'zgara boshlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishning inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan, innovatsion, sifat jihatlarini birinchi o'ringa chiqadi. Shu bois, biz magistrlik ishida “xizmat” “xizmat ko'rsatish” va “ijtimoiy xizmat” hamda “davlat sohasi” va “ijtimoiy soha” tushunchalarining ilmiy nazariy asoslarini va amaldagi xususiyatini qiyosiy tahlil etish asosida “ijtimoiy xizmat”larga o'z mualliflik talqinimiz berish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy xizmatlarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda va aholi turmush darajasini oshirishdagi ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatini baholashni, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishning hozirgi holatini takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tavsiya etish vazifasini belgilab olganmiz.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017 y.
2. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / SH.M.Mirziyoev. Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2016. 56 6.
3. Toshboyev A. “Aholi turmush farovonligini oshirishda ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish yo'llari”. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. TerDU – 2014- y. 78 b. B.:18.
6. Ro'ziyev.Z. Harakatlar strategiyasi: Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Manba: “postda.uz” rasmiy vebsayti.
7. Гринэуэй Д. Панорама экономической мысли конца XX столетия. В 2т. СПб.: Экономика, 2002.Т.1 С.416424 17
8. Цыренова Е.Д., Сактоев В.Е., Баженова В.С. Формирование и динамика человеческого капитала транзитивной экономики. – Улан-Удэ Изд-во ВСГТУ, 1999. С. 37.

KASBIY KOMPETENTLIKDA PEDAGOGIK FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Qalandarova O‘rinposhsha Yuldashovna,

Urganch davlat pedagogika instituti

“Fizika –matematika va texnologik ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi

urinposhsha.q@urdu.uz

Ushbu maqolada o‘qituvchi kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyat jarayonida shakllantirishning pedagogik asoslari masalalariga qaratilgan. Ta’lim jarayonida ko‘zlagan natijalarda erishish uchun o‘qituvchining kasbiy kompetentlik sifatleri qay darajada rivojlangan bo‘lishi asosida o‘qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirish zarurligi yoritilgan. Ta’lim tizimini modernizatsiyalash, ta’lim tizimida yuzaga keladigan o‘zgarishlar ta’lim muassasi xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bugunning dolzarb muammolaridandir biri to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, ijtimoiy kompetensiya, hamkorlik, xulq-atvor, bilim, ko‘nikma, malaka, anglash, hamkorlik, bag‘rikenglik, ijtimoiy safarbarlik, ijodiy yondashish, hamkorlikda ishlashni va tahlil qilish.

РЕАЛИЗАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК ОСНОВНОЙ ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Данная статья посвящена вопросам педагогических основ формирования профессиональной компетентности учителя в процессе педагогической деятельности. Для достижения желаемых результатов в образовательном процессе выделена необходимость повышения качества подготовки учителей, исходя из уровня профессиональной компетентности педагога. В статье обсуждались модернизация системы образования, а также изменения, происходящие в системе образования, развитие профессиональной компетентности сотрудников образовательного учреждения как одна из актуальных проблем современности.

Ключевые слова: компетентность, социальная компетентность, сотрудничество, поведение, знания, навыки, компетентность, понимание, сотрудничество, толерантность, социальная мобилизация, творчество, сотрудничество и анализ.

REALISATION OF PEDAGOGICAL ACTIVITY AS THE MAIN FACTOR IN IMPROVING PROFESSIONAL COMPETENCE

This article is devoted to the pedagogical foundations of the formation of professional competence of a teacher in the process of pedagogical activity. In order to achieve the desired results in the educational process, the need to improve the quality of teacher training based on the level of professional competence of the teacher is highlighted. Modernization of the educational system, changes occurring in the educational system, development of professional competence of the employees of the educational institution, one of the urgent problems of today, was discussed.

Keywords: competence, social competence, cooperation, behaviour, knowledge, skills, competence, understanding, cooperation, tolerance, social mobilisation, creativity, collaboration and analysis.

Kirish. Ta’lim tizimini modernizatsiyalash, ta’lim tizimida yuzaga keladigan o‘zgarishlar ta’lim muassasi xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bugunning dolzarb muammolaridandir. So‘ngi yillarda mamlakatimizda ta’limni rivojlantirish umummilliy dasturi doirasida ta’lim muasalarini zamon talabiga mos ravishda modernizatsiya qilish, ta’limning mazmun -mohiyatini o‘zgartirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Ma’lumki, jamiyat har doim ilmi, raqobatbardosh, ijodiy izlanuvchan kompetentlik sifatiga ega shaxsga ehtiyoj sezadi.

Yangi ming yillikda xalqimizning taraqqiyot yo‘lida turli muammolar mavjud ekan, avvalo, ularning to‘g‘ri yechimini topishi zarur. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi sifat bosqichining mohiyatidan qaralganda, mazkur masalaning qay darajada dolzarbligi o‘z-o‘zidan namoyon bo‘ladi. “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Bu asosan o‘zligini anglayotgan insonlarga, ijtimoiy hayotda o‘z mavqeiga ega bo‘lgan ziyolilarga bog‘liq. Bizning vazifamiz fan-texnikani yuksak

saviyada egallagan, jahon standartlari darajasidagi mustaqil fikrlovchi, intellektual ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashdir. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, kompetentlik, shaxs kompetentlik tushunchalari XX asrning 90-yillarida ijtimoiy kompetentlik shaxsning shaxsiy sifati kabi barcha ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo‘lib, fanlararo bir mavzu sifatida qabul qilinib murakkab, ko‘p komponentli va ko‘p o‘lchovli hodisa sifatida tahlil qilina boshlandi.

Tadqiqotchi V. N. Kunisnang ko‘p yillik ilmiy tadqiqotlari natijalariga asoslanib, ijtimoiy kompetentlikning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatadi: kompetentlik; kommunikativ kompetentlik; ijtimoiy-kasbiy kompetentlik; o‘z-o‘zini aniqlash (ego-kompetentlik) haqida xulosa chiqaradi. Shu bilan birga I.A.Zimnyaya kompetentlikni insonga ijtimoiy ta‘siriga ko‘ra, ijtimoiy hamkorlik (jamiyat, jamoa, oila, do‘stlar, hamkorlar bilan ziddiyatlar va ulardan qaytarish, hamkorlik, bag‘rikenglik, ijtimoiy safarbarlik) va muomala kompetentligi (og‘zaki, yozma, suhbat, monolog, bilim va an‘analarga rioya qilish, etiket, madaniy va xorijiy aloqalar, biznes, kommunikativ vazifalar) kabi turlarga ajratadi.

Y.V.Koblyanskayaning tadqiqot ishida ijtimoiy kompetentlikni ”Men” munosabatini tushunish - jamiyat, to‘g‘ri ijtimoiy yo‘nalishni tanlay olish, ushbu yo‘nalish bo‘yicha o‘z faoliyatini tashkil etish” sifatida ko‘rib chiqadi. Uning fikricha ijtimoiy kompetentlik “bu shaxsiy sifat bo‘lib - kishining ijtimoiy normalar bilan bog‘liq ushbu jamiyat a‘zosi sifatidagi mehnat faoliyatidir, bunda jamiyat hayoti uning a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tartibga soladi. Avvalo, etimologik jihatdan Kompetentlik tushunchasi – bu biror sohada samarali faoliyat yuritish uchun zaruriy tajriba va kerakli bilimlar, kompetensiyalar tizimidir.

M.I.Lukyanova o‘qituvchining psixologik-pedagogik salohiyati asosida pedagogik faoliyat uchun yuqori darajadagi professional tayyorgarlik va o‘quv jarayonida talabalar bilan samarali o‘zaro munosabatlarga ega bo‘lgan shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunadi. Psixologik va pedagogik kompetensiya tarkibiy qismi sifatida u psixologik va pedagogik yo‘nalishlarning bloklarini ko‘rib chiqadi degan fikrlarni bildiradi.

Metodlar. Ijtimoiy kompetentlikning quyidagi komponentlari mavjud bo‘lib, ushbu komponentlar turli yosh davrlaridagi insonlarda jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning tuzilishi va faoliyat olib borishiga doir ma‘lumotlarni, ijtimoiy rolga qo‘yilgan talablar va kutishlarga oid bilimlarni, ijtimoiy rolga xos bo‘lgan xulqni egallash malakasini, umuminsoniy normalar va qadriyatlarga oid hamda kishining o‘zi haqidagi tasavvurlari, o‘zini ijtimoiy subyekt sifatida idrok etish bilan bog‘liq bo‘lgan samarali ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalari va malakalarini shakllantiradi. Ijtimoiy kompetentlikni shakllanishi o‘qituvchilardan quyidagi ijtimoiy xulq malakalarini ham talab etadi.

- o‘zaro birgalikdagi harakat malakalari;
- stress(zo‘riqish)li vaziyatlardagi adekvat xulq malakalari;
- ijobiy muloqot malakalari;
- boshqalarni tushunish va o‘z-o‘zini baholash malakalari;
- o‘z xulqini idora etish malakalari;
- hissiy holatlar va emosiyalarni boshqarish;

Shu sababli kompetentlik “noan‘anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutahassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar amalga oshiriladigan faoliyat tabiatidan kelib chiqqan holda kasbiy kompetentlik o‘z ichiga turli muhim komponentlarni qamrab olishi mumkin:

- kasbiy-huquqiy kompetentlik (mehnat haqidagi turdi qonunlar va me‘yoriy hujjatlarni, kasbiy maslahat sohasidagi uslubiy materiallarni bilish);
- ijtimoiy-perseptiv kompetentlik (shaxs tiplari haqidagi bilimlar tizimi, xulq-atvor va munosabatlar, kishini kishi tomonidan idrok qilish va tushunish determinantlarini bilish);
- kommunikativ kompetentlik (bo‘lajak mutaxassis kasbiy faoliyatini shaxslararo muloqotning turli shakllari, pedagogik ta‘sir metodlari va ularni qo‘llashga xos xususiyatlar borasida zarur bilimlarni egallaganligi).

Kasbiy kompetentlik psixologik hamda akmeologik kategoriyadir. Kasbiy kompetentlik kishining kasbiy faoliyat bilan bog‘liq vazifalarni bajaraolish qobiliyati va undan samarali foydalana olish imkoniyati bo‘lib, u shaxsga xos ko‘plab xususiyatlarga ega bo‘lishni taqozo etadi. A.A.Derkach tomonidan kasbiy kompetentlikning tarkibida kasbiy faoliyatdagi kompetentlik, kasbiy muloqotdagi kompetentlik, mutaxassisning o‘zligini namoyon eta olishidagi kompetentligini kiritish mumkin, faoliyatining ustuvorligi zamonaviy pedagog professionalizmini rivojlantirish zarurati bilan belgilanadiki, uning sifat ko‘rsatkichlari nafaqat pedagogik jarayonning o‘zini, balki uning natijalari, rivojlanish istiqbollarini rejalashtirish,

tashxislash, modellashtirish, loyihalashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda kasbiy ta’limni yuqori darajada takomillashtirishni ta’minlaydi [4].

Natija. Shunga ko‘ra, oliy kasbiy ta’lim pedagogik kadrlarini tayyorlashning zamonaviy tizimida ta’lim jarayonlarini loyihalashtirish ko‘nikmasini rivojlantiradigan psixologik-pedagogik va kasbiy-ijodiy yo‘nalishlarni integratsiyalash negizida bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirishga alohida urg‘u berilmada.

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak kasbiy ta’lim pedagogini bilimlarni o‘zlashtirish va kasbiy faoliyat modelini loyihalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiradigan yangi konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati oxirgi globallashtirish sharoitida kun tartibiga keskin qilib qo‘yilmada. Pedagogning kasbiy kompetentligi pedagogika va psixologiya fanlariga doir bilimlarga ega bo‘lish, o‘z ustida ishlash, ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish, o‘quvchilarda o‘quv faoliyati motivatsiyasini shakllantirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi bilish, ta’lim muhitiga yangilik kiritish, o‘z fanini mukammal bilish, xorijiy tillardan birini yaxshi bilishni taqazo etadi.

A.V.Xutorskiy ta’lim jarayoni uchun muhim bo‘lgan pedagogning quyidagi kompetentligini tavsiflaydi:

- dunyoqarash, qadriyat va o‘zini anglash - o‘qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. U atrof - muhitdagi voqea va hodisalar mohiyatini aniqlay biladi va tushunadi unga o‘zini yo‘naltiradi, pedagog sifatida o‘z fikrini asoslay olish hamda muammoning yechimini topa bilish ko‘nikmasiga ega. Bu kompetensiya o‘qituvchining o‘quv va boshqa faoliyatlaridagi o‘zini - o‘zi anglash mexanizmini ta’minlaydi.

- umummadaniy - milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlariga hurmat; ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish kabi fazilatlar uchun zarur sanaladi. O‘qituvchi ilm- fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta’sirini anglay olishi va o‘quvchi yoshlarga tushuntira olishi zarur.

- o‘quv va bilish jarayoni- o‘qituvchining mustaqil bilish faoliyati, mantiqiy fikrlashi, o‘quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko‘nikmasini tahlil qila olishi.

- ma’lumotga ega bo‘lish- pedagogik faoliyati, o‘z faniga doir ma’lumotlarni egallash ko‘nikmasi.

- muloqotchanlik- til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo‘lishi, jamoada o‘ziga xos o‘rinda turishi.

- ijtimoiy- foydali mehnat- oilaviy munosabatlar va mas’uliyat, jamiyat rivojidadagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

- O‘z ustida ishlashi- jismoniy, ma’naviy, intellektual jihatdan o‘z-o‘zini rivojlantirib borishi, hissiyotini boshqarish.

Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogik faoliyat subyekti hisoblangan o‘qituvchining kasbiy mahorati va tajribasiga bog‘liqdir.

Pedagoglik kasbiga loyqlik kasb uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, u kommunikativ qobiliyatlarda ham o‘z aksini namoyon etadi.

Kompetentlik tuzilmasida ijtimoiy kompetentlikka alohida o‘rin berilgan bo‘lib, u o‘zida turli hayotiy sohalaridagi ijtimoiy hamkorlikka bo‘lgan qobiliyat va ijtimoiy moslashuvchanlikni aks ettiradi.

- muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini boshqara olish;

- o‘quv faoliyatini takomillashtirib borish;

- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;

- o‘rtoqlari bilan ijodiy hamkorlikka erishish;

- irodaviy sifatlarini rivojlantirib borish;

- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;

- kreativlik xususiyatlarini rivojlantirib borish;

- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;

- o‘ziga obyektiv baho berish;

- ijobiy sifatlarini o‘zlashtirish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati o‘qituvchining o‘z ustida ishlashini ifodalaydi.

Ijtimoiy kompetensiya - ijtimoiy malakalar (majburiyatlar) hisoblanib, kishiga jamiyat hayotidagi normalar va qoidalarni adekvat (o‘zaro mos) tarzda bajarish imkoniyatini beradi va inson, o‘z navbatida, o‘z menining anglay boshlaydigan ilk bolalik davrlaridan boshlab ushbu normalar va qoidalarni ota-onasining yordami bilan egallay boshlaydi. Ma’lumki, oldingi ta’lim ko‘proq akademik bilimlar berishga qaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda o‘qituvchilarning chuqur nazariy bilimlarga ega bo‘lishi bilan birgalikda, ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. O‘qituvchilarning izchil ravishda o‘zining kompetentlik sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish muammosi

psixologiyadagi yetakchi muammolardan biridir. Bu muammolar yechimi o‘qituvchilar o‘z kompetentlik sifatlarini rivojlantirib borishi uchun o‘z ustida ishlashi jarayonida o‘z aksini topadi:[2]

Ijtimoiy kompetentlik asosini jamiyat, undagi xulq-atvor usullari va qoidalari haqidagi bilimlar tashkil etar ekan, maktab o‘quvchisi uchun jamiyat, keng (dunyo, mamlakat) va tor (oila, maktab, mahalla) davrada aks etadi”. Uning muammolarni hal etish bilan bog‘liq mustaqil bilish, ijtimoiy-fuqarolik, ijtimoiy-mehnat, madaniy-xordiq kabi komponentlar kiritiladi.

Shuning uchun o‘qituvchilar kompetentliklarini rivojlantirishning muhim yo‘llaridan biri, o‘qituvchilarda o‘zini o‘rab turgan kishilar bilan birgalikda harakat qila olish, o‘zini tutish usullariga doir bilimlarni shakllantirishdan iborat. Ushbu holatda ijtimoiy moslashish uchun o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘qituvchi o‘z tengdoshlari va kattalar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. O‘z fikrini boshqalarnikidan ajrata olish tufayli o‘qituvchi o‘z shaxsiy “Men”ining imkoniyatlarini chamalay oladi, ko‘pgina hayotiy vaziyatlar uning xulq-atvori, o‘zini tutishiga bog‘liq ekanligini tushunib yetadi, shu asnoda muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini egallaydi.

Jumladan, zamonaviy ijtimoiy-iktisodiy sharoitlarda kasbiy o‘zini o‘zi boshqarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining eng to‘liq psixologik shakllari, kasbiy kompetentlikning rivojlanish xususiyatlari E.F.Zeyer tomonidan o‘rganilgan.

Bu asosda o‘qituvchida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini boshqara olish xususiyati, faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashishi, hamkasblari bilan ijodiy hamkorlikka erishish, irodaviy, ishchanlik qobiliyati, kreativlik xususiyatlari va salbiy odatlarni bartaraf etib borishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Buning uchun dars jarayonida ham turli interfaol usullardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi [5].

O‘qituvchilardan o‘z faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, hamkorlikda ishlashni va tahlil qilishni o‘rganishadi. Har bir o‘qituvchi o‘zining kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirishda mutaxassislar tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni yangi ma’lumotlarni izlab topish ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay olishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik sifatleri mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishi, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishi amalda yuqori darajada qo‘llay olishlari uchun hamkorlikda ishlash ijobiy samara beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, shaxsning integrativ xususiyatini boshqacha aytganda, bo‘lajak mutaxassislar shaxsiy sifatlarini bilim malaka va amaliy tajribasi, qobiliyatlari qadriyat yo‘nalishlarini ifoda etadi, o‘qituvchilarda kompetentlik sifatleri rivojlanishga qaratilgan harakatlar, asosan, ta’lim muassasalaridanoq boshlanadi. O‘qituvchi buning uchun turli fan asoslarining nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganib fan yangiliklaridan doimo maqsadga muvofiq foydalanish asosida kompetentlik sifatlarini rivojlantirib bormog‘i kerak, shuningdek, ta’limning faol usullarini (trening darslari, ko‘rgazmali dars, auktsion dars va hokazo) ham o‘zlashtirib olgan bo‘lishi kerak. Shunday qilib, kompetentlik - shaxs ustanovkalari va ma’naviy qadriyatlari, shaxsiy psixologik xususiyatlar tizimiga asoslanuvchi, o‘zaro bir-biriga yaqin ijtimoiy kompetensiyalar majmuasi bo‘lib, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi shakllanishiga va turli ijtimoiy rollarni samarali bajarishga imkoniyat beradi. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida bilimlarga qadriyatlarga asoslanib rivojlanib boradi.

Albatta, o‘qituvchilarda kompetentlik sifatleri rivojlanishi uchun imkoniyat bo‘ladi, ta’lim muassasalarida ijtimoiy foydali faoliyat motivatsiyasi rivojlanadi va mustahkamlanadi.

Adabiyotlar:

1. To‘rabekov F.S., Tulyakov A., Hamidov O. Mehnat ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirishda texnik vositalardan foydalanish // Mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini ta’minlashning integrativ texnologiyalari: Respublika ilmiy – amaliy anjuman materiallari.– Toshkent: JDPI, 2010.

2. Begimqulov U. Masofaviy o‘qitish va pedagogik ta’lim “Pedagogik ta’lim”, – Toshkent. 2004. – № 5. – B.19 – 21.

3. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005. - 206 b.

4. Белицкая Г.Э. Социальная компетенция личности. Сознание личности в кризисном обществе. М.,-Масягина1995.-24 с.

5. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar “Tafakkur nashriyoti”.T.:2011.-y.

OLIV TA'LIMDA BO'LAJAK MUHANDISLARINING TEXNIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Qo'ziyev Nodir Murodillayevich,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, p.f.f.d.

nodirbek5601977@mail.ru

Ushbu maqolada bo'lajak muhandislarni texnik tafakkurini rivojlantirish usullari tizimi tahlili, bo'lajak muhandislarining texnik tafakkurini rivojlantirish jarayonini modellashtirishning dastlabki bosqichlari va texnik tafakkurni rivojlantirish va rivojlangan tizimida o'quv vazifasi asosiy ta'lim ta'siri sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, texnik tafakkurning tushunchali komponenti, ta'lim mazmunini takomillashtirish muammosi, texnik tafakkurning konseptual tarkibiy qismlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy, muhandis, faoliyat, texnik, tafakkur, intellekt, sifat, komponent, modellashtirish, intellektual rivojlanish, ta'lim jarayoni.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ТЕХНИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье рассматриваются системный анализ методов развития технического мышления будущих инженеров, начальные этапы моделирования процесса развития технического мышления будущих инженеров и задача обучения в системе развития и развития технического мышления как основные образовательные эффекты. Также рассматривается понятийный компонент технического мышления, проблема совершенствования содержания образования, концептуальные компоненты технического мышления.

Ключевые слова: профессионал, инженер, деятельность, техник, мышление, интеллект, качество, компонент, моделирование, интеллектуальное развитие, образовательный процесс.

METHODS OF DEVELOPMENT OF FUTURE ENGINEERS' TECHNICAL THINKING IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION

In this article, the analysis of the system of methods for developing the technical thinking of future engineers, the initial stages of modeling the process of developing the technical thinking of future engineers, and the development of technical thinking and the educational task as the main educational effect in the developed system are considered. Also, the conceptual component of technical thinking, the problem of improving the content of education, and the conceptual components of technical thinking were discussed.

Keywords: professional, engineer, activity, technical, thinking, intelligence, quality, component, modeling, intellectual development, educational process.

Kirish. Bo'lajak muhandislarining texnik tafakkurini rivojlantirish jarayonini modellashtirishning dastlabki bosqichida, fikrimizcha, psixologik va pedagogik tadqiqotlarda aniqlangan va tajriba-sinovdan o'tgan tafakkur qilishning mazkur turini rivojlantirishning barcha usullarini yagona tizimga birlashtirish kerak.

Oliy o'quv yurtlari talabalarining texnik tafakkurini rivojlantirishning muayyan usullarini asoslab berilgan bir qancha tadqiqotlar mavjud.

Agar texnik qobiliyat oliy ta'lim muassasasigacha bo'lgan davrda rivojlangan bo'lsa, u holda oliy ta'lim tizimi oldida mos kasbiy tanlovni amalga oshirish uchun abituriyentlarda ushbu qobiliyatlarini tashxis qilish vazifasi turadi.

Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari pedagoglari tajribalarini o'rganish natijasida birinchi kurs talabalarining texnik tafakkurlash darajasining pastligi ko'zga tashlanadi. Shu sababdan ham muhandislarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari talabalarining texnik tafakkurini rivojlantirish vazifasi dolzarbdir.

Aqliy jarayon sifatida fikrlash faqat muammoli vaziyatlarda, talaba muayyan to'siqlarni yengib o'tishi bilan namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Bu yangi murakkab materialni o'zlashtirish va muammolarni hal qilish holatlaridir. Tafakkurni bilimning o'zigina rivojlantirmaydi, balki uni o'zlashtirishdagi faoliyatni va mazkur faoliyatni anglash, ya'ni refleksiya "ruhiy rivojlanish, ayniqsa, insonning intellektual rivojlanishi, faqatgina "to'siqlarni", intellektual qiyinchiliklarni yengish sharoitida amalga oshiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

O‘qitish muammolarining taksonomiyasi D. Tollingerova tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda o‘quv vazifalarining 6 toifasiga birlashtirilgan 36 turdagi ta‘lim faoliyati mavjud. Taksonomiya kognitiv harakatlarni murakkablashtirish prinsipiga asoslanadi. Birinchi toifadagi vazifalar saqlanadigan ma‘lumotlarni takrorlashni o‘z ichiga oladi, alohida dalillar va qoidalarni bilish yoki takrorlashni talab qiladi. Ushbu vazifalar quyidagicha rivojlantiriladi: ulardan qaysi biri, qanday nomlanadi, ta‘rif bering va shu kabilar. Ikkinchi toifaga yechimi elementar tafakkur amallarini o‘z ichiga oladigan vazifalar kiradi: hisoblash, taqqoslash, aniqlashtirish.

Intellektual rivojlanishning asosiy manbasi shaxsning bilishga bo‘lgan ehtiyojidir. Inson qobiliyatlarini rivojlantirishning eng muhim qoidasi - qiyinchiliklarni yengib o‘tish asosida amalga oshadi. Faqatgina shunday ta‘limgina rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Ta‘lim jarayoni o‘rganish oson kechadigan materiallarni taqdim etish hech qanday foyda keltirmaydi, balki zarar keltiradi.

Shuning uchun texnik tafakkurni rivojlantirish va rivojlangan tizimida o‘quv vazifasi asosiy ta‘lim ta‘siri sifatida ko‘rib chiqiladi. U turli xil vazifalar hamda aqliy harakatlarni faollashtiradi va rivojlantiradi. Muammoni hal qilish muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi tabiiy, bu o‘qituvchining va o‘quv materialining o‘ziga xos xususiyatlariga hamda o‘quvchilarning individual xususiyatlariga qarab o‘qituvchi tomonidan belgilanadi. Muammolarni hal qilish jarayonida o‘zlashtirilgan bilish amallari umumlashgan tavsifga egadir [1;314-b].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

O‘quv vazifasi o‘quv faoliyatini tashkil etish va o‘quv natijalarini loyihalashtirishning samarali vositasi bo‘lishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilinishi kerak:

1. Ta‘lim maqsadlariga mos keladigan vazifalar tizimini ishlab chiqish.
2. Nafaqat yaqin ta‘lim maqsadlari, balki vazifalarni ishlab chiqishda uzoq maqsadlarni ham mo‘ljalga olish.
3. O‘quv topshirig‘ini shunday ishlab chiqish lozimki, masalani yechishda o‘zlashtirish ko‘zda tutilgan faoliyat vositalari ta‘limning bevosita mahsuloti bo‘lsin.

Muammoli ta‘lim talabalik yoshidagi inson mantig‘ini rivojlanishiga eng mos keladigan davrdir. Ushbu davrda, funksiyalarning ixtisoslashuvi bilan ifodalangan, faol tarzda intellekt tizimini qayta tarkiblashtirish amalga oshadi. Shu ma‘noda, talabalik yoshi intellektni murakkab tarkiblashtirish davri sifatida muammoli tavsifdagi ta‘lim ta‘sirlariga sezgindir.

Muammoli vazifalarni o‘qitish quyidagi intellektual yangi tashkilar: muammoga nisbatan sezgirlik, muammoli vaziyatni vazifaga moslashtirish qobiliyati, muammoni rivojlantirish qobiliyatining natijasi bo‘ladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Bizning nuqtayi nazarimizdan texnik tafakkurni rivojlantirishning eng muhim vositasi vazifa (masala) bo‘lganligi sababli, texnik vazifa (masalalar)ning mohiyati va turlarini aniqlash kerak bo‘ladi. Texnik vazifa – qandaydir texnik obyektga (ya‘ni muayyan shartlarda berilgan maqsad) tegishli vazifadir. Tadqiqot faoliyati jarayonida texnik muammo hal qilinadi.

Har qanday muammolarni hal qilish bosqichlari haqida umumlashtirilgan tasavvur: vazifani anglash (ma‘lum bo‘lgan va bilmaganni farqlash; bilmaganni oldindan taxmin qilish), yechim tamoyilini izlash (faraz qilish va tekshirish); topilgan yechimni amalga oshirish (ijro harakatlari va yechimning to‘g‘riligini tekshirish).

Texnik tafakkur rivojlanishining natijasi texnik muammolarni muvaffaqiyatli hal qilgan bo‘lishi kerak, bunda texnik fikrlash quyidagi xususiyatlarda namoyon bo‘ladi: ijodiy tavsif (kreativlik), integrativlik, tezkorlik va aks ettirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta‘kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘limni yanada rivojlantirish va tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘z kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish asosiy maqsad va vazifa sifatida belgilab olinganligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoniga davomiyligini ta‘minlash maqsadida quyidagilarni isloh qilish nazarda tutilgan. Jumladan:

a) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

b) O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

c) uzluksiz ta‘lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni yanada samarali yo‘lga qo‘yish;

d) ta‘lim muassalari faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy o‘qitish metodikalarini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

e) xalq ta‘limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

f) xalq ta‘limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag‘ bilan ta‘minlashning samaradorligini oshirish;

g) yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta‘minlashda maktabdan tashqari ta‘limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish;

h) davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta‘lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;

i) yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

j) xalq ta‘limi tizimida faoliyat ko‘rsatishning sifatini hamda jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish kabilar keltirib o‘tiladi.

O‘zbekiston Respublikasining xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2023-2030 yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xarita”si ishlab chiqilgan bo‘lib, Konsepsiya tegishli davrga mo‘ljallangan maqsadli parametrlar va asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqib, har yili alohida tasdiqlanadigan “Yo‘l xarita”si orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan va ushbu Konsepsiya asosida bosqichma-bosqich rivojlantirishning yangicha yo‘nalishlari har yili takomillashtirilib amaliyotga joriy etilib borilishi ko‘zda tutilganligi bilan ahamiyatlidir. Bularning barchasi yurtimizda barcha sohalarni fundamental asosi bo‘lgan ta‘lim tizimi va uni boshqaruvchi kadrlarning rahbarlik mahoratiga bog‘liqdir, albatta.

O‘zbekiston Respublikasida boshqaruv jarayonlari salmog‘i bo‘lib, bir qator rivojlantirilishi zarur bo‘lgan sohalar mavjud. Ulardan asosiysi bu albatta ta‘lim tizimi hisoblanadi. Bunda zamonaviy rahbar kadrlar bosh islo hatchi hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, boshqaruvchilarning boshqaruv salohiyatini oshirishga doir olib borilayotgan davlat siyosati maqsadlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Ayni paytda boshqaruvning muhim belgilaridan yana biri bu zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni o‘z vaqtida o‘zlashtira olgan rahbarlarning qobiliyatlarini boshqaruv faoliyatlarida ko‘rsata bilishidir. Bu esa o‘z navbatida ta‘lim sohasida kadrlar siyosatini ro‘yobga chiqarishda davlat dasturida belgilangan talablar, ta‘lim standartlariga asoslangan bo‘lib, bu ijtimoiy-psixologik jarayon rahbarlarning o‘ziga xos nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma hamda malakalarni yanada rivojlantirishlarini talab etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta‘kidlash lozimki, ijtimoiy-psixologik jarayonlarning ahamiyati bu albatta shaxs taraqqiyotining mazmundorligida o‘z aksini topadi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar tizimining moslashuvchisi va bevosita a‘zosi sifatida faoliyat yuritadi. Shu bilan bir qatorda inson o‘z vaqtida taraqqiyotning yaratuvchisi, ishtirokchisi va iste‘molchisi hamdir. Yosh avlodning asosiy iste‘mol darajasi O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta‘lim xizmatlaridan samarali foydalanish bilan belgilanadi. Mazkur qonunlar mazmun-mohiyat jihatidan asoslari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar berishga oid masalalarni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, ularning inson shaxs kamolotida tutgan o‘rnini, kadrlar tayyorlash tizimidagi ahamiyati asosli ravishda keng qamrovli yoritib berilishiga e‘tibor qaratilgan. Bunda, kadrlar tayyorlashning uslubiy, psixologik, pedagogik asoslari, tushunchalari va

shaxsning eng muhim xususiyatlarini ochib berish ko‘zda tutiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish joizki, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga qilgan murojaatnomasiga nazar tashlaymiz. Jumladan,

Bu kabi jiddiy islohatlarni jadal sur‘atlarda amalga oshirishda Prezident Shavkat Mirziyoyevning oqilona siyosatining natijasi ekanligi hechkimga sir emas. Bunga misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham ko‘rishimiz mumkin.

Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerakki, oldimizda uzoq va mashaqqatli yo‘l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o‘qib-o‘rgansak, ishimizni mukammal va unimli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayammasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi.

Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohatlar, ilm-ma‘rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohatchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarni tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigacha – ta‘limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki bugun jamiyatimiz a‘zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma‘rifat, yuksak ma‘naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi.

Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlik!” Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma‘rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Jonajon O‘zbekistonimiz yangi o‘n yillikka qadam qo‘ymoqda. Erishilgan natijalarimiz tarixga aylanib, oldimizda yangi-yangi o‘zgarishlarni amalga oshirish bo‘yicha ulkan vazifalar va imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda. Shu bois bugun Sizlar bilan birgalikda mamlakatimizni 2022- yil va kelasi 5 yilda rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalish va vazifalarni belgilab olish lozim.

Biz Yangi – O‘zbekistonni xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, ulug‘vor maqsadni o‘z oldimizga qo‘yganmiz. Bu borada **“Jamiyat – islohatlar tashabbuskori”** degan yangi g‘oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda deb, alohida tak‘kidlaganlari bejizga emasligi aytib o‘tilgan.

Afsuski, zamonaviy ta‘lim sohasini isloh qilish, boshqaruv va kadrlar tayyorlash sohalarida, innovatsion loyihalarni amaliyotga tadbiq etishga oid shu kabi muammolar bugungi kunda aksaryat hollarda hal etilmasdan qolmoqda. Bu borada tegishli maqsad va mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan asosiy vazifalar belgilab olingan.

Zamonaviy rahbar kadrlarni tayyorlashdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘z ishini puxta biladigan, innovatsion g‘oyalar va kasbiy kompetentlikka ega, yuksak madaniyat, kasbiy bilish ko‘nikmalari va malakalariga ega, har qanday sharoitda samarali faoliyat yurita oladigan, insoniy yuksak qobiliyatlarga ega, kreativ va innovatsion salohiyatga hamda kuchli milliy ongga ega yetuk mutaxassis-rahbar kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, shiddat bilan taraqqiy etayotgan zamon talablaridan va jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, har tomonlama boshqaruvga mos keluvchi, raqobatga bardoshli, yuqori kompetentlikka ega mutaxassis-rahbar kadrlarni tayyorlash jarayoni ayni paytda hal etilishi zarur bo‘lgan vazifalarning sarasi sifatida qaralmoqda.

Ilmiy izlanishlar natijalariga ko‘ra boshqaruvchilarga xos bo‘lgan tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ular:

- ✓ boshqaruvchanlik sifatlarini yaratish, davlat va jamiyat manfaatlariga mos keladigan raqobatga bardoshli rahbar kadrlarni tayyorlash;
- ✓ faoliyatli yondashuvlilik, boshqaruv jarayonida innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llay bilish;
- ✓ kasbiy-kreativ kompetentlikka ega rahbar-kadrlarni tayyorlash va ularni boshqaruvchanlik qobiliyatlariga qarab saralash;
- ✓ natijaviylik, tizimlilik, tejamkorlik, ishbilarmonlik muhitini o‘zida aks ettiruvchiga qaratilgan boshqaruv tizimini yaratish;
- ✓ boshqaruv jarayoniga sifat jihatdan ijtimoiy-psixologik, siyosiy va iqtisodiy samara beruvchi innovatsiyalarni kirita oladigan rahbarlarni tayyorlash tizimini yaratish va b.

Kadrlar salohiyati, barcha turdagi tarmoq va sohalarning ravnaq topishi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan ham mamlakatimizda tayyorlanayotgan mutaxassislarning kasbiy shakllanishini va ularning sifatli hamda mahoratli kadrlar sifatida kamolotini ta‘minlash davlat va jamiyat oldidagi eng asosiy hal etilishi zarur bo‘lgan muammolardan sanaladi. Ushbu hal etilishi lozim bo‘lgan muammolardan kelib chiqib mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari belgilab

olindi.

Respublikamizning barcha tarmoq va qatlamlariga yangiliklar kirita oladigan bilimli, layoqatli, tashabbuskor ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan mutaxassis-kadrlarni sifat jihatidan zamonga mos ravishda, zamonaviy talablar asosida tayyorlash tadqiqot mavzusining asosiy maqsadi qilib belgilab olindi.

Bu kabi keltirib o'tilgan islohatlar negizida yosh avlodning kelajagi, kuchli raqobatga bardosh beruvchi sifatli kadrlarni tayyorlash, shuningdek, xalqning moddiy farovonligiga xizmat qiluvchi, davlat va jamiyat manfaatlariga mos keluvchi, jahon hamjamiyati oldida yuksaklik raqobatga bardosh bera oladigan, o'quv jarayoniga yangi innovatsion texnologiyalarni zamonaviy uslub hamda vositalar yordamida tadbir etishning yangidan-yangi shakl va formalarini joriy etish, professor-o'qituvchilarni kasbiy-kreativ kompetentligini muntazam oshirib borish, bo'lg'usi kadrlarda aktyorlik mahoratini shakllantirish kabi ko'plab ijobiy natijalarga erishish nazarda tutilgan.

Barchamizga ma'lumki, taraqqiyotga erishish uchun har qanday rahbar bugungi kunda raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashi zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'ldan borish imkoniyatlarini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, kelajak avlodni hayotga tayyorlash, ularni ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi uslublar asosida ularning ongini va tafakkurini rivojlantirish davlat va jamiyat manfaatlarini uchun muhim hisoblanadi.

Darhaqiqat mamlakatimizda amalga oshirilgan islohatlar qatorida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ijodiy hamda amaliy ishlar xususida ham mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan barcha tarmoq va sohalarning rahbarlariga ko'plab hal etilishi zarur bo'lgan vazifalar belgilab berildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quydagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

✚ bo'lg'usi mutaxassis-kadrlarni individual-tipologik, yosh davrlari xususiyatlari, texnik qobiliyatlari, intellektual salohiyati va imkoniyatlarini hisobga olgan holda qobiliyatlariga asoslanib ta'lim-tarbiya berish;

✚ kadrlarni kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni aholining turmush tarzi bilan bog'lash va innovatsion loyihalar asosida ta'limga uyg'unlashtirish;

✚ zamonaviy kadrlar tayyorlash maqsadiga erishishda, asosan, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi metodlaridan samarali foydalanish;

✚ salohiyatli va sifatli kadrlar tayyorlash jarayoniga yangi ilg'or innovatsion loyihalar va texnologiyalarni joriy etish.

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, yurtimizdagi barcha sohalarni raqamlashtirish, ishlab chiqarish sohasini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish, yosh avlodni ta'lim-tarbiyasi va kadrlar masalasidagi chora-tadbirlarni “Yo'l xaritasini” ishlab chiqish, yaratilgan ishbilarmonlik va sog'lom raqobat muhitidan oqilona foydalanish, tadbirkorlik, sohalarni tubdan isloh qilish, aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish kabi ko'plab sohalarni keng qamrovli rivojlantirish uchun barchamiz mas'uliyat bilan yondashib, birlashib harakat qilsakgina yurtimiz yanada gullab-yashnaydi va ravnaq topadi.

Xulosa so'ngida takidlash kerakki, ta'lim-tarbiya va innovatsion loyihalar–inson faolligini belgilaydigan muhim bir tarmoqqa aylanmoqda. Bu esa o'z navbatida yurt ravnaqi uchun asosiy va ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qarab kelinmoqda.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017. – 21 b.

2. Muslimov N.A., Abdullayeva Q.M, Qo'ysinov O.A., Gaipova N.S., Karimova N.N., Qodirov M. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. / Prof – Muslimov N.A. tahriri ostida. – T.: “Fan va texnologiya”, 2020 – 122 bet.

3. Karimova V.M., Hayitov O.E., Djalalova S.M.. Boshqaruv psixologiyasi. “O'quv qo'llanma”. –T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2020 yil, 123 b.

4. Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009. С.81-82.

O‘QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Tillayeva Rayxona Tuxtasinovna,

Namangan davlat pedagogika instituti

*Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

rayhona.tillayeva@bk.ru

Ushbu maqola hozirgi zamonda dolzarb hisoblangan masala, ya‘ni yuqori sinf o‘quvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, o‘quvchilarning har bir so‘zning izohini topa olish ko‘nikmalarini shakllantirish haqida so‘z boradi. Shaxs intellektual kamoloti samaradorligiga qaratilgan ilmiy tadqiqotchilik faoliyati o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy qobiliyati, erkin fikrlashi, faolligi va mustaqilligini, bir so‘z bilan aytganda, kognitiv faolligini oshirishga xizmat qiladi. Kichik tadqiqotlar olib borish o‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi, asosli javob topish jarayonida noto‘g‘ri vaziyatlarni xotirjamlik bilan hal etish qobiliyati, masalaga xolis munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini shakllantiradi. Natijada o‘quvchilarda masalaga nisbatan e‘tiborli bo‘lish, aniqlik, murakkab vaziyatlarda voqealarni obyektiv baholash ko‘nikmalari va ijodkorlik sifatleri rivojlantiriladi.

***Kalit so‘zlar:** tadqiqotchilik kompetensiyasi, intellektual rivojlantirish, kompetensiya va kompetentlilik tushunchalari, tadqiqot faoliyati, muammoli vaziyat, ilmiy bilish metodlari, muammoli ta‘lim, kognitiv faollik, tadqiqot darsi, fikrlash darsi, mulohaza yuritish, ijodiy ishlar yaratish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ

В данной статье речь идёт о проблеме, являющейся актуальной на сегодняшний день, а именно о педагогико-психологических особенностях формирования исследовательских компетенций у старшеклассников, формирования у учащихся умений находить объяснение каждому слову. Научно-исследовательская деятельность, направленная на эффективность интеллектуального развития личности, служит повышению логических и творческих способностей учащихся, свободомыслия, активности и самостоятельности, одним словом, познавательной деятельности. Проведение небольших исследований развивает у детей логическое мышление, умение спокойно решать неправильные ситуации в процессе поиска разумного ответа, умение беспристрастно относиться к проблеме. В результате у учащихся развиваются навыки внимательности к вопросу, точности, объективной оценки событий в сложных ситуациях, креативности. В статье говорится об этих аспектах.

***Ключевые слова:** исследовательская компетентность, интеллектуальное развитие, понятия компетенции и компетентности, исследовательская деятельность, проблемная ситуация, методы научного познания, модульное обучение, познавательная деятельность, исследовательский урок, урок мышления, рефлексия, создание творческих произведений.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF FORMATION OF RESEARCH COMPETENCIES IN PUPILS

This article is about the issue considered relevant nowadays, that is to say, the pedagogical-psychological features of the formation of research competences in high school students, the formation of students' skills to find the explanation of each word. Scientific and research activities aimed at the effectiveness of personal intellectual development serve to increase students' logical and creative abilities, free thinking, activity and independence, in a word, cognitive activity. Conducting small research develops children's logical thinking, the ability to calmly solve wrong situations in the process of finding a reasonable answer, and the ability to have an impartial attitude to the problem. As a result, students develop the skills of being attentive to the issue, accuracy, objective assessment of events in complex situations, and creativity. The article talks about these aspects.

***Keywords:** research competence, intellectual development, concepts of competence, research activity, problem situation, methods of scientific knowledge, inquiry, modular education, cognitive activity, research lesson, thinking lesson, reflection, creation of creative works.*

Kirish. Jamiyat taraqqiyotning hozirgi bosqichida yangi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashuvchan, turli faoliyat shakllariga qiziqadigan, erkin fikrlovchi, shaxsiy pozitsiyaga ega, ijodkor va raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bu esa quyi ta’lim bosqichlaridanoq o‘quvchilarning individual bilim, ko‘nikma va malakalarinigina emas, balki tadqiqotchilik toifasidagi meta-predmet kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini ham kun tartibiga qo‘ymoqda. Shu bois “o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish”[1] maqsadi o‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish, izlanish, o‘z ustida ishlash va maqsadli faoliyatga yo‘naltiradigan yondashuvlarni ta’lim amaliyotiga intensiv qo‘llash masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Asosiy qism. Mamlakatimizda tadqiqotchilik faoliyatini yo‘lga qo‘yish masalasi, avvalo, pedagogik tafakkurni o‘zgartirish, o‘quvchilarning adabiy tahlil malakasini rivojlantirish, mustaqil va tanqidiy tafakkurni qaror toptirish, nutq o‘stirish, ijodiy ishlarni yo‘lga qo‘yish, mumtoz asarlar matni ustida ishlash, badiiy namunalarni qiyosiy yo‘sinda o‘rganish, virtual laboratoriyalar tashkil etish, muammoli o‘qitish aspektida Q. Yo‘ldoshev, S.Matchonov, M.Mirqosimov, Q.Husanboyeva, R. Niyozmetova, B. Adizov, V. Qodirov, E.Abduvalidov, A.Hamroyev, M. Hazratqulov, S.Qambarova, I.Rahimov kabi metodist; uzluksiz ta’limda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish S.Nishonova, B.Rahimov, Sh. Sharipov, O‘.Xudoyberganova, N.Narziyeva, Sh. Boltayeva, T.T.Kaziyeva kabi olimlarning izlanishlarida o‘rganilgan.

Kompetensiya va kompetentlilik tushunchalari, ularning turlari, mazmun-mohiyati va strukturasi MDH olimlari: S.V.Abramova, M.V.Boguslovskiy, I.P.Volkov, L.S.Vigotskiy, P.Y.Galperin, V.V.Davidov, L.A.Darinskaya, E.P.Ilin, M.G.Kachurin, E.V.Lebedov, Lerner, S.I.Osipova, V.V.Pazini, L.M.Perminov, K.B.Petro, Y.A.Ponomore, Y.V.Rindina, A.E.Simanovskiy, I.L.Starselar tomonidan o‘rganilgan. Ta’lim oluvchilarning tadqiqot ishlarini olib borish, loyiha ishlarini yo‘lga qo‘yish kognitiv o‘quv faoliyatini shakllantirish muammosi bilan bog‘liqlikda tashkil qilinishi A.I.Balashva, N.I.Dereklev, K.N.Polivanova, A.V.Mirono, A.S.Obuxo, A.I.Savenko, Sergeev kabi olimlarning izlanishlarida o‘rganilgan.

Maqolada yuqori sinf o‘quvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarining shakllantirishni pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida muhokama qilinadi. Xususan, yuqori sinf o‘quvchilarini tildagi mavjud so‘zlar ma’nosi izohini topishga har darsning boshlanish vaqtida bajarilishi tahlil qilindi va qomusiy olimlar qarashlari bilan solishtirildi.

Ijodga yo‘naltiruvchi tadqiqotchilik faoliyati masalasiga ilmiy jihatdan yondashish, shaxsning o‘zlashtirgan bilim, malaka va tajribasiga tayanish va yaratuvchanlik sifatleri takomili uchun omil bo‘lgan boy moddiy-texnik bazani taqozo etadi. Bu ta’lim muassasalarining tegishli adabiyotlar va jihozlar bilan ta’minlanganlik darajasini ham o‘zida aks ettiradi.

Mavzu doirasidagi muammoning mohiyatini ochishga kirishishdan avval “tadqiqotchilik” so‘zining ma’nosiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da tadqiqot arabcha so‘z bo‘lib, “1- tadqiq ishi, tekshirish, o‘rganish; 2- ilmiy tekshirish ishining natijasi; tadqiqotchilik “tadqiqot bilan mashg‘ul bo‘lish, tadqiqot ishlari” tarzida ta’rif beriladi.

Shu o‘rinda o‘tmish ajdodlarimiz tomonidan tadqiqot ishi, tadqiqotchilik yondashuvi, uning boshqa bilish jarayonlaridan farqli belgilari, insonga xos yaratuvchanlik sifatleri va ularni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar borasidagi qarashlariga to‘xtalish joiz. Zero, insonning tadqiqotchilik qobiliyati azaldan, ya’ni uning bilishga bo‘lgan ehtiyojlari anglanishi zamirida paydo bo‘lgan.

Mazkur yondashuvning keng yoyilishiga donishmand Suqrotning ta’siri kattaligi fanda yaxshi ma’lum. Uning ta’limotida yangi bilimlar faqat ilm-hunar va jiddiy mehnat natijasida egallashi ta’kidlanadi. Albatta, inson mana shu sifatleri tufayligina go‘zal axloqqa – kamolotga erishadi. Kashfiyotlarga qo‘l uradi. Suqrotona o‘qitishning samarasi bilimlarni tayyor holda emas, balki mavzuga oid muammolar bo‘yicha o‘quv tadqiqotlarini olib borish orqali o‘zlashtirilishida ko‘rinadi. Faylasuf ta’limoti asrlar davomida savol-javob usuli vositasida masalaga mantiqan yondashish, nutqning ravonligi, tanqidiy va ijodiy fikrlashga o‘rgatishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Albatta, bunda muammo mazmuni bola motivlariga muvofiqlashtirilishi, faoliyatga olib kirishda rag‘batlantirish usulidan foydalanilishi, noto‘g‘ri fikrlarning belgilab borilishi, muammoli vaziyatlar yaratilishi va xatolarini tuzatishga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatilishi shartlari mavjud.

Yana bir mutafakkir ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilish metodlari haqidagi ta’limotida tahlilga tortilayotgan muammo doirasidagi qarashlarning mavjudligi ham ahamiyatlidir. O‘zidan avval yashab o‘tgan Ahmad Farg‘oniy va Muhammad Xorazmiylar ta’limotini boyitib takomillashtirgan allomaning kuzatishlarida tajribalar o‘tkazish, ma’lumotlar to‘plash, ular asosida umumlashmalar qilish, haqiqatni aniqlash maqsadida muammoni tanqidiy o‘rganish va taqqoslash masalasi yoritiladi. Olimning

fikricha, “...bilimga yetkazuvchi vositalardan, eng muhimi – qadimgi millatlar haqidagi rivoyatlar, o‘tmish avlodlar to‘g‘risidagi xabarlarini o‘rganishdir, chunki bularning ko‘pchiligi u millatlar avlodidan va ularning rasmu rusum qoidalaridan iboratdir. Aqliy dalil keltirish, kuzatilganga qiyos qilish yo‘li bilan u xabarlarini bilib bo‘lmaydi. Buni faqat “kitob ahli” va turli din arboblari, shu e‘tiqodlilarning har xil maslak, tushunchalarini hamisha taqqoslash bilan bilinadi”[2].

Bizningcha, yuqoridagi fikrlardan bilim shunchaki emas, balki turli xil qarashlarni o‘rganish, ularning mohiyatiga kirish va shundan so‘ng qiyoslash, qisqacha aytganda, chuqur tadqiq etish evaziga o‘zlashtiriladi, degan xulosa shakllanadi.

Tadqiqotchilik sifatleri ijod, ijodkorlik salohiyati tushunchalari bilan bog‘liq. Bu tushuncha subyektning biror yo‘nalishda hali ma‘lum bo‘lmagan bilim yoki tushunchalarni kashf etish zamiridagi harakatlari va uning mahsuli ekanligi nazarda tutilsa, uni ta‘lim jarayonida ko‘rilayotgan obyektga xos notanish xususiyatlarni o‘quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlari doirasida o‘rganishga qaratilgan o‘quv-biluv faoliyatidir deyish mumkin bo‘ladi.

Manbalarda ijod tushunchasi tor va keng ma‘noda izohlanadi. Tor ma‘nodagi ijod maxsus tadqiqotlarni nazarda tutsa, keyingisi barcha uchun tegishli bo‘lgan faoliyat elementlarida ham kuzatiladi. Demak, tadqiqotchilik kompetensiyasi izlanuvchi maqomidagi har bir subyektning o‘zi uchun kashf etish zarur bo‘lgan yangiliklarni ehtiyoj, maqsad va intilishlari doirasida amalga oshirish jarayonidir. Bunda subyektgacha xos aqliy operatsiyalar yordamida o‘rganilayotgan obyektlar o‘rtasidagi ichki bog‘lanishlar anglab yetiladi. Binobarin, inson faoliyati serqirra bo‘lib, u o‘z imkoniyatlarini muayyan faoliyat turiga moslashtiradi. Natijada o‘quvchi ko‘z oldida tabiat va inson haqida o‘zi uchun shu kunga qadar ma‘lum bo‘lmagan kichik-kichik sir-sinoatlar muayyan ko‘rinishlarda namoyon bo‘la boshlaydi. Bu esa, yangi bir aqliy mahsulotning maketi sifatida o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalanadi. O‘z mehnatidan, xatti-harakatlaridan qoniqish hissini uyg‘otadi. Bu borada metodist olim Q.Husanboyeva to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, “Kashfiyotning lazzati qanchalar totli ekanini har bir odam biladi. Mana shu lazzatni vaqtliroq tuyish imkonini o‘quvchilarga ham berish kerak. Kashf etish lazzati o‘quvchini asar mohiyatiga chuqurroq kirishga, yangi-yangi topilmalar qilishga undaydi. Odam o‘ziga huzur bergan ishni yana va yana qilgisi, uni chuqurlashtirishi, o‘sha huzurni qayta tuygisi keladi. Adabiyot darslarining insonga xos bo‘lgan mana shunday tabiiy sifatlar bilan hamohang kechishi o‘quvchi shaxsiyatida fikr kishisini tarbiyalaydi”[3].

Bundan tadqiqotchilikka yo‘naltiruvchi loyiha ishlarini amalga oshirish va ijodiy faoliyatga yo‘naltirishda o‘quvchilarning o‘rgangan bilimlari mazmunini tushunish va boshqalarga ham yetkaza bilish, muayyan xulosalarga kelish, qarorlar qabul qilish, qiziqish va imkoniyatlari doirasida o‘zi uchun yangi deb bilgan narsalarni o‘ylab topishga, yaratishga motivatsiya berish muhim bosqichligi ayon bo‘ladi. Ya‘ni ijod – yaratuvchanlik xususiyati fikrlashga o‘rgatish, fikrlashga nisbatan xohish uyg‘otish zaruratidir.

Ijod jarayoni fikrlashsiz amalga oshmaydi. O‘zaro ta‘sirga ega fikrlash va ijod jarayonlari rang-barang va takrorlanmas bo‘lib, ularga xos xususiyatlarni tor kontekst doirasida aniq tasvirlash murakkab hisoblanadi. Shunga asoslanilsa, ijodiy fikrlashning yagona va aniq ilmiy ta‘rifi bugungi kunga qadar shakllantirmagani ma‘lum bo‘ladi. Zero, har kim unga o‘z nuqtayi nazaridan yondashadi. Mohiyatan fikrlashga yo‘naltiruvchi izlanish faoliyati o‘rganishga ehtiyoj, tadqiq etilayotgan obyekt doirasidan tashqariga chiqish, o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘z ustida mustaqil ishlashdan iborat bo‘lishi barobarida nostandart fikrlashga qaratilgan imkoniyatlarini to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqarishni ham nazarda tutadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari: muammoni ko‘ra olish, tafakkurining egiluvchanligi, voqelikni ijodiy tasavvur qilish, g‘oyalarni generatsiyalash, eruditsiya, analiz-sintez, refleksiya qobiliyatlarini shakllantirish maqsadiga xizmat qiladi.

O‘quvchining tadqiqotchilik salohiyati undagi ijodkorlik sifatleri bilan bog‘liq bo‘lib, bu izlanuvchi N.O‘rinova qayd etganidek, an’anaviy tafakkur qoliplaridan voz kechish tafakkurning moslashuvchanligi, inson fe‘l-atvorining orginallik, tashabbuskorlik va nostandartlik kabi bir qator xususiyatlari orqali o‘z aksini topadi[4].

O‘quvchilarning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy xususiyatlari tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish omili sifatida muammolarni ko‘ra olish, o‘z taxminlarini shakllantirish, ularni tekshirish yo‘llarini o‘ylab topish, ma‘lumotlar to‘plash, tahlilga tortish, xulosaga kelish, natijalarni qo‘llash, muammoni turli aspektda hal qila olish kabilarni o‘z ichiga oladi. Bu jihatlar konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ, izlanishlarga aloqador pedagogik faoliyat yo‘nalishlarini belgilaydi.

Ijodiy faoliyat inson tashabbuskorligining barcha ko‘rinishlari aks etadigan intuitsiya (zahn-farosat) va intiutiv fikrlash jarayoni bilan bog‘liq muammoli ta‘limni ham taqozo etadi. Shuningdek, inson faoliyati natijasida o‘z mehnatidan qoniqishi, ish jarayonida yangiliklarni kashf etishga harakat qilishi, muammolarga o‘rinli yechimlarni tavsiya qilishda motivatsiya ham ijodiy faoliyatning komponentlari sanalib, qo‘yilgan masalani oldin egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan bog‘lay olish hamda yangi vaziyatlarda

qo‘llay bilish, obyektning aniqlanmagan o‘ziga xos xususiyatlarini izlash jarayoni ekanligi ham ta’kidlanadi[5].

Bu o‘rinda ijodiy jarayon shaxs o‘quv-bilish faoliyatining yuqori darajasi bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ham kognitivlik, ham kreativlik xususiyatlarini ifodalashi haqidagi fikrlar shakllanadi.

Pedagog olim R.Jo‘rayevning ilmiy izlanishlarida o‘quvchilarda qobiliyatlar turlicha namoyon bo‘lishi, o‘qituvchining masalaga shu nuqtayi nazaridan yondashishi ulardagi ijodkorlik sifatleri rivojiga yo‘l ochishi ta’kidlanadi. Uning fikricha, insonning ma’lum bir ishni bajarishi uchun zarur sanalgan bilimlarni egallashga intilishi, o‘qib-o‘rganishi, yaratuvchanligi, mustaqil tafakkur yuritishi, muhimni nomuhimdan farqlay bilishi, narsa-predmet yoki hodisalarning umumiy jihatlarini aniqlashi, taqqoslashi, analiz va sintez qilishi, noan’anaviy fikrlashiga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqish ko‘nikmalari majmui ijodkorlik qobiliyatini tashkil etadi[6].

Olimning fikrlariga tayanilgan holda aytish mumkinki, o‘quvchi-yoshlarni tadqiqotchilikka yo‘naltirishda ulardagi ijodkorlik qobiliyatining o‘ziga xos jihatlariga e’tibor qaratish, atrof-olamni kuzatish bilan bog‘liq izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, aqliy mehnat qilishga ongli munosabatni tarkib toptirishning optimal yo‘llari taqozo etiladi.

Bizningcha, yangi bilimlarni tadqiq qilishga doir ijod jarayoni bir-birini taqozo etuvchi “texnologik zanjir”: ehtiyoj, maqsad, faoliyat va natijaga asoslanadi. Bunda ehtiyoj faollikka turtki beradi. Motiv anglangan ehtiyoj sifatida faollikni ma’lum tartibga soladi. Maqsad esa avvaldan rejalashtirilgan natijadir.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarni tadqiqotchilikka yo‘naltirishda dastlab aynan tanlangan faoliyat turiga qiziqtirish muhim omil sanaladi. Chunki maqsadning amalga oshirilishi qiziqish uyg‘otishning ichki va tashqi ta’sirlari bilan bog‘liq. Professor Q.T.Olimov mazkur ta’sirlar sirasiga, avvalo, muayyan o‘quv fanining mazmuniga taalluqli bo‘lgan ichki qiziqtirishni kiritadi. Shuningdek, o‘quv materiali mohiyatidagi asosiy muammoni aniqlash, nazariya va amaliyot uyg‘unligini tizimli holda yo‘lga qo‘yish, buning kelgusidagi ahamiyatini ko‘ra bilish, vaqti-vaqti bilan ish usullarini almashtirib turish, o‘smir faoliyatidagi ish hajmining muayyan chegarasini belgilash, o‘zaro munosabatlarda xatoga yo‘l qo‘ymaslik kabilarga e’tiborini qaratadi[7].

Bizningcha, tadqiqotchilik faoliyati dastlab biror narsa-predmet, obyekt xususida o‘quvchining e’tiborini tortishdan boshlanib, keyinchalik ular haqidagi ma’lumot, xususiyatlarni o‘rganib tahlil qilish, umumlashtirish va natija olishgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi. Mazkur jarayonda ichki va tashqi motivatsiya uchun sabab bo‘luvchi faktlar aniqlanishi zarur. Bu o‘quvchi faoliyati uchun yengillik yaratadi.

Insonni muayyan xatti-harakatlarga boshlaydigan qo‘zg‘atuvchi kuchlar mavjud bo‘lib, ular psixologiyada motivlar nomi bilan ataladi. Tadqiqotchi H.Hamzayevning ta’rificha, “motiv – bu insonning xulq-atvorini ichki psixologik boshqarish bo‘lib, yo‘naltirilganlikni, tashkil qilinganlik, qo‘llab-quvvatlanganlikni o‘z ichiga oladi”.

Psixolog E.P.Ilanning xulosalarida motiv insonni ma’lum bir xatti-harakatlarga undaydigan asosiy omilligi ko‘rsatiladi [8]. Shunga ko‘ra, o‘quvchilarni tadqiqotchilikka yo‘naltirishda ularni yangiliklar qilishga ruhlaniruvchi tabiiy va ma’naviy motivatsiyalar muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqotchi N.A.Muradova motivatsiya tushunchasini o‘smirlik yoshidagi o‘quvchilarda o‘qib-o‘rganish faoliyatiga qiziqishni shakllantirish omillaridan biri sifatida ko‘radi. Uning fikriga ko‘ra, “O‘quvchilarning motivatsion doirasi – ehtiyojlar va u bilan bog‘liq qo‘zg‘atib, qo‘llab-quvvatlab, faollashtirilib turish zarur bo‘lgan motivlar tizimi ekanligini esda saqlash kerak. Ayniqsa, o‘smirlik davrida, bu yoshdagi o‘quvchilar madaniyatshunoslik, ma’rifatparvarlik faoliyatiga jalb etilayotganlari” da juda muhimdir.

O‘spirin yoshdagi o‘quvchilarning bilishga doir qiziqishlariga motivatsiya berish ularning maksimal darajada faollik ko‘rsatishlari va aqliy rivojlanishiga ta’sir qiladigan ijodiy fikr laboratoriyasiga olib kiradi. Bilish faoliyati orqali o‘quvchi bilimlarni o‘zlashtiradi, moddiy olamning o‘ziga xosliklarini anglay boshlaydi. Bilish faoliyati ta’lim oluvchilarning o‘z xatti-harakatlariga ishonch hissini uyg‘otadi. Xatti-harakatlarga undaydigan psixik hodisa esa motivdir. Motiv tushunchasi zamirida shaxsning ideallari va qiziqishlari, ijtimoiy ustanovkalari va ehtiyojlari turadi.

O‘quv faoliyati samaradorligida shaxsning motivatsion sferasi masalasini tadqiq qilgan professor N.Sayidahmedovning ko‘rsatishicha, shaxsdagi ehtiyojlarni qanoatlantirishga qaratilgan muayyan faollik turi motivdir. Bu uni faoliyatga, muloqotga va xulq-atvoridagi ba’zi sifatleri rivojlantirishga yo‘naltiruvchi xohish va moyillikdir.

Ko‘rinadiki, motiv faoliyatga turtki beradi. Motivlar shaxsni ijobiy natijalarga erishishga undaydigan ehtiyojlarni aniqlab beradi. Lekin ayrim o‘quvchilarda hali faoliyatini boshlamasdan turib ishdan hadiksirash hollari ham kuzatiladi. Bu hol psixolog olimlar tomonidan muvaffaqiyatsizlikdan hadiksirash motivatsiyasi deyiladi. O‘quv-tarbiya jarayonida o‘qituvchi aynan shu jihatleri bartaraf etish choralarini belgilashi zarur.

Psixolog E.G‘oziyev o‘quv faoliyati motivlari haqidagi mulohazalarida shunday yozadi: “Ijtimoiy turmushda shakllanuvchi ehtiyojlar orasida o‘quv faoliyatida muhim rol o‘ynovchi va uni kuchaytiruvchi ijobiy xususiyatli sotsial va gnostik ehtiyojlar alohida ahamiyat kasb etadi, shaxsni kamol toptirish jarayonida hukmron voqelikni egallaydi. Ularning turkumiga bilimlarga nisbatan ehtiyoj, jamiyatga foyda keltirishga intilish, umumbashariy yutuqlarga erishishga intilish kabilar kiritiladi”[9].

Ma‘lumki, o‘qituvchi tomonidan maxsus konstruksiyalanadigan ta‘limiy muammolar, albatta, yechim topishni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, fan asoslarini o‘zlashtirishni, bilishga nisbatan ehtiyojni chaqiradi. Fikrlashga yo‘nalish beradi. Muammoga oid verbal va vizual materiallarni o‘rganish o‘quvchilarda yetarlicha motivatsiyani hosil qiladi. Yuqorida keltirilganlarga qo‘shimcha tarzda yuqori sinf o‘quvchilari tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishda kuzatiladigan qiyinchiliklar ularning qobiliyatlari va erishadigan natijalari borasidagi tasavvurlarini o‘stirishga ham aloqadorligini ta‘kidlash joiz. Bunda bevosita ularda shakllangan refleksiv harakatlarga tayaniladi. Shu o‘rinda tadqiqotimiz obyekt uchun tanlangan yuqori sinf o‘quvchilarining yoshi ontogenezdada o‘spirinlik davriga to‘g‘ri kelganligi uchun bu haqda qisqacha to‘xtalish zarur.

Psixologiyada o‘spirinlik davri ikkiga bo‘lingan bo‘lib, “kamolot bo‘sag‘asi” deb nomlangan ilk o‘spirinlik davri psixolog olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Xususan, psixolog M.Davletshin ilk o‘spirinlik davri yoki katta maktab yoshini 14–15 yoshdan 17–18 yoshgacha belgilaydi [9]. Soha mutaxassisi Sh.Do‘stmuhamedova o‘spirinlik davriga xos xususiyatlarni ta‘riflashda bu davrni xorijlik olimlardan: S.Xoll 12–13 yoshdan 22–25 yoshgacha ko‘rsatgani; A.Gezell nazariyasida ilk o‘spirinlik 11 yoshdan 21 yoshgacha davom etishi haqidagi; E.Shprangelning birinchi o‘spirinlik davrini 14–17 yosh, keyingi bosqichni esa 18–21 yoshga to‘g‘ri kelishi haqidagi qarashlarini keltiradi.

O‘spirinlik – bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan yetilishi, o‘z taqdirini o‘zi hal qilishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi davri, fuqaro va vatanparvarning ma‘naviy sifatleri tarkib topadigan davrdir. Faol ijtimoiy hayot, o‘qishning yangi xarakteri (mustaqil bilim olish) yigit va qizlarda dunyoqarashning shakllanishiga, ularda mustaqillik va burch hissining tarkib topishiga, bilimning turli sohalarida ularning ijodiy qobiliyatini avj oldirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilarda o‘zlarining kelgusidagi yo‘nalishlarini belgilashga, mehnat faoliyati va kasb-hunar tanlashga bo‘lgan intilishlari kuchliroq namoyon bo‘la boshlaydi. Shuning uchun bu davrni ikkinchi o‘tish davri deyiladi. Birinchi o‘tish davri, asosan, bolalikka yaqin davrdir. O‘smirlardan farqli holda ilk o‘spirinlar katta hayotni u qadar keng tasavvur etmaydilar, balki unda ishtirok etishi bilan xarakterlidir. O‘spirin yoshidagi o‘quvchilar his-tuyg‘ularining turfaligi, hayotga emotsional munosabatdaligi bo‘rtib turishi bilan boshqa yosh davrlaridagi bolalardan farqlanadi. Ko‘rinadiki, o‘spirinlik boshqalarni takrorlamaslik, individuallikning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi.

O‘spirinlik davrida yetakchilik xususiyati asosiy o‘ringa ko‘chadi. Aqliy, ijodiy va rivojlanishning muhim omili sifatida o‘quv jarayoniga ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki faoliyatning mustaqil shakllari namoyon bo‘ladigan mazkur davrda o‘quvchilarning intellektual rivojlanishi va o‘quv-biluv faolligi barqarorlashadi. Bu haqda tadqiqotchi G.Jiyemuratova ta‘kidlaganidek, refleksiyalar rivojlanishining sentiziv bosqichi sanalgan mazkur davr o‘quvchilarda o‘z-o‘zini anglashga nisbatan qiziqishning individuallik kasb etishi bilan farqlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, ulardagi o‘quv faoliyatini takomillashtirishga ehtiyojni orttiradi, bilim olishga bo‘lgan intilishlarini faollashtiradi. Natijada, o‘quv dasturida o‘rganilishi rejalashtirilmagan boshqa bilimlarni egallashga qiziqishlari orta boradi va bunga intila boshlaydi [10].

Aniqlik kiritish o‘rinliki, “Refleksiya [lot. reflexio – ortga qaytish, aks etish] – kishining o‘z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib etishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida bir shakli”[11].

Refleksiv harakatlar bu o‘quvchining o‘zini o‘zi baholashi, topshiriqlarni jamoa bilan o‘zaro taqsimlab olishi, o‘quv vaziyatlarini yuzaga keltirishda yordamlashishi kabi ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘lishidir. Refleksiv harakatlarning tadqiqot faoliyatida aks etishi o‘quvchilardagi mustaqillik va ijodkorlikni namoyon etishga zamin yaratadi. Ma‘lumki, o‘spirin yoshidagi o‘quvchilar endi o‘zlarini kattalar mavqeyida deb hisoblaydilar. O‘zlariga munosabatni ham shu darajada xohlaydilar. Kattalarning talablariga bo‘ysunishdan o‘zlarini tortish hollari ham kuzatiladi.

Psixologiyada 14–16 yosh o‘smirlikdan dastlabki yoshlik davriga o‘tish yoshi sifatida belgilanishi tayanilsa, aynan shu davr ularda shakllanmagan mayllarning paydo bo‘lishi bilan kechadi. O‘z ichki olami, “men”ligini ko‘rsatishga urinishlar mazkur davrning muhim ko‘rsatkichi sanaladi. Tashqi olam esa shaxsiy tajribalarini boyitish imkoniyatlari sifatida ko‘riladi. Shu bois refleksiyaning rivojlanishi o‘ziga nisbatan ongli va tanqidiy munosabatning paydo bo‘lishi, mehnat qilishga, o‘qib-o‘rganishga ehtiyoj, biror faoliyat turiga layoqati, uquvini ham shakllantirib boradi. Natijada kattalarga xos ichki mavqeni egallash jarayoni tarkib topadi.

Tadqiqotchilik kompetentsiyalarini shakllantirish bilish jarayonlari rivoji bilan bog‘liq holda qat‘iy bo‘lmagan kreativ topshiriqlarni erkin holda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirish, vazifaga mas‘uliyat hissini shakllantirish hamda kuzatishlari va jarayondagi intilishlarini qo‘llab-quvvatlash kabi pedagogik shart-sharoitlarga tayanadi. Refleksiv hamkorlik asosida o‘quvchilar tengdoshlarining qarashlari va harakatlari mohiyatini tushunadi va o‘z faoliyatini boshqalar nigohi bilan baholashga erishadi. Natijada refleksiv rivojlanish uchun o‘quv dialoglari va bahslarning turli ko‘rinishlaridan foydalanish zarurati tug‘iladi.

Fanda refleksiya tushunchasi dastlab L.Nelson, A.Buzeman va A.Mark kabi xorijlik psixolog olimlar tomonidan qo‘llanilgan. Rus psixologlari B.G.Ananyev, P.P.Blonskiy, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, I.M.Sechenov V.I.Slobodchikovlar tomonidan refleksiyaning turli jihatlarini: shaxs ruhiyatining rivojlanishini ochib berish, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi tarbiyalash, ontogenezni tushuntirishdagi o‘rni tadqiq qilingan. Psixologlar tomonidan e‘tirof etilgan o‘spirinlik davridagi qayta qurilish – refleksiyaning kommunikativ, shaxsiy va intellektual turlari ko‘rsatilgan. Intellektual refleksiya tadqiqot doirasida amalga oshirilayotgan ishlar mazmuniga yaqinligi nuqtayi nazaridan ham alohida fikr yuritishni taqozo etadi.

Xulosa. Olimning fikrlariga tayanilgan holda aytish mumkinki, o‘quvchi-yoshlarni tadqiqotchilikka yo‘naltirishda ulardagi ijodkorlik qobiliyatining o‘ziga xos jihatlariga e‘tibor qaratish, atrof-olamni kuzatish bilan bog‘liq izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, aqliy mehnat qilishga ongli munosabatni tarkib toptirishning optimal yo‘llari taqozo etiladi.

Bizningcha, yangi bilimlarni tadqiq qilishga doir ijod jarayoni bir-birini taqozo etuvchi “texnologik zanjir”: ehtiyoj, maqsad, faoliyat va natijaga asoslanadi. Bunda ehtiyoj faollikka turtki beradi. Motiv anglangan ehtiyoj sifatida faollikni ma‘lum tartibga soladi. Maqsad esa avvaldan rejalashtirilgan natijadir.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи. – Тошкент, 2019 йил 30 апрель. – № 88 (7318). – Б. 1.
2. Беруний Абу Райхон. Танланган асарлар. I т. – Тошкент: Фан, 1968. – 252 б.
3. Хусанбоева Қ. П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 236 б.
4. Ўринова Н.М. Педагогларда ижодкорлик қобилиятини узлуксиз ривожлантириш усуллари // Uzluksiz ta’lim. – Тошкент, 2013. – № 1. – Б. 49.
5. Болтаева Ш. Бошланғич таълимда ўқувчилар ижодий фаолиятини ривожлантиришнинг ташкилий-педагогик асосларини такомиллаштириш: Пед. фан. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 10 б.
6. Жўраев Р.Х. Ўқувчиларнинг тадқиқотчилик фаолиятини ташкил этиш // Халқ таълими. – Тошкент, 2010. – № 2. – Б. 16.
7. Вовк Л.И.Формирование исследовательских умений на уроках русского языка и литературы // <https://www.iurok.ru/categories/14/articles/21018>
8. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер, 2000. – С. 512.
9. Давлетшин М.Г ва бошқ. Ёш ва педагогик психология.–Тошкент: ТДПУ, 2007. – 83-б.
10. Djemuratova G. O‘quvchilarda kreativ vazifalar hosil bo‘lishning pedagogik-psixologik asoslari // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2011. – № 4. – В. 118.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. / 5 жилдли. Учинчи жилд. А.Мадвалиев тахрири остида. Тахрир хайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Т.: “ЎМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 380 - бет.

PEDAGOGIK KONFLIKTLAR VA ULARNING OLDINI OLISH OMILLARI

Tosheva Dildora Iskandarovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
pedagogika kafedrası dotsenti, p.f.f.d.(PhD)
Ergashev Xolmurod Elmirovovich,
Buxoro davlat pedagogika
institutining 2- bosqich magistranti

Ushbu maqola konflikt, uning kelib chiqishi, shaxslarning konfliktga munosabati, konfliktni keltirib chiqaruvchi omillar, ta’lim jarayonida yuzaga keluvchi konfliktlar, subyektlar munosabati, ularni keltirib chiqaruvchi insidentlar, konfliktning oldini olish va uni bartaraf etish yo’llari haqida yoritilgan.

Kalit so’zlar: konflikt, norozilik, destruktiv, konfliktogen, insident, vaziyat, nizo, konstruktiv, dekonstruktiv, yondashuv, etik (axloqiy), obyektiv, subyektiv omillar.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ КОНФЛИКТЫ И ФАКТОРЫ ИХ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ

В данной статье речь идёт о конфликте, его происхождении, отношении личности к конфликту, факторах, вызывающих конфликт, возникающих в образовательном процессе, отношении субъектов, происшествиях, вызывающих их, о способах разрешения, предотвращения и устранения конфликта.

Ключевые слова: конфликт, протест, деструктивный, конфликтогенный, инцидент, ситуация, конфликт, конструктивный, деструктивный, подход, этические (моральные), объективные, субъективные факторы.

PEDAGOGICAL CONFLICTS AND THEIR PREVENTION FACTORS

This article is about the conflict, its origin, the attitude of individuals to the conflict, the factors that cause the conflict, the conflicts that arise in the educational process, the attitude of the subjects, the incidents that cause them, the ways to prevent and eliminate the conflict.

Key words: conflict, protest, destructive, conflictogenic, incident, situation, conflict, constructive, deconstructive, approach, ethical (moral), objective, subjective factors.

Kirish. Hozirgi zamon fani insoniyatning tarixiy o’tmishiga nazar tashlar ekan, konfliktni hamisha ijtimoiy taraqqiyotning doimiy yo’ldoshi ekanligiga shubha qilmaydi, chunki odamlar bor joyda konfliktlar mavjud bo’lgan va bo’laveradi. Shaxslarning qarashlari ularning munosabat va manfaatlari kishilar o’rtasida tushunmovchilik, kelishmovchilik, alal oqibat nizoni keltirib chiqaradi. Dunyo yaralibdiki, kishilik jamiyati nizolardan xoli shakllanmagan. Mashhur qadimgi faylasuf-dialektik olim *Geraklit* «koinotda hukm suruvchi yagona umumiy qonun - bu urushdir, u hamma narsaning otasi va shohidir. U kimlarnidir xudolar va kimlarnidir insonlar qilib yaratadi, insonlarining ba’zilarini qul, boshqalarini erkin qilib belgilaydi. Hamma narsa, shu jumladan, inson muloqoti normalari ham abadiy aylanma harakat va bir-biriga aylanish ta’sirida bo’ladi. Dunyoda barcha narsa adovat va nifoq orqali tug’iladi»-degan [1.]Shunday ekan, bugungi ijtimoiy jamiyatda har bir sohada inson manfaati, inson omili turibdi. Bu omil, o’z navbatida, munosabatlarni to’g’ri yo’lga qo’yishni talab etadi.

Asosiy qism. Ta’lim sohasida bugungi kunda, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o’rtasidagi munosabatlar, ular o’rtasidagi nizoli vaziyatlarni vujudga kelishi, bu vaziyatni bartaraf etish va oldini olish kabi amaliy faoliyatlar, pedagogik konfliktologiya fani sohasida o’rganilmoqda.

Pedagogik konfliktologiya fan sifatida o’z oldiga quyidagi uch asosiy savol-muammoni ko’ndalang qo’yadi:

-*Odamlar bir-birlari to’g’risida qanday o’ylashadi?* Bu – ijtimoiy borliqning ongimizdagi aksini bildiradi;

-*Odamlar bir-birlariga qanday ta’sir ko’rsata oladilar?* Bu – konformizm, e’tiqodlilik va ijtimoiy ta’sirning bizdagi madaniy tamoyillari, odatlar, ko’nikmalar orqali kundalik xatti-harakatlarimiz mezoniga aylanishini tushuntirishdir;

- *Ular bir-birlariga qanday munosabatda bo’ladilar?* Bu – yangicha munosabatlar tizimida – insoniylik va iymon, din-u diyonat, maslak va ziddiyatlar ta’sirida nima uchun adovat – jaholatga, mayllar –

altruizmga, nizolar – adovatga aylanishi mumkinligini va boshqa dolzarb ijtimoiy muammolarni o‘rganish vositasidir.

Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo‘lgan o‘ziga xos jarayon bo‘lib, hech bir inson o‘zini konfliktli vaziyatlardan muhofaza qilinganman, deb ayta olmaydi. Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o‘z hayoti davomida konfliktlar bilan to‘qnash keladi. Konfliktlar tabiiy hodisa bo‘lib, konflikt bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir.

Konfliktlarning jamiyat hayotidagi doimiy va umumiy hodisa sifatida tan olinishi har qanday konfliktning u ro‘y berishi mumkin bo‘lgan ko‘lamda, shaklda va tanglik darajasida muqarrar tarzda namoyon bo‘lishini keltirib chiqarmaydi. Pedagogik konfliktlarni tartibga solish muammosi konfliktli vaziyat sabablariga ta‘sir etish, konfliktning salbiy oqibatlarini tugatish yoki konflikt natijalaridan foydalanish maqsadida konfliktning borishini muayyan yo‘nalishga solish imkoniyatiga asoslanadi. Xo‘sh konflikt nima va u qanday vujudga keladi?

Konflikt – lotincha “conflictus” to‘qnashuv ma‘nosini bildiradi. Konflikt to‘qnashuv jarayonida ikki tomonning bir-birini tushunmagan holatda vujudga keladi. Konflikt - ko‘p qirrali ijtimoiy munosabatlar jarayonida yuzaga keluvchi ziddiyatlardir.

Konfliktni vujudga kelishidagi *birinchi shakl - konflikt*dir. Konflikt konfliktning asosi hisoblanib, uni negizida ikki tomon uchun to‘qnashuvni keltirib chiqaruvchi omillar mavjud bo‘ladi.

Ikkinchi shakli — *norozilik* bo‘lib, bir-biridan norozilik natijasida kelib chiquvchi noxush kayfiyatni so‘z yoki xatti-harakat bilan bildirish natijasida konflikt yuzaga keladi. Lekin norozilik hamma vaqt ham konfliktni vujudga keltirmaydi.

Konfliktni vujudga keltiruvchi *uchinchi shakl* — *kelishmovchilik* bo‘lib, fikr va qarashlarni to‘g‘ri kelmasligi natijasida shaxsiy fikrga qarshi da‘voning mavjudligidir. Ikkinchi tomonning fikr va qarashlariga aks ta‘sir natijasida ham konfliktni keltiruvchi omillar vujudga keladi. Ikki subyektning kelajak munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etishini o‘ylamasligi oqibatida bir-biriga qarshi turish kayfiyati ta‘sir qiladi. Bu ham konfliktni vujudga keltiruvchi omillardan biri bo‘lib, har bir subyekt bunday kayfiyatga konflikt arafasida moyil bo‘ladi. Subyektlarni bir-biriga qarshi turish vaziyatidan chiqishi, keyingi jarayon hisoblanib, ikki tomon bir-birini yechimi qiyin bo‘lgan vaziyat tomon yetaklaydi. Bunday vaziyat ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida yoki domla va talaba o‘rtasida, o‘qituvchilar o‘rtasida, talabalar, o‘quvchilar o‘rtasida yuzaga kelishi, qolaversa, ta‘lim beruvchi va rahbar o‘rtasida ham yuzaga keladi. Konfliktlarni hal qilish bir qancha yondashuvlar asosida yechim topadi.

Konfliktni vujudga kelishida va uni hal etishda *konstruktiv yondashuv* ziddiyatni ijobiy yangi pog‘onaga olib chiqadi va to‘g‘ri yechimga olib keladi. Ya‘ni bunda yo‘nalish shaxsga yoki subyektga emas, balki holat, jarayon vaziyat yoki muammoga qaratiladi. Ziddiyatni hal etishda *destruktiv yondashuv* esa konfliktni yanada chuqurlashtirib uni boshi berk ko‘chaga olib kiradi. Bunday vaziyatda muammoni anglash biroz qiyin yoki chigal holatda bo‘lib shaxslar o‘rtasida o‘zaro tushunmovchilik yuzaga keladi, hamda bevosita vaziyat biroz chigallasadi. Shunga qaramasdan, konfliktning dastlabki bosqichi uchun *dekonstruktiv yondashuv* xos bo‘lib, konfliktning davomiyligining ma‘lum davrida konstruktiv yondashuv talab etiladi va konfliktni hal etish ijobiy bosqichga o‘tadi. Shunga ko‘ra, konfliktni vujudga kelishi va uni yechimining quyidagi sxemasi namoyon bo‘ladi: Konfliktli vaziyatda destruktiv yondashuv, konfliktning hal etilishida esa konstruktiv yondashuv yuzaga keladi. Konfliktni vujudga kelishi asosida doimo qarama-qarshi bo‘lgan omillar yotadi. Bu esa konfliktni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablarni tashkil etadi. L.Kozerning ta‘kidlashicha, konflikt-qarama-qarshilikni bartaraf etuvchi omillardan foydalanilmagandagina yuzaga keladi [2].

Ko‘p hollarda konfliktlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, konflikt a‘zolari aksar hollarda ziddiyatning haqiqiy sabablarini tushunishni istamaydilar va destruktiv yondashuv natijasida vaziyat jiddiy tus oladi. Bunga bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin :

-Talaba nomdor stendiyaga davogar, ammo bir fandan bahosi a‘lo darajada qo‘yilmagan, shunda talaba o‘qituvchiga men nomdor stendyanman menga yuqori baho qo‘ying barcha fanlardan a‘loda yopdim deydi. O‘qituvchi esa sizning meni fanimdan yetarli bilimingiz yo‘q o‘qib o‘zlashtirsangiz keyin o‘zgartiraman, deb talabaga rad javobini beradi. Bundan jahli chiqqan talaba rektorga murojat qilib o‘qituvchiga bo‘xton yog‘dirib vaziyatni chigallashtiradi hamda muammoni kattalashtirib yechimni qaltis holga keltirib qo‘yadi.

Talaba muammo mening fanni o‘zlashtirishimda emas, balki o‘qituvchini menda xusumati bor deb qaraganidadir.

Konflikt to‘qnashuv jarayonida ikki tomonning bir-birini tushunmagan holatda vujudga keladi. Oliy talim muassasalarida talaba bilan o‘qituvchi o‘rtasidagi nizolarda, asosan, shaxslarning noto‘g‘ri holatda munosabatni shakllantirganligi yoki manfaatlar to‘qnashuvi sabab bo‘ladi.

Hozirgi kun texnik rivojlanish davrida ba‘zi o‘qituvchilarning kompyuter savodxonligining yo‘qligi, o‘z vazifasiga sovuqqonlik bilan yondashishi, kasbiy-shaxsiy bilim, ko‘nikma va malakalarining to‘la shakllanmaganligi, pedagogik mahoratining yetishmasligi, o‘z kasbining pedagogik-psixologik mohiyatini tushunmasligi kabilar yoki aksincha ularning o‘z qobiliyatlarini ko‘rsatishda ba‘zi bir kamchiliklarning hali ham o‘zgacha mavjudligi zamonaviy o‘qituvchi qiyofasini shakllantirishga salbiy ta‘sir etuvchi asosiy omillar bo‘lib qolmoqda. Shunday ekan, ta‘lim samaradorligiga erishish uchun bo‘lajak o‘qituvchi ishini tashkil etishda «Pedagogik va psixologik masalalar» bo‘yicha davlat talablarini keltirib o‘tamiz:

- xalq ta‘lim tizimida pedagogik va psixologik xizmat, uning maqsad va vazifalarini bilishi;
- pedagogik-psixologik tadqiqot metodlarini bilishi va o‘z faoliyati davomida ulardan foydalana olish malakasiga ega bo‘lishi;
- o‘zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlari haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi;
- pedagogik hamkorlik psixologiyasini bilishi va uni amaliyotda qo‘llash malakasiga ega bo‘lishi;
- pedagogika va psixologiyaning sohalari, uning nazariy-amaliy masalalari haqidagi tasavvurga ega bo‘lishi;
- pedagogik qobiliyat turlarini bilishi va egallashi;
- psixologik-pedagogik tashxis va uning ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi o‘rnini, rolini bilish, ayrim psixologik tashxis metodikalaridan foydalanish malakasiga ega bo‘lishi;
- yosh davrlar psixologiyasi, bola ruhiy rivojlanishining yosh xususiyatlari, bola shaxsi shakllanishida ijtimoiy va tabiiy omillarning roli haqida zamonaviy ta‘limotlardan xabardor bo‘lishi;
- o‘quvchilarni tarbiyalashda “oila, maktab, mahalla hamkorligi” konsepsiyasining asosiy g‘oyalarini bilish. Ota-onalar bilan ishlashda oiladagi shaxslararo munosabatlar va ularning bola shaxsining shakllanishiga ta‘siri haqidagi psixologik bilimlardan foydalana olishi;
- ta‘lim-tarbiya jarayonining pedagogik-psixologik muammolari, izlanishlar, bu sohadagi yangilik va yutuqlarni kompyuter muloqot tizimi asosida ish ko‘rishi va ma‘lumotga ega bo‘lishi lozim;
- pedagogik jamoa va o‘quvchi-tarbiyachilar guruhidagi shaxslararo munosabatlar xususiyatlari haqida jamoadagi psixologik iqlim va uni yaxshilash yo‘llari haqida bilimlarga ega bo‘lishlari kerak. Bu talablarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lajak o‘qituvchi, o‘z o‘quvchisiga: aqliy psixologik qobiliyat, oliyjanoblik, ma‘naviy yetuklikni va boshqa yuksak insoniy fazilatlarini tarbiyalay oladi [3].

Ta‘lim va tarbiya ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lganligi sababli o‘quvchi va o‘qituvchilar, talaba va o‘qituvchi orasida ayrim kelishmovchiliklar sodir bo‘lib turadi. Kelishmovchiliklarning oldi olinmasa nizoga aylanadi. Shuning uchun ham ta‘lim muassasalarida ta‘lim oluvchi va ta‘lim beruvchi o‘rtasidagi nizolarni bartaraf qilish ko‘pchilik pedagog va psixolog tadqiqotchilarni qiziqtirib kelmoqda. Ta‘lim muassasalarida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi nizolarni, ya‘ni konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o‘rganish jamiyatdagi inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy to‘qnashuvlarning oldini olishga ko‘mak beradi. Bugungi kunda jamiyatimizda paydo bo‘layotgan nizolar ichida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi nizolar eng murakkab va dolzarb muammoga aylanmoqda. O‘quvchilarning har xil predmet o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligiga bo‘lgan e‘tirozlari ko‘pincha to‘g‘ri bo‘lib chiqadi. O‘quvchilarning bu sohadagi e‘tirozlari quyidagicha:

- tushuntira olmaslik;
- sistemasiz, palapartish bayon;
- tilning o‘rinsiz murakkabligi;
- takrorlashning yo‘qligi; - materialni quruq bayon qilish;
- mavzuni hayot bilan bog‘lay olmaslik;
- xo‘ja ko‘rsinga “mavzuni” bajarish;
- predmetga qiziqish uyg‘ota olmaslik;
- xolis baholay olmaslik;
- arzimagan javobga yuqori baho qo‘yish;
- barcha o‘quvchilarga faqat “3” baho qo‘yish va hokazo.

O‘smirlar o‘qituvchilar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlari jarayonida maktabning birinchi pog‘onasida ta‘lim oluvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nisbatan anchagina farq qiladi. Bunday ziddiyatlarning o‘smir yoshi bilan bog‘liq jihatlari nimalardan iborat? O‘smir yoshining oliy o‘quv yurti pedagogika va psixologiyasida o‘qitiladigan tavsifnomasiga murojaat qilamiz. Pedagogika nazariyasining tegishli bo‘limida o‘smirlik yoshi bolalik va katta yosh holatining oralig‘ida ekanligi qayd etiladi. Pedagogika qo‘llanmasi mualliflari “o‘pirilishli” (krizisli), “qiyin”, “o‘tish”, “konfliktli”, “og‘riqli” kabi

terminlarni ko'p qo'llaydilar. O'quvga bo'lgan qiziqishning sustligi o'smir uchun xos. U romantik tuyg'ularga berilgan bo'ladi. O'smirda jinsiy bilimlarga bo'lgan qiziqish uyg'ongan bo'ladi. U o'z kuch va qobiliyatlariga yuqori baho beradi. Kattalarga taqlid qilish, ularga o'xshashga harakat qilishga intiladi. *A.S.Makarenko fikricha, o'smirlar – bu haqiqiy ritsarlar.* Ular qo'rqmasdan pedagog orqasidan o'zini o'tga ham suvga ham uradi, agar u haqiqiy ustoz bo'lsa. O'smirlarda o'zligini anglash kattalar bilan bo'lib o'tadigan munosabatlarning yomonlashuvi bilan o'zaro almashinib turishi kuzatiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning ijtimoiylashuvi o'qituvchi va o'quvchilar munosabatlarida yuz beruvchi konfliktlarni pedagogik nuqtayi nazardan to'g'ri hal etish, ularning oldini olishdan iboratdir.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolar ko'rinishi va mazmuniga ko'ra ikkiga bo'linadi, ya'ni:

1.Intizomga oid konfliktlar:- Intizomga oid bo'lgan, o'quvchilar va ayrim hollarda o'qituvchilar tomonidan sodir etiladigan ruhiy zo'riqish hamda ziddiyatlar, ta'lim jarayonida maktab intizomiy qoidalari va tartibining buzilishiga doir tipik holatlarning statistik manzarasini tavsiflash muhim ahamiyatga molikdir.

Chegaradan chiquvchi etik (axloqiy) konfliktlar.- Mazkur “Chegaradan chiquvchi etik” konfliktlar termini boshlang'ich sinf o'qituvchilari xulq–odobida namoyon bo'luvchi qo'pol, g'ayripedagogik munosabat shakllarini aniqlashda qo'llaniladi.

Bularning har birini misollar orqali tahlil qiladigan bo'lsak, intizomga oid konfliktlarda o'qituvchining o'quvchiga nisbatan munosabati, o'quvchining esa o'z induvidualizimidan (fel atvori, xulqi, shaxsiy qarashi, holatga munosabati, temperamenti, ijtimoiy holati) kelib chiqqan holda unga munosabat bildirishi, har ikkalasining ham axloqiy meyyorlarni buzgan holda muloqotga kirishishi nazarda tutiladi. M:

- Sinf rahbarining darsida hech qachon intizom yo'q edi. U hammaga, lekin hech kimga tegishli dakki berish odatiga ega edi. Hammaga birdek baqirar, alohida holda hech kimga dakki bermas, ogohlantirmasdi...

- O'qituvchi ayol mayda – chuyda narsalar uchun ham ogohlantirib o'quvchilarning joniga tegardi. Bunday tanbehlar hech kimga kor qilmasdi. O'qituvchining doimiy qichqirig'i o'quvchilarda unga nisbatan hurmatsizlik, qo'pollik, shovqinli munosabatni tug'dirardi...

-Kimyov o'qituvchisi kasal bo'lib qoldi, o'rniga boshqa fan qo'yilgan bo'lsa – da, o'quvchilar hamjihatlik bilan yayrab, quvonishadi. O'quvchi o'qituvchiga qo'pollik qilganda yovuz quvonch sinfni chulg'ab oladi. Noroziliklarini izhor qilish maqsadida ekskursiyaga ajratilgan transportni adolatsiz taqsimlagani uchun o'qituvchi mashg'ulotiga barcha o'quvchilar kelishmadi. Yangi kelgan o'qituvchining darsida o'quvchilarning barchasi boshqa maktabga ishga o'tgan o'qituvchiga nisbatan hurmatlarini izhor etish maqsadida javob berishdan bosh tortishadi. Hamma darsni tashlab ketadi: umuman o'qishni xohlashmaydi.

Chegaradan chiquvchi etik (axloqiy) konfliktlar.- Shuni ta'kidlash joizki, chegaradan chiquvchi axloqiy konfliktlar o'qituvchi bilan yuqori sinf o'quvchilar orasida yuz beruvchi ziddiyatlar sirasiga kiradi. Chunki o'smir yoshdagi bolalar bilan yosh tajribasi yo'qki kasbiy zo'riqish oqibartida o'zini boshqara olmaydigan o'qituvchilar o'rtasida tez- tez uchrab turadi. O'qituvchining o'ta qattiqqo'lligi, talabchanligi, o'quvchi bilan juda qo'rs munosabatda bo'lishi, ruhiy tajavvusga uchrashi va shu kabi munosabat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida sovuq munosabatni keltirib chiqaradi, hatto o'quvchini o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlikni olib kelishi yoki qo'rquv natijasida fan predmetini o'zlashtira olmasligi mumkin. Ba'zi holatlarda esa o'quvchi tomonidan o'qituvchiga jismoniy tajavvus ham uyushtirishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi konfliktda o'quvchining ijtimoiy ahvoli ham ta'sir ko'rsatadi. Undagi shaxslarga nisbatan agressiyani oshishida oila muhiti ota- onaning tarbiyasi va boladagi o'smirlik garmoni ham ta'sir ko'rsatadi. Hatto o'quvchilar tomonidan o'qituvchini yoqtirib qolish (sevish) unga noto'g'ri munosabatda bo'lish, odamovi holatda o'rtoqlaridan ajralib qolishini kuzatish mumkin.

Bunday konfliktlar, avvalambor, ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida nifoqni olib keladi. Bunday nizolarning oldini olish va bartaraf etish muhim sanaladi.

Avvalam bor, konflikt kelib chiqishini prognozlash lozim. Yuzaga kelgan konfliktlarning oldini olish uchun o'qituvchida konfliktologik bilimlar shakllangan bo'lishi kerak.

Bunday bilimlar faoliyat davomida pedagogik amaliyotda yoki beriladigan nazariyani tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Nima sababdan mehnat jamoalarida turli xil nizolar kelib chiqadi ?

- alohida shaxs va jamoatchilik manfaatlarining mos kelmasligi;
- ayrim alohida jamoa a'zolari xatti-harakatlarining ijtimoiy, guruhiiy me'yorlarga zid kelishi (tartibsizlik, intizomning buzilishi, mahsulotning sifatsizligi, ishning samarasizligi va b.q);
- jamoa a'zolari qarashlaridagi nomuvofiqliklar;
- ishni tashkil etish va mehnatga munosabatdagi farqlar;

■ ishchi xodimlar o'rtasidagi vazifalarning to'g'ri taqsimlanmaganligi va hokazo.

Nizolar yuzga kelishida ikki xil shart-sharoit mavjud. Obyektiv shart- sharoitlarga:

- ❖ Mehnat qilish uchun sharoitning yomonligi;
- ❖ Xodimlar orasida majburiyat va vazifalarning noto'g'ri taqsimlanganligi;
- ❖ Boshqaruv tizimidagi nomutanosibliklar;
- ❖ Qo'yilgan vazifalarga mos professionallikni xodimlarda kuzatilmashligi;
- ❖ Ishchi o'rinlarining yetishmasligi tufayli, ishlarning taqsimlanishidagi adolatsizlik;
- ❖ Mehnatni tashkil etish va mehnatga haq to'lashda adolatsizlik holatlarini kuzatilishi.

Nizolar yuzga kelishining subyektiv shart-sharoitlarga:

- ❖ Ishbilarmonlik munosabatlarida negativ yo'llarni ko'rinishi;
- ❖ Saxslararo munosabatlarda shaxsga oid xususiyatlarning namoyon bo'lishi.
- ❖ Muomalani tashkil etishda no'noqlik va savodsizlikning kuzatilishi.

Jamoadagi konfliktni boshqarish tartiblari.

1. Konfliktni vujudga kelganini, uning mavjudligini tan olish va uni o'rganish.

2. Konfliktga tortilgan xodimlar, bevosita konflikt ishtirokchilari hamda konfliktga aloqador bo'lmagan, ammo mana shu jamoaning barcha xodimlarining ziddiyat to'g'risidagi xolis fikr-mulohazalarini o'rganish.

3. Konfliktning asl mazmunini, nima sababdan kelib chiqqanligini aniqlash. Ziddiyatning shaxslararo konflikt ekanligi, yoki tomonlararo konflikt ekanligini belgilash. Shuningdek, jamoadagi osoyishtalikni buzish jamoaga o'z salbiy ta'sirini o'tkazishga, ish jarayonining buzilishiga sabab bo'layotgan odam mavjudligi yoki yo'qligini aniqlash.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, umuman, konfliktli vaziyatning subyektiv va obyektiv kelib chiqish sabablarini o'rganish, obyektiv sabablar mavjudligi aniqlansa ularning oldini olish choralarini ko'rish, konflikt yechimini rejalashtirish, konflikt yechimini topish bo'yicha turli alternativ usullar, yo'llar va ssenariylarni ishlab chiqish, konfliktning qanday rivojlanib va o'sib borishi mumkinligini aniqlash hamda konfliktning o'sib ketmasligining oldini olish choralarini ko'rish lozimdir. Bu uchun esa bo'lajak pedagoglar yoki yosh o'qituvchilar konfliktogen bilimlarga ega bo'lishi va pedagogik nizolarning oldini olishi, kasbiy etikaga va muloqot madaniyatiga rioya qilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Хохлов А.С. Конфликтология. Учебное пособие. Самара, 2014, 8-9 стр.
2. Qurbonova O'.U., Tosheva D.I. Pedagogik konfliktologiya. O'quv qo'llanma. Durdona nashriyoti.B:2021.300b.126-184b
3. Kurbanova K.N. Kasbiy pedagogika. O'quv qo'llanma. Sharq nashriyoti.B:2020.200b.19-26b

11-15 YOSHLI O‘SMIRLARDA STRESSGA BARQARORLIKNI TA’MINLASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

*Tosheva Mohinur Yusupovna,
Qarshi davlat universiteti 1-kurs doktoranti,
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri
tosheva.mokhinur@mail.ru*

Ushbu maqolada o‘smirlik yoshi (11-15 yosh) davrida stressni yuzaga keltiruvchi omillar va unga barqarorlikni ta’minlashning psixologik xususiyatlari haqida so‘z boradi. Zamonaviy o‘smirlarning bugungi psixologik xususiyatlari, o‘smirlik davrining o‘ziga xos xususiyatlari, o‘smirlik davrida kechadigan o‘zgarishlar, o‘smirlik ehtiyojlari aniqlangan. O‘smirlarning ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishi uchun muloqot va tengdoshlar guruhlarining roli ochib berilgan. Stress tushunchasi va uning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqilgan. Bugungi kundagi o‘smirning stressi va ularni yuzaga keltiruvchi omillari, o‘smirlar bilan bog‘liq bo‘lgan oiladagi, maktabdagi va ijtimoiy muhitdagi muammolarning yuzaga kelish sabablari va ularni aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari yoritilgan.

***Kalit so‘zlar:** stress, ijtimoiy stress, o‘smirlik, shaxsning psixologik barqarorligi, stress omillari, jamoadagi o‘zgarishlar, salbiy holatlar, tengdoshlar, nizoli vaziyatlar, muammolar, stressni yengib o‘tish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТРЕССОУСТОЙЧИВОСТИ ПОДРОСТКОВ 11-15 ЛЕТ

В данной статье говорится о факторах, вызывающих стресс в подростковом возрасте (11-15 лет) и психологических особенностях обеспечения его устойчивости. Определены современные психологические особенности современных подростков, особенности подросткового возраста, изменения, происходящие в подростковом возрасте, потребности подростков. Раскрыта роль общения и групп сверстников для социализации и личностного развития подростков. Рассмотрены проблемы, связанные с понятием стресса и его проявлением. Освещены современный подростковый стресс и факторы, его вызывающие, причины проблем в семье, школе и социальной среде, связанные с подростками, а также результаты исследований по их выявлению.

***Ключевые слова:** стресс, социальный стресс, подростковый возраст, психологическая устойчивость личности, стрессовые факторы, изменения в коллективе, негативные ситуации, сверстники, конфликтные ситуации, проблемы, преодоление стресса.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PROVIDING STABILITY TO STRESS IN ADOLESCENTS AGES 11-15

This article talks about the factors that cause stress during adolescence (ages 11-15) and the psychological features of providing stability to it. Today's psychological characteristics of modern teenagers, specific characteristics of adolescence, changes that take place during adolescence, and adolescent needs have been determined. The role of communication and peer groups for the socialization and personal development of adolescents are revealed. Problems related to the concept of stress and its manifestation are considered. Today's adolescent stress and the factors that cause it, the causes of problems in the family, school and social environment related to adolescents and the results of research on their identification are highlighted.

***Key words:** stress, social stress, adolescence, psychological stability of the individual, stress factors, changes in the team, negative situations, peers, conflict situations, problems, overcoming stress.*

Kirish. O‘smirlik - inson hayotidagi eng qiyin davrlardan biridir. O‘smir juda ta’sirli va har qanday mojaro ruhiy jarohatga aylanishi mumkin. O‘smirlik davrining asosiy belgilari - bu muloqotga bo‘lgan ehtiyoj va o‘zini o‘zi tasdiqlash, shaxslararo munosabatlar, do‘stona munosabatlarni shaxsiy yutuqlar sifatida baholash, norasmiy guruhlarga qo‘shilish va kattalardan uzoqlashishdir. [4]

O‘smirlik - bu jismoniy, psixologik-ijtimoiy va axloqiy o‘ziga xosliklar, o‘zgaruvchanlik davridir. Bugungi kunda o‘smirlar murakkab rivojlanish davrida turli xil stress omillariga duch kelishmoqda. O‘smirlik davrida muvaffaqiyatli rivojlanish uchun bir qancha muhim jihatlarga e’tibor qaratilishi lozim.

O‘smir o‘z shaxsiyatini shakllantirishi, o‘smirning mustaqillikka intilishi va bu bosqichning ijobiy boshqarilmasligi o‘smirlarda kelajakka nisbatan umidsizlik tuyg‘ularini keltirib chiqaradi. O‘smirlarda kuzatiladigan ehtiyojlarning qondirilmasligi ham ularda stresslarni keltirib chiqaradi. E’tirofqa, e’tiborga, qo‘llab-quvvatlashga, mehrga va talluqlilik bo‘lishga bo‘lgan ehtiyojlarning qondirilishi o‘smirlarda atrof-muhitga ijobiy munosabatda bo‘lishga undaydi. O‘smir mustaqillikka intilish jarayonida muammolarni hal qilishga kuchi yetmasligi, munosabatlarda qiynalishi unda stress darajasini oshiradi. O‘smirlar rivojlanishi jarayonida oilaviy, ijtimoiy va shaxsiy stresslarga duch kelishadi. O‘smirlarning tengdoshlar va kattalar bilan salbiy munosabatlari ham stress omillari hisoblanadi. Bu munosabatlar o‘smirlarda ishonchsizlik va norozilik tuyg‘ularini keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda stress nafaqat ruhiy va jismoniy holatimizga, balki ishimizga ham ta'sir qiladi. Bugungi kunda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, taraqqiyotning jadallashuvi, ma’lumotlarning xilma-xilligi, iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, turli turdagi stresslar kishilar ruhiyatida turlicha namoyon bo‘lmoqda. [1]

Ko‘pgina kasalliklar stress tufayli yuzaga keladi. Olimlar tomonidan yurak kasalliklari, nevrotik holatlar, ruhiy kasalliklar va turli kasalliklarga olib kelishi aniqlanmoqda. Stressning paydo bo‘lishi va kuchayishi malign o‘smirlarning paydo bo‘lishi va o‘shishiga sabab bo‘ladi.

O‘smirlik davridagi stressni to‘g‘ri tushunish, zararli va foydali stressni ajrata bilish o‘smirning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot obyekti. Zamonaviy jamiyatdagi o‘smir uchun eng muhim stressli vaziyatlar hissiydir.

O‘smir ko‘plab muammolarga duch keladi, ularning salbiy ta'siri stressli holatga olib keladi. Uydagi muammolar (oiladagi nizolar, ota-onalarning shafqatsizligi va boshqalar) ham stressga olib keladi. Bularning barchasi o‘smirning rivojlanishiga, uning tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan munosabatlariga ta'sir qiladi, shuning uchun tobora ko‘proq stressli vaziyatlar yuzaga keladi. Har xil turdagi stresslar doimiy ravishda to‘planib boradi.

O‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ularda ro‘y beradigan biologik-jismoniy o‘zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o‘zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo‘lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog‘liq bo‘lib qolishi xarakterlidir.

O‘smirlik davrining ko‘plab tadqiqotlari (L. S. Vigotskiy, L. I. Bojovich, S. Xoll va boshqalar) bolaning o‘ziga, boshqalarga va umuman dunyoga bo‘lgan munosabati o‘zgargan bo‘lsa, uning tanqidiy, o‘tish xarakterini alohida ta’kidlaydi. Ushbu o‘zgarishlar o‘smirda boshqalar bilan va o‘zi bilan bog‘liq nizolarni keltirib chiqaradi, bu esa stressning rivojlanishiga olib keladi

Stressli vaziyatlarning zararli va foydali tomonlarini bilmaslik o‘smirlarda turli salbiy holatlar va kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Psixologik stress psixologiya, psixofiziologiya va fiziologiya muammolarining eng murakkablaridan biridir [2].

Stressni keltirib chiqaradigan omillarning ta'siri sezilmaydigan tarzda namoyon bo‘ladi. Stressli vaziyat bilan odamlar doimo to‘qnashadi. Shu bilan birga, bir tomondan, stress inson faoliyatini rag‘batlantiradi, o‘z imkoniyatlarimizni ko‘proq ishlatishga imkon beradi. Bundan tashqari, stress juda ko‘p zararli ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Jiddiy ichki kasalliklar va nevrotik holatlar bunga misoldir.

Bugungi kunga kelib, psixologiyada stressni dinamik, uzluksiz va intensiv psixologik hodisa sifatida tavsiflash bo‘yicha boy empirik tadqiqot bazasi to‘plangan va stress ko‘p qirrali, ko‘p darajali ekanligi ko‘rsatilgan [3].

Tibbiyot, fiziologiya va psixologiyada stressning ijobiy (eustress) va salbiy (distress) shakllari farqlanadi. Stress - bu tananing har qanday o‘zgarishlarga g‘ayritabiiy munosabati. Inson immuniteti stressdan aziyat chekadi. Ruhiy stress paytida immunitet hujayralarining ishlab chiqarilishi sezilarli darajada kamayadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda "stress" atamasi turli ma'nolarda qo‘llaniladi. Birinchidan, stress tanaga salbiy ta'sir ko‘rsatadigan kuchli salbiy ta'sir sifatida tushuniladi [5].

Ikkinchidan, hayajonning ichki ruhiy holatini aks ettiruvchi subyektiv reaksiyalar stress toifasiga kiradi.

O‘smirning maktab hayoti stress, tashvish va taranglikni boshdan kechirish uchun yetarli sabablar beradi. Ta'lim muhitining stressli omillari o‘smirlarning shaxsiy va hissiy rivojlanishidagi ko‘plab buzilishlarning manbayi bo‘lib, o‘quv motivatsiyasi va ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir qiladi. Ta'lim muhitining psixologik xavfsizligi darajasi maktab o‘quvchilarining subyektiv farovonligi ko‘rsatkichlariga ta'sir qiladi, ya'ni ijodiy o‘zini-o‘zi anglash zarurati, kuchlanish holati, o‘zini o‘zi qadrlash, faollik va boshqalar [6].

11-15 yosh davri sifatida belgilangan o‘smirlik davri inson o‘shishi va rivojlanishining muhim bosqichi bo‘lib, u bolalikdan kattalikka o‘tish davri hisoblanadi. Bu davrda o‘smirlar boshidan kechirgan psixologik va fiziologik o‘zgarishlar ularda stressli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Ushbu yosh davrining murakkabligini hisobga olsak, bu davr ko‘pincha inqiroz, hayotning stressli davri sifatida tavsiflanadi [4].

Aniqlangan o‘smir stress omillari tanadagi fiziologik o‘zgarishlar, jinsiy uyg‘onish, ijtimoiy tarmoqlar, internet bilan o‘zaro aloqalar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Bularning barchasi o‘smirning rivojlanishi va aqliy kamolotiga salbiy ta’sir qiladi. Psixologik muammolar va kasalliklar kuchli stressni his qiladigan o‘smirlarda paydo bo‘ladi. Bular ruhiy tushkunlik, o‘z joniga qasd qilish, giyohvand moddalarni iste’mol qilish, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish, ta’lim olish qiyin bo‘lgan o‘smirlar guruhiga qo‘shilish. Stress darajasi yuqori bo‘lsa, o‘smirlar zararli odatlarga berilib ketishadi, yomon uxlashadi, tartibsiz ovqatlanadilar, jismoniy passivlik va depressiyaga moyil bo‘ladilar. Jismoniy passivlik, charchoq, ruhiy muammolar, sog‘liqning buzilishi stressning natijasidir. O‘smirlarda ta’lim jarayoni, ijtimoiy ta’sirlar, oilaviy muammolar, ota-onalarning talablari va o‘smirlarning ehtiyojlari stress omillari sifatida qaraladi. Stress bo‘yicha tadqiqotlarning aksariyati stress darajasiga qaratilgan. Biroq stress va uning omillarini aniqlash bo‘yicha kam tadqiqot olib borildi. Chunki stress omillarini aniqlash va ularni bartaraf etish muhim va dolzarb muammolardan biridir. Rivojlanayotgan yoshda stress omillari natijasida o‘smirlik davrida tashvish, yurak kasalliklari, ruhiy tushkunlik va ruhiy kasalliklar paydo bo‘ladi [2].

Qo‘llaniladigan metodlar. O‘smirlik - jismoniy, psixologik, ijtimoiy va axloqiy o‘ziga xoslik va o‘zgarishlar davri. Bugungi kunda o‘smirlar murakkab rivojlanish davrida turli xil stress omillariga duch kelishmoqda. O‘smirlik davrida muvaffaqiyatli rivojlanish uchun bir nechta muhim jihatlarga e’tibor qaratish lozim. O‘smirning shaxsiyatini shakllantirish, o‘smirning mustaqillikka intilishi va bu bosqichni ijobiy boshqarishning yo‘qligi kelajakda umidsizlik tuyg‘usini keltirib chiqaradi.

M.V.Ribakova stress belgilari bo‘lgan o‘smirlar oilaning moddiy ahvolidan, birinchi navbatda, kiyim-kechakning sifati va miqdoridan, shuningdek, shaxsiy buyumlarning miqdori va sifatidan qoniqmasligini aniqladi. Maktab o‘smirlar uchun ijtimoiy stressning asosiy manbalaridan biridir. Birinchi bo‘lishga intilish va o‘rganishga berilib ketish ko‘plab ruhiy muammolarni keltirib chiqaradi. Maktab jamoasidagi o‘zgarish o‘smir uchun kuchli stressdir, chunki bu yangi do‘stlar orttirish va nafaqat sinfdoshlar, balki o‘qituvchilar bilan ham aloqa o‘rnatish zarurligini anglatadi.

Zamonaviy o‘smir hayotida ijtimoiy hayot katta ahamiyatga ega. O‘smirlar ko‘p vaqtlarini tengdoshlari bilan o‘tkazadilar va ko‘pincha oilasiga qaraganda do‘stlariga ko‘proq ahamiyat berishadi. Bunday vaziyatda ota-onalar nizolar va muammolarni oldini olish uchun o‘smirlarga nisbatan munosabatlarini o‘zgartirishlari kerak. Oiladagi umumiy ziddiyat ham o‘smirda stress manbayi bo‘lishi mumkin [2].

O‘smirlarni ta’lim faoliyati muammolari eng ko‘p tashvishlantiradi. Ikkinchi o‘rinda ularning shaxsiy kelajagi, uchinchi o‘rinda tengdoshlar bilan munosabatlar va kattalar bilan munosabatlardagi muammolar, keyin esa ishqiy munosabatlar tashvishlantiradi. Shuning uchun o‘smirlardagi stressning asosiy omilini "oilalar - o‘smir", "maktab - o‘smir", "tengdoshlar - o‘smir" munosabatlari tizimlarida shakllanadigan hayotiy vaziyatlar aniqlash mumkin. Bu munosabatlarning barchasi ijtimoiy stressga olib keladigan ziddiyatli vaziyatlarning o‘zagiga aylanishi mumkin [5].

O‘smirlardagi stress ham jiddiy muammolar, ham kichik norozilik natijasida yuzaga kelishi mumkin. Eng og‘ir stresslar o‘ta xavfli vaziyat (zo‘ravonlik) natijasida yuzaga keladi. Shubhasiz, bunday og‘ir stressli vaziyatlar har qanday odamda uchraydi, lekin eng muhimi, o‘smirning ruhiyatiga zarar yetkazadi. Bu yosh davrida bolaning psixikasi butunlay o‘zgaradi va bola kattalar yo‘lida bo‘ladi. Agar ushbu qiyin, o‘tish davrida bolaning ruhiyati stressga duchor bo‘lsa, unda u barkamol va xayrixoh inson bo‘lib qolishi qiyin. Doimiy stress tufayli o‘z-o‘ziga past baho berish, turli xil fobiyalar yoki o‘z qobig‘iga o‘ralib qolish rivojlanishi mumkin.

O‘smirlarda stressning boshqa jiddiy sabablari yaqin kishining o‘limi yoki ota-onaning ajralishi bo‘lishi mumkin. Bu yoshdagi bola oiladagi barcha nizolarni yurakdan qabul qiladi.

O‘smirdagi stressning yana bir sababi maktabdagi muvaffaqiyatsizlik bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilarning haddan tashqari yuqori talablari ham ruhiyatga bosim o‘tkazadi. Bularning barchasiga qo‘shimcha ravishda, sabab sport, ijodiy faoliyatdagi ortiqcha yuk. Maktablarni o‘zgartirish ham dahshatli oqibatlariga olib kelishi mumkin [2].

O‘smirlarning psixologik barqarorligi qanchalik yuqori bo‘lsa, sinf va maktab bilan munosabatlar shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi [2]. Ota-onalarning noto‘g‘ri kutishlari yoki o‘qituvchilarning talablari o‘smirlarda stressning kuchayishiga va uning shaxsiy ichki nizosiga sabab bo‘ladi. Turli xil stressli vaziyatlarning salbiy ta’siri o‘smirning ish qobiliyatiga, uning tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan munosabatlariga, xatti-harakatlariga ta’sir qiladi va hatto yangi stressli vaziyatlarning paydo bo‘lishiga olib

keladi [3]. Vazifani qo‘yishda bola o‘z qobiliyati va rivojlanishini hisobga olishi kerak, chunki juda oson topshiriqlar ta‘lim motivatsiyani keltirib chiqarmaydi, juda qiyinlari esa stressga va psixologik barqarorlikning pasayishiga olib keladi [4]. Haddan tashqari vazifalar muvaffaqiyatsizlikka olib keladi va muvaffaqiyatsizlik tajribasi to‘planib, o‘ziga ishonchsizlik, hissiy beqarorlik va yangi muvaffaqiyatsizliklarni shakllantiradi. Bu vaziyat aqliy tanazzulga olib kelishi mumkin [2]. O‘zini past baholash va o‘ziga ishonchsizlik insonning o‘z hayotini nazorat qilish qobiliyatini pasaytiradi va uni stressga nisbatan kamroq chidamli qiladi [5]. O‘zini past baholaydigan, uyatchan va xavotirli o‘smirlar, ayniqsa, muloqotda muammolarga duch kelishadi.

Natijalar tahlili. Qarshi tumanining 70-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida o‘smirlardagi stressni aniqlash bo‘yicha tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqotda - 6 "A" va 6 "B" sinflarning 11-12 yoshli 33 nafar o‘quvchilari ishtirok etdi.

Ushbu tadqiqotda stressli vaziyatlarning namoyon bo‘lish chastotasini va stressning salbiy oqibatlariga moyillik darajasini o‘z-o‘zini baholashni amalga oshirishga imkon beruvchi metodikadan foydalandik.

Y.V.Shcherbatxning “Stressni o‘rganish testi” metodikasi yordamida stressning sababi o‘quv jarayonidagi bosimlar, zerikarli darsliklar degan xulosaga kelish mumkin. Shuningdek, bu sinflar o‘smirlari guruhdagi nizolar, uyatchanlik va shaxsiy hayotlarida muammolarga duch kelishadi. O‘quv faoliyatidagi stress doimiy vaqt yetishmasligi (asosan do‘stlar bilan yurish tufayli) va yomon kayfiyatda namoyon bo‘ladi. "Siz qanday stressni bartaraf etish usullaridan foydalanasiz?" degan savolga o‘smirlar: telefondagi o‘yinlar - 2%, musiqalar tinglash, - 8%, televizor va internet - 36%, mazali taomlar - 4%, uyqu - 20%, do‘stlar bilan muloqot - 15%, jismoniy tarbiya - 7%, sevimli mashg‘ulotlar - 8%, deb javob berdilar.

Xulosa. Bizning empirik tadqiqotimizning maqsadi maktab vaqtida o‘smirlarning stressli holatini o‘rganish edi. Biz o‘rganayotgan sinf o‘quvchilarining yarmidan ko‘pi stressga moyil ekanligini, doimiy ortiqcha bosimni boshdan kechirishini, mayda-chuyda narsalardan asabiylashishlarini, stress ostida asabiylashishlarini va ko‘pincha bu holatga dosh bera olmasligini aniqlashga muvaffaq bo‘ldik. Amalga oshirilgan izlanishlarning natijalariga ko‘ra, aksariyat o‘smirlarda stressning sababi katta o‘quv bosimi va ularni yengish uchun zarur shart-sharoitlar yo‘q ekanligini aytish mumkin.

O‘smirlardagi stressning sababi xulq-atvorda his-tuyg‘ularni yetarli darajada shakllantirish qobiliyatining yetishmasligi bo‘lishi mumkin va ularning o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish, jamoada qabul qilingan xatti-harakatlar normasiga rioya qilish istagi bilan bog‘liqligi aniqlandi. Bir tomondan, bunday xatti-harakatlar nizolar ehtimolini kamaytiradi va shaxslararo munosabatlarni yaxshilaydi. Boshqa tomondan, stressga olib kelishi tabiiy. Chunki o‘smirlardagi ichki qarama-qarshiliklar ularda turli darajadagi stresslar shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Alimxodjayeva S.N. Haydarov F.N. Psixologik tashxis metodikalari majmuasi. 2- qism. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. 2009. – B. 72
2. G‘oziev.E.G‘. Umumiy psixologiya- T.:O‘qituvchi, 2010.
3. Водопьянова Н.Й. Стрессни бошқариш: университетлар учун дарслик. - 2-нашр, Москва.: Юрайт нашриёти, 2020 йил .
4. Roziqova N.A. Ta‘lim jarayonida pedagoglardagi stressga barqarorlikni rivojlantirish. O‘quv qo‘llanma.Toshkent 2021- yil.
- 5.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2014.– B-98.

PEDAGOGIKA NAZARIYASINING YO‘NALISHLARI VA UNING RATSIONAL
TAFAKKURDAGI O‘RNI

*Toshniyazov Umirbek Xurramovich,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat ma’rifat bo‘limi boshlig‘i,
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi*

Maqolada pedagogika nazariyasining yo‘nalishlari va uni ratsional tafakkurdagi o‘rni hamda pedagogik nazariya boshqa nazariyalar, bilimlar, konseptual tuzilmalar va ularning elementlari hamda turli xil mazmuni asosida vujudga kelishligi va asoslanishligi haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari, rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasining faktologik rejasini ajratib ko‘rsatishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, pedagogika nazariyasi, ratsional tafakkur, konseptual tuzilmalar, ta’lim subyekti, ta’lim nazariyasining faktologik rejasini.

НАПРАВЛЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ И ЕЁ РОЛЬ В
РАЦИОНАЛЬНОМ МЫШЛЕНИИ

В статье рассматриваются направления теории педагогики и ее место в рациональном мышлении, а также то, что теория педагогики базируется на других теориях, знаниях, концептуальных структурах и их элементах и их различном содержании. Кроме того, была предпринята попытка выделить фактический план теории развивающего обучения.

Ключевые слова: педагогика, теория педагогики, рациональное мышление, концептуальные структуры, учебный предмет, фактический план теории образования и т.д.

DIRECTIONS OF PEDAGOGICAL THEORY AND ITS PLACE IN RATIONAL THINKING

The article discusses the directions of the theory of pedagogy and its place in rational thinking, as well as the fact that the theory of pedagogy is based on other theories, knowledge, conceptual structures and their elements and their various contents. In addition, an attempt was made to distinguish the factual plan of the theory of developmental education.

Key words: pedagogy, theory of pedagogy, rational thinking, conceptual structures, educational subject, factual plan of educational theory.

Kirish. Ilmiy taraqqiyot konsepsiyasining asosiy qoidasi – ratsionallik darajasining u yoki bu nazariyani qanchalik taraqqiy etganligiga bog‘liqligidir. Nazariya ilmiy bilimning bir shakli sifatida qaraladi, ammo uning taraqqiy etganligining mezonlari masalasi ochiqlicha qolmoqda.

A.Uybo nazariyaning umumiy sxemasini qurishga harakat qilib, u har qanday nazariya, jumladan, gumanitar fanlar uchun ham namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Nazariya strukturasi u tayanch va hosila darajalarini ajratadi. Tayanch daraja uchta qatlamni o‘z ichiga oladi: 1) faktologik – nazariya predmetlari sifatidagi dalillar ko‘pligi; 2) konstruksion – nazariya elementlarining mantiqiy bog‘liqligi; 3) me’yoriy – boshqa nazariyalardan, fanlardan, falsafadan va boshqa olingan qoidalar. Nazariyaning hosila darajasiga quyidagilar kiradi: 1) nazariy obyektlarni belgilovchi ontologik sxema; 2) obyekt bilan ishlash qoidalari – protseduralar, muammolarni hal qilish qoidalari va boshqalar. Uybo nazariyani bilishning natijasi sifatida – u holda u aks ettirish funksiyasini bajaradi, hamda bilish vositasi sifatida ko‘rib chiqadi – bu holda funktsiya instrumental bo‘ladi [1].

A.Uybo tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaning strukturasi nuqtayi nazaridan ta’lim va pedagogika sohasidagi nazariy bilim namunalari qanday ko‘rinishga ega ekanligini ko‘rib chiqamiz (bu ishlanmalar nazariya maqomiga egami yoki yo‘qmi, muhim emas).

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasining muallifi V.V.Davidov o‘z ishining janrini nazariy deb belgilaydi va jiddiy falsafiy asoslarga – faoliyatli yondashuvga, aks ettirish nazariyasiga, nemis an’anaviy falsafa qoidalari, borliqni yaratilish nazariyalariga murojaat qiladi. Shunday qilib, pedagogik nazariyaning asosiy xususiyati madaniy-tarixiy kontekstdan tashqarida mavjud bo‘la olmaslik bo‘lib, u mazkur nazariyaning tezaurusini qurishning asosi bo‘lib hisoblanadi (nazariyaning ushbu qatlamini A.Uybo me’yoriy deb ataydi). Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi uchun me’yoriy qatlam mazmuni nimadan iborat?

Yuqorida ko‘rib o‘tanimizdek, mazkur nazariyaning manbalari va tarixiy asoslari qo‘yidagilardir: L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi asosida yaratilgan shaxs rivojlanishi psixologik nazariyasi [1]. Bu bilimlar orasida me‘yorlashtiruvchi mazmun sifatida, avvalo, tushunchaviy apparat (faoliyat, empirik tafakkur – nazariy, mavhum va muayyan, mantiqiy tafakkur – tarixiy, shaxs, rivojlanish, yosh davriylashtirilishi va shu kabilar).

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Rivojlantiruvchi ta‘lim nazariyasining faktologik rejasini ajratib ko‘rsatishga harakat qilamiz. Dastlab, ushbu holatda dalil nima ekanligini aniqlaymiz. Qayd etamizki, dalil obyektivlikka qancha da‘vo qilinmasin, hali ham ko‘p yoki kam darajada nazariy jihatdan “yuklangan” bo‘ladi. Pedagogik nazariyada dalillar deb nimani tasniflash mumkin? Masalan, quyidagi qaydlar dalillar bo‘lib hisoblanadimi: faoliyatning yangi usullarini topish maqsadida “A” sinfida 12 kishi masalalarni yechgan, “B” sinfida esa 18 kishi; “o‘quvchilarda ta‘lim olish uchun deyarli hech qanday motivatsiya yo‘q”; “mavjud ta‘lim tizimi zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga javob bermaydi”. Biz shunday javob bergan bo‘lardik: ular ma‘lum bir pedagogik paradigma doirasida mavjud.

Birinchi qayd “faoliyat turi” tushunchasi mavjud bo‘lmagan har qanday an‘anaviy nazariyada ma‘noga ega emas (jumladan, biz uchun odatiy bo‘lgan “sinf”, “vazifa” atamaları ham har qanday pedagogik nazariyada mavjud emas). Ikkinchi va uchinchi qaydlarni tegishli tezaurus bilan u yoki bu nazariya doirasida qilingan xulosalarni kiritish mumkin (motivatsiya, ijtimoiy jarayonlar va ta‘lim tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlik). Shunday qilib, rivojlantiruvchi ta‘lim nazariyasida faktologik bazisga faoliyat nazariyasi, o‘quv faoliyati, ta‘lim subyektlari faoliyati va o‘quv jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq ushbu nazariyani amalga oshirish nuqtayi nazaridan qoidalar kiritilishi kerak. Faoliyat natijalari ham, empirik kuzatishlar ham dalillarga kiritiladi. “Bolalar o‘qishni xohlamaydilar” - bu dalil emas, chunki nazariyaga mos kelmaydiga tezaurus ishlatilgan; tegishli tadqiqotlar bilan tasdiqlangan qayd dalil bo‘ladi: “O‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, o‘quvchilarda o‘qish uchun motivatsiya mavjud emas” [2].

Nazariyaning konstruksion tayanchi uning asosiy strukturaviy elementlarining mantiqiy bog‘lanish turidir. Nazariya doirasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni tushunish uchun, avvalo, quyidagi mulohazalarni keltiramiz: Pedagogika nazariyasi - uchta yo‘nalishga ega. Konstruksion fokusda nazariya ma‘lum ijtimoiy amaliyot uchun asos yaratadi (ta‘lim muassasalari, oilaviy tarbiya tuzilishi va shu kabilar). Tushuntiruvchi fokus jamiyat va alohida shaxs hayotidagi muayyan hodisalarni tushunishga imkon beradi. Uchinchi fokus – uni madaniy deb ataymiz – mazkur nazariyani boshqa bir nazariyaning, masalan, ta‘lim nazariyasining tayanch darajasini tashkil etuvchisi deb ko‘rib chiqish imkonini beradi. Har bir fokus o‘z mantig‘iga ega bo‘ladi.

Birinchi fokusning mantig‘i quyidagicha: Jamiyat tarixiy va madaniy jihatdan shartlangan ba‘zi xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni saqlash va ko‘paytirish mexanizmi ta‘lim bo‘lishi mumkin va shart, agar u ma‘lum talablarga javob bersa; mazkur nazariya jamiyatning qaysi xususiyatlariga ta‘lim e‘tibor berishi “zarur” va nima uchun haqidagi savolga javob beradi, hamda ontologik reja (A bu B) va loyihaviy (A qilinsa B olinadi) bilimlarini nazarda tutadi. Shunday qilib, bu yerda an‘anaviy formal mantiq qoidalari qo‘llaniladi. Xuddi shu narsa ikkinchi fokusda ham sodir bo‘ladi: tushuntirilayotgan obyekt sifatida subyektning (ham individual, ham jamoaviy) fikrlash va o‘quv faoliyati bilan bog‘liq hodisalar chiqadi; birinchi navbatda, empirik va nazariy tafakkurning farqlanishi hisoblanadi; bu yerda tushuntirish malaka bilan bog‘liq bo‘ladi. Madaniy fokus mantig‘ini faqat umumiy nazariya kontekstida tahlil qilish mumkin, shuning uchun biz mazkur masalani bu yerda ko‘rib chiqmaymiz [3].

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Aytish mumkinki, rasmiy mantiq rivojlantiruvchi ta‘lim nazariyasi tuzilishini belgilaydi. Ba‘zi dalillar va qoidalarni tushuntirib bo‘lmaydi, hamma narsani ham ideal makonda ham, haqiqiy makonda ham qurib bo‘lmaydi. Turli jinsli, hatto eklektik tarzda tashkil etilgan muammoli maydon paydo bo‘ladi (muammoni formal mantiq meyorlari nuqtayi nazaridan hal qilish qoidalari bu yerda ishlaymaydi). Bu yerda mazkur maydonni ko‘rib chiqmasdan, biz shunga qaramay, boshqa turdagi mantiqni – muammoli-mazmunli mantiqni aytib o‘tamiz. Mazkur mantiq quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- obyektning tafakkur qurilishi, shu jumladan, formal mantiqdagi o‘xshash operatsiyadan farq qiluvchi tushunchalarni ishlab chiqish (bu yerda asosiy farq - tushunchani madaniy-tarixiy va vaziyatli kontekstda ko‘rib chiqishdir);

- muammolarni ham ijtimoiy-madaniy, ham alohida vaziyatli qayd qilish nuqtayi nazaridan tahlil qilish;

- ideal obyektning haqiqiy obyektidan farqlash;

- tizimni qurish: obyekt - real va ideal - muammoli va faoliyatli maydon;

- ishning umumiy sxemasi: obyektning A shaklida tasvirlash mumkin, bu holda V vaziyat yuzaga keladi, muammolar D qayd etiladi, ularni hal qilish uchun A obyektida X o'zgartirishlarni kiritish kerak (bu holda obyekt Ax ko'rinishiga ega bo'ladi), buning uchun D faoliyatini amalga oshirish kerak.

Mazkur nazariyaning hosilaviy qatlamining mazmuni nimadan iborat? Ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan birinchi jihat – mazkur nazariyaning nazariy obyektlarini quradigan dastlabki idealizatsiyalardir. Ushbu obyektning to'rtta turini ajratib ko'rsatdik: o'quv jarayoni, o'quv obyektining sifatida o'quvchilar, o'qitish subyekti va o'qitish natijasida rivojlanayotgan obyekt. Nazariy obyekt sifatida o'quv jarayonining dastlabki idealashtirilishi sifatida quyidagilar ayonlashadi: bir tomondan, madaniy hodisa sifatida 1-faoliyat, inson mavjudligining makonlari, dunyolaridan biri (faoliyatni takrorlash va madaniyatni uzatish sxemasiga qarag'anda); ikkinchi tomondan, vaqt va makon ichida insonning izchil harakatlarining yig'indisi sifatida 2-faoliyat (birinchi navbatda, maqsadlar, vositalar, natijalar kabi xususiyatlarga ega).

Pedagogik ta'sir obyektini bo'lib, odatda, bir yoki bir nechta o'quvchi chiqadi (qiziq jihat shundaki, nazariya uchun ularning soni muhim emas). O'qitish obyektini qurish uchun idealashtirish quyidagilardir: a) qobiliyatlar, b) yuqori ruhiy funksiyalar, v) yoshi. Qobiliyatlar shaxs va 2-faoliyat o'rtasidagi bog'liqlik turi, u yoki bu faoliyat turini amalga oshirishning o'ziga xos mexanizmi va sharti sifatida harakat qiladi. Yuqori ruhiy funksiyalar – bu immanent tavsif, obyektning sifati, bu holda (bola o'qitish obyektining sifatida) faoliyat uchun materialni ifodalaydi. Yosh bu yerda obyektning biologik xususiyati emas, balki material mavjudligining belgisi, “indikator” bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim subyekti – ko'rib chiqilayotgan nazariyaning yana bir nazariy obyektidir. Umuman aytganda, ta'lim ikki tomonlama jarayondir: o'qish (faoliyat subyekti – o'quvchi) – o'qitish (faoliyat subyekti – o'qituvchi). Odatda o'qitish tushunchasi har ikki tomonni ham nazarda tutadi va bu yerda o'qitish subyekti o'qish subyekti ham, o'qitish subyekti ham anglatishi mumkin. Ikkala holatda ham dastlabki idealashtirishlar quyidagilardir: faoliyat, o'qish faoliyat sifatida, o'qitish faoliyat sifatida. O'qitish va o'qish 2-faoliyatning o'ziga xos turlari bo'lib, maqsadlar, vositalar, natijalar va boshqalar o'ziga xos mazmuniga ega.

Rivojlantiruvchi ta'lim obyektini – natija nuqtayi nazaridan o'qish va o'qitish faoliyatini tavsiflash, tabiiy fanlar nazariyasi tilida o'lchash protsedurasini amalga oshirish imkonini beradigan alohida obyektidir. Qobiliyatlar va ruhiy funksiyalar bu yerda shunchaki materialning mavjudligi dalili sifatida emas, balki o'ziga xos tuzilishga ega dinamikada namoyon bo'ladi. Rivojlanish, bir tomondan, obyektning mavjud bo'lish usuli, ikkinchi tomondan, maqsadli faoliyat sifatida qaraladi.

Demak, rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasidagi dastlabki idealashtirish bo'lib quyidagilar chiqadi: faoliyat, o'qish va o'rganish faoliyat sifatida, rivojlanish, qobiliyatlar, yuqori ruhiy funksiyalar, yosh. Ushbu obyektlar bilan ishlash (A. Uybo terminologiyasi [4]) qoidalari qanday? Ehtimol, bu holda obyektlar tizimi haqida gap boradi. Ushbu obyektlarga nisbatan bajariladigan asosiy harakatlar quyidagilardir.

1) Loyihalash. Obyekt hali mavjud bo'lmaganda, uni qurish kerak bo'lganda vaziyat ko'rib chiqiladi. Bu yerda asosiy tartib – bola, pedagog, ta'lim jarayoni haqidagi real tajriba asosida haqiqiy yoki xayoliy tasavvurlardan abstraksiyalashga asoslangan idealashtirish, ya'ni obyektga ushbu obyekt bilan ishlashga, muayyan maqsadlarni amalga oshirishga imkon beradigan muhim xususiyatlarni “berish”. Obyektning qurish usullari qanday bilim – tabiiy fanlar turidagi yoki loyihaviy (sun'iy-texnik ishlar uchun) bilimlar olishni xohlayotganimizga qarab har xil bo'ladi. Eng yorqin misol – o'quv faoliyati va uning maxsus nazariyasi kabi obyektning qurilishi.

2) Tavsif. Ko'rsatilgan obyektlardan birini tavsiflashning murakkabligi shu bilan bog'liqki, bir tomondan, alohida olingan obyekt haqida bilim zarurimiz bor, lekin boshqa tomondan, obyektlar tizimi haqida gapirilgani uchun, tavsifni tizimdan tashqarida amalga oshirish kerak. Ehtimol, immanent alohida olingan obyektga xos xususiyatlar bilan obyektning tizim elementi sifatida tasvirlaydigan xususiyatlarni farqlash kerak. Shunday, o'quvchini obyekt sifatida tavsiflash uning (o'quvchining) ichki xususiyatlari – fazilatlar, imkoniyatlari sifatida qobiliyatlari nuqtayi nazaridan ham, faoliyat xususiyatlari – faoliyatda namoyon bo'ladigan muayyan qobiliyatlar, o'quv ko'nikmalari va shu kabilar nuqtayi nazaridan ham, ya'ni “o'quvchi faoliyat, xususan, ta'lim subyekti sifatida” tizimi kontekstida amalga oshiriladi.

3) Tadqiqot. Tadqiqot predmeti bo'lib tabiiy evolyutsiya yoki sun'iy ta'sir natijasida obyektlarda sodir bo'ladigan o'zgarishlar hisoblanadi. Asosiy material bo'lib statistik ma'lumotlar va tajriba ishi natijalari (masalan, ma'lum bir qobiliyatning shakllanishi, malakalardagi o'zgarishlar va shu kabilar) xizmat qiladi.

4) Tajriba. Bu holatda tajriba o'tkazish bir obyektidagi o'zgarishlarning (ham miqdoriy, ham sifat) tabiati yoki bog'liqligini boshqa obyektlardagi sun'iy yoki tabiiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda izlashdan iborat.

Pedagogik nazariyaning ijtimoiy nazariya sifatidagi xususiyatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu yerda biz gumanitar va ijtimoiy nazariyalarni tenglashtirmaymiz. Ijtimoiy nazariyani tabiiy fanlar

nazariyasiga faqat obyekt nuqtayi nazaridan qarama-qarshi qo‘yamiz. Demak, pedagogik bilimlar ijtimoiy nazariya sifatida quyidagi jihatlar bilan qiziqtiradi: birinchidan, ta‘lim nazariyasi hali qurilmaganligi sababli, ushbu nazariyaning predmetini va predmetlashtirish tartiblarini tahlil qilish bo‘yicha ishlar muhimdir. Bu yerda savol tug‘iladi: mazkur nazariya uchun material bo‘lib nima xizmat qiladi – tajriba, ta‘lim sohasi haqidagi ontologik g‘oyalar yoki boshqa narsami?!

Ikkinchidan, nazariyaning tuzilishini tahlil qilish lozim: bu nazariya qanday savollarga javob berishini, u madaniyatda qanday funksiyani bajarishi kerakligini, xususan, ushbu struktura ijtimoiy harakat haqida g‘oyaning mavjudligini ta‘minlashi yoki yo‘qligini tushunishga imkon beradi.

Uchinchidan, pedagogik nazariyani ijtimoiy nazariya sifatida tahlil qilish madaniyatda mavjud bo‘lgan bunday ishlarning misollari asosida ta‘limning nazariy konsepsiyalarini qurishda aqliy faoliyat tajribasini aks ettirishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Shunday qilib, ta‘lim nazariyasi tahlil va sintez orqali turli xil ijtimoiy fanlar bilimlarini o‘ziga xos “metanazariya” sifatida ham, ijtimoiy nazariyaning bir turi, alohida holati sifatida ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. М., 1982.
2. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. М., 1996.
3. Пружинин Б.И. Рациональность и историческое единство педагогического знания. М., 1985.
4. Уйбо А.С. Теория и историческое познание. Таллинн, 1998.



SHAXS MAS’ULIYATI VA XULQ-ATVORINING SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLAR

Turaxonov Abdukarim Eshkuziyevich,

Surxondaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v/b abdukarim.turaxonov@bk.ru

Mazkur maqola shaxs xulq-atvorining shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlar mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqola matnida shaxs xulq-atvori, ijtimoiy-psixologik determinantlar, mas’uliyat fenomeni shakllanishini ta’minlovchi psixologik komponentlar ham keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘z-o‘zini anglash, kasbiy mas’uliyatlilik, javobgarlik, o‘z-o‘ziga hisob berish, maxsus qobiliyatlar, istaklar tizimi, faollik, burch, tegishlilik, obyektiv bosqich, subyektiv bosqich, axloqiy kamolot bosqichi, prognostik bosqich, rag‘batlantiruvchi bosqich, lokus nazorat, internal lokus nazorat, eksternal lokus nazorat, muammodan qochish, tashabbuskorlik, matonatlilik, g‘ayratlilik.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПОВЕДЕНИЯ И ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЛИЧНОСТИ

Данная статья посвящена теме социально-психологических детерминант, влияющих на формирование личности. Также в тексте статьи широко освещены личностное поведение, социально-психологические детерминанты, психологические компоненты, обеспечивающие формирование феномена ответственности.

Ключевые слова: *самосознание, профессиональная ответственность, ответственность, самоотчетность, специальные способности, система желаний, деятельность, долг, принадлежность, объективный этап, субъективный этап, этап нравственной зрелости, prognostический этап, мотивационный этап, locus контроля, внутренний. locus контроля, внешний locus контроля, избегание проблем, инициатива, настойчивость, мотивация.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS INFLUENCING THE FORMATION OF BEHAVIOUR AND RESPONSIBILITY OF THE INDIVIDUAL

This article is devoted to the topic of socio-psychological determinants affecting the formation of personality. Also, in the text of the article, personal behavior, socio-psychological determinants, and psychological components that ensure the formation of the phenomenon of responsibility are widely covered.

Keywords: *self-awareness, professional responsibility, responsibility, self-accountability, special abilities, desire system, activity, duty, belonging, objective stage, subjective stage, stage of moral maturity, prognostic stage, motivational stage, locus of control, internal locus of control, external locus of control, problem avoidance, initiative, persistence, motivation.*

Kirish. Psixologik jihatdan, mas’uliyat fenomeni – javobgarlik, o‘z-o‘ziga hisob berish kabi ma’nolarni anglatib, unda shaxs imkoniyatini belgilovchi ko‘plab psixologik omillar o‘z aksini topgan. Mas’uliyat tushunchasi insonning atrof-muhit talablariga faol javob berish harakati bilan xarakterlanib, hozirga qadar ushbu masala qator fanlar psixologiya, sotsiologiya, pedagogika hamda falsafa kabi fanlar tizimida dolzarb muammo sifatida o‘rganib kelinmoqda. Biroq barcha fanlarda mas’uliyat fenomenini tushuntiruvchi yagona konsepsiyalar yoki yondashuvlar mavjud emas. Shu bilan birga, mazkur xususiyat mazmunida majburiy yechim va javoblarni talab etuvchi, insonning maxsus qobiliyatlari va istaklari tizimi ham mavjud.

Asosiy qism. Mas’uliyat fenomini nazariy jihatdan izohlash, ma’lum bir shaxs tiplariga xos qadriyatlar yo‘nalishi va hissy-irodaviy sifatlar orqali ochib berish holati gumanistik va ekzistentsial psixologiya maktablari ta’limotlarida ham o‘z aksini topgan. Ushbu ikki ta’limotga muvofiq «Mas’uliyatlilik» insonda qadriyatlarining to‘g‘ri yo‘nalganligi hamda erkinlik, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari, topshiriqlarni o‘z zimmasiga olish qobiliyati kabilar orqali namoyon bo‘ladi. Bundan farqli o‘laroq, psixodinamik ta’limot vakillariga ko‘ra, insonda mas’uliyat hissining namoyon bo‘lishi va

rivojlanishi ijtimoiy qoʻrquv va jamiyatdagi bosim orqali paydo boʻladi. Jamiyatdagi ijtimoiy bosim bu – inson tomonidan jamiyatda qabul qilingan qonun va qoidalarga toʻliq rioya qilish jarayonidir. Psixoanaliz taʼlimotining asoschisi Z.Freydning aytishicha, masʼuliyat fenomeni ibtidoiy xarakterga ega boʻlib, u qadimgi odamlar va jamoalarning jazolardan saqlanishga qaratilgan harakatlarining majuyidir. Biroq inson olomon ichida masʼuliyatlikni yoʻqotadi. Yaʼni turli ijtimoiy toʻsiqlar insondagi ushbu sifatlar rivojlanishini toʻsib qoʻyadi.

Demak, masʼuliyat fenomeni guruh qoidalariga amal qilish, boshqalar bilan oʻz maqsadlarini birlashtirish kabi maʼnolar bilan ham tavsiflanadi. Neofreydizm taʼlimotida ham masʼuliyat tushunchasining oʻziga xos talqini mavjud. Ushbu taʼlimotning yetakshilaridan biri G.C.Sallivanning talqinicha, masʼuliyatlik shakllanishini ijtimoiy qoʻrquv sifatida emas, balki ataylab tanlangan yoki rad etilishi mumkin boʻlgan oʻziga xos harakat sifatida koʻrib chiqish lozim. G.C.Sallivandan farqli oʻlaroq, K.Xorning soʻzlariga koʻra, masʼuliyat bu subyektning shaxsiy oʻsishi uchun shart sanalgan psixologik zaruratdir. Faqat nevrozlar insonni masʼuliyatlikdan va rivojlanishdan toʻxtatadi. Muallifning xulosalariga koʻra, inson biror bir faoliyatda masʼuliyatli boʻlishi uchun, avvalo, nevroitik vaziyatlar va nevrozlardan holi boʻlishi lozim.

K.Xorni gʻoyalari davom ettirgan neofreydizmning yana bir taniqli vakili E.From birinchilardan boʻlib, masʼuliyatlikni erkinlik xususiyati bilan bogʻlab tushuntirdi. E.Fromning taʼkidicha, masʼuliyatlik insonda bolalikdan boshlanadi, keyinchalik u ijtimoiy xarakterga ega boʻlib boradi. Bunda inson faoliyati uchun xos boʻlgan mustaqillik, tanlov erkinligi, javobgarlik kabi sifatlar asosiy omildir. E.From erkinlikning ikki turini ajratadi: kutilayotgan va haqiqiy erkinlik. Mana shu ikki tarkib orqali inson oʻz-oʻzini anglaydi, rejalar tuzadi, natijalarni oldindan koʻra oladi hamda tanlash erkinligiga ega boʻladi. Umuman olganda, masʼuliyat muammosini bunday tushunish koʻproq gumanistik hamda ekzistentsial yoʻnalishdagi psixoterapevtik gʻoyalarda oʻz aksini topgan.

Tadqiqotchi C.I.Ojegovning tahriri ostida chop etilgan «Rus tilidan izohli lugʻat» kitobida qayd etilishicha, masʼuliyat bu – insonning zaruriy harakatlari majmuyi yoki oʻz ishlari uchun javob berish, oʻz majburiyatlarini anglash kabi sifatleri hisoblanadi. Yaʼni masʼuliyatli shaxs – bu oʻz vazifalarini yuksak darajadagi tuygʻulari bilan bajaradigan shaxsdir. Mazkur taʼrifdan shu narsani anglash mumkinki, yuksak darajadagi tuygʻularning namoyon boʻlishi bu, inson tomonidan oʻzlashtirilgan bilimlar, ishga boʻlgan yuqori motivatsiya, atrof-muhit talablariga nisbatan faol javob berish istagi kabi xususiyatlarning natijasidir.

Bundan tashqari, masʼuliyat tushunchasini ilk bor psixologik jihatdan asoslash holati psixoanaliz taʼlimotida ham aks etgan boʻlib, unda masʼuliyatlikni taʼminlovchi psixologik asos sifatida vijdon tan olinadi. Z.Freydning qayd etilishicha, masʼuliyat bu – vijdonning ajralmas qismi hisoblanib, u insonda mavjud boʻlgan ijtimoiy qoʻrquv orqali namoyon boʻladi.

C.V.Beccmertnaya «Masʼuliyat» fenomenini tahlil etar ekan, oʻzga tadqiqotchilardan farq qilgan holda, shaxsning individual-tipologik xususiyatlarning asosi, bilish jarayonlarning mahsuli, shuningdek, shaxsga xos faollik, tashkilotchilik vazifalarni bajarishga tayyorlik kabi sifatlar mazmunda koʻrib chiqishni alohida taʼkidlaydi. Demak, masʼuliyatlik bir necha psixologik tarkibli psixologik fenomen hisoblanadi. Tadqiqotchilardan V.P.Pryadein ham «Masʼuliyat» tushunchasi mazmunini ilmiy asoslash ishlariga alohida eʼtibor qaratib, uni namoyon boʻlishining oʻziga xosliklarini tadqiq etishga harakat qiladi. Muallifning talqinicha, masʼuliyatlik xususiyati ongli harakat sanalib, shaxsiy, jamoaviy, kasbiy faoliyat jarayonida rivojlana boradi. Masʼuliyatlikning refleksivlik jihati ham mavjud boʻlib, bunday qarashlar K.Muzdibayevning izlanishlarida oʻz aksini topgan. Muallifning talqinicha, masʼuliyatlik bu – refleksiv sharoitlarda namoyon boʻladigan yoki bajarilgan harakatlar uchun javobgarlik sifati hisoblanib, unda shaxs oʻz kelajagiga boʻlgan munosabatini namoyon etadi. Psixologik adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, «Masʼuliyat» tushunchasining toʻliq, aniq konseptsiyalari ishlab chiqilmaganligi va uning toʻliq talqini yangi ilmiy-psixologik gʻoyalarga muhtoj ekanligini koʻrishimiz mumkin.

L.I.Dementiyning aytishicha, masʼuliyat fanlararo maqomdagi fenomen sanalib, u keng maʼnoda insonning jamiyatda qabul qilingan meʼyor va qoidalarga rioya qilishi, oʻz harakatlari ustidan nazorat oʻrnatishi kabi sifatlarini tavsiflovchi tushunchadir. Uning ikki muhim jihati mavjud:

- Tashqi jihat (javobgarlik, jazo va ragʻbat);
- Ichki jihat (faollik, burch, tegishlilik).

Mazkur mulohazaga koʻra, masʼuliyat shakllanishining tashqi jihati bu inson tomonidan vazifalarni qay tarzda amalga oshirish harakatlari boʻlsa, ichki jihat faoliyatga va vazifalarga boʻlgan motivatsiya, munosabat, ularni amalga oshirish istagi kabilarda aks etadi. Shaxs xulq-atvorini namoyon qiluvchi masʼuliyatlik termini Y.C.Rapatsev tomonidan izohlangan psixologik lugʻatida ham keng yoritilgan boʻlib, bunda mazkur xususiyat oʻzini-oʻzi boshqarish, oʻz harakatlari uchun javobgarlikni oʻz zimmasiga olish qobiliyati kabi maʼnolar bilan tavsiflangan. Bunda uni taʼminlovchi asosiy omillar sifatida insonning

irodaviy sifatlari va shaxslilik sifatlari tan olinadi. Mas’uliyat tushunchasining shaxsdagi tashabbuskorlik sifati bilan ta’riflanish holatini akmeologiya faniga oid lug’atlarda ham uchratish mumkin. Ya’ni mazkur manbaga muvofiq, mas’uliyatlik sifati insonga xos eng uctun xususiyatlardan biri sanalib, u tashabbuskorlik bilan uyg’un hisoblanadi.

J.Piajening so’zlariga ko’ra, bolalarda shakllanayotgan mas’uliyatlik sifatlarning ikki muhim jihati, ya’ni obyektiv va subyektiv jihatlari mavjud. Bolalar o’yin paytida yoki boshqa vaziyatda o’z qahramonlari faoliyatini baholashga harakat qilishadi. Shuningdek, ular vaziyatlarni baholashda xolisona harakat qilishadi. Ya’ni axloqiy me’yorlarga ko’nikma orttirib boradilar. Keyinchalik, J.Piajening g’oyalari uning shogirdi L.Kolberg davom ettirdi. L.Kolberg mas’uliyat sifati tadqiq qilgan ekan, avvalo, uning dinamik rivojlanish xarakteriga ko’proq e’tibor qaratdi. Muallif muammoni hal qilishda keng qamrovli tadqiqot olib borib, obyekt sifatida o’quvchilar, kollej o’quvchilari va universitet talabalar guruhini tanlab oldi. Va oxir-oqibat mas’uliyatlik sifatining shakllanishi shaxsning axloqiy ulg’ayishi bilan bog’liqligini aniqladi. Va shaxsda mas’uliyatlik rivojlanishini ta’minlovchi axloqiy rivojlanishning besh bosqichini ajratib o’tadi:

Obyektiv bosqich – bu o’z harakatlari natijasi asosida, mas’uliyatlikni anglash bosqichi;

Subyektiv bosqich – bu nafaqat natijani, harakatlarning motivlarini baholash bosqichi. Ya’ni ushbu bosqichda mas’uliyatlik ijtimoiy majburiyat sifatida qabul qilinadi;

Axloqiy kamolot bosqichi – bu bosqichda mas’uliyatlik sifati to’liq jamiyatda qabul qilingan axloq qoidalari bilan tartiblanadi. Axloqiy yetuklik bosqichida shaxsning huquq va erkinliklari birinchi o’ringa chiqadi, shuningdek, bu jarayonda inson va uning hayot mazmuni alohida ahamiyatga ega sanaladi.

Prognostik (bashorat qilish) bosqich – oldindan biror vazifalar, topshiriqlarni bilish bosqichi. Buning uchun shaxsda mavjud bo’lgan tajribalar, kompetensiyalar va yuqori kasbiy malakalar muhim sanaladi.

Rag’batlantiruvchi bosqich – intellektual va axloqiy rivojlanish mas’uliyatlikni rag’batlantiruvchi psixologik omillar hisoblanadi. Mazkur tasnif etilgan mulohazalardan ko’rinadiki, mas’uliyat fenomeni dinamik xususiyatga ega bo’lgan va axloqiy rivojlanish bilan takomillashib boradigan psixologik jarayondir. L.Kolbergdan farqli o’laroq, tadqiqotchi K.Xelkamaning aytishicha, mas’uliyatlik tan olingan besh bosqichda emas, uning oxirgi ikki bosqichida namoyon bo’ladi. Ya’ni ushbu ikki bosqichda mas’uliyatlikni ta’minlovchi kognitiv va intellektual kamolot yakunlanadi.

Muallifning nazaricha, «Mas’uliyatlik» insonning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi hamda ularni ongli harakatlarga almashinuvini ta’minlovchi ko’prikdir.

Xorij psixologiyasida mas’uliyat fenomenini psixologik jihatdan asoslashga xizmat qiluvchi ko’plab tadqiqotlar mavjud. Shulardan, A.Banduraning ijtimoiy ta’lim nazariyasi o’ziga xos tadqiqot sanaladi. Muallifning aytishicha, shaxsda mas’uliyatlikning namoyon bo’lishi tashqi vaziyatlar natijasi hamda sabablarga bog’liq sanaladi. Ya’ni mas’uliyatni anglash muvaffaqiyatsizlikni tushunishdan boshlanadi. Muvaffaqiyatsizlik o’z harakatlarini tartibga solish, o’z-o’zini boshqarish, ichki nazoratning ortishi, keyingi vaziyatlarga tayyor turish kabilarga javob beruvchi psixologik jarayondir. Shu orqali shaxsning tashqi muhit talablariga bo’lgan munosabatlari baholanadi.

Ta’kidlash joizki, kognitiv nazariya ta’limotida ham mas’uliyat fenomenini asoslashning o’ziga xos psixologik g’oyalari aks etgan. Mazkur ta’limotning yetakchi vakillaridan G.Olportning izlanishlari bunga yaqqol misoldir. Muallifning nazaricha, mas’uliyatlik sifatida insonda o’z hayotini rejalashtirishdan boshlanadi. Ya’ni refleksivlik bu mas’uliyatni his etishning eng muhim omilidir. Ushbu fikr-mulohazalardan ko’rish mumkinki, shaxsda mas’uliyatlikning namoyon bo’lishi «Men»ning nazorati orqali tartibga solinadi. Shaxsga xos mas’uliyatlik A.Maslouning asarlarida ham keng talqin etilgan bo’lib, muallif mas’uliyat fenomenini sevgi, do’slik, sheriklik tushunchalari bilan tavsiflashga harakat qiladi. Ya’ni faoliyatda sheriklik bu – nafaqat o’z manfaati uchun, balki boshqalarning ham manfaati uchun javobgar bo’lishlikdir.

Yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotchi olimlarning ilmiy izlanishlari, qarashlari, fikr-mulohazalarini e’tiborga olgan holda talabalarda «Subyektiv lokal nazorat xususiyatlarini aniqlash» va «Kasbiy irodaviy-mas’uliyat sifatlari o’rganish» metodikalarini o’tkazdik hamda olingan natijalar tahlil qilindi.

Talabalarda kasbiy mas’uliyatlik va subyektiv lokus nazorat so’rovnomalaridan olingan natijalar shuni namoyon qildiki, shkalalar o’rtasidagi o’zaro aloqador faktorlar orasidagi korrelyatsiyalar ko’proq internal lokus nazorat shkalasi mas’uliyatlik ($r=0,858$, $r\leq 0,01$), tashabbuskorlik ($r=0,206$, $r\leq 0,05$), jur’atlilik ($r=0,884$, $r\leq 0,01$), matonatlik ($r=0,524$, $r\leq 0,01$), qat’iylik ($r=0,479$, $r\leq 0,05$) va g’ayratlik ($r=0,919$, $r\leq 0,01$) faktorlari bilan, eksternal lokus nazorat shkalasi mas’uliyatlik ($r=0,463$, $r\leq 0,05$), tashabbuskorlik ($r=0,266$, $r\leq 0,05$), jur’atlilik ($r=0,340$, $r\leq 0,01$), matonatlik ($r=0,446$, $r\leq 0,05$), g’ayratlik ($r=0,217$, $r\leq 0,05$) va qat’iylik ($r=0,733$, $r\leq 0,01$) faktorlari bilan, mas’uliyatlik shkalasi tashabbuskorlik ($r=0,914$, $r\leq 0,05$), jur’atlilik ($r=0,704$, $r\leq 0,01$), matonatlik ($r=0,684$, $r\leq 0,01$) va g’ayratlik ($r=0,859$, $r\leq 0,01$) faktorlari bilan yuqori darajada korrelyatsion aloqalarga kirishganligi namoyon bo’lgan. Shuningdek, tashabbuskorlik

shkalasi jur’atlilik ($r=0,549$, $r \leq 0,01$), matonatilik ($r=0,915$, $r \leq 0,01$), qat’iylik ($r=0,354$, $r \leq 0,05$) va g’ayratilik ($r=0,307$, $r \leq 0,05$) faktorlari bilan, jur’atlilik shkalasi matonatilik ($r=0,349$, $r \leq 0,05$), qat’iylik ($r=0,491$, $r \leq 0,05$) va g’ayratilik ($r=0,642$, $r \leq 0,05$) faktorlari bilan, matonatilik shkalasi qat’iylik ($r=0,661$, $r \leq 0,05$) faktorlari bilan, qat’iylik shkalasi g’ayratilik ($r=0,642$, $r \leq 0,01$) faktorlar orasida yuqori darajada korrelyatsion aloqalarga kirishganligi namoyon bo’lgan.

Jadval 1.

Kasbiy irodaviy-mas’uliyat sifatleri va subyektiv lokal nazorat xususiyatlari o’rtasidagi korrelyatsion bog’lanish natijalari
(K.Pirsonning r-korrelyatsiyasi bo’yicha)

Shkalalar	Internal	Eksternal	Mas’uliyatlilik	Tashabbuskorlik	Jur’atlilik	Matonatilik	Qat’iylik	G’ayratilik
Internal	1	0,135	0,858**	0,206*	0,884**	0,524**	0,479*	0,919***
Eksternal		1	0,463*	0,266*	0,340*	0,446*	0,733**	0,217*
Mas’uliyatlilik			1	0,914***	0,704**	0,684**	0,118	0,859*
Tashabbuskorlik				1	0,549**	0,915***	0,354*	0,307*
Jur’atlilik					1	0,349*	0,491*	0,642*
Matonatilik						1	0,123	0,661**
Qat’iylik							1	0,642**
G’ayratilik								1

Izoh: * $p \leq 0,05$, ** $p \leq 0,01$, *** $p \leq 0,001$.

Ijtimoiy ta’lim nazariyasining yana bir vakili J.Rotterning so’zlariga ko’ra, mas’uliyatlilik sifatini o’rganish, avvalo, insondagi lokus nazorat mexanizmini o’rganishdan boshlanadi. Ushbu ta’limotga muvofiq, insonlar ikki toifaga bo’linadi. Birinchi toifa kishilari mas’uliyatdan yiroq turuvchi shaxslar sanalib, ular sabablarni tashqaridan qidirishadilar. Ikkinchi tipga mansub kishilar esa, mas’uliyatli shaxslar sanaladi. Ular har qanday sabab – oqibatlarini o’zlaridan, o’z imkoniyatlari va yutqularidan qidirishadilar. Biroq ba’zi mualliflar, lokus nazorat mexanizmlarini mas’uliyatga tenglashtirishga qarshi chiqadilar. Ya’ni faqatgina erishilgan yutuqlar va sabablarni qidirish mas’uliyatlilikni asoslash uchun yetarli emas. Buning uchun insonga xos tiplar masalasini ham tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Talabalarda kasbiy mas’uliyat va xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari ularning kelgusidagi faoliyat samaradorligini ta’minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Oliy ta’lim tashkilotlariga o’qishga qabul qilish mezonlari tarkibiga abituriyentlar organizmining imkoniyat (layoqat)larini, intellekt darajasini, kasbiy yo’nalganligi va mas’uliyati hamda bilimni tekshirish, talabalarda uchrayotgan «savodsizlik», «uddalay olmaslik», «diplom olish uchun o’qish», «o’qishni ko’chirish va qayta tayyorlashga ehtiyoj sezish», motivatsiya, refleksiya va kasbiy mas’uliyatning passivligi kabi salbiy holatlarning oldini olish hamda uni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Xulosa o’rnida talabalar kasbiy mas’uliyati shakllanishining individual-psixologik ko’rsatkichlari «muammodan qochish», «ijtimoiy qo’llab-quvvatlashga moyillik», «samimiylilik», «eksternal lokal nazorat», refleksiya, axloqiy-etik mas’uliyat, altruistik mas’uliyat, axloqiy-etik qadriyatlar, muammoni yechish, tanqidiy tafakkur, internal lokal nazorat, mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik, matonatilik va g’ayratilik kabi shaxs sifatlarining namoyon etilishi bilan belgilanadi va baholanadi.

Adabiyotlar:

1. Бандура А. Теория социального научения. – СПб.: Евразия, 2000. – 320 с.
2. Бессмертная С.В. Психологические детерминанты ответственности студентов вуза: дис. канд. психол. наук: 19.00.01 / Бессмертная Светлана Викторовна. – Ставрополь, 2006. – 184 с.
3. Дементий Л.И. К проблеме меры ответственности / Л.И.Дементий // Личность. Культура. Общество. – 2004. – № 3 (№ 23). – С. 264-274.
4. Маслоу А. Мотивация и личность. 3-е изд. – СПб.: Питер, 2003. – 352 с.
5. Муздыбаев К. Ответственность личности в производственном коллективе. // Социально-психологические проблемы производственного коллектива. М., вт. Изд. «Образования» 2007. – 284 с.

6. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка / С.И.Ожегов, Н.Ю.Шведова. – 4-е изд., доп. – Москва: Азбуковник, 2000. – 940 с.
7. Олпорт Г. Становление личности: Избр. труды / Пер. с англ. М., 2002. – 462 с.
8. Пиаже В.Ж. Логика и психология. // Избранные психологические труды. 1. М., 1997. – С. 583.
9. Прядеин В.П. Комплексное исследование ответственности как системного качества личности: Дисс. д-ра психол. наук: 19.00.01: Екатеринбург, 1999. – 299 с.
10. Психолого-педагогический словарь. под ред. Е.С.Рапацев. Издательство: Современное Слово, 2006. – 938 с.
11. Салливан Г., Роттер Дж., Мишел У. Теория межличностных отношений и когнитивные теории личности; Прайм-Еврознак – Москва, 2007. – 128 с.
12. Фрейд З. Я и Оно: Сочинения / З.Фрейд. – М.; Харьков: ЭКСМО Пресс; Фолио, 2000. – 1040 с.
13. Фромм Э. Величие и ограниченность Фрейда. М., 2000. – 266 с.
14. Хорни Карен Новые пути в психоанализе / Карен Хорни; пер. с англ. В.В.Старовойтова; под. ред. А.М.Боковикова. – М.: «Канон» РООИ «Реабилитация», 2014. – 400 с.
15. Helkama K. Development of attribution of responsibility in ontogenesis // Problems of personality psychology. М., 2002. – P. 148 – 154
16. Kohlberg Lawrence. The Claim to Moral Adequacy of a Highest Stage of Moral Judgment // Journal of Philosophy, USA, 2007. – PP. 63.
17. Rotter J.B. Generalized expectancies for internal versus external control of reinforcement // Psychological monographs: General and app. 2006. –PP. 80.

OLY TA’LIM MUASSASALARIDA “MUHANDISLIK GRAFIKASI” FANINI O‘QITISHNING IJTIMOY-TA’LIMIY ZARURIYAT SIFATIDAGI BUGUNGI TAHLILI

*Xasanova Marxabo Nosirovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti tayanch doktoranti*

Maqolada texnik oliy ta’lim maskanlarida muhandislik grafikasi fanining o’rni, fanni o’qitishning ijtimoiy-ta’limiy zaruriyat sifatidagi bugungi holati hamda uning o’qitish metodikasini yanada takomillashtirish masalalari yoritilgan. Jumladan, muhandislik grafikasini o’qitishda bugungi kunda qo’llaniladigan zamonaviy axborot texnologiyalari tahlil qilinib, ulardagi afzalliklar va kamchiliklar ko’rib chiqilgan va fanni o’qitish metodikasini yanada takomillashtirish maqsadida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun qo’shimcha pedagogik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: muhandislik grafikasi, masofaviy ta’lim, grafik topshiriqlar, elektron platforma.

СОВРЕМЕННЫЙ АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ НЕОБХОДИМОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА “ИНЖЕНЕРНАЯ ГРАФИКА” В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

В статье рассматривается текущее положение предмета “Инженерная графика” в технических высших учебных заведениях, подчёркивается его социально-образовательная значимость, и обсуждаются вопросы дальнейшего совершенствования методики преподавания. В частности, проводится анализ современных информационных технологий, используемых при обучении инженерной графике, выявляются их преимущества и недостатки, и предлагаются дополнительные педагогические рекомендации для эффективного использования информационных технологий в целях улучшения методики преподавания.

Ключевые слова: инженерная графика, дистанционное обучение, графические задания, электронная платформа.

MODERN ANALYSIS OF THE SOCIAL AND EDUCATIONAL NECESSITY OF TEACHING “ENGINEERING GRAPHICS” SUBJECT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

The article discusses the current status of engineering graphics in technical higher education institutions, emphasizing its socio-educational significance, and addresses the issues of further improving the teaching methodology. In particular, an analysis of modern information technologies used in teaching engineering graphics is conducted, highlighting their advantages and disadvantages, and additional pedagogical recommendations are proposed for the effective use of information technologies to enhance teaching methodology.

Key words: engineering graphics, distance learning, graphic assignments, electronic platform.

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida har qanday mamlakatning raqobatbardoshligi va iqtisodiy taraqqiy etganlik darajasi ko’p jihatdan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydigan ta’lim jarayonining samarali tashkil etilganligiga bog’liq. Ayniqsa, bu borada oliy ta’lim maskanlarida amalga oshirilayotgan samarali islohotlar dolzarb hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida: “milliy elektron ta’lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta’lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog‘ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o‘quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish” masalalari o‘z aksini topgan [1].

Ta’limda o’qitishning sifatini oshirish so‘zsiz yangi o’qitish usullaridan qanday foydalanishga bog’liq bo‘lmoqda. Yangi o’qitish usullaridan foydalanishda talaba doimiy ravishda izlanishi va harakatda bo‘lishi lozim, ya’ni berilgan ma’lumotlarni qabul qilib olishi, qayta ishlashi va olgan bilimlarini aniq masalalar echishda qo‘llay olishi lozim. O’qitishning ma’ruza, amaliyot, laboratoriya va mustaqil ta’lim shakllarida

axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi tezlik bilan o‘z samarasini beradi. Masalan, laboratoriya mashg‘ulotlarida virtual stendlarning qo‘llanilishining o‘zi, albatta, mashg‘ulotning sifatli tashkil etilishiga asos bo‘ladi. Albatta, hozirgi davrda ta‘lim jarayonlarida axborot texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Bu ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ma‘lumki, elektron resurslar turli ko‘rinishdagi o‘quv materiallarni o‘z ichiga oladi. Albatta, elektron resurslar amaliyot darslarida va mustaqil ta‘limda samara bermoqda. Ulardan foydalanish talabalarning ijodiy salohiyatini, tafakkurini rivojlantiradi. O‘z o‘rnida sifatli elektron resurslar yaratishda zamonaviy dasturlash tillaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Elektron resurslar ta‘limni takomillashtirish vositasi hisoblanadi.

Muhokama. Ta‘lim sifatini oshirishda ijobiy ta‘sir etuvchi ushbu axborot texnologiyalarning xilma-xilligi bizni oliy ta‘lim tizimida muhandislik grafikasi fanini o‘qitish metodikasini yanada takomillashtirishga bag‘ishlangan taqdiqot olib borishga ilhomlantirdi. Ilmiy va pedagogik tadqiqotlar tahlili ta‘limda elektron ta‘lim resurslari va platformalar yaratish va foydalanish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilganligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, ta‘limiy onlayn platformalar zamonaviy dunyo ta‘limi hodisasi sifatida: tushuncha ta‘rifi (A.A.Smironova); oliy ta‘lim yo‘nalishidagi talabalarni masofaviy o‘qitish uchun skype onlayn platformasidan foydalanish (M.A.Kazakova); universitet o‘quv jarayonida Moodle elektron ta‘lim platformasidan foydalanish imkoniyatlari (G.S.Goloshumova., O.Ch.Chernova); elektron ta‘lim resurslarini shakllantirish (O.V.Zaytseva); elektron ta‘lim platformalaridan foydalanish; afzalliklari va kamchiliklari (S.A.Tyax., S.V.Atanova., L.V.Dvoryashina); chet tillarini o‘qitishda Moodle virtual ta‘lim platformasidan foydalanish istiqbollari (T.Dobrdina) va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan hamda yo‘nalishga muvofiq ilmiy tavsiyalar berilgan.

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida, xususan, texnik yo‘nalishdagi oliy ta‘lim muassasalarida “Muhandislik grafikasi” faniga bag‘ishlangan mashg‘ulotlar juda ahamiyatli hisoblanadi va odatda quyi kurs talabalariga o‘qitiladi. Ushbu yo‘nalishdagi talabalarni o‘qitish jarayonida grafik savodxonlik muhim o‘rin tutadi. Muhandislik grafikasi fani talabalarni fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishga hamda ijodiy fikrlashga yordam beradi. Toshkent arxitektura-qurilish universitetida talabalarga muhandislik grafikasi fanini o‘qitishning umumiy holatini quyidagicha ifodalash mumkin:

- muhandislik grafikasi TAQIning barcha ta‘lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan majburiy fan hisoblanadi. U, asosan, 1-2-kurs talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, jami 60 soatdan iborat;
- muhandislik grafikasi fani bo‘yicha universitetda ham nazariy, ham amaliy mashg‘ulotlar olib boriladi. Amaliy mashg‘ulotlar olib borish uchun maxsus jihozlangan xonalar ajratilgan. Bu esa talabalarga amaliy ko‘nikmalarni egallashga imkon beradi;
- ta‘lim jarayonida asosiy e‘tibor amaliy ko‘nikmalarga qaratiladi, chunki kelgusi kasbiy faoliyatda talabalar ushbu ko‘nikmalarga tayanadilar;
- fan bo‘yicha o‘quv adabiyotlari va qo‘llanmalar asosan chet ellardan keltiriladi. Chunki, ayrim mavzular yuzasidan o‘zbek tilidagi adabiyotlar yetishmaydi;
- universitetning ta‘lim jarayonlarida zamonaviy interfaol usullardan foydalanish cheklangan bo‘lib, hozirgacha an‘anaviy yondashuv ustunlik qilmoqda;
- talabalarning mustaqil ta‘lim olishi va o‘z ustida ishlashi ham talab darajasida emas.

Shu bois muhandislik grafikasi fanini o‘qitish sifatini yanada takomillashtirish uchun ba‘zi jihatlarni qayta ko‘rib chiqish lozim. D.G.Jumayev, M.A.Xayitovlarning “Oliy o‘quv yurtida muhandislik grafikasini o‘rganish xususiyatlari” mavzusidagi tadqiqotlari muhandislik grafikasini o‘rganishda talabalar duch keladigan qiyinchiliklar muhokamasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bu qiyinchiliklarni yengib o‘tish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Xususan, maqolada ikkita asosiy muammo ajratib ko‘rsatilgan. Bular: Muhandislik grafikasi asoslarini tushunish qiyinligi hamda talabalarda fazoviy tasavvurning rivojlanmaganligi ta‘kidlangan. Mualliflarning fikriga ko‘ra, “O‘qituvchilar ba‘zida o‘zlarining to‘liq imkoniyatlarini ta‘lim jarayoniga sarflay olmaydilar, chunki 2-3 oy ichida dasturdagi barcha mavzularni talabalarga tushuntirib, malakaviy talablarni yakuniga yetkazishlari kerak bo‘ladi. Semestr tugashiga yaqin qolganida esa faqat mavjud imtihon nuqtayi nazaridan muhim bo‘lgan bir nechta mavzularga e‘tibor qaratadilar. Shu o‘rinda talabalar ham faqat imtihondan o‘tish uchun harakatda bo‘ladilar. Talabalarda fanning asosini tushunishmaganliklari sababli murakkab masalalarni yechishda muammolar vujudga keladi. Talabalardagi fazoviy tasavvurning rivojlanmaganligi esa ularga muhandislik grafikasini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydigan texnik obyektlarni tasavvur qila olish va vizuallashtirish imkoniyatini chegaralab qo‘yadi” [4].

M.S.Pakirovaning tadqiqotlarida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda masofaviy ta‘limni joriy etish bo‘yicha bir qator yangi yondashuvlar taklif qilingan. Masofaviy ta‘limning muhim afzalliklarini yoritib bergan hamda uning muhandislik grafikasi faniga tatbiq etilishi lozimligini ta‘kidlagan. Muallifning fikriga ko‘ra, “Masofaviy kurslar zamonaviy hayot talabalariga javob beradi, talabalar vaqtini tejashga yordam beradi, ular deyarli har qanday shaxs uchun interaktiv va samaralidir, shuningdek, bir qator muhim

pedagogik vazifalarni hal qilishga imkon beradi: ta’lim maydonini yaratish, talabalarning kognitiv mustaqilligi va faolligini shakllantirish, tanqidiy fikrlash, bag’rikenglik, turli nuqtayi nazarlarni konstruktiv muhokama qilishga tayyorlash. Qulayligi nafaqat uydan chiqmasdan o’qishning mumkinligi, balki talabalar o’zlarining shaxsiy sharoitlari va ehtiyojlariga qarab o’qish tezligini o’zlari belgilashlari, mashg’ulotlar vaqti va davomiyligini rejalashtirishlari, doimo o’qituvchi bilan aloqada bo’lishlari, ta’lim jarayonidagi eng so’nggi axborot yutuqlari va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishlari mumkinligidadir” [8].

Sh.M.Sindarova o’z tadqiqotlarida interfaol usullar va innovatsion dasturiy vositalar muhandislik grafikasi fanini chuqur egallashga, talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi, ayniqsa, 3D modellashtirish dasturlaridan foydalanib o’qitish talabalarning fazoviy tasavvurini kengaytirib, ularning ijodkorlik darajasini yuksaltirishi haqida ilmiy izlanish olib borgan. Muallif tadqiqotda Ta’lim standartlarini yangilangan kasbiy standartlar asosida shakllantirish va yangilash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. [10].

A.A.Dryuchenko o’zining “Kasb-hunar talimi muhitida muhandis-texnologlarni o’qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari” nomli tadqiqot ishida muhandis-texnologlarni oliy kasbiy ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o’qitish masalalari tahlil qilingan. Muhandis-texnologlar tayyorlashda an’anaviy ta’lim usullaridan voz kechib, talabalarning faol mustaqil ta’lim faoliyatiga asoslangan yangicha yondashuv zarurligiga urg’u berilgan. Muallifning fikricha “Ta’lim jarayoni zamonaviy pedogogik nazariya tomonidan o’quvchilarni shaxsiy bilimlarni qurishga faol jalb etadigan hamda mavjud bilim manbalaridan foydalanish uchun dinamik jarayon deb tushuniladi”. Muallif tomonidan ushbu muammo yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar biz uchun katta qiziqish uyg’otadi va bizning tadqiqot ishlarimiz uchun muhim manba hisoblanadi [2].

S.X.Mardovning tadqiqot ishida muhandislik grafikasi tarkibidagi eng muhim bo’limlaridan biri bo’lgan qurilish chizmachiligi fanini o’qitish uchun ajratilgan soatlar hajmi kifoya emasligi, darsliklardagi ayrim mavzularning birlashtirib yuborilishi kabi kamchiliklarga e’tiborini qaratgan. Muallifning fikricha talabalarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishda kompyuter grafikasidan, aniqrog’i avtomatlashtirilgan loyihalash tizimiga asoslangan grafik dasturlardan foydalanish ijobiy natija beradi. Bu dasturlar yordamida pedagoglar talabalarda fazoviy tasavvurning qay darajada rivojlanganini aniqlash va ularning fazoviy tasavvurlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish imkoniga ega bo’ladilar. Shuningdek, tadqiqotda grafik dasturlar qurilish chizmachiligi bo’yicha mutaxassislar tayyorlash tizimida tub o’zgarishlarga olib kelayotgani, bu esa soha o’qitish metodikasini qayta ko’rib chiqishni taqozo etmoqda, degan fikr bildirilgan. Umuman olganda, muallif grafik dasturlarning qurilish chizmachiligini o’qitishdagi ijobiy imkoniyatlarini ta’kidlagan [6].

E.Nurmatov o’zining “Muhandislik va kompyuter grafikasi fanida ko’rgazmalilikni ta’minlashda intellektual ta’lim resurslaridan foydalanish texnologiyasi” nomli tadqiqotida muhandislik grafikasi fanlarini o’qitishda intellektual ta’lim tizimidan foydalanish ta’lim oluvchilarda topshiriqlarni taqsimlash, kuzatish va baholashni individuallashtirish hamda differentsiallashtirish, multimedia texnologiyalari orqali bilim olishga qiziqishni oshirish, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, o’quv materiallarini o’zlashtirish samaradorligini oshirish, murakkab jarayonlarni modellashtirish va kuzatish, kasbiy ko’nikma va malakalarni rivojlantirish kabi imkoniyatlarga yo’l ochadi, deb izohlaydi. Muallif tadqiqotida intellektual ta’lim resurslari(matnli, audio, video materiallar, animatsion ma’ruzalar, elektron ma’lumotnoma, bilimlar banki, elektron trenajyorlar, baholash vositalari)dan foydalanib, muhandislik grafikasi fanlarini o’qitishni tashkil etish lozimligini ta’kidlaydi [7].

Albatta, intellektual ta’lim tizimi muhandislik grafikasi fanlarini o’qitish sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ammo muhandislik grafikasi fanlarini o’qitishda yanada samaraga erishish uchun bizning fikrimizcha, ta’limda elektron manbalardan foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda bosqichma-bosqich joriy etish lozim. Tadqiqotchi A.A.Qahharov o’z tadqiqotlarida “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” fanini o’qitishda talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish muhim ahamiyatga egaligini, ammo ushbu fanga ajratilgan soatlar hajmi talabalarning chuqur bilim olishi va tasavvurlarini rivojlantirish uchun etarli emasligini hamda darslik va qo’llanmalardagi ayrim kamchiliklarni ham ko’rsatib o’tgan. Shu sababli muallif bu fan bo’yicha multimedia elektron qo’llanmalar, dasturiy vositalar yaratish va o’qitish jarayoniga tatbiq etish zarurligini, kompyuter grafikasi, animatsiyalar, “3D” modellar kabi vositalardan foydalanish talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirishga, mustaqil ijodiy fikrlashga yordam berishini ilmiy asoslab bergan [9]. Muallifning mazkur tadqiqoti grafik ta’lim sohasini yanada rivojlantirishga muhim omillardan biri bo’lib xizmat qiladi, deb o’ylaymiz.

D.I.Mamurovaning ilmiy tadqiqot ishida chizmachilik fanini kompyuter va axborot texnologiyalari asosida o’qitish ta’lim samaradorligini oshiradi, talabalarning ijodiy va intellektual faolligini rivojlantiradi (rivojlatirish yoritilgan). Bu esa pedagogik jihatdan muhim muammo hisoblanadi va chuqur o’rganishni talab

qiladi deb ta’kidlagan. Muallif chizma mahsulotini yaratishda “3D” texnologiyalarga asoslangan dasturiy tizimlardan foydalanish zarurligini ta’kidlaydi [5].

V.N.Timofeyev., Y.Y.Deminalarning tadqiqotlarida texnik oliy ta’lim muassasalarida muhandislik grafikasi fanlarini o’qitish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Mualliflar zamonaviy sharoitda muhandislik grafikasi fanlarini o’qitishning an’anaviy usullari etarli emasligini, o’quv jarayoni va dasturlarni yangilash zarurligi, muhandislik grafikasi fanlarini o’qitish sifatini oshirishda dasturiy ta’minotdan foydalanish muhim ahamiyatga egaligini ta’kidlashgan. Mualliflar onlayn kurslarning afzalliklari, maqsad va vazifalarini, onlayn kurs tarkibiga kiritiladigan elektron ta’lim resurslarini (darsliklar, videodarslar, amaliy mashg’ulot materiallari va b.) sanab o’tishgan [11]. Ushbu tadqiqot bizning tadqiqotimiz uchun ham nazariy, ham amaliy jihatdan foydali manba hisoblanib, uning xulosalari bizning pozitsiyamizni mustahkamlaydi.

Darhaqiqat, elektron darsliklar, videodarslar va amaliy mashg’ulot materiallari muhandislik grafikasini o’qitish samaradorligini oshirishga quyidagi yo’nalishlar bo’yicha ijobiy ta’sir ko’rsatadi:

– nazariy bilimlarni chuqur egallashga yordam beradi. Yaxshi tuzilgan darsliklar nazariy bilimlarni tizimli bayon eta oladi;

– ko’rgazmalilikni ta’minlaydi. Videodarslar murakkab mavzularni tushuntirishda qulay;

– amaliy ko’nikmalarni shakllantiradi. Amaliy mashg’ulot materiallari turli topshiriqlar orqali amaliy malakalarni hosil qilishga yordam beradi;

– mustaqil ishlash malakasini rivojlantiradi. Talabalar mustaqil ravishda ushbu resurslar bilan ishlashi ularning mustaqilligini oshiradi;

– qiziqishni oshiradi. Ko’rgazmali materiallar diqqatni jalb qiladi va qiziqishni oshiradi. Shu boisdan psixologlar qiziqish bilish jarayonini vujudga keltirish “mexanizmi” deb hisoblaydilar;

– individuallashtirish imkonini beradi. Har bir talaba o’ziga mos materiallar bilan ishlay oladi;

– vaqt tejraladi. Darsliklar nazariy ma’lumotlarni tejab beradi, videodarslar tezroq tushuntiradi.

E.N.Gromova., O.V.Fedorovalarning tadqiqotlarida masofaviy ta’limning afzalliklari va uni amaliyotga joriy etishdagi muammolar tahlil qilingan. Ularning fikrlariga binoan, masofaviy ta’lim texnologiyalarining rivojlanishi talabalarga bilimni baholashning zamonaviy vositalarini joriy etish imkonini beradi. Masofaviy o’qitishning ball-reyting tizimini tashkil etishda ham katta imkoniyat mavjud. Masofaviy ta’lim elementlarini ayrim fanlarga joriy etish ta’lim jarayoniga quyidagi ijobiy ta’sirlar ko’rsatadi:

– fan bo’yicha metodik bazani kengaytiradi;

– mavzuni chuqurroq o’rganishga imkoniyat yaratadi;

– bilimdagi bo’shliqlarni to’ldiradi;

– tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;

– jamoada hamkorlikda ishlashni o’rgatadi;

– ta’lim muammoli usullariga yangi yondashuvni vujudga keltiradi;

– talabalarda yangi ko’nikmalarini rivojlantiradi;

– raqamli ta’lim muhitida rivojlanishni o’rgatadi;

– individual o’qish traektoriyalarini qurishga imkoniyat yaratadi;

– axborotni qabul qilish qobiliyatini individual baholash imkoniyati yuzaga keladi;

– bilimlarni istalgan vaqtda, istalgan joyda olish imkoniyati yaraladi;

– zarurat bo’lganda mavzuga qayta murojaat qilish imkoniyati bo’ladi;

– o’qituvchi bilan talaba o’rtasidagi aloqa vaqtini ko’paytirishga imkoniyat yaraladi;

– mustaqil ishlarni tekshirish mumkin bo’ladi;

– onlayn maslahatlar tashkil etish mumkin bo’ladi;

– masofadan turib talabalar bilan semestr oralig’idagi o’zaro aloqaga chiqishga imkon yaraladi;

– o’quv materiallarining ko’rgazmaliligini ta’minlaydi;

– talabaga o’z ta’lim strategiyasini mustaqil tuzish ko’nikmalarini rivojlantiradi [3].

N.V.Vasina., S.V.Lobanovalar o’z tadqiqotlarida oliy ta’lim samaradorligini oshirishning zamonaviy yo’llarini tahlil qilishgan. Mualliflar zamonaviy axborot texnologiyalaridan, jumladan, elektron o’quv qo’llanmalardan, testlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi, deb hisoblaydilar. Tadqiqotchilar, ta’lim jarayoniga innovasion texnologiyalarni joriy etish zarur, chunki an’anaviy usullar bilan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash imkoni yo’qolmoqda, degan fikrlarni ham ilgari surishgan [12].

Fikrimizcha, olib borilgan tadqiqot ishlarida oliy ta’lim muassasalarida grafik fanlarni o’qitishdagi bir necha muammolariga e’tibor qaratilgan bo’lsa-da, ularni hal etish yuzasidan aniq takliflar etarli darajada bayon qilinmagan.

Birinchidan, muhandislik grafikasi murakkab fan hisoblanadi va uning o’ziga xos qiyinchiliklari mavjud. Talabalarning bu fan bo’yicha bilim va ko’nikmalarini rivojlantirish uchun faqatgina pedagogik

texnologiyalarni qo‘llashning o‘zi etarli emas. Buning uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalarining sifati, o‘qituvchilarning malakasi va talabalarning o‘ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olish muhim omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, multimedia vositalaridan foydalanish kabi umumiy tavsiyalar muhim bo‘lsa-da, ammo ularni amalga oshirish mexanizmlari bugungi kungacha to‘liq ishlab chiqilmagan.

Uchinchidan, masofaviy ta‘limning afzalliklari haqida gapirish bilan birga, uning kamchiliklari ham inobatga olinishi lozim. Ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlar talab qiladigan fanlar uchun masofaviy o‘qitish muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, ushbu muammolarni yanada chuqurroq o‘rganish va ularni hal etishga doir aniq takliflar ishlab chiqish maqsadida qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish talab etiladi.

Natijalar. Yuqoridagi tadqiqot ishlarini umumlashtirib tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning asosiy kamchiligi quyidagicha:

- Ko‘pgina tadqiqotlarda muammo atroflicha tavsiflangan, ammo uning echimiga yo‘naltirilgan amaliy takliflar etarli emas. Masalan, muhandislik grafikasi fanini o‘qitishdagi muammolar sanab o‘tiladi, ammo ularni bartaraf etish yo‘llari aniq ko‘rsatilmagan.

- Ba‘zi tadqiqotlarda muhandislik grafikasi fanini o‘qitishdagi ayrim jihatlarga urg‘u berilgan, ammo umumiy holat chuqur tahlil qilinmagan. Masalan, fazoviy tasavvurni rivojlantirish yoki ayrim dasturiy vositalarni qo‘llash kabi jihatlal alohida o‘rganilmagan.

- Aksariyat tadqiqotlarda taklif etilayotgan echimlar pedagogik tamoyillarga mos kelmaydi. Masalan, dasturlarni mexanik ravishda joriy etish ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi hisobga olinmagan.

- Ayrim tadqiqotlar nazariy xarakterga ega bo‘lib, ularda muammoning amaliy ahamiyati ko‘rsatilmagan. Bunday tadqiqotlarning mazmuni muhandislik grafikasi fanini o‘qitishdagi haqiqiy muammolar echimiga yo‘naltirilmagan.

- O‘tkazilgan tadqiqotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikasiya vositalaridan unumli foydalanish bo‘yicha tavsiyalar etarli emas.

Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarni kuzatish natijasida oliy ta‘lim muassasalarida ushbu fanni o‘qitishning ijtimoiy-ta‘limiy zaruriyati sifatidagi holatini quyidagicha izohladik:

- Jamiyatning to‘laqonli rivojlanishi uchun yuqori malakali texnik mutaxassislariga bo‘lgan talabni qondirishda muhandislik grafikasi fani eng muhim fanlardan biri hisoblanadi. Chunki texnika va texnologiyalarni rivojlantirish uchun yuqori malakali mutaxassislar kerak bo‘ladi. Ular esa asosan muhandislik grafikasi fanini samarali o‘qitish orqali tayyorlanadi. Shu tariqa bu fan mamlakatning texnik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

- Hozirgi zamon fan-texnika yutuqlari va innovasion texnologiyalarni yaratish uchun mutaxassislarda ijodiy salohiyat va konstruktorlik qobiliyatini shakllantirish zarur. Muhandislik grafikasi ana shu qobiliyatlarni rivojlantirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Bu fan orqali bo‘lajak mutaxassislarda nazariy hamda amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish orqali etuk mutaxassislar tayyorlashga imkoniyat yaratiladi.

- Jamiyatda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun, albatta, yuqori malakali mutaxassislariga talab katta. Xalq xo‘jaligi uchun savodli mutaxassislar tayyorlashda muhandislik grafikasi fani asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Bu fan bo‘lajak mutaxassis uchun zarur bo‘lgan nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Oqibatda bo‘lajak yosh mutaxassislar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga samarali hissa qo‘shadi.

- Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun texnologik jihatdan rivojlangan sanoat zarur. Buning uchun esa bugun jamiyatga yuqori texnologik tayyorgarlikka ega bo‘lgan savodli kadrlar kerak. Muhandislik grafikasi fani ana shunday kadrlarni tayyorlashdagi tarkibiy qismning bosh bug‘inidir.

- Zamonaviy mutaxassis, albatta, intellektual salohiyatli bo‘lishi lozim. Natijaga esa muhandislik grafikasi fanini o‘qitish jarayonida talabalarda mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirish orqali erishadi. Oqibatda, yuqori malakali mutaxassislar etishib chiqadi.

Tahlillar natijasi oliy ta‘lim muassasalarida “Muhandislik grafikasi” fanini o‘qitishda ayrim muammolar mavjudligicha qolganini ko‘rsatmoqda. Bular:

- Muhandislik grafikasi fani bo‘yicha o‘quv adabiyotlari va qo‘llanmalarining ma‘naviy jihatdan eskirganligi hamda davrga mos emasligi. Yangi lotin grafikasida yozilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining etishmasligi.

– Amaliy mashg‘ulotlar olib borish uchun zarur shart-sharoitlar (jihozlar, o‘quv xonalari, chizish materiallari)ning tanqisligi.

– Muhandislik grafikasi fanining o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog‘liqlikning sustligi. Ular o‘rtasida uzviylikning ta‘minlanmaganligi.

Mustaqil ta‘lim uchun vaqtning hamda talabani qo‘shimcha bilim olish imkoniyatlarining chegaralanganligi.

Muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda amaliy topshiriqlar va mashqlarni bajarish uchun zarur dasturiy ta‘minotning etishmasligi.

Xulosa. Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida muhandislik grafikasi fanini o‘qitish metodikasini yanada takomillashtirish zarurati vujudga keladi.

Muhandislik grafikasi fanini o‘qitishning asosiy maqsadi talabalarda grafik ishlar bajarish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdir. Odatda, muhandislik grafikasi kursi bir qator bo‘limlardan iborat bo‘lib, ularga asosan talabalar tomonidan grafik ishlar bajariladi. Grafik topshiriqlar oddiydan murakkabga qarab tuzilgan bo‘ladi, shu bilan birga har bir bo‘lim alohida baholanadi. Bunda har xil murakkablikdagi chizma va rasmlarni bajarish talab etiladi.

Bizning fikrimizcha “Grafik topshiriqlarning elektron platformasini yaratish vositasida muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasini takomillashtirish” mavzusida tadqiqot olib borilsa, quyidagi natijalarga erishish mumkin:

Muhandislik grafikasi fanini o‘qitishdagi dolzarb muammolar (masalan, talabalarda fazoviy tasavvurning rivojlanmaganligi, amaliy ko‘nikmalarning pastligi va hokazo) chuqur tahlil qilinadi.

- Ushbu muammolar echimi sifatida grafik topshiriqlar elektron platformasini yaratish taklif etiladi.
- Platforma orqali talabalarga turli xil grafik topshiriqlarni bajarish imkoniyati yaratiladi.
- Topshiriqlar tizimi talabani bilim darajasi va qiziqishiga mos ravishda shakllantiriladi.
- Platforma talabalarining mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.
- Elektron platforma orqali tezkor qayta aloqa tashkil etiladi.
- O‘qituvchi har bir talabani faoliyatini kuzatib boradi va zarur bo‘lganda tegishli tavsiyalar beradi.
- O‘quv jarayonini individualizatsiyalash va differentsiyalash imkoniyati yaratiladi.
- Muhandislik grafikasi fanini o‘zlashtirish samaradorligi oshadi.

Grafik topshiriqlar uchun maxsus elektron platforma yaratish orqali talabalarining bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy salohiyatini namoyon etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bunday platformada har xil murakkablikdagi topshiriqlarni bajarish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Yurtimizda muhandislik grafikasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, ammo bu fanning asosiy tarkibiy qismi hisoblangan grafik topshiriqlar uchun maxsus elektron platforma yaratilmagan. Shunday qilib, muhandislik grafikasi fanini o‘qitish sifatini yanada oshirish maqsadida grafik topshiriqlar elektron platformasini yaratish va amaliyotga joriy etish rejasi ilmiy tadqiqot sifatida diqqatga sazovor deb o‘ylaymiz.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида»ги ПФ-5847-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/4545884>.

2. Дрюченко А.А. Современные педагогические технологии обучения инженеров-технологов в контексте профессионального образования // ФЭС: Финансы. – М.: Экономика, 2009.–№. 12.–С. 25-28.

3. Громова Е.Н., Федорова О.В. Сопровождение инженерной дисциплины в дистанционной форме на образовательной платформе Moodle// Энергобезопасность и энергосбережение. – Москва, 2019. – №. 3. – С. 51-54.

4. Жумаев Д.Г., Хайытов М.А. Особенности изучения инженерной графики в высшем учебном заведении. – М.: Международный научный журнал «Вестник науки» № 12 (57).– Т.3. декабрь, 2022 г. – С. 77-82.

5. Мамурова Д.И. Чизмачилик фанини компьютер ва ахборот технологияларидан фойдаланиб ўқитиш жараёнини такомиллаштириш методикаси. 13.00.02 – Педагогика бўйича фалсафа доктори диссертациясининг автореферати. – Тошкент, 2022. – 52 б.

6. Мардов С.Х. Архитектура қурилиш чизмаларини ўқитишда график дастурлардан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш. 13.00.02 – Педагогика бўйича фалсафа доктори диссертациясининг автореферати. – Тошкент, 2022. – 51 б.

7. Нурматов Э. Мухандислик ва компьютер графикаси фанида кўргазмалиликни таъминлашда интеллектуал таълим ресурсларидан фойдаланиш технологияси// Общество и инновации. – Тошкент, 2023. – Т. 4. – С. 340-343.

8. Пакирова М.С. Использование дистанционных образовательных технологий для развития инженерного мышления при обучении инженерной графике// Научные исследования и инновации. – Пермь, 2020. №. 1. – С. 199-202.

9. Қахҳаров А.А. Чизма геометрия ва муҳандислик графикаси фанини ўқитишда талабалар фазовий тасаввурини мультимедияли компьютер технологиялари асосида ривожлантириш. 13.00.02 – Педагогика бўйича фалсафа доктори диссертациясининг автореферати. – Тошкент, 2020.– 42 б.

10.Sindarova Sh.M. Muhandislik grafikasi fanini o‘zlashtirishda zamonaviy dasturdan foydalanish orqali talabalar ijodkorligini rivojlantirish// Innovations in Technology and Science Education.– T., 2023. – №. 9. – P. 780-790.

11.Тимофеев В.Н., Демина Ю.Ю. Развитие методики преподавания инженерно-графических дисциплин в техническом вузе// Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – Новосибирск, 2020. – №. 2. – С. 116-119.

12.Васина Н.В., Лобанова С.В. Повышение эффективности преподавания дисциплины «Инженерная графика» при переходе на стандарты нового поколения // Известия Тульского государственного университета. Гуманитарные науки. – Тула, 2011. – №. 3. – С. 185-192.

**HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYANI
TAKOMILLASHTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**

*Xoliqov Ixtiyor Roziqovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Harbiy ta'lim fakulteti dotsenti
<https://orcid.org/0000-0002-5772-9367>*

Mazkur maqolada harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida pedagogik kompetensiyani takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar haqida so'z yuritiladi. Maqolada berilgan ma'lumotlarda pedagogik kompetensiyani takomillashtirish bo'yicha izlanishlar natijasi tahlil qilinib tegishli xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, struktura, kompetentlik, Innovatsion kompetentlik, pedagogning kasbiy kompetentligi.

**СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ВОЕННОГО ФАКУЛЬТЕТА**

В данной статье рассматриваются современные подходы к повышению педагогической компетентности студентов военного образования. В статье анализируются результаты исследований по повышению педагогической компетентности и приводятся соответствующие выводы.

Ключевые слова: компетенция, структура, компетентность, инновационная компетентность, профессиональная компетентность педагога.

**MODERN APPROACHES TO IMPROVING THE PEDAGOGICAL COMPETENCE OF
MILITARY FACULTY STUDENTS**

This article examines modern approaches to improving the pedagogical competence of military education students. The article analyzes the results of research on improving teaching competence and provides relevant conclusions.

Key words: competence, structure, innovative competence, professional competence of a teacher.

Kirish. So'ngi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Oliy ta'lim tizimida, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Oliy ta'lim tizimida malakali kadrlarni tayyorlab yetishtirib berish, kadrlar kompetentligiga, zamonaviy bilimlarni egallaganlik darajalariga va uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism. Ta'limni modernizatsiyalash davrida yuzaga kelgan pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bo'yicha ko'pgina sonli nashr ishlarining mavjudligiga qaramay, «innovatsion kompetentlik» tushunchasi tuzilish va mazmuni jihatidan, strategik va tizimli tavsiflarda yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

«Innovatsion kompetentlik» toifasining o'zi esa batafsil tahlilni talab etadi. Bugungi kunda «innovatsion kompetentlik» tushunchasi nafaqat tadqiqotchilarning turli talqinlariga ega bo'lmoqda, balki qator holatlarda mazmuni bo'yicha o'xshash yoki yaqin tushunchalar bilan almashtirilmoqda ham. Pedagogik lug'atlar va ensiklopediyalar ham «innovatsion kompetentlik» atamasiga ega emasliklarini inobatga olish lozim.

«Innovatsion kompetentlik» tushunchasi biz tomonimizdan “pedagogning kasbiy kompetentligi” umumiy ko'rinishdagi tushunchasi va «innovatsion faoliyat» tushunchasi orqali qaraladi.

V.A.Slastenin tahriri ostidagi pedagogikaning birinchi darsligida quyidagi ta’rif berilgan: “Pedagogning kasbiy kompetentligi tushunchasi, uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining birligini ifodalaydi va uning mahoratini tavsiflaydi”.

Tadqiqotchilar B.C.Lazarev va B.P.Martirosyanlarning fikrlariga ko‘ra «innovatsion faoliyat» tushunchasi istalgan va mavjudning o‘rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish uchun xizmat qiladi, bu esa muayyan yangiliklarni kiritishni talab etadi (innovatsion o‘zgarishlarni).

Ta’lim muassasalarining pedagogik va boshqaruv tizimlarida maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgarishlar amalga oshiriladigan, uning samaradorligini oshirishga olib keladigan faoliyat innovatsion deb ataladi.

Tadqiqotchilar, innovatsion faoliyat, agar u ta’limiy faoliyatga nisbatan muayyan funksionalni bajarsa, o‘zining vazifasiga javob berishini ta’kidlaydilar:

- pedagogik tizimdagi o‘zgarishlarga bo‘lgan (muammolarni aniqlash) dolzarb ehtiyojlarni aniqlash (ta’limiy dasturlar, texnologiyalar, kadrlar, moddiy-texnik baza va boshqalar);

- ta’limiy faoliyatning qandaydir sohalaridagi sifatni oshirishi mumkin bo‘lgan mavjud ishlanmalarni aniqlash (pedagogik tizimni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash);

- yangiliklarni mustaqil ishlab chiqish;

- istalgan kelajakni loyihalash va u sari borish; xususi yangiliklarni loyihalash;

- yangiliklarni amaliy joriy etish.

Pedagogik kasbiy tayyorgarligi mazmunida bo‘lajak pedagogni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashni ta’limni modernizatsiyalash sharoitlarida nazariy va amaliy tayyorgarlik hamda ta’lim, tarbiya sohasidagi yangiliklarni inobatga olib kasbiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatining umumiyliigi sifatida tushunish lozim. Bo‘lajak pedagogning innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarligini shakllantirish jarayonining natijasi, uning innovatsion kompetentligi hisoblanadi.

«Kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalar talqiniga turlicha yondashuvlarning mavjudligiga qaramasdan biz quyidagiga asoslanamiz: kompetensiya – bu mutaxassisning shaxs sifatlaridan qat’iy nazar uning professionalligining umumiy tavsifi. U rasmiy, uning bevosita tashuvchisidan alohida mavjud bo‘ladi va egallanishiga muhtoj bo‘ladi. Aksincha, kompetentlik – bu shaxsiy egallangan kompetensiya, “insonning kasbdagi” ifodalanishi. Mazkur holatda professionallik, mahorat bilan bevosita aloqa kuzatiladi. Innovatsion kompetentlik ostida biz pedagogning shaxsiy va kasbiy mahoratining uning innovatsion faoliyatida namoyon bo‘lishining muayyan darajasini tushunamiz.

Boshqacha aytganda, innovatsion kompetentlik, pedagogning samarali yangiliklardan foydalanib kasbiy faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining natijasidir.

Pedagog innovatsion kompetentligining mazmunini uning kasbiy kompetensiyalari kontekstida yangilik bilan ishlash uchun kompetensiyalar ko‘rinishidagi (tanishish, egallash, amalga oshirish) kasbiy pedagogik faoliyatning ta’limiy, tarbiyaviy, ilmiy-tadqiqotchilik, tashkiliy- metodik turlari kontekstida tasavvur qilish (ifodalash) mumkin. Innovatsion kompetentlik pedagog kasbiy tayyorgarligining quyidagi asosiy tashkil etuvchilariga taalluqli:

- kasbiy tayyorgarlikning qadriyatli- mazmunli yo‘nalishlari;

- kasbiy tayyorgarlik jarayonining tuzilishi;

- kasbiy tayyorgarlik jarayonining mazmuni;

- kasbiy tayyorgarlikning pedagogik vositalari;

- kasbiy tayyorgarlikning pedagogik sharoitlari.

«Ijtimoiy-kasbiy kompetentlik», «mehnat kompetentligi», «pedagogik kompetentlik», «ta’limiy kompetentlik», «madaniy kompetentlik» va «ijtimoiy-madaniy kompetentlik» kabi tushunchalarga murojaat etish hamda «innovatsion kompetentlik» tushunchasining ahamiyatli tavsiflari bilan taqqoslash innovatsion kompetentlik mazmuni va tuzilishini ko‘rib chiqishga to‘rtta yondashuvni aniqlashga imkon berdi.

Birinchi yondashuv (funktional) ta’limiy jarayonni qurish va tashkil etish amaliyoti bilan bog‘liq. S.N.Novikov, L.S.Podimova, V.A.Slastenin, V.A.Xutorskiy ishlarida pedagogning innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligining tizimi loyihalash-me’yoriy munosabatda, ya’ni uni qurishga va OTMda ta’lim jarayonini tashkil etishga me’yoriy talablar nuqtayi nazaridan tahlil etiladi.

Funktional yondashuv tarafdorlari innovatsion kompetentlikni kasbiy tayyorgarlikni tashkil etuvchi tashkiliy-pedagogik sharoitlar orqali amalga oshiriladigan qadriyatli-mazmunli yo‘nalishlarni va samarali kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish mexanizmi sifatida talqin etadilar. Ta’lim olish, talabaning asosiy mehnati hisoblanishi, «innovatsion kompetentlikni shakllantirish» esa ta’limni davom ettirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish ko‘rinishidagi yagona ta’limiy jarayonning tashkiliy qismi sifatida qaralishi sababli bo‘lajak pedagog innovatsion kompetentligini shakllantirishni ta’lim, tarbiya, rivojlanish, kasbiy takomillashish; mustaqil ta’lim; akademik mobillik dasturlarida ishtirok etish va ilmiy maktablar, ta’limdagi innovatsiyalar bilan tanishish; grantlarda ishtirok etish; maxsus o‘quv dasturini

bajarish (maxsus magistirlar dasturlari); tanishuv, ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotini o‘tash; shaxsiy ta’limiy faoliyatini boshqarish; ta’limning shaxsiy ta’limiy yo‘nalishidan borish; tajriba almashish; bo‘lajak pedagogning o‘z-o‘zini aktuallashtirishdagi faolligi va yaxshi ishga joylashish imkoniyatiga ega bo‘lish va boshqalar kabi faoliyat turlari bilan bog‘laydilar.

S.N.Novikovning fikriga ko‘ra, aynan noyob (innovatsion xarakterdagi) ta’lim oliy ijtimoiy maqom yo‘lidagi asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. Insonga o‘zining qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbni maqsadga muvofiq egallash va mos ravishda yaxshi ta’lim olib, ijtimoiy pog‘onada yuqori ko‘tarilishga imkon beradi. Bunda innovatsion kompetentlik unga erishishning sifatligini ifodalaydi. Shunga ko‘ra ta’limda innovatsion kompetentlik ahamiyatli darajada talaba shaxsining ijtimoiy mobilligiga bog‘liq bo‘ladi va uni o‘z-o‘zini amalga oshirishga yordam beradi.

Innovatsion kompetentlik, ta’lim jarayonining tashkiliy qismi hisoblanib, qator vazifalarni amalga oshiradi: talabalarning yangi ijtimoiy va ta’limiy muhitga moslashishlariga, kasbiy hamda umummadaniy qobiliyatlarini ifodalashga, mahoratni va zamonaviy global olamda o‘z-o‘zini amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlarni egallashga ko‘maklashadi.

Samaradorlik, ma’lumki, insonning ijtimoiy ahamiyatli mahsulotlarni tayyorlash (buyumlar, xizmatlar) qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur holatda innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagogning innovatsion faoliyatning asosiy vositalarini, shuningdek, faollik, samaradorlik va mahsuldorlik jihatidan egallaganligiga ko‘ra baholanadi. Bunda tahlilning asosiy birliklari pedagog innovatsion faoliyatining vositalari (texnologiyalar, usullar); pedagogning innovatsion faolligi; pedagog innovatsion faoliyatining samaradorligi hisoblanadi.

Ikkinchi yondashuv (shaxsiy) vakillari YE.I.Artamonova, L.K.Grebenkina, L.P.Illarionova, L.S.Podimova hisoblanib, ular innovatsion kompetentlikni shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi vositasi sifatida ta’riflaydilar. Pedagogni innovatsion faoliyatga tayyorlash shaxsiy-strategik jihatdan tahlil etiladi va bunda shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishga mavjud, dolzarb hamda potensial imkoniyatlari va qobiliyatlariga e’tibor qaratiladi.

Tadqiqotchilar «innovatsion kompetentlik» ni, avvalo, individumning o‘z-o‘zini amalga oshirish usuli sifatida qaraydilar va uning asosiy rolini pedagogning shaxsiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishda ko‘radilar. Mazkur yondashuv tarafdorlari «innovatsion kompetentlik» keng dunyoqarashga, yuqori intellektual darajaga ega bo‘lgan, kasbiy muloqotga tayyor yosh insonlarning shakllanishiga yordam beradi; bilimlarni egallash va uzatish uchun qulay sharoitlarni ta’minlaydi va madaniy hamda intellektual almashish vositasi hisoblanadi; talabaning bilim, malaka va qobiliyatlarini rivojlantiradi; uning uzluksiz ta’limga va mustaqil ta’limga intilishini rag‘batlantiradi; madaniy va akademik tajriba almashish va hamkorlikka, shaxsiy kapitalning o‘sishiga, bo‘lajak mutaxassisning ta’limni yakunlaganidan so‘ng jamiyat hayotida muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun yangi ko‘nikma va malakalarni egallashga ko‘maklashadi deb hisoblaydilar.

«Innovatsion kompetentlik», shuningdek, tanlangan biografiya (avtobiografiya) shakli hisoblanishi va o‘zining ijodiy ifodalanishida erkin insonning shakllanishiga yordam berishi mumkin.

«Innovatsion kompetentlik» insonning o‘zgaralar atrofidagi sharoitda ishlay olishi, o‘zini nazorat qilishi va boshqalarning nazoratlari ostida bo‘lmaslik, xatarlarni yangi harakatga undovchi kuchlar sifatida qabul qilib, hayotiy vaziyatlarga refleksiv usulda ta’sir eta olishiga ishonchini oshiradi.

Bilishga oid qiziqish va bilishga oid faollik talabalarning shaxsiy o‘sishlari va mustaqilliklariga turtki beradi.

Innovatsion kompetentlik, shunga ko‘ra shaxs chegaralarini kengaytiradi, aqliy qobiliyatini qo‘zg‘atadi va bilimlarining umumiy darajasini oshiradi. Bundan tashqari, innovatsion kompetentlik – bu fikrlar, g‘oyalar va metodlar mobilligidir. Bu shaxs intellektual imkoniyatlari mavjudligining ajralmas shakli bo‘lib, uning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy o‘zaro munosabatlar va o‘zaro aloqalar muhitidagi harakatini amalga oshirishini aks ettiradi. Innovatsion kompetentlik talaba va OTMning hamkorligi chegaralarini kengaytiradi va uni vaqt bo‘yicha uzaytiradi.

Ikkinchi yondashuv vakillari tomonidan berilgan ta’riflarga ko‘ra, innovatsion kompetentlik ko‘pincha shaxsning o‘z-o‘zini takomillashtirishi tushunchasi bilan almashtirilishi, bunda talabalarning innovatsion kompetentliklarini amalga oshirishning aniq mexanizmlari va sharoitlarini inobatga olinmasligini ta’kidlash lozim. Talabaning innovatsion kompetentligi ta’limiy faoliyat subyekting ta’limning o‘zgaruvchi zamonaviy tizimning chaqiruvi, shaxs ma’naviy imkoniyatini amalga oshirish jarayonida namoyon bo‘lgan shaxsiy tavsif sifatida qaraladi. Innovatsion kompetentlikni talabalarning o‘z OTMlari ta’lim muhitidagi mobilliklari sifatida qaraydilar va bunda ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga: bo‘lajak pedagogning kasbiy va hayotiy o‘sishiga ko‘maklashuvchi kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishga ahamiyatli e’tibor qaratadilar.

Mazkur holatda, «innovatsion kompetentlik» tushunchasini “ijtimoiy-kasbiy kompetentlik” tushunchasi bilan almashtirish xavfi mavjud bo‘ladi. Masalan, L.N.Lesoxina innovatsion kompetentlikning namoyon bo‘lishida ikki tomonni ko‘radi: bir tomondan, bu tashqi sharoitlar bilan bog‘liq (ish o‘rinlarining yo‘qligi, past oylik maosh va h.k.) vaziyatlarning o‘zgarishi, bunda «innovatsion kompetentlik» haqiqiy hayotiy vaziyatlarga moslashish zarurati bilan bog‘liqdir; boshqa tomondan, ijtimoiy-kasbiy kompetentlik – bu barqaror qadriyatlar va o‘z-o‘zini takomillashtirish ehtiyojiga asoslangan shaxsning ichki o‘z-o‘zini takomillashtirishidir. Uning asosida savodxonlik, ma‘lumotlilik va kasbiy kompetentlik kabi tushunchalar yotadi. Natijasi esa – jamiyatda va ta‘limdagi yuz beradigan o‘zgarishlarga darhol javob qaytaradigan shaxsning ichki erkinligi yuzaga keladi.

Shu tariqa, innovatsion kompetentlik tadqiqotchilar tomonidan talabning ta‘lim yo‘nalishini erkin tanlashi, ta‘limning ochiqligiga teng imkoniyatlarda bilimlarni rivojlantirish, malakalar va qobiliyatlarni shakllantirishga urg‘u berib har kimning talab etilgan va sifatli ta‘lim olishga huquqini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratuvchi sifatida ifodalanadi.

Ijtimoiy-kasbiy kompetentlik tushunchasini kasbiy va ijtimoiy mansubligini saqlagan holda, hamda uning avvalgi tajriba va yangi faoliyatning zaruriy muvofiqligidagi almashishida tezkor kasbiy va shaxsiy qayta yo‘naltirish qobiliyatining ifodalanishi bilan bog‘laydilar.

Innovatsion kompetentlik ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha grantlarda ishtirok etish yoki ta‘lim olishning individual yo‘nalishini yaratish kabi tashqi sharoitlar bilan bog‘liq shaxs vaziyatining almashishi, shuningdek, talabning yangi shaxslararo munosabatlarni qurish va kommunikatsiya jarayonida ishtirok etishga moslashishi zarurati bilan tavsiflanadi. Pedagogik OTM talabalari uchun yuqorida aytilgan pedagogik kompetentlik bilan uzviy bog‘liq.

Pedagogik kompetentlik – bu shaxsning (pedagog, andragog, ta‘lim menedjeri) ta‘limning zamonaviy konsepsiyasi maqsad va vazifalari, jahon, milliy, hududiy, kasbiy madaniyat qadriyatlariga muvofiq ta‘lim-tarbiya jarayoni subyektlarining (talabalar, ularning ota-onalari, hamkasblar, ma‘muriyat, hamkorlar, jamiyat vakillari) hamkorlikdagi faoliyatlarini tashkil qilish qobiliyati.

Shunga ko‘ra, shaxsiy yondashuvga asosan innovatsion kompetentlik OTM bitiruvchilarining innovatsion xususiyatdagi shaxsiy tayyorgarligi mazmun va ahamiyatga ega bo‘ladi.

Uchinchi yondashuv (madaniyatshunoslik) (YE.I.Artamonova, I.F.Isayev, YE.G.Silyayeva, YE.N.Shiyanov va boshqalar) innovatsion kompetentlik kasbiy va madaniyatning boshqa ko‘rinishlarini, mustaqil ishlash madaniyatini egallashdan tashkil topgan murakkab kompleksni ifodalashini ko‘zda tutadi. U bilimlarni egallash va yetkazish uchun imkoniyat beradi va madaniy hamda intellektual almashish mexanizmi hisoblanadi.

Bundan tashqari, innovatsion kompetentlik, kasbiy ta‘limni pedagog kasbida identifikatsiyalash orqali baynanminallashtirish shakli hisoblanadi. Pedagogning innovatsion kompetentligi pedagogning ijodiy imkoniyatini o‘z-o‘zi amalga oshirishi uchun yangi imkoniyatlarni yaratishga imkon beradi. Shunga ko‘ra innovatsion kompetentlikning rivojlanganligi darajasi ko‘pgina omillar: umumta‘lim tayyorgarligining umumiy hajmi bilan, nazariy va kasbiy bilimlar va ishlab chiqarish malakalar darajasi, jamiyatning yuzaga kelgan ijtimoiy tuzilishi va uning rivojlanish qonuniyatlari bilan aniqlanadi.

Shaxs innovatsion kompetentligining ko‘rsatkichlari bo‘lib insonning hodisalarga ta‘sir etishi, hodisalarni boshqarish, ulardan o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun foydalanish qobiliyatlari xizmat qilishi mumkin.

Zamonaviy ta‘lim muhiti shaxsni o‘z-o‘zini takomillashtirish, haqiqiy vaziyatlarda va imkoniyatlar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga undovchi u uchun ahamiyatli hodisalar bilan to‘ldirilishi kerak. Kasbiy- ta‘limiy muhitni hodisalar bilan boyitish nostandart mexanizmlar va texnologiyalarni talab etadi, ularga misol bo‘lib talabalarining innovatsion kompetentlikni namoyon etishlari xizmat qilishi mumkin. Shu tariqa, innovatsion kompetentlik madaniyatshunoslik mazmunida tashqi sharoitlarga va madaniyat subyekti sifatida bo‘lajak pedagogning integrativ xususiyatdagi shaxsiy hosilalarining namoyon bo‘lishiga (shaxsning yo‘nalganligi, kasbiy faoliyat vaziyati va uslubi) bog‘liq ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.

Kompleks baholashning talablariga muvofiq, bunda tahlilning birliklari ta‘lim jarayonining asosiy komponentlari hisoblanadi va ular bo‘lajak pedagoglarda innovatsion kompetentlikning shakllanishini ta‘minlashi kerak: kasbiy tayyorgarlikning qadriyatli-mazmunli yo‘nalishlari; kasbiy tayyorgarlik jarayonining tuzilishi; kasbiy tayyorgarlik jarayonining mazmuni; kasbiy tayyorgarlikning pedagogik vositalari; kasbiy tayyorgarlikning tashkiliy-pedagogik sharoitlari.

To‘rtinchi yondashuv (virtual) tadqiqotchilarga «innovatsion kompetentlik» tushunchasini va pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni virtual ta‘lim muhitini tashkil etish, pedagogni tayyorlash samaradorligini oshirish vositalari va zahiralarni lokal, korporativ va global kompyuter tarmoqlari imkoniyatlaridan foydalanib izlash orqali o‘rganishga imkon beradi.

Innovatsion kompetentlikka nazariy-metodologik yondashuvlarni o‘rganish o‘zgarishlarga qobiliyatlik, pedagog mahoratining o‘sishi va uning shaxsiy rivojlanishi uchun yangilik bilan ishlash malakalaridan foydalanishdagi mobillik mazkur hodisaning pragmatik komponentini ilmiy anglashga ko‘maklashdi.

Bugungi kunda jamiyatning o‘zi, mobillikning zaruratini ko‘rsatadi va professionalning modernizatsiyalashgan idealiga doimiy muvofiqlikni talab etadi. Ta’limdagi innovatsiyalarga psixologik tayyorlik, pedagogning muhim shaxsiy tavsifiga aylanmoqda.

Innovatsion kompetentlikning pragmatik komponenti, pedagogik innovatsion muayyan taktika va strategiyasidan foydalanishga, yangi murakkab pedagogik vaziyatda ishlash va uni boshqarishga imkon beradi, ya’ni bo‘lajak pedagog innovatsion kompetentligini shakllantirishning sharti hisoblanadi.

Bo‘lajak pedagogning innovatsion kompetentligining strukturaviy xususiyatlarini o‘rganish, innovatsion faoliyatning muayyan maqsadiga erishish uchun qo‘llaniladigan ayrim innovatsion strategiyalarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Pedagog innovatsion kompetentligining muhim komponenti – innovatsion ko‘nikmalardir. Ular pedagogik innovatsiyani joriy etish vaziyatida, pedagog xulqining xususiyatlarini belgilovchi, uning shaxsini muhim strukturaviy komponenti sifatida qaraladi. Bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion kompetentligi, avval ta’kidlanganidek, innovatsion faoliyatni shakllantirishning natijasi sifatida qaraladi.

Innovatsion kompetentlik yangiliklarni amalga oshirish, samarali jarayoni uchun zarur bo‘lgan innovatsion faoliyatni boshqarishning ichki imkoniyatlari tizimini tashkil etadi, jumladan:

- shaxs sifatleri: yangiliklarni ishlab chiqish va joriy etishda psixologik tayyorlik, innovatsion faoliyatga motivatsiya, bilishga oid faollik, o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini tartibga solish, o‘z-o‘zini tashkil etish, o‘z-o‘zini amalga oshirish; yangiliklarni kiritishni amaliy qo‘llashdagi maqsadga intiluvchanlik;

- pedagogik innovatsiyalar – innovatsion faoliyat vositasi to‘g‘risida ma’lumotlarni egallash imkonini beruvchi bilimlar hajmi, hamda, innovatsion xususiyatdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va yangiliklarni mustaqil ishlab chiqishga tayyorlik ko‘nikmasini egallash; yangiliklar va umuman, istalgan kelajakni loyihalash va modellashtirish asoslarini bilish va u sari borishni boshqarish; ularni amaliy qo‘llash asoslarini bilish va bu bilan kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishda va kasbiy faoliyatda qo‘yilgan maqsadlarga erishish. Bunda innovatsion faoliyatning muvaffaqiyatli strategiyalarini bilishga asoslangan barqaror ko‘nikmalarni egallash muhim hisoblanadi;

- refleksiya, insonning o‘z pozitsiyasini yangilikka, uni amalga oshirish bo‘yicha hamkorlarning talablari va qiziqishlariga (ommaviy ta’lim sharoitlarida) muvofiq baholash qobiliyati sifatida. Bunda aynan yangilikni ajratish va u bilan aloqani o‘rnatish, uning funktsionalligini tahlil qilish, verbal va noverbal kommunikatsiyadan to‘g‘ri foydalanish qobiliyati, o‘z zimmasiga mas’uliyatni olish ko‘nikmasi va yangilik bilan ishni tashkil etish ko‘nikmasi, bo‘lajak pedagog innovatsion kompetentligining asosini ifodalaydi.

Aynan muvaffaqiyatli innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish, bo‘lajak pedagogning samarali innovatsion faoliyatining asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ajratilgan xususiyatlar, «bo‘lajak pedagogning innovatsion kompetentligi» tushunchasining asosiy tavsiflarini aniqlashga imkon berdi va uni yangilikni ajratish va yangilik bilan o‘zaro munosabat to‘g‘risidagi egallangan bilimlardan foydalanish ko‘nikmalariga asoslangan; ma’lum pedagogik vazifaga muvofiq faoliyatning pedagogik vositalaridan foydalanish; yangiliklarni mustaqil ishlab chiqish uchun muayyan innovatsion strategiyadan foydalanish; istalgan kelajakni loyihalash; yangilikdan foydalanishga tayanish bilan u sari harakatlanishni tashkil etish ko‘nikmasi; xususiy yangiliklarni loyihalash; yangiliklarni amaliy qo‘llashga istak va tayyorlikni namoyon etishni pedagogning yangilik bilan o‘zaro munosabatiga shaxsiy va kasbiy tayyorligining muayyan darajasiga erishishi sifatida tushunish lozim.

Ta’limning innovatsion rivojiga hozirgi vaqtda zamonaviy ta’limning ishlashini tartibga soluvchi me’yoriy baza yo‘naltiradi. Bunday rivojlanish quyidagilarni ko‘zda tutadi:

- innovatsion rivojlanishning strategik maqsadlariga erishishga va fan, oliy, o‘rta hamda boshlang‘ich kasbiy ta’lim tashkilotlari, loyihalar va rivojlanish dasturlari doirasidagi milliy va xorijiy kompaniyalarning o‘zaro hamkorliklarini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan kasbiy ta’lim hududiy kompleks dasturlarini qo‘llab-quvvatlash;

- mamlakatning texnologik rivojlanishini modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash;

- zamonaviy ta’lim dasturlari va o‘qituvchi texnologiyalarni joriy etuvchi, yetakchi milliy va xorijlik ta’lim markazlarida mutaxassislarining stajirovkalari va ta’lim olishlarini tashkil etuvchi kasbiy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-ishlab chiqarish, kompyuter jihozlari va dasturiy ta’minot bilan ta’minlash;

- talabalar va o‘qituvchilarning akademik mobilliklari ko‘rsatkichlarini oshirish;

- bitiruvchilarning ishga joylashishlari va korxonalar uchun uzluksiz ta’lim jarayonlarini

qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha har tomonlama barqaror aloqalarni shakllantirish uchun kasb ta‘limi muassasalarining tashqi muhit bilan hamkorligini o‘rnatish.

Pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yangilangan tizimini yaratishni pedagogik ta‘limni modernizatsiyalash dasturi ta‘minlaydi.

Xulosa. Ko‘rib turganimizdek, pedagogik OTM bitiruvchilarining ularning innovatsion faoliyatga tayyorlik talablariga mosliklari ko‘p sonli muammolarga duch kelmoqda. Shu bilan birga hududiy va xalqaro darajadagi tez o‘zgaruvchi jamiyat pedagogik OTMlarga pedagogni yanada sifatli tayyorlash zaruratini, jumladan, pedagogning innovatsion kompetentligini shakllantirish zaruratini talab etadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy sharoitda pedagogika fani oldida turgan asosiy vazifa sifatida harbiy ta‘lim yo‘nalishi talabalarida pedagogik kompetensiyani takomillashtirish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Innovatsion kompetentlik – o‘qituvchining pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta‘lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish qobiliyati: innovatsion kompetentlik – ta‘limdagi innovatsion jarayonlar mohiyatidan xabardorlik, kasbiy faoliyat sohasi va tegishli ta‘lim yo‘nalishidagi innovatsiyalarni o‘zlashtirish, amaliyotga faol tatbiq etish, zamonaviy pedagogik, axborot- kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi savodxonlik, chet tillarni o‘zlashtirish, novatorlik faoliyatidir.

Innovatsion kompetentlik shakllanishining mohiyati, o‘qituvchining shaxsini uzluksiz takomillashtirishi, yangiliklarni pedagogik tizimga maqsadga yo‘naltirilgan holda kiritishga nazariy va amaliy jihatdan tayyorgarligini ifodalaydi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay‘ati a‘zolari: M.Aminov va b. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B. 169
2. Сухобская Г.С., Горбунова Л.Л. Взаимосвязь теории и практики в процессе подготовки и повышения квалификации педагогических кадров.– М.: НИИ ИОО АПН, 1990. Стр. 92
3. Коломийченко Л.В. Раздел II. Методологические основы организации инновационной деятельности Организация инновационной деятельности в учреждениях образования. 2010 г. Стр 19-23
4. Готовность педагогов к обеспечению безопасности личности в инновационной образовательной среде. Л. С. Подымова, Н. А. Подымов, Е. А. Алисов. ФГБОУ ВО «Московский педагогический государственный университет», г. Москва, Россия. 2018 г. Стр. 663-680.
5. Слободчиков В.И. Проблемы становления и развития инновационного образования //Инновации в образовании. 2003. №2. С.4-28
6. Xoliqov, I. (2022). Harbiy ta‘lim fakulteti talabalarida pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish usullari. Scientific aspects and trends in the field of scientific research International scientific online conference. Which took place in Warsaw on September 30, 2022. Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali, 2(2).
7. Холиқов И. Р. (2022, May). Олий таълим муассасаси талабаларида педагогик компетенцияни шакллантириш. International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 248-250).
8. Xoliqov I. (2023). Harbiy ta‘lim yo‘nalishi talabalarida harbiy kompetensiya turlari. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(8), 5-8.
9. Rozikov K. I., & Ikhtiyorovich K. R. (2023). Training of highly competent specialists in the field of physical education and sports. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 767-770.
10. Xoliqov I. (2022). The Concept of Military Pedagogical Competence and its Formation in Military Faculty Students. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on Modern Trends in Science, Technology and Economy Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470.
11. Xoliqov I. (2022). Bo‘lajak o‘qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish. "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali. 1(1)2022.
12. Xoliqov I. (2022). Formation of the Pedagogical Competence of Military Faculty Students. European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 2 | Issue 4 | ISSN: 2795-8612. 2(2).
13. Xoliqov I. (2022). Oliy ta‘lim muassasalari talabalarida o‘rtasida pedagogik kompetensiyani shakllantirish. Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022, № 1. 2(2).

14. Xolikov I. R. (2022). Harbiy ta’lim fakulteti talabalarida pedagogik kompetensiyaning shakllanishi: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.8.08.040> Xoliqov Ixtiyor Roziqovich, Buxoro davlat universiteti pedagogika instituti harbiy ta’lim fakulteti dotsenti <https://orcid.org/0000-0002-5772-9367>. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (8), 278-283.

15. Xoliqov I. (2022). Ҳарбий таълим муассасаларида кадрларни тайёрлаш тизимини такомиллаштириш. Таълим сифати самарадорлигини оширишда халқаро тажрибадан фойдаланиш: муаммо ва ечимлар мавзусидаги халқаро илмий-амалий офлайн/онлайн конференция материаллари тўплами, 2-том, 2021 йил 19 октябрь . – Чирчиқ.: Чирчиқ ОТҚМБЮ, 2021.-840 б..

16. Rozikov K. I. (2023). Structure of competence. Innovative achievements in science 2022, 2(16), 52-55.

O’QUVCHILARDA KASBIY MAS’ULYAT HISSINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Yaxyoyeva Gulhayo Murot qizi,
Shofirkon tumani 11-umumiy
o’rta ta’lim maktabi psixologi*

Ushbu maqolada o’smir o’quvchilarda kasbiy mas’uliyat hissini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va o’quvchilarda kasbiy mas’uliyatni psixologik muammo sifatida o’rganilgan. Bundan tashqari o’smirlarda kasbiy mas’uliyat shakllanishini tadqiq etish sohasida to’plangan amaliy tajribalarni tahlillari amalga oshirilgan. O’smirlarda kasbiy mas’uliyat shakllanishining psixologik xususiyatlarini o’rganish va boshqa individual-psixologik xususiyatlar bilan bog’liqligini ochib berilgan. Kasbiy mas’uliyat fenomeni va uning shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni; kasbiy mas’uliyat tushunchasini aniqlashtirishga doir nazariyalar tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: *motivatsiya, qobiliyat, o’smir, his-tuyg’ular, kasb, xarakter, individual tipologik xususiyatlari, stress.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ ЧУВСТВА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

В данной статье рассматриваются педагогико-психологические особенности формирования чувства профессиональной ответственности у учащихся-подростков и профессиональной ответственности у учащихся как психологическая проблема. Кроме того, проведён анализ накопленного практического опыта в области исследования формирования профессиональной ответственности у подростков. Выявлено изучение психологических особенностей формирования профессиональной ответственности у подростков и их связи с другими индивидуально-психологическими особенностями. Рассмотрен феномен профессиональной ответственности и психологические факторы, влияющие на ее формирование, проанализированы теории, касающиеся уточнения понятия профессиональной ответственности.

Ключевые слова: *мотивация, способности, подросток, эмоции, профессия, характер, индивидуальные типологические особенности, стресс.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF A SENSE OF PROFESSIONAL RESPONSIBILITY IN STUDENTS

In this article, the pedagogical-psychological features of the formation of a sense of Professional Responsibility in adolescent students and Professional Responsibility in students are studied as a psychological problem. In addition, analyzes of practical experiences accumulated in the field of research on the formation of Professional Responsibility in adolescents have been carried out. It is revealed that the formation of Professional Responsibility in adolescents is associated with the study of psychological characteristics and other individual-psychological characteristics. The phenomenon of Professional Responsibility and the psychological factors that affect its formation; theories to clarify the concept of Professional Responsibility have been analyzed.

Key words: *motivation, ability, adolescent, emotions, occupation, character, individual typological characteristics, stress.*

Kirish. Mohiyatan, mas’uliyat tushunchasi insonning atrof-muhit talablariga faol javob berish harakati bilan xarakterlanib, hozirga qadar ushbu masala qator fanlar psixologiya, sotsiologiya, pedagogika hamda falsafa kabi fanlar tizimida dolzarb muammosi sifatida o’rganib kelinmoqda. Biroq barcha fanlarda mas’uliyat fenomenini tushuntiruvchi yagona konsepsiyalar yoki yondashuvlar mavjud emas. Psixologik mazmunga ko’ra, mas’uliyat fenomeni – javobgarlik, hisob berish kabi ma’nolarni anglatib, unda shaxs imkoniyatini belgilovchi ko’plab psixologik xususiyatlar o’z aksini topgan. Shu bilan birga, mazkur xususiyat mazmunida majburiy yechim va javoblarni talab etuvchi, insonning maxsus qobiliyatlari va istaklari tizimi ham mavjud.

Asosiy qism. Mas’uliyat tushunchasini ilk bor psixologik jihatdan asoslash holati psixoanaliz ta’limotida ham aks etgan bo’lib, unda mas’uliyatlilikni ta’minlovchi psixologik asos sifatida vijdon tan

olinadi. Z.Freydning qayd etishicha, mas’uliyat bu – vijdonning ajralmas qismi hisoblanib, u insonda mavjud bo’lgan ijtimoiy qo’rquv orqali namoyon bo’ladi. Shuningdek, ijtimoiy qo’rquv bizni tartibga solib turadi, faoliyat jarayonida munosib harakat qilishni ta’minlab turadi. Ya’ni ijtimoiy qo’rquv insonda vazifalarga bo’lgan munosabatni shakllantiradi.

K.Xorni g’oyalari davom ettirgan neofreydizmning yana bir taniqli vakili E.From birinchilardan bo’lib, mas’uliyatlilikni erkinlik xususiyati bilan bog’lab tushuntirdi. E.Fromning ta’kidicha, mas’uliyatlilik insonda bolalikdan boshlanadi, keyinchalik u ijtimoiy xarakterga ega bo’lib boradi. Bunda inson faoliyati uchun xos bo’lgan mustaqillik, tanlov erkinligi, javobgarlik kabi sifatlar asosiy omildir. E.From erkinlikning ikki turini ajratadi: kutilayotgan va haqiqiy erkinlik. Mana shu ikki tarkib orqali inson o’z-o’zini anglaydi, rejalar tuzadi, natijalarni oldindan ko’ra oladi hamda tanlash erkinligiga ega bo’ladi. Umuman olganda, mas’uliyat muammosini bunday tushunish ko’proq gumanistik hamda ekzistensial yo’nalishdagi psixoterapvtik g’oyalarda o’z aksini topgan.

Muallifning nazaricha, “mas’uliyatlilik” insonning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi hamda ularni ongli harakatlarga almashinuvini ta’minlovchi ko’prikdir.

Xorij psixologiyasida mas’uliyat fenomenini psixologik jihatdan asoslashga xizmat qiluvchi ko’plab tadqiqotlar mavjud. Shulardan, A.Banduraning ijtimoiy ta’lim nazariyasi o’ziga xos tadqiqot sanaladi. Muallifning aytishicha, shaxsda mas’uliyatlilikning namoyon bo’lishi tashqi vaziyatlar natijasi hamda sabablarga bog’liq sanaladi. Ya’ni mas’uliyatni anglash muvaffaqiyatsizlikni tushunishdan boshlanadi. Muvaffaqiyatsizlik o’z harakatlarini tartibga solish, o’z-o’zini boshqarish, ichki nazoratning ortishi, keyingi vaziyatlarga tayyor turish kabilarga javob beruvchi psixologik jarayondir. Shu orqali shaxsning tashqi muhit talablariga bo’lgan munosabatlari baholanadi.

Ijtimoiy ta’lim nazariyasining yana bir vakili J.Rotterning so’zlariga ko’ra, mas’uliyatlilik sifatini o’rganish, avvalo, insondagi lokus nazorat mexanizmini o’rganishdan boshlanadi. Ushbu ta’limotga muvofiq, insonlar ikki toifaga bo’linadi. Birinchi toifa kishilari mas’uliyatdan yiroq turuvchi shaxslar sanalib, ular sabablarni tashqaridan qidirishadilar. Ikkinchi tipga mansub kishilar esa, mas’uliyatli shaxslar sanaladi. Ular har qanday sabab-oqibatlarini o’zlaridan, o’z imkoniyatlari va yutqularidan qidirishadilar. Biroq ba’zi mualliflar, lokus nazorat mexanizmlarini mas’uliyatga tyenglashtirishga qarshi chiqadilar. Ya’ni faqatgina erishilgan yutuqlar va sabablarni qidirish mas’uliyatlilikni asoslash uchun yetarli emas. Buning uchun insonga xos tiplar masalasini ham tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

V.E.Frankl o’zining “Fikr izlayotgan odam” asarida mas’uliyat muammosiga alohida e’tibor qaratib, unda qadriyatlarining roli mavjudligiga alohida e’tibor qaratadi. Shu bilan birga, muallif mas’uliyat fenomeniga tegishli ikki jihatni ajratadi:

- Inson nima uchun mas’uliyatli;
- U kim uchun va nima uchun mas’uliyatli bo’lishi kerak.

Birinchi holatda, inson o’z mavjudligini belgilashi uchun hamda o’z qadriyatlarini ro’yobga chiqarishi uchun mas’uliyatli bo’lishi lozim. Ikkinchi holatda, insonda mas’uliyatlilikni ta’minlovchi kechinma bu irodadir. Ya’ni mustaqil qaror qabul qilish uchun, avvalo, shaxs mas’uliyatli bo’lishi lozim. Demak, mustaqil qaror qabul qilish va mas’uliyatlilik insonni ma’naviy jihatdan yuksaltirishga sabab bo’ladi.

Tadqiqotchi A.Lenglening so’zlariga ko’ra, mas’uliyatlilik shunchaki faoliyatda paydo bo’lmaydi. U murakkab vazifalarni bajarish, oliy maqsadlarni amalga oshirish, rejalarini o’zgartirish, qiyin vaziyatlardan chiqib kyetish kabi jarayonlarda shakllanadi. Shuning uchun uni o’rganishda ko’plab individual-psixologik xususiyatlarning rolini tekshirib ko’rish lozim. Ushbu mulohazalar muallifning logoterapvtik nazariyasida o’z aksini topgan. Gyeshtalt terapiya ta’limotida ham mas’uliyat fenomeni o’ziga xos tadqiq etilgan bo’lib, unda insonning tashqi muhit bilan chyegarasi javobgarlikni yuzaga keltiradi. F.Perlzning aytishicha, tashqi muhit bilan inson o’rtasida doim aloqada chegara bo’lishi kerak.

Aks holda javobgarlik va mas’uliyatlilik o’z kuchini yo’qotadi. Bizningcha, chyegara bu insonning o’z – o’zini anglashi, insonning boshqalar bilan o’ziga xos munosabatlari tizimidir. Manu shu yerda o’zaro hurmat, qadriyatlarga sodiqlik, inson –inson o’rtasidagi munosabatlar sheriklik asosida kechadi.

Rus psixologiyasida ham “mas’uliyat” fenomenini psixologik jihatdan tadqiq etishning o’ziga xos yondashuvlari mavjud bo’lib, ularga S.JI.Rubinshteyn, K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.N.Rean, V.N.Drujinina, E.G.Eydemiller, Y.Ye.Aleshina, V.F.Safin, E.H.Sidorova, V.P.Pryadein, N.A.Golovka, A.A.Grachev, L.I.Dementiy, J.Y.Zavadskayalarning tadqiqotlarini misol qilish mumkin.

I.P.Pavlov o’zining “Shartli reflekslar” nazariyasida mas’uliyat muammosiga murojaat qilar ekan u haqda shunday deydi: “Mening javobgarligim va mas’uliyatim bu men bilgan ta’limotdir. Ushbu ta’limot orqali men o’zimning eng yuqori darajamni saqlashga harakat qilaman. Bunga mening olgan bilimlarim va ko’nikmalarim yordam beradi. Demak, muallif ushbu mulohazalari orqali “mas’uliyatlilikni” eng yuqori kognitiv xususiyat deb tan olgan. V.M.Bexterev o’zining “Shaxs psixologiyasidan tanlangan asarlar” nomli

monografiyasida, mas’uliyat tushunchasini quyidagicha tavsiflaydi. Muallifning fikricha, insonlarda mas’uliyat hissining yo‘qolishi bu – hodisalarni uzatishdagi ijtimoiy uzilishdir. Shuning uchun har bir inson o‘z harakatlariga e’tiborli va ular uchun javobgar bo‘lishi lozim. V.M.Bexterev o‘z qarashlarida mas’uliyatni ijtimoiy hodisa sifatida ta’riflab, uni inson hayotining tabiiy va zaruriy sharti sifatida baholaydi.

XX asr boshlariga kelib fanda mas’uliyat fenomeni ikki mazmunda talqin etila boshladi. Ya’ni birinchi holatda mas’uliyat shaxsning yo‘li sifatida talqin etilgan bo‘lsa, ikkinchi holatda mas’uliyat tushunchasi sof ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rib chiqilgan. Bunday mazmundagi yondashuvlar sifatida B.G.Ananyev, V.G.Tugarinov, V.N.Myasishev, L.I.Dementiy, A.N.Leontyev, V.S.Minkina, A.A.Rean kabi olimlarning tadqiqotlari tan olinadi. B.G.Ananyev mas’uliyatlilikni ratsional hodisa sifatida ta’riflab, uning zamirida insonning kasbiy yetukligi, faoliyatga bo‘lgan munosabati kabilar yotishini ta’kidlaydi.

“Mas’uliyat” va “mas’uliyatlilik” tushunchalarining psixologik mohiyatini aniqlash ishlarida L.I.Dementiyning izlanishlari alohida ahamiyatga ega sanaladi. Tadqiqotchi boshqalardan farqli o‘laroq, muammoni shaxsga xos tashabbuskorlik xususiyatlari bilan tushuntirishga harakat qiladi. Muallifning so‘zlariga ko‘ra, mas’uliyat bu – subyektning tashabbuskorligi, hayotiy qiyinchiliklarni yengishga bo‘lgan tayyorgarligi, o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olish qobiliyati kabi xususiyatlarning majmuidir. Biroq mas’uliyat hissi hamma joyda ham o‘zini namoyon qilavermaydi, balki u muayyan sharoitlarda namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Ya’ni har bir shaxsning mas’uliyatli xulq-atvori uchun muayyan vaziyatlar majmuyi shart hisoblanadi.

O‘smirlarda kasbiy mas’uliyat shakllanishining psixologik xususiyatlari

Talabalarda kasbiy mas’uliyatni shakllantirish ishlari o‘ta murakkab jarayon sanalib, hozirgi kunda uni chora-tadbirlarini ishlab chiqish yuzasidan ko‘plab psixologik-pedagogik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq mahalliy muhitda ushbu muammoni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish ishlari hozirga qadar ilg‘or psixologik tadqiqotlarga zarurat sezmoqda. Chunki, kasbiy mas’uliyat shunchaki ta’lim-tarbiya jarayoni bilan shakllanib qolmaydi, balki unda talaba shaxsiga xos qadriyatlar tizimi, hissiy-irodaviy soha mazmuni, kognitiv sohani rivoji, kasbiy muvaffaqiyatni ta’minlovchi puxta o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakalar, kasbiy mahorat, kasbiy kompetentlik kabi sifatlarni shakllantirish ishlari nazarda tutiladi. Bizningcha, oliy ta’lim sharoitida o‘quv mashg‘ulotlarni mavaffaqiyatli darajada tashkil etish kasbiy mas’uliyatni shakllantirishning dastlabki bosqichi sanaladi.

Y.G.Turning so‘zlariga ko‘ra, kasbiy mas’uliyat hissini shakllantirish muvaffaqiyatli mashg‘ulotlarni tashkil etish qoidalari bilan uzviy bog‘liq sanalib, unda asosiy omil bu o‘quv motivlari va talabalarning ichki aqliy imkoniyatlari hisoblanadi. Mashg‘ulotlar qanchalik qiziq bo‘lsa, talabalarning o‘quv motivatsiyasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Universitetning birinchi bosqich talabalari soha ma’lumotlariga ancha sezgir, qiziquvchan va faol bo‘ladi. Ikkinchi bosqichga o‘tib ta’lim muhitida o‘z-o‘zini boshqarish, o‘quv faoliyatidagi har qanday qiyinchiliklarga chidamlilik va vazifalarga bo‘lgan javobgarlik darajasi ancha oshishi kuzatiladi. Uchinchi bosqichga o‘tib talabalarda vazifalarni bajarishga bo‘lgan ijodkorlik qobiliyatlari to‘liq shakllanadi deb ta’kidlaydi. Mazkur fikr-mulohazalardan farqli o‘laroq, A.K.Markovning fikricha, kasbiy mas’uliyatning namoyon bo‘lishi bu professionalikka o‘tish sanalib, u quyidagi xususiyatlar orqali tushuntiriladi:

1. Professional ishlash xususiyatlari – yuqori mahsuldorlik va samaradorlik;
2. Faoliyat subyektining bilimlari, qobiliyatlari va ko‘nikmalari –kasbiy mahorat, fikrlash uslubi, intuisiya darajasi, kasbiy muammolarni hal qilishda mustaqillik, yuqori darajadagi malakalar va kasbiy kompetensiyalar;
3. Faoliyat subyektining individual psixologik fazilatlarini – shaxs sifatida mehnat munosabatlarini rivojlantirish imkoniyati, ijobiy ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarning mavjudligi;
4. Kasbiy yo‘nalish orqali o‘zini o‘zi o‘zgartirish – kasbiy faoliyat talablari, kasbiy etikaviy normalar, axloqiy me’yorlar kabilarini o‘zlashtirish;
5. O‘zini kasbga va kasbni o‘ziga moslashtira olish ko‘nikmasi, hamkorlik qilishga qobiliyat;
6. Shaxs holatini tavsiflovchi belgilarga ega bo‘lish – ijobiy o‘z-o‘zini anglash, o‘z qadr-qimmatini bilish: ijobiy kayfiyatning ustunligi, o‘z kasbidan qoniqish, o‘zini mutaxassis sifatida qabul qilish, kasbiy motivatsiyaning barqarorligi, tajribaga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati va hokazo.

V.I.Slobodchikovning aytishicha, talabalar shaxsida shakllanadigan kasbiy faoliyatga xos shaxslilik sifatlari, o‘z mazmunida mas’uliyatlilik xususiyatini aks ettirib, bu muvaffaqiyatli talabalar faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Kasbiy faoliyat bo‘lajak mutaxassislardan ma’lum bir shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlar majmuyini talab etib, u orqali insonning kelajakdagi imkoniyatlari baholanadi. Soha uchun kerakli bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarni o‘zlashtirib borish ta’sirida shaxsda kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim sifatlarni ko‘rina boshlaydi.

O.N.Shaldibina mas’uliyat masalasini tadqiq etar ekan, uning xulosalariga ko’ra, ijtimoiy-gumanitar yo’nalishlarda tahsil oluvchi talabalar har qanday muloqot vaziyatiga tayyor, o’zaro munosabatlarda hissiy o’z-o’zini boshqarish ko’nikmasiga ega, boshqalarni o’ziga jalb eta oladigan, o’z manfaatini boshqalar manfaati bilan birlashtirgan, yuqori intellektual qobiliyatlarga ega ta’lim subyektlari hisoblanadi. Demak, tabiiy yo’lanishdagi talablardan farqli o’laroq, ijtimoiy-gumanitar yo’nalishdagi talabalarda, kasbiy mas’uliyatlikni ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarning shakllanganligi yuqori darajada bo’lishi tasdiqlangan.

Shuni ta’kidlash kerakki, kasbiy mas’uliyatni shakllantirish dinamik xarakterdagi hodisa bo’lib, u domiy ravishda faollikni talab etadi. Ya’ni muvaffaqiyatli talablarni o’z vaqtida qo’llab-quvvatlash, ularni rag’batlantirish o’ta ahamiyatli sanaladi.

Xulosa. Zamonaviy psixologiyada inson va uning kasbiy sifatlari bilan bog’liq ma’lumotlar alohida ahamiyat kasb etib, u ko’pchilik tadqiqotchilarning diqqat markazidagi ilmiy masala hisoblanadi. Ya’ni inson kasbiy faoliyati uchun qanday sifatlari ma’qul yoki kasbiy kamolotini belgilovchi asosiy psixologik xususiyatlar nimadan iborat va hokozo. Mazkur qarashlar o’z-o’zidan kasbiy mas’uliyat tushunchasi ahamiyatini ta’kidlab, unga oid eng ilg’or konsepsiyalar mazmunini o’rganishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar:

1. Qodirov B.R. Kasbiy tashxis metodikalari. T. 2002. – 56 b.
2. Байденко В.И. Базовые навыки (ключевые компетенции) как интегрирующий фактор образовательного процесса / В.И.Байденко, Б.Оскарссон // Профессиональное образование и формирование личности специалиста: сб. науч. труд. – М., 2002. – С. 27 - 34.
3. Бандура А. Теория социального научения. – СПб.: Евразия, 2000. – 320 с.
4. Баратов Ш.Р. Социально-психологические основы создания психологической службы в Узбекистане // Автореф. дисс. доктора психол. наук. – Ташкент, 1998. – 37 с.
5. Башев В.В. Психологические условия формирования ответственного действия в подростковом возрасте Текст.: автореф. дисс. канд. психол. наук / В.В.Башев. – М., 2000. – 19 с.

O‘QUVCHILAR VIRTUAL ADDIKSIYA PROFILAKTIKASIDA TANQIDIY FIKRLASHNING AHAMIYATI

Yoziyeva Umida Lutfullayevna,

*Qarshi davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

Maqolada tanqidiy fikrlashning pedagogik qarashlari ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lib, bugungi kunda jahon hamjamiyati ta‘limi oldida turli vaziyatlarni oqilona fikr hamda tahlil qilish, murakkab vaziyatlarda yechim topish usullarini rivojlantirish, muammoli holatlar va ularni bartaraf etish uchun tanqidiy fikrlash yo‘lini ishlab chiqish uchun rejalashtirilgan imkoniyatlarni yanada kengaytirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikr, tafakkur, chaqiriq, anglash, fikrlash, munozara, yechimlar pedagogik qarash, anglash fazasi.*

ЗНАЧЕНИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ПРОФИЛАКТИКЕ ВИРТУАЛЬНОЙ АДДИКЦИИ УЧАЩИХСЯ

В статье научно обоснованы педагогические взгляды на критическое мышление, и рассматривается дальнейшее расширение запланированных возможностей на сегодняшний день перед просвещением мирового сообщества, чтобы рационально мыслить и анализировать различные ситуации, разрабатывать методы поиска решений в сложных ситуациях, вырабатывать путь критического осмысления проблемных ситуаций и их устранения.

Ключевые слова: *критическое мышление, мышление, вызов, понимание, мышление, обсуждение, решения, педагогический подход, этап понимания.*

THE IMPORTANCE OF CRITICAL THINKING IN THE PREVENTION OF VIRTUAL ADDICTION OF STUDENTS

The article scientifically substantiates pedagogical views on critical thinking, and today, before enlightening the world community, in order to rationally think and analyze various situations, develop methods for finding solutions in difficult situations, develop a path for critical understanding of problem situations and their elimination, further expansion of the planned opportunities is considered.

Key words: *critical thinking, thinking, challenge, understanding, thinking, discussion, solutions, pedagogical approach, stage of understanding.*

Kirish (Introduction). «Tanqidiy fikrlash» atamasidan pedagogik muhitda anchadan beri foydalanib kelinadi va turli pedagoglar buni turlicha tushunadilar. Ko‘pchilik olimlar va uslubiyotchilar uchun tanqidiy fikrlash «yuqori tartibdagi» fikrlashni bildiradi- yuqori fikr shu ma‘nodaki, U Benjamin Blumm tizimiga ko‘ra o‘rganish qobiliyatlarining so‘nggi oliy pog‘onasida turadi. Faylasuflar tanqidiy fikrlash deganda, odatda mantiqiy fikrlash va isbotlash ko‘nikmalarini tushunadilar, uning yordamida talabalar diqqat bilan o‘qish. Chuqur munozaralar yuritish va yozuvda o‘z fikrlarini aniq va o‘ylab ifoda etish imkonini oladilar. Adabiyot nazariyotchilari va tarixchilari uchun matnning tarkibiy qismlarini ajratishga va matnning kitobxonga ta‘sir qilish usullarini tanqidiy qayta mushohada qilishga, hamda muallif asarni yaratishda amal qilgan sababalarini aniqlashda yordam beradigan matnga yondashish «tanqidiy» deb hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash bu XXI asr talablarini muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarishimizga imkoniyat yaratuvchi, o‘rganayotgan va bajarayotgan ishimizni yanada chuqurroq anglashimizga yordam beruvchi ijobiy ko‘nikmadir. Tanqidiy fikrlashga o‘rgatish adabiyotlarda bu berilgan turli xil ta‘riflarni uchratish mumkin. Bu tushuncha haqida gapirishdan oldin, ayrim aqliy faoliyat ko‘nikmalarini ko‘rib chiqaylik, lekin ularni tanqidiy fikrlash deb bo‘lmaydi. Esda saqlash- eng muhim fikrlash jarayoni bo‘lib, busiz o‘quv jarayonini amalga oshirib bo‘lmaydi, lekin u tanqidiy fikrlashdan tubdan farq qiladi. Kompyuterning xotirasi har birimiznikidan anchagina yaxshiroq, lekin esda saqlash tanqidiy fikrlashni bildirmaydi. Lekin tanqidiy fikrlash tarafdorlari esa aqliy faoliyatning murakkabroq turlarini nazarda tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Bu borada bir qancha izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ularning asosiy qismi V.G. Gerasimenko, A.A. Malyuk, D.P. Zegjda kabilarning zimmasiga to‘g‘ri keladi. G. Grachev, I. Melnik, G.G. Pochepsov,

X.Domozetov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ko‘rsatilgan. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson narsa emas. Bu ma’lum yosh davrida o‘rgatish tugallanishi va unutilishi mumkin bo‘lgan masala ham emas.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tanqidiy fikrlashga olib boradigan aniq-ravshan yo‘llar yo‘q. Biroq o‘qitish shartlarining muayyan to‘plami borki, uning yordamida tanqidiy fikrlovchilarni tabiiylash mumkin. Jumladan, quyidagi shartlar zarur:

Birinchi: Mashg‘ulot tanqidiy fikrlash tamoyillari bo‘yicha yaratilar ekan, har bir ishtirokchi boshqalarnikidan mustasno holda o‘zining g‘oyasi, baholashi va ishonchiga ega bo‘ladi. Hech kim biz uchun tanqidiy fikrlab bermaydi. Biz faqat o‘zimiz uchungina bunday fikrlay olamiz. Demak, fikrlash yakka tartibli xarakterga ega bo‘lgandagina, uni tanqidiy fikrlash deb atash mumkin.

Ikkinchi, axborot tanqidiy fikrlashning natijasi emas, balki uning boshlanishidir. Bilim odamni tanqidiy fikrlashga axdovchi motiv bo‘lib hisoblanadi. Ba‘zan «bo‘sh kalla bilan fikrlash qiyin», deb ham aytishadi. Murakkab fikrni yaratish uchun anchagina «xom ashyo»- dalillar, g‘oyalar, matnlar, nazariyalar, ma’lumotlar, konsepsiyalarni qayta ishlash zarur. Hatto juda yosh bolalar ham tanqidiy fikrlash va butunlay mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega. Aynan tanqidiy fikrlash tufayli odatdagi bilish jarayoni alohidalik va anglashuvchanlik, uzviylik va samaradorlik kasb etadi.

Uchinchi, tanqidiy fikrlash, savolning qo‘yilishi va hal qilinishi zarur bo‘lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi. Insoniyat o‘z tabiatiga ko‘ra qiziquvchidir. Biz biron-bir yangilikni sezar ekanmiz, albatta, uning mohiyatini bilishni xohlaymiz. Qiziquvchanlik har qanday tirik mavjudotning ajralmas xususiyatidir. Bu xususiyat yosh bolalarga, ayniqsa, quchli bo‘ladi. Biroq har qanday bosqichdagi haqiqiy bilish jarayoni o‘quvchining muammoni hal qilishi. O‘zining shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlaridan paydo bo‘lgan savollarga javob izlashi bilan belgilanadi.

Amerikalik faylasuf va pedagog J. Dyuining aytishicha, agar o‘quvchilar muayyan muammo bilan shug‘ullana boshlasalargina, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo‘ladi. «O‘quv jarayonining boshlang‘ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo‘lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir». «Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o‘zining shaxsiy yo‘lini izlagandagina, haqiqatan ham fikrlaydi».

To‘rtinchi, tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi. Tanqidiy fikrlovchi kishi muammoning o‘z shaxsiy yechimini topadi va bu qarorni oqilona, asosli dalillar bilan mustahkamlaydi. U boshqa qarorlar bo‘lishi mumkinligini ham tan oladi, lekin o‘zi tanlagan qaror boshqalarga nisbatan eng mantiqiy va oqilona ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Ishonchli dalillar, unga qarama-qarshi dalillarni mavjud bo‘lishi, ularni yo oshirib ko‘rsatilishi, yoki qabul qilinigshi mumkinligini ham hisobga olgandagina yutadi. Boshqacha nuqtayi-nazarlarning tan olinishi ishonchli dalillarning ta’sir kuchini yanada oshiradi. O‘ta ta’sirchan dalillar bilan qurollangan tanqidiy fikrlovchi kishi, hatto katta obro‘ga ega bo‘lgan fikrga ham qarshi tura oladi, amaliyotda bunday kishining fikrini o‘zgartirish mumkin emas.

Beshinchi, tanqidiy fikrlash- ijtimoiy bo‘lib ham hisoblanadi (har bir inson ijtimoiy organizmdir). Har qanday fikr, agar u boshqalar bilan o‘rtoqlashilgandagina o‘tkirlashadi yoki faylasuf Xanna Arendt yozganidek: «Kimningdir huzurimda bo‘lishi, meni barkamollikka erishtiradi». Bahslashuvda, o‘qiganimizda, muhokamada ishtirok etganimizda, e’tiroz bildirganimizda, boshqalar bilan fikr almashganimizda biz o‘z nuqtayi-nazarimizni aniqlashtiramiz va uni chuqurlashtiramiz. Shuning uchun ham tanqidiy fikrlash yo‘nalishia ishlayotgan pedagoglar o‘z mag‘lotlarida juftlikda yoki guruhlarda ishlashning turli shakllaridan foydalanishga, bunda debat va munozaralardan samarali foydalanishga hamda o‘quvchilar yozma ishlarini namoyish qilishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishga intiladilar. Umuman olgana, har qanday tanqidiy fikrlovchi biron-bir jamoa bilan ishlaydi va faqat o‘z shaxsini konstruksiyalashga nisbatan anchagina keng ma’nodagi vazifalarni hal qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson nasa emas. Bu ma’lum yosh davrida o‘rgatish tugallanishi va unutilishi mumkin bo‘lgan masala ham emas. Tanqidiy fikrlashga olib boradigan aniq-ravshan yo‘llar yo‘q. Biroq o‘qitish shartlarining muayyan to‘plami borki, uning yordamida tanqidiy fikrlovchilarni tabiiylash mumkin. Jumladan, quyidagi shartlar zarur: tanqidiy fikrlash tajribasini orttirishga vaqt va imkoniyat berish; shaxsga fikrlash imkoniyatini berish; turli g‘oya va fikrlarni qabul qilish; ta’lim jarayonida ishtirokchilarning faol qatnashishlariga imkon berish; Shaxslarni ularning ustidan hech kim kulmasligiga ishontirish; Har bir o‘quvchini u tanqidiy mulohaza yuritishga qodir ekanligiga isholntirish; tanqidiy fikrlash paydo bo‘lishini qadrlash.

Hamda o‘z-o‘ziga ishonchni rivojlantirib, o‘z g‘oya va fikrlarining qimmatini tushunishlari kerak; ta’lim jarayonida faol qatnashishlari lozim; Turli fikrlarni hurmat bilan eshitishlari kerak; o‘z mulohazalarini shakllantirishga tayyor bo‘lishlari yoki undan o‘zlarini tiyishlari lozim.

Tanqidiy fikrlashning elementlari quyidagilardan iborat: tanqidiy fikrlash- bu mustaqil fikrlashdir; axborot- tanqidiy fikrlashning boshlanishidir; tanqidiy fikrlash savolning qo‘yilishi va hal qilinishi zarur

bo‘lgan muammoni aniqlashdan boshladi; tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi; tanqidiy fikrlash-ijtimoiy fikrlashdir.

Tanqidiy fikrlash-bu mustaqil fikrlashdir. O‘quv jarayonini usiz amalga oshirib bo‘lmaydigan «notanqidiy fikrlash» turlaridan yana biri-murakkab g‘oyalarni tushunish bilan bog‘liq. Biologiya va matematika, tarix va adabiyot darslarida o‘quvchilar ba‘zan o‘qituvchining aytganlari yoki darslikda nima haqida yozilganligini tushunish uchun ancha «bosh qotiradilar». Tushunish, ayniqsa, agar o‘quv materiali qiyin bo‘lsa, murakkab aqliy jarayon bo‘lib hisoblanadi. Masalan, talaba murakkab teoremani tushunish uchun bosh qotirmoqda. Albatta, uning miyasida murakkab aqliy jarayonlar kechadi, lekin buni ham hozircha tanqidiy fikrlash deb bo‘lmaydi. Biz o‘zгалar fikrini tushunish ustida ishlar ekanmiz birinchi bosqichda bizning shaxsiy fikrlashimiz sust bo‘ladi: bunda biz faqat bizgacha kimdir tomonidan yaratilganni idrok qilamiz xolos, tanqidiy fikrlash esa, yangi, tushunib bo‘lingan g‘oyalar tekshirilayotganda, baholanayotganda, rivojlantirilayotganda va qo‘llanayotganda sodir bo‘ladi. Dalillarni eslab qolish va g‘oyalarni tushunish esa tanqidiy fikrlash uchun zarur bo‘lgan dastlabki shartlar bo‘lib hisoblanadi, lekin ular o‘zaro yaxlitlikda ham tanqidiy fikrlashni anglatmaydi.

«Tanqidiy fikrlash» tushunchasiga mos kelmaydigan yana bir fikrlash turi bu- ijodiy yoki ichki his bilan (intuitiv) sezib fikrlashdir. Sportchi, rassom, musiqachilar miyasida ham murakkab fikrlash jarayoni sodir bo‘ladi, lekin ular buni hatto sezmaydilar ham.

U holda «tanqidiy fikrlash» nima?

Dayana Xalperi «Psixologiya kriticheskogo mishleniya» kitobida tanqidiy fikrlash «fikir yuritishning shunday ko‘rinishini anglatadiki, u vazminlik, mantiq va maqsadga yo‘naltirilganlik bilan ajralib turadi», - deb yozadi.

Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templarning «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qish va yozish» (O‘YOTF) loyihasida quyidagicha ta’kidlanadi: «Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g‘oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo‘lgan oqibatlarini ham e’tiborga oladi. Bunda odam bu g‘oyalarni dastlab ma’lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtayi-nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo‘shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o‘z nuqtayi-nazarini ishlab chiqadi». Tanqidiy fikrlash- g‘oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg‘unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir. Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtda ro‘y beradigan jarayon ham bo‘lib hisoblanadi. Tanqidiy fikr egasiga hiyla-nayranglar kamroq ta’sir qiladi, o‘zining shaxsiy qarashlar tizimi bo‘lgani uchun ular turli xavf-xatardan holi bo‘ladilar.

Tanqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘pfikrlilik nuqtayi-nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo‘lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo‘llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e’tibor beriladi.

Tanqidiy fikrlash asoslari uch bosqich (faza)dan iborat bo‘ladi, bular: Chaqiriq (da’vat), Anglash, Fikrlash (mulohaza) bosqichlaridir.

Tanqidiy fikrlash chaqiriq deb ataydigan bosqichdan boshlanadi, uning davomida o‘quvchilarning qiziqishi uyg‘onadi, zarur savollar tug‘iladi va bunday bilimlarni olish uchun sabablar shakllanadi. Shundan keyin ma’noni ANGLASH bosqichi keladi, uning davomida o‘quvchilar izlash uchun rag‘bat oladilar, ba’zi hollarda bunga o‘rganadilar ham. FIKRLASH bosqichi kulminatsiya bo‘lib hisoblanadi, uning davomida o‘quvchilardan o‘z bilimlarini umumlashtirish, bilib olgan narsalarni bungacha bilgan narsalari bilan taqqoslash, ularning savollariga javoblarni qay darajada olganiga qarab baholash (va zaruratga qarab yangi savollarni shakllantirish), bilgan narsalarini yanada katta muammolarga qo‘llash, bilib olgan narsalarini munozara qilish va himoya qilish kabilar iltimos qilinadi.

Chaqiriq bosqichining ahamiyati shundan iboratki, unda yangi bilimlar, o‘zi mustaqil tanlagan maqsad uchun intilish anchagina kuchli bo‘ladi. Chaqiriq bosqichida faoliyatning bir nechta bilim beruvchi muhim turlari amalga oshiriladi. Birinchidan, o‘rganuvchi mazkur mavzu to‘g‘risida bilganlarini tiklashda faol ishtirok etadi. Bu esa uni o‘z bilimlarini tahlil qilishga va tez orada batafsil ko‘rib chiqiladigan mavzu haqida o‘ylashni boshlashga majbur etadi. Boshqa ikkita bosqich tushuntirilganidan keyin dastlabki harakatning ahamiyati ravshanroq bo‘ladi.

Ta’lim jarayoni-yangiliklar ma’lum bo‘lganlar bilan bog‘lash jarayonidir. O‘quvchining yangi tasavvurlari ilgarigi bilimlari va tasavvurlari asosida quriladi. O‘quvchilarga ilgarigi bilim va tasavvurlarini tiklashga yordam berib, yangi axborotlarni uzoq muddatga tushunish uchun keng asoslar yaratish mumkin.

Anglash bosqichining ahamiyati. Anglash fazasida yangi axborot da’vat fazasida faollashtirilgan axborot bilan bog‘lanadi.

Bu bosqichning asosiy vazifasi, birinchidan, chaqiriq bosqichida yaratilgan qiziqish va harakatlanish inersiyasini, faollikni qo‘llab-qo‘vvatlashdan iborat. Ikkinchi muhim vazifasi o‘quvchilarda o‘z tushunishini kuzatishga doir intilishlarini qo‘llashdan iboratdir. Subyektning ichki jarayonlari va holatlarini o‘zi tomonidan bilib borishi refleksiya (ba‘zan meta-bilish) deb ataladi.

Fikrlash (mulohaza qilish) bosqichining ahamiyati. Bu fazada bilimlar mustahkamlanadi va o‘rganilayotgan masala bo‘yicha oldingi fazalarga nisbatan boshqacha (to‘laroq) tasavvur shakllanadi va «o‘qiganlik»ning ortishiga olib keladi. O‘quvchi o‘z o‘quv maqsadiga erishgandagina bunday o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, bu fazada o‘quvchini o‘qiganlikning pastroq darajasidan uning yuqoriroq darajasiga o‘tkazish sodir bo‘ladi. Bu o‘quvchining yangi g‘oya va axborotlarni o‘z so‘zi bilan ifodalay olishida aks etadi. O‘quvchilar o‘zlariga ko‘proq yoqqan narsani yaxshiroq eslab qoladilar.

Fikrlash bosqichida bir nechta muhim maqsadlarga erishish rejalashtiriladi. Birinchi navbatda, o‘quvchilar yangi fikr va axborotlarni o‘z so‘zlari bilan ifodalashga harakat qilib ko‘rishlari kerak.

Agar sizga eslab qolish kerak bo‘lsa- unutasiz. Agar sizga tushunish kerak bo‘lsa- eslab qolasiz.

Ta‘lim natijalarining qancha uzoq muddatga saqlanishi hamda tushunish darajasi turli odamlarda har xildir. Tushunganlarni o‘z so‘zlari bilan ifodalab, qayta tuzganda shaxsiy anglangan kontekst yuzaga keladi.

O‘zgaruvchan tanqidiy fikrlash turli fikrlar rag‘batlantiriladigan muhitda kuchayadi. Shunda o‘quvchilar ularni hisobga olib, o‘z tasavvurlarini qurishlari mumkin.

Tanqidiy fikrlashning asoslari o‘qituvchiga shunday sharoitlar yaratadiki, natijada u quyidagilarga erishadi: o‘quvchilarning fikrlashini faollashtiradi; ta‘lim (o‘quvchilar) maqsadini ajratadi; faol munozaralarga imkoniyat yaratadi; o‘qishga qiziqishni oshiradi; faol o‘quv faoliyatini ta‘minlaydi; o‘zgarishlarni rag‘batlantiradi; fikr yuritishni rag‘batlantiradi; o‘quvchilarga turli xil fikrlarni tinglashga imkoniyat beradi; o‘quvchilarga o‘z savollarini berishda yordam beradi; o‘quvchiga o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishga imkon beradi; o‘quvchilar tomonidan axborotlar qayta ishlanishini ta‘minlaydi; o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashga imkoniyat yaratadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda o‘quvchilarni «o‘qishga o‘rgatish», va tanqidiy fikrlashni egallashlari muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi. Yangi axborotlarga duch kelar ekan, o‘quvchilar uni mustaqil ravishda baholashi, unga turli xil nuqtayi-nazardan qarashi, undan o‘z ehtiyoj va maqsadlari yo‘lida foydalana olish imkoniyati to‘g‘risida xulosa yasay olishlari zarur. Haqiqiy tanqidiy fikrlaydigan odam bo‘lib yetishish uchun o‘quvchilar ijodiy fikrlab, o‘zini sinab ko‘rishi va bunga oid malakalarni egallashi zarur.

Tanqidiy fikrlashni paydo qilish uchun quyidagilar bo‘lishi kerak: o‘quvchida o‘ziga xos nuqtayi-nazarni paydo qilish; bir fikrdan boshqasining afzalligini asoslash mahorati; murakkab muammolarni yechish mahorati; bahsni dalillab olib borish; yagona fikrni ishlab chiqish uchun birgalikda ishlash mahorati; qarashar va tasavvurlarga hayotiy tajriba qanday ta‘sir qilishini tushunish.

O‘quvchilarni haqiqatan ham dolzarb muammo haqida fikrlash imkoniyatidan mahrum qilib, mantiqiy jarayonlarni mavhum tarzda o‘rganish emas, balki o‘quvchilarni tezda faol o‘ylash jarayoniga kirishishga, uni tajribada amalga oshirishga imkon beradigan uslubiyat eng yaxshi hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson narsa emas. Bu ma‘lum yosh davrida o‘rgatish tugallanishi va unutilishi mumkin bo‘lgan masala ham emas. Tanqidiy fikrlashga olib boradigan aniq-ravshan yo‘llar yo‘q. Biroq o‘qitish shartlarining muayyan to‘plami borki, uning yordamida tanqidiy fikrlovchilarni tabiiylash mumkin. Jumladan, quyidagi shartlar zarur:

Tanqidiy fikrlash, interfaol usullar, «Sinkveyn» usuli, sinkveyn yozish qoidalari, murakkab axborotni sintezlash, sinkveyn- bolalar tushunchalarining yig‘indisini baholash vositasi sifatida, sinkveyn- ijodni taqdim etish vositasi sifatid, klaster usuli, erkin va ochiq fikr strategiyasi, klasterlarga bo‘lish qoidalari, toifalarga ajratish.

Bunday innovatsion usullarga kichik guruhlarda ishlashning quyidagi: «Aqliy hujum», «Rolli o‘yinlar», «O‘yinli sudlar», «Munozara», «Yechimlar daraxti», «Muzyorar», «Ikki kismlik kundalik», «Sinkveyn», «Klaster», «Kubiklar», «B-B-B», «Venn diagrammasi», «T- chizma», «Birgalikda o‘qitish», «Zigzag», «Keys», «Pinbord» va boshqa shakllarini misol qilib keltirish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bundan xulosa qilish mumkinki, o‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rar ekan, o‘quvchilar to‘qnashishi mumkin bo‘lgan muammolar doirasini aniqlashi, so‘ngra esa, o‘quvchilarni bu muammolarni o‘zlari mustaqil ravishda shakllantirishlariga tayyorlashi zarur. Tanqidiy fikrlash tufayli o‘qish eski «maktab» ishidan aniq maqsadga yo‘nalgan, mazmunli faoliyatga aylanadi hamda bu faoliyat davomida o‘quvchilar haqiqiy aqliy ish bajarib, haqiqiy hayotiy muammolarni hal qiladilar. Ular dalillar to‘plab, matnlarni tahlil qilib, teng kuchli nuqtayi-nazarlarni taqqoslab hamda jamoa imkoniyatlaridan foydalanib, o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob izlaydilar va uni topadilar.

Adabiyotlar:

1. Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templ. Projekt: Chteniye i pismo dlya razvitiya kriticheskogo mishleniya. Posobiya 1-7. Bishkek, 2000.
2. Devid Kluster. Tanqidiy fikrlash nima? Tarjimon Ishmatov K. SOROS «Tanqidiy fikrlash asoslari» dasturi.
3. Farberman B.L. va boshq. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullari. T., 2002 y
4. Ходжаев Б. Педагогик аксиология. – Т., “Fan va texnologiya” nashriёти, 2012. – 165 б
5. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. –Т., 2016. – 314 б.
6. Xalqaro ochiq jamiyat institutining «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» dasturi. T., 2002 y.

RAHBAR BOSHQARUV FAOLIYATINING O‘ZIGA XOS INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Safarov Dilmurod Xalimovich,

*Navoiy viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi,
“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari”
kafedrasini mudiri, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent*

Ushbu maqolada rahbar boshqaruv faoliyatining o‘ziga xos individual-psixologik xususiyatlari, rahbar qat’iyatlilik, talabchanlik, kerak bo‘lsa, qattiqqo‘llik xususiyatlariga ega bo‘lishi, Rahbar o‘z atrofidagi muhit, ma’naviy iqlim, odamlarni o‘ziga qaratishi, o‘ziga jalb eta olishligi, boshqaruv jarayonini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish kabi mavzular ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: rahbar, boshqaruv, ma’naviy iqlim, qat’iyatlilik, individual-psixologik xususiyatlari.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ИНДИВИДУАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РУКОВОДИТЕЛЯ

Данная статья посвящена индивидуально-психологическим характеристикам управленческой деятельности руководителя. Руководитель должен обладать характеристиками настойчивости, требовательности, при необходимости жёсткости, в статье раскрываются такие темы, как окружение лидера, духовный климат, умение привлекать и удерживать людей, процесс управления, устремлённость к цели.

Ключевые слова: руководитель, управление, нравственный климат, детерминация, индивидуально-психологические особенности.

SPECIFIC INDIVIDUAL-PSYCHOLOGICAL PECULIARITIES OF MANAGERIAL ACTIVITY OF A LEADER

This article is devoted to individual-psychological characteristics of managerial activity of a leader. The leader should have the characteristics of perseverance, demanding, if necessary rigidity, the article reveals such topics as leader's environment, spiritual climate, ability to attract and engage people, management process, aspiration to the goal.

Key words: leader, management, moral climate, determination, individual psychological characteristics.

Kirish. Mamlakatimizda rahbar kadrlarni tayyorlash bugungi kunda har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har jihatdan mukammal rahbarlarni tayyorlamay turib jamiyatni rivojlantirib bo‘lmaydi. Zero, O‘zbekistonning buyuk bo‘lishi, hayotimizning tinch, farovon va ijtimoiy jihatdan yuksak bo‘lishi barcha bo‘g‘inlardagi kadrlarga bog‘liqdir. Kadrlarni tanlashda, avvalo, uning ma’naviyati muhim o‘rin tutadi. Chunki rahbar va uning ma’naviyati xalqning, davlatning va jamiyatning kuch qudratidir. Qolaversa, har qanday rahbarni ham ma’naviyatsiz tasavvur etish juda qiyin. Shu nuqtayi nazardan, biz tadqiqotimiz davomida rahbar ma’naviyati va uning ijtimoiy – psixologik xususiyatlari borasida tegishli adabiyotlarni o‘rgandik va izlanishlar olib bordik. Bunda, asosan, rahbarning mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotida tutgan o‘rni hamda shaxsiy fazilatlariga jiddiy e’tibor qaratildi. O‘ylaymizki, biz o‘rgangan nazariy bilimlar rahbarning boshqaruv faoliyatiga, uning ma’naviyatiga hamda uning individual psixologik xususiyatlariga oid bugungi talablarni yanada chuqurroq tasavvur etish imkonini beradi.

Asosiy qism. Rahbarning fazilati odamlarni rozi qilish, ularga g‘amxo‘rlik, mehribonlik ko‘rsata olish imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Bu axloqlilikdir. O‘zgalarning hayotini yaxshilash, ularga hamdard bo‘lish rahbar axloqini belgilaydi. Axloq — xulq-atvor, harakat va amaldan iborat. Birovga adolatli munosabat, xulq-atvorni, o‘zganing og‘irini yengil qilish harakatni va aniq ishlarni amalga oshirish amalini bildiradi. Ko‘zi to‘g‘rilik bilan o‘zgalarning aybini ko‘rsa ham kechiradi. Qo‘li to‘g‘rilik bilan bironing haqqini olmaydi, aksincha, muhtojga beradi. Dil to‘g‘riligi bilan o‘zganing «dardini o‘z dardi» deb biladi. Bunday axloq egasiga odamlar ishonadi, muammolarni hal qilish uchun hamkorlikka intiladi va kezi kelganda rahbarni balo-qazolardan himoya qiladi.

Hozirgi kunda «Rahbar qat’iyatlilik, talabchanlik, kerak bo‘lsa, qattiqqo‘llik xususiyatlariga ega bo‘lishi lozim». Bu fazilatlar bo‘lmasa odamlarni bir maqsadga uyushtira olmaydi. Uning qat’iyatliliigi aniq

g‘oya va maqsadga ega bo‘lishini, talabchanligini, o‘zi va o‘zgalarni ana shu g‘oya va maqsad atrofida uyushtira olishini va uni amalga oshirishini bildiradi.

Bu o‘rinda qattiqqo‘llik tushunchasini kengroq izohlab o‘tish lozim. Qattiqqo‘llik rahbarning to‘g‘ri-noto‘g‘ri so‘zlari, ishlar va harakatlarda o‘jarlik bilan oyoq tirab olishi emas. Qattiqqo‘llik to‘g‘ri ishlarni qat’iy turib himoya qilishni, ijro intizomini mustahkamlashni va rahbarning o‘zi barcha ishlarning borishidan xabardor bo‘lishini bildiradi. Rahbar shaxsning ishning samarasida qattiqqo‘lligi o‘zini oqlaydi. Aks holda loqaydlik, beg‘amlilik, qonunbuzarlik ishning samarasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu ma’noda qo‘llangan qattiqqo‘llik tushunchasi rahbarning ijobiy fazilatidir. Bu fazilatsiz u zamondan orqada qoladi, ishlari orqaga ketadi va jamoada loqaydlik muhitini keltirib chiqaradi.

Rahbar uchun zarur bo‘lgan yana bir muhim fazilat shundan iboratki, u xalq bilan topisha olishi lozim. Xalq bilan til topishish yuksak madaniyatlilikni talab qiladi. Odamlar bilan ishlaydigan, ularni boshqaradigan kishi madaniyatli bo‘lmasa ishi yurishmaydi. Madaniyatli bo‘lish yaxshi kiyinib, bo‘yinbog‘ taqib yurishdan iborat emas. Madaniyatlilik odamlar bilan samimiy so‘zlashish, birgalikda ishlash va ular bilan doimiy, mustahkam aloqada bo‘lishdir.

Rahbar madaniyati uning xalq ichida bo‘lishi va unga nisbatan odamlarning munosabatida ko‘rinadi. Xalq bilan til topisha olmagan odam rahbar bo‘la olmaydi. Chunki uni odamlar yoqtirmaydi, unga ishonmaydi va undan shubhalanadi. Bunday rahbarning ishi yurishadimi? Odamlar bilan til topisha olmagan kishi qanday qilib o‘zini rahbar sanay oladi?

Shu ma’noda madaniyatsiz rahbar ishni barbod qiladi. Shaxsiy manfaatidan o‘zga narsani ko‘rmaslik ham madaniyatsizlikni ko‘rsatadi. Odamlar shaxsiy manfaatining quli bo‘lgan rahbardan yuz o‘giradilar.

«Rahbar o‘z atrofidagi muhit, ma’naviy iqlim, odamlarni o‘ziga qaratishi, o‘ziga jalb eta olishi kerak». Bu o‘rinda gap rahbar ma’naviyati haqida bormoqda. Ma’naviyatli rahbar o‘z atrofida sog‘lom muhit va ma’naviy iqlimni yuzaga keltiradi. Shunda odamlar unga intiladi. Rahbar ma’naviyati, rahbarning «istarasi issiq va fayzli bo‘lishi»da ko‘rinadi. Haqiqatan ham yaxshi inson istarali va fayzli bo‘ladi. Aksincha, byurokrat rahbar sirli, aldoqchi va baxil bo‘ladi. Bu o‘rinda shunday bir gap bor: istarali va fayzli rahbar huzuridan odamlar muammosi hal bo‘lmasa ham ko‘tarinki kayfiyat bilan, rozi holda chiqadilar. Bunday rahbar xatoga yo‘l qo‘ysa ham odamlar uni kechiradi, xatolardan chiqish yo‘llarini ko‘rsatadilar. Mana bu fazilatlar ham rahbar ma’naviyatini bezaydi.

Rahbar odamlarni boshqarishi bilan o‘zgalardan ajralib turadi. U mehnat jamoasida va jamiyatda barchaning ko‘z o‘ngida turadi. Shu sababli uning zimmasida o‘zgalardan nisbatan ko‘proq mas’uliyat bor. Mas’uliyat — bu burchni bajarishda qat’iy bo‘lishdir. Rahbarning, sodda qilib aytganda, otning kallasiday yuragi bo‘lishi kerak» deganidir.

«Bugungi kunda rahbar faqat o‘zi yonib qolmay, unga ko‘z tikib, undan ko‘p narsani kutib turgan xalqni ham yondira olishi zarur. Men yondirish deganda, odamlarni birlashtirish, odamlarni boshqarishni va ularni yuksak maqsadlar sari safarbar etishni nazarda tutaman».

Binobarin, rahbar fazilatlaridan yana biri tashabbuskorlik. Tashabbuskor rahbar yonib, zavq bilan yashaydi va ishlaydi. Rahbarning tashabbuskorligi uch narsada bilinadi: odamlarni birlashtirish, ularni boshqarish va safarbar etish. Birlik yo‘q joyda baraka va ishda unum bo‘lmaydi. Boshqaruv (uyushtiruvchanlik) zaif bo‘lsa, tartib va intizomga putur yetadi. Safarbarlik bo‘lmasa, bunyodkorlik bo‘lmaydi.

Odamlar birlashsa, uyushsa va safarbar etilsa jamiyat farovonlikka yuz tutadi. Odamlarda yashash va ishlashga ishtiyoq ko‘payaveradi. Ruhi yaxshilanib, yangilanish ro‘y beradi. Muammo va illatlar kamayadi. Bularning barchasi rahbarning yonishiga, tashabbuskorligiga bog‘liq.

«Rahbar juda ortiqcha sirli bo‘lmasligi, bag‘rikeng va kechirimli bo‘lishi lozim». Rahbar mas’uliyati tolerantlik (bag‘rikenglik) bilan ham belgilanadi. Tolerantlik rahbar shaxsini yuksaltiradi, uni maydalashish illatlaridan saqlab qoladi.

Sirli tuyulgan odamga xalq o‘z dilini yormaydi, undan o‘zini olib qochadi. Begonasirash, ishonchsizlik kelib chiqadi. Arzimas xatolar uchun xunoblik, ma’naviy muhit buzilib, huquqbuzarlik sodir bo‘ladi. Bag‘rikeng va kechirimli rahbar muammolarni bosiqlik bilan o‘z vaqtida va joyida hal qiladi. Shu ma’noda rahbar shaxsning tolerantligi kechirimli bo‘lish va jamiyatni muolaja qilishdan iborat.

Milliy ma’naviyatimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ulug‘ allomalarimiz tomonidan davlat xizmatchilari, mulozimlariga xos ijobiy va salbiy sifatlarga muayyan munosabatlar bildirib kelinganligining guvohi bo‘lamiz. Amir Temurning «Temur tuzuklari», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarlaridagi fikrlari va boshqalar bunga yaqqol misollar bo‘la oladi.

Biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, rahbar kadrlarning boshqaruv uslubi, uning individual psixologik xususiyatlari, ma’naviyati masalasiga alohida e’tibor beriladi. Bu esa yillar davomida tadrijiy, bir yo‘sinda zamonaviy kadrlarni tarbiyalashning yangi pedagogik konsepsiyasi ishlab chiqilganini ko‘rish mumkin.

Tashkil etgan har bir fakt — hayotiylik, o‘tish davrini tezlatish va yengillatish maqsadi bilan yo‘g‘rilgan. Tashabbuskorlik, halollik, yurt dardi bilan yonish g‘oyasi bu konsepsiyaning asosini tashkil etadi.

Bizning fikrimizcha, rahbar kadrlarning boshqaruv uslubi, uning individual psixologik xususiyatlari va ma‘naviyati masalasiga yuqori darajada e‘tibor berilishi, uning sabablarini chuqur ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishni taqozo etish bilan birga zamonaviy kadrlarni ma‘naviy shakllantirish bo‘yicha yagona tizim konsepsiyasini hozirgi zamon boshqaruv pedagogikasi nuqtayi nazaridan nazariy-metodologik ishlab chiqish — kelajagi buyuk O‘zbekistonni barpo qilishning eng muhim talablaridan biridir.

Rahbarlik faoliyati va rahbar shaxsi uchun irodaviy sifatlar juda muhim ahamiyatga ega, uni boshqarish esa psixologik to‘siqlar, vaziyatlar, nizoli holatlarni yengish manbasi bo‘lib hisoblanadi.

Rahbar kadrlarning nufuzi barqaror iroda subyektini ekanligini har qaysi harakat va faoliyatida namoyish qilishda o‘z ifodasini topadi, uni komillikka yo‘naltirishga imkon yaratadi. Shaxslararo munosabatda iliq tuyg‘uni vujudga keltiradi, insonni inson tomonidan to‘g‘ri idrok qilishga sharoit tug‘diradi, individual uslubni shakllantiradi, obro‘-e‘tibor ma‘naviy boylar bo‘lishdan tashqari ishlab chiqarish samaradorligining omili, iliq psixologik muhitning mexanizmi hisoblanadi. Shaxsning irodasiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- irodaviy kuch-quvvatning mujassamlashuvi,
- boshqaruv faoliyatining mashaqqatlari, zahmatlari,
- maqsadga intilishi va sobitqadamlilik,
- tashabbus, mustaqillik, ijodiylik,
- sabotlilik, qat‘iylik, prinsipiiallik,
- vazminlik, esankiramaslik, o‘zini qo‘lga ola bilishlik,
- intizomlilik, o‘zini -‘ozi uddalash, o‘ziga o‘zi buyruq berish,
- o‘z kuchiga ishonch, o‘zini safarbar qila olishlik va boshqalar.

Ma‘lumki, boshqaruv jarayoni uchun ijrochilarning psixologik xususiyatlari va ularning o‘ziga xosligi muhim ahamiyatga ega. Xuddi shu boisdan jamoa, guruh va ularning a‘zolari yuzasidan muayyan darajadagi psixologik ma‘lumotlilik, faoliyat va muomalani tashkil qilish, uyushtirish, muloqotga kirishish, voqelikka tortilganlik masallarini e‘tiborga olish boshqaruv jarayonini maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta‘minlaydi.

Xulosa. Boshqaruv jarayonini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun rahbar idora qilishning qaysi bo‘g‘inida bo‘lishidan qat‘iy nazar muayyan qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak. Rahbar o‘zining shaxsiy fazilatlarini, mustahkam xarakteri, kuchli irodasi, barqaror hissiyoti barcha narsalarga va jabhalarga nisbatan maxsus qobiliyatlari bilan xalq xo‘jaligini boshqara oladi, xolos. Chunki fan va texnikaning rivoji, odamlarda onglilik darajasining yuksak ko‘rsatkichi, ijtimoiy tajribalarning ta‘sirchan kuchi, kishilarning muayyan bilimlarga ega ekanligi rahbarning komil inson kamoloti pag‘onasiga ko‘tarilishini taqozo etadi.

Ta‘kidlab o‘tilgan rahbar shaxsining qobiliyatlari muhim ahamiyat kasb etib, xarakter, milliy qiyofa qanday rol o‘ynasa, ular ham xuddi shunday qiymatga egadir. Ularni rahbarlarda maxsus shakllantirish bilan kamolot sari yetaklash mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. — T.: “Akademiya”, 2006.
3. Umarov B.M. Muloqot va shaxslararo munosabat psixologiyasi.— T., 1997
4. Xolbekov A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi. - T.: “Akademiya”, 2008.

PEDAGOGICAL PRACTICE IN PRIMARY SCHOOL (USING THE EXAMPLE OF 4+2)

Sadulloeva Mahfuza Gaybulloyevna,
Bukhara State University Lecturer of the Primary education department
m.g.sadulloeva@buxdu.uz

This article considers the main influence of continuous teaching practice on the development of professional competencies of university students. Continuous pedagogical practice at school helps students to discover problems in education, the knowledge of which will prepare the future teacher for real working conditions and will not bring disappointment in the profession. I explore and, considering the modern establishment and development of the correct organization of continuous teaching practice, it is necessary to highlight the main aspects of the study of this topic.

Key words: *continuous pedagogical practice, real conditions, problem, development, professional competencies, motives, skills, competencies.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРАКТИКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ (НА ПРИМЕРЕ 4+2)

В данной статье рассматривается основное влияние непрерывной педагогической практики на развитие профессиональных компетенций студентов вуза. Непрерывная педагогическая практика в школе помогает учащимся выявить проблемы в образовании, знание которых подготовит будущего учителя к реальным условиям труда и не принесёт разочарования в профессии. Исследуются современное становление и развитие правильной организации непрерывной педагогической практики, где необходимо выделить основные аспекты изучения данной темы.

Ключевые слова: *непрерывная педагогическая практика, реальные условия, проблема, развитие, профессиональные компетенции, мотивы, умения, компетенции.*

BOSHLANG'ICH MAKTABDA PEDAGOGIK AMALIYOT (4+2 MISOLDA)

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga uzluksiz o'qitish amaliyotining asosiy ta'siri ko'rib chiqiladi. Maktabda uzluksiz o'qitish amaliyoti talabalarga ta'limdagi muammolarni aniqlashga yordam beradi, ularning bilimlari ortadi va bo'lajak o'qituvchini haqiqiy ish sharoitlariga tayyorlaydi hamda kasbda ishonchsizlikka olib kelmaydi. Bu borada ilmiy izlanishlar olib borib, uzluksiz o'qitish amaliyotini to'g'ri tashkil etishning zamonaviy shakllanishi va rivojlanishini hisobga olgan holda ushbu mavzuni o'rganishning asosiy jihatlarini ajratib ko'rsatish zarur.

Kalit so'zlar: *uzluksiz o'qitish amaliyoti, real sharoit, muammo, rivojlanish, kasbiy kompetensiyalar, motivlar, ko'nikmalar, malakalar.*

Introduction. Undergoing teaching practice at school has a great influence on the professional development of the future teacher: determining the goals and motives of work, developing his skills and competencies, and shaping his outlook on life and profession.

During his stay at school, the trainee gains experience in communicating with the administration, teachers and students, conducts lessons and extracurricular activities and prepares for them, highlights shortcomings and achievements in his work, makes efforts to eliminate them, notes the positive and negative aspects of working at school.

Pedagogical practice at school helps students discover problems in education, knowledge of which will prepare the future teacher for real working conditions and will not bring disappointment in the profession.

Continuous teaching practice is a mandatory area of educational activity for students of pedagogical faculties. Focused on gaining practical experience in applying one's theoretical knowledge in real conditions of the pedagogical process.

In modern schools there are many problems associated both with one specific school and with the entire school education system.

Methods. The main and determining ones are the acute shortage of qualified teachers, the lack of motivation to study among the vast majority of schoolchildren, the upbringing of children in dysfunctional families, the imperfection of many educational programs compiled by teachers, the lack of consistency and certainty in the general system of Russian education.

Considering the specific problems of a modern school, it is necessary to comprehensively assess the education system in Uzbekistan, the influence on it of the current way of life of citizens of Uzbekistan, as well as the impact of internal and external factors on the teacher’s self-awareness.

The research method was interviewing working teachers with students in practice. The study of the problems of modern school was carried out through conversations with the teaching community of schools.

The conversations touched on various problems of the domestic school, the decline in the authority of the teacher, a large amount of unnecessary reporting, the presence of a huge number of educational programs and textbooks, the lack of motivation in the vast majority of schoolchildren, the impact of the Internet on students, the dysfunction of families in which children are raised and raised.

The main problem faced by the vast majority of heads of schools and other educational institutions, and which was noted by all teachers interviewed, is the acute shortage of qualified teachers.

Discussion. Now teachers have too many responsibilities, but their rights are limited. They have to perform part of the functions of parents in raising children. The right to discuss the behavior of teachers, which was given to children, played a destabilizing role. Responsibilities are difficult and unfashionable to fulfill, so they often remain unfulfilled: study well, respect elders and teachers, treat the work of others conscientiously.

But with rights, things are different. Teenagers have learned well what a teacher has the right to and what he or she does not. Let's consider some situations that we observed during teaching practice. The teacher asked to give back the phone that the child was playing on during the lesson. In response: “You have no right!” The teacher called a student to the board who was talking and distracted. The same remark addressed to the teacher. Teachers have no rights, but children, on the contrary, are given abundant rights.

This leads to another problem - misunderstandings and disagreements between parents and teachers. They appear for various reasons, objective and subjective: underestimation (overestimation) of grades, misunderstanding of the subject, bad behavior in class, raising your voice at the child, ignoring his requests and demands. This happens for the following reason.

Students undergo internships in order to gain real ideas about their future professional activities; the practice contributes to:

Deepening and consolidating the student’s theoretical knowledge:

1. Creation of conditions close to real professional activity.
2. Development of skills for future professional teaching activities.
3. Development of skills for future professional activity in a specific area.
4. Understanding the essence of the significance of the teaching profession.
5. Understanding the content of the teacher’s work.

Pedagogical practice in primary school is focused on developing students' professional skills in working with primary school students. Students get an idea of how the learning process of relationships with children, other teachers, and the school’s management team is organized. In addition, practice allows the student to realize his involvement in pedagogy and understand that teaching in primary school is really what he wants and what to strive for, or to reconsider his choice.

Pedagogical practice is included in the training program for students of pedagogical faculties. It is preceded by a variety of courses aimed at preparing students to interact with primary school students. For example, this is the psychology of development of primary school students, the theory of teaching the Russian language and literature in primary classes, the technology of implementing training in the direction.

Concentrated form – continuous practice. The student holds the position of primary school teacher for a certain period of time.

Dispersed form - partial practice, alternating with the study of theory by day of the week, week, month.

Combined form - practice combines elements of continuity and partiality. Their harmonious combination gives the best practical effect.

Stages of internship in primary school.

Pedagogical practice in primary school is implemented in several stages:

1. Introductory stage. The student is introduced to his work and its features. The head of the practice draws up a plan for the trainee’s activities for a certain period, prepares specific activities that must be implemented, introduces the student to the scheme of training sessions. The student is given an understanding of the purpose of the internship, given instructions for completing the internship and becomes familiar with the rules for completing it.

2. Activity stage. The student moves on to real action. He attends lessons from other primary school teachers of this educational institution, analyzes their work, adopts some communication and teaching

techniques, studies the organization of extracurricular activities and begins his practical activities by conducting extracurricular activities. This will allow the student to get to know the students better and establish contacts with them. Then, the student begins to plan and conduct his own training sessions. The student prepares homework for students and checks it, collects notebooks to check students' work in class, analyzes the individual needs of each student and identifies those with whom it is necessary to conduct additional classes, consultations, and conversations outside of class time. In addition, during the workday, it is necessary to attend after-school groups to observe and assist students in their class who attend them.

3. Final stage. At this stage, the student needs to prepare a practice report, completely fill out the practice diary, sign and certify all documents. The trainee analyzes his educational background and extracurricular activities, submits his class notes for review, and draws up a report on the parent meeting and its results. At the end, a final conference is held in practice, at which the results of practical activities are summed up.

Approximate diagram of a pedagogical diary

Diary

Student _____ year _____ faculty

Pedagogical practice is carried out in _____ secondary school class

No. _____ city _____ 2007 academic year

Group practice manager _____

Methodist _____

Methodist _____

Methodist _____

Head teacher _____

Deputy Director for Educational Work

Organizer of extracurricular and extracurricular activities _____

Teacher _____

Teacher _____

Classroom teacher

School address _____

Approximate diagram of a pedagogical diary.

1. Brief objective data about the class in which educational work was carried out.
2. Participation in social and educational events in the process of teaching practice.
3. Number and brief analysis of physical education lessons conducted.
4. Number and types of recreational activities during the school day.
5. Justify your own opinion about the extent to which the school is prepared to implement health-improving activities.
6. Number and brief review of lessons attended in other general education subjects in the assigned class.

7. Sports and mass events, prepared and carried out independently and as part of a group for trainees.

8. Brief content of educational activities in the assigned class.

9. Conclusion and conclusions. Proposals for improving the preparation of students for practice. What activities were particularly challenging? Why? What attracts you and what repels you in teaching?

Structure and content of teaching practice.

In its structure, the practice of a teacher of primary school students consists of two main parts:

1. Scientific part. It is associated with writing a student's scientific work. The student's practice should be related to the topic of his work and focused on collecting information on it, i.e. the student must use these practices in his work. For example, conduct some kind of analysis, provide static data on the performance of primary school students of a given educational institution in a specific discipline.

2. Pedagogical part. In it, the student learns how to organize training sessions

In primary school, students learn to develop didactic materials, choose a method of conducting lessons, taking into account modern requirements of federal standards. The trainee's work should be carried out under the guidance of experienced professional teachers with a large range of independence.

The content of teaching practice in primary school includes:

1. Familiarity with the structure of practice in primary school;
2. Familiarity with state standards and the educational program in a specific discipline;
3. Familiarity with the content of the discipline course;
4. Familiarity with the forms of conducting lessons in primary classes and teaching methods.
5. Selecting teaching aids for conducting your own classes;

6. Development of methodological recommendations;
7. Formation of practical skills in the implementation of a separate educational lesson and extracurricular activities;
8. Full and partial independent conduct of lessons in primary school;
9. Analytical work on practice: analysis of one’s activities and summing up, drawing up prospects for one’s development as a professional teacher.

I explore and, considering the modern establishment and development of the correct organization of continuous teaching practice, it is necessary to highlight the following:

- the dependence of the effectiveness of professional training of a future teacher on social priorities, according to which modern society needs active, enterprising, creatively thinking and acting individuals capable of carrying out a creative movement towards social progress;
- dependence of the development of the creative personality of the future teacher on the complexity of the socio-economic conditions of society, the existence of different views on the problem;
- dependence of the content of professional pedagogical education on the real and potential capabilities of future teachers;
- dependence of the development of creative competence of future teachers on the scientifically based use of psychological mechanisms and pedagogical technologies;
- dependence of the effectiveness of the formation and development of the professional and creative competence of the future teacher on the uneven mental development of the individual.

Conclusion. As a systematic analysis of the state of training of future teachers has shown, the trends (Latin *tendenz* - direction) of modern teacher education are:

- orientation of educational institutions to improve the quality of training of specialists;
- changing the target orientation of the vocational education system towards the formation of competencies;
- transition from mass, collective forms of student education to individual ones, to the development of creative abilities based on self-education, self-development, self-improvement;
- promoting the priority humanistic orientation of modern pedagogical education;
- appeal to scientific strategies of creative psychology and innovative pedagogy based on taking into account domestic and international scientific and pedagogical heritage.

References:

1. Andreev V.I. Pedagogy: training course for creative self-development. Kazan: Center for Innovation technologies, 2000. 608 p.
2. Zeer E.F. Personality-oriented professional education: theoretical and methodological aspect. Ekaterinburg: Ural Publishing House. state prof. ped. University, 2001.
3. Kodzhaspirova G.M., Kodzhaspirov A.u. Pedagogical dictionary. M., 2001.
4. Kuzmina N.V. Creative potential of a specialist: acmeological problems of development // Humanization Education Research Institute RAO. Biysk, 2004.
5. Tutolmin A.V. Formation of professional and creative competence of a student teacher: methodology and analysis of the experiment. Glazov: Glazov State University. ped. Institute named after V.G. Korolenko, 2006.
6. Gaybulloeva S. M., Farkhodova K.M. Causes, Forms and Corrective Actions of Deviant Behavior among School Children //International Journal of Culture and Modernity.–2021.–Т. 11.–С. 43-46.
Маҳаллий тиббиёт психологияси учун тақдим этилган адабиётларда ҳам ушбу методика борасида кўрсатмалар мавжуд. Методика бир жиҳатдан беморларнинг касалликка чалинганлик ва даво чора-тадбирлари натижасига нисбатан ўзларида хавотир ҳиссини таъсирига берилувчанликни, иккинчи жиҳати эса касалликларни келиб чиқишида хавотир омилнинг ўрнини баҳолаш имконини беради. Бундан кўринадики, методика тиббиёт ходимлари беморларни даволашни амалга оширишларида улардаги хавотир ҳисси борасида хулоса чиқаришлари учун хизмат қилади. Ўз навбатида мазкур методикадан тиббиётнинг турли соҳалари билан боғлиқ тадқиқотларда касалликнинг келиб чиқиши ҳамда даволаш самарадорлигида хавотир ҳиссининг аҳамиятини эмпирик ўрганиш ва илмий хулосалар олиш учун ҳам фойдаланиш мумкин. Иккинчи ўринни эса Миссисипи шкаласи (Н.М.Кеан, Дж.М.Кэддел, К.Л.Тэйлор) жой олди (18,75% ва 3,25%). Мазкур шкаласининг тўлиқ номланиши посттравматик стрессли бузилишни баҳоловчи Миссисипи шкаласи (ПТСР) тарзда ифодаланади. Методиканинг ўзбек этномаданий тадқиқотларда қўлланилганлиги бўйича аниқ маълумотлар кузатилмади. Қолган методикалардан тиббиёт ходимлари фаолиятида татбиқ этилиш хусусияти (3,12÷10,93 % чегараларида) қуйи даражада фойдаланилаётганлиги кузатилди. Талабаларнинг касбий тайёргарлик босқичида методикалардан хабардорлик даражалари қатор баҳолаш воситалари бўйича: ММРІ ва унинг шакллари, «Мини- мульт» сўровномаси ҳамда Г.Роршахнинг «Сиёҳ доғлари» тести ўрин олган. Ўз навбатида бобда шахс бузилишлари диагностикаси учун татбиқ қилинадиган методикалар тизимлатирилган.

Соҳада қўлланиладиган диагностика методикаларини саралаш учун бир қатор мезонларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

сурункали соматик касалликлар учун психологик хавф омилларини аниқлаш (депрессия, душманлик, невротизмнинг юқори даражаси ва бошқалар);

соматик касалликларга чалинган беморларда психологик мослашув, психопатологик ўзгаришларни аниқлаш;

профилактика, даволаш ва реабилитацияга риоя қилишнинг психологик кўрсаткичларини аниқлаш;

тиббий аралашувлар самарадорлигининг психологик кўрсаткичларини аниқлаш;

беморларнинг психологик ҳолати ва ҳаёт сифатини даволаш, реабилитация ва профилактикаси самарадорлигини комплекс баҳолашнинг муҳим жиҳатлари сифатида баҳолаш;

соматик тиббиётда психодиагностика ва психометрия усуллари, биринчи навбатда, ҳозирги психологик ҳолатини, шахс хусусиятларини, шунингдек, беморларнинг ҳаёт сифатининг психологик жиҳатларини баҳолашни таъминлаш кабилар.

Хулоса. Бугунги кунда тиббий психодиагностикага бўлган талаб жамиятнинг замонавий ҳаётидаги кўплаб, нейропсихиатрия касалликлари, психосоматик патология ва умумий тиббий амалиётда соматопсихик касалликлар, мия шикастланиши, болалар ва ўсмирлардаги аномал ривожланишлари, хулқ-атвордаги оғишлар ва бошқаларнинг психологик сабаблари билан тиббий даволаш ўртасидаги боғлиқликни ифодаловчи омиларга эга. Бу эса тиббий психодиагностика тиббиётнинг ҳар қандай соҳасида долзарб бўлиб, тиббиётнинг муайян соҳаси вазибалари билан ўзаро боғлиқ ўз вазибаларини ҳал этади.

Ўзбекистонда тиббиёт соҳаси учун психодиагностикани жорий этилиши фан тараққиётининг янги босқичга эришганлигидан далолат беради. Унинг самарадорлигини таъминлашда тиббиёт билан психология соҳаси мутахассисларининг илмий алоқалари, фан ютуқлари интеграцияси, мутахассислар касбий тайёргарлигида тиббий психодиагностика, клиник психометрика ўқув курсларини ўқитишни ҳамда унинг асосий тарғиботчиси сифатида тиббий психологлар тайёрлашни тўғри йўлга қўйиш лозим бўлади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон «2022—2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони, Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.11.2021 йилдаги ПҚ-6-сон «Аҳолига тиббий хизматлар кўрсатиш сифатини яхшилаш ва соғлиқни сақлаш соҳасида кадрлар салоҳиятини янада оширишга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарори.
3. Баротов Ш.Р. Ўзбекистонда психологик хизмат асослари. - Т.2006. Б.49;
4. Ibodullayev Z.R. Tibbiyot psixologiyasi//Darslik.-Toshkent. “Zamin Nashr” nashriyoti. 2019.-494b.
5. Илхамова Д.И. Половозрастные особенности отношения личности к болезни при сердечно-сосудистых заболеваниях (на примере больных ишемической болезнью сердца и артериальной гипертонией). // Автореф.дисс. канд. психол. н. - Т. 2003. - 22 с.
6. Карамиян М.Х. Шахснинг саломатликка қадрият сифатидаги муносабатининг ижтимоий-психологик детерминацияси Психолог.фан. доктори (DSc) диссерт. автореф.-Тошкент, 2019.-81 б.
7. Каримова В.М. Саломатлик психологияси. - Т. 2008. – Б.94.;
8. Нарметова Ю.К.Соғлиқни сақлаш тизимида психологик хизмат фаолиятини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари. // Психолог.фан бўйича фалсаф доктори (PhD) диссерт. автореф.-Тошкент, 2019.- 51 б.
9. Александровский Ю.А. Пограничные психические расстройства. – М.: Медицина, 2000. – 496 с.;
10. Аронов Д.М., Зайцев В.П. Методика оценки качества жизни больных сердечно-сосудистыми заболеваниями // Кардиология. – 2002. – № 5. – С. 92–9.
11. Батаршев А. В. Психодиагностика пограничных расстройств личности и поведения. - М.: Издво Института Психотерапии, 2004. - 320 с.
12. Блейхер В. М. Клиническая патопсихология: рук.для врачей и клин психологов: учеб-метод.пособие / В. М. Блейхер, И. В. Крук, С. Н. Боков. — Москва: МПСИ; Воронеж: МОДЭК, 2002. – 512 с.
13. Вассерман Л.И., Щелкова О.Ю. Медицинская психодиагностика: Теория, практика, обучение. – СПб. – М.: Академия, 2003. – 736 с.
14. Старшенбаум Г.В. Психосоматика: руководство по диагностике и самопомощи. – Ростов н. /Д: Феникс, 2015. – 251 с.;
15. Buchanan T. Using the Internet for psychological research: Personality • testing on the Word Wide Web / T. Buchanan J.L. Smith // British Journal of Psychology. 1999. - Vol. 90. - P: 125-144.;
16. Мелибаева Р.Н. Тиббиётда психодиагностик методикаларини кўллаш муаммолари. Pedagogik mahorat, 37.
17. Мелибаева, Р. Н. (2022). Дикқат бузилишлари психодиагностикаси.
18. Melibayeva, R. (2022). Клиник амалиётда психологик диагностиканинг аҳамияти (Doctoral dissertation, Ўзбекистан Ташкент).
19. Нарметова, Ю. К. (2023). Виды психосоматических расстройств и их характеристика у детей. Gospodarka i Innowacje., 33, 221-224.

БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ ШАХСИНING ГЕНДЕР БУЙИЧА МАСЪУЛИЯТИНИНГ КОМПОНЕНТЛИК ТАРКИБИ

*Сагиндикова Наргиза Жубаткановна,
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат
университети доценти, психология ф.б ф.д.
nargiza_sagindikovan@mail.ru*

Мақолада гендер масъулияти махсус рўйхати ташиқил қилинган, турли жабҳалардаги таҳлили ўрганилган. Шахснинг гендер масъулияти ва унинг моҳияти тўғрисида замонавий тушунчалар мазмуни ва тузилмаси позитив ҳаётий позициясининг идентифицини таъминлаш орқали аниқлаштирилган, бўлажак ўқитувчининг касбий тайёргарлигида гендер ёндашувини амалга ошириш учун шарт-шароитлар модели структуравий компонентларининг талабаларнинг психологик машғулотида ижтимоий аҳамиятга молик фаолиятини босқичма-босқич ташиқил этиши орқали такомиллаштирилган. Бўлажак педагогнинг гендер буйича масъулиятининг таркибий хусусиятларини ўрганиш тадқиқот иши мақсади бўлган ва экспериментал ўрганилган.

***Калит сўзлар:** амалий тажриба, гендер хусусиятлар, ижтимоий муҳит, танқидий тафаккур, хулқнинг гендер стили, иродавий бошқариш, ўз-ўзини бошқариш, гендер билими, ижтимоий муносабатлар, ёшлар психологияси.*

КОМПОНЕНТНЫЙ СОСТАВ ГЕНДЕРНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА

В статье создан специальный список гендерной ответственности, изучен анализ различных сфер. В контексте гендерной ответственности личности и его сущности, содержание и структура современных понятий гармонично определены для обеспечения идентичности позитивной жизненной позиции, модель условий для реализации гендерного подхода в профессиональной подготовке будущего учителя усовершенствована путем поэтапной организации социально-значимой деятельности структурных компонентов на психологических занятиях студентов. Изучение структурных особенностей ответственности будущего педагога по гендеру является целью исследовательской работы и изучено экспериментально.

***Ключевые слова:** практический опыт, гендерные особенности, социальная среда, критическое мышление, гендерный стиль поведения, волевая саморегуляция, самооценка личности, гендерные знания и умения, социальные отношения, психология молодежи.*

THE COMPONENT COMPOSITION OF THE GENDER RESPONSIBILITY OF THE FUTURE TEACHER

The article created a special list of gender responsibility, studied the analysis of various spheres. In the context of the gender responsibility of the individual and his essence, the content and structure of modern concepts are harmoniously defined to ensure the identity of a positive life position, the model of conditions for the implementation of a gender approach in the professional training of a future teacher is improved by the gradual organization of socially significant activities of structural components in the psychological classes of students. The study of the structural features of the future teacher's responsibility for gender is the purpose of the research work and has been studied experimentally.

***Key words:** practical experience, gender characteristics, social environment, critical thinking, gender style of behavior, volitional self-regulation, personal self-assessment, gender knowledge and skills, social relations, youth psychology.*

***Кириш.** Мақоланинг долзарблиги сифатида шуни келтиришимиз мумкинки, масъулият инсон фаолиятининг ҳамма соҳаларида ва умуман, жамиятда шахснинг муваффақиятга эришишида катта аҳамиятга эга.*

У инсон ҳаётининг ва ахлоқининг бирламчи, фундаментал принципларидан бири ҳисобланади. Шу билан бирга, масъулиятнинг ҳозиргача ишлаб чиқилган умумий назариясининг йўқлиги уни ўрганишни мураккаблаштиради. Инсонлар ўз мажбуриятлари, шахсий масъулиятлари ва айблари бўлган ҳолатларга нисбатан ўта таъсирчан бўладилар. Масъулиятни ҳис этишга ундаш жазодан қочиб

кутилишнинг имкони йўклиги туфайли инсонларда хавф-хатар сифатида қабул қилинадими, бу нарса ноқулайликни юзага келтиради. Шу билан бирга, масъулият ҳисси инсонни ривожлантириш, шакллантириш, тарбиялаш керак бўлган ижтимоий жиҳатлардан, деб қаралади. Ҳар бир инсоннинг шахс сифатида шаклланиши учунгина эмас, балки яшаш учун ҳам зарур бўлган жиҳат сифатида ўрганилади.

Рус психологи С.В.Быков ўзининг тадқиқотида масъулият муаммосининг ўрганилиши ҳақида шундай фикрларни билдирганлар. Ижтимоий психология фанида парадигмаларнинг алмашилиши фундаментал муаммоларни ҳал қилишнинг янги концептуал ёндашувларини топишни тақазо этмоқда. Шу каби муаммоларнинг асосийларидан бири шахснинг психологик муаммоси бўлган индивидуал масъулият феноменидир. Субъектнинг ижтимоий хулқ-атворида масъулиятнинг намоён бўлиши у томонидан шахсий норматив этика тизимини ифодаловчи ички маънавий ва мораль позициянинг ишлаб чиқилганлиги билан боғлиқдир. Масъулиятни намоён бўлиши муаммоси маълум бир ижтимоий вазиятлардаги хулқ-атворни ички ва ташқи бошқарув механизмларининг ўзаро муносабати сифатида майдонга чиқади. Инсон томонидан ўзининг ижтимоий ва шахсий идентивлигини куриш жараёнлари, ўзгарувчи ижтимоий муҳитларда хулқ-атворнинг индивидуал стратегияларини таъминловчи персонал кадриятлар, когнитив механизмлар тизимининг шаклланиши, яъни умумий тарзда шахснинг ижтимоийлашув жараёнидаги фаоллиги бугунги кунда ижтимоий-психологик билимларнинг муҳим қисмини ташкил этади [1; 23,24].

Мақолада илмий янгилик сифатида олиб борилган тадқиқот иши юзасидан ўрганилаётган муаммонинг таҳлили гендер бўйича масъулиятнинг турли таркибий жиҳатларини ажратиб кўрсатиш имконини берди, ва биз бу жиҳатлар асосида уларни психодиагностика қилиш, яъни ўз гендер ролини билиш имкониятларини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги конкретлаштирилган таркибий хусусиятлар рўйхатини аниқладик.

- гендер маданияти;
- анъанавий гендер стереотипларига риоя қилиш;
- гендер толерантлик;
- гендер билан боғлиқ хулқ-атвор услуги;
- ўз гендер ролини англаш;
- одоб-ахлоққа оид масъулият;
- шахсий етуклик;
- ўз-ўзини англаш;
- рефлексивлик;
- гендер билимлар ва кўникмалар;
- коммуникабеллик;
- иродавий ўз-ўзини тартибга солиш;
- шахснинг ижтимоий-психологик мослашуви;
- шахснинг ўз-ўзини баҳолаши;
- гендер муаммоларини фарқлай олиш қобилияти;
- ҳиссий соҳада (эмоционал ҳолатларда), фаолиятда ва хатти-ҳаракатларда ўз-ўзини назорат қилиш;
- фаол ҳаётий позиция.

Тадқиқот объекти ва қўлланилган методлар. Юқоридаги рўйхатга аниқлик киритиш мақсадида олдиндан тайёрланган сўровнома бўйича эксперт баҳолаш ўтказилди. Тайёрланган воситалар тўпламининг асосини бўлажак педагогнинг гендер бўйича масъулиятининг конкретлаштирилган ўн еттита таркибий хусусиятидан иборат махсус рўйхат ташкил қилди. Эксперт баҳолаш қулай бўлиши учун сўровномага тўққиз балли шкала киритилди ва батафсил йўриқнома (тушунтиришлар билан) тайёрланди: “Йўриқнома: қуйида ўрганилаётган муаммонинг назарий таҳлили натижалари бўйича ажратилган, бўлажак педагогнинг гендер бўйича масъулиятининг конкретлаштирилган ўн еттита таркибий хусусиятидан иборат рўйхат келтирилган. Сизнинг вазифангиз қуйида келтирилган хусусиятларни диққат билан ўқиб чиқиш ва уларнинг ҳар бирини бўлажак педагогнинг гендер бўйича масъулиятининг таркибий қисмига мувофиқлигини алоҳида баҳолашдан иборат. Эксперт баҳолаш жараёнида тўққиз балли шкаладан фойдаланиш лозим, бунда: 1 дан 3 баллгача натижа - хусусиятнинг ўртадан паст даражада мувофиқлиги; 4 дан 6 баллгача - хусусиятнинг ўртача даражада; 7 дан 9 баллгача - хусусиятнинг ўртадан юқори даражада мувофиқлиги сифатида талқин қилинади. Эксперт баҳолашнинг барча натижалари Ўзбекистон Республикасининг олий таълим муассасаларида бўлажак педагог кадрларни тайёрлаш жараёнини такомиллаштириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш мақсадида умумлаштирилган шаклда

кўлланилади. Шу билан бирга, фақат 7 дан 9 баллгача (хусусиятнинг ўртадан юқори даражада мувофиқлиги) баҳо оладиган хусусиятларгина умумлаштиригандан сўнг бўлажак педагогнинг гендер бўйича масъулиятининг муҳим таркибий қисмлари сифатида кўриб чиқилади».

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. Эксперт сўровномасига тегишли мутахассислар жалб этилди. Уларни танлаш қуйидаги мезонларга мувофиқ амалга оширилди:

амалий, шу жумладан, илмий-тадқиқот иш тажрибалари;

мутахассиснинг ихтисослиги, умумий билим даражаси;

танқидий фикрлаш, яъни замонавий воқеликни танқидий идрок этиш қобилияти;

конструктив фикрлаш, яъни янги билимларни эгаллаш, уларни такомиллаштириш ва ҳоказолар бўйича қобилияти.

Шундай қилиб, сўровномада энг кўп тайёрланган мутахассислардан жами 183 нафар эксперт иштирок этди, жумладан, олий ўқув муассасаларида бўлажак педагогларни тайёрлаш жараёнида бевосита иштирок этувчи, шунингдек, илмий-тадқиқот фаолияти билан шуғулланувчи педагог мутахассислар - 120 киши (65,57%);

олий таълим муассасаларида амалий иш тажрибасига эга, шунингдек, илмий-тадқиқот фаолияти билан шуғулланувчи психолог мутахассислар – 63 киши (34,43%)

1-жадвал.

Бўлажак педагог шахсининг гендер бўйича масъулиятининг таркибий қисмларини эксперт баҳолашда иштирок этган мутахассисларнинг миқдорий хусусиятлари(n=183)


Экспертлар тоифалари (категориялари)		Педагоглар		Психологлар		Жами	
		миқ-дори	% да	миқ-дори	% да	миқ-дори	% да
Жинси бўйича	Аёл	67	55,83	38	60,32	105	57,38
	Эркак	53	44,17	25	39,68	78	42,62
	Жами	120	65,57	63	34,43	183	100,00
Касбий фаолият стажига кўра	10 йилдан 15 йилгача	45	24,59	22	12,02	67	36,61
	16 йилдан 20 йилгача	44	24,04	23	12,57	67	36,61
	21 йил ва ундан кўпроқ	31	16,94	18	9,84	49	26,78
	Жами	120	65,57	63	34,43	183	100,00
Ёш бўйича	30 ёшдан 35 ёшгача	28	15,30	16	8,74	44	24,04
	36 ёшдан 40 ёшгача	39	21,31	32	17,49	71	38,80
	41 ёш ва ундан катта	53	28,96	15	8,20	68	37,16
	Жами	120	65,57	63	34,43	183	100,00

Гендер жиҳатдан, экспертлар орасида аёл мутахассислар кўпроқ эди (57,38 % / 105 киши), ва мос равишда эркак мутахассислар - 42,62 % ни ташкил қилди (78 киши) (1-расм).



1-расм. Бўлажак педагог шахсининг гендер бўйича масъулиятининг таркибий қисмларини эксперт баҳолашда иштирок этган гендер мутахассисларининг микдорий хусусиятлари (n=183)

Ёш хусусиятларига кўра, экспертлар ичида 36 ёшдан 40 ёшгача бўлган мутахассислар гуруҳи устун келиб, 38,8 % ни ташкил этди (71 киши). 41 ва ундан катгароқ ёшдаги мутахассислар 37,16 % ни (68 киши) ва мос равишда 30 ёшдан 35 ёшгача бўлганлар 24,04 % ни ташкил этди (44 киши) (2-расм).



2-расм. Бўлажак педагог шахсининг гендер бўйича масъулиятининг таркибий қисмларини эксперт баҳолашда иштирок этган мутахассисларнинг ёш бўйича микдорий хусусиятлари (n=183)

Сўровнома ўтказишдан олдин мутахассисларга “Психология фанида бўлажак педагог шахсининг гендер бўйича масъулиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-психологик шароитларини ўрганишнинг назарий ва услубий асослари” мавзусидаги маъруза тақдим этилди. Маърузада назарий тадқиқот натижалари, хусусан, гендер феноменини замонавий тадқиқот ёндашувлари контекстида ўрганиш натижалари, гендер бўйича масъулиятни тушунчаси ва унинг моҳияти, шунингдек, замонавий жамиятда гендер бўйича масъулиятни ривожлантириш учун зарур шарт-шароитлар ёритилган.

Эксперт баҳолаш натижалари бирламчи қайта ишлангандан сўнг умумий жадвалда (3-) умумлаштирилди, бу мода (M_0), медиана (M_d) ва математик кутиш (M) каби муҳим кўрсаткичларни ҳисоблаш имконини берди 2-жадвал).

Бўлажак педагог шахсининг гендер бўйича масъулиятининг таркибий хусусиятларини эксперт баҳолаш натижаларининг бирламчи тавсифлаш статистикаси кўрсаткичлари (n = 183)

№	Гендер бўйича масъулиятнинг таркибий хусусиятлари рўйхати	M _o (мода)	M _d (медиана)	M (мат. кутиш.)
ХУСУСИЯТЛАРНИНГ ЮҚОРИ ДАРАЖАДА МУВОФИҚЛИГИ				
1	гендер толерантлик	9	9	8,79
2	гендер маданияти	9	9	8,75
3	шахсий етуклик	8	8	8,07
4	одоб-ахлоққа оид масъулият	8	8	7,99
5	шахсининг ижтимоий-психологик мослашуви	8	8	7,87
6	иродавий ўз-ўзини тартибга солиш	8	8	7,74
7	шахсининг ўз-ўзини баҳолаши	8	8	7,70
8	ҳиссий соҳада, фаолиятда ва хатти-ҳаракатларда ўз-ўзини назорат қилиш	7	8	7,67
9	рефлексивлик	7	7	7,40
ХУСУСИЯТЛАРНИНГ ЎРТАЧА ДАРАЖАДА МУВОФИҚЛИГИ				
10	гендер билан боғлиқ хулқ-атвор услуби	5	5	5,56
11	анъанавий гендер стереотипларига риоя қилиш	5	5	5,52
12	ўз гендер ролини англаш	5	5	5,50
13	гендер билимлари ва кўникмалари	5	5	5,34
14	фаол ҳаётини позиция	5	5	4,96
15	коммуникабельлик	5	5	4,86
16	гендер муаммоларини фарқлай олиш қобилияти	5	5	4,75
17	ўз-ўзини англаш	4	4	4,07

Шундай қилиб, бирламчи тавсифловчи статистика маълумотларини ҳисоблаш натижалари бўйича, мутахассисларнинг умумлаштирилган фикрига кўра, тақдим этилган ўн еттита хусусиятдан тўққизтаси энг долзарб эканлиги аниқланди. Бу ҳисоблаб чиқилган мода (M_o), медиана (M_d) ва математик кутиш (M) кўрсаткичлари орқали тасдиқланди, уларнинг қийматлари 7 дан 8 эксперт баллгача ўзгариб боради ва мувофиқликнинг юқори даражаси сифатида талқин этилади. Демак, ушбу кўрсаткичлар асосида шуни таъкидлаш мумкинки, кўпчилик мутахассисларнинг фикрига кўра, тақдим этилганлар ичида тўққизта хусусиятни бўлажак педагогларнинг гендер бўйича масъулиятининг таркибий қисмлари сифатида кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Мутахассислар ушбу таркибий қисмларга қуйидагиларни тегишли деб кўрсатишди.

Хулоса. Демак, юқорида айтилганлардан келиб чиққан ҳолда, назарий таҳлил, шунингдек, махсус тайёрланган сўровнома бўйича эксперт баҳолаш натижалари (n=183) бўлажак педагогнинг гендер бўйича масъулиятининг ўрганилаётган ходисани мураккаб ижтимоий-психологик тизим сифатида акс эттирадиган энг муҳим ички тузилишини аниқлашга имкон берди, деган хулосага келиш мақсадга мувофиқдир, у қуйидаги турли семантик бирликлардан иборат тўққизта ўзаро боғлиқ таркибий қисмларни ўз ичига олади: гендер толерантлик, гендер маданияти, шахсий етуклик, одоб-ахлоққа оид масъулият, шахсининг ижтимоий-психологик мослашуви, иродавий ўз-ўзини тартибга солиш, шахсининг ўз-ўзини баҳолаши, ҳиссий соҳада, фаолият ва хатти-ҳаракатларда ўз-ўзини назорат қилиш, шунингдек, рефлексивлик.

Биз ажратган бўлажак педагогнинг гендер бўйича масъулияти таркибий қисмларидан энг охиргиси - ҳиссий соҳада, фаолиятда ва хатти-ҳаракатларда ўз-ўзини назорат қилиш хусусиятини кўриб чиқайлик. Бу ҳодиса ҳар қандай фаолият, кундалик хатти-ҳаракатлар жараёнида ўз ҳис-туйғуларини бошқариш жараёнини муваффақиятли амалга ошириш қобилиятини англатади. Ўз-ўзини назорат қилиш (бошқариш), умуман олганда, замонавий шахсининг ақлий жараёнларининг ажралмас қисми, шунингдек, шахс томонидан унинг ички дунёси ва уни ўраб турган объектив воқеликни адекват акс эттиришнинг муҳим шартларидан бири ҳисобланади. Моҳиятан, ҳиссий ўзини

Ўзи бошқариш нафақат ғазаб ёки тушкунлик каби салбий ҳис-туйғуларни, балки ҳар қандай салбий ва ижобий ҳис-туйғуларнинг адекват равишда ифодаланишини ўз ичига олади, агар бу туйғулар назорат қилинмаса, тегишли оқибатларга олиб келадиган номақбул ҳаракатларга сабаб бўлиши мумкин [5].

Адабиётлар:

1. Быков.С.В Социально-психологическая регуляция ответственности личности. Дисс. док, психол.н. Казан-2006, С.23-28
2. Грошовкина Н.А. Гендерный потенциал женской и мужской идентичности. // Научные ведомости. Серия Философия. Социология. Право. 2012. № 20 (139). Выпуск 22. УДК 316.66 228-232с.
3. Гаврилушкин.С.А. Психологическая специфика проявления ответственности личности у студентов с различной патриотической направленностью. Автореф. к.психол.н.М.:2012, -С. 6
4. Гендер тадқиқотлари асослари. Хрестоматияси. “Ўзбекистон”, Т.: 2003
5. Гильбух Ю.З. Тест-опросник личностной зрелости. - К.: НПЦ Психодиагностика и дифференцированное обучение, 1994. - 24 с.
6. Демченко С.Г. Воспитание гендерной культуры у студентов младших курсов вуза: анализ сложившейся практики. // Образовательная среда вуза: ресурсы, технологии. Материалы международной научно-методической конференции. - Благовещенск: Амурский гос. ун-т, 2009. - С. 318-322.

OILADA OTA-ONA PSIXOLOGIYASI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna,
Buxoro davlat universiteti psixologiya va
sotsiologiya kafedrası dotsenti, (PhD)
Bo`ronova Kamola Baxtiyorovna,
Buxoro davlat universiteti psixologiya
ta`lim yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Ushbu maqola ota-onalar va bolalar o`rtasidagi munosabatlar hamda oiladagi boshqaruv turlariga bag`ishlangan. Oilada bola va ota-onalar o`rtasidagi munosabatlar masalasiga asosiy falsafiy va psixologik yondashuvlarni ko`rib chiqilgan bo`lib, zamonaviy oilada ota-onalar va bolalar o`rtasidagi munosabatlarning o`ziga xos xususiyatlarini tahlil qilingan. Bugungi kunda oiladek ta`sirchan ijtimoiy institut orqali bolalarni qadriyatlariga nisbatan e`tiqodni shakllantirish, va shu orqali oilaga nisbatan ijobiy axloqiy munosabatlarni hosil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanishi haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, maqolada ota-onalarning oilada bajaradigan funksiyalari, ota-onalar munosabatidagi komponentlari hamda ota-ona munosabatlarining hissiy komponentlari to`g`risida ma`lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so`zlar: *psixologik jarayonlar, stereotipik xatti-harakatlar, stress, funksiya, avtonomiya, kognitiv, paradoksal tip, tranzaksion, konteks, komponent, pragmatik vazifa, reaktiv strategiyalar, determinizm, simpatiya, antipatiya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ РОДИТЕЛЬСКОЙ ПСИХОЛОГИИ В СЕМЬЕ

Данная статья посвящена взаимоотношениям родителей и детей и типам управления семьей. Рассмотрены основные философско-психологические подходы к проблеме отношений между детьми и родителями в семье, а также проанализированы особенности отношений между родителями и детьми в современной семье. Приводятся мнения и комментарии о том, что сегодня через такой влиятельный социальный институт, как семья, формирование у детей веры в ценности, а значит, и формирование положительного нравственного отношения к семье считается одной из актуальных задач. Также в статье представлена информация о функциях родителей в семье, компонентах родительских отношений и эмоциональных компонентах родительских отношений.

Ключевые слова: *психологические процессы, стереотипное поведение, стресс, функция, автономия, когнитивный, парадоксальный тип, транзакция, контекст, компонент, прагматическая задача, реактивные стратегии, детерминизм, симпатия, антипатия.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF PARENTAL PSYCHOLOGY IN THE FAMILY

This article is devoted to the relationship between parents and children and types of family management. The main philosophical and psychological approaches to the issue of relations between children and parents in the family were considered, and the specific characteristics of relations between parents and children in the modern family were analyzed. Opinions and comments are given that today, through an influential social institution like the family, formation of children's belief in values, and thus formation of positive moral attitudes towards the family, is considered one of the urgent issues. Also, the article provides information about the functions of parents in the family, components of parental relations, and emotional components of parental relations.

Key words: *psychological processes, stereotypical behavior, stress, function, autonomy, cognitive, paradoxical type, transaction, context, component, pragmatic task, reactive strategies, determinism, sympathy, antipathy.*

Kirish. *Oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo`lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro`y bergan buyuk o`zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o`z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan*

majburiyatlarini bajarishi nuqtayi nazaridan sogʻ-omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil etgani va undagi hayot-mamotni ular oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar tashkil qilishini hisobga oladigan boʻlsak, uni sof psixologik jarayonlar maskani ham deb atash mumkin.

Oila – jamiyatning ajralmas boʻlagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yoʻqki, u oʻzining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan boʻlsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir.

Asosiy qism. Oilada ota-onalarning munosabati hissiy va qadriyatlarga asoslangan boʻlib, muayyan vaziyatda harakat qilishga tayyorligi sifatida belgilanishi mumkin. Munosabatlar - bu amaliy harakatlar, soʻzlar, imo-ishoralar va boshqalarda ifodalanishi mumkin boʻlgan stereotipik xatti-harakatlar qoidalari hisoblanadi. Ota-onalar oʻzlarining oʻrnatilgan munosabatlari asosida harakat qilib, tayyor qoliplarga amal qilishadi. Ota-onalarning gʻoyalari meʼyoriy, madaniy jihatdan berilgan gʻoyalar va umidlardan, shuningdek, ota-onalarning hayotining oʻziga xos ijtimoiy-psixologik holatidan kelib chiqadigan jarayondir. Bolalarning jinsi, yoshi, jismoniy jozibadorligi va boshqalar kabi xususiyatlari ota-onalarning gʻoyalari taʼsir qilishiga shubha yoʻqdir. Biroq bunday taʼsir oddiygina bolaning jinsi, jismoniy jozibadorligi va boshqalarga oid meʼyoriy madaniy gʻoyalar mavjudligini koʻrsatadi. Boshqa tomondan, tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ota-onalarning gʻoyalari maʼlum bir bolaga (aniqrogʻi, ota-onaning bolani idrok etishiga) moslashadi, agar bola xatti-harakati normadan chetga chiqadi. Bunday holda, ota-onalar mavjud gʻoyalarni oʻzgartiradilar yoki yangilarini quradilar. Bola oʻsib ulgʻaygan sayin, ota-onalarning gʻoyalari avtomatlashtirilgan, stereotiplashgan boʻlib, amalga oshirish uchun qulayroq boʻladi. Shu maʼnoda, ota-onaning xatti-harakati bola tomonidan oldindan aytib boʻladigan va yaxshiroq tushuniladigan boʻladi, bu uning stressini kamaytiradi va bolaga kundalik voqealarni talqin qilishning maʼlum bir modelini beradi.

Ota-onalarning gʻoyalari meʼyoriy, madaniy jihatdan berilgan gʻoyalar va umidlardan, shuningdek, ota-onalarning hayotining oʻziga xos ijtimoiy-psixologik holatidan kelib chiqadi. Bolalarning jinsi, yoshi, jismoniy jozibadorligi va boshqalar kabi xususiyatlar ota-onalarning idrokiga taʼsir qilishiga shubha yoʻq. Biroq, bunday taʼsir oddiygina bolaning jinsi, jismoniy jozibadorligi va boshqalarga oid meʼyoriy madaniy gʻoyalar mavjudligini koʻrsatadi. Boshqa tomondan, tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ota-onalarning gʻoyalari maʼlum bir bolaga (aniqrogʻi, ota-onaning bolani idrok etishiga) moslashadi, agar bola xatti-harakati normadan chetga chiqadi. Bunday holda, ota-onalar mavjud gʻoyalarni oʻzgartiradilar yoki yangilarini quradilar.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ota-onalarning eʼtiqodlari uzoq vaqt davomida nisbatan oʻzgarmaydi. Oʻz tabiatiga koʻra, ota-onalarning munosabatlari murakkab va qarama-qarshidir, bu ota-onalarning tashqi va ichki ziddiyatlari tufayli yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun, bu bola tarbiyasi haqidagi oʻz gʻoyalari va qarindoshlarning maslahati yoki ota-onaning oʻz gʻoyalari va jamiyat talablari oʻrtasidagi ziddiyat boʻlishi mumkin. Ikkilamchi gʻoyalar koʻpincha ota-onaning bolaning hayotiga aralashuvi darajasi, bolaning qaramligi yoki avtonomligi, oila aʼzolarining ehtiyojlari muvozanati kabi sohalarida uchraydi. Eng malakali va samarali ota-onalar vaziyatning talablariga muvofiq oʻz xatti-harakatlarini oʻzgartirishga qodir hisoblanadi.

Ota-onalar oʻzaro bogʻliq holda ikkita funksiyani bajaradi:

- **Talqin qiluvchi funksiya**

- **Pragmatik funksiya**

Talqin qiluvchi funksiya bu bevosita bola bilan oʻzaro munosabatlarning oʻziga xos holatini sezgan ota-ona uni oʻz gʻoyalari asosida izohlaydi. Masalan, bolaning ota-ona meʼyorlarini buzishi ota-ona tomonidan itoatsizlik harakati yoki aksincha, bolaning mustaqillik va avtonomiyaga erishishga urinishi sifatida koʻrib chiqilishi mumkin.

Ota-onalar gʻoyalarning **pragmatik vazifasi** shundaki, ular ota-onalarga oʻzlarining taʼlim faoliyatini rejalashtirishga yordam beradi. Ikkala funksiyalar ham sharhlash va pragmatiklar oʻzaro bogʻliqdir. Masalan, ota-ona bola bilan muloqot qilganda, uni tushunish uchun unga muloqot epizodining aqliy tasviri kerak. Keyinchalik, u ushbu vaziyat uchun qaysi harakatlar eng mos kelishini taxmin qiladi. Vakilliklar vaziyat boʻyicha qaror qabul qilish yoki xulosalar chiqarish uchun boshlangʻich nuqtalar hisoblanadi.

Ota-onalar munosabatida uchta komponentni ajratish odatiy holdir:

1) baholash

2) kognitiv

3) xulq-atvor

Baholash komponenti - ota-onalarning tarbiya obyekti yoki holatiga bahosidir.

Kognitiv komponent ishonchli deb hisoblangan va bolani tarbiyalash uchun strategiya va taktikalarni yaratish uchun foydalaniladigan bilim yoki gʻoyalar tizimidan iboratdir.

Nihoyat, ota-ona munosabatlarining **xulq-atvor komponenti** bolaga nisbatan muayyan tarzda o'zini tutish qobiliyatidan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, bu bolani tarbiyalashning o'ziga xos amaliyoti demakdir.

Ota-ona munosabatlari ham nikohdan qoniqish bilan bog'liq. Baxtli nikohda bo'lgan onalar o'z farzandlariga nisbatan ko'proq iliqlik ko'rsatadilar, farzandlarini ko'proq mustaqil bo'lishga undaydilar va farzandlarining salbiy xatti-harakatlaridan kamroq g'azablanadilar. Axborot jarayonlari yondashuviga muvofiq, ota-onalarning g'oyalari bola bilan o'zaro munosabatlar tajribasini filtrlaydigan vositachi sifatida qaraladi va ma'lum ota-onalar strategiyasini keltirib chiqaradi. Bolalarning ijtimoiy kompetensiyasiga oid ota-onalarning e'tiqodlarining axborot jarayon modelini tasvirlab beradi. Ushbu modelga ko'ra, ota-onalar bolaning ijtimoiylashuvi uchun maqsadlar qo'yadilar, bu esa ularning ta'lim strategiyalarini belgilaydi. Ota-onalarning bunday xatti-harakati proaktiv deb ataladi. Agar bola sotsializatsiya maqsadlariga javob bermasa, reaktiv strategiyalar qo'llaniladi. Ota-onalarning xatti-harakati bolaning shaxsiyatini baholash, ota-ona va bola munosabatlarining sifati va qaysi strategiyalar eng samarali bo'lishini baholash bilan belgilanadi. Ota-onalarning o'z farzandlarining xatti-harakatlariga hissiy munosabati g'oyalar va strategiya o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi. Ota-onalar bolalarning xatti-harakatlariga bo'lgan munosabati ota-onaning bolaning mahoratiga qanchalik ishonganiga bog'liq tushunchalardir. Olimlarning ta'kidlashicha, ota-onalarning e'tiqodidagi o'zgarishlar ota-onalarning bola haqidagi bilimlarini oshirishga bog'liq. Bola o'sib ulg'aygan sayin, onalar qo'shimcha ma'lumotlarga kamroq qiziqish bildirmoqda va ularning xatti-harakatlari ko'pincha bolaning hayotining birinchi yillarida shakllangan g'oyalarga asoslanadi. Shunday qilib, g'oyalar vaqt o'tishi bilan ancha barqaror bo'lib qoladi.

Paradoksal tipga tegishli ota-onalar o'rtacha va o'rtacha darajadan past ta'lim darajasi bilan ajralib turadi, ular o'zlarini bolaning rivojlanishidagi asosiy shaxs deb hisoblamaydilar, balki atrof-muhit determinizmiga ishonadilar.

Tranzaksion yondashuvda madaniyat oila tizimining tartibga soluvchi konteksti sifatida qaraladi. Oilaviy marosimlar va an'analar oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi oilaviy madaniy kodni tashkil qiladi. Ota-onalarning qarashlari oila kodeksining bir qismi hisoblanadi. Transaksiyaviy yondashuvga ko'ra, ota-onalarning g'oyalari juda statik hodisalar bo'lib, ular juda oz o'zgarishi mumkin. G'oyalar va munosabatlar va ota-onalarning haqiqiy xatti-harakatlari o'rtasidagi bog'liqlik masalasi juda muhimdir. Biroq bunday aloqani o'rganish uchun ma'lum qiyinchiliklarga duch keladi, chunki ota-onaning haqiqiy xatti-harakati nafaqat g'oyalar yoki munosabat bilan emas, balki ko'plab omillar bilan belgilanadi.

Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, ota-onalarning tasvirlari va konstruktiv va ekologik qarashlarga ega ota-onalarning ta'lim maqsadlar

	Ota-ona tasviri	Ta'lim-tarbiya maqsadlari
Atrof-muhit g'oyalari bilan ota-onalar	nazorat qilish himoya qilish talabchan tomoşa qilish hissiy band	itoatkorlik muvofiqlik hurmat boshqaruv intizom yengish
Konstruktivistik qarashlarga ega ota-onalar	bardoshli qo'llab-quvvatlovchi zaif hurmatli passiv beparvo	ishonch tashabbus mas'uliyat avtonomiya yetuklik mustaqillik

Bolalar me'yorlarga rioya qilishlari uchun ularni tushunishlari kerak va o'z-o'zini nazorat qilishni rivojlantirish ota-onalar amaliyotining maqsadi bo'lishi kerak.

Psixolog Rodrigo va Triana ota-onalarning quyidagi tasvirlarini va konstruktiv va ekologik qarashlarga ega ota-onalarning ta'lim maqsadlarini tasvirlab bergan.

V.E.Kaganning ta'kidlashicha, hissiy rad etish ko'pincha ota-onalarning totalitar ongining natijasidir. Bunday holda, oilaviy muloqotda, bir tomondan, ijobiy hissiy ekspressivlik yetishmovchiligi yuzaga keladi, ikkinchidan, bostirilgan salbiy his-tuyg'ularning nazoratsiz namoyon bo'lishi qoidaga aylanadi. Albatta, ota-onalar o'z farzandlarini erkalashlari kerak va ko'pincha ular ziqna mehr-muhabbat uchun aniq yoki noaniq

aybdorlik tuyg'usini boshdan kechiradilar. Ammo totalitar ongga xos bo'lgan o'z hissiy holatlarini yetarli darajada bilmasligi sababli, his-tuyg'ular aloqaning haqiqiy kontekstidan tashqarida o'z-o'zidan mehr-muhabbat portlashlari bilan ajralib chiqadi. Bola o'sha paytdagi kayfiyatidan qat'iy nazar, mehmi qabul qilishga va unga javob berishga majbur bo'ladi.

A.S.Spivakovskaya esa quyidagi konsepsiyani kiritadi "ota-onaning pozitsiyasi", bu ota-ona munosabatlarining yig'indisini anglatadi. Ota-onalarning pozitsiyasi - bu ta'lim-tarbiya motivlari ta'siri ostida yuzaga keladigan ota-onalarning ta'lim-tarbiya faoliyatining haqiqiy yo'nalishi, yaxlit ta'lim-tarbiya hisoblanadi. Bola bilan o'zaro munosabatlarda amalga oshiriladigan aniq ota-ona pozitsiyasi, birinchi navbatda, ongli va ongsiz motivatsion tendentsiyalar o'rtasidagi munosabatlarga tayangan holda amalga oshiriladi. A.S.Spivakovskaya ota-onaning mavqeyi adekvatlik, dinamiklik va bashorat qilish fazilatlariga ega deb hisoblaydi.

Adekvat pozitsiya bolaning aqliy va xarakteristik xususiyatlarini obyektiv baholashga qaratilgandir. Noto'g'ri pozitsiyaga ega bo'lgan ota-onalar o'z farzandlarini ko'rmaydilar, uni noto'g'ri qabul qiladilar va uning haqiqiy va o'ziga xos fazilatlarini ajratmaydilar. Aqliy rivojlanishni noto'g'ri baholash, qobiliyatlarni haddan tashqari baholash va intellektual rivojlanishdagi xayoliy kechikish belgilari, bolalarning hissiy tajribasini yetarlicha baholamaslik, bolaning haqiqiy va tabiiy qiyinchiliklariga e'tibor bermaslik, uning xatti-harakatlarining g'alati tomonlarini ta'kidlash esa bugungi kunda keng tarqalgandir.

Dinamiklik pozitsiya sifati ota-onalarning pozitsiyalarining harakatchanlik darajasini, bolalar bilan o'zaro munosabatlarning shakllari va usullarini o'zgartirish qobiliyatini aks ettiradi. Qattiq pozitsiya - bu allaqachon o'zgargan bolalarga nisbatan yillar davomida qo'llanilgan oilada ishlab chiqilgan ta'sir usullari. Bu holatda bola bilan o'zaro munosabat shakli vaziyatga va uning yoshiga bog'liq emas. Bu jazolash shakllari, xatti-harakatlarni nazorat qilish va nutq shakllaridan foydalanishga tegishli hisoblanadi.

Lavozimning bashoratligi deganda ota-onalarning bolaning keyingi rivojlanish istiqbollari oldindan ko'ra bilish va u bilan bunday bashoratni hisobga olgan holda o'zaro munosabatlarni o'rnatish qobiliyati tushuniladi.

Erix Fromm ta'kidlaganidek, onalik muhabbatining asosiy xususiyati uning so'zsiz tabiatidir. Sevgining yana bir turi - otalik muhabbati shartli bo'lib, unga namunali o'g'il yoki qiz bo'lish orqali erishiladi. E.Frommning fikricha, onalik va otalik muhabbati sof holda yuzaga kelmaydi. Bola shaxsini samarali tarbiyalash va rivojlantirish uchun ushbu ikkala turdagi hissiy munosabatlarni ko'rsatish kerak.

Karen Xorning ta'kidlashicha, bola ko'pincha travmatik omillar (masalan, to'satdan sutdan ajratish, davriy kaltaklar, jinsiy tajribalar) ko'p narsalarni boshdan kechirishi mumkin, ammo bularning barchasini u o'z qalbida his etar ekan, nimani orzu qiladi va sevadi. Bola sevgi haqiqiy yoki yo'qligini juda nozik his qiladi va uni hech qanday dabdabali namoyishlar bilan aldab bo'lmaydi.

Farzandlaridan voz kechadigan va ular bilan o'zaro munosabatlarning haqoratli uslubini qo'llaydigan ota-onalar jismoniy jazoning zarurligi va normalligiga ishonishadi. Qizig'i shundaki, ota-onalar o'z farzandlarini tanqid qiladigan xatti-harakatlarni ular bolaligida o'zlari qilishgan va bu ularning ota-onalari tomonidan tanqid qilingan. Ko'pincha itoatsizlik yoki istalmagan xatti-harakatlar ota-ona sevgisidan mahrum bo'lish, bolaning foydasizligini namoyish qilish bilan jazolanadi: "Onam buni yoqtirmaydi, u boshqa o'g'il (qiz) topadi". Buning oqibati bolada ishonchsizlik, yolg'izlikdan qo'rqish, tashlab ketish qo'rquvini shakllantirishdir.

Ota-onalar tomonidan bolani rad etish bolaning quyidagi ichki pozitsiyalarini shakllantirishga olib keladi: "Meni yaxshi ko'rmaydilar, lekin men butun qalbim bilan sizga yaqinlashishni xohlayman" va "Men kerak emasman va meni yaxshi ko'rmaydilar, meni yolg'iz qoldiring". Birinchi pozitsiyada bolaning xatti-harakati uchun ikkita mumkin bo'lgan variant mavjud bo'lib, bolada aybdorlik tuyg'usi paydo bo'ladi va ota-onasi tomonidan rad etilganligini uning "yomonligi" uchun jazo sifatida ko'radilar. Bunday tajribalarning oqibati o'z-o'zini hurmat qilishning yo'qolishi va ota-onalarning umidlarini yaxshilash va qondirish uchun mantiqsiz istak bo'lishi mumkin. Ikkinchi xulq-atvor varianti bolaning oiladan voz kechishi bilan bog'liqdir. Bunday holda, bola uni rad etishda ota-onalar aybdor degan xulosaga kelish mumkin. Bunday bolalar ota-onalariga nisbatan tajovuzkor va befarq munosabatda bo'lishadi, go'yo ular ota-onalarini ataylab g'azablantiradilar, sevgisi yo'qligi uchun qasos oladilar. Agressiya - bu hissiy rad etishga munosabat bildirish usuli. Sevgi va xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojlarini qondira olmaslik bolani boshqa yo'llar bilan qondirishga undaydi. Ayniqsa, qabul qilmaslik holatlarida bola qichqiradi, janjal qiladi, yig'laydi va onaning e'tiborini jalb qilish uchun har qanday yo'l bilan harakat qiladi.

"Menga kerak emasman va sevimaganman, meni tinch qo'ying" pozitsiyasi kattalarning e'tiboridan xalos bo'lish istagiga olib keladi. Bola ota-onasini undan "qo'rqitish" uchun o'zining ahmoqligini, qo'polligini va yomon odatlarini namoyish etadi. Bunday holat bolani ijtimoiy rivojlanish bosqichiga olib keladi.

Ota-ona munosabatlarining hissiy komponentida V.V.Stolin va N.N.Golosova quyidagi uch o'lovli tuzilmalari aniqlangan bo'lib quyidagicha tasniflanadi:

1. Hurmat - hurmatsizlik.
2. Simpatiya – antipatiya.
3. Yaqinlik – masofa.

Xulosa qilib aytganda, farzand tarbiyasi muammoli bo'lib qolgan nomutanosib oilalarda ota-onalarning pozitsiyalarining o'zgarishi tanlangan ko'rsatkichlardan birida yoki uchtaida aniq namoyon bo'ladi. Bunday oilalarda ota-onalarning pozitsiyalari yetarli emas, moslashuvchanlik sifatini yo'qotadi, haddan tashqari barqaror, o'zgarimas va oldindan aytib bo'lmaydigan bo'lib qoladi. Ota-onaning pozitsiyasi ongli bo'lishi mumkin, agar bola bilan munosabatlar va o'zaro munosabatlar ota-ona tomonidan aks ettirilgan bo'lsa yoki ota-onaning bola bilan o'zaro munosabati ota-onaning ongsiz motivatsiyasining ta'siri ostida bo'lsa, ongsiz bo'lishi mumkin. Shunday ekan, har bir bolaning o'sib ulg'ayishi va kamol topishida, albatta, oilaning va ota-onalarning farzandlariga nisbatan munosabati muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar:

1. Бандура А., Уолтерс Р. Подростковая агрессия. Изучение влияния воспитания и семейных отношений.— М.: Апрель Пресс, ЭКС-МО — Пресс, 2000.
2. Гарбузов В. И., Захаров А. И., Исаев Д. Н. Неврозы и их лечение.—Л.,1977.
3. Адлер А. О нервическом характере /А.Адлер; Пер. с немц. И.В.Стефанович / Под ред. Э.В. Соколова. – СПб.: Университетская книга, 2007. – 388 с.
4. Анциферова Л.И. Личность в трудных жизненных условиях: переосмысливание, преобразование ситуаций и психологическая защита / Л.И.Анциферова // Психологический журнал. – 2014. – №1.
5. Бойко В.В. Энергия эмоции в общении: взгляд на себя и на других. – М.: Информационно-издательский дом «Филинь», 2016. –472 с.
6. Воловик В.М. Психологическая защита как механизм компенсации и ее значение в психотерапии больных шизофренией / В.М.Воловик, В.Д.Вид // Психологические проблемы психогигиены, психопрофилактики и медицинской деонтологии / Под ред. М.М.Кабанова. – Д., 2020. – С. 26-28.
7. Ismatova D.T. Ota-onalik mas'uliyatining farzandlar tarbiyasiga ta'siri "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020

**BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA’LIM O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

*Qodirov Baxtiyor Eshmurzayevich,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
b.e.qodirov@gmail.ru*

Ushbu maqolada bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari haqida so‘z boradi.

***Kalit so‘zlar:** raqamli texnologiya, AKT ta‘lim texnologiya, kreativlik, didaktik, kasbiy kompetensiyasi, innovatsiya, ixtirochilik, konstruktorlik, yaratuvchanlik, modellashirish.*

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО
ОБРАЗОВАНИЯ**

В данной статье говорится о научно-теоретической основе использования цифровых технологий в подготовке будущих учителей технологического образования.

***Ключевые слова:** цифровые технологии, ИКТ образовательные технологии, креативность, дидактика, профессиональная компетентность, инновация, изобретательность, конструирование, творчество, моделирование.*

**SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES
IN THE TRAINING OF FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION TEACHERS**

This article talks about the scientific and theoretical basis of using digital technologies in the training of future technological education teachers.

***Key words:** digital technology, ICT educational technology, creativity, didactic, professional competence, innovation, inventiveness, construction, creativity, modeling.*

Kirish. Mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va texnologiyalarning taraqqiyoti va uzluksiz ta‘lim tizimini, shu jumladan, oliy ta‘lim muassasalari talabalariga pedagogik ta‘lim berish jarayonini zamon talablari asosida tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi “O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta‘lim tizimi jahon miqyosidagi erishilgan yutuqlar asosida umumiy va kasb-hunar madaniyatiga ega, ijtimoiy-siyosiy hayotda to‘g‘ri fikrlay oladigan, kasbiy mahoratga ega bo‘lgan, istiqbolli vazifalarni bajarishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish asosiy ustuvor yo‘nalishlar ekanligi qayd etilgan”.[2]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli “Umumta‘lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining Davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan umumta‘limining Malaka talablarida umumiy o‘rta ta‘limning “Mehnat ta‘limi” fanining nomi o‘zgartirilib “Texnologiya” fani deb nomlandi. Mazkur malaka talablari asosida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining 2017-yildagi 193-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi umumta‘lim maktablarining 1-9-sinflari uchun texnologiya fani bo‘yicha amaliyotga joriy etilgan.

Asosiy qism. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash, umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarni Vatanga muhabbat, milliy istiqloq g‘oyalari sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni ongli va mustaqil kasb-hunar tanlashi uchun shart-sharoit yaratish kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari samaradorligining ta’sirchan vositalari va usullarini tatbiq etishga hamda tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bilan bog‘liq yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlash bugungi kunda OTMning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki umumta‘lim maktablari o‘quvchilarining jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, hayotda faol ishtirok etishi, vijdonan xizmat qiladigan kasb-hunar sohiblari bo‘lishlarida texnologiya fanidan dars beruvchi mutaxassis o‘qituvchilarning o‘rni katta.

N.A.Muslimov tadqiqot ishlarida kasb ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishi ilmiy muammo sifatida qaralib, uning nazariy-metodologik asoslari va tarkibiy tuzilmasi asoslab berilgan.[11] Tizimli yondashuv texnologiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishi muammosini tadqiq qilishning

umumilmiy asosi sifatida tadqiq etilgan. Unda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi asosida bo‘lajak kasb ta‘limi fani o‘qituvchisini tayyorlash, uning kasbiy-pedagogik faoliyatini modellashtirish, kasb fani o‘qituvchisini tayyorlash jarayonini standartlashtirishning metodologik asoslari, kasbiy pedagogik shakllanganlik darajasini baholash metodikasi va pedagogik fanlarning bo‘lajak kasb fani o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishdagi imkoniyatlari kabi masalalar bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borgan”.

S.Y.Axmataliyev tadqiqotlarida “bo‘lajak mehnat ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashishining ilmiy-metodik asoslari hamda moslashuv jarayoniga ahamiyatli omillar haqida fikr yuritgan”. [3]

A.Parmonov “mehnat ta‘limi o‘qituvchilarining umumta‘lim maktablari o‘quvchilarining badiiy konstruksiyalashga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish muammolari ustida tadqiqotlar olib borganlar”.

“Umumta‘lim maktablarida elektron axborot ta‘lim muhitini yaratish asosida o‘quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini “Technology crafts” veb-sayt texnologiyasini yaratish va amaliyotda qo‘llab ishlab chiqqan” [6].

F.X.Mukumova o‘zining ilmiy-tadqiqot ishida “o‘quvchilarning milliy hunarmandchilikka oid kreativ qobiliyatlarini texnologiya fanida sinfda va sinfdan tashqari mashg‘ulotlari jarayonida rivojlantirish texnologiyasini “Handcrafts” innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqqan”. [10]

S.S.Igamonov o‘zining ilmiy tadqiqot ishida “xalq hunarmandchiligini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarda kreativlik kompetensiyalarini shakllantirish tuzilmasi kognitiv, motivatsion-hissiy, faoliyatli, kognitiv komponentlarning klasterli yondashuv bilan gorizontaal va vertikal integratsiyasini o‘quv elementlariga maqsadli yo‘naltirishga doir didaktogen identifikatsiyasi natijaviyligini ta‘minlash asosida aniqlashtirilgan, reproduktiv, produktiv va kreativ mezonlari va kritik, adaptiv, maqbul ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish orqali takomillashtirgan” [9].

Yurtimiz olimlarining fikriga ko‘ra, texnologiya fanining rivoji uchun, asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha islohotlarni amalga oshirishda yaratilishi kerak bo‘lgan shart-sharoitlar quyidagilar:

Muloqot usullari. Ular muloqotga asoslangan va muallifning bayonoti va uni tushunishni o’z ichiga olgan usullarni o’z ichiga olishi mumkin. Bunday usullar murakkab muloqot yoki muhokamaning birinchi bosqichi asosida quriladi. Muloqotning paydo bo’lishining majburiy shartlari muallifning so’zlarini tinglash, aytilgan narsani aniqlashtirish yoki tushunish uchun savollar berish hisoblanadi. Mavzuni tushunmasdan muloqot olib borilmaydi, mavzuni tushunmagan holda muloqot olib borish e’tirozni keltirib chiqargan holda, yangi bilimlarni olib bo’lmaydigan ma’nosiz bahsni keltirib chiqaradi.

Muloqot usullari refleksiv, chunki u insonning shaxsiyati va uning irodaviy yo’nalishi bilan bog’liq bo’lgan shaxsiy refleksiyani va boshqa birovning fikri haqida o’ylashga imkon beradigan intellektual va yangi norma bilan harakatni tanlashda ifodalangan faoliyatni ochib beradi. Muloqot texnikasi ijodiy

faoliyatning shartiga aylanishi mumkin, chunki fikrlashdan ijodiy chiqish insonning o‘zi bilan “so‘zsiz, yashirin” muloqoti natijasida yuzaga keladi [4].

Refleksiv muhokama shundan iboratki, bir guruh loyihani taklif qiladi yoki muammoli vaziyatni modellashtiradi, ikkinchisi uni optimallashtirish yoki hal qilishning muqobil usullarini taklif qiladi, uchinchi uni ishlab chiqish uchun konstruktiv qo‘shimchalar beradi. Dars davomida guruhlar rollarni o‘zgartiradilar, bu ularga har bir rolni “yashash” imkonini beradi, ham mualliflar, ham tanqidchilarning joylashuvini aks ettiradi, mazmunini boyitadi va madaniy o‘zaro ta’sirlar va turli tadbirlar refleksiyasida tajriba orttirishga imkon beradi. Refleksiv muhokama nafaqat turli kasbiy yangiliklarning ma’lumotlar bazasini shakllantirish, balki ularni tanqidiy tahlil qilish jarayonini ta’minlash imkonini beradi.

Refleksiv metodikaning samarali shakli bu refleksiv videotreningdir. Bu shaxsiy va mutaxassis o‘shish uchun refleksiv jarayonlarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Refleksiv videotreningning samaradorligi shundan iboratki, u shaxsiy va intellektual refleksiyaga asoslangan yaxlit refleksiv-rivojlanuvchi muhitni yaratadi. Bundan tashqari, trening davomida ishtirokchilar o‘rtasida hamkorlik munosabatlari kooperativ va individual refleksiya orqali ishlab chiqiladi, bu esa o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini anglashning intensiv jarayonini ta’minlaydi. Bu o‘z tajribasini qayta ko‘rish va kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. Refleksiv texnologiyaning samarali va keng tarqalgan shakli bu refleksiv videotrening hisoblanadi. Bu shaxsiy va kasbiy o‘shishda refleksiv jarayonlarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [8].

Refleksiv videotreningni tayyorlash va o‘tkazish bosqichlari an’anaviy bo‘lib, ular standart o‘quv proseduralaridan deyarli farq qilmaydi. Refleksiv videotreningning samaradorligi shundan iboratki, u shaxsiy va intellektual refleksiyaga asoslangan yaxlit refleksiv rivojlanayotgan muhitni yaratadi. Bundan tashqari, trening davomida ishtirokchilar o‘rtasida hamkorlik munosabatlari kooperativ va individual refleksiya orqali ishlab chiqiladi, bu esa o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini anglashning intensiv jarayonini ta’minlaydi. Bu o‘z tajribasini qayta ko‘rib chiqishga va kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. Refleksiv videotreningning maqsadi talabalarni assertiv xatti-harakatlarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish va guruhdagi nizolarning asosiy sabablarini aniqlash hisoblanadi [5].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlarida refleksiv videotreninglar asosida talabalar o‘zlashtirish samadorligini oshirishni darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar va ta’lim sifatini oshirishdagi imkoniyatlari ochib berildi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati refleksiv videotreninglar asosida talabalarning kasbiy o‘shishini pedagogik-psixologik o‘rganishning tamoyillari, guruhda shaxsni rivojlantirishning aks ettiruvchi usullarini rivojlantirish texnologiyasining metodik yondashuvi va pedagogik modelini yaratish metodikasini takomillashtirilganligi bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati refleksiv videotreninglar asosida talabalarning kasbiy o‘shishini pedagogik-psixologik o‘rganishning metodik ta’minotini takomillashtirish, guruhda shaxsni rivojlantirishning aks ettiruvchi usullarini rivojlantirish texnologiyalarini joriy etishdan iborat [7].

Yuqoridagilar asosida, qilingan ishlarning natijasi sifatida refleksiv videotreningni o‘tkazish asosida refleksiyani shakllantirish tamoyillari aniqlangan:

gnoseologik, aksiologik, uslubiy hodisalar sifatida aks ettirishni o‘rganishda namoyon bo‘ladigan izchillik, bu uning ontologik holati va ta’limda ushbu jihatlarni ko‘rib chiqish imkoniyati haqida gapirishga imkon beradi. Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlangan aks ettirishning xilma-xil turlari inson shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy rivojlanishni uyg‘unlashtirishga erishadigan bitta tizimning elementlari hisoblanadi;

o‘zini maqsadli o‘zgartirish uchun zarur shart sifatida, kasbiy qobiliyatlarni, kompetensiyani va hayotning barcha jihatlarini rivojlantirish sharti sifatida aks ettirish g‘oyasini beradigan yaxlitlik. Refleksiya faoliyatga maqsadga muvofiqlik, tartiblilik, operativlilik, o‘zgaruvchanlikni keltirib chiqaradi va shu asosda shaxsiy va kasbiy ajralmas bo‘lgan yaxlit faoliyat jarayonini yaratish deb tan olinishi mumkin;

integrativlik, turli xil ijtimoiy tizimlarni, shu jumladan, ta’lim kabi murakkab ijtimoiy-gumanitar tizimni loyihalashda aks ettirishning fanlararo integratsiyasida namoyon bo‘ladi. Refleksiya o‘zini o‘zi tashkil etish mexanizmlari inson rivojlanishi va o‘zini rivojlantirishning ajralmas mexanizmlari vazifasini bajaradi;

innovatsion paradigmalarda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan rivojlanish, unda refleksiya kasbiy qobiliyat, shaxsiy funktsiya, hissiy-qiymat toifasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim amaliyotida kooperativ, kommunikativ, shaxsiy va intellektual refleksiya insonning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishiga yordam beradi;

sinergetizm, refleksiyani insonning yaxlit, ochiq, o‘zini o‘zi rivojlantiradigan tizim sifatida rivojlanishining qadriyatlarini, mezonlarini belgilaydigan ijtimoiy ahamiyatga ega hodisa deb hisoblash kerak. Murakkab tashkil etilgan tizimlarning o‘zini o‘zi tashkil etishning universal namunalarini izlashga qaratilgan

o‘z-o‘zini tashkil etish nazariyasi inson, uning dunyodagi o‘rni, idrok etish, tanib olish, idrok etish usullari haqidagi abadiy savollarga javob beradi. Idrokning refleksiv mexanizmlaridan foydalanish orqali dunyoni o‘zlashtirish [6].

Tadqiqotda quyidagicha ilmiy yangiliklarga erishildi:

talabalarda shaxsiy va kasbiy o‘shning refleksivligini pedagogik-psixologik o‘rganishning qonuniyligi, madaniy-generativ, ijtimoiy-universal, shaxsiy yo‘nalishlarining izchilligi tamoyillarini ta‘lim resurslariga moslashtirish asosida takomillashtirildi;

talabalarda shaxsiy va kasbiy o‘shning refleksivligini pedagogik- psixologik o‘rganishga qo‘yiladigan talablar pedagogik tamoyillarni mantiqiy modellashtirish va ta‘lim resurslaridan rasional foydalanish, tarmoqlararo kasbiy hamkorlik jarayonini bosqichma-bosqich intensivlashtirish asosida takomillashtirildi;

talabalarda shaxsni rivojlantirish texnologiyasi kasbiy mukammallik, ijtimoiy moslashuvchanlik ehtiyojlarni qondirish, yangi o‘quv sharoitlariga kirishish jarayonini yaxlitlikda sintaktik ifodalash hamda o‘zi-o‘zini muntazam nazorat qilish kabi shaxsiy sifatlarni kiritish asosida takomillashtirildi;

shaxsiy va kasbiy o‘shning refleksivligi pedagogik-psixologik o‘rganish asosida o‘qituvchi va talabalar didaktik faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini joriy etishga qaratilgan faoliyatli yondashuv asosida takomillashtirildi.

Xulosa qilib aytganda, refleksiv videotreninglar asosida talabalar kasbiy o‘shini optimallashtirish talabalarni assertiv xatti-harakatlarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, o‘quv faoliyatining barcha ishtirokchilarining texnologik va kommunikativ o‘zaro ta‘siriga, rivojlanish jarayoni natijalarini diagnostika qilishga asoslangan texnologik va pedagogik tizimning bir turi sifatida shakllantirishga olib keladi. Taklif etilgan refleksiv videotreninglar asosida talabalar kasbiy o‘shini pedagogik-psixologik o‘rganishning tamoyillari, guruhda shaxsni rivojlantirishning aks ettiruvchi usullarini boshlang‘ich ta‘lim tizimida tahsil olayotgan barcha kurslar doirasidagi o‘quv-seminar mashg‘ulotlarida foydalanishi mumkin. Ilmiy-tadqiqot ishi natijalari refleksiv videotreninglar asosida bakalavriat boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy o‘shini, talabalar bo‘sh vaqtini unumli va samarali o‘tkazishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Бизяева А.А. Психология думающего учителя: педагогическая рефлексия. Псков, 2004.
2. Xalikov A. A., O‘qituvchilar pedagogik mahoratini kasbiy rivojlantirishda refleksiyaning ahamiyati // “O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 2022 -yil 30- noyabr. B. 363-368.
3. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta‘limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – T.: Fan, 2007. 59 b.
4. Метаева В.А. Развитие профессиональной рефлексии в последипломном образовании: методология, теория, практика / В. А. Метаева. М., 2006.
5. Базилевич С.В. , Брылова Т.Б., Глухих В.Р., Левкин Г.Г. Использование инновационных и интерактивных методов обучения при проведении лекционных и семинарских занятий // Наука Красноярья. 2012. № 4 (04). С. 103–112.
6. Стеценко, Ирина Александровна. Педагогическая рефлексия : теория и технология развития: диссертация ... доктора педагогических наук : 13.00.01. - Таганрог, 2006. - 381 с.
7. Шадриков В.Д. Рефлексия в структуре способностей // Ментальное развитие человека. М.: Логос, 2007. С. 213–220.
8. Васютин Р.Н. Рефлеппрактическая работа: активизация творческого потенциала взрослых // Материалы международной конференции "Развитие непрерывного образования в условиях рыночной экономики". Российская Академия образования, Москва, 1994. -312 с.

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ НАМУНАЛАРИ БИЛАН ТАНИШТИРИШ МУАММОЛАРИ

Камилова Гулмира Алимовна,

*Бухоро давлат педагогика институти Мактабгача таълим
кафедраси в/б профессори, п.ф.н.*

Мактабгача таълим-ташкilotи педагоглари олдида болаларни ёшликдан бошлаб бадий адабиёт билан таништириши, халқ оғзаки ижоди орқали дунё олами ҳақида маълумотлар бериши экологик маданиятни шакллантириши вазифалари юклатилган. Мақолада шу ҳақда фикр-мулоҳазалар билдирилган.

Калит сўзлар: *Экологик маданият, меҳр- муҳаббат, халқ оғзаки ижоди, топшимоқ, эртак, мақол, бадий адабиёт, умуминсоний қадриятлар, фольклор, оғзаки нутқ.*

ПРОБЛЕМЫ ЗНАКОМСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ОБРАЗЦАМИ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА

Перед педагогами дошкольной образовательной организации поставлены задачи по ознакомлению детей с художественной литературой с раннего возраста, по предоставлению информации об окружающем мире через фольклор, по формированию экологической культуры. В статье это комментируется.

Ключевые слова: *экологическая культура, любовь, народное устное творчество, сказка, пословица, художественная литература, общечеловеческие ценности, фольклор, устная речь.*

PROBLEMS OF INTRODUCING PRE-SCHOOL CHILDREN TO FOLK'S ORAL CREATIONS

Teachers of preschool educational organizations are tasked with familiarizing children with fiction from an early age, providing information about the world through folklore, and forming an ecological culture. The article comments on this.

Keywords: *ecological culture, love, folk oral creativity, fairy tale, proverb, fiction, universal values, folklore, oral speech.*

Кириш. Мактабгача ёшдаги болаларни интеллектуал, ахлокий, эстетик ва жисмоний жиҳатдан ҳар томонлама ривожлантириш учун шароитларни яратиш, мактабгача таълим ташкilotларида таълим-тарбия жараёнини ташкил қилишнинг мавжуд тартибини қайта кўриб чиқиш ва замонавий усулларни жорий этиш муҳим вазифалардан саналмоқда.

Бу муҳим вазифалар, айниқса, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 16 декабрдаги “Мактабгача таълим-тарбия тўғрисида”ги 595-сонли Қонунида мактабгача таълим тизими олдида куйидаги муҳим вазифаларни кўйди. “Мактабгача таълим ва тарбиянинг давлат таълим дастури болани тўлақонли ҳар томонлама камол топтиришга қаратилган таълим-тарбия жараёни ташкил этилишини таъминлайди. Болаларни Ватанга муҳаббат, меҳнатга, ўз халқининг миллий, тарихий, маданий қадриятларига, шунингдек, умуминсоний қадриятларга ҳурмат билан муносабатда бўлиш, атроф-муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлиш руҳида тарбиялаш. Бу ишларнинг барчаси таълим-тарбия билан боғлиқ муаммолардир. Мактабгача таълим тизими-узлуксиз таълим тизимининг бошланғич ва мустаҳкам пойдевори сифатида эътироф этилиб, бугунги кунда самарали мактабгача таълим тизимини ташкил қилиш бўйича комплекс ташкилий-ҳуқуқий чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Мактабгача таълимни ривожлантириш ва янада такомиллаштириш, замонавий ижтимоий-ҳаммабоп мактабгача таълим ташкilotларини ташкил этиш борасида қабул қилинган қатор меъриий ҳужжатлар ҳам шу мақсадга қаратилган.

Бу борада қилинаётган ишлар мактабгача ёшдаги болаларни мактаб таълимига сифатли тайёрлаш учун хизмат қилиб келмоқда.

Мактабгача таълим ташкilotи олдида ёшликданоқ тарбияланувчиларни табиатга нисбатан меҳр уйғотиш, уни асраб-авайлаш ва эҳтиёткорона муносабатда бўлиш каби вазифалар юклатилган.

Сўнгги йилларда аҳоли яшаш жойларини кўкаламзорлаштириш, дарахт ва буталарни муҳофаза қилиш ҳамда яшил майдонларни кенгайтириш борасида тизимли чоралар кўрилмоқда. Дарахт,

буталар ва яшил ҳудудларни муҳофаза қилиш ҳамда уларнинг майдонларини кенгайтириш, ушбу соҳада масъул ташкилотлар фаолиятини янада самарали ташкил этиш, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 октябрдаги “2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5863-сон фармони қабул қилинди. Қайд этилганидек, сўнгги йилларда мамлакатимизда экологик хавфсизликни таъминлаш, экологик вазиятни яхшилаш, чиқиндиларнинг инсонлар соғлиғига зарарли таъсирининг олдини олиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, санитария ва экологик ҳолат сифатини ошириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Мактабгача таълим-ташкilotи педагоглари олдига болаларни ёшлиқдан бошлаб китобга кизиштириш, бадиий адабиёт билан таништириш ва китоб дунёси, халқ оғзаки ижоди орқали дунё олами ҳақида маълумотлар бериш вазифалари юклатилган.

Мактабгача ёшдаги болаларни атроф-муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлиш руҳида тарбиялаш, айниқса, халқ оғзаки ижоди воситасида амалга оширишни тақозо этади.

Шу боисдан мактабгача таълим ташкilotи тарбиячилари мактабгача ёшдаги болаларни фаолиятлар жараёнида Она-табиатни севишга, атроф-муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлиш руҳида тарбиялаш лозимлиги муҳим ҳисобланади.

Кейинги йилларда Республикаимизнинг мактабгача таълим тизимида амалга оширилаётган ислохотлар, ижтимоий тараққиётнинг жадал суръатларда билан бориши натижасида мактабгача ёшдаги болаларнинг ижтимоий-психологик хусусиятларини инобатга олиб, шахсга йўналтирилган таълим асосида фаолиятларни ташкил этиш, Она-табиатга нисбатан меҳр-муҳаббат руҳида тарбиялаш, ҳар томонлама гармоник ривожланган шахсни тарбиялаш масалалари долзарб касб этмоқда.

Бугунги кунда мактабгача таълим ташкilotларида халқ оғзаки ижоди намуналари ҳисобланмиш топишмоқ, эртак ва мақоллардан фақатгина болалар нутқини ўстиришга қаратилган фаолиятлар ташкил этилаётганлиги яққол кўриниб турибди.

Мактабгача ёшдаги болаларни халқ оғзаки ижоди намуналари билан таништириш муаммоларини ҳал қилишнинг педагогик эҳтиёжлари тарбияланувчиларнинг мазкур намуналар орқали атрофдаги оламга, табиатга ва экологик маданиятни шакллантиришга қаратилган тизимни яратиш ҳамда уни мазмунан тўғри бойитишга зарурат сезилмоқда.

Тадқиқот методикаси. Тадқиқотда халқ оғзаки ижоди воситалари топишмоқ, эртак ва мақоллар мактабгача ёшдаги бола шахсини ҳар томонлама ривожлантириш, болалар дунёқарашини, оғзаки нутқ ва экологик маданиятни шакллантиришнинг энг муҳим воситаларидан бири эканлиги атрофлича ёритилган. Халқ оғзаки ижоди воситалари топишмоқ, эртак ва мақоллар мазмуни болани ҳар томонлама ривожлантирибгина қолмай, ақлини чархлайди, Она-табиатдаги ўзгаришлар, табиат ҳодисаларини бир-биридан фарқлай олади, катталар меҳнати, атроф-муҳит тозаллигини кадрлашга ўрганади энг муҳими экологик маданият шаклланади.

Ўрганиб чиқилган муаммонинг ҳал этилишига қаратилган хорижий тажрибалар ва педагогик-психологик, методик тадқиқотларнинг олиб борилишини ўрганиш асосида мактабгача таълим ташкilotларида болаларни халқ оғзаки ижоди воситасида экологик маданиятни шакллантириш жараёнини самарали йўлга қўйиш орқали мазкур муаммонинг ечими ҳал этилишини кўрсатмоқда.

Халқ оғзаки ижоди асрлар давомида ўтмишнинг йўлдоши, унинг меросий манбаси бўлиб келган. Халқ турмуш тарзи, ҳаёти, ўтмиши ҳисобланган фольклор асарлари асрлар оша тўпланган ижодий тажрибалардан иборат бадиий-эстетик урф-одат ва кадриятлардан биридир.

Халқ оғзаки ижоди қадим замонларда ёзув пайдо бўлмасдан олдин юзага келган. Оғзаки ижоднинг пайдо бўлиши ва оммага тарқалиши жонли оғзаки удум билан боғлиқдир. Фольклор асарларининг узоқ асрлар давомида оғзаки яратилиши ва оғзаки ижро этилиши унинг шакл ва мазмунига таъсир кўрсатади. Маълумки, айрим тарихий фактларнинг тўлиқ эса қолмаслиги, замон тақозоси билан унутилиши натижасида уларнинг асардан тушиб қолиши ёки ўзгариши мумкин. Фольклорнинг оғзакилик хусусияти унинг кенг тарқалишига, халқ орасида кенг оммалашувига сабаб бўлади. Аммо шу билан бирга, оғзаки ижод намунаси ўтмиш замонларда ёзма тарзда мавжуд бўлмагани учун уни ижро этувчи шахснинг вафоти билан йўқ бўлиб кетиши ҳам мумкин. Фольклор асари оғиздан оғизга ўтиши туфайли шаклан ва мазмунан қандай ўзгаришларга учрамасин, бу ҳол унинг ғоявий-бадиий ва ижтимоий-эстетик қимматини туширмайди. Чунки унда ижодкор халқнинг воқеликка муносабати акс этади.

Мактабгача ёшдаги болаларда халқ оғзаки ижоди намуналари билан таништириш жараёни педагогик-психологик тизим сифатида қуйидагича ифодаланади:

- Мактабгача ёшдаги болаларда экологик маданиятни шакллантиришнинг босқичли тизими яхлитлик касб этиб, ўзаро бир-бирига боғлиқ ва алоқадор компонентлар билан тавсифланади;
- Халқ оғзаки ижоди билан таништириш жараёни педагогик жараён бўлиб, бир қанча тарбиявий вазифаларни бажаришни ўзида ифода этади;
- Тарбияланувчиларнинг билиш жараёнининг ривожланиши, тадқиқий билиш ва самарали рефлексив фаолият соҳасида педагогик муносабатлар, тарбия мақсадлари ва талаблари билан белгиланади

Топишмоқ, эртақ ва мақоллар мактабгача ёшдаги боланинг ёш хусусиятлари ва қизиқишларига, ривожланганлик даражасига, имкониятларига мос келиши кераклиги илмий асослаб берилган. Болалар кўпинча табиат ва унда содир бўладиган воқеа-ходисалар ҳақидаги топишмоқларни, телевизорда кўрган эртақларни қайта-қайта кўришни хуш кўрадилар.

Болаларга ёшлигидан бошлаб Қуръони Карим қиссаларидан пайғамбарларнинг ҳаёти ҳақида нақл қилувчи турли ривоятлардан, халқ эртақлари ва дostonларидан, топишмоқлар, мақол ва маталлардан ўқиб бериш, сўзлаш ёки уларнинг ўзларига ўқитиш ҳам керак.

Бу билан болаларнинг зеҳни ўсади, фикри кенгайди, дунёқараши бойийди, хотираси кучаяди. Энг асосийси, бола эшитганларидан ибратланиб, яхши одамларга эришишга интилади, уларнинг хулқу одобидан баҳраманд бўлади.

Чунки эртақ, мақоллар боланинг рухий ривожланишига таъсир қилар экан, эртақдаги ифода этилаётган мазмун унинг ҳаракатларида, чуқур хиссий кечинмаларида, фаолиятида ўз таъсирини ўтказди. Айнан шу ҳолатлар болада экологик маданиятнинг ўзига хос хусусиятларини англаш учун илк кадамдир.

Халқ озаки ижоди мактабгача ёшдаги болада экологик маданиятни шакллантириш билан бирга ўз олдига мақсад қўя олиш, она табиатни севиш ва ардоқлаш, уни ифлос қилмаслик, катталар меҳнатини ҳурмат қилиш, жониворларга озор бермаслик, табиат ресурсларидан унумли фойдаланиш ва тежаш, инсон хулқ атворининг умумий меъёр ва тамойиллари ҳақида илк тасаввурларни пайдо бўлишига ёрдам берувчи воситадир. Шу боисдан халқ оғзаки ижоди бола маънавий дунёқараши манбаи, ғамхўрлик, меҳрибонлик, гўзаллик, яхшилик, згклик каби ижобий сифатларни рўёбга чиқарувчи асосий восита ҳисобланади.

“Ўзбекистон Республикасида илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари ” кичик ёшдан бошлаб тайёрлов гуруҳига қадар билиш жараёнининг ривожланиши тадқиқий билиш ва самарали рефлексив фаолият соҳасида болалар билиши лозим бўлган талаблар киритилган.

Таҷрибалар шуни кўрсатдики, болалар топишмоқ, яъни жумбоқ жавобини топишга қизиқдилар ва эртақларни, айниқса, ётиш олдидан тинглаб ухлаб қолишни хуш кўрадилар. Ўрганган адабиётлар таҳлили шуни англатдики, халқ оғзаки ижоди намуналари топишмоқ, эртақ ва мақоллар болалар ақлини чархлайди, уларни зукко қилиб тарбиялайди, болаларда ўзаро меҳр-муҳаббатли бўлишга чақиради. Топишмоқни шунчаки жавобини топишга эмас, балки жавобини чуқур англаб олишга имкон беради. Ранг-баранг бўлган топишмоқ, эртақ ва мақоллар турли ёш гуруҳларда турлича ўргатилиш, ўқитилиш талабига эга.

Мактабгача ёшдаги болаларни мактаб таълимига тайёрлаш жараёнида болалар учун тавсия этилаётган халқ оғзаки ижоди намуналарини ёши, интеллектуал имкониятларини ҳисобга олган ҳолда танлаш мақсадга мувофиқдир. Бу босқич тарбияланувчиларда ахлоқий инсоний сифатларни шакллантиришда асосий босқич саналади.

Мактабгача ёшдаги болалар билан ташкил этилаётган фаолиятларнинг асосий вазифаларидан бири ўсиб келаётган ёш авлодни мустақил фикрлашга ўргатиш, теварак-атрофга нисбатан муносабатини эркин билдира оладиган муҳит яратиб беришдан иборат.

Ҳар бир бола ўз олдига қўйиладиган вазифани бажаришда онгли тушунган ҳолда муносабат билдириши, мустақил равишда фикрлай олиши ва эркин фаолиятда киришиши учун ўз билимини намоён эта олиши, фаолият мобайнида турли хил вазиятларга дуч келса бу ҳолат унда қизиқиш уйғота олиши керак.

Мактабгача ёшдаги болалар жуда қизиқувчан бўлганлиги боис, ҳар қандай муаммога дуч келсалар уни тезда бартараф этишга киришадилар. Яъни айтилган топишмоқ жавобини тез топишга киришадилар. Бу ёшдаги болаларнинг билишга бўлган қизиқишини оширишда таълимий муҳитни ҳозирлаш муҳим саналади. Ҳар қандай бола берилган жумбоқни ўрганиш орқали таҳлил қилиш, умумлаштириш, тартибга сола билиш каби кўникмаларни эгаллашга ҳаракат қилади.

Бола тарбиячи томонидан ҳикоя қилинган эртақни бола диққат билан эшитиш оқали теварак-атрофни, инсонларни, тенгдошларини идрок эта бошлайди. Ҳикоя қилинган ёки ўқиб берилган эртақ, мақоллар орқали тарбиячининг фикрларини англаб олиш, асар аҳамиятига, мавзусига ва эртақ қаҳрамонларининг тасвирланишига кўп жиҳатдан боғлиқ.

Мактабгача ёшдаги болаларни халқ оғзаки ижоди намуналари орқали экологик маданиятни шакллантириш ишларини бажараётган тарбиячи-педагоглар қатор маъсулиятли вазифаларни ҳал қилишлари муҳим ҳисобланади.

Муҳокама ва натижалар. Шуни таъкидлаш жоизки, тарбиячи-педагогларнинг олиб бораётган фаолияти тарбияланувчиларнинг ҳар томонлама гармоник ривожланиши учун зарурий шартдир.

Буларни қуйидаги изоҳлаш мумкин: мактабгача ёшдаги болаларни “ Илм фан ва табиат ” марказида ўтказиладиган тажрибалар билан таништириш билан бирга атроф олам ҳақида билим ва кўникмалар, осмон жисмлари ва унда содир бўлаётган воқеа-ҳодисалар ҳақидаги маълумотлар чуқурлаштирилади. Мактабгача ёшдаги болаларда экологик маданиятни шакллантиришда халқ оғзаки ижоди намуналари асосий восита бўлиб хизмат қилади. Халқ оғзаки ижоди мактабгача ёшдаги болаларнинг атроф-олам ҳақидаги дунёқарашини кенгайтириш билан биргаликда ақлий тарбиясига ўз таъсирини ўтказмай қўймайди. Илмий дунёқараш ва ақлий тарбия интеграцияси болаларнинг ақлий тарбиясини ривожлантиришдаги энг етакчи тамойил бўлиб хизмат қилади. Халқ оғзаки ижоди воситасида ахлоқий ҳис-туйғу, ўзаро ҳурмат, ғамхўрлик каби ижобий сифатлар шаклланади. Халқ оғзаки ижоди нафосат тарбияси воситаси сифатида табиатдаги нафисликни ҳис этиш, ундаги гўзалликни кўра олиш, табиатда содир бўладиган ўзгаришларни фарқлай олиш ифода этилади. Булар эса болаларнинг эстетик идроки ва экологик маланиятни шаклланиб ва янада такомиллашиб боришида асос бўлади.

Экологик муаммолар, экологик ҳалокат ёки экологик вазият ечимини топиш учун, энг аввало, инсонда экологик таълим тарбияга оид тушунчаларни шакллантириш лозим. Болани ёшлигидан бошлаб оилада меҳнатга онгли муносабатни уйғотиш, табиатга, атроф-муҳитга ҳурмат, ободонлаштириш ҳиссини шакллантириш даркордир. Оила даврасида фарзандларга «Сувга туфлама, уни ифлос қилма, чунки барча жониворлар уни ичиб баҳра олади», "Гуллаб турган мевали дарахтнинг шохини синдирма, у мева беради, уни ўзинг истеъмол қиласан", деб панду-насихатлар қилиш керакдир.

Авестода табиатни, хусусан, сувни ифлос ёки исроф қилган киши 400 даррага маҳкум этилган. Сувга ҳурмат ислом динимизда ҳам сақланиб қолган. Мана шу ҳурмат таъсирида халқда кўплаб мақоллар, ривоятлар, ибратли ҳикоятлар, эртақлар вужудга келган. Экологик тарбия мактабгача ёшда, мактаб даврида, мактабдан кейинги, маҳалла, меҳнат жамоаси ҳамда кексалик даврида турлича мазмун, шакл ва методлар ҳамда ёндашувларда амалга оширилади.

МДҲ олимлари Н.И.Новиков, В.Ф.Одоевский, В.Г.Белинскийлар ҳам болаларнинг дунёқарашини, эстетик дидини шаклланишида бадиий асарларни ролини кенг очиб берганлар.

Хорижлик олимлардан Теофраст Эрезейский, Ж.Бюффон, А.Н.Бекетов, К.Мёбиус, рус олимларидан В.Н.Сукачев, Б.А.Келлер, В.В.Олехин, В.Г.Раменский, А.Шинников ва чет эллик олимлардан Ф.Келементес, К.Раункиер, Т.Дю Рие, И.Браун-Бланке, Р.Н.Кашкаровлар ва Ўрта Осиёда Муҳаммад Мусо ал-Хоразмий, Абу Наср Форобий, Абу Али ибн Сино ва бошқалар табиат ва экологияга оид фанларнинг ривожланишига катта ҳисса қўшганлар.

Халқ оғзаки ижоди намуналари-топишмоқ, эртақ ва мақол орқали болалар нутқи анча ривожланади, сўз бойлигини табиатга оид луғатлар билан бойитиб боради.

Халқ оғзаки ижоди болаларда сўзларни маъно жиҳатдан бир биридан фарқлай олишга, табиат ва экологияга тегишли терминларни тушуниб, англаб олишга ёрдам беради. Тарбиячи-педагог томонидан ҳикоя қилинган эртақ ёки айтилган топишмоқ ва мақоллар давомида бола нутқи ва экологик дунёқарашини шаклланганлик ўртасидаги боғлиқлик яққол кўзга ташланади. Эртақ ва топишмоқда ифодаланган воқеа-образлар яққол намоён бўлиши билан болада табиат ҳақидаги тушунчалар мустаҳкамланиб боради ва бадиий идрок этишнинг ривожланишига хизмат қилади.

Хулосалар. Халқ оғзаки ижоди орқали экологияга оид луғат намуналари бола онгига тез кириб боради. Айниқса, мақолларда болалар тилининг ихчамлиги ва аниқлигини ўрганадилар, шеърини топишмоқлар орқали зукколик ва зийраклик, мусиқий, оҳангдорлигини англаб етадилар, эртақлардаги аниқ сюжет ва ифодалиликка асосланиб унинг мазмунини тушуниб етадилар.

Халқ оғзаки ижоди учун табиат ва экология, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳақидаги топишмоқ, эртақ ва мақолларга оид асарлар катта аҳамиятга эга.

Экологик тушунчалар ўзида тежамкорлик, асраб-авайлаш, она табиатни севиш, ғамхўрлик кўрсатиш каби тушунчаларга эга; экологик меъёрларга ҳурмат, ҳалоллик, камтарлик, жасорат тушунилади; экологик маданият жумласига қушларга озор бермаслик, дарахт ва экинларни пайхон қилмаслик, гулларни узмаслик, эҳтиёткорона муносабатда бўлиш каби ижобий экологик сифатларни халқ оғзаки ижоди воситасида шакллантирилади.

Адабиётлар:

1. “Илк қадам” такомиллаштирилган давлат ўқув дастури. Тошкент. 2022 йил.
2. Жумабоев М. Ўзбек болалар адабиёти: Олий ўқув юртларининг ўзбек тили ва адабиёти факультетлари талабалари учун дарслик. — Т.: «Ўзбекистон», 2001.
3. Машарипова З. Ўзбек халқ оғзаки ижоди (ўқув кўлланма) Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент 2007 й.
4. Абдурахимов М. Ўзбек халқ топишмоқлари китоби. Тошкент-2023 й

FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘OITISH

OO‘K 811.134.2+378.016

TALABALARNING IJTIMOY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA REFLEKSIYA VA O‘Z-O‘ZINI REFLEKSIYA QILISHNING ROLI (ISPAN TILI MISOLIDA)

*Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, f.f.n.
anastasi72@yandex.ru*

Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida ispan tili bo‘yicha talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish jarayonida refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishning o‘rni o‘rganiladi. Maqolada ispan tili va madaniyatining ijtimoiy-madaniy jihatlarini ongli va tizimli o‘rganish vositasi sifatida refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Talabalarning refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish kompetentliklarini rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik usul va yondashuvlar tahlil qilinadi. Natijalar ta‘lim kontekstida refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishning muhimligini ta‘kidlash bilan birgalikda, o‘qituvchilar va talabalar uchun ushbu vakolatlarni kuchaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni muhokama qiladi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-madaniy kompetentlik, refleksiya, o‘z-o‘zini refleksiya qilish, introspeksiya, madaniyatlararo muloqot.*

РОЛЬ РЕФЛЕКСИИ И САМОРЕФЛЕКСИИ В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА)

В данной научной статье изучается роль рефлексии и саморефлексии в процессе развития социокультурной компетенции студентов по испанскому языку в системе высшего образования Узбекистана. В статье рассматривается значение рефлексии и саморефлексии как инструментов для осознанного и систематического изучения социокультурных аспектов испанского языка. Анализируются педагогические методы и подходы, которые способствуют развитию рефлексивной и саморефлексивной компетенций студентов. Полученные результаты позволяют выделить значимость рефлексии и саморефлексии в контексте образования и обсудить практические рекомендации для преподавателей и студентов по усилению этих компетенций.

Ключевые слова: *социокультурная компетенция, рефлексия, саморефлексия, интроспекция, межкультурная коммуникация.*

THE ROLE OF REFLECTION AND SELF-REFLECTION IN THE DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF STUDENTS (USING THE EXAMPLE OF SPANISH)

This scientific article explores the role of reflection and self-reflection in the development of socio-cultural competence of students in Spanish in the higher education system of Uzbekistan. The article examines the importance of reflection and self-reflection as tools for the conscious and systematic study of the socio-cultural aspects of the Spanish language and culture. Pedagogical methods and approaches that contribute to the development of reflexive and self-reflexive competencies of students are analyzed. The results obtained allow us to highlight the importance of reflection and self-reflection in the context of education and discuss practical recommendations for teachers and students to strengthen these competencies.

Keywords: *socio-cultural competence, reflection, self-reflection, introspection, intercultural communication.*

Kirish. Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish O‘zbekiston ta‘lim tizimida muhim vazifadir. Chet tillarni, shu jumladan, ispan tilini o‘rganish doirasida nafaqat grammatika va so‘z

boyligini o‘rganishga, balki ushbu til ishlatiladigan mamlakatlarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini tushunishga ham alohida e‘tibor qaratish lozim.

Shu nuqtayi nazardan, refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish talabalarning ispan tilidagi ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Refleksiya organilgan ma‘lumot va tajribani tushunish va tahlil qilish jarayoni, o‘z-o‘zini refleksiya qilish esa o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va ijtimoiy-madaniy vaziyatlarga bo‘lgan munosabatlaridan xabardor bo‘lishni o‘z ichiga oladi. Ushbu ikkala vakolat ham talabalarga yangi madaniy muhitga moslashishga, o‘zlarining noto‘g‘ri qarashlari va stereotiplaridan xabardor bo‘lishga va samarali muloqot strategiyalarini yaratishga yordam beradi.

Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida ispan tilida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish jarayonida refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishning rolini o‘rganishdan iborat. Talabalarning reflektiv va o‘z-o‘zini refleksiya qilish kompetentliklarini rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik amaliyot va usullarning namunalari ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, olingan natijalar asosida o‘qituvchilar va talabalar uchun refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishni ta‘lim jarayoniga qanday qilib samarali integratsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish psixologiya va pedagogikada o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari, harakatlari va tajribalarini tushunish va tahlil qilish jarayonlarini tavsiflash uchun ishlatiladigan ikkita tushuncha bo‘lib, shaxsiyat va o‘z-o‘zini rivojlantirishning muhim vositalari hisoblanadi. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishning tarixiy ildizlarini falsafada, ayniqsa, Aristotel, Aflotun va Suqrot kabi mutafakkirlarning asarlarida topish mumkin. Faylasuflar o‘rganish va rivojlanish jarayonida introspektsiya va o‘z-o‘zini bilishga e‘tibor qaratdilar.

“Refleksiya” atamasi ilk bor XIX asrning oxirida amerikalik psixolog Uilyam Jeyms tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Olim ushbu tushunchadan tajribani anglash va tahlil qilish jarayonini tavsiflash uchun foydalangan. O‘shandan beri refleksiya keng miqyosida o‘rganila boshlandi, shu bilan birgalikda, ta‘lim va shaxsiy rivojlanish amaliyotida qo‘llanila boshlandi.

O‘z-o‘zini refleksiya qilish refleksiyaning ajralmas qismi sifatida o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari, harakatlari va munosabatlarini tahlil qilish va anglashga qaratilgan bo‘lib, introspektsiya va o‘z-o‘zini bilish qobiliyatini anglatadi. O‘z-o‘zini refleksiya qilish orqali odam o‘z qadriyatlarini, e‘tiqodlarini, stereotiplari va ijtimoiy muhitdagi o‘z roli haqida chuqur tushunchaga ega bo‘lishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlar tahlili. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish ko‘plab ilmiy ishlarning tadqiqot mavzusiga aylandi. Keyinchalik ularning ba‘zilarini ko‘rib chiqamiz.

1. “Reflection as a Language Learning and Teaching Device” (Maya Khemlani David) nomli maqolada chet tillarini o‘rganish va o‘qitish jarayonida aks ettirishning o‘rni o‘rganiladi, shuningdek, amaliy darslarda refleksiya foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beriladi [3].

2. “Metacognition, Self-Regulation and Self-Regulated Learning: Research Recommendation” (Dale H. Schunk) nomli maqolada ta‘lim va rivojlanish jarayonida o‘z-o‘zini refleksiya qilish va o‘zini o‘zi nazorat qilishning roli, shu jumladan, o‘zini o‘zi boshqarish va baholashning turli usullari va strategiyalari yoritilgan [6].

3. “Reflection on a Way of Being: Anchor Principles of Cultural Competence” (Gabrielle Russel) nomli maqolada refleksiya va madaniy kompetentlik o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rib chiqiladi, shuningdek, o‘quvchilarga refleksiya orqali madaniy farqlarni tushunishga yordam beradigan usullar muhokama qilinadi [5].

4. “The interplay among self-assessment, using reflection for assessment, classroom enjoyment and immunity: into prospects of effective language learning” (Aldosari M., Heydarnejad T. va b.) nomli maqolada chet tillarini o‘qitishda refleksiya va o‘zini o‘zi refleksiya qilishni qo‘llash ko‘rib chiqiladi, hamda o‘quv jarayonida refleksiyaning qo‘llash bo‘yicha bir qator amaliy yondashuvlar va tavsiyalar taqdim etiladi [1].

5. “Reflection in learning and professional development” (Jenny Moon) nomli tadqiqotda o‘rta va oliy ta‘limda refleksiya amaliyoti o‘rganiladi, shuningdek, o‘qituvchilar refleksiya usullaridan foydalanishda duch keladigan muammolar va qarama-qarshiliklar aniqlanadi [4].

6. “A multi-dimensional model of reflective learning for professional development” (P.Black, D.Plowright) nomli maqolada reflektiv ta‘lim tushunchasi, uning kasbiy kompetentliklarni shakllantirish va shaxsni rivojlantirish jarayonidagi roli va ahamiyati o‘rganiladi [2].

Zamonaviy tushunchalarga ko‘ra, refleksiya o‘z tajribasiga e‘tibor berish hamda fikrlari, his-tuyg‘ulari va harakatlarini kuzatishni o‘z ichiga olgan jarayon. Refleksiya o‘z tajribasini umumiy qadriyatlar, e‘tiqodlar va me‘yorlar nuqtai nazaridan tushunish va taqqoslash, yangi tushunchalar va kontseptsiyalar bilan ishlash, shuningdek, ushbu tahlilga asoslangan xatti-harakatlari va reaksiyalarini moslashtirish uchun chuqur tahlil qilishni nazarda tutadi. O‘z-o‘zini refleksiya qilish, boshqa tarafdin, o‘z fikrlar, his-tuyg‘ular, harakatlar va

ijtimoiy munosabatlarda o‘z rolini mustaqil anglashga yo‘naltirilgan. Shunday qilib, o‘z kuchli va zaif tomonlarini chuqurroq tushunish, o‘z madaniyat va xurofotlarning boshqa odamlar bilan muloqot qilishiga ta‘sirini anglash hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi.

Yuqoridagi ilmiy adabiyotlardan kelib chiqqan holda, refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishining eng muhim tarkibiy qismlari quyidagi tarzda tasvirlanishi mumkin:

T/r	Refleksiya elementlari	Izoh
1.	Tajribani anglash.	Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish ispan tili va madaniyat bilan o‘zaro aloqa qilishning jismoniy va hissiy jihatlarini o‘z ichiga oladigan o‘z tajribani anglashdan boshlanadi. Bundan tashqari, o‘z-o‘zini refleksiya qilish o‘z fikrlar, his-tuyg‘ularni anglash hamda turli vaziyatlar va madaniy kontekstlarga reaksiya qilishidan iborat.
2.	Fikr va his-tuyg‘ularni tahlil qilish.	Reflektiv jarayon ispan madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z fikrlar, hissiyotlar, xurofotlar va stereotiplarni tahlil qilishidan iborat. O‘z xurofotlarni o‘rganish hamda ularning o‘zaro faoliyat va muloqotga ta‘sirini baholash o‘z-o‘zini refleksiya qilishning eng muhim jihatlari hisoblanadi. Tahlil o‘zini-o‘zi baholash hamda ijtimoiy-madaniy kompetentlik kontekstida kuchli va zaif tomonlarini belgilashni o‘z ichiga olishi mumkin.
3.	O‘zini-o‘zi boshqarish va nazorat qilish strategiyalarni ishlab chiqish.	Refleksiya va o‘zini-o‘zi refleksiya qilish talabalarga ispan madaniyat vakillari bilan samarali ravishda o‘zaro aloqaga kirishga imkon beradi. Ushbu metodlar o‘z muloqotni moslashtirish, madaniy me‘yorlar va qadriyatlarga riyoya qilish hamda ijtimoiy-madaniy muhitda eng yaxshi natijalarga erishish maqsadida o‘z hulq-atvorini ongli ravishda to‘g‘rilashni o‘z ichiga oladi.
4.	Kontekstuallashtirish va bilimlarni kengaytirish.	Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish talabalarga ispan tili va madaniyati to‘g‘risidagi bilimlarni kontekstuallashtirishga yordam berib, ispan madaniyatining yangi jihatlarini o‘rganish va tushunishga, an‘analar va urf-odatlariga moslashuviga yo‘l qo‘yadi. Ushbu natijalarni erishish uchun har doim yangi ma‘lumotlarni izlash va foydalanish, turli manbalarni o‘rganish hamda ispan madaniyati to‘g‘risidagi o‘z bilimlarni kengaytirish talab etiladi.

Tadqiqot metodikasi. Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida ispan tilini o‘rganuvchi talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishning rolini o‘rganish uchun turli xil tadqiqot usullari va metodologiyalari qo‘llanilgan. Tadqiqotda foydalanilgan asosiy usullar quyida tavsiflanadi:

1. So‘rovnoma o‘tkazish: ma‘lumotlarni yig‘ish uchun anketa usuli ishlatilgan. So‘rovnoma ispan tilini o‘rganuvchi talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishda refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishning rolini aniqlash uchun ishlab chiqilgan. So‘rovnoma miqdoriy ma‘lumotlarni olishga mo‘ljallangan savollardan iborat. So‘rovnomada Samarqand davlat chet tillar institutining ispan tilini asosiy til sifatida o‘rganayotgan 100 nafar talabasi (shu jumladan, 44 ta 4-kurs talabalari va 56 ta 3-kurs talabalari) ishtirok etdi.

2. Fokus-guruhlar: ushbu usul guruh muhokamalarini o‘tkazish uchun ishlatilgan. Fokus-guruhlar Samarqand davlat chet tillar institutining ispan tilini asosiy chet tili sifatida o‘rganuvchi 3-4 kurs talabalaridan tashkil topgan. Fokus-guruhlar davomida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish kontekstida refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish bilan bog‘liq mavzular muhokama qilindi.

3. Kuzatish: o‘quv jarayoni va talabalarining auditoriyadagi o‘zaro ta‘siri haqida ma‘lumot olish uchun kuzatish usuli qo‘llanilgan. Tadqiqotchi tomonidan ijtimoiy-madaniy kompetentlikning rivojlanishi bilan bog‘liq refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish jihatlarini aniqlash uchun ispan tilini o‘qitish jarayonini va o‘quvchilarning dars doirasidagi o‘zaro ta‘sirini kuzatilgan.

4. Intervyu: talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishdagi reflektiv jarayonlari va tajribalari haqida batafsil ma‘lumot olish uchun intervyular o‘tkazildi. Suhbatlar refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish bilan bog‘liq mavzular atrofida tuzilgan bo‘lib, ularning ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishdagi rolining turli jihatlarini ochib beradi.

Natijalar va ularning muhokama qilinishi. Ushbu bo‘limda olib borilgan usullar va metodikalardan olingan asosiy tadqiqot natijalari keltirilgan.

1. So‘rovnoma o‘tkazish: so‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, aksariyat talabalar ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishning rolini tan olishadi. Ularning ta’kidlashicha, reflektiv amaliyotlar o‘z madaniy idrokidan xabardor bo‘lishga va ispan madaniyatiga moslashishga imkon beradi. Aksariyat talabalar, shuningdek, madaniyatlararo bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish uchun o‘z-o‘zini refleksiya qilish ahamiyatini yuqori baholaydilar. Quyidagi jadvalda so‘rovnoma savollari va talabalarning javoblari foizli nisbati keltirilgan.

T/r	Savol	Javoblar nisbati
1	Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun aks ettirishni qanchalik muhim deb bilasiz?	o‘ta muhim-60%, muhim-30%, ancha muhim emas-10%
2	Ispan tilini o‘rganish kontekstida qanday refleksiya amaliyotlardan foydalanasiz?	boshqa talabalar bilan muhokama qilish-40%, o‘qituvchi bilan maslahatlashish - 25%, introspektsiya - 25%, jurnalni yuritish-15%
3	Ispan madaniyatini tushunishda refleksiya sizga qanday yordam beradi?	o‘z xurofotlarini anglash-35%, madaniy farqlarni tushunish-30%, empatiyaning rivojlanishi-25%, madaniyatlararo ko‘nikmalarni baholash-10%
4	Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda o‘z-o‘zini refleksiya qilish qanday rol o‘ynaydi?	kuchli va zaif tomonlarni anglashga yordam beradi-45%, maqsadli yaxshilanishni rag‘batlantiradi-30%, madaniyatlararo bilimlarni kengaytirishga yordam beradi-15%, motivatsiya va ishonchni oshiradi-10%
5.	Ispan tilini o‘rganayotganda qaysi davriylikda refleksiyaning amalida qo‘llaysiz?	har kuni - 40%, haftada bir necha marta-30%, kamdan kam-20%, hech qachon - 10%
6.	Odatda refleksiya amaliyotini o‘tkazishda qanday qiyinchiliklarga duch kelasiz?	vaqt yetishmasligi-45%, introspektsiya bilan bog‘liq qiyinchiliklar-35%, o‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaslik - 20%, boshqa sabablar-10%
7.	Reflektiv amaliyotlar natijasida ijtimoiy-madaniy kompetentligingizda qanday o‘zgarishlarni sezdingiz?	Ispaniya madaniyatini yaxshiroq tushunish va unga moslashish - 40%, madaniyatlararo aloqani yaxshilash-30%, o‘ziga ishonch - 20%, boshqa o‘zgarishlar-10%
8	Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun boshqa talabalarga qanday aks ettiruvchi strategiyalarni tavsiya qilasiz?	boshqa talabalar bilan faol muhokama-40%, madaniyatlararo loyihalarda ishtirok etish-35%, reflektiv jurnalni yuritish-15%, boshqa strategiyalar-5%

2. Fokus-guruhlar: fokus-guruh muhokamalarida talabalar ispan tili va ijtimoiy-madaniy kompetentlik kontekstida refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishning rolini tushunishlarini bildirdilar. Ularning ta’kidlashicha, reflektiv amaliyotlar ularning ispan madaniyati haqidagi tushunchalarini rivojlantirishga, muloqot qobiliyatlarini yaxshilashga va o‘zlarining madaniy xurofotlaridan xabardor bo‘lishga yordam beradi. Talabalar, shuningdek, ijtimoiy-madaniy kompetentlikda shaxsiy maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun o‘z-o‘zini refleksiya qilish muhimligini ta’kidladilar.

3. Kuzatish: auditoriya sharoitida kuzatish o‘quvchilarning o‘quv faoliyatida refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishdan qanday foydalanishini ko‘rishga imkon berdi. Ishtirokchilar ispan madaniyati kontekstida o‘zlarining xatti-harakatlaridan yuqori darajada xabardorligini ko‘rsatdilar. Ular o‘zlarining madaniyatlararo tajribalarini faol ravishda so‘roq qildilar, muhokama qildilar va tahlil qildilar, shuningdek, yuqori darajadagi reflektiv fikrlashni namoyish etdilar.

4. Intervyu: ishtirok etgan talabalar bilan suhbatlar refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishning ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishdagi rolining chuqur tomonlarini ochib beradi. Talabalar

reflektiv amaliyotlar orqali madaniyatlararo o‘zaro ta’sirlardan xabardor bo‘lish ularga ispan tili va madaniyatiga moslashishga yordam berishini ta’kidladilar. O‘z-o‘zini refleksiya qilish orqali ular ispan tili sohiblari bilan muloqotda yanada moslashuvchan, bag‘rikeng va bir-birini tushunadigan bo‘lib qoladilar.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqqan holda, talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishda refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish muhim rol o‘ynaydi. Quyida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishning ba’zi usullari keltiramiz:

1. Madaniy farqlarni tushunish va qabul qilish. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish talabalarga ispan tili va madaniyati hamda urf-odatlaridagi farqlarni anglash va tushunishga yordam beradi. O‘zlarining xurofotlari va stereotiplarini tahlil qilish orqali talabalar o‘zl xatti-harakatlari va muloqotlarini qabul qilish va moslashtirish qobiliyatini rivojlantirishlari mumkinligi ispan madaniyati vakillari bilan yanada samarali aloqada bo‘lishga yordam beradi.

2. Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish talabalarga ispan madaniyati vakillari bilan aloqa va o‘zaro munosabatlardagi kuchli va zaif tomonlarini tushunishga yordam beradi. Ular talabalarga o‘zlarining muloqotlarini, shu jumladan, lisoniy, noverbal va madaniy jihatlarni yanada muvaffaqiyatli va samarali muloqot qilish uchun moslashtirishga imkon beradi.

3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish ma’lumotni tahlil qilishni, turli nuqtayi nazarlardan xabardor bo‘lishni va tanqidiy fikrlashni talab qiladi. Talabalar o‘zlarining fikrlari, his-tuyg‘ulari va harakatlarini ispan madaniyati kontekstida tushunib, madaniy hodisalarni tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirishlari mumkin.

4. Madaniyatlararo ongni rivojlantirish. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish madaniy farqlarni tushunish va hurmat qilishni, boshqa madaniyatlarga nisbatan moslashuvchanlik va ochiqlikni o‘z ichiga olgan madaniyatlararo ongni rivojlantirishga yordam beradi. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish orqali talabalar madaniyatlararo o‘zaro ta’sirdagi rolini anglashlari va turli madaniy kontekstlarga moslashish qobiliyatini rivojlantirishlari mumkin.

5. Integratsiyalashgan shaxsni shakllantirish. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish talabaning shaxsiyatini rivojlantirishga, unga o‘z qadriyatlarini, e’tiqodlari, intilishlari va maqsadlarini anglashga yordam beradi hamda jamiyatdagi rolini chuqurroq tushunishga va turli xil ijtimoiy-madaniy kontekstlarga moslashishga qodir bo‘lgan yaxlit shaxsni shakllantirishga imkon beradi.

Bu omillarning barchasi talabalarning ispan tilidagi ijtimoiy-madaniy kompetentligini va ularning ispan madaniyati vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini rag‘batlantiradi va ularning boshqa madaniyatlarga chuqur tushunishi va moslashishini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ispan tilini o‘qitish amaliyotida refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishni qo‘llash uchun turli xil usul va vositalardan foydalanish mumkin. Quyida talabalarning refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish kompetentliklarini rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik amaliyot va usullarning ba’zi misollari keltirilgan:

1. Reflektiv jurnal. Talabalar har bir dars yoki madaniy faoliyatdan so‘ng o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va kuzatuvlarini yozib oladigan jurnal yuritadilar. Jurnalda ular o‘zlarining yutuqlari, muammolari va kamchiliklarini tahlil qilishlari mumkin. Bu ularga o‘z taraqqiyotini anglashga va introspektiv qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, ular o‘zlari va ispan madaniyati haqida ko‘proq ma’lumot olish uchun o‘z umidlarini haqiqiy tajribalar bilan solishtirishlari mumkin.

2. Guruh muhokamalar. O‘qituvchi turli madaniy mavzular, jumladan, ispan madaniyati bilan bog‘liq g‘oyalari, afzalliklari va tajribalari bo‘yicha guruh muhokamalarini olib boradi. Bunday faoliyat talabalarga madaniyat haqidagi qarashlari va tushunchalarini muhokama qilish, tahlil qilish va taqqoslash imkonini beradi. Shuningdek, ular bir-birlariga savollar berishlari va o‘z nuqtayi nazarlarini taklif qilishlari mumkin.

3. Rolli o‘yinlar. Talabalar ispan madaniyat vakillari rolini o‘ynaydigan rol o‘yinlarda qatnashishlari mumkin. Ular kundalik hayot sahnalarini, muhim ijtimoiy masalalarni yoki madaniy an’analarini muhokama qilishlari mumkin. O‘yin davomida talabalar madaniy xususiyatlar va farqlarni tushunish va qabul qilishni o‘rganadilar.

4. Asl materiallarni tahlil qilish. O‘qituvchi talabalarga ispan tilida maqolalar, videolar yoki qo‘shiqlar kabi turli xil haqiqiy materiallarni taqdim etadi. Talabalar ushbu materiallarni tahlil qiladilar va ularda taqdim etilgan madaniy jihatlar haqida o‘z fikrlari va taassurotlari bilan o‘rtoqlashadilar. Shuningdek, ular o‘z qarashlarini boshqa talabalar bilan taqqoslashlari va darsda bahslashishlari mumkin.

5. Loyiha ishi. Talabalar ispan madaniyati bilan bog‘liq loyihalarda guruhlarda ishlashlari mumkin. Masalan, ular ispan oshxonasida urf-odatlar va an’analar haqida taqdimot yaratishlari yoki an’anaviy bayramlar haqida tadqiqot o‘tkazishlari mumkin. Loyiha ustida ishlash jarayonida talabalar ma’lumotni tahlil

qilishlari va sharhlashlari, shuningdek, o‘z mamlakatining madaniy jihatlarini ispan madaniyati bilan taqqoslashlari kerak.

Ushbu o‘qitish amaliyotlari va usullari talabalarga reflektiv va o‘z-o‘zini refleksiya qilish kompetentliklarni rivojlantirishga yordam beradi. Ular o‘zlarining fikrlari, his-tuyg‘ulari, harakatlari va madaniyatga bo‘lgan munosabatlarini anglash, tahlil qilish va tushunishga yordam beradi. Shuningdek, ular farqlarni qabul qilishga va yangi madaniy kontekstlarga moslashish qobiliyatiga hissa qo‘shadilar.

Reflektiv va o‘z-o‘zini refleksiya qilish kompetentliklarni ishlab chiqish va ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

1. Refleksiya uchun maydoni. Talabalar uchun o‘zlarining ta‘lim yutuqlari, ispan madaniyati vakillari bilan muloqot qilish tajribasi va o‘zlarining madaniy pozitsiyasi haqida mulohaza qilishlari mumkin bo‘lgan makonni yaratish kerak. Bunday makon refleksiya kabineti yoki ular o‘z fikrlari va his-tuyg‘ularini baham ko‘rishlari mumkin bo‘lgan onlayn forum bo‘lishi mumkin.

2. Refleksiya mashqlari. Talabalarga ispan tili va madaniyatini o‘rganishdagi yutuqlaridan xabardor bo‘lishga imkon beradigan mashqlarni taqdim etish kerak. Bunday mashqlar darsdan keyingi refleksiya lahzalari, kundalik yoki portfolio yaratish, shuningdek, talabalar o‘z fikrlari va mulohazalari bilan o‘rtoqlashishlari mumkin bo‘lgan guruh muhokamalaridan iborat bo‘lishi mumkin.

3. Loyihalar va muammolar. Talabalarga refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish ko‘nikmalarini rag‘batlantiradigan, talabalar o‘zlarining o‘quv yutuqlarini tahlil qiladigan, ispan madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganadigan yoki muayyan madaniy muammolar uchun yechimlarni ishlab chiqadigan loyihalar va muammolarni taqdim etish mumkin.

4. Baholash usullari. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish kompetentliklarni rivojlantirishga yordam beradigan baholash usullarini qo‘shish kerak. Bular talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishdagi taraqqiyoti va o‘shishini baholash uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan baholash varaqalari yoki guvohnomalari bo‘lishi mumkin.

Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish amaliyotida talabalar ba‘zi qiyinchiliklar va to‘siqlarga duch kelishlari mumkin. Ulardan ba‘zilari quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

1. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish bo‘yicha tajriba yoki bilim yetishmasligi. Ko‘pgina talabalar uchun refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish tushunchalari yangi bo‘lishi mumkin. Ular reflektiv jurnallarni qanday tutishni yoki o‘z fikrlari va his-tuyg‘ularini qanday tahlil qilishni bilmasligi mumkin. Ushbu holatlar amaliyotni boshlashda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

2. Qarshilik yoki noqulaylik. Ba‘zi talabalar refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishga qarshilik ko‘rsatishi mumkin, chunki bu jarayon introspektiv bo‘lishi sababli, ularga noqulayliklarni tug‘dirishi mumkin. Ular o‘zlarining fikrlari va his-tuyg‘ularini tahlil qilishda yoki shaxsiy g‘oyalarni ifoda etishda o‘zlarini noqulay his qilishlari mumkin.

3. Vaqt yoki motivatsiyaning yetishmasligi. Cheklangan vaqt va boshqa majburiyatlar refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish amaliyotiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bundan tashqari, ba‘zi talabalar o‘zlarining reflektiv jurnallarida muntazam ravishda ishlash yoki tajribalarini chuqur tahlil qilish uchun motivatsiya yetishmasligi mumkin.

Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi strategiyalarni qo‘llash mumkin:

T/r	Strategiya nomi	Izoh
1.	Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish amaliyoti to‘g‘risida aniq tushuncha berish.	Talabalarga refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish nima ekanligini va ular qanday foydali bo‘lishi mumkinligini tushuntirish lozim. Bunda ushbu jarayonni boshlash va davom ettirishga yordam beradigan ko‘rsatmalar va misollarni keltiring.
2.	Xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish.	Talabalar o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va tajribalarini erkin ifoda eta oladigan barqaror va ishonchli muhitni ta‘minlash kerak. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish individual va shaxsiy jarayonlar ekanligini hamda “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” javoblar yo‘qligini ta‘kidlang.
3.	Muntazam vaqt oralig‘ini belgilash va talabalarni rag‘batlantirish.	Bunda talabalarga refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish bilan ishlash uchun aniq tuzilma va muntazam vaqt oralig‘ini berish, hamda vaqtni tartibga solish va motivatsiyani o‘rnatishga yordam berish uchun aniq vazifalar va kutilmalarini aniqlash lozim.
4.	Boshqa talabalar bilan fikrlar almashish va muhokama qilishni rag‘batlantirish.	Talabalar tajriba almashishlari va bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashlari uchun guruh muhokamalari va hamkorligini targ‘ib qilish kerak. Bunday faoliyat individual qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi hamda ijobiy o‘zaro ta‘sirni rag‘batlantiradi.
5.	Refleksiya va o‘z-o‘zini	Talabalarga ushbu metodlar ularning shaxsiy va kasbiy ko‘nikmalarini

refleksiya amaliy ko'rsatish	qilishning afzalliklarini	rivojlantirishga, madaniy kompetentlik haqidagi tushunchalarini yaxshilashga va Ispaniya madaniyati bilan o'zaro aloqalari davomida qanday yordam berishi mumkinligini tushuntirish.
------------------------------------	------------------------------	--

Bunday strategiyalar talabalarga refleksiya va o'z-o'zini refleksiya qilish amaliyoti hamda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

Keyinchalik oliygohlar talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini takomillashtirish maqsadida refleksiya va o'z-o'zini refleksiya qilish usullaridan foydalangan holda auditoriya dars ishlanmasini taqdim etamiz.

1.	Dars kontseptsiyasi	Ispan tilida talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun refleksiya va o'z-o'zini refleksiya qilishdan foydalanish.
2.	Darsning maqsadi	Ispan madaniyati bilan bog'liq his-tuyg'ular, fikrlar va tajribalarni tahlil qilish va muhokama qilish orqali talabalarining refleksiya va o'z-o'zini refleksiya qilish kompetentligini rivojlantirish.
3.	Dars jarayoni	<p>1. Kirish (10 daqiqa)</p> <ul style="list-style-type: none"> - Salomlashish, darsning maqsadi bilan tanishtirish. - Ispan tilini o'rganayotgan talabalar uchun refleksiya va o'z-o'zini refleksiya qilish kompetentligini rivojlantirish muhimligini tushuntirish. - Refleksiya va o'z-o'zini refleksiya qilish tushunchalarini qisqacha takrorlash. <p>2. Mavzuni taqdim etish (20 daqiqa)</p> <ul style="list-style-type: none"> - Talabalarni ispanzabon mamlakatda bo'lib o'tadigan tadbir yoki bayram haqidagi fotosurat, video yoki Internet tarmog'idagi maqola kabi haqiqiy madaniy materiallarni ko'rib chiqishga undash. - Talabalar tomonidan materialda keltirilgan madaniyat bilan bog'liq taassurotlar, his-tuyg'ular, fikrlarni guruhlarda yoki juftliklarda muhokama qilish. - Ispan tilida muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun madaniy xususiyatlardan xabardor bo'lish muhimligini ta'kidlash. <p>3. Refleksiv va o'z-o'zini refleksiya qilish faoliyati (25 daqiqa)</p> <ul style="list-style-type: none"> - Talabalarni juftlarga bo'lish. - Har bir juftlikka ispan madaniyati bilan o'zaro aloqada bo'lgan shaxsiy tajribalarini muhokama qilishni taklif qilish. - “Sizning taxminlaringiz qanday edi va ular haqiqiy tajribadan qanday farq qilardi?”, “Ispan madaniyati vakillari bilan muloqot qilishda qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?”, “Siz bu tajribadan qanday saboq oldingiz?” kabi savollarni berish orqali refleksiv fikrlashni rag'batlantirish. - Juftlar ishtirokchilari tomonidan o'z fikrlari va mulohazalarini navbatma-navbat namoyish etish. <p>4. Guruh muhokamasi (20 daqiqa)</p> <ul style="list-style-type: none"> - Mashqda qatnashayotgan juftlarni navbatma-navbat tinglash. - Talabalarni refleksiya va o'z-o'zini refleksiya qilishni guruhning qolgan a'zolari bilan bo'lishishga undash. - Taqqoslash va muhokama qilish uchun boshqa talabalar tajribasini jalb qilishni rag'batlantirish. <p>5. Xulosa va mulohaza (5 daqiqa)</p> <ul style="list-style-type: none"> - Xulosa qilish, darsning asosiy fikrlarini ta'kidlash. - Talabalarga o'zlarining refleksiv jurnallarida ijtimoiy-madaniy kompetentliklari to'g'risida qanday xabardorlik va kelajak rejalari to'g'risida yakuniy fikrlar yoki eslatmalar yozish vazifasi. - Darsni talabalarga minnatdorchilik bildirib, ularni ruhlantirish bilan tugatish.
4.	Uyga vazifa	Talabalardan hafta davomida ispan madaniyati bilan bog'liq fikrlari va his-tuyg'ularini yozib, reflektiv jurnallarini davom ettirishlarini so'rash. Ularni “Bu hafta men boshqa madaniyatlar haqida nimalarni bilib oldim?”, “Ispaniya madaniyati to'g'risidagi bilimlarida nimani yaxshilashim mumkin?” savollar orqali refleksiya qilishga undash.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talabalarning ispan tili bo‘yicha ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish jarayonida refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishdan yanada samarali foydalanish uchun bir nechta amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

1. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishni o‘quv dasturiga integratsiya qilish, ya’ni ushbu metodlarga asoslangan mashqlarini o‘quv dasturiga kiritish. Bunda talabalar madaniyatlararo vaziyatlarda o‘zlarining o‘quv yutuqlari va o‘zaro munosabatlari to‘g‘risida muntazam ravishda fikr yuritishga imkonga ega bo‘ladilar. Bunday mashqlar har bir dars yoki moduldan keyin refleksiya lahzalarini, reflektiv insholar yoki kundaliklarni yozishni o‘z ichiga olishi mumkin.

2. Teskari aloqa. Talabalarga o‘qituvchilar yoki ispan madaniyat bo‘yicha mutaxassisleri tomonidan ularning aks ettiruvchi mulohazalari va loyihalar davomida yaratilgan mahsulotlar asosida fikr-mulohazalarni taqdim etiladi. Ushbu fikr-mulohazalar talabalarga ularning rivojlanishini tushunish va baholashga yordam beradi hamda ularning bilimlarini yanada takomillashtirish uchun qo‘shimcha strategiyalar yoki choralarni taklif qiladi.

3. Guruh muhokamasi va hamkorligi. Talabalar ispan tili va madaniyati bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy jihatlar bo‘yicha o‘z fikrlari, qarashlari va mulohazalari bilan o‘rtoqlashishlari mumkin bo‘lgan guruh muhokamalari va hamkorlikdagi loyihalarni tashkil etilishi turli nuqtayi nazar va yondashuvlarni chuqur tushunish va hurmat qilishga yordam beradi.

4. Mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirish. Talabalarni ispan madaniyati haqidagi materiallarni qo‘shimcha o‘qish va o‘rganishga undash, ularning ushbu tajribaga nisbatan refleksiya qilish hamda ularning g‘oyalari va xulosalarini o‘z loyihalari va taqdimotlariga kiritish.

5. Madaniy tadbirlarni tashkil etish. Ispan madaniyati kechalari, “til qahvaxonalari” yoki madaniyatlararo festivallar kabi madaniy tadbirlarni birgalikda tashkil etish juda samarali hisoblanadi. Bu yerda talabalar o‘z mahoratlarini mashq qilishlari, ispan tilida so‘zlashadigan mehmonlar bilan muloqot qilishlari va o‘zlarining refleksiv vakolatlarini amalda qo‘llashlari mumkin.

Ushbu amaliy tavsiyalar O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi o‘qituvchilarga ispan tilidagi ta’lim jarayoniga refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishni samarali integratsiya qilish imkonini beradi. Ular talabalarga nafaqat til ko‘nikmalarini, balki ispan madaniyatini chuqur tushunish va moslashishni rivojlantirish imkoniyatini beradi, shuningdek, ularning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosalar. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish komponentlari o‘zaro bog‘liq tarzda ishlaydi. Tajribani anglash talabalarga muhim savollarni berishga imkon beradi, keyinchalik ular fikr tarixi va o‘zlarining hissiy holati bilan tahlil qilinadi. Bunday mashg‘ulotlar talabaning ijtimoiy-madaniy kompetentligini takomillashtirish va rivojlantirish uchun o‘zini o‘zi boshqarish va nazorat qilish strategiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish imkonini beradi. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish o‘rganish va rivojlanish jarayonlarida muhim vazifasini bajarib kelmoqda. Ular o‘zlikni anglash, o‘zini o‘zi boshqarish va nazorat qilishga yordam beradi. Ta’lim sohasida ular talabalarga o‘zlarining fikrlash va bilish va tushunish qobiliyatlarini, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga va ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Reflektiv ta’lim ispan tilida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga yordam beradigan samarali yondashuv bo‘lib, talabalarga ijtimoiy muhitdagi rolini tushunishga, shuningdek, nafaqat til ko‘nikmalarini oshirishga, balki madaniy farqlarni tushunish va qabul qilishni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, reflektiv ta’lim talabalarning o‘quv jarayonini faol va chuqur anglash g‘oyasiga asoslanadi. Bunga nafaqat aqliy faoliyat, balki hissiy jalb qilish va o‘zini o‘zi boshqarish ham kiradi. Talabalar o‘z xatolarini tahlil qila olishlari, sabablarini tushunishlari va ularni tuzatish uchun ba’zi harakatlarni bajarishlari kerak.

Refleksiya talabalarga chet tilini va boshqa madaniyat vakillari bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rganish tajribasini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Ushbu jarayon talabalarga kommunikativ vaziyatlarda o‘z rolini anglashga, til va madaniy bilimlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga va ko‘nikmalarini oshirish uchun qaror qabul qilishga hissa qo‘shadi. Refleksiya, shuningdek, o‘zlikni anglash va introspeksiyaning yaratishiga hamda talabalarga o‘zlarining afzalliklari, qarashlari va qadriyatlarini anglashga, voqealar va muloqotni turli nuqtayi nazardan ko‘rishga yordam beradi.

O‘z-o‘zini refleksiya qiluvchi talabalar o‘zlarining madaniy munosabatlari, afzalliklari va xurofotlari haqidagi tushunchalarini kengaytiradilar, Ushbu metod ularga ispan madaniyati vakillari bilan muloqot qilishda yanada moslashuvchan bo‘lishga imkon beradi. Shuningdek, ular yangi g‘oyalar va tushunchalarga ochiqroq bo‘lishni, madaniy me’yorlar va qadriyatlardagi farqlarni hisobga olish va tushunishni o‘rganadilar.

Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentsiyasini rivojlantirishda o‘z-o‘zini refleksiya qilish muhim rol o‘ynaydi. Ushbu metod talabalarning o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari, xatti-harakatlari hamda boshqa odamlar

va madaniyatlarga bo‘lgan munosabatlarini tushunish qobiliyatini ifodalaydi. O‘z-o‘zini refleksiya qilish talabalarga o‘zlarining noto‘g‘ri qarashlari va stereotiplarini tushunishga yordam beradi, shuningdek, ularning muloqot qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

O‘z-o‘zini refleksiya qilish orqali talabalar o‘zlarining madaniyati ispan madaniyati vakillari bilan o‘zaro munosabatlarga qanday ta‘sir qilishini tushunishlari mumkin. Ular qanday madaniy me‘yorlar va qadriyatlarni qabul qilishlari hamda ular ispan madaniyatidan qanday farq qilishi mumkinligi haqida fikr yuritishlari mumkin. Talabalar muloqotda yanada muvaffaqiyatli va samarali bo‘lishlari uchun o‘zlarining xatti-harakatlari va muloqotlarini ispan madaniyatiga mos ravishda qabul qilishga va moslashtirishga tayyor bo‘lishlari muhimdir.

Shunday qilib, O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida ispan tili bo‘yicha talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish jarayonida refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishning roli muhim omil hisoblanadi. Ushbu metodlar talabalarga madaniyatlararo muloqotdagi o‘z roldan xabardor bo‘lish, mazkur sohadagi afzalliklari va zaif tomonlarini tahlil qilish hamda ijtimoiy-madaniy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun samarali choralar ko‘rish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish talabalarning ispan tili bo‘yicha ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi va ularning ta‘lim jarayoniga integratsiyalashuvi O‘zbekistonda oliy ta‘limning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi kerak. Ushbu kompetentsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha keyingi tadqiqotlar va yondashuvlarni ishlab chiqish Ispaniya madaniyati to‘g‘risida chuqur tushunchani yanada muvaffaqiyatli shakllantirishga hamda madaniyatlararo kontekstlarda samarali o‘zaro ta‘sirga yordam beradi.

O‘z-o‘zini refleksiya qilishni o‘z ichiga olgan refleksiv ta‘lim metodologiyasi ispan tilini o‘qitish amaliyotida muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin. Bunday faoliyat talabalarga o‘zlarining xurofotlari va stereotiplarini anglashga, shuningdek, xatti-harakatlari va aloqalarini ispan madaniyatiga moslashtirishga yordam beradi. Refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilish turli xil faoliyatlarga qo‘shilishi mumkin, masalan, refleksiv jurnalni yuritish, talabalar bilan turli vaziyatlarni muhokama qilish va topshiriqlarni bajarish doirasida.

Shunday qilib, O‘zbekistonda ispan tili bo‘yicha talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish aks ettiruvchi refleksiya va o‘z-o‘zini refleksiya qilishni o‘qitish amaliyotiga joriy etishni talab qiladi. Ushbu metodlar talabalarga ispan tili sohiblari bilan samarali muloqot qilish va boshqa madaniyatga muvaffaqiyatli moslashishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Aldosari M., Heydarmejad T., Hashemifardnia A., Abdalgane M. The interplay among self-assessment, using reflection for assessment, classroom enjoyment and immunity: into prospects of effective language learning // *Language Teaching in Asia*, 2023, 13:1 <https://doi.org/10.1186/s40468-022-00213-1>
2. Black P., Plowright D. A multi-dimensional model of reflective learning for professional development // *Reflective Practice*. Vol. 11, No. 2, April 2010, p. 245-258
3. Khemlani David M. Reflection as a Language Learning and Teaching Device // *Conference: The International Scope Review*, May 2006. URL: <https://www.researchgate.net/publication/284180511>
4. Moon J. Reflection in learning and professional development. Taylor&Francis, 2015. – 240 p.
5. Russell G. Reflecting on a Way of Being: Anchor Principles of Cultural Competence // Frawley J., Russell G., Sherwood J. (Eds.) *Cultural Competence and the Higher Education Sector*. Springer, Singapore, 2020, p. 31-42
6. Schunk D.H. Metacognition, self-regulation and self-regulated learning: Research recommendations // *Educational Psychology Review*, 2008, 20 (4), p. 463-467.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA RUS TILINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Davranova Gulbahor Numondjonovna,

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti
sunny.davranova@gmail.com*

Ushbu maqolada bugungi kunda ta’lim sohasidagi islohotlar rus tilini o‘qitish metodikasini rivojlantirishga ham keng yo‘l ochib berganligi, bu esa ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy usullaridan biri sifatida namoyon bo‘layotganligi, hozirgi bosqichda, rus tilini chet tili sifatida o‘qitishga o‘tishda, o‘nlab yillar davomida qo‘llanilgan rus tilini o‘rganish metodikasi, usullari, tajribalaridan kelib chiqib, zamonaviy talablarga javob beradigan darsliklar yaratilayotganligi, rus tili faniga oid yangi darsliklarning imtiyozlari, boshlang‘ich sinflarda rus tili kursi mazmuni, uni yaratish, til materialini tanlashda amalga oshiriladigan qoidalar va ularga rioya qilinishi, nutq faoliyati turlari va ularning tarkibiy qismlari, o‘quvchilarning rus tilida lingvistik va nutqini rivojlantirish, tilga ijobiy, hissiy jihatdan yaxlit munosabatda bo‘lishni tarbiyalash bo‘yicha ishlar davom ettirilayotganligi, kichik yoshli maktab o‘quvchilariga kerakli ko‘nikmalarni shakllantirish uchun har bir o‘tiladigan dars yangi interfaol metodlar, zamonaviy o‘qitish usullari, AKT vositalari bilan boyitilgan bo‘lishi lozimligi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

***Kalit so‘zlar:** rus tilini xorijiy til sifatida o‘qitish, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi, kompetensiya, elektron vositalar, og‘zaki nutq, eshitish yoki tinglash, yozish, o‘qish, gapirish ko‘nikmalari, AKT vositalari, yangi darsliklar, talaffuz, leksik va grammatik ko‘nikmalar, fonetik mashq, nutq o‘stirish, elektron qo‘llab-quvvatlash va QR kodlar, monologik va dialogik nutq.*

ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной статье показано, что сегодня реформы в сфере образования открыли широкий путь к развитию методики преподавания русского языка, что проявляется как один из основных методов модернизации системы образования на современном этапе. Русский язык воспринимается как иностранный при переходе к обучению на основе используемой десятилетиями методики, методов и опыта изучения русского языка создаются учебники, отвечающие современным требованиям, преимущества новых учебников по предмету русского языка, содержание курса русского языка в начальных классах, его создание, правила отбора языкового материала и их соблюдение, виды речевой деятельности и ее компоненты, развитие языкознания и речи учащихся в русском языке, а также развитие позитивного, эмоционально интегрированного отношения к языку.

***Ключевые слова:** преподавание русского языка как иностранного, ученик начальной школы, компетентность, электронные инструменты, говорение, слух или аудирование, письмо, чтение, разговорные навыки, инструменты ИКТ, новые учебники, произношение, лексические и грамматические навыки, фонетические упражнения, развитие речи, электронная поддержка и QR-коды, монологическая и диалогическая речь.*

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE TO PRIMARY CLASS PUPILS

This article shows that today the reforms in the field of education have opened a wide way to the development of the methodology of teaching the Russian language, which is manifested as one of the main methods of modernization of the educational system, at the current stage, the Russian language is taken as a foreign language. In the transition to teaching, based on the methodology, methods, and experiences of learning the Russian language used for decades, textbooks that meet modern requirements are being created, the benefits of new textbooks on the subject of the Russian language, the content of the Russian language course in primary grades, its creation, the rules for the selection of language material and their observance, the types of speech activities and their components, the development of students' linguistic and speech in the Russian language, and the development of a positive, emotionally integrated attitude to the language are ongoing, the opinion that every lesson should be enriched with new interactive methods, modern teaching methods, and ICT tools in order to form the necessary skills for young schoolchildren.

Key words: *teaching Russian as a foreign language, elementary student, competence, electronic tools, speaking, hearing or listening, writing, reading, speaking skills, ICT tools, new textbooks, pronunciation, lexical and grammatical skills, phonetic exercise, speech development, electronic support and QR codes, monologic and dialogic speech.*

“Rus tili dunyodagi eng boy tillardan biri ekanligiga hech qanday shubha yo‘q”.

V.G. Belinskiy.

Kirish. Til barcha bilimlar va tabiatning kalitidir. Til deganda insoniyat jamiyatining barcha davrida mavjud bo‘lgan ijtimoiy hodisalar tushuniladi. Til tafakkur, inson ongi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, fikr va tuyg‘ularimizni shakllantirish va ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, insonlar azaldan faqat ona tilini bilish bilan cheklanib qolishmagan. Hozirgi kunda davlatlararo, millatlararo integratsiya jarayonlarining jadal o‘shishi boshqa tillarni o‘rganish zarurligiga olib keladi. Xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqish hozirda yuqori darajada. Tilni bilish turli millat vakillari o‘rtasidagi muloqotni osonlashtiradi. Rus tilining millatlararo aloqa tili sifatida tutgan o‘rni ham katta. Zamonaviy sharoitda rus tili ingliz tili bilan bir qatorda xalqaro ahamiyatga ega. Bu til dunyoning turli mamlakatlarida ko‘plab odamlar tomonidan o‘rganiladi.

Asosiy qism. Sayyoramizda ikki mingdan ortiq til mavjud bo‘lib, rus tili dunyoning eng keng tarqalgan va boy tillaridan biri hisoblanadi. Rus tili – juda uzoq va murakkab rivojlanish tarixi, o‘zgarishlarni boshdan kechirib, bugungi kunda dunyo xalqlarining aloqa tili bo‘lib ulgurdi. U turli xalqaro tadbirlarning tiliga aylandi, unda maxsus xalqaro hujjatlar yoziladi, o‘zining jahon ahamiyatini yana bir bor mustahkamlab kelmoqda. Ko‘p asrlar davomida rus tilining dunyoning boshqa tillariga ta’siri ortib bormoqda. Zamonaviy sharoitda rus tili xalqaro miqyosda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, bugungi kunda rus tili dunyoda Xitoy (1 milliarddan ortiq) va ingliz (750 million) dan keyin uchinchi o‘rinda turadi. Rus tili BMTning 6 ta rasmiy tillaridan biri bo‘lib, IAEA (Atom energiyasi bo‘yicha xalqaro agentlik), YUNESKO kabi ko‘plab nufuzli xalqaro tashkilotlarda rasmiy yoki ishchi til hisoblanadi. Dunyoda 300 milliondan ortiq kishi rus tilida gaplashadi, shu jumladan, 140 milliondan ortiq kishi uni o‘z ona tili deb biladi. Rus tili 160 dan ortiq xalqlar va Millatlar o‘rtasidagi aloqa tilidir. YUNESKO xalqaro tashkilotining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 2796 til mavjud bo‘lib, ba’zi manbalarga ko‘ra esa bu ko‘rsatkich 2500tadan 7000tagacha yetadi. Rus tili so‘zlovchilar soni bo‘yicha sakkizinchi o‘rinni egallaydi. Unga 258 milliondan ortiq odam gaplashadi.

Rus tilida juda katta miqdordagi ma’lumotlar yaratiladi, tarqatiladi va saqlanadi. Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, rus tilini bilish butun jahon ilmiy va texnik ma’lumotlarining uchdan bir qismini erkin o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Ilmiy muassasalardan olingan ma’lumotlarning 77 foizi rus tilida saqlanadi. Rus tilini o‘rganish nafaqat odamlarning bir-biri bilan qanday aloqa qilishini tushunish, o‘z fikrlari, irodasi va his-tuyg‘ularini ifoda etish, balki insoniyat tomonidan to‘plangan tajribani kelajak avlodlarga yetkazish uchun ham zarurdir. Shunday qilib, zamonaviy dunyoda rus tilining ulkan roli uning madaniy qiymati, kuchi va buyukligi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, ta’lim sohasidagi islohotlar natijasida umumta’lim maktablarida rus tiliga ajratilgan akademik soatlar ikki baravar kamaydi. Maqsad esa bir xil bo‘lib qoldi: o‘rta maktab bitiruvchisi o‘z bilimlarini hayotda qo‘llashi, har qanday mavzuda rus tilida so‘zlashuvchilar bilan erkin muloqot qilishi va hokazo. Biroq bu o‘zgarish butun o‘qitish metodikasini qayta ko‘rib chiqishni talab qildi.

Keyinchalik boshlang‘ich sinflarda rus tilini o‘qitish bir necha bosqichni qamrab oldi:

1-bosqich – og‘zaki nutq kursi (2-sinf);

2-bosqich – alifbo va alifbodan keyingi bosqich (3-sinf);

3-bosqich – nutq faoliyatining barcha turlarini kompleks rivojlantirish (4-sinf).

Og‘zaki so‘zlashuv kursining asosiy maqsadi o‘quvchilar uchun rus tilidagi so‘zlarni, tipik iboralarni to‘g‘ri talaffuz qilishda dastlabki foydalanish ko‘nikmalarini ta’minlaydigan minimal lug‘at va artikulyar-eshitish bazasini yaratishdir.

Bularning barchasi o‘quvchilarni rus tilida o‘qish va yozishni o‘rganishga, alifbo davrining asosiy mazmuni bo‘lgan rus savodxonligini o‘rgatishga tayyorlaydi.

Biroz kechikish bilan, ammo shunga qaramay, rus tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda yangi texnologiyalarni joriy etish jarayoni boshlandi.

Hozirgi bosqichda, rus tilini chet tili sifatida o‘qitishga o‘tishda, o‘nlab yillar davomida qo‘llanilgan rus tilini o‘rganish metodikasi, usullari, tajribalaridan kelib chiqib, zamonaviy talablarga javob beradigan darsliklar yaratish fikri paydo bo‘ldi.

2020- yil oktyabr oyida Rossiya Federasiyasi Ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi va rossiyalik ishbiarmon Alisher Usmonovning “San’at, fan, sport” xayriya fondi bilan hamkorlikda O‘zbekistonda rus tilini bilish darajasini oshirish maqsadida “Klass!” loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida bitim imzolangan va ushbu loyiha 10 yilga mo‘ljallangan.

Dasturni amalga oshirishda Rossiyaning Gersen nomidagi Rus tili instituti va O‘zbekiston o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish Instituti ishtirok etmoqda. Loyiha doirasida 2021-yil sentyabr oyidan buyon O‘zbekistondagi 150 nafar o‘qituvchi va bir necha o‘nlab metodistlar ta’lim muassasalariga yuborildi.

O‘zbekistonda 2021- yil sentyabr oyidan boshlab maktablarda (2-sinflarda) ushbu maqsadlar uchun maxsus ishlab chiqilgan o‘quv-uslubiy majmua (o‘qituvchi uchun uslubiy qo‘llanma + darslik + daftar + audio disklar) bo‘yicha o‘qitishning yangi usullari joriy etila boshlandi.

Rus tilining yangi darsliklari milliy o‘quv dasturiga asoslangan va rus tilini chet tili sifatida o‘qitishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi: o‘qishni tushunish, tinglashni tushunish va fikrlarni yozma va og‘zaki ifoda etish qobiliyati.

Darsliklarni ishlab chiqish bilan Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi Gertsen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti bilan hamkorlikda shug‘ullangan. Darsliklarda ilova orqali matnlarni tinglash imkoniyati mavjud. Darslikdagi audio matnlar o‘quvchilarda rus nutqini eshitish orqali idrok etish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, yangi darsliklarda ko‘plab vizual materiallar mavjud. Bu vizual idrokning ma’lum afzalliklari borligi sababli amalga oshiriladi.

Shuningdek, 2-sinf dan 11-sinfgacha bo‘lgan rus tilidagi darsliklarning har birida yangi mavzuni vizual idrok etish uchun ko‘plab suratlardan foydalanilgan. Har bir darslikda 2 ta loyiha ishi va 7 ta tilda lug‘at mavjud.

Oldingi darslikda grammatik ma’lumotlar berilgan, mashqlar bajarilgan bo‘lsa, yangi darslikda grammatika o‘rgatiladi va unga qo‘shimcha ravishda berilgan matndan yangi qo‘shimcha ma’lumotlar beriladi. Ushbu darsliklar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilida og‘zaki nutqni rivojlantirishda katta yordam beradi. Yangi darslik nafaqat o‘quvchi uchun, balki o‘qituvchi uchun ham foydali va qulaydir. Ushbu matnlar orqali o‘qituvchi qo‘shimcha ma’lumot oladi, dars davomida u o‘quvchi bilan nafaqat bitta yo‘nalishda, balki bir necha yo‘nalishda (yozish, o‘qish, tinglash, gapirish) ishlaydi. Ushbu jarayonda AKT vositalari va boshqa usullar birgalikda bitta darsda qo‘llaniladi.

Rus tilida yangi darsliklarning imtiyozlari quyidagilardan iborat:

1. Darsning asosiy yo‘nalishi (yoki darslar ketma-ketligidan tashkil topgan mavzu) avvalgidek grammatik qoida emas, balki matndir. Bundan tashqari, matnlar mavzu, uslub (badiiy, axborot, jurnalistik, ilmiy-ommabop va boshqalar) va shakl (qattiq matn) bo‘yicha har xil bo‘lishi mumkin, infografika, jadvallar, diagrammalar va boshqalar).
2. Mashqlar matn mavzusi asosida ham ishlab chiqilgan va bu quyidagi xususiyatlarni shakllantirishga qaratilgan:
- matnni tushunish qobiliyatlari;
- matn yaratish ko‘nikmalari (yozma yoki og‘zaki);
- tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari, shuningdek tadqiqot faoliyati;
- til qoidalari.
3. O‘rganiladigan til qoidalari muntazam ravishda berilmaydi (fonetika va leksikologiyadan morfologiya, sintaksis va stilistikagacha) va ular matnlarda paydo bo‘lganda. Ko‘pgina hollarda, qoidalar haddan tashqari ko‘p terminologiyadan foydalanmasdan kichraytirilgan holda beriladi.
4. Darslar kommunikativ mavzuga asoslangan bo‘lib, uning atrofida so‘z boyligi va grammatikasiga mos keladigan matn (dialog) tanlangan. Ushbu matn til ko‘nikmalarini rivojlantirish (o‘qilgan yoki eshitilgan matnni, og‘zaki yoki yozma muloqotni tushunish) va lug‘at va grammatikani o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘rta umumiy ta’lim maktablari O‘zbek va o‘zga tilli guruhlar uchun mo‘ljallangan "Rus tili xorijiy til sifatida" boshlang‘ich sinf darsliklari uchun yaratilgan o‘quv-metodik qo‘llanmada boshlang‘ich sinflarda rus tili kursi maktab o‘quvchilarining lingvistik va nutqiy rivojlanishiga, tilga ijobiy hissiy va qiymat munosabatini tarbiyalashga qaratilganligi ifodalangan.

Boshlang‘ich sinflarda rus tili kursi mazmuni, uni yaratish, til materialini tanlashda quyidagi qoidalar amalga oshiriladi:

- Tilni o‘rganish kommunikativ faoliyat asosida qurilgan bo‘lib, u nutqiy vaziyatlarni tahlil qilishda ifoda vazifalariga muvofiq tilning muayyan vositalaridan foydalanishga turtki beradi. Kommunikativ-faoliyat yo‘nalishini amalga oshirish tilni o‘rganishga shaxsiy ma‘no berishga imkon beradi, tilning inson va jamiyat hayotidagi rolini va uni maktab o‘quvchilari uchun o‘zlashtirishning ahamiyatini ochib beradi.

- Til nazariyasini o‘rganish hayot va ta‘lim muammolarini hal qilish uchun til va nutqni amaliy o‘zlashtirish vazifasiga bo‘ysunadi.

- Kursni o‘rganish jarayonida og‘zaki nutqni rivojlantirish, yozma nutqni shakllantirish, monologik va dialogik nutqni o‘zlashtirish, shuningdek, nutq faoliyatining barcha turlari (tinglash, gapirish, o‘qish va yozish)ni rivojlantirish mumkin.

- Nutq ko‘nikmalarini maqsadli shakllantirish maktab o‘quvchilari tomonidan universal ta‘lim faoliyati sifatida tan olinishini ta‘minlaydi.

- O‘quv matni bilan ishlashni o‘rgatish va o‘quv matni ma‘lumotlarini idrok etish, tushunish va qayta ishlash bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e‘tibor beriladi, o‘zaro bog‘liq holda axborot va matn ko‘nikmalarini shakllantirish amalga oshiriladi.

Ta‘limning o‘zgaruvchanligi maktab o‘quvchilarining xohishi va tanlovini amalga oshirish uchun turli darajadagi qiyinchiliklar va vazifalarni kiritish orqali ta‘minlanadi.

- Elektron qo‘llab-quvvatlash va QR kodlari o‘quvchilarga rus nutqini to‘g‘ri tinglash, uni ovozdun tushunish, o‘quvchilarning til va uning rivojlanish jarayoniga qiziqishini uyg‘otish va qo‘llab-quvvatlash, o‘rganilayotgan hodisalarni yanada vizual va tushunarli qilish, kuzatish va tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish, bolalarning o‘yin faoliyatini tashkil qilish uchun ishlatiladi.

2-sinfda rus tilini o‘qitishning maqsadi elementar muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishdir. O‘qitish haqiqiy nutq aloqalarida rus tilidan amaliy foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi sinf o‘quvchilari rus tilida quyidagi bilim va ko‘nikmalarni egallashlari lozim:

- salomlashish, xayrlashish, kimgadir murojaat qilish, minnatdorchilik bildirish, kechirim so‘rash;

- tanishish (maktabda, ko‘chada va hokazolarda o‘ynash paytida);

- oddiy savollar berish, fakt va voqea, shaxs, obyekt, obyektning sifati, shaxs yoki obyektning mavjudligi yoki yo‘qligi, harakat vaqti va joyi to‘g‘risida xabar berish;

- istak, iltimos, rozilik yoki kelishmovchilikni bildirish, rad etish;

2-sinf o‘quvchilarida rus tili fani ta‘lim mazmuni quyidagicha tizimlashtirilgan:

- **Обучение в букварный период (Alifbo davrida o‘qitish)** - Alifbo davri o‘zbek maktabi o‘quvchilariga rus tilini boshlang‘ich o‘qitish tizimidagi asosiy davrlardan biri hisoblanadi, chunki aynan rus savodxonligini o‘qitish jarayonida o‘quvchilar to‘g‘ri o‘qish va yozishning dastlabki ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar, rus tilida muloqot qilishning boshlang‘ich tushunchalarini yaxshilaydilar. Bu davrda asosan quyidagilarga e‘tibor qaratiladi:

- *Порядок изучения тем в букваре* – alifboda harflarni o‘rganish tartibi rus maktablari uchun mo‘ljallangan alifbodan farq qiladi. Bunda rus tilidagi tovushlar va harflar tovush tizimlarining qiyosiy tipologiyasini va rus va ona tillarining alifbosini, o‘quvchilarning ularni qabul qilish darajasini, tovushlar va harflardan foydalanish chastotasini hisobga olgan holda joylashtirilgan. Tovushlar va harflarning bunday joylashishi o‘quvchilarning rus tilidagi harflar, bo‘g‘inlar, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini samarali egallashiga yordam beradi.

- *Обучение произношению в букварный период* – o‘quvchilarga talaffuzni o‘rgatishning asosiy vazifasi ona tilining salbiy ta‘sirini bartaraf etish va rus tilining artikulyatsiya bazasini o‘zlashtirishdir. To‘g‘ri talaffuzni o‘zlashtirish har bir darsda “fonetik mashq”ni talab qiladi. O‘qituvchi so‘zni (bo‘g‘inni) bir necha marta aniq va to‘liq talaffuz qiladi va o‘quvchilar undan keyin takrorlashadi. Fonetik mashqlar har bir dars boshida 1-2 daqiqa davomida amalga oshirilishi kerak. Bunday takrorlash bolalarda fonologik eshitish rivojlanishiga yordam beradi.

- **Обучение в послебукварный период (Alifbodan keyingi davrda o‘qitish)** – bu davrda izchil nutq (monologik va dialogik, og‘zaki va yozma), talaffuz, leksik va grammatik ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha ishlar davom etadi. Alifbodan keyingi davr darslarining o‘ziga xos xususiyatlari o‘qish, tinglash, gapirish va yozish ko‘nikmalarining nisbatan bir xil rivojlanishi uchun mo‘ljallangan kombinatsion darslardir.

- *Обучение лексике;*

- *Практическое усвоение элементов грамматики;*

- *Обучение аудированию;*

- *Обучение чтению;*

- *Обучение письменной речи;*

- *Обучение говорению.*

O‘quvchi quyidagi aloqa holatlarida elementar aloqa munosabatlarini amalga oshirishi kerak:

- знакомство (tanishuv),
- в школе (maktabda),
- учебные принадлежности (o‘quv qurollari),
- сколько тебе лет (yoshing nechada),
- моя семья (mening oilam),
- наш дом (bizning uyimiz),
- в цирке (sirkda),
- мы танцуем и поём (biz raqsga tushamiz va kuylaymiz),
- на празднике (bayramda),
- в зоопарке (hayvonot bog‘ida),
- читаем сказки (biz ertaklarni o‘qiyimiz).

2-sinf o‘quvchisi ushbu daraja uchun tegishli mavzular doirasida og‘zaki elementar og‘zaki muloqotni amalga oshirishi lozim:

- Рассказ о себе (O‘zingiz haqingizda hikoya);
- Мой друг (знакомый, член семьи) (Mening do‘stim (tanish, oila a‘zosi));
- Семья (Oila);
- Мой день (Mening kunim);
- Свободное время, отдых, интересы (Bo‘sh vaqt, ta‘til, qiziqishlar)

3-sinfda esa o‘quvchilarning lingvistik va nutqini rivojlantirish, tilga ijobiy, hissiy jihatdan yaxlit munosabatda bo‘lishni tarbiyalash bo‘yicha ishlar davom ettiriladi. Ta’lim mazmuni to‘qqiz yoshli bolalarning yosh, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olingan holda tanlanadi. Tilni o‘rganish kommunikativ-faollik asosida quriladi, bu esa tilni o‘rganishga shaxsiy ma’no berishga imkon beradi, tilning hayotdagi rolini ochib beradi. Tilni o‘qitish murakkab xarakterga ega bo‘lib, 3-sinf uchun darsliklardagi har bir darsning mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- yangi so‘zlarni o‘zlashtirish;
- matnni o‘qish va tahlil qilish;
- tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- dialogik va monologik nutqni rivojlantirish;
- grammatik hodisalar va imlo qoidalarini o‘zlashtirish.

Har bir darsda og‘zaki va yozma nutq qobiliyatlari, shuningdek, talaffuz, leksik va grammatik ko‘nikmalar nisbatan teng ravishda rivojlanadi. Bunday o‘zaro bog‘liq ta’lim bilan til va nutq qobiliyatlari shakllanadi. 3-sinfda ham, 2-sinfda kabi o‘quvchilar nutqni rivojlantirish va lug‘atni boyitish bilan chambarchas bog‘liq holda rus tili grammatikasi elementlarini amaliy o‘zlashtirishadi. 3-sinf darslikda bunday grammatik material «Запомни!» (“Yodda saqlang!”), «Вспомни!» (“Eslab qoling!”), «Говори правильно!» (“To‘g‘ri gapiring!”) sarlavhalari ostida beriladi. Bu esa o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishi, diqqat-e’tiborini oshiradi.

4-sinfda ta’lim mazmuni - bu ta’limning mazmunli, kommunikativ, faollik, kognitiv jihatlarini amalga oshirishga imkon beradigan materialning taqdimoti hisoblanadi. Kursning kognitiv komponenti o‘quvchilarning aqliy, kognitiv va kommunikativ faoliyatini rag‘batlantirishga, shuningdek, integrallashtiriladigan fan materialini (ilmiy bilim asoslari, matematika, tarix, atrofdagi dunyo) o‘zlashtirishga imkon beradi. Ushbu kurs rus tilini o‘zlashtirish motivatsiyasini shakllantirishga qaratilgan, shuning uchun rus tilidagi nutqni bilishning hissiy tomonini shakllantirishga katta e’tibor beriladi. 4-sinf rus tili kursida oldingi o‘quv yillarida shakllangan universal ta’lim faoliyatining butun majmuasi yanada to‘liq shakllanadi.

Rus tilini xorijiy til sifatida dastlabki o‘rganish bolaning nutqini rivojlantirish va lingvistik ta’limning poydevorini qo‘yishdir. Keyingi mashg‘ulotlar ushbu asoslardan voz kechishni o‘z ichiga oladi, ularning rivojlanishi nazariy bilimlarning foydaliligini va rus tilini amaliy bilishini belgilaydi. Boshlang‘ich sinflarda rus tilini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ushbu fan boshlang‘ich maktab dasturining barcha fanlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ular tilni o‘rganish, uning nazariyasi, o‘qish va badiiy adabiyot bilan tanishish ko‘nikmalarini shakllantirishda kompleks yondashuvni talab qiladigan yagona ta’lim yo‘nalishini tashkil etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining rus tilidagi nutq mahorati quyidagi talablar asosida shakllantiriladi: слушание, или аудирование (eshitish yoki tinglash); говорение (gapirish); обучение грамоте (savodga o‘rgatish); чтение (o‘qish); письмо (yozuv). Quyida nutq faoliyati turlari va ularning tarkibiy qismlari keltirilgan. (1 – jadvalga qarang).

Nutq faoliyati turlari va ularning tarkibiy qismlari

T/r:	Nutq faoliyati turlari	Ularning tarkibiy qismlari
1.	Слушание, или аудирование (Eshitish yoki tinglash)	А. Аудирование монологической речи (Monologik nutqni tinglash)
		Б. Аудирование диалогической речи (Dialogik nutqni tinglash)
2.	Говорение (Gapirish)	А. Монологическая речь (Monologik nutq)
		Б. Диалогическая речь (Dialogik nutq)
3.	Обучение грамоте (Savodga o‘rgatish)	Фонетика. (Fonetika)
		Графика. (Grafika)
		Слово и предложение. (So‘z va gap)
		Орфография. (Orfografiya)
		Развитие речи. (Nutq o‘stirish)
4.	Чтение. (O‘qish)	чтение с общим охватом содержания; (umumiy mazmun qamrovi bilan o‘qish)
		изучающее чтение(o‘qish)
5.	Письмо. (Yozuv)	

Eshitish yoki tinglash (Слушание, или аудирование) ko‘nikmasi bu o‘quvchilarda shakllantirilishi kerak bo‘lgan asosiy qobiliyatdir. Bu nutq shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi monologik va dialogik nutqni tinglash orqali ovozi nutqni adekvat idrok etishi, taqdim etilgan matndagi ma‘lumotlarni tinglab tushunishi, matnning asosiy g‘oyasini aniqlashi, uning mazmunini savollar orqali tushunishi mumkin. Kichik sinf o‘quvchilari sinflar kesimida ma‘lum mezonlar asosida monologik nutqda monologik bayonotdagi ma‘lumotlarni tinglab tushunishi kerak. Dialogik nutqda esa dialogning mazmunini, ishtirokchilarining kommunikativ fikrlarini tinglab tushunish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim. Quyida monologik va dialogik nutqni tinglab tushunish bo‘yicha sinflar kesimida mezonlar keltirilgan (2-jadvalga qarang)

Monologik va dialogik nutqni tinglab tushunish bo‘yicha sinflar kesimida mezonlar

Слушание, или аудирование (Eshitish yoki tinglash)	
А. Аудирование монологической речи (Monologik nutqni tinglash)	
Тематика текста (Matn mavzusi)	актуальна для бытовой, социально-культурной и учебной сфер общения (muloqotning kundalik, ijtimoiy-madaniy va o‘quv sohalari uchun dolzarb)
Тип текста (Matn turi)	специально составленные или адаптированные сюжетные тексты (на основе лексико-грамматического материала, соответствующего элементарному уровню) (maxsus tuzilgan yoki moslashtirilgan hikoya matnlari (elementar darajaga mos keladigan leksik-grammatik material asosida))
Объём текста (Matn hajmi)	50–60 слов (so‘z) (2 класс) 70—120 слов (so‘z) (3 класс) 90–130 слов (so‘z) (4 класс)
Количество незнакомых слов (Notanish so‘zlar soni)	До 1%
В. Аудирование диалогической речи (Dialogik nutqni tinglash)	
Тематика текста (Matn mavzusi)	актуальна для бытового и учебного общения (kundalik va o‘quv aloqalari uchun tegishli)

Объём текста (Matn hajmi)	от 4 до 6 реплик (2 класс) от 4 до 6 реплик (3 класс) от 8 до 14 реплик (4 класс) объём диалога — до 12 реплик (2 класс) (dialog hajmi) до 12 реплик (3 класс) до 14 реплик (4 класс)
---------------------------	--

Gapirish (Говорение) ko‘nikmasini shakllantirishda esa kommunikativ muammoni samarali hal qilish uchun aloqa maqsadlari va shartlariga muvofiq til vositalarini tanlash, nutqning dialogik shaklini amaliy o‘zlashtirish, suhbatni boshlash, qo‘llab-quvvatlash, tugatish, e‘tiborni jalb qilish va hokazolarni o‘rganish, o‘quv vazifasiga (tavsif, rivoyat, mulohaza) muvofiq og‘zaki monologik bayonotlarni amaliy o‘zlashtirish, ta‘lim va kundalik aloqa munosabatlarida nutq, odob-axloq qoidalariga amal qilish (salomlashish, xayrlashish, kechirim so‘rash, minnatdorchilik, iltimos bilan murojaat qilish), orfoepik me‘yorlarga va to‘g‘ri talaffuzga rioya qilishga alohida e‘tibor qaratilishi zarur.

Monologik nutqda o‘quvchi taklif etilgan mavzuga va kommunikativ ravishda mustaqil fikrini bayon eta olishi, o‘qilgan matn asosida reproduktiv tipdagi monologik bayonotni tuza olishi lozim. Dialogik nutqda esa bola suhbatdoshining fikrlarini tushunishi, nutqiy vaziyatlarning minimal to‘plami doirasida uning kommunikativ munosabatlarini aniqlay olishi, suhbatdoshining so‘zlariga yetarlicha javob qaytarishi, muloqotga kirisha olishi va ularning so‘zlashuv ohanglari zamonaviy rus tili normalariga, shu jumladan, nutq odob - axloqining umumiy ijtimoiy shartli normalariga muvofiq tuzilishi kerak. (3-jadvalga qarang)

3 – jadval.

Monologik va dialogik nutq bo‘yicha sinflar kesimida mezonlar

Говорение (Gapirish)	
А. Монологическая речь (Monologik nutq)	
Объём высказывания учащихся по теме (Mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bayonotlari hajmi)	5–7 фраз (2 класс) 5–7 фраз (3 класс) 8–9 фраз (4 класс)
Тип текста (Matn turi)	специально составленные или адаптированные сюжетные тексты (на основе лексико-грамматического материала, соответствующего элементарному уровню) (maxsus tuzilgan yoki moslashtirilgan hikoya matnlari (elementar darajaga mos keladigan leksik-grammatik material asosida))
Объём текста (Matn hajmi)	40–60 слов (2 класс) 60–100 слов (3 класс) 100–140 слов (4 класс)
Количество незнакомых слов в тексте (Matnda notanish so‘zlar miqdori)	1%
В. Диалогическая речь (Dialogik nutq)	
Объём высказывания учащихся по теме: (Mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bayonotlari hajmi:)	7–9 реплик.
Тип текста (Matn turi)	специально составленные или адаптированные сюжетные тексты, построенные на основе лексико-грамматического материала, соответствующего элементарному уровню (maxsus tuzilgan yoki moslashtirilgan hikoya matnlari (elementar darajaga mos keladigan leksik-grammatik material asosida))
Объём текста (Matn hajmi)	100–140 слов (4 класс)
Количество незнакомых слов в тексте (Matnda notanish so‘zlar soni)	1%

Bola rivojlanishining asosiy manbai tashqi dunyo tomonidan unga taqdim etilgan ma’lumotlarni o’qish va o’zlashtirish qobiliyatidir. Bugungi kunda zamonaviy bolalar sezilarli darajada o’zgarganligini hisobga olsak - ular tizimli-semantik ong turiga ega, ular faoliyat va muloqotning turli holatlarida o’qish, matn talqin qilish va tushunish jarayonida faol ishtirok etishadi.

O’qish (Чтение) borasida boshlang’ich sinf o’quvchisi matn mazmunining umumiy doirasiga e’tibor qaratgan holda o’qish, matn mavzusini aniqlash, matnning asosiy ma’lumotlarini, shuningdek, muhim semantik yukni ko’taruvchi ba’zi tafsilotlarni to’liq va aniq tushunishi kerak. Quyida o’qish ko’nikmasini shakllantirish bo’yicha sinflar kesimida mezonlar keltirilgan. (4-jadvalga qarang)

4- jadval.

O’qish ko’nikmasini shakllantirish bo’yicha sinflar kesimida mezonlar

Чтение (O’qish)	
Вид чтения: (O’qish turi)	чтение с общим охватом содержания, изучающее чтение. (umumiy tarkibni qamrab olgan o’qish, o’qishni o’rganish)
Тип текста (Matn turi)	специально составленные или адаптированные сюжетные тексты (на основе лексико-грамматического материала, соответствующего элементарному уровню). (maxsus tuzilgan yoki moslashtirilgan hikoya matnlari (elementar darajaga mos keladigan leksik-grammatik material asosida))
Тематика текста: (Matn mavzusi)	kundalik, ijtimoiy-madaniy va o’quv aloqa sohalariga tegishli
Объем текста (Matn hajmi)	40–60 слов (2 класс) 60–90слов (3 класс) 100–150 слов (4 класс)
Количество незнакомых слов в тексте (Matnda notanish so’zlar soni)	до 1–2%

Ma’lumki, o’qish yozish bilan chambarchas bog’liq. Ular birgalikda tilning bitta grafik tizimida kesishadi. Yozish paytida fikrlarni grafik belgilar yordamida kodlash yoki shifrlash, o’qish paytida ularni dekodlash amalga oshiriladi. Boshqa ko’nikmalarni rivojlantirishda yozuvning rolini anglash, maqsadlarga to’liq mos keladigan mashqlardan foydalanish, ushbu mashqlarni tegishli o’quv bosqichida bajarish orqali og’zaki nutq asta-sekin boyib boradi va mantiqiy bo’ladi.

Yozuv (Письмо) ko’nikmasi asosida o’quvchilarning barmoqlar nozik motorli ko’nikmalarini va qo’lning harakat erkinligini rivojlantirish, o’qilgan matn asosida reproduktiv xarakterdagi yozma matn yaratish, savodxonlik tizimida harflar, harf birikmalari, so’zlar, jummalarni yozish, bolalar uchun qiziqarli mavzularda (taassurotlar, adabiy asarlar, syujet rasmlari, rasmlar ketma-ketligi, video yozuvning bir qismini ko’rish va boshqalar asosida) o’z kichik matnlarini (insholarini) yaratish muhim hisoblanadi. Quyida yozuv ko’nikmasini shakllantirish bo’yicha sinflar kesimida mezonlar keltirilgan. (5-jadvalga qarang)

5 – jadval.

Yozuv ko’nikmasini shakllantirish bo’yicha sinflar kesimida mezonlar

Письмо (Yozuv)	
Тип предъявл. текста: (Taqqim etilgan matn turi)	специально составленные или адаптированные сюжетные тексты (на основе лексико-грамматического материала, соответствующего элементарному уровню). (maxsus tuzilgan yoki moslashtirilgan hikoya matnlari (elementar darajaga mos keladigan leksik-grammatik material asosida))
Объем предъявляемого текста: (Taqqim etilgan matn hajmi)	20–30 слов (2 класс) 50–60слов (3 класс) 70–80 слов (4 класс)
Количество незнакомых слов в тексте (Matnda notanish so’zlar soni)	1 %

Demak, kichik yoshli maktab o’quvchilariga ushbu ko’nikmalarni shakllantirish uchun har bir o’tiladigan dars yangi interfaol metodlar, zamonaviy o’qitish usullari, AKT vositalari bilan boyitilgan bo’lishi lozim.

Xulosa. Rus tilini chet tili sifatida o‘rganish o‘qish orqali kerakli ma’lumotlarni olish, har xil turdagi bayonotlarni tuzish, tinglangan, o‘qilgan narsalarning mazmunini turli hajmda yetkazish uchun turli ko‘nikma va malakalarni yaxshilaydi.

Hozirgi vaqtda rus va chet tillarini o‘qitish metodikasini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, innovatsion texnologiyalar va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv prinsipini joriy etishdan iborat. Bugungi kunda majburiy ta’lim tizimining o‘ziga xos bosqichlariga ega bo‘lgan standartlar va o‘quv dasturlari eksperimental sinovdan o‘tkazilmoqda. Ta’limga bunday yondashuv o‘quvchilarning bilim darajasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlashga, to‘g‘ri va o‘lchanadigan natijalar asosida kommunikativ kompetensiya darajasini tavsiflashga imkon beradi.

Respublikada ro‘y berayotgan o‘zgarishlar natijasida bugungi kunda rus tilini o‘qitish jarayoni odamlarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda rivojlanib, yanada aniq amaliy va kommunikativ yo‘nalishga ega bo‘lishi mumkin. Insonni o‘rganilayotgan tilda muloqotga tayyorlash bugungi kunda madaniyatlararo muloqotga tayyorgarlik bilan tengdir. Shunga ko‘ra, rus tilini o‘qitish amaliyoti ushbu vaziyatga tezda javob berishi va yuzaga keladigan muammolarni maqbul hal qilish yo‘llarini ishlab chiqishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Методическое руководство к учебнику для 2 класса «Русский язык как иностранный» для школ среднего общего образования с узбекским и другими языками обучения / Абдураимова З. Х., Исламбекова С. Ю., Хамраева Е.А. [и др.]; под науч. ред. Хамраевой Е.А.—Ташкент, 2021.
2. Sanobar Kuldasheva. Modern Technologies in Improving the Quality of Teaching. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020
3. Панжиева Ф. Роль русского языка в территории узбекистана // Экономика и социум. 2020. №11 (78).
4. Юнусова Дильнавоз Панджиевна. Методика обучения русскому языку в начальных классах. Analytical Journal of Education and Development. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
5. Габдулхаков Фарид, Габдулхакова Расима. Развитие методики обучения русскому языку в Узбекистане // Этнодиалоги. 2014. №3 (47).
6. Красовская Л.В., Исабекова Т.И. Использование информационных технологий в образовании // Научный результат. Педагогика и психология образования. Т. 3, №4: 29-36
7. Abdullayev A.A.. System of information and communication technologies in the education. Science and world International scientific journal, 2 (2020), pp. 19-21
8. Tursunova D.T.. Rus tilini chet tili sifatida o‘qitishda og‘zaki va yozma nutqning til va nutq aspektlari: "Экономика и социум" №1(92) 2022

**A2 DARAJALI MAKTAB O’QUVCHILARING INGLIZ TILI GRAMMATIK
KOMPETENSIYASINI OSHIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

*Norqulova Muqaddas Baxriddinovna,
Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

Ushbu maqolada o’quvchilarning grammatik kompetensiyasini oshirishda darsda qo’llash mumkin bo’lgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining usul va vositalari, samarali yondashuvlar, multimedia, veb/mobil ilovalar haqida so’z yuritilgan.

***Kalit so’zlar:** grammatik kompetensiya, ESL, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia, veb ilovalar*

**МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-
КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ АНГЛИЙСКОЙ
ГРАММАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ШКОЛЬНИКОВ УРОВНЯ А2**

В данной статье рассказывается о методах и инструментах информационно-коммуникационных технологий, эффективных подходах, мультимедиа, веб/мобильных приложениях, которые можно использовать на уроке для улучшения грамматической компетентности учащихся.

***Ключевые слова:** грамматическая компетентность, ESL, информационно-коммуникационные технологии, мультимедиа, веб-приложения.*

**METHODOLOGICAL FEATURES OF USING INFORMATION AND COMMUNICATION
TECHNOLOGIES TO IMPROVE THE ENGLISH GRAMMATICAL COMPETENCE OF
SCHOOLCHILDREN AT LEVEL A2**

In this article the author writes about information and communication technology methods and tools, effective approaches, multimedia, web/mobile applications that can be used in the classroom to improve students' grammatical competence.

***Keywords:** grammatical competence, ESL, information and communication technologies, multimedia, web applications.*

Kirish. Ingliz tilini bilish dunyoning ko’plab mamlakat ta’lim tizimlarida birinchi o’rinda turadi. Ingliz tilining xalqaro muloqot tili sifatidagi maqomi yildan-yilga oshib bormoqda. Bugungi kunda ingliz tilida gaplashish turli madaniyatdagi odamlarga o’zaro muloqot qilishiga imkonini beradi, shaxslar uchun imkoniyatlar ochadi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo’shadi, shuning uchun O’zbekiston Respublikasida ham chet tillarini o’rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Yurtimizda o’rta maktab o’quvchilarining o’qishni tugatishga yaqin ingliz tilini bilish darajasi B1 darajasida bo’lishi lozim, lekin amalda ko’pchilik o’quvchilarda undan pastligiga guvoh bo’lamiz. O’quvchilarda ingliz tilini umumiy bilish darajasini oshirishga yordam berish yo’llari yurtimizdagi turli metodistlar tomonidan taklif qilib kelinmoqda. Eng zamonaviy usullardan biri bu tilni axborot kommunikatsion texnologiyalari yordamida o’rganishdir; veb ilovalar, mobil ilovalar, til o’rgatuvchi dasturlar hozirgi kunda internet saytlarida ancha ommalashgan.

Ingliz tilida erkin muloqot qilish uchun 2000 ta so’zni, o’qib tushunish uchun esa kamida 9000 ta so’zni bilish zarur, lekin bu so’zlardan to’g’ri va oqilona foydalanib so’zlashish va yozishni ingliz tilini grammatikasiz tasavvur qilish mushkul. Eng ko’p foydalaniladigan mobil ilovalar: English grammar (Tenses Test) yoki English grammar exercises nomi bilan yaratilgan. Grammatik mavzular haqida qisqacha ma’lumot berilgan ingliz tilida hamda mavzuga aloqador bilimni sinovdan o’tkazish uchun test va mashqlardan iborat qilib yaratilgan.

Asosiy qism. Grammatikani o’rganish strategiyasi, metodologiyasi va texnikasi bo’yicha Kolumbiyadagi o’rta maktab kontekstida ikkita tadqiqot o’tkazildi. Birinchisi, Ibarra va tomonidan olib borilgan tadqiqot Ortega, bu yerda eslab qolishda qiynaladigan o’quvchilar grammatika va lug’atdan foydalanishga o’rgatilgan grafik organayzerlar, kalit so’zlar, parafrazlash va eslab qoling o’yinlari, hisobot kabi o’rganish usullari davolashdan so’ng o’quvchilar yaxshi tushunib olishdi. Ikkinchisi Siatoba, Forero tomonidan olib borilgan tadqiqot, bu yerda o’quvchilarda vizual va kontekstli strategiyalardan foydalanganlar. lug’atni o’rganish, shuningdek, qayd qilish va o’quvchi va o’qituvchi o’zaro munosabatlari va

test olgandan keyin ular so'z boyligining ijobiy o'sishini ko'rsatdi. Bularning ijobiy natijalari asosida lug'atni o'rganish strategiyalari, usullarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir. Maktablarda lug'atni o'zlashtirish jarayonini yaxshilashga yordam beradigan texnikalarni ko'rsatdilar.

O'zlashtirish, ehtimol, ingliz tilini yaxshilashda grammatikani o'rganish roli tufaylidir. O'qituvchilar grammatika qoidalarini o'rgatish, gaplarni erkin tarzda to'g'ri tuza olishlariga ko'maklashadi bu esa gapirish ko'nikmasini, yozish ko'nikmasini shakllantirishga katta hissa qo'shadi. Grammatikani o'rganish strategiyalari, usullari, mobil ilovalari, veb-vositalari o'qituvchilar uchun o'quvchilarning chet til kompetensiyasini oshirish va yaxshilashga yordam berish uchun foydali bo'ladi.

Raqamli vositalar sifatida AKTning elementlaridan ta'lim jarayonida o'qituvchilar tomonidan foydalanish sinflar uchun maxsus foydali dasturiy ta'minot ilovalari mavjud. Ulardan dars davomida oqilona tarzda foydalanish darsning sifatini oshirishga, vaqtdan unumli foydalanishga, o'quvchilarni darsga qiziqtirishga ancha yordam beradi.

Ko'p tillarda grammatika o'rgatish bilan bog'liq qiyinchiliklarga yechim topish uchun sinfda, birinchi navbatda, ushbu muammolarning sabablarini aniqlash kerak. Buning sabablari haqida so'zlaganimizda grammatikani o'rgatishdagi qiyinchiliklarni aniqlashtirsak: 1. Ingliz tilidagi bilim darajasi - darsda ishlatiladigan yagona til ingliz tili, demak, yangi til yoki o'qituvchi tomonidan kiritilgan va tushuntirilgan grammatik tuzilmalar va konstruksiyalar bo'lmasligi mumkin, bu esa har bir o'quvchi tomonidan bir xilda yangi termin o'zlashtirilmaydi. 2. O'quvchilarning lingvistik kelib chiqishidagi farq. Merita Ismoilovning ta'kidlashicha, "o'quvchilar o'zlarining ona tillaridagi tajribalari va oldingi bilimlariga tayanadilar ikkinchi tilni egallash uchun" (Ismoilov, 2015, 199-bet), bir tilda sinflarda ma'lum bir grammatik maqshni tushuntirishda biz ko'pincha shunga o'xshash tilshunoslikka murojaat qilamiz ona tilida mavjud bo'lgan tuzilmalar, o'zaro parallelliklarni toping va ularni bir-biriga bog'lang kabi topshiriqlarga e'tibor beramiz. Bu strategiya o'quvchilarga yangi tilni tushunishda katta foyda keltiradi, ammo buni amalga oshirish mumkin, lekin munosib ekvivalentini topish juda muhim. 3. Madaniyatlararo tafovut va ijtimoiy kelib chiqishi - a tomonidan kiritilgan grammatik tuzilmalar va qoidalardan foydalanish misollari o'quvchiga tanish bo'lgan madaniy va ijtimoiy voqelikka mos kelmasligi mumkin. 4. Ishtirok etishning yo'qligi - o'ziga bo'lgan ishonchning pastligi.

Grammatik ko'rinishlarni hosil qilishga yo'naltirilgan mashqlar turli xil bo'lishi umumkin. Mazkur mashqlarni tuzishda o'rganuvchining ona tiliga suyanish qanchalik muhim bo'lsa, uning salbiy ta'sirini bartaraf etish ham shunchalik lozim bo'ladi. J.Jamolovnin ta'kidlashicha, "reproduktiv ko'nikmalarning rivojlantirishda ona tilining salbiy ta'sirini bartaraf etishda ona tili tufayli sodir bo'ladigan Grammatik amallar va fikrlash operatsiyalarini almashtirish, o'zgartirish sistemalari va tanlash usullarini ishlatish orqali erishiladi". Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida mashqlarni tuzish, o'quvchilar tomonidan ishlanishi ancha oson, qiziqarli va rang-barangdir. Yangi grammatik mavzuni o'zlashtirish, avvalambor, taqdimotga, keyin namunadagi misollar yordamida gaplar tuzib yaxshiroq anglashga, keyinchalik nutq jarayonida undan qayta foydalanishlariga yordam beradi.

Shunday qilib, Internetga asoslangan texnologiyalar hayotimizda qanchalik muhimligini hisobga olsak, bugungi kunda veb 2 kabi texnologiyalarning imkoniyatlari va afzalliklaridan foydalanish ingliz tilini mustaqil o'rganishga ancha qo'l keladi. Ushbu vositalar aloqani ta'minlaydi, interaktivlik, multimedia imkoniyatlari, vaqt va makonga moslashuvchanligi kabi afzalliklari bilan grammatik kompetensiyani o'zlashtirish uchun ideal vositalar. Bu Agca & Özdemir tadqiqotiga mos keluvchi ingliz tilini o'rganish uchun mobil ilovalardan foydalangan o'quvchilar sezilarli o'sishni ko'rsatgan.

Muhokamalar va natijalar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT): AKT hamma narsani o'z ichiga oladi: internetga asoslangan ilovalar va tizimlarni, shuningdek, barchasini tashkil etuvchi asosiy infratuzilma mavjud. AKT o'zaro online munosabatni, ko'p foydalanuvchilarning o'zaro ta'sirini va multimediani ta'minlaydi. Kompyuter yoki smartfon orqali kirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar juda katta ahamiyatga ega. AKT atamasi tez-tez veb-brauzerlar va mobil qurilmalarda ishlatiladigan dasturiy ta'minotni bildirish uchun ishlatiladi va undan darsda ham samarali foydalanish mumkin.

Web 2.0 vositalari: Perez-Salazar, G. Web 2.0 vositalarini joylashtirilgan ilovalar sifatida tavsiflaydi. O'z foydalanuvchilariga bir-biri bilan o'zaro muloqotda bo'lish imkonini beruvchi xizmatlarni taqdim etadigan World Wide Web-da, boshqa narsalar qatori hujjatlarni almashish va hamkorlik qilish ham mumkin. Ba'zilar kontentga asoslangan foydalanuvchilarga oson kirish, tahrirlash va nashr etish imkonini beruvchi boshqaruv tizimi yoki CMS modeli raqamli tarkibga ega.

Mobil qurilma ilovasi: Merriam-Webster tomonidan taklif etilgan ingliz tilini o'rganish uchun ilova - bu smartfon va planshetlar kabi "mobil qurilma uchun mo'ljallangan dastur" dir. Ular kompyuterlar va noutbuklar bundan mustasno, faqat mobil qurilmalar uchun yaratilgan. Bu ilovalar muayyan vazifani bajarish, xizmatlar ko'rsatish, o'yin o'ynash uchun ishlatiladi. Ular video, tasvirlar, audio, foydalanuvchining

o‘zaro aloqasi, kabi multimedia funksiyalarini o‘z ichiga oladi, tezkor aloqa, fayl almashish va boshqa son-sanoqsiz xususiyatlarga ega.

Multimedia: Multimedia - bu faqat kompyuterda yoki kompyuterdan foydalanish uchun yaratilgan raqamli kontent mobil qurilma va u video, grafik, audio va matn ko‘rinishidagi ma‘lumotlarni ko‘rsatadi. Kembrij lug‘ati multimediani "harakatlanuvchi va harakatsiz rasmlar, tovushlar, musiqa va so‘zlar” deya ta‘riflaydi. Raqamli vositalar: Raqamli vositalar veb-saytlar kabi internetga asoslangan ilovalar vazifani bajaradi, o‘yin o‘ynash imkonini beruvchi o‘yinlar, mobil ilovalar va onlayn raqamli resurslar va boshqotirmalar, kitob va gazetalarni elektron o‘qish, boshqalar bilan muloqot qilish va biror yangi narsa o‘rganish tushuniladi.

Grafik tashkilotchilar, lug‘atni o‘z-o‘zini to‘plash strategiyasi, 4 ta yo‘nalish va kontekstual o‘rganish va Memrise, Duolingo, WordUp va Busuu kabi ilovalar so‘z boyligini o‘rganishga yordam beradi va o‘qituvchilarga o‘z o‘quvchilarining ingliz tilini bilish darajasini oshirish maqsadiga erishishda yordam beradi.

Yondashuv: Yondashuv o‘qituvchilarning ta‘lim berish istiqbollari bildiradi. Pedagogik qarashlari, tajribalari va tamoyillariga asoslangan holda o‘rganish hisoblanadi. Yondashuv qaysi usullar, o‘qitish uslublari va qaysi tamoyillar asosida o‘qitish va o‘rganish sinfda qanday amalga oshirilishi kerakligidir. Fenstermacher va Soltis ma‘lumotlariga ko‘ra, o‘qitish yondashuvi sinfdagi faoliyatni boshqaradi va o‘qituvchilarga qiziqarli usullardan foydalanishga yordam beradi o‘quvchilarga mavzuni taqdim etish va o‘quv materiallarini ularga mos ravishda moslashtirish qobiliyat va bilimlarini yetkazadi. Ba‘zi yondashuvlar "o‘qituvchi-o‘quvchi" munosabatlarini, boshqalari esa "o‘quvchi-o‘quvchi" munosabatlarini va boshqalar raqamni (individual yoki guruhli o‘rganish) hisobga oladi. Yondashuvlar turlarini belgilovchi ta‘limga oid nazariy qarashlar sifatida ham tavsiflanadi talabalarga o‘rganishga yordam berish uchun qo‘llanilishi kerak bo‘lgan usullar. Yondashuvlarga misollar: “O‘qituvchiga yo‘naltirilgan yondashuv”, “O‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv”, Konstruktiv yondashuv va induktiv-deduktiv yondashuv.

Usul: Ta‘lim usullarini "tamoyillar, tartiblar yoki o‘quvchilarda kerakli bilimga erishish uchun o‘qituvchilar tomonidan amalga oshiriladigan strategiyalar" deb Westwood usullarni majmuyi sifatida tavsiflaydi. O‘qitish tamoyillari, e‘tiqodlari va fan tomonidan belgilanadigan ta‘lim haqidagi nazariyalar o‘rgatish kerak bo‘lgan masalalardir. Bundan tashqari, Britaniya Kengashi usullarni “amaliyot va o‘qituvchi dars berish uchun foydalanadigan protseduralar" ham mavjud. Ushbu amaliyotlar va protseduralar o‘quv faoliyati, materiallar, strategiyalar va usullarni ulardan foydalanish usullarini o‘z ichiga oladi; O‘qituvchining e‘tiqodlari, tamoyillari va ta‘limdan kelib chiqadigan ta‘lim nazariyalariga asoslanadigan yondashuvdir. Usullarga misollar: “O‘qituvchi-markaz” usuli, “Loyihaga asoslangan metod”, Vazifaga asoslangan usul, teskari sinf, kontentga yo‘naltirilgan usul, Learner Center usuli va to‘g‘ridan-to‘g‘ri usul.

O‘rganish texnikasi: O‘rganish texnikasi Pozo tomonidan o‘rganish sifatida tasvirlangan o‘qitish strategiyalaridagi mexanizmlar, masalan, o‘ziga xos kognitivlikni rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan fokuslar qobiliyatlari. Bundan tashqari, mualliflar Dunlosky, Rawson, Marsh, Nathan, and Willingham ularning ishlari talabalarning o‘rganishini samarali o‘qitish metodlari bilan takomillashtirish bir qator ko‘rib chiqish aniq ta‘lim maqsadlariga erishish uchun aniq faoliyat sifatida taqdim etilgan texnikalardir. Masalan, og‘zaki eslab qolish uchun kalit so‘zlardan foydalangan holda xulosa yozish usullari tasvirlangan material, matn qismlarini ajratib ko‘rsatish va tagiga chizish, matn materiallarining aqliy tasvirlarini shakllantirish va hokazo. Shuni ta‘kidlash kerakki, texnika atamasi ba‘zan bir-birining o‘rnida ishlatiladi. O‘rganish usullariga misollar: Mind xaritalash, Aqliy hujum, o‘z-o‘zini o‘rganish, gamifikatsiya, viktorinalar va kalit so‘z mnemonikasi.

Strategiya: Strategiyalar - bu qadamlar, tadbirlar, resurslar va protseduralarni rejalashtirish muammoni hal qilish yoki muayyan maqsadga erishish. Ularni rejalashtirilganidek kuzatib borish kerak emas, chunki ular amaliylik uchun yo‘lda o‘zgartirilishi mumkin. Shmek fikricha, strategiyalar ta‘lim maqsadiga erishish uchun amalga oshiriladigan protseduralar va qadamlar ketma-ketligidir. Shumaker va Deshler, strategiyalarni jalb qilish uchun ko‘nikmalarni tashkil etish va ulardan foydalanish sifatida tavsiflaydi.

Grammatik kompetensiya tilni o‘rganishning asosiy jihati bo‘lib, ingliz tili o‘quvchilar uchun chet tili (EFL), uni o‘rganish "eng qiyin vazifalardan biri" Schmitt Garchi grammatikani o‘zlashtirish va uning tilni bilishga ta‘sir bo‘yicha tadqiqotlar juda ko‘p, ba‘zi tadqiqotlar lug‘at bilimlarining o‘ziga xos ingliz tiliga tinglash, gapirish va o‘qish kabi ko‘nikmalariga ta‘sirini ko‘rsatadi. Chang fikriga ko‘ra, grammatikani o‘rganish mavjud o‘quvchilarning eshitish qobiliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Diaz grammatikani o‘rganish EFL talabalariga nutq qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

Subtitrlil filmlarni tomosha qilish ingliz tilidagi so‘z boyligingizni yaxshilashning yana bir qiziqarli va ajoyib usuli hisoblanadi. Filmlarni tomosha qilish sizga ko‘plab so‘zlar, iboralar va grammatikalarni o‘rganish va ularning tabiiy ravishda qanday ishlatilishini ko‘rish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, u sizning ingliz

tilida gapirish ko'nikmalariningizni, shuningdek, tinglash ko'nikmalariningizni yaxshilashga yordam beradi, bu esa haqiqiy hayotdagi suhbatlar paytida foydali bo'ladi. Subtitrli filmni tomosha qilayotganda, biz subtitrlarga shunchalik e'tibor qaratamizki, biz faqat o'qish qobiliyatimizni mashq qilamiz. Ammo so'z boyligimiz va ingliz tilidagi umumiy ko'nikmalarimizni yaxshilash uchun o'qish va tinglash qobiliyatlari juda muhimdir. Yaxshiyamki, yechim bor: 2 soniya kechiktirilgan subtitrlar bilan filmlarni tomosha qilish hiyla qilish kerak. Ushbu noyob strategiya sizga o'qish va tinglash ko'nikmalarini qanday yaxshilashga yordam berishini ko'rib chiqing. Kitob o'qishga o'xshab, film tomosha qilayotganda yangi so'zlarga duch kelsangiz, uning ma'nosini tekshirish uchun filmni biroz to'xtatib qo'yishingiz mumkin. Agar tomosha qilish vaqtingizga xalaqit bermaslikni istasangiz, keyinroq foydalanish uchun shaxsiy lug'at daftaringizga so'zlarni yozib qo'ying.

Kompyuter yordamida til o'rganish: CALL keng ko'lamli va doimiy o'zgaruvchan intizomdir. Beatty, CALL deganda "O'quvchi kompyuterdan foydalanadigan va natijada o'z tilini yaxshilaydigan va bu sohadagi mavjud amaliyotning keng doirasini qamrab oladigan har qanday jarayon" Internet va turli xil kompyuter ilovalari deb ta'riflaydi. Kompyuter yordamida til o'rganish dasturlari, CD-ROMlar va Office dasturlari ko'plab o'quv va o'quv muhitlarida odatiy holga aylandi. Kompyuter tahlil qilish, muhokama qilish va yozishni keltirib chiqaradigan rag'batlantiruvchi vosita sifatida harakat qilishi mumkin.

Lug'atga asoslangan mobil telefon ilovalaridan foydalanish. Ingliz tilini o'rganish, IELTS 5000 so'zlari, Level testi, ingliz tilini bosqichma-bosqich, eVoc, Tell me More kabi til ilovalari juda ko'p. Tadqiqotchi o'z qiziqishlari, darajalariga ko'ra har qanday qiziqarli ilovalarni topishi mumkin; va istalgan vaqtda, istalgan joyda yangi so'zlarni o'rganing. Dam olish uchun oldingi va keyingi mashg'ulotlar uchun qo'shiq tinglash. Yoqimli qo'shiq har doim esda qoladi, uni bir necha bor tinglash, matnni topish va noma'lum so'zlarni qidirish o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirishga yordam beradi. Multimedia, power point slaydlari juda qiziqarli, maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va quvonchli. O'qituvchi mavzu asosida videolar tayyorlashi kerak. Ko'rgazmali qurollar yanada jozibali, hatto passivlar ham har bir faoliyatda qatnashishga harakat qilishadi.

Xulosa qilib aytganda, AKT bizning kundalik hayotimizning bir qismidir va sinfda kompyuter va planshetlar kabi AKT qurilmalaridan foydalanish ingliz tili sinfida o'quvchilarni rag'batlantiradi. Darsda AKT dan foydalanish qulayroq bo'lib bormoqda va o'qituvchi undan pedagogik vosita sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan turli usullar mavjud. Westwoodga ko'ra, o'qitish talabalarida til o'rganishga qiziqishni rivojlantirishga undashi kerak va ularga o'z tajribalari va qiziqishlari bilan tarkibni bog'lash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati berilishi kerak. Buni sinfda talabalarning motivatsiyasini oshirish uchun sinfga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kiritish orqali amalga oshirish mumkin. Hozirgi kunda o'quvchilarni an'anaviy usul bilan doska va bo'r yordamida darsga 45 minut qiziqtirib o'tirish juda mushkul. Chunki ular uyda, ko'chada, ijtimoiy hayotda AKT bilan uzviy bog'liq, online tarzdagi suhbatlar, xabarlar jo'natish, internet tarmog'idan keng foydalanishadi. Yosh avlod o'qituvchilaridan ko'ra ko'proq axborot texnologiyalarini yaxshi tushunadi. Zamon bilan hamnafas bo'lgan tarzda, ingliz tili o'qituvchilari ham yuqorida tilga olingan usul va vositalardan foydalanishsa, dars yanada qiziqarli, samarali tashkil etilgan bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Agca & Özdemir (2013) “ Foreign language grammar learning with mobile technologies” Turkey, Ankara
2. Perez-Salazar, G. (2011)) Main schools of grammar, grammar in schools and pedagogical grammar. International Journal of English Language Education, 1(1),
3. Fenstermacher va Soltis (2004) Using current issues of interest in teaching grammar. International Research Journal
4. Westwood (2008) A profile of an effective EFL grammar teacher. Journal of Language Teaching and Research. USA
5. Pozo (1990) Investigative primary science: a problem-based learning approach. Australian Journal of Teacher Education. USA
6. Dunlosky, Rawson, Marsh, Nathan, and Willingham (2013) Teaching grammar with ICT. Germany
7. Shmek (1988) A comparative study of problem-based and lecture-based learning in secondary school students' motivation to learn science. England
8. Schmitt (2000) English grammar with CALL. USA

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ИЛМИЙ-МЕТОДИК АСОСЛАРИ

Норов Жамшид Нуруллоевич,

Бухоро педагогика институти таянч докторанти

Мақолада ўрта умумтаълим мактабларининг адабиёт дарслари таркибидаги чет эл адаблари асарлари, хусусан, жаҳон халқлари бадиий тафаккури тараққиётида алоҳида ўринга эга Эзон масалларини ўқитишида уларда ифодаланган лингвокультурологик бирликларни таҳлил этиши усуллари ҳавола этилган, лингвомаданий бирликларнинг моҳият-мазмуни тегишли мисоллар билан очиқ берилган, ўқувчиларга уларни етказиб бериши йўл-йўриқлари бўйича айрим тавсиялар берилган, таълим сифати ва самарадорлигини ҳар томонлама ошириши учун лингвомаданий бирликларни дарс жараёнида мунтазам таҳлил этиб бориши зарурлиги фактик материаллар билан далилланган.

Калит сўзлар: ўрта умумтаълим мактаби, адабиёт, лингвокультурология, тил, маданият, чет эл адабиёти, Эзон, масал, таҳлил, тавсиф, ўқитиши, илмий-методик асос.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

В статье особое место в развитии художественной мысли народов мира занимают произведения зарубежных литераторов на уроках литературы средних общеобразовательных школ. При обучении басням Эзопа приводятся методы анализа выраженных в них лингвокультурных единиц, раскрывается сущность и содержание лингвокультурных единиц на соответствующих примерах, даются некоторые рекомендации по методике их объяснения учащимся. На основе фактических материалов раскрыта необходимость систематического анализа лингвокультурных единиц в процессе урока с целью всестороннего повышения качества и эффективности обучения обосновывается.

Ключевые слова: средняя общеобразовательная школа, литература, лингвокультурология, язык, культура, иностранная литература, Эзон, притча, анализ, описание, преподавание, научно-методическая база.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF TEACHING
LINGUOCULTURAL UNITS

The article references the works of foreign writers in the composition of literature classes of Secondary Schools, in particular the methods of analysis of linguocultural units expressed in them when teaching Aesop parables with a special place in the development of artistic thinking of the peoples of the world, the essence and content of linguistic units are revealed with relevant examples, , the need to regularly analyze linguistic units in the course of the lesson to comprehensively improve the quality and effectiveness of education is evidenced by factual materials.

Keywords: secondary comprehensive school, literature, linguoculturology, language, culture, foreign literature, Aesop, parable, analysis, description, teaching, scientific and methodological basis.

Кириш. Чет эл адаблари асарларидаги лингвомаданий бирликлар (ўхшатиш, метафора, реалия кабилар)ни замонавий методология ва методлар бўйича ўрганиш, ўрта умумтаълимда дарс сифатида ўтиш ҳозирги кунда ҳар қачонгидан ҳам долзарб бўлиб турибди. Ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий жиҳатдан халқаро алоқаларнинг тобора жадал суръатларда ривожланиб бориши мазкур масалага алоҳида эътибор қаратишни тақозо этмоқда. Илмда барчанинг эътиборини тортаётган тил ва маданият тушунчаси билан боғлиқ лингвокультурология масалалари кўпчилик олимлар томонидан ўрганилаётган бўлса-да, бироқ бу масала ханузгача тўлақонли тадқиқ қилингани йўқ. Аёнки, лингвокультурология (лот. lingua – тил + лот. kultura – ишлов бериш + юн. logos – таълимот) тилшунослик, маданиятшунослик, этнография, психолингвистика соҳалари ҳамкорлигида юзага келган, тилнинг маданият, этнос, миллий менталлик билан ўзаро алоқаси ва таъсирини антропоцентрик парадигма тамойиллари асосида ўрганувчи соҳадир [7, 8-9].

Асосий қисм. Лингвокультурология XX асрнинг 90-йилларида вужудга келди ва ривожлана бошлади. Ҳозирги вақтда лингвокультурология жаҳон, жумладан, ўзбек тилшунослигида ҳам энг

ривожланган йўналишлардан бири бўлиб, бу борада бир катор дарслик, монография, ўқув қўлланма ва илмий мақолалар яратилди. Дунё фанида антропоцентрик парадигма йўналишлари сифатида социолингвистика, когнитив тилшунослик, прагматингвистика, лингвокультурология, психолингвистика каби соҳаларнинг юзага келиши адабий матнларни янгича нуқтаи назар ва меъёрлар бўйича ўрганиш, тавсифлаш ва изохлаш талабини қўймоқда. Шунинг натижасида ҳозирги даврда бадиий матннинг тил билан боғлиқ хусусиятларини ўрганишга бўлган қизиқиш ва эҳтиёж ҳар қачонгидан ҳам кучайди.

Ўрта умумтаълим мактабларида адабиёт дарслари учун жами 510 соат ажратилган. Шундан 5, 6, 7, 8, 10, 11-синфларнинг ҳар бирида адабиёт дарсларининг умумий йиллик соати 68 соатни ташкил этади. Фақат 9-синф ўқувчилари учун эса адабиёт дарсларини ўтиш 102 соат этиб белгиланган. Чет эл адабиётини ўтиш учун жами 89 соат ажратилган. Бу соатлар синфлар кесимида қуйидагича: 5-синфда 9 соат, 6-синфда 24 соат, 7-синфда 14 соат, 8-синфда 5 соат, 9-синфда 13 соат, 10-синфда 19 соат, 11-синфда 5 соат. Айтилганларни қуйидаги жадвалда акс эттирсак, мақсадга мувофиқ бўлади:

Чет эл адаблари асарлари таҳлили учун белгиланган дарс соатларининг улуши қуйидаги жадвалда акс эттирилди:

№	Синф	Адабиёт дарсларининг умумий соати	Чет эл адабиёти учун дарс соатлари	Чет эл адабиёти учун дарс соатларининг фоиз кўрсаткичи
1	5-синф	68 соат	9 соат	13, 2 %
2	6-синф	68 соат	24 соат	35, 2 %
3	7-синф	68 соат	14 соат	20, 6 %
4	8-синф	68 соат	5 соат	7, 3 %
5	9-синф	102 соат	13 соат	12,7 %
6	10-синф	68 соат	19 соат	28,1 %
7	11-синф	68 соат	5 соат	7,3 %
	Жами:	510 соат	89 соат	17,5 %

Жадвалдан англашиладики, хорижий адабларнинг асарлари таҳлили учун жами адабиёт дарслари соатларининг қарийб бешдан бир қисми ажратилган. Унда жаҳон халқлари бадиий тафаккури тараққиётида алоҳида ўринга эга бадиий асарларини ўрганишга алоҳида эътибор қаратилган. Бунга мисол сифатида Эзоп масалларини айтиб ўтиш мумкин. Адабиёт дарслигида адабнинг “Ёввойи эчкилар”, “Кийик билан тоқзор”, “Бўри билан лайлак”, “Эшак билан бақалар”, “Устига туз юкланган эшак”, “Бургут, зағча ва чўпон” масалларини ўқиш ва таҳлил қилиш вазифаси қўйилган.

Маълумки, Эзоп миллоддан аввалги 6-асрларда қадимги Юнонистонда яшаган ва ижод этган. Уни жаҳон масалнависларининг бобокалони сифатида таърифлашади. Адабнинг уч минг йил илгари яратган содда, мазмунли ва аҳамиятли масаллари ҳамма даврларда ҳам ўзининг ҳаётийлигини йўқотмаган, улар ҳанузгача инсониятга энг ноёб ва ибратли сабоқ бўлиб хизмат қилиб келмоқда.

Ривоятларда келтирилишича, Эзоп фригиялик кул бўлиб, сўнг озод қилинган. Лидия шоҳи Крез саройида бир неча йиллар давомида хизматда бўлган, Дельфада ўлдирилган. Антик даврда маълум бўлган деярли барча масалларнинг сюжети Эзопники деб ҳисобланади. Улар миллоддан аввалги 4-3 асрлардан бошлаб тўпланган ва «Эзоп масаллари» китобига киритиб борилган. Эзоп масаллари ғоявий жиҳатдан жуда пухта ёзилган, тили эса содда, жонли тилга яқин. Эътиборли томони шундаки, Эзоп масаллари сюжети Европа масалчилиги сюжетининг асосини ташкил этади. Латин масалчиси Федр (1-аср) ва юнон масалчиси Бабрий (2-аср) лардан тортиб то француз Ж. Лафонтен ва рус Иван Криловларгача Эзоп масаллари сюжетидан кенг фойдаланиб, уларни даврга мослаб ижодий ривожлантирганлар.

Адабнинг масалларида айрим лингвокультурологик бирликлар қўлланган. Бунга мисол сифатида адабнинг “Бургут ва кўнғиз” масалидаги Зевс прецедент номини айтиш мумкин. Масалда келтирилишича, бургут бир куённинг пайига тушади. Жон сақлаш учун кимдан ёрдам сўрашини билмаган куён йўлида рўпара келган ягона жонзот, яъни кўнғизга ёлворди. Кўнғиз унга далда беради ва бургутга, мандан паноҳ излаб келган жониворга тегма, дея илтижо қилади Бургут бу ҳимоячининг гапига парво ҳам қилмай куённи тутиб ейди.

Бундан ғазабланган Кўнғиз Бургутнинг уясини кидириб, ҳар сафар у тухум қўйган пайтда тухумларини думалатиб ерга тушириб синдираверади. Охири ҳеч ердан паноҳ топа олмаган Бургут олий тангри Зевсга илтижо қилиб, тухум қўйиб бола очиши учун беҳавотирроқ жой кўрсатишни

сўрайди. Зевс Бургутнинг бола очиши учун ўз қўйинини очиб беради. Буни кўрган Кўнғиз бир парча гўнгни думалатиб соққа қилди-да, Зевснинг қўйнига ташлаб юборади. Зевс гўнг парчасини қоқиб юбориш учун бирданига ўрнидан туриб кетади ва Бургутнинг тухумларини тушириб юборади ва барча тухумлар синади. Шу пайтдан бошлаб бургутлар кўнғизлар тухумдан чиққан чоғда уя курмайдиган ва тухум очмайдиган бўлишади.

Мазкур масалдан ҳисса шуки, кичкиналарни менсимаслик яхши эмас, зеро ўзини таҳқирлагандан ўч олмоқчи бўлган жониворни заиф деб бўлмайди. Ахир айтганлар-ку: «Ўзингни эр билсанг, ўзгани шер бил», деб. Масал мазмуни шундан иборат. Эътибор берилса, унда Зевс билан боғлиқ ҳодиса тилга олинган. Аёнки, бу ном ўзбек ўқувчиси учун нотаниш ҳисобланади. Буни ўқитувчи ўқувчиларга маданият ва дин билан боғлаб тушунтирса, мақсадга мувофиқ бўлади.

Маълумки, Зевс юнон афсоналарида олий худо; худолар ва одамлар ҳукмдори бўлиб, Кронос ва Реянинг ўғлидир. У худоларнинг учинчи авлодига мансуб бўлиб, тартарда ўз отаси ва бошқа титанларни енгиб, Олимп тоғида ҳукмрон бўлади, оламни қайтадан тузади, худоларни яратади, конунлар чиқаради, тартиб ўрнатади, фан, санъат, ахлоқ меъёрларини жорий этади. Зевс худоларнинг иродасини ва яхши ниятларини рўёбга чиқарувчи кўплаб қаҳрамонлар — Геракл, Персей кабиларнинг отасидир. У куч билан бир неча марта одам зотини йўқ қилиб, ундан ҳам мукамал инсонни яратишга уринади.

Жаҳон антик адабиётини ўрганишдаги биринчи восита ва манба мифологиядир. Таъкидлаш ўринлики, антик адабиёт мифология асосида юзага келган. Мифология миф, афсона ва эртак кабилардан иборатдир. Мифология дастлаб кишилар онги жуда ибтидоий бўлган пайтда юзага келган. Шунинг учун инсонлар ўзларига турли туман худолар яратишга ҳаракат қилганлар. Мифологик дунёқараш бўйича, энг аввалги худо Уран, сўнг Гея вужудга келган, улардан Крон, Океан. Рейлар туғилган. Крон билан Рея бирлашувидан бошқа худолар билан бирга Зевс таваллуд топади. Зевс катта бўлгач, отасини кураш билан тахтдан тушириб, ўзи тахтга чиқади. Зевс Олимп тоғларида яшовчи худоларнинг Худоси сифатида фаолият юритади.

Худолар тарихига доир Н.А. Куннинг «Қадимги Юнонистон афсона ва ривоятлари» асари аҳамиятли ҳисобланади. Унда Зевс ҳақида қимматли маълумотлар келтирилган. “Зевснинг туғилиши” қисмида қуйидагиларни ўқиш мумкин: Кроннинг хокимиятни хамиша қўлда тутиб туришига тўлиқ ишончи йук эди. У ўз отаси Ураннинг бошига не кулфатлар солган бўлса, фарзандлари ҳам унга қарши чиқиб, уни шундай мусибатларга гирифтор қилишидан кўрқар эди. Шунга кўра Крон ўз рафикаси Реяга, ҳар бир тукқан болангни менга олиб келасан, деб амр этади ва уларни туғилиши биланоқ, шафқатсизлик билан ямламай ютаверади. Рея кенжа фарзандидан ҳам жудо бўлишни истамайди. Тўлғоқ тута бошлаган пайтда Крит оролига оролига боради ва ўша ерда ўғли Зевсга кўзи ёриди. Орадан вақт ўтиб, Зевс улғайиб, вояга етади. У отасига қарши исён кўтаради ва ютиб юборган фарзандлари — худоларни бирин-кетин қусиб, ёруғ жаҳонга қайтаришга мажбур этади. Сўнг ака-ука худолар бирлашиб, Крон ва титанларга қарши кураш бошлайдилар, юксак Олимпни эгаллайдилар.

Олимплик худоларнинг ҳукмронлигига ҳеч бир жонзот қарши бош кўтара олмайди. Улар энди дунёда бемалол ҳукмронлик қилишлари мумкин эди. Худолар орасида энг қудратлиси бўлган Зевс —самони, Посейдон — денгизни, Аид — мархумлар руҳининг ер ости салтанатини ўз тасарруфига олади. Замин эса ҳаммаларининг умумий мулки бўлади. Зевс колган барча худолар устидан ҳукмронлик қилади; у ҳам бандаларга, ҳам худоларга подшолик қилади, бутун оламни бошқаради, бутун ер юзида тартиб ўрнатади [4, 6-7]. Зевс худолар ва бандалар шоҳи, осмон, момақалди роқ ва чакмоқ худоси; у энг олий адолатпаноҳ, обидлар (ибодат қилувчилар) ва мусофирлар хомийси ҳисобланади.

Асарларда *Аид* номи ҳам учрайди. У Крон билан Реянинг ўғли, Зевснинг акаси, ер остидаги ўликлар салтанати худоси. Унинг исми маъноси *кўринмас* деган маънони билдиради ва бандаларни даҳшатга солувчи ўзга ном (дўзах) билан ифодаланади. *Аид* салтанати ёки кўпинча содагина қилиб *Аид* дейилганда, ўликлар салтанати, нариги дунё кўзда тутилади. Чет эл адибларининг асарларида айрим мусиқа асбобларининг номи ҳам ифодаланган. Шундай мусиқа асбобларидан бири *кифара*дир. У қадимги Юнонистонда торли мусиқа асбоби бўлиб, у кўп жихатдан лирага ўхшаб кетади. Бироқ ундан ҳажман кенгроқ ва калтароқ. Кифаранинг акустик хусусияти лирадан сифатлироқ бўлиб, унинг торлари кўпроқ ва жаранглаш қобилияти юқори роқ.

Эзоп масалларида юнон ва ўзбек тилларида бир хил мажозий маъноларда қўлланган айрим метафоралар қўлланган. Масалан, *бургут* номи кўчма маънода *йиртқич*, *ёвуз одам* маъносида Эзоп асарлари тилида қўлланган бўлса, ўзбек тилида ҳам шу маънода қўлланилиб келмоқда. Бироқ Эзоп

асарларида мазкур қушнинг *жасур, қайтмас, энчил* кўчма маъносида қўлланилиши ўзбек бадиий матнларига нисбатан оз учрайди.

Эзопнинг “Булбул ва қарчиғай” масалида ҳам юнон маданиятига доир бирликлар учрайди. Масалнинг мазмуни қуйидагича, булбул дарахт шохига қўниб олиб, ўз одати бўйича хониш қилиб туради. Уни қорни оч бир Қарчиғай кўриб қолди ва учиб келиб қушчани чангалига олди. Шунда Булбул Қарчиғайга ёлвориб, дейди: «Жон акажон, мени еманг, ахир мен зиғирдаккинаман, тишингизнинг қавагида йўқ бўлиб кетаман. Агар қорнингиз оч бўлса, яхшиси, йирикрок қушларни тутиб енг».

Бироқ Қарчиғай унга эътироз билдириб дейди: «Агар чангалимдаги ўлжани ташлаб, номаълум ўлжани қидирадиган бўлсам, ғирт аҳмоқ бўлган бўлардим». Бу масал аҳмоқ одамгина мавхум ўлжа илинжида ўз қўлидаги бойликдан воз кечади, демоқчи. Айтадилар-ку: «Эртанги товукдан бугунги тухум яхши», деб. Масал охиридаги мақол айнан шу шаклда ўзбек тилида учрамайди. Унинг ўзбек тилидаги варианты сифатида “Узоқдаги қуйруқдан яқиндаги ўпка яхши” мазмунидаги мақолни айтиб ўтиш мумкин.

Эзопнинг “Кема ҳалокатига учраган одам” масалида ҳам Зевс номи ифодаланган. Масалнинг мазмуни қуйидагича: Афиналик бир бадавлат одам кўпчилик йўловчилар билан денгизда сузиб бораётган эди. Шу пайт кучли тўфон кўтарилиб, кемани ағдариб юборади. Йўловчилар жон сақлаш учун суза бошлайдилар; фақат афиналик бой тангри Зевсга сиғиниб, унга бемисл ваъдалар қила бошлайди. Унинг ёнидан сузиб ўтаётган йўловчилардан бири унга шундай дейди: «Зевсдан мадад сўрашга сўра-ю, лекин ўзинг ҳам ҳаракат қилгин-да». Адиб масал охирида хулоса ясаб, шундай дейди: “Бизлар ҳам худоларга сиғинишга сиғинайлик, аммо ўзимиз ҳам ҳаракат қилайлик-да. Ҳаракатда баракат, деганлар ахир”.

Исмларнинг лингвомаданий хусусиятлари бир қатор тилларда тадқиқ этилган. Уларга оид кенг тарқалган қарашлардан бири прецедент номлар ҳақидаги назариядир. Маълумки, машхур исмлар, матнлар ёки вазиятлар билан боғлиқ бўлган номлар, шунингдек, муайян сифатларнинг намунавий йиғиндисига ишора қилувчи рамзий номлар прецедент номлар ҳисобланади. Тилшунос В.А.Маслованинг фикрича, муайян миллат вакилларига яхши таниш бўлган матн ёки воқеалар билан боғлиқ бўлган шахс номлари прецедент номлар бўла олади. Масалан: *Обломов, Тарас Бульба* каби [5, 53].

Прецедент номларнинг икки муҳим хусусияти эътироф этилади. Бу – машхурлик, танилганлик, яъни тил эгалари лисоний хотирасидан мустаҳкам ўрин олиш ҳамда рамзийлик – муайян сифатлар жамулжамининг намунаси бўлишдан иборат. Рус олими Е.А.Нахимова бундай номларга нисбатан ўндан ортиқ ёндашув мавжудлиги ҳақида ёзади. Булар: прецедентлик, маданиятлараро мулоқот, исмларнинг кўп маънолилиги, аллюзия, шунингдек, метафора ҳақидаги анъанавий назариялардир. Бу прецедент номлар моҳиятан кўп қиррали ва кўп вазифали лингвомаданий бирлик эканлигини ифодалайди.

Чет эл адиблари асарларидаги прецедент номларни тадқиқ этиш халқнинг миллий тафаккури ва психологияси, миллий маданияти, тарихи, урф-одатлари билан алоқадор жиҳатларини кўрсатиб беришга хизмат қилади. Прецедент номлар алоҳида олинган чет эл ижодкорлари асарлари мисолида ҳам тадқиқ этилиши мумкин. Бу ўша ижодкорнинг умумжаҳоний ва умуммиллий маданиятдан нечоғлик хабардор эканлигини кўрсатиши билан бирга унинг муайян миллатнинг ақлий салоҳияти, рухий олами, бадиий тафаккури, маданиятини ривожлантиришга қўшган ҳиссасини аниқлаш имконини ҳам беради.

Лингвокультурологияга доир тадқиқотларда прецедент номлар миллий ва универсал турларга бўлинади. Миллий прецедент номларга *Алтомиш, Кумуш, Отабек, Усмон, Чўлпон* кабиларни; универсал прецедент номларга эса *Колумб, Отелло, Буратино* кабиларни мисол тарзида айтиш мумкин. Ҳозирги глобаллашув даврида адабиёт, оммавий ахборот воситалари орқали спорт, санъат, сиёсат, маданиятга оид бир қанча прецедент номлар ўзбеклар орасида ҳам машхур бўлдики, уларнинг нолисоний омиллари, хусусан, ўзбек лингвомаданиятида тутган ўрни алоҳида ёндашувни тақозо этади.

Прецедент номларнинг аллюзив ном вазифасида қўлланишини билиш муҳим саналади. Прецедент номларнинг функционал турларидан бири аллюзив номларга услубий фигура сифатида қаралса, лингвокультурологияда улар икки маданий – семиотик майдонни ўзаро туташтирувчи восита сифатида эътироф этилади. Бунда қуйидаги икки жиҳат эътиборга олинмоғи керак: а) аллюзив номларнинг адабий фактга ишора этиши; б) уларнинг турли ижтимоий-тарихий фактга ишора қилиши.

Маълумки, аллюзив номлар машхур адабий, тарихий-маданий фактга ишора қилувчи ном ҳисобланади [1, 149]. М.В.Калинкин сўзлари билан айтганда, ҳар қандай ном матнга тарихий, маданий, географик, коннотатив маълумотлар етказиб берувчи ўзига хос “транспорт воситаси”дир [3, 84]. Бунда аллюзив фактнинг машхурлиги, аллюзия қатнашган горизонтал (вербал) матн, горизонтал матн билан имплицит матннинг ўзаро мазмуний ҳамкорлиги аллюзив жараён ҳосил бўлишининг муҳим шартлари ҳисобланади [6, 25-33].

Чет эл адаблари асарларидаги лингвомаданий бирликларни ўрта мактабларда ўқитиш бўйича куйидаги методик тавсияларни бериш мумкин:

1) бадиий матнни 2-3 марта ўқувчиларга ўқитиш, уларнинг талаффузига эътибор қаратиш, хато ўқишларини бартараф этиб бориш лозим;

2) тушунарсиз, изоҳталаб сўзларни доска ва тегишли дафтарда қайд этиш, илмий манба ва луғатлардан фойдаланиб, уларни тавсифлаш керак;

3) бадиий матндаги ўқувчига маъно ва мазмуни номаълум бўлган лингвокультурологик бирликни аниқлаш, унинг бошқа халқлар маданиятига тегишли бирлик эканлигини изоҳлаш, ўз ва кўчма маъноларини чуқур талқин этиш шарт.

Эзоп масалларидаги лингвомаданий бирликлар

Лингвомаданий бирлик	Кўчим тури ёки маданий бирлик	Ўз ёки мажозий маъноси, варианти
Зевс	прецедент ном	энг олий адолатпаноҳ, обидлар (ибодат қилувчилар) ва мусофирлар ҳомийси
Бургут	метафора	йиртқич, ёвуз одам
Тулки	метафора	айёр, ёлғончи киши
дирхам	реалия	пул бирлиги
тунес	реалия	йирик йиртқич денгиз балиғи.
ҳекатомба	реалия	тангриларга аталган энг йирик қурбонлик
бешкураш	реалия	Юнонистонда гимнастик ўйинларнинг асосий мажмуаси ҳисобланган; унинг таркибига: югуриш, баландга сакраш, кураш, лаппак отиш ва найза отиш мусобақалари кирган
Эртанги товукдан бугунги тухум яхши	мақол	Узоқдаги куйруқдан яқиндаги ўпка яхши
Ҳар тонгнинг бир шоми бўлади	мақол	Ҳар мева ўз вақтида пишади

Аллюзив номлар қатнашган матнни тушунишнинг энг муҳим шarti – ўқувчи билимларининг даражасидир. Аллюзив ном матн яратувчининг нечоғлик чуқур билим соҳиби эканлигини кўрсатиши билан бирга ўқувчи билимлари синаладиган кенг “майдон” ҳамдир. Образли қилиб айтганда, аллюзив ном матндаги яширин мазмунга олиб кирувчи эшик бўлса, ўқувчининг билими бу эшикни очиб берувчи очқичдир. Вертикал контекст назариясига кўра, аллюзив ном икки турдаги, яъни филологик ва ижтимоий-тарихий фактларга ишора қилади. Бу фактлардан беҳабар бўлиш, аллюзив факт қанчалик машхур бўлмасин, матнда ифодаланган мазмунни, унинг ғоявий-эстетик моҳиятини тушунмасликка олиб келади.

Хулоса. Юқорида айтилганидек, бадиий матнлар аксарият ўринларда филологик, ижтимоий-тарихий ва маданий фактлар ҳақидаги ахборотни ўзида сақлайди. У бу каби аккумулятив хусусияти билан лингвокультурологик жиҳатни намоён этади. Чет эл халқларининг адабий-бадиий асарларида қўлланган аллюзив номлар маълум маънода ўша халқ томонидан эгалланган маданият ва интеллект ҳақида тасаввур бера олади. Лингвомаданий бирликларни адабиёт дарсларида мунтазам тарзда чуқур таҳлил этиб бориш, изоҳлаш ва тавсифлаш таълим самарадорлиги ва сифатини ҳар томонлама оширишга асос бўлиб хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Гудков Д.П. Теория и практика межкультурной коммуникации. – М.: Гнозис, 2003. -124 с.
2. Жўраев Л. Шахсга йўналтирилган таълим нима? // Тил ва адабиёт таълими, 2013. -№ 2. –Б.

3. Калинин М.В. От литературной ономастики к поэтонимологии // Логос ономастики. -2006. -№ 1. – С. 84-87.
4. Кун Н.А. Қадимги Юнонистон афсона ва ривоятлари. –Т.: Ўзбекистон, 2013. –498-б.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология. –М.: Academia, 2001. -215 с.
6. Машкова Л.А. Аллюзивность как категория вертикального контекста // Вестник МГУ. Серия 9. Филология. –№ 2. –1989. –С. 25–33.
7. Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013.
8. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: Янги аср авлоди, 2006.
9. Qosimov B. va boshqalar. Adabiyot-5. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. -Т.: Ma’naviyat, 2003.

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH

BA’ZI MASALALARNI YECHISHDA ARIFMETIK VA GEOMETRIK PROGRESSIYANING TADBIQLARI

*Abdullayeva Muhayyoxon Abduvohid qizi,
Buxoro davlat universiteti
Matematik analiz kafedrası o‘qituvchisi
<https://orcid.org/0000-0003-0674-5532>
abdullayevamuhayyo9598@gmail.com*

Usbu maqolada progressiyalar haqidagi tushunchalar kengaytirilgan bo‘lib, arifmetik, geometrik va cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyalarga oid masalalarni yechish usullari o‘rganilgan. Bu usullarni turli masalalarni yechishga tadbiq qilish orqali, uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ayrim masalalarni arifmetik va geometrik progressiya yordamida yechishga oid misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sonli ketma-ketliklar, arifmetik progressiya, geometrik progressiya, cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya, hisoblashga oid masalalar.

ПРИМЕНЕНИЕ АРИФМЕТИЧЕСКОЙ И ГЕОМЕТРИЧЕСКОЙ ПРОГРЕССИИ ПРИ РЕШЕНИИ НЕКОТОРЫХ ЗАДАЧ

В данной статье расширены понятия о прогрессиях и исследованы методы решения задач, связанных с арифметическими, геометрическими и бесконечно убывающими геометрическими прогрессиями. Применяя эти методы для решения разных задач, разработаны методические рекомендации. Приведены примеры решения некоторых задач по применению арифметической и геометрической прогрессии.

Ключевые слова: числовые последовательности, арифметическая прогрессия, геометрические прогрессия, бесконечно убывающая геометрическая прогрессия, задачи, относящиеся к вычислениям.

APPLICATION OF ARITHMETIC AND GEOMETRIC PROGRESSION IN SOLVING SOME PROBLEMS

This article expands the concepts of progressions and explores methods for solving problems related to arithmetic, geometric and infinitely decreasing geometric progressions. Using these methods to solve various problems, methodological recommendations have been developed. Examples of solving some problems using arithmetic and geometric progression are given.

Key words: number sequences, arithmetic progression, geometric progression, infinitely decreasing geometric progression, problems related to calculations.

Kirish. Ta’lim tizimining asosiy maqsadi o‘quvchiga chuqur va mukammal bilim berish bo‘lib hisoblanadi. Bunda dars tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qo‘ygan asosiy talablaridan biri ta’limning sinf-dars tizimida o‘quvchilarga fan bo‘yicha chuqur va mazmunli bilim berish, bu borada tashkil etilayotgan ishlarning ahamiyati hamda samaradorligini oshirishdir [1].

Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’lim progressiyalar va ularga doir masalalarni yechish usullarini bilishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Matematikaga qiziqish nimadan boshlanadi? Yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda ahamiyati kam bo‘lmagan bu savol xoh uyda bo‘lsin, xoh maktabda, ta’lim va tarbiya uchun dolzarbdir. Umuman, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchi yoshlarga jamiyat va fan-texnika taraqqiyotining talablariga javob beradigan ma’lumot berish, fan asoslarini chuqur va mustahkam o‘rgatish, ularni o‘z bilimlarini uzluksiz takomillashtirishga intiladigan va mustaqil ravishda to‘ldira boradigan hamda amaliyotda qo‘llay oladigan kadrlarni tarbiyalashdir. Bu tarbiya sinf-dars tizimi mashg‘ulotlarning asosiy mazmunini tashkil etmog‘i lozimdir [2]. Matematikani o‘qitishda progressiya va uning xossalari hamda ularga doir masalalarni yechish usullarini bilish, tassavur qila olish, uni mohiyat jihatidan tushunish va amalda qo‘llay olish katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xususiyatlarini o‘rganish

va metodikasini ishlab chiqish hamda uni ifodalash usullarini ko‘rsatib berish zaruriy talablardan biri bo‘lib hisoblanadi [5].

Elementar matematikaga tegishli ko‘plab sondagi progressiyalarga doir misol va masalalar borki, ularni amaliy masalalar yechishdagi ahamiyati juda katta. Shuning uchun maktab o‘quvchilariga bunday tipdagi masalalarni chuqur o‘rgatish, turli masalalarni yechishda progressiya va ularni xossalardan foydalanish usullarini o‘rgatish dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun esa ayrim masalalarni yechishda progressiyalarni tadbiq etish metodlarini ishlab chiqish, zarur tavsiyalar berish talab etiladi [3].

Asosiy qism. Arifmetik va geometrik progressiya masalalarida arifmetik, geometrik va cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyalarning istalgan hadini yoki hadlari yig‘indisini hisoblash talab qilinadi. Yana shunday hisoblash masalalari borki, ularni progressiya xossalardan foydalanmasdan turib hisoblash anchagina qiyinchilik keltirib chiqaradi [3].

Masalan, quyidagi misollarni ko‘raylik:

1-misol. $a = 0, (15) = 0,151515\dots$ cheksiz o‘nli davriy kasrni oddiy kasr shaklida yozing.

Yechish: Ushbu masala hisoblashga oid masala bo‘lib, uni hisoblash uchun cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya xossalari va formulalaridan foydalanamiz. Berilgan cheksiz kasr taqribiy qiymatlarining quyidagi ketma-ketligini tuzamiz:

$$\begin{aligned} a_1 &= 0,15 = \frac{15}{100} \\ a_2 &= 0,1515 = \frac{15}{100} + \frac{15}{100^2} \\ a_3 &= 0,151515 = \frac{15}{100} + \frac{15}{100^2} + \frac{15}{100^3} \\ a_3 &= 0,15151515 = \frac{15}{100} + \frac{15}{100^2} + \frac{15}{100^3} + \frac{15}{100^4} \end{aligned}$$

Taqribiy qiymatlarni bunday yozish berilgan davriy kasrni cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya yig‘indisi shaklida tasvirlash mumkinligini ko‘rsatadi:

$$a = \frac{15}{100} + \frac{15}{100^2} + \frac{15}{100^3} + \frac{15}{100^4} + \dots$$

bu yerda $b_1 = \frac{15}{100}$, $q = \frac{1}{100}$. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya yig‘indisini topish formulasiga ko‘ra:

$$a = \frac{\frac{15}{100}}{1 - \frac{1}{100}} = \frac{15}{99} = \frac{5}{33}$$

bo‘ladi.

Javob: $a = \frac{5}{33}$

2-misol. 1 dan 100 gacha bo‘lgan 3 ga karrali sonlar yig‘indisini toping.

Yechish: Bu misolni yechish uchun avval 1 dan 100 gacha bo‘lgan 3 ga karrali bo‘lgan sonlarni yozib chiqamiz:

3, 6, 9, 12, 15, ..., 99.

Ma’lumki, bu sonli ketma-ketlik arifmetik progressiyani tashkil qiladi.

Bu progressiyada $a_1 = 3$, $a_n = 99$, $d = 3$.

$$3 + 6 + 9 + 12 + 15 + \dots + 99$$

yig‘indini hisoblash uchun arifmetik progressiyaning n - hadi formulasi

$$a_n = a_1 + (n - 1)d$$

dan foydalanib, n ni topamiz:

$$99 = 3 + (n - 1)3$$

$$99 = 3 + 3n - 3$$

$$99 = 3n$$

$$n = 33.$$

Demak, arifmetik progressiyaning 33 ta hadi bor ekan. Endi arifmetik progressiyaning n ta hadi yig‘indisi formulasi

$$S_n = \frac{a_1 + a_n}{2} \cdot n$$

dan foydalanib, S_{33} ni topamiz:

$$S_{33} = \frac{3 + 99}{2} \cdot 33 = 51 \cdot 33 = 1683.$$

Demak, 1 dan 100 gacha bo‘lgan 3 ga karrali sonlar yig‘indisi 33 ga teng ekan.

Javob: $S_{33} = 1683$

3-misol. Quyidagi yig‘indini hisoblang:

$$1 + 11 + 111 + \dots + 111\dots 1$$

Oxirgi qo‘shiluvchi n xonali raqam.

Yechish: Izlanayotgan yig‘indini S_n orqali belgilaymiz. Yig‘indining har bir qo‘shiluvchisini geometrik progressiya yig‘indisini topish formulasiga ko‘ra shakl almashtirib yozamiz:

$$11 = 1 + 10 = \frac{10^2 - 1}{9}$$

$$111 = 1 + 10 + 100 = \frac{10^3 - 1}{9}$$

$$111\dots 1 = 1 + 10 + 100 + \dots + 10^{n-1} = \frac{10^n - 1}{9}$$

$1 = \frac{10-1}{9}$ ni hisobga olib tenglikning o‘ng qismlarini qo‘shib

$$S_n = \frac{1}{9}(10 + 10^2 + \dots + 10^n - n) = \frac{1}{9}\left(\frac{10^{n+1} - 10}{9} - n\right)$$

ni hosil qilamiz.

$$\text{Javob: } S_n = \frac{1}{9}\left(\frac{10^{n+1} - 10}{9} - n\right)$$

4- misol. $x_1, x_2, x_3, \dots, x_n$ sonlar arifmetik progressiya tashkil qiladi. Agar

$$x_1 + x_2 + x_3 + \dots + x_n = a_1$$

$$x_1^2 + x_2^2 + x_3^2 + \dots + x_n^2 = b^2$$

bo‘lsa, bu progressiyani toping.

Ko‘rsatma: Bu masalada

$$1^2 + 2^2 + 3^2 + \dots + n^2 = \frac{n(n+1)(2n+1)}{6}$$

tenglikdan foydalanamiz.

Yechish: d-arifmetik progressiya ayirmasi bo‘lsin.

$$b^2 = x_1^2 + (x_1^2 + d) + \dots + [x_1^2 + (n-1)d]^2 =$$

$$nx_1^2 + 2x_1d[1 + 2 + \dots + (n-1)] + d^2[1^2 + 2^2 + \dots + (n-1)^2] =$$

$$= nx_1^2 + n(n-1)x_1d + \frac{n(n-1)(2n-1)}{6}d^2$$

bundan tashqari

$$a = nx_1 + \frac{n(n-1)}{2}d$$

Bu tenglamalardan x_1 ni topib va tenglab, shakl almashtirishlar bajarib

$$d^2 \frac{n(n^2-1)}{12} = b^2 - \frac{a^2}{n}$$

ni hosil qilamiz.

Bundan

$$d = \pm \sqrt{\frac{12(nb^2 - a^2)}{n^2(n^2 - 1)}}, \quad x_1 = \frac{1}{n} \left[a - \frac{n(n-1)}{2}d \right]$$

Demak, $n^2b^2 - a^2 \neq 0$ shart 2 ta progressiyani qanoatlantiradi.

5-misol. Yig‘indini hisoblang:

$$1 + 2x + 3x^2 + 4x^3 \dots + (n+1)x^n$$

Yechish: Berilgan yig‘indini S deb belgilaymiz. Yig‘indining har bir qo‘shiluvchisini x ga ko‘paytiramiz va hosil bo‘lgan kattalikni S_n dan ayiramiz.

Natijada,

$$S_n - xS_n = 1 + x + x^2 + \dots + x^n - (n+1)x^{n+1}$$

$$(1-x)S_n = \frac{1-x^{n+1}}{1-x} - (n+1)x^{n+1}$$

Bundan

$$S_n = \frac{1 - x^{n+1}}{(1-x)^2} - \frac{(n+1)x^{n+1}}{1-x} \quad (x \neq 1)$$

$$x = 1 \text{ da } S_n = \frac{(n+1)(n+2)}{2}$$

ni hosil qilamiz.

6-misol. Agar a, b va c lar geometrik progressiyaning ketma-ket hadlari, $a, b+2$ va c lar arifmetik progressiya hadlari, $a, b+2, c+9$ lar geometrik progressiya tashkil qilsa, a, b va c larni toping.

Yechish: Arifmetik va geometrik progressiya xossalarini qo‘llab,

$$\begin{cases} b^2 = ac \\ 2(b+2) = a+c \\ (b+2)^2 = a(c+9) \end{cases}$$

sistemani hosil qilamiz.

Sistemani yechib,

$$\begin{aligned} a = 4, b = 8, c = 16 \text{ yoki} \\ a = \frac{4}{25}, b = -\frac{16}{25} \text{ va } c = \frac{64}{25} \end{aligned}$$

ni hosil qilamiz.

7- misol. Tomonlari uzunliklari geometrik progressiya, ichki burchaklari arifmetik progressiya tashkil qiluvchi uchburchakning turini aniqlang.

Yechish. α, β, γ lar uchburchakning ichki burchaklari, a, b va c lar mos ravishda bu burchaklar qarshisidagi tomonlar bo‘lsin.

$$\alpha + \beta + \gamma = 180^\circ \text{ va } \alpha = \beta - d, \gamma = \beta + d$$

d arifmetik progressiya ayirmasi.

$$\begin{aligned} \beta - d + \beta + \beta + d = 180^\circ \\ \beta = 60^\circ \end{aligned}$$

Kosinuslar teoremasiga ko‘ra,

$$\begin{aligned} b^2 = a^2 + c^2 - 2ac \cos \beta \\ b^2 = ac \text{ va } \cos \beta = \frac{1}{2} \end{aligned}$$

Natijada $a^2 - 2ac + c^2 = 0$ yoki $(a - c)^2 = 0$ va $a = c$

Natijada uchidagi burchagi 60° va yon tomonlari teng bo‘lgan uchburchak hosil qilamiz. Bu muntazam uchburchakdir.

8-misol. Bir paytda arifmetik va geometrik progressiya bo‘ladigan progressiyalarni toping.

Yechish.

$a_1, a_2, \dots, a_n, \dots$ arifmetik va geometrik progressiya bo‘lsin. Bunda $2a_{k+2} = a_{k+1} + a_{k+3}$ yoki

$$\begin{aligned} 2a_1 q^{k+2} = a_1 q^k + a_1 q^{k+2} \text{ yoki} \\ a_1 q^k - 2a_1 q^{k+1} + a_1 q^{k+2} = 0 \end{aligned}$$

bundan $a_1 q^k(1 - 2q + q^2) = 0$, $a_1 q^k(1 - q)^2 = 0$

Natijada $a_1 q \neq 0, q = 1$.

Izlanayotgan progressiya quyidagi ketma-ketlik ko‘rinishida bo‘ladi:

$$a_1, a_1, \dots, a_1, \dots, d = 0, q = 1$$

Agar $a = 0$ bo‘lsa $0, 0, \dots, 0, \dots$ ($d = 0, q \in R$) agar $q = 0, a \neq 0$ bo‘lsa

yechim mavjud emas.

9-misol. Yig‘indini hisoblang:

$$(2 + \frac{1}{2})^2 + (4 + \frac{1}{4})^2 + \dots + (2^n + \frac{1}{2^n})^2$$

Yechish:


$$\begin{aligned} (2 + \frac{1}{2})^2 + (4 + \frac{1}{4})^2 + \dots + (2^n + \frac{1}{2^n})^2 &= 4 + 2 + \frac{1}{4} + 16 + 2 + \frac{1}{16} + \dots + 2^{2n} + 2 + \frac{1}{2^n} = \\ &= (4 + 16 + \dots + 4^n) + \underbrace{(2 + 2 + \dots + 2)}_{nmarta} + (\frac{1}{4} + \frac{1}{16} + \dots + \frac{1}{2^{2n}}) = \end{aligned}$$

$$= (4 + 4^2 + 4^3 + \dots + 4^n) + 2n + \left(\frac{1}{4} + \frac{1}{4^2} + \dots + \frac{1}{4^n}\right)$$

Birinchi qavs $b_1 = 4$ va $q=4$ bo‘lgan geometrik progressiya, ikkinchi qavs $b_1 = \frac{1}{4}$ va $q = \frac{1}{4}$ bo‘lgan geometrik progressiyani tashkil qiladi:

$$\begin{aligned} (4 + 4^2 + 4^3 + \dots + 4^n) + 2n + \left(\frac{1}{4} + \frac{1}{4^2} + \dots + \frac{1}{4^n}\right) &= \frac{4 - 4 \cdot 4^n}{1 - 4} + \frac{\frac{1}{4} - \frac{1}{4} \cdot \frac{1}{4^n}}{1 - \frac{1}{4}} + 2n = \\ &= \frac{4(4^n - 1)}{3} + \frac{4^n - 1}{3 \cdot 4^n} + 2n = \frac{(4^n - 1)(4^{n+1} + 1)}{3 \cdot 4^n} \end{aligned}$$

10-misol. Quvurlar rasmdagidek ustma-ust qo‘yilgan. Agar taxlamning asosida 11 ta quvur bo‘lsa, taxlamda nechta quvur bor?



1-chizma

Yechish: Quvurlar soni tepadan hisoblaganda 1 tadan ortib boradi. Demak, ular arifmetik progressiya tashkil qiladi:

$$1, 2, 3, \dots, 11$$

Jami quvurlar sonini topish uchun progressiya hadlari yig‘indisini topish kifoya.

$$S_n = \frac{a_1 + a_n}{2} n$$

formuladan

$$S_{11} = \frac{a_1 + a_{11}}{2} 11 = \frac{1 + 11}{2} 11 = 66$$

kelib chiqadi.

Javob: $S_{11} = 66$

12-misol. Agar $\sin \alpha, \sin 2\alpha, \sin 3\alpha (0 < \alpha < \pi)$ lar arifmetik progressiya tashkil etsa, α ning qiymatini aniqlang.

Yechish: arifmetik progressiyaning asosiy xossasiga ko‘ra:

$$2 \sin 2\alpha = \sin \alpha + \sin 3\alpha$$

$$2 \sin 2\alpha = 2 \sin 2\alpha \cdot \cos \alpha$$

$$2 \sin 2\alpha (1 - \cos \alpha) = 1$$

$$1) \sin 2\alpha = 0 \rightarrow \alpha = \frac{\pi n}{2}$$

$$2) (1 - \cos \alpha) = 0 \rightarrow \cos \alpha = 1 \rightarrow \alpha = 2\pi n$$

2 ta yechimlar to‘plami kelib chiqadi. Masala shartidagi oraliqni hisobga olib faqatgina $\frac{\pi}{2}$ yechimni olamiz.

Javob: $\alpha = \frac{\pi}{2}$.

Xulosa. Ushbu maqolada progressiyalar va ularning xossalari hamda ularni turli masalalar, jumladan, hisoblashga va isbotlashga doir masalalar yechimida progressiyalarning o‘rni va tadbirlari yoritib o‘tildi. Hamda mazmuniga ko‘ra, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim matematika kursida progressiyalarni o‘qitish va uning tadbiriqiga doir masalalar yechish uslubiyotini yoritib berishdan iborat bo‘ldi [4].

Adabiyotlar:

1. Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent: -2003 y., 300- b
2. To'laganov T. Matematika o'qitish metodikasi (ma'ruzalar to'plami), TDPU, 2001 y.
3. Abdullayeva M., Rasulov T., Hamdamov Z. Trigonometrik tenglamalarni yechishda arifmetik progressiya xossalarning qo'llanilishi “Pedagogik mahorat”, 2020 yil, 4-son, 177-181 betlar.
4. Sayliyeva G.R., Diskret matematika va matematik mantiq fanida bul funksiyalarni jegalkin ko'phadlariga yoyish mavzusini mustahkamlashda «matematik domino» metodidan foydalanish, Scientific progress, 2(2), 2021 yil, 773-780 betlar.
5. Жўраева Н.О. Математика дарсларини ўтишда ноанъанавий ўйинлардан фойдаланиш. Педагогик махорат. Илмий назарий ва методик тўплам. Бухоро, «Садриддин Салим Бухорий», 2019 йил, 136-бет.

FIZIKA YO‘NALISHI TALABALARIGA LOYIHA ISHLARINI BAJARTIRISH ORQALI KREATIV FIKRLASHLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Ismanova Odinaxon To‘lqinboevna,
Namangan davlat universiteti dotsenti
ismanovaodina79@gmail.com

Maqolada oliy ta‘limni fizika yo‘nalishida tahsil oladigan talabalarda kreativlikni samarali shakllanishi va rivojlanishi uchun talabaning o‘quv faoliyat turlari tahlil qilingan. Bundan tashqari oliy ta‘limning fizika yo‘nalishi talabalarida kreativlik xususiyatlarini rivojlantirishda loyihalash faoliyatining ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Loyihalash faoliyatining kreativlikni rivojlanishida samaradorlik yuqori bo‘lishi uchun yaratilishi kerak bo‘lgan pedagogik-psixologik shart-sharoitlar va omillar asoslangan. Bundan tashqari qanday loyihalash turidan foydalanilsa fizika yo‘nalishi talabalarini kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish samarali natijalar berishi asoslab berilgan. Fizikadan amaliy mashg‘ulotlarda, ya‘ni masala ishlash darslarida qanday turdagi masalalardan foydalanilsa talabada loyiha tuzish ko‘nikmasi shakllanishi to‘g‘risida fikrlar yuritilgan. Bunday ko‘nikmalarni shakllantirib va rivojlantirish uchun talabalarga amaliy mashg‘ulotlarda fizikaviy topshiriq va baholashga oid masalalardan ko‘proq foydalanish tavsiya qilingan.

Kalit so‘zlar: oliy ta‘lim, texnologiya, kreativlik, mutaxassis, ta‘lim, talaba, fizika, loyiha, informatsion, pedagogik sharoit, tadqiqot, fikr, masala.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ ФИЗИКИ ПОСРЕДСТВОМ ВЫПОЛНЕНИЯ ПРОЕКТНЫХ РАБОТ

В статье анализируются виды учебной деятельности студентов для эффективного формирования и развития творческих способностей студентов, получающих высшее образование по направлению физики. Кроме того, показано значение проектной деятельности в развитии творческих способностей студентов-физиков высших учебных заведений. В основу положены педагогико-психологические условия и факторы, которые необходимо создать для высокой эффективности развития творческой деятельности. Кроме того, обосновано, что используемый тип конструкции даст эффективные результаты в развитии творческих способностей студентов-физиков. Какие типы задач используются на практических занятиях по физике, т. е. на занятиях по решению задач, речь идёт о формировании умений учащихся создавать проекты. Для формирования и развития таких навыков студентам было рекомендовано использовать больше физических заданий и оценочных вопросов на практических занятиях.

Ключевые слова: высшее образование, технология, творчество, специалист, образование, студент, физика, проект, информационные, педагогические условия, исследование, мнение, проблема.

METHODS OF DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING OF PHYSICS STUDENTS BY MEANS OF PROJECT WORKS EXECUTION

The article analyses the types of educational activities of students for the effective formation and development of creative abilities of students receiving higher education in the direction of physics. In addition, the importance of project activities in the development of creative abilities of physics students of higher educational institutions is shown. The basis is the pedagogical and psychological conditions and factors that need to be created for high efficiency in the development of creative activity. In addition, it is substantiated that the type of design used will give effective results in developing the creative abilities of physics students. What types of problems are used in practical classes in physics, i.e. in classes on problem solving, we are talking about developing students' skills in creating projects. To form and develop such skills, students were recommended to use more physical tasks and assessment questions in practical classes.

Key words: higher education, technology, creativity, specialist, education, student, physics, project, information, pedagogical conditions, research, opinion, problem.

Kirish. Fan texnologiyalarini shiddat bilan rivojlanishi yangi zamonaviy mutaxassisliklarining paydo bo'lishini taqazo qilmoqda. Bunday sharoitga inson moslashishi va yangi mutaxassislikni tez o'zlashtirib yangi yutuqlarga erishishi uchun asosiy omillardan biri sifatida uning kreativlik xususiyati katta ahamiyat kasb etishi so'nggi yillarda olib borilgan pedagogik tajribalarda va hayotda o'z tasdig'ini topmoqda. Chunki kreativ sifatlariga ega bo'lgan mutaxassis mantiqiy fikrlash qobiliyatiga, boy tasavvurga, o'z ijodkorligini to'la-to'kis namoyish etishga, tafakkur tezligiga, o'ziga xos original g'oyalarni ilgari sura olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bunday qobiliyatga egalik esa mavjud tajriba va bilimlar asosida muammoli vaziyatda tezda yangi qarorlarni qabul qilish malakasini hosil qiladi [1].

Shuning uchun ta'lim sistemasining, shuningdek, oliy ta'lim sistemasining asosiy zamonaviy kontseptsiyasi sifatida o'quvchi va talabalarda fundamental bilimlar asosidagi kreativlikni rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki kreativlik xususiyatiga ega mutaxassis yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari o'z sohasi va unga turdosh bo'lgan sohalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yoki yuzaga kelgan muammolarni, ularni hal qilish uchun mavjud bilimlarni kamchiligini va ular ichidagi ziddiyatli holatlarni juda tez sezish bilan ham ajralib turadi. Shu bilan birgalikda bunday shaxslarda turli yechimlar ichidan eng optimal variantini ajratib olish, yangi bilimlarni tez o'zlashtirish va boshqa sohaga tez moslashuvchanlik hususiyatlari shakllangan bo'ladi.

Asosiy qism. Yuqorida sanab o'tilgan sifatlariga ega mutaxassisni tarbiyalashda an'anaviy ta'lim shaklini o'zi hozirda yetarli bo'lmay qoldi, chunki a'anaviy ta'lim shakli, asosan, ma'lumotlarni eslab qolishi va faktlarni to'plashga asoslangan edi.

Ko'plab fanlar qatori fizika fanida ham oliy ta'lim muassasalarida talabalarga ma'ruza mashg'ulotlarida ma'lumotlar, ya'ni yangi bilimlar berib amaliy mashg'ulotlarda ushbu bilimlar, asosan, mustahkamlanganligi uchun talabalarda asosan formal bilim qaror topadi.

Shuning uchun bunday an'anaviy ta'lim talabalarning kreativligi rivojlanishiga katta turtki bermagan. Pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan talabaning kreativligini rivojlanishi individual hisoblanadi, ammo kreativlik maxsus tashkil qilingan muhitda tez rivojlanib mustahkam asosga ega bo'ladi. Ya'ni kreativlikni shakllanishi va rivojlanishiga ijtimoiy-pedagogik omillar ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchi va talabalarda fizika darslarida kreativlik va ijodiylikni rivojlantirishga oid olib borilgan pedagogik ilmiy tadqiqotlarda, asosan, amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladigan masalalarni turli usullar bilan yoki nostandart masalalar ishlash, turli laboratoriya mashg'ulotlari bajarish orqali kreativlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan va albatta, buning natijasida bir qator ijobiy natijalarga erishilgan [2,3]. Ammo ta'limga bu kabi yondashuv talabaning tom ma'noda kreativ shaxs bo'lib shakllanishiga olib kelmaydi, chunki ushbu holda shakllangan kreativlik namoyon bo'lishi uchun lokal holat zarur bo'lib maxsus sharoitlar yaratilishini taqozo qiladi. Ya'ni oliy ta'limdagi nazorat ishlari, kirish yoki bitiruv imtihonlari va olimpiadalarda talabalarga taklif qilingan fizik masala va topshiriqlarni hal qilishda kreativlik namoyon bo'lishi ta'minlanadi, ammo kreativ fikrlash kunlik ehtiyojga deyarli aylanmaydi. Bunday holda talaba kreativlikni namoyon bo'lishi uchun, albatta, tashqi ta'sirga ehtiyoj sezadi, chunki yuqorida sanab o'tilgan holatda talabaga berilgan topshiriq tashqi ta'sir vazifasini bajaradi, lekin muommoni hal etishi uchun turli usullardan foydalanadi va olingan natijani tahlil qiladi, ya'ni kreativlikni qandaydir shaklda namoyon qiladi. Kreativlik kundalik ehtiyojga aylanishi uchun esa mutaxassisda atrofimizda sodir bo'ladigan jarayonlarni sezgirlik bilan kuzatishi, uning ichidagi muammo yoki qarama-qarshilikni tez seza olishi, ushbu asosda masala qo'yish va uni hal qilish kabi ko'nikmalar shakllanganligi asosiy ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim fizika bakalavr yo'nalishida umumiy va nazariy fizika kurslarida olib borilayotgan mashg'ulotlarda ham, asosan, o'quv qo'llanma va darsliklarda keltirilgan masala, fizik topshiriq yoki laboratoriya ishlaridan foydalaniladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ta'limning bu shaklda olib borilishi shaxsning kreativligini to'la shakllantirmaydi.

Ma'lumki, shaxs shakllanishi uchun obyektiv va subyektiv psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi obyektiv sharoitlarni yaratish, ya'ni fizikadan auditoriyada va undan tashqaridagi mashg'ulotlarda talabalarni mustaqil izlanishini, jarayonlarni ko'z oldiga keltira olishi, muammoni to'g'ri qo'ya bilishda o'ziga bo'lgan ishonchni orttirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Agarda yuqoridagi xususiyatlarni rivojlantirish fizikadan dars mashg'ulotlarida tizimli ravishda olib borilsa kreativlik kundalik ehtiyojga aylanadi. Oliy talimda hozirgi paytda auditoriya mashg'ulotlari soati qisqarib, asosiy mashg'ulot talabalarning mustaqil ta'lim olishiga ajratilgan. Agarda mustaqil ta'lim tizimli ravishda aniq bir maqsadga yo'naltirilsa samarali natijaga erishish imkoniyati yuqori bo'ladi. Shuning uchun asosiy e'tiborni talabalarni mustaqil izlanishiga qaratish lozim, chunki ushbu holatda talaba muammoni o'zi topadi, masala qoyadi, yechim topadi va yechim to'g'riligini tahlil qiladi. An'anaviy amaliy mashg'ulotlarda talaba to'la mustaqil holda faoliyat yuritmasdan, balki tayyor qo'yilgan muammoni hal qiladi. Kreativlik xususiyati talab drajasida rivojlantirish uchun tizimli ravishda ko'p vaqt shug'ullanish zarur, ammo amaliy

mashg'ulotlar uchun ajratilgan auditoriya soatlari juda chegaralangan. Shuni hisobga oladigan bo'lsak, talabalarining mustaqil ta'limi uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tahlillar, o'rganishlar va ko'p yillik pedagogik tajriba natijalariga ko'ra talaba yoki o'quvchilarni faoliyat turlaridan biri bo'lgan loyihalash faoliyatini mustaqil ta'limda tashkil etish kreativlikni rivojlantirish uchun qo'yiladigan shartlarga deyarli javob beradi.

Bundan tashqari loyihalash faoliyatini yana bir e'tiborga molik tomoni talabalar guruh bo'lib ishlashni, o'z fikrini to'g'riligini isbotlashni va o'zaro fikrlashda yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlarga yechim topishni o'rganadi, ularni ijtimoiylashuviga ham maqbul sharoit yaratiladi.

Bundan tashqari talabalarda loyihalash faoliyatlari orqali ularning kreativligini rivojlantirishga quyida berilgan kreativlikni ta'rifini asos qilib olishimiz mumkin. “Kreativlik-bu birinchi navbatda insonni turli g'oyalarni loyihalashi uchun umum qabul qilingan usul va yo'llardan bormasdan qo'yilgan muammoni nostandart yechimini topishidir” [1].

Ma'mumki, deyarli barcha barcha pedagogik eksperimentlarni o'tkazish uchun qandaydir shart-sharoitlar yaratilishi zarur. Xuddi shunga ko'ra, loyihalash yordamida talabalarda kreativlikni yanada rivojlantirish uchun yaratiladigan zaruriy yetarli psixologik-pedagogik shart-sharoitlar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Talabalarga yaratilishi zarur bo'lgan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni aniqlab olishda loyihalash nima, fizikadan mashg'ulotlarda qanday loyihalardan foydalanish samaraliroq hisoblanadi, degan savolga atroflicha asoslangan javob axtarish zarur deb hisoblaymiz.

Loyihalash faoliyatining asosiy tushunchalari va turlari. Adabiyotlarda keltirilishicha, loyihalash-bu tavsif shaklida mujassamlangan reja, g'oya va tasavvur bo'lib, ularni mohiyatini ochib boruvchi chizma-grafiklar, hisoblashlarni asoslash va amaliy yoki nazariy natijalar olish imkoniyatini yaratishdir. Talabalarni loyiha bajarish faoliyati esa faol ta'lim olish shakli bo'lib, ko'zlangan natijaga erishish maqsadidagi faol ijodiy jarayonlardan biridir.

Bajarilishi kerak bo'lgan ishlar va olinishi kerak bo'lgan natijaga qarab loyihalar bir necha turlarga bo'linadi. Aynan qay bir loyihadan fizika mashg'ulotlarida foydalanishni tanlash uchun fizika fanini o'ziga xos xususiyatlarini va oliy ta'lim muassasalarida qanday maqsad uchun mutaxassis tayyorlanayotganini hisobga olish lozim.

Ma'lumki, fizikani tabiiy-ilmiy fanlar majmuasidagi “aniq fan” deb qarash mumkin, chunki fizikada shakllangan qonun-qoidalar va isbotlar sistemasi o'quvchida o'zining shaxsiy qarashini aniq mantiqiy ketma-ketlikda asoslash qobiliyatini rivojlantiradi. Jadval, grafik, chizma va matndagi ma'lum fizik kattaliklarni tahlil qilish va taqqoslash, ma'lumotlarni qayta ishlash orqali muammoni ochishga yo'l topadi va uni to'g'riligini isbotlaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan o'quvchini faoliyat turlariga ko'ra fizika yo'nalishidagi talabalarga loyihalashni tadqiqotchilik va informatsion turlari bo'yicha faoliyat olib borishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1. Informatsion loyiha-bu maqsadi fan va fanlararo dolzarb mavzular bo'yicha ma'lumotlar to'plash va ularni tahlil qilib qandaydir xulosalar chiqarishdan iborat loyihadir.

2. Tadqiqotchilik loyihasi – qandaydir gipotezani to'g'riligini isbotlashga yoki noto'g'ri ekanini ko'rsatishga, biror bir fizik jarayonni kam o'rganilgan jihatini o'rganib uni tavsiflovchi fizik parametrlarni o'zaro bog'lanishini analitik, sonli usulda yoki grafiklar yordamida ko'rsatib berishga va mohiyatini ochib berishga qaratilgan loyiha bo'lib, amaliy ahamiyat ham kasb etishi mumkin.

Talabalarda loyihalash va loyihani bajarish kabi faoliyat turlarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka erishish uchun loyihalar mazmunidan kelib chiqib avval talabalarga informatsion loyihalar so'ngra esa tadqiqotchilik loyihalari ustida ish olib borishlari tavsiya qilinadi. Buning asosiy sabablaridan biri har qanday tadqiqotchilik loyihasida ham avval biror bir mavzu bo'yicha qandaydir ilmiy muammoni o'rganilganlik darajasiga oid mavjud ma'lumotlar, ya'ni ilmiy maqolalar, monografiyalar va internetdan olingan turli ma'lumotlar tahlil qilinadi, so'ngra taqqoslashlar natijasida biror sohadagi kam e'tibor qaratilgan fizik jarayon yoki ziddiyatli fikrlar ko'rsatiladi. Ilmiy loyihada esa tahlillar asosida muammo aniqlanib u asosida masala qo'yiladi va uni yechish uchun ilmiy tadqiqotlar olib boriladi.

Biror bir mavzu doirasida ilmiy muammo topish uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu mavzuga oid turli ilmiy jurnallarda, adabiyotlarda e'lon qilingan ilmiy maqolalar yig'iladi va to'plangan ma'lumotlar tahlil qilib chiqiladi, ya'ni go'yoki informatsion loyiha bajariladi, ya'ni informatsion loyiha tadqiqotchilik loyihasini tarkibiy qismi hisoblanadi. Ma'lumki, loyiha asosan bir necha kishidan iborat guruh tomonidan bajariladi, shuning uchun loyiha bajarish uchun guruhlar tashkil etilganda, albatta, har bir guruhga fanni yaxshi biladigan va divergent fikrlaydigan bir-ikki nafar talabalar birlashtirilishi zarur, chunki bunday talabalarda muammoni yoki masalani bir necha usulda yechish ko'nikmalari shakllangan bo'ladi.

Talabalarni samarali loyihaviy faoliyat olib borishlari va ushbu jarayon davomida kreativlik hususiyatlarini yanada rivojlantirishlariga omil bo'ladigan zaruriy va yetarli pedagogik shart - sharoitlar yaratilishi zarur, ushbu shart-sharoitlarni yaratishda fizikadan bajariladigan loyihalarni o'ziga xosligiga e'tibor qaratish lozim. Ijodiy yoki sotsial-ijtimoiy loyihalardan farqli ravishda fizikadan informatsion yoki tadqiqotchilik loyihalarini bajarishi uchun talaba fizik bilimlarga ega bo'lishi va ularni qo'llay olishi, biror bir muammoni va uni yechimini ilmiy tilda mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish, murakkab matematik apparatdan foydalangan holda hisob-kitob ishlarini olib borish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Ushbu holatga tayyorlash uchun talabalar bilan quyidagi ishlarni olib borish lozim.

Fizikadan amaliy mashg'ulotlarda, ya'ni masala ishlash darslarida fizik jarayonni matematik modelini tuzish, differentsal va integral hisobni qo'llay olish, taqribiy hisoblash formulalaridan va funksiyalarni qatorlarga yoyilmasidan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim. Chunki bunday amallarni tizimli ravishda bajarish davomida fizikaga matematik apparatni qo'llash ko'nikmasi talabalarda yanada rivojlanadi. Buning uchun amaliy mashg'ulotlarga masala tanlashda internet ma'lumotlaridan va turli masalalar to'plamidan foydalanish zarur. Bizningcha, A.Chertov tahriri ostida nashr qilingan masalalar to'plamini foydalanish uchun asos qilib olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi [4].

Amaliy mashg'ulotlarda ishlanadigan fizik masalalarda, asosan, muammo aniq bo'lib turli usullar yordamida berilgan javobga to'g'ri keladigan yechim topiladi, ammo bu bosqichda talabalarda muammo qo'yish va olingan yechimni to'g'ri yoki noto'g'riligini tahlil qilish ko'nikmalari deyarli rivojlanmaydi. Bunday ko'nikmalarni shakllantirib va rivojlantirish uchun talabalarga amaliy mashg'ulotlarda fizikaviy topshiriq va baholashga oid masalalardan ko'proq foydalanish tavsiya qilinadi. Masalan, “Havoni qarshilik koeffitsientini aniqlang” yoki “Insonni elektr sig'imini baholang” kabi topshiriqlardan foydalanilganda talaba, avval, masala tuzadi, masala tuzish davomida esa qaysidir fizik jarayon modeli va uni tavsiflovchi kattaliklardan foydalanishni o'rganadi.

Bundan tashqari olingan yechim to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun yoki masalani boshqa bir usul bilan ishlab olingan kattaliklarni taqqoslaydi yoki internetdan olingan ma'lumotlarni izlab topilgan ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rib tahlil qilishni o'rganadi.

Hozirgi paytda ilmiy tadqiqot ishlarida, shuningdek, loyiha bajarishda yuqori samaradorlikka erishish uchun IT texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari an'anaviy usulda masala ishlaganda talabalar, asosan, fizik jarayonni biror vaqt momentidagi yoki biror bir fizik kattalikni cheklangan sondagi qiymatini topish talab qilinadi. Ushbu topilgan qiymatga asoslanib ro'y berishi mumkin bo'lgan fizik hodisa yoki qandaydir bog'lanishlarni real grafigi haqida aniqroq xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Fizik jarayon esa qandaydir vaqt oralig'ida sodir bo'ladi, shuningdek, biron bir fizik parametrlarni o'zgarishi qolgan parametrlarni o'zgarishiga ham olib keladi, ammo biror bir kattalikni vaqt bo'yicha real o'zgarish grafigini olish juda ko'p va murakkab hisob-kitoblarni bajarishni talab qiladi. Bu kabi hisoblashlarni bajarishda kompyuter dasturlaridan foydalanish ancha qulaylik tug'diradi.

Ma'lumki, har qanday loyiha bajarilganda yozma shaklida hisobot topshiriladi, buning uchun esa talaba o'z fikrini aniq mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirishga referat va kurs ishi shaklida talabalarga topshiriq berish va taqdimot shaklida qabul qilib olishga katta e'tibor qaratish zarur.

Talabalarni o'zaro fikr almashinuvini va ilmiy muloqot olib borishini shakllantirish uchun kurs ishi yoki referat uchun tanlangan biror bir mavzuni 2 yoki 3 guruhga bir vaqtda topshiriq sifatida beriladi va talabalar berilgan topshiriqni bajarishda turli adabiyotlardan foydalanishlari talab qilinadi. Buning natijasida guruh talabalari taqdimot paytida ilmiy munozara olib bora olish imkoniyatiga ega bo'lishadi [5,6].

Fizika ham nazariy ham eksperimental fan ekanini hisobga oladigan bo'lsak, eksperimental yo'nalishdagi loyihalarni bajarish uchun talabalar fizik eksperiment va laboratoriya ishlarini bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. Oliy ta'lim muasasalariga fizikadan bajariladigan laboratoriya ishlari uchun tayyor algoritm beriladi, ammo biror bir loyihani amalga oshirishga esa talaba eksperiment bajarish tartibini, kerakli uskuna va hisob-kitoblar foydalaniladigan analitik ifodalarni o'zi izlab topishi kerak. Shuni hisobga olgan holda oliy ta'lim muasasalari va talabalar imkoniyatidan kelib chiqib biror bir fizik kattalikni aniqlashga mo'ljallangan fizik topshiriqlarni talabalar mustaqil bajarishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir loyiha uchun 3-4 nafar talabadan iborat guruhlar tashkil etiladi va loyihani qandaydir muddat ichida bajarishni talab etiladi. Bu esa ishni to'g'ri tashkil etgan holda vaqtdan samarali foydalanishni taqazo qiladi.

Talabalarga bunday ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga loyihalash faoliyatlarini so'nggi bosqichida e'tibor qaratishni rejalashtirish kerak, chunki talabalar tomonidan boshqa ilmiy guruhlar tomonidan bajarilgan loyihani tahlil qilish va o'zlari tomonidan bir necha loyihalarni amalga oshirish jarayonida mehnat va vaqt taqsimoti haqida tushunchalar paydo bo'ladi.

Bizningcha, yuqorida sanab oʻtilgan pedagogik sharoitlarda talabalarning loyihalash faoliyatlarini olib borishlari, loyihada qoʻyilgan muammoni mustaqil va nostandart yoʻllar bilan hal qilishga kreativlikning rivojlantirishi uchun zaruriy shartlar sifatida qarash mumkin, ammo ularni yetarliligini amalga oshiriladigan pedagogik eksperiment natijasining tasdiqlashini keyingi maqolalarda taqdim etamiz.

Adabiyotlar:

1. Ступницкая М.А. Новые педагогические технологии: организация и содержание проектной деятельности учащихся: лекции/ М.А. Ступницкая. - М.: Изд-во Моск. пед. ун-та. - 2009. – 132с.
2. Канн С. Ю. Изучение взаимосвязи креативности общения и креативности мышления студентов Текст. / С. Ю. Канн. Рязань: РГПУ, 1997. -22 с.
3. Рубинштейн С. Л. Принцип творческой самодеятельности // Вопросы психологии. 1986 № 4 С. 101–107.
4. Чертов А.Г., Воробьев А. А. Физикадан масалалар тўплами. Тошкент. “Ўзбекистон”. 1997 й.
5. Болотов, В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе. В.А.Болотов, В.В. Сериков// Педагогика. – 2003 - № 10.
6. Дубровина О. С. Использование проектных технологий в формировании общих и профессиональных компетенций обучающихся. Проблемы и перспективы развития образования (ИИ): материалы междунар. заоч. науч. конф. (г. Пермь, май 2012 г.)/О. С. Дубровина - Пермь: Меркурий, 2012. - 124-126с.

“JEGALKIN KO‘PHADI” MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARNI
QO‘LLASH

*Jumayeva Charos Ilhomjon qizi,
Buxoro davlat universiteti
charosjumayeva2801@gmail.com*

Bugungi kunda ta’lim tizimida kompyuter texnologiyalari va zamonaviy pedagogik usul va metodlardan dars davomida samarali foydalanib, o‘tilayotgan mavzuni yaxshi o‘zlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada diskret matematika va matematik mantiq fanining muhim mavzularidan biri hisoblanuvchi “Jegalkin ko‘phadi” mavzusini talabalarga mazmunli tushuntirishda samarali yondashuvlar va amaliy mashg‘ulot darslarida foydalanish mumkin bo‘lgan interfaol metodlar, ularning afzalligi va kamchiligi haqida fikr yuritilgan. Ayniqsa, bugungi kunda zamon talablaridan biri bo‘lgan kompyuter texnologiyalari va ularga bog‘liq bo‘lgan jihatlarni amaliyotga joriy qilishda xalqaro standartlardan foydalanish keng targ‘ib qilinishi zarurati bor. Bu borada pedagogik usul va metodlarning ilmiy kategoriyalarini ishlab chiqish va ularni ta’lim jarayonlarida samarali qo‘llash borasida ishlarni olib borish katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Jegalkin ko‘phadi, “Charxpalak” metodi, “Uchta to‘g‘ri, bitta noto‘g‘ri” metodi.

APPLICATION OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE TOPIC «JEGALKIN
POLYNOMIAL»

Today, in the educational system, it is of particular importance to master the topic under study, effectively using computer technology and modern pedagogical methods and techniques throughout the lesson. In this article, one of the important topics of discrete mathematics and mathematical logic is the thinking of effective approaches to a meaningful explanation of the subject of the calculating “Jegalkin polynomial” to students and interactive methods that can be used in practical training lessons, their advantage and disadvantage. In particular, there is a need for the widespread promotion of the use of international standards in the practical implementation of computer technologies and related aspects, which are one of the requirements of the times today. In this regard, the importance of the development of scientific categories of pedagogical methods and their effective application in educational processes.

Keywords: The Jegalkin polynomial, method Mill, method “three-true, one-false”.

ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ
«МНОГОЧЛЕН ЖЕГАЛКИНА»

Сегодня в системе образования особое значение приобретает овладение изучаемой темой, эффективное использование в ходе урока компьютерных технологий и современных педагогических методов и приёмов. В данной статье рассматриваются эффективные подходы к содержательному объяснению учащимся темы “Многочлен Жегалкина”, являющейся одной из важнейших тем дисциплины «Дискретная математика и математическая логика», и интерактивные методы, которые могут быть использованы на практических занятиях, их достоинства и недостатки.

Особенно сегодня существует необходимость широкого продвижения использования международных стандартов при внедрении в практику компьютерных технологий и связанных с ними аспектов, что является одним из требований современности. В связи с этим большое значение приобретает работа по разработке научных категорий педагогических методов и приемов и их эффективному применению в образовательных процессах.

Ключевые слова: многочлен Жегалкина, метод “Мельница”, метод “Три правильно, один неправильно”.

Kirish. Bugungi kunda oliy o‘quv yurtlarida talabalarga o‘qitiladigan har bir fanga ilmiy jihatdan chuqur yondashiladi va har bir mavzuni mukammal, eng so‘ngi ma’lumotlar bilan boyitilishiga katta e’tibor qaratilgan. Talabalar o‘tilgan mavzuni yaxshi tushunib, anglab yetishi, mavzuga doir ma’lumotlar uzoq vaqt esda qolishida dars davomida foydalaniladigan zamonaviy pedagogik usul va metodlarning o‘rni beqiyosdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Ta’rif-1: $\sum_{i=1}^{2^n} a_i k_i$ bu yerda $a_i \in E_2$ ko‘rinishidagi ko‘pxadga Jegalkin ko‘phadi deyiladi.

Bu yerda n ta x_1, \dots, x_n o‘zgaruvchilar yordamida inkor amali qatnashmagan barcha 2^n ta elementar konyuksiyalarni k_1, \dots, k_{2^n} deb belgilangan [1-3].

Teorema-1. Ixtiyoriy $f(x_1, \dots, x_n) \in E_2$ bul funksiyasini Jegalkin ko‘phadi ko‘rinishida ifodalash mumkin va u yagonadir.

Isbot:

$$f(x_1, \dots, x_n) = \sum_{(\sigma_1, \dots, \sigma_n)} x_1^{\sigma_1} \cdot \dots \cdot x_n^{\sigma_n} \cdot f(\sigma_1, \dots, \sigma_n) \quad (1)$$

(1) formuladagi barcha inkor amallaridan $x^\sigma = x + \bar{\sigma}$ tenglik yordamida yo‘qotib yuboramiz. Bu yerda

$$x^\sigma = \begin{cases} x, & \text{agar } \sigma = 1, \\ \bar{x}, & \text{agar } \sigma = 0. \end{cases}$$

Haqiqatan ham:

$\sigma = 1$ bo‘lsa, $x = x + \bar{1} = x$, agar $\sigma = 0$ bo‘lsa, $\bar{x} = x + \bar{0} = x + 1 = \bar{x}$.

(1) formula quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$f(x_1, \dots, x_n) = \sum_{(\sigma_1, \dots, \sigma_n)} (x_1 + \bar{\sigma}_1)(x_2 + \bar{\sigma}_2) \dots (x_n + \bar{\sigma}_n) f(\sigma_1, \dots, \sigma_n)$$

Hosil bo‘lgan yig‘indidagi o‘zgaruvchilarning birortasida ham inkor amali mavjud emas. Endi qavslarni ochib chiqamiz: $f(x_1, \dots, x_n) = \sum_{i=1}^{2^n} a_i k_i$, $a_i \in E_2$, $k_i - x_1, \dots, x_n$ o‘zgaruvchilar yordamida tuzilgan turli elementar konyuksiyalar. Ixtiyoriy bul funksiyasini Jegalkin ko‘phadi yordamida ifodalash mumkinligi isbotlandi.

2) Yagonaligining isboti. Buning uchun n o‘zgaruvchili bul funksiyalari sonini, n o‘zgaruvchili Jegalkin ko‘phadlar soni bilan taqqoslaylik. Teng kuchli bo‘lmagan n o‘zgaruvchili bul funksiyalari soni 2^{2^n} ta ekanligini bilamiz. Endi biz barcha elementar konyuksiyalarni yozamiz $\{k_1, k_2, \dots, k_{2^n}\}$, har bir konyunksiya ko‘phadga yo kiradi yoki kirmaydi, shuning uchun bunday ko‘phadlar soni 2^{2^n} bo‘ladi. Xulosa qilib quyidagilarni aytsak bo‘ladi:

- 1) n o‘zgaruvchili bul funksiyalari soni bilan Jegalkin ko‘phadlari soni teng ekanligi aniqlandi.
- 2) Ixtiyoriy funksiyani Jegalkin ko‘phadi ko‘rinishiga ifodash mumkinligini isbotladik.
- 3) Har bir Jegalkin ko‘phadiga mos keluvchi funksiya mavjud.

Demak, funksiyani ko‘phad yordamida ifodalash mumkin va u yagonadir.

Funksiyalarni Jegalkin ko‘phadi ko‘rinishiga keltirishning ikki usulini ko‘rib otsak.

1. Chinlik jadvali yordamida funksiyani Jegalkin ko‘phadi ko‘rinishiga keltirish

(1) formulada $f(\sigma_1, \dots, \sigma_n) = 1$ deb, quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$f(x_1, \dots, x_n) = \sum_{(\sigma_1, \dots, \sigma_n)} x_1^{\sigma_1} \cdot \dots \cdot x_n^{\sigma_n} \quad (2)$$

$x^\sigma = x + \bar{\sigma}$ formuladan foydalanib, (2) yig‘indidagi barcha inkor amallaridan qutulishimiz mumkin va natijada Jegalkin ko‘phadini hosil qilamiz.

1-misol. $f(x, y) = (x \vee y) \rightarrow x$ formulani Jegalkin ko‘phadi ko‘rinishiga chinlik jadvali yordamida keltirish kerak. Avvalo, $(x \vee y) \rightarrow x$ chinlik jadvalini tuzamiz:

x	y	$(x \vee y) \rightarrow x$
0	0	1
0	1	0
1	0	1
1	1	1

(2) formuladan, $f(x, y) = (x \vee y) \rightarrow x = \bar{x}\bar{y} + x\bar{y} + xy =$
 $= (x + 1)(y + 1) + x(y + 1) + xy = xy + x + y + xy + x + xy = xy + y.$

Demak, $(x \vee y) \rightarrow x = xy + y$ [4-6]

2. Noaniq koeffitsientlar usuli

1-teoremaga asosan,

$$f(x_1, \dots, x_n) = \sum_{i=1}^{2^n} a_i k_i, \text{ bu yerda } a_i \in E_2. \quad (3)$$

(3) formulada noaniq koeffitsientlar a_i bo‘lib, ular jami 2^n ta.

2-misol. Ushbu funksiyani Jegalkin ko‘phadi ko‘rinishida ifodalang

$$f(x_1, x_2, x_3) = (x_1 \rightarrow x_3) + (x_1 \wedge x_2)$$

Yechish: Berilgan funksiya uchun noma‘lum koeffitsientli ko‘phad ko‘rinishidagi ifodasini izlaymiz:

$$\begin{aligned} (x_1 \rightarrow x_3) + (x_1 \wedge x_2) &= \\ &= ax_1x_2x_3 + bx_1x_2 + cx_1x_3 + dx_2x_3 + ex_1 + fx_2 + gx_3 + h \end{aligned}$$

Funksiyaning qiymatlar jadvalida noma‘lum koeffitsientlarni aniqlaymiz:

x_1	x_2	x_3	$(x_1 \rightarrow x_3) + (x_1 \wedge x_2)$	$ax_1x_2x_3 + bx_1x_2 + cx_1x_3 + dx_2x_3 + ex_1 + fx_2 + gx_3 + h$	
0	0	0	1	h	$h=1$
0	0	1	1	$g+h$	$g=0$
0	1	0	1	$f+h$	$f=0$
0	1	1	1	$d+f+g+h$	$d=0$
1	0	0	0	$e+h$	$e=1$
1	0	1	1	$c+e+g+h$	$c=1$
1	1	0	1	$b+e+f+h$	$b=1$
1	1	1	0	$a+b+c+d+e+f+g+h$	$a=0$

Jadvalning 4 va 5- ustunlarini tenglashtirishdan hosil bo‘lgan tenglamalar (noma‘lum koeffitsientlarga nisbatan) sistemasini yechib, 6- ustunni hosil qilamiz. Demak,

$$f(x_1, x_2, x_3) = (x_1 \rightarrow x_3) + (x_1 \wedge x_2) = x_1x_2 + x_1x_3 + x_1 + 1$$

Ushbu mavzuning amaliy mashg‘ulotlarini mazmunli va qiziqarli tashkillashtirishda bir qancha metodlardan, xususan, “Uchta to‘g‘ri, bitta noto‘g‘ri” metodidan foydalanish yani talabalardan 4 ta guruh tashkil qilib, tarqatma materiallar orqali 3 ta to‘g‘ri va bitta noto‘g‘ri misollar yoziladi. Talabalar tomonidan to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar aniqlanib, xato javoblar to‘g‘risiga so‘roq belgisi qo‘yiladi. Ma‘lum vaqtdan keyin guruhlardan barcha varaqchalar terib olinib, guruhlar aro almashtirib tarqatiladi. Olingan javoblar o‘qituvchi ishtirokida tahlil qilinadi. Bu metod orqali nazariy darslarda ham yangi mavzu bo‘yicha talabalar bilimini mustahkamlash maqsadida 7-8 talabani tanlab ularga varaqchalar tarqatiladi. Ular to‘g‘ri va noto‘g‘ri ma‘lumotlarni ajratishgach boshqa talabalarga tarqatib tekshirtiradi va natijalar guruh bilan tahlil qilinadi.

Muhokama. Ushbu metodning afzalliklari: diqqatli bo‘lishga chorlaydi, axborotni tanlab olish ko‘nikmasini shakllantiradi, o‘z fikrini to‘g‘ri, aniq-ravon ifodalashga o‘rgatadi.

Kamchiliklari: Biroz vaqtni ko‘proq talab qiladi.

Jegalkin ko‘phadi mavzusini mustahkamlashda “Uchta to‘g‘ri, bitta noto‘g‘ri” metodini qo‘llaganimizda varaqchalar quyidagicha tayyorlanishi mumkin.

№	Ma‘lumotlar	To‘g‘ri (T) Yoki Noto‘g‘ri (F)
	Funksiyalarning jegalkin ko‘phadi shaklidagi ifodasi	
1	$x \vee y = xy + x + y$	T
2	$(x_1 x_2) + (x_1 \wedge x_3) = x_1x_2 + x_1x_3 + 1$	T
3	$(x \vee y) + (x \rightarrow y) = x + y$	T
4	$(x \leftrightarrow y) + (x \wedge y) = x + y + 1$	F

Amaliy mashg‘ulot darslarini yanada qiziqarli tashkillashtirishda «Charxpalak» metodidan foydalanish juda ham samaralidir. Dastlab talabalar 4 ta guruhga bo‘linadi va har bir guruh nomlangan bo‘ladi. 4 ta savollar varaqasi har biriga 8 ta funksiya yozilgan bo‘ladi. Har bir guruhga bittadan varaq beriladi. Guruh

a’zolari funksiyaning Jegalkin ko‘phadi ko‘rinishidagi ifodasini topishi kerak bo‘ladi. O‘qituvchi belgilangan vaqtni e’lon qiladi. Masalan, belgilangan vaqt 2 daqiqa bo‘lsin. Birinchi 2 daqiqada har bir guruhning birinchi a’zosi 8 misoldan ixtiyoriy bittasining javobini varaqqa yozadi. Vaqt tugagach yozish to‘xtatiladi. Varaqlar charxpalak yo‘nalishida keyingi a’zolarga uzatiladi. Ularga ham 2 daqiqa beriladi. Har bir to‘g‘ri yozilgan ma’lumotga 1 ball beriladi. Vaqt tugaganidan keyin guruhlar varaqalari almashtirilib to‘g‘riligi tekshiriladi. O‘qituvchi bilan birga tahlil qilinadi [7,8].

Natija. Metodning afzalliklari: Ushbu metod talabalarni yana harakatchan, tirishqoq bo‘lishga undaydi. Fanga nisbatan qiziqishini oshiradi, guruh uchun ma’suliyatli bo‘lishni o‘rgatadi. Erkin, aniq va to‘g‘ri, mustaqil fikrlashga, xato qilgan taqdirda, to‘g‘ri javobni topishga harakat qilishni o‘rgatadi. Natijada fan yuzasidan bilimlari yanada mustahkamlanadi.

Metodning kamchiliklari: deyarli aniqlanmagan.

“Charxpalak” metodini qo‘llaganimizda varaqchalar quyidagicha tayyorlanishi mumkin. Ushbu funksiyalarning har birining Jegalkin ko‘phadi ko‘rinishi topilsin.

$$1) f(x, y, z) = xy \vee xz \vee x\bar{z}$$

$$5) f(x, y, z) = xy \vee x \vee \bar{x}z$$

$$2) f(x, y, z) = x \rightarrow (x \rightarrow y)$$

$$6) f(x, y, z) = xy \vee xz \vee x\bar{z}$$

$$3) f(x, y, z) = \overline{x \vee y} \leftrightarrow \bar{x} \vee \bar{y}$$

$$7) f(x, y, z) = (x \wedge z) \rightarrow (x \leftrightarrow y)$$

$$4) f(x, y, z) = \overline{x \vee y} \leftrightarrow \bar{x}\bar{y}$$

$$8) f(x, y, z) = (x \vee z) \leftrightarrow (x \leftrightarrow y)$$

Xulosa. Ma’lumki, hozirgi vaqtda mamlakatimiz Prezidenti tomonidan matematika fani va uni amaliyotda qo‘llashni rivojlantirishga katta ahamiyat berilib, bir qator qarorlar imzolangan. Qarorlar ijrosini ta’minlashning negizida, albatta, fanni talabalarga ilg‘or pedagogik metodlar va texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish yotadi. Maqolada tavsiya qilingan “Charxpalak” va “Uchta to‘g‘ri bitta noto‘g‘ri” metodlari talabalar tomonidan ijobiy baholanib kelinmoqda. Shu kabi ilg‘or pedagogik texnologiyalar bir qator ilmiy izlanishlarda ham tavsiya qilingan va ulardan foydalanish yo‘llari misollar yordamida tushuntirib berilgan. Shuningdek, hozirgi vaqtda nazariyaning amaliy tadbiqlarini kengaytirish dolzarbligini inobatga olib, kelgusida matematikani boshqa fanlar bilan integratsiyasi haqida ma’lumotlar berish ham muhim ahamiyatli ekanligi keng yoritilgan.

Adabiyotlar:

1. To‘rayev H., Azizov I., “Matematik mantiq va diskret matematika”. Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik: II jildlik.-Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2011. – 208 bet. 231-232
2. Jumayeva Ch.I., Axmedov O.S., Matematikani o‘qitishda maktab o‘quvchilarining nutq-kognitiv faoliyatini rivojlantirish asoslari va usullari. ”Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnal. MS 2022. 199-207
3. Умарова У.У. Отамуродов Ф.Р. Алгоритм работы с приёмом “Корзина идей” и применение к теме “Полином Жегалкина” // Наука, техника и образование. 77:2 (2021).
4. Сайлиева Г.Р. “Использование метода “Математический рынок” в организации практических занятий по Дискретной математике”, Проблемы педагогики 53 (2), с. 27-30.
5. Sayliyeva G.R. “Discrete time dynamics of an ocean ecosystem”, Journal of Global Research in Mathematical Archives, Volume 6, №.10, October 2019, p. 31-33.
6. Rasulov T.H., Rasulov X.R. O‘zgarishi chegaralangan funksiyalar bo‘limini o‘qitishga doir metodik tavsiyalar // Scientific progress, 2:1, (2021), p.559-567.
7. Saylieva G.R. “Using of new pedagogical technologies in teaching «Analytical geometry» subject”, Вестник науки и образование, 18:96-2, (2020), с. 68-71.
8. Расулов Х.Р., Раупова М.Х. Математические модели и законы в биологии // Scientific progress, 2:2, (2021), p.870-879.

**OLIV TA'LIM MUASSASLARIDA UMUMIY FIZIKA FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI
BAJARISHDA VIRTUAL LABORATORIYALARDAN FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

Karshiboyev Shavkat Esirgapovich,

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti

O'zbekiston. Samarqand Sh., 140100. Spitamen shoh ko'chasi 166-uy

shavkat.qarshiboyev.89@bk.ru

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak fizika o'qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta'limning o'rni va mustaqil ta'lim bo'yicha laboratoriya ishlarini bajarishda virtual laboratoriyalarning ahamiyati bayon qilingan. Mustaqil ta'lim mavzularida beriladigan laboratoriya ishlarini virtual bajarish yuzasidan ko'rsatmalar misolar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Mustaqil ta'lim, kredit-modul, virtual laboratoriya, PhET, Yung moduli.*

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВИРТУАЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ ПРИ
ВЫПОЛНЕНИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ОБЩЕЙ ФИЗИКЕ В ВУЗАХ**

В данном исследовании описывается роль самостоятельного образования при подготовке будущих учителей физики в высших учебных заведениях и значение виртуальных лабораторий при выполнении лабораторных работ по самостоятельному обучению. На примерах проанализированы инструкции по виртуальному выполнению лабораторных работ, данные по предметам самостоятельного обучения.

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, кредитный модуль, виртуальная лаборатория, PhET, модуль Юнга.*

**IMPROVING THE USE OF VIRTUAL LABORATORIES WHEN PERFORMING
INDEPENDENT WORK IN GENERAL PHYSICS AT UNIVERSITIES**

This study describes the role of independent learning in the training of future physics teachers in higher education institutions and the importance of virtual laboratories in the performance of laboratory work on independent learning. Instructions for virtual performance of laboratory works, data on subjects of independent learning are analysed using examples.

Key words: *self-study, credit module, virtual laboratory, PhET, Young's module.*

Kirish. Hozirgi kunda jahondagi rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim tizimida mavjud bo'lgan va yurtimizda joriy qilingan kredit-modul ta'lim tizimi asosidagi o'quv rejalarda o'quv yuklamasining mustaqil ta'lim soatlari uchun 50-60% qismi ajratilgan [1]. Bunday vaziyatda ta'lim jarayonida auditoriya mashg'ulotlariga qay darajada ta'sir etishi muhokamalarga olib kelmoqda. Shunday ekan bunday vaziyatda mustaqil ta'limni qanday tashkil etish, ta'limda sifati va samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish zarur ilmiy-metodik izlanishlardan hisoblanadi. Shu nuqatayi nazardan oliy o'quv yurtlarida bo'lajak fizika fani o'qituvchilarini tayyorlashda "Nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida" mustaqil ta'limni tashkil etish va bajarish metodikasi "Umumiy fizika" fanidan laboratoriya ishilarida mustaqil ta'limni virtual laboratoriyalar orqali amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Asosiy qism. Kredit-modul ta'lim tizimida mustaqil ta'lim jarayonini talabalarning o'quv va ilmiy – tadqiqot faoliyatining ajralmas qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun mustaqil ta'lim talabaning effektiv va aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyat sifatida qaralishi va har tomonlama o'rganilishi lozim [1].

Avvalombor, mustaqil ta'lim tushunchasiga e'tiborni qaratib quyidagilarga to'xtalib o'tishimiz lozim.

Mustaqil ta'lim - o'quv jarayoni mashg'ulotlarida talabalarning shaxsiy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bunda maxsus fizikaviy va astronomik bilim va ko'nikmalarni alohida ajratib bo'lmaydi, chunki shaxsiy ko'nikmalar ularning ichiga sekin-astalik bilan singib boradi. Ko'nikmalarni shakllantirishda talabalar bilan mustaqil ravishda ishlash dasturilamal sifatida xizmat qiladi [1,2]. Umumiy fizika fanini o'qitishda bilim oluvchi talabalarga uchta asosiy

ko'nikmani hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Uzluksiz ta'limda bu ko'nikmalardan hatto birini e'tiborga olmasak yoki yetarlicha baholamasak, qolganlarining shakllantirishi sezilarli darajada susaytiriladi. Quyida keltirayotgan asosiy uchta ko'nikmalar fizika hamda astronomiya fanlarini o'qitish uchun bizga asos bo'lib xizmat qilishi kerak:

Eksperimental ko'nikma; Intellektual va umum o'quv ko'nikma; Maxsus (xususiy) ko'nikma; Bu ko'nikmalarning hammasi talaba bilan alohida guruh bo'lib yoki professor-o'qituvchining nazoratisiz xususiy ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan bo'ladi. Shu o'rinda mustaqil ta'lim sifatida ta'limning qanday turi nazarda tutilishi va uning mazmunini aniqlash. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarda mustaqil ta'limga mutaxassislar tayyorlash jarayonining bir komponenti sifatida qaralsa-da, uning mazmuni keng yoritilmaydi. Ayni vaqtda pedagogik ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni “Nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida” jihatdan mavzularga ajaratilsa-da, asosan mavzular bo'yicha referatlar tayyorlash, uni internet ma'lumotlaridan to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib olish yoki mavjud adabiyotlardagi mavzularni shunchaki yozishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bunga sabab mustaqil ta'limni laboratoriya uchun ajaratilgan qismiga e'tibor beradigan bo'lsak, talaba mustaqil laboratoriyani bajarish uchun zarur jihozlar yetishmaslik yoki talabaning mustaqil laboratoriya ishlarni bajarishga qiynalishini hisobga olsak, bunday muammoni yechishning eng samarali va zamonaviy usuli XXI – asr texnologiyasining rivojlanishidan foydalangan holda ta'lim samaradorligini oshirishda bir qancha ishlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalarni fan va ta'limda qo'llanish mumkin bo'lgan muhim ta'sirlaridan biri bu virtual laboratoriyalardir[3]. Shunga e'tiborni qaratishimiz joizki, ta'lim jarayonida talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlarni ikki turga ajratish mumkin:

1. O'qituvchining bevosita nazoratida bajariladigan mustaqil ishlar
2. O'qituvchi ishtirokisiz bajariladigan mustaqil ishlar.

O'qituvchi ishtirokisiz bajariladigan mustaqil ishlarda virtual laboratoriya ishi juda ham qo'l keladi sababi talaba o'z uyida o'tirgan holatda o'zining shaxsiy kompyuteri, plansheti yoki smart telefonlari orqali bimalol mustaqil ta'limga tegishli bo'lgan virtual laboratoriya ishini bajara oladi.

“Virtual laboratoriya” nima?

V.V.Truxin ta'rifiga ko'ra, virtual laboratoriya - bu haqiqiy o'rnatish bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilmasdan yoki ular mavjud bo'lmagan tajribalarni amalga oshirishga imkon beruvchi dasturiy-apparatlar jamlanmasidir [4,5]. Birinchi holda, biz masofadan kirish imkoniyatiga ega bo'lgan laboratoriya sozlamalari bilan shug'ullanamiz, u haqiqiy laboratoriyani, sozlashni boshqarish va olingan ma'lumotlarni raqamlashtirish uchun dasturiy ta'minot va apparat vositalarini, shuningdek, aloqa vositalarini o'z ichiga oladi. Ikkinchi holda barcha jarayonlar kompyuter yordamida modellashtiriladi” [4,5,6].

Virtual o'quv laboratoriya ochiq va masofaviy o'qitish g'oyasiga muvofiq bo'lib, ta'lim jarayonidagi moddiy-texnik imkoniyat muammolarni oz bo'lsa-da, dolzarbligini kamaytiradi.

Adabiyotlar tahlili. Umumiy fizika fanidan mustaqil ta'limni tashkil qilish va bajarishda virtual laboratoriya ishlarining qo'llanilish darajasi, usullari va istiqbollarni aniqlash hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini o'rganish maqsadida mavjud tajribalar tadqiq qilindi.

D.I. Troitskiyning virtual laboratoriyalardan foydalanishning ta'lim sifatiga ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borgan izlanishlarining natijalari e'tiborga molik. U virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining 17,7% ga oshishiga, laboratoriya ishlarni bajarish vaqti esa 10–50% ga kamayishiga erishilganligini ta'kidlaydi [4,5].

M. T. Taher ham virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish ta'lim oluvchilar bilimni oshirishda samarali vosita ekanligini qayd etadi. Shu bilan birga virtual laboratoriya ishlarini real laboratoriya ishlari bilan birgalikda olib borishni, gibril yoki kombinatsion o'qitish strategiyasini taklif etadi [4-6].

Hozirda fizikani o'qitishda qo'llanilayotgan virtual laboratoriya ishlarining aksariyati videolavha ko'rinishida bo'lib, unda talabaning bevosita ishtiroki, mustaqil qaror qabul qilishi va izlanuvchanligi bilan bog'liq ko'pgina jihatlar hisobga olinmagan [6]:

- ishni bajarish uchun lozim bo'ladigan asbob-uskunalarini uskunalar omboridan mustaqil tanlab olish;
- laboratoriya ishi qurilmasini shakllantirish;
- qurilma tarkibiy qismlarni o'zaro mutanosib joylashtirish (dizayn);
- o'rganilayotgan obyekt parametrlarni istalgancha keng diapazonda o'zgartirish;
- zarurat tug'ilsa, qurilmaga o'zgartirishlar kiritish;
- zamonaviy o'lchov-nazorat uskunalaridan foydalanish imkoniyati.

Umumiy fizika fanini o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, laboratoriya sharoitida to'liq namoyish qilish texnik jihatdan juda qiyin yoki umuman imkonsiz bo'lgan fizik hodisa va jarayonlarni namoyish qilish, laboratoriya mashg'ulotlarini sifatli o'tkazish imkoniyatlarini kengaytirib, turli jarayonlar va hodisalarni simulyatsiya qilishga imkon beradi [6,7]. Ushbu texnologiyaning

asosiy afzalligi shundaki, u har qanday darsga moslasha oladi, o‘qituvchi va talabaga samarali yordam beradi. Talaba berilgan mustaqil ishni osongina bajara oladi. Yana bir muhim holat shundaki, laboratoriya sharoitida vizual tarzida kuzatib bo‘lmaydigan ayrim hodisa yoki jarayonlar mavjud, masalan, tirik organizmlarning ko‘rish qobilyatini o‘rganish. Bunday holda kompyuter simulyatsialari namoyishlari bebahodir, chunki ular ko‘z ichida ro‘y beradigan optik jarayonlarni kuzatish va shu bilan birga haqiqatga mos keladigan natijalarni olish va xulosalar chiqarish imkonini beradi. Fizikani o‘qitishda real laboratoriya bilan bir qatorda avtomatlashtirilgan tizim sifatida virtual tajribalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir [8].

Talabalar orasida eng katta qiziqish kompyuter modellari bilan bog‘liq bo‘lib, ular orqali matematik model asosida yotadigan sonli parametrlarning qiymatlarini o‘zgartirib, kompyuter ekranidagi obyektlarning harakatlarini boshqarish mumkin. Ba’zi modellar eksperiment davomida bir vaqtning o‘zida dinamik rejimda eksperimentni tavsiflovchi bir qator fizik kattaliklarning vaqtga bog‘liqlik grafikalarini kuzatish imkoniyatini beradi. Bunday modellar, ayniqsa, qimmatlidir, chunki talabalar grafiklarni chizishda va o‘qishda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Kompyuter modellari an’anaviy darsga osonlikcha mos keladi, real jarayonlarni deyarli “Jonli” namoyish etishga imkon beradi. Bundan tashqari, kompyuter modellari yangi, ana’anaviy bo‘lmagan ta’lim turlarini tashkil etishga imkon beradi [9,10].

Virtual laboratoriya ishlari zamonaviy o‘quv qo‘llanmalar hisoblanib, virtual tajribalar o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Fizika yoki elektrotexnika sohasidagi muammolarning barchasi eksperimental tadqiqotlar olib borishda to‘plangan natijalar asosida hal qilinadi.

Kompyuterda virtual eksperimentlar haqiqiy elementlar, asboblardan va jihozlardan bilan o‘tkazilgan tajribalarga qaraganda ancha arzon va mutlaqo xavfsizdir.

Virtual laboratoriya ishi - bu fanlar laboratoriyalarining laboratoriya jihozlarini o‘xshashligi, ammo o‘rnini bosish emas, balki real va virtual laboratoriyalar birgalikda faoliyat yuritishi va bir-birini to‘ldirishi kerak (Zoirov S, Murodov S, Sharafova T, Qarshiboyev Sh, 2022)[10].

Hozirgi davrda umumiy fizika fanidan laboratoriya jihozlariga bo‘lgan talabning jadal ravishda oshib borishi hamda talabalarning vaqtni to‘g‘ri taqsimlashi va unumli foydalanishlarini hisobga oladigan bo‘lsak, mustaqil ta’lim ishlarini bajarishda axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. 14.06.23\Xoliqov maqola uzfin.pdf [11]

Virtual laboratoriyadan quyidagi usullardan foydalansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish uchun virtual laboratoriya qurilmasi sifatida ishlatish.
2. Talaba real laboratoriya ishlarini bajarishdan oldin mashq qilish uchun.
3. Amaliy va seminar mashg‘ulotlarida ma’lum bir jarayon borishini yoki asbobning ishlashini modellashtirish bilan talabalarning bilimini mustahkamlash uchun.
4. Nazariy bilim beruvchi ma’ruza darslarida demonstrasion virtual dastur sifatida foydalanish.

Bu usullarni qo‘llasa, dars jarayonida ham talabaning mustaqil ta’limni bajarishda ham sifat va samaradorlikni oshirish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Talaba mustaqil ta’lim mavzularidagi laboratoriya ishlarini bajarishda animatsion namoyishlar va virtual laboratoriya ishlaridan foydalangan holda bajarishda bevosita online platformalardan foydalaniladi. Shunday platformalardan fizika fanini o‘qitishga mo‘ljallangan “Crocodile Physics”, “Yenka Electricity and Magnetism”, “Phun Physics”, “Physics Education Technology” (PhET), “Maktabda fizika” platformalari o‘rganib chiqilib, umumiy fizika fanidan talaba mustaqil laboratoriya ishlarni bajarishda o‘zining soddaligi va tushunarliqligi, umumiy fizika fanining bo‘limlariga oid ko‘plab animatsiyalar, tajribalarni qamrab olganligi bilan bilan ajralib turuvchi “Physics Education Technology” (PhET) platformasi tanlandi.

Tahlil va natijalar. «Physics Education Technology» (PhET) platformasi tabiiy fanlar yo‘nalishida 2001- yildagi Nobel mukofotining laureati K. Viman tomonidan yaratilgan. PhET platformasida turli xil mavzularga oid modellar mavjud bo‘lib, ular Java va Macromedia flash dasturlarida yaratilgan.

PhET platformasida taqdim etilayotgan modellar Open Source bo‘lib, xohlagan foydalanuvchi bepul foydalanishi mumkin. PhET dagi modellar soni 110 dan ortiq bo‘lib, ular fizika, matematika, kimyo fanlariga oid namoyish tajribalarini o‘tkazish, virtual laboratoriya ishlarini bajarish va modellashtirish imkoniyatiga ega. PhET dasturi Milliy o‘quv dasturda va o‘quv muassasalarida qo‘llanilayotgan adabiyotlariga mos keladi.

PhET dasturini <http://phet.colorado.edu> platformasidan yuklab olishingiz mumkin. PhET dasturidagi modellardan fizika, ximiya, matematika va biologiya fanlaridan dars mashg‘ulotlarida namoyish tajribalari sifatida, virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkillashtirishda keng foydalanish mumkin [11,12].



1-rasm. PhET dasturining umumiy ko‘rinishi

Ayni vaqtda PhET dasturini <http://phet.colorado.edu> platformasidan fizika faniga oid 90 dan ortiq, biologiya faniga oid 10 dan ortiq, matematika faniga oid 7 ta, kimyo faniga oid 20 dan ortiq modellar mavjud.

Ushbu dasturda keltirilgan modellar faqat ingliz tilida mavjud bo‘lmay, balki 50 dan ortiq tilga tarjima qilingan, bu tillarning ichida o‘zbek tilida 1 ta model tarjima qilingan. Agar siz dasturda keltirilgan modellarni o‘zbek tiliga tarjima qilishni xohlasangiz, hech qanday qiyinchiliksiz bu ishni amalga oshirishingiz mumkin. Buning uchun dasturning rasmiy platformasida “Translated Sims” bo‘limi mavjud bo‘lib, u yerga kirib maxsus qaydnomani to‘ldirgan holda kerakli modelni tanlab o‘zbek tiliga tarjima qilish imkoni mavjud. Talabalarga dasturdan foydalanish usullarini yoritish maqsadida “**Yuk ta’sirida prujinaning cho‘zilishini” o‘rganish**” laboratoriya ishini o‘tkazish jarayonini bajarilishini keltirib o‘tamiz:

Labpoarotiya ishi: Yuk ta’sirida prujinaning cho‘zilishini

Ishning maqsadi: PhET dasturlash muhitida “Yuk ta’sirida prujinaning cho‘zilishini” o‘rganish”.

Nazariy qism

Qattiq jismning deformatsiyasi. Rezina arqonning uchlaridan ushlab tortilsa, arqonning qismlari bir-biriga nisbatan ko‘chadi, arqon uzunroq hamda ingichkaroq bo‘lib qoladi. Tashqi ta’sir tufayli jismning shakli yoki hajmi o‘zgarishiga **deformatsiya** deyiladi.

Endi bir parcha plastilinni siqing. Sizning qo‘lingizda u osongina ixtiyoriy shaklni oladi. Plastilinni dastlabki shakli o‘z-o‘zidan tiklanmaydi. Tashqi kuchlarning ta’siri to‘xtatilgandan so‘ng yo‘qolmaydigan deformatsiya plastik deformatsiya deyiladi. Loy, mum, qo‘rg‘oshin kabi jismlar plastik deformatsiyalanadi [11,12].

Qattiq jismlarning mexanik xossalari. Qattiq jismlarning mexanik xossalari deganda qattiq jismlarning tashqi mexanik kuchlar ta’siri ostida deformatsiyalanishi va shu kuchlar ta’siridagi yemirilishga chidash qobiliyatini belgilovchi xossalari tushuniladi. Deformatsiyalangan jismning birlik ko‘ndalang kesim yuzasiga ta’sir qilayotgan deformatsiyalovchi kuchga son jihatidan teng bo‘lgan fizik kattalik **mexanik kuchlanish** (σ) deyiladi va u quyidagicha hisoblanadi:

$$\sigma = \frac{F}{S} \quad (1)$$

XBS da mexanik kuchlanish birligi qilib, xuddi bosim birligi kabi **Paskal** qabul qilingan [13,14]. Golland olimi Gukning tajribada aniqlashicha elastik deformatsiyada mexanik kuchlanish nisbiy uzayishga to‘g‘ri proporsional bo‘ladi, ya’ni

$$\sigma = E \cdot |\varepsilon| \quad (2)$$

(2) ifodada ε ning moduli olingan, chunki Guk qonuni cho‘zilish deformatsiyasi uchun ham, siqilish deformatsiyasi uchun ham bir xil ahamiyatga ega. Bu qonunda qatnashgan proporsionallik koeffitsienti ε ga **elastiklik moduli** yoki **Yung moduli** deb ataladi. (2) ifodadan $|\varepsilon|=1$ bo‘lganda $\sigma = E$ ekanligi kelib

chiqadi. $|\varepsilon| = \frac{\Delta l}{l_0}$ ekanligini e’tiborga olsak, $\Delta l = l_0$ bo‘lib, sterjenning uzunligi ikki marta uzayadi [13-16].

Demak, Yung moduli elastik deformatsiyada sterjenning uzunligini ikki marta uzaytirish uchun unga qo‘yilish uchun unga kerak bo‘lgan kuchlanishga son jihatidan teng bo‘lgan fizik kattalik ekan. Yung moduli faqat jismining materialiga va haroratiga bog‘liq [13.14].

$\sigma = \frac{F}{S}$ va $\varepsilon = \frac{\Delta l}{l_0}$ ifodalarni Guk qonuniga qo‘yib, quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$\frac{F}{S} = E \frac{|\Delta l|}{l_0} \quad (3)$$


Bundan

$$F = E \cdot S \frac{|\Delta l|}{l_0} \quad (4)$$

kelib chiqadi. Agar $\frac{E \cdot S}{l_0} = k$ deb belgilasak, (4) ifodani quyidagicha yozish mumkin:

$$F = k \cdot |\Delta l| \quad (5)$$


Kuchlanish bilan nisbiy uzayish orasidagi bog‘lanishni ifodalovchi chiziq **cho‘zilish diagrammasi** deyiladi. Tajribada aniqlangan cho‘zilish diagrammasi (2-rasm) da tasvirlangan. Diagrammaning to‘g‘ri chizikli OA qismida, ya’ni Guk qonuni aniq bajariladigan qismidagi eng katta mexanik kuchlanish (σ_p) **proporsionallik koeffitsienti** deyiladi [13.14.15]. Kuchlanishning keyingi ortishida ($\sigma_p < \sigma$) plastik deformatsiyalar yuzaga keladi. Kuchlanish diagrammasi egrilanadi. Diagrammaning AB qismidagi deformatsiya qoldiqli xarakterga ega bo‘lib, bu qismda mexanik kuchlanish nisbiy uzayishga to‘g‘ri proporsional bo‘lmay qoladi.



Tashqi kuch ortgan sari deformatsiya tobora tezroq ortadi. Kuchlanishning diagrammadagi C nuqtaga mos keladigan biror qiymatida tashqi kuch ortmaganda ham uzayish ortaveradi. Bu hodisa materialning oquvchanligi deb ataladi (CD qism). Bu holda diagrammada egri chiziq deyarli gorizontall bo‘lib qoladi. Keyin deformatsiya ortishi bilan kuchlanishlar egri chizig‘i biroz ko‘tarila borib, E nuqtada maksimumga erishadi. So‘ngra kuchlanish tez kamayadi va namuna buziladi [13-17]. Shunday qilib, mexanik kuchlanish **mustahkamlik chegarasi** deb ataladigan eng katta σ_m qiymatga yetgandan keyin namuna uziladi.


Ishni bajarish tartibi:

1. Phet dasturini yuklang. 3-rasmga qarang




2-rasm


2. Pet dasturi mundarijasidan Fizika fani bo‘limini tanlang. 4-rasmga qarang



3-rasm


3. Modellar ro‘yxatidan “Motion” bo‘limidan “ Masses and Springs:” simulyatsiyani tanlang. 5-rasmga qarang





4-rasm

4. Prujinalarga yuklarni osing. 6-rasmga qarang



5-rasm

5. Chizg‘ich yordamida prujinalarning uzunligini aniqlab, qanchaga uzayganligini aniqlang.

6. Prujinalar bikirliklarini hisoblang.

7. Har bir o‘lchangan $\Delta l_1, \Delta l_2, \Delta l_3$ va hisoblanib F_{11}, F_{12}, F_{13} natijalarni

$$k = \frac{F_{el}}{\Delta l}$$

formulaga qo‘yib, k_1, k_2, k_3 prujinalar bikirligini hisoblang va natijalarni jadvalni to‘ldirish zarur.

8. $k_{o'rt} = (k_1 + k_2 + k_3) / 3$ formula bo‘yicha prujina bikirligining o‘rtacha qiymatini hisoblanadi va natijani jadvalga to‘ldiriladi.

№	m, kg	F_t, N	$\Delta l, \text{m}$	$k, \text{N/m}$	$k_{o'rt}$	$ k_{o'rt} - k $	E
1							
2							
3							

9. $\Delta k_n = |k_{o'rt} - k_n|$ formuladan absolyut xatolikni topish kerak.

10. $\varepsilon = (\Delta k_{o'rt} / k_{o'rt}) \cdot 100\%$ formuladan nisbiy xatolikni topish kerak

11. Natijalarni tahlil qilinadi va xulosa yoziladi.

Nazorat savollari:

1. Guk qonuni tushuntiring.
2. Mexanik kuchlanish nima?

3. Yung modulini fizika ma’nosi nima?

Yuqoridagi jadvalni talaba mustaqil to’ldiradi, absolyut va nisbiy xatolikni hisoblaydi va laboratoriya ishi bo’yicha xulosa qiladi.

Ushbu virtual laboratoriya ishini talaba mustaqil ish sifatida bajarsa, qolgan mustaqil ish mavzulariga doir laboratoriya ishlarni ham PhET dasturlash muhitida yoki yuqorida keltirilgan boshqa dasturlar orqali bajaradi. Bu esa talabaning muammolarni hal etish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, kontseptual tushunish, ilmiy jarayon ko’nikmalari, laboratoriya ko’nikmalari, motivatsiya, qiziqish, idrok qilish kabi natijalarga olib keladi [3,8,9,10]. Eng muhimi, talabada mustaqil ishlashga bo’lgan ishtiyoq oshadi va laboratoriya ishi bo’yicha berilgan mustaqil ish mavzularini to’la qonli bajarish imkoniyati mavjud bo’ladi.

Xulosa va takliflar. O’tkazilgan tadqiqot ishlari va tahlillar asosida umumiy fizika fanidan mustaqil ishlarni tashkil etish va bajarishda olingan bilimlar va ilmiy fikrlash hamda ko’nikmalari bo’lajak fizika sohasidagi mutaxassislarining shakllanish darajasini belgilaydi. Hozirgi kunda yurtimizda joriy etilayotgan kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta’limga ko’roq e’tibor berishi shu nuqayi nazarga qaratilgan. Sababi talaba faqat o’quv dasturida ko’zda tutilgan mustaqil ta’limga doir bilimlar bilan kifoyalanmaydi, virtual laboratoriya ishlarni mustaqil bajarish orqali talaba ham zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni, fan ta’limda qo’llashni o’rganadi.

Talaba laboratoriya mashg’ulotlaridan mustaqil ta’limni bajarishda virtual laboratoriya ishlariga ehtiyoj juda yuqori. Bu ehtiyoj dunyo miqyosida sinovdan o’tgan, samarali dasturlar hisobidan qondirilishi lozim. Mustaqil ishlarni tashkil etish jarayonida real laboratoriya ishlariga qo’shimcha sifatida virtual laboratoriya dasturlarini kiritish zarur. Bu orqali talabalarda amaliy ko’nikmalar bilan bog’liq bo’shliqlar paydo bo’lishining oldi olinadi, ta’lim sifati sezilarli darajada yaxshilanishiga erishiladi.

O’tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda umumiy fizika fanidan mustaqil ishlarni tashkil qilishda PhET platformasidan foydalanishni samarali vosita sifatida taklif qilamiz. Ushbu platforma interfeysi sodda va tushunarli, imkoniyatlari esa keng ko’lamli. Kelajakda PhET platformasi yordamida fizika kursi bo’yicha namoyish-tajribalar va virtual laboratoriya ishlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo’yicha tadqiqot ishlarini olib borishni tavsiya etish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Xudayberdiyev E.N “Atom va yadro fizikasini o’qitishda mustaqil ta’limni tashkillashtirish metodikasi” Fizika, Matematika va Informatika jurnali. 3/2022 76-83 b

2. Kamalova Dilnavoz, Omonboeva Meruert, Kamolov Ikhtiyor. Methodology of application of innovative educational technologies to the process of physics and astronomy education. “International Journal of Early Childhood Special Education”. (INT-JECSE). DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.267 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022. pp. 2144-2146.

3. Scheckler R.K, “Virtual labs: a substitute for tradition labs?” The International Journal of Developmental Biology, vol47, pp 231-236. 2003

4. Черемисина, Е. Н., Антипов О. Е., Белов М. А. Роль виртуальной компьютерной лаборатории на основе технологии облачных вычислений в современном компьютерном образовании // Дистанционное и виртуальное обучение. - 2012. - № 1. - с. 53-60

5. Троицкий Д.И., Дикова Е.Е.. Виртуальные лабораторные работы в естественнонаучном образовании. Тульский государственный университет. Сборник научных статей XVIII Объединенной конференции «Интернет и современное общество» IMS-2015, Санкт-Петербург, 23-25 июня 2015 г.

6. Трухин А.В. Об использовании виртуальных лабораторий в образовании // Открытое и дистанционное образование. 2002. № 4 (8). С. 70-72.

7. Kholikov K. T., Duvlayev K. A. et al. Methods of virtual organization of research, practical and laboratory activities in physics. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 8, 2020 Part III. ISSN 2056-5852

8. Karshiboyev Shavkat Esirgapovich Fizika darslarida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etishning tadbirlari ISSN 2181-1717 (E) Образование и инновационные исследования (2022 год №12) ..\2211-Текст статьи-6695-1-10-20230424.pdf

9. Xoliqov Qurbonboy To’ychiyevich, Sulaymanov Obid Ablakulovich Karshiboyev Shavkat Esirgapovich Karno sikliga oid namoyish tajribalarni virtual tarzda o’tkazish usullari “BILIG – ILMIIY FAOLIYAT” nashri <http://journal.bilig.uz/xoliqov.m.pdf>

10. Zoirov S, Murodov S, Sharafova T, Qarshiboyev Sh Modeling of physical processes in the labview program <http://scientists.uz/uploads/202208/A-124.pdf> <https://doi.org/10.5281/zenodo.7440697> ..\A-124.pdf 775-779

11.Xoliqov Q.T., Qarshiboyev Sh., Sulaymanov O.A., Egamberdiyev T.X. Fizika ta’limida online virtual laboratoriyalardan foydalanishning afzalliklari. Fan va ta’lim integratsiyasi 2023-YIL 1-SON <https://journals.uzfi.uz/>

12.<http://phet.colorado.edu>

13.Ismailov F.R., Qarshiboyev Sh., Murodov S., Hayitova G., Fizika fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo’yicha uslubiy qo’llanma. Uslubiy qo’llanma, Samarqand shahri, Samarqand Davlat chet tillar instituti nashriyoti 2023yil ISBN 978-9943-9273-0-8

14.Xoliqov Q.T, Zoirov S.X, Tuymanov B.T, Norqulova M.M Fizika fanidan virtual laboratoriya ishlari va ularni bajarish usullari Uslubiy qo’llanma, Samarqand shahri, Samarqand Davlat chet tillar instituti nashriyoti 2023yil.

15.Sivuxin D.P. Umumiy fizika kursi. Toshkent: O’qituvchi, 1981

16.O’lmasova M. H Mexanika va molekulyar fizika Akademik litseylar uchun o’quv qo’llanma Toshkent 2010

17.Abduraxmanov K.P., Egamov O’. “Fizika kursi”. Darslik, Toshkent, 2010.

18.Ismoilov M., Xabibullaev P., Xalilun M. «Fizika kursi». T. O’zbekiston. 2000.

KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA YUQUMLI KASALLIKLAR FANINI O’QITISH BOSQICHLARI

Sobirova Dilfuza Zokirovna,

Namangan davlat universtiteti mustaqil tadqiqotchisi

Maqolada klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o’qitish metodikasiga tegishli ma’lumotlarni tizimlashtirish, ushbu jarayonga maqsadga yo’naltirilgan, boshqariladigan tus berish imkoniyatining mavjudligi hamda mezon va baholash amalga oshirilishi asosidagi belgi, nimanidir aniqlash yoki tasniflash ko’rsatkichlar orqali ifodalash tahlil qilingan.

Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o’qitish jarayonining rejalashtirilayotgan natijasi to’g’risidagi tushunchalar shakllantirilgan hamda harakatlar va natijalar o’rtasidagi aloqani paydo qilishi asoslangan.

Kalit so’zlar: *tibbiy ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish, ixtisoslashgan tibbiy yordam, sog’liqni saqlash tizimi, diagnostika, tibbiy-sanitariya, epidemiologiya, fuqarolarni sog’lom turmush tarzi, klasterli yondashuv, praksiologik tamoyili, klasterlash jarayoni.*

ЭТАПЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ ОБ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЯХ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА

В статье систематизирована информация, касающаяся методики преподавания дисциплины об инфекционных заболеваниях на основе кластерного подхода, возможности придания этому процессу целенаправленного, управляемого тона, а также признака, основанного на реализации критериев. Приводится оценка, выражение чего-либо посредством показателей, выявление или классификация, проведенный анализ.

На основе кластерного подхода сформированы представления о планируемом результате процесса преподавания дисциплины об инфекционных заболеваниях, и установлена связь между действиями и результатами.

Ключевые слова: *развитие медицинского образования и науки, специализированная медицинская помощь, система здравоохранения, диагностика, медико-санитарная, эпидемиология, здоровый образ жизни граждан, кластерный подход, прaksiологический принцип, процесс кластеризации.*

STAGES OF TEACHING INFECTIOUS DISEASE SCIENCE BASED ON A CLUSTER APPROACH

The article systematizes information regarding the methodology of teaching the science of infectious diseases based on the cluster approach, the possibility of giving this process a targeted, controlled tone, as well as a feature based on the implementation of criteria and evaluation, expressing something through indicators, identifying or classifying, analyzing.

Based on the cluster approach, ideas about the planned result of the process of teaching the science of infectious diseases were formed and a connection was established between actions and results.

Key words: *development of medical education and science, specialized medical care, health care system, diagnostics, health care, epidemiology, healthy lifestyle of citizens, cluster approach, praxeological principle, clustering process.*

Kirish. O’zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bilan uzviy bog’langan uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish nazarda tutilgan. Uzluksiz ta’lim tizimi oldidagi mazkur vazifalarni amalga oshirish ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga, samaradorlik esa o’z navbatida bo’lajak mutaxassislar va pedagoglar faoliyatini tashkil etilishi va faollashtirilishiga bog’liqdir.

Ma’lumki, amaliyotga yangi o’quv reja, davlat ta’lim standartlari va dasturlar, darsliklarning yangi avlodlari taqdim etildi. Shularning davomi sifatida, bugun ta’lim sohasi mas’ullari oldida turgan dolzarb masalalardan biri klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o’qitishda pedagogik texnologiyalarni qo’llash, innovatsion yondashuvlar orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishdan iborat.

Tibbiyot ta’lim muassasalari pedagogik xodimlarining yangi, ilg’or pedagogik texnologiyalar, jumladan, Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o’qitishning zamonaviy interfaol usullarini bilishi, uning uchun tegishli ma’lumotlarni o’rganishi, tahlil qilishi va umumlashtirishi, amaliyotda qo’llay olishi bugungi kunning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi talabidir.

Pedagog o’z mutaxassisligi bo’yicha o’zlashtirgan bilimidan qat’iy nazar, ta’lim jarayoniga qadam qo’yar ekan, pedagogik - psixologik bilimlar, pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat, pedagogik madaniyat va o’qitish-o’rgatish uslublari yig’indisi bo’lgan zarur pedagogik ko’nikmalarni egallagan bo’lishi kerak. Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o’qitishda vositalar xilma- xil va qanchalik zamonaviy bo’lmasin o’qituvchi, pedagogning mahorati va uning o’z ishiga ma’suliyati yetarli bo’lmasa, bunday jarayon samarasiz yakunlanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2016- yil 30- dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan urashuvda shunday dedilar: “Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm – fanni ham yangi bosqichga ko’tarilishini talab qilmoqda. Zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin. Mazkur sohani qo’llab quvvatlash davlatimizning ustuvor vazifalaridandir” [1].

Shak- shubhasiz, nima uchun bugunga kelib pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik kuchaydi, degan savol tug’iladi. Aytish joizki, rivojlanayotgan davlatlarda, odatda, birinchi navbatda, pedagogik texnologiyalarga ta’lim sohasidagi siyosatning bosh vazifasi sifatida qarab kelingan. Chunki buguni kunning dolzarb muammolardan biri yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini takomillashtirish, zamon talabi darajasida maxsus qobiliyatini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish bo’lib qolmoqda. Qolaversa, hozirgi davrda ta’lim olish jarayoni texnologiyalarni qo’llashni taqozo qiladi. Bu esa bo’lajak mutaxassislarni zamonaviy axborotga ega bo’lish, boshqa tengdoshlari bilan uzoqdan turib fikr almashish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot obyekti. Innovatsion texnologiyalarni qo’llash orqali ta’lim berishda bo’lajak mutaxassislarni bilimlarni faol o’zlashtirishga o’rgatadi. Hozirgi kunda amaliyotga keng tadbiiq qilinayotgan texnologiyalardan biri bu innovatsion texnologiyasidir. Chunki, innovatsion texnologiyalarni qo’llash orqali ta’lim berish bo’lajak mutaxassislarga bilimlarni faol o’zlashtirishga imkon beradi. Oldinlari pedagog o’qitishda asosiy o’rinni egallasa, talaba esa bu jarayonning passiv ishtirokchisi bo’lib kelgan. Shuning uchun hozirgi paytda ilmiy-texnikaning yuksak darajada rivojlanayotgan davriga kelib, talaba o’zlashtirishi zarur bo’lgan ilmiy axborot hajmining keskin oshib ketishi innovatsion texnologiyalarni qo’llash orqali ta’lim berishni taqozo qilmoqda.

Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o’qitish modeli deb belgilandi va o’z navbatida bunda natija – shifokor uchun zaruriy kasbiy shifokor burchi, klinik talablar va subyektiv faoliyatning murakkab, nostandart sharoitlarida mustaqil, asoslangan kasbiy-ma’naviy qarorlarni qabul qila olishiga erishishdir [2].

Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o’qitish modeli O’zbekiston va dunyoda mavjud ilmiy-pedagogik yondashuv va kontseptsiyalar erishgan yutuqlarga tayanadi. Shu bois model tizimli (B.Adizov, M.Qodirova, N. Axmedova, S.I.Arangelg’skiy, V.P.Bespalg’ko, Y.K.Babanskiy, M.Vahobov, V.A.Slastyonin, Jennifer S. Groff), shaxsiy faoliyatga yo’naltirilgan (N.Ortiqov, N. Karimova, M. Toshibekova V.I.Andreev, A.K.Markova, K.K.Platonov) va kompetentlik (N.Muslimov, M.Urazova, B.Xodjaev, P.P.Borisov, L.F.Ivanova, G.A.TSukermanlar)ning yondashuvlari uyg’unligida ishlab chiqildi.

Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o’qitish jarayonini yaxlit tizim sifatida belgilaydi. Aksiologik yondashuvdan foydalanish Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o’qitishda o’z kasbi qadriyatlariga, an’analariga munosabatni shakllantiradi. Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o’qitishga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil etish uchun shaxsiy faoliyatga yo’naltirilgan yondashuv shaxsiy va jamiyat maqsadlari uyg’unligi ta’limning asosiy vazifasini bajaradi. Kompetentlik yondashuvni qo’llash asosida yuqumli kasalliklar fanini o’qitishni nazarda tutadi.

Tibbiyot muassasasining muhitiga oid yondashuv. Metodik va pedagogik fanlarida muhitga oid yondashuv bo’yicha Y.P.Belozertsev, B.M.Bim-Bad, V.A.Yasvinlar tomondan olib borilgan ishlarga qiziqish katta bo’lmoqda. Ushbu ta’limiy muhit, ta’lim muassasasining makonini va uning ichkarisi yoki chegaralaridan tashqaridagi potentsial ta’lim resurslari majmuyini o’zida aks ettiradi-ki, bu klasterlash imkonini berishdir. V.Yavsin ta’kidlashicha, «ta’limiy muhit – bu shaxs shakllanishiga ta’sirlar va shart-sharoitlar tizimi bo’lib, ijtimoiy va makonli muhitda rivojlanish uchun imkoniyat» dir.

Metodika. Tadqiqotimiz doirasida Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o’qitishga ko’maklashadigan ta’lim ma’naviy muhitga alohida urg’u berildi. Shu sababli ta’lim jarayonining yaxlitligi, praksiologik, Vatanga sodiqlik, subyektivlik, reflektivlik, maqsadga qaratilgan blokning tamoyillarini ifodalaydi (1-jadval) [3].


Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitish (integral diagnostika)			
Motivatsion	Kognitiv	Operatsional	Refleksiv
Bo'lajak nisbatan kasbga ijobiy motivatsiya va qadrli munosabat	Ma'naviy-axloqiy bilimlar tizimi	Ma'naviy-axloqiy fazilatlar doirasidagi kompetentsiyalar	O'z kasbiy-ma'naviy fazilatlarini adekvat baholay olishi
Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitish darajasi			
Yuqori	O'rta	Past	
KMF to'g'risidagi bilimlarning chuqurligi, kasbiy faoliyatda ulardan foydalanishga intilishning faolligi, o'z-o'zini adekvat baholay olish, barqaror motivlarning mavjudligi	KMF to'g'risidagi bilimlarning o'rta darajada mavjudligi, kasbiy faoliyatida ulardan foydalanishda chetdan yordam kutishi, o'z-o'zini baholashda ikkilanish	KMF to'g'risidagi bilimlarning amalda yo'qligi yoki sayozligi, kasbiy faoliyatda ulardan foydalanishga intilmaslik, o'z-o'zini adekvat baholay olmaslik	

Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitishning matnli vositalariga ilmiy va o'quv metodik adabiyotlar, lug'atlar, ko'rsatmali xaritalar, didaktik materiallar kiradi. Ushbu guruh vositalarini ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislarlar bilimi va ko'nikmasini chuqurlashtirishda, ular tomonidan o'quv materialini mustaqil o'rganishda, amaliy vazifalarni bajarishda qo'llaniladi.

Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitishning texnik vositalari – bu o'quv-trening ma'lumotlari namoyish etiladigan va ularni o'zlashtirishi nazorat etilishiga yordam beruvchi texnik ashyolardir. Pedagogik funksiyalarni bajarishiga ko'ra, ta'limning texnik vositalari 3 guruhga bo'linadi [4]:

- ma'lumotning (audiovizual) texnik vositalari;
- dasturlangan ta'lim va bilimlar nazoratining (axborotli nazorat) texnik vositalari;
- pedagogik vaziyatlar (1-rasm).

Modelning natijadorlik bloki Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitishning majmuaviy mezon va ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.



1-rasm. Pedagogik funksiyalar bosqichi

Bunda mezon; baholash amalga oshirilishi asosidagi belgi, nimanidir aniqlash yoki tasniflash, baholash o'lchovi bo'lib, ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Ko'rsatkichlar – kuzatuvchilar qayd qilishi mumkin bo'lgan natijalardir. Ko'rsatkich belgilari: diagnostik, ishonchlilik, majmuaviylik hisoblanadi.

Majmuaviy mezon sifatida to'rtta komponent: motivatsion, kognitiv, operatsional, refleksiv bloklarni – o'z ichiga olgan kasbiy-ma'naviy fazilatlar majmui belgilandi. Bunda motivatsion komponent ko'rsatkichlari – shifokorlik kasbiga nisbatan qadriyatli munosabat, kognitiv komponentning ko'rsatkichlari esa kasbiy o'zlashtirishdir. Operatsional komponentning ko'rsatkichlari – shifokorning axloqiy sifatleri shakllanishi bo'lsa, refleksiv komponentning ko'rsatkichlari – axloqiy o'zini o'zi baholashdan iboratdir. Ularning davriylashtirilishi oliy tibbiy ta'lim muassasasidagi ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkil etilishi bilan uzviy bog'liqligi har bir bosqich oliy ta'limning muayyan bosqichida amalga oshiriladi. Bunda ularni amalga oshirish ketma-ketligi ta'lim va tarbiya uyg'unligi tamoyilining bajarilishini taqozo etadi. Bu tamoyillar izchillik, hamma uchun ochiqligi, asta-sekin murakkablashib borishi, anglanganligi va

tizimlilikdir. Bosqichlarning tavsiflari va ularga mos ravishda bo'lajak shifokorlarda kasbiy-ma'naviy fazilatlarini rivojlantirish darajalari oraliq natijalar sifatida yuzaga chiqadi[5].

Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitish bosqichlari



2-rasm. Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitish bosqichlari

Dastlab Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitish jarayonining rejalashtirilayotgan natijasi to'g'risidagi tushunchalar shakllantiriladi. Bu harakatlar va natijalar o'rtasidagi aloqani paydo qiladi.

Ya'ni:

1. Bo'lajak mutaxassislarlarda tibbiy bilimlarning rivojlanish tendentsiyalariga va shu asosda ularning nazariy sifatiga qo'yilayotgan talablarga asosan kasbiy ma'naviy tayyorgarlikka munosabatni shakllantirish.


2. Bo'lajak mutaxassislarlarda o'zlarining tibbiy xizmat sohasiga mansub ekanliklarini anglashga tayyor turishni, shifokorlik kasbining xususiyatlaridan kelib chiqib yuklanayotgan vazifalarning muhimligi va buning uchun mas'uliyat hissini tarbiyalash.

3. Bo'lajak mutaxassislarlarda befarqlik, loqaydlikni bartaraf etish va ularning butun sa'y-harakatlarini yukning me'yorlarini amalda o'zlashtirish zaruratini tushunishlariga safarbar etish.

4. Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitishning samarali kasbiy faoliyat motivlarini tarbiyalash.

5. Bozor iqtisodiyoti, xususiy tadbirkorlik munosabatlari to'g'risida tasavvurlarni rivojlantirish va ushbu jarayonlarda tibbiy xizmat xodimlar ma'naviyatining o'rni va rolini tushuntirish.

Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitish jarayonini modellashtirish tibbiyot oliy ta'lim muassasasidagi asosiy motivatsion qadriyatlarga oid, ma'naviy-axloqiy, tibbiy faoliyatga doir komponentlarini hisobga olgan holda amalga oshirildi.



2-rasm. Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitish jarayonini modellashtirish

Tibbiyot yo'nalishi mutaxassislarini innovatsion rivojlanishining klasterlari mazmuni, ta'lim berish, o'quv tibbiyot fanlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Ayni paytda bu umumiy yo'nalishlar ta'limni boshqarish va tashkillashtirish, ta'lim turlari va yo'nalishlari o'rtasida uzviylik va integratsiyani ta'minlash, o'qitish metodlari va vositalaridan foydalanish kabi yo'nalishlarda xususiylashadi. Quyidagilar klaster tizimining subyektlari sifatida ishtirok etadi:

– tibbiyot yo'nalishi bo'lajak mutaxassislari o'quv amaliyot o'taydigan, ta'limiy, ilmiy tadqiqotchilik, innovatsion va loyihalashtirish faoliyatini olib boradigan o'quv va tajriba baza vazifasini o'taydigan ishlab chiqarish korxonalari;

–tibbiyot yo'nalishi mutaxassislarini paxta - to'qimachilik klasterlari asosida innovatsion rivojlantirishning turli darajalaridagi yangilanishlarga muvofiq ravishda turli to'garak va ilmiy maktablar, yoshlar markazlari, o'quv va ilmiy-metodik tuzilmalar, markazlar, ilmiy tadqiqot institutlari, xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar.

Bu yerda asosiy baza: har bir tibbiy jarayonni alohida ajratgan holda innovatsion yondashish orqali amalga oshirishdan iborat. Tibbiy jarayon bu bir qancha tibbiy majmuasidan iboratdir.

Har bir tibbiy jarayonni o'rganishda, albatta, uni tashkil etuvchi texnologik operatsiyalarni chuqur o'rganib, so'ngra ushbu jarayon to'g'risida tushunchaga bo'lajak mutaxassislar ega bo'lishi hamda ushbu jarayonlar mazmunini amaliyotga qo'llay olish ko'nikma va malaka, pirovardida kasbiy kompetentsiyalarga ega bo'lishi mumkin, masalan, ushbu operatsiyalarni yuqumli kasalliklar jarayonlari misolida ko'rib chiqamiz (3-rasm).

Yuqoridagi 3-rasmda ifodalangan jarayon quyidagicha:

- har bir tibbiy jarayonni alohida klaster metodi yordamida ajratgan holda amalga oshirish orqali bo'lajak mutaxassislar ushbu operatsiyalar orqali butun yuqumli kasalliklarni klasterlash jarayonini, yaxlit holda tasavvur etadi;

- bo'lajak mutaxassislarning imkoniyatlari ortib, klasterlash asosida yuqumli kasalliklarni o'z qobiliyatlariga ko'ra o'rganadilar. Shu orqali u mantiqiy fikrlab, mavjud hodisalar, sabablar va ularning yechimlari bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi. Natijada uning muloqot, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatlari, nostandart fikrlash darajasi rivojlanadi; bunday o'quv jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajalari ham ortadi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, klasterlash asosida yuqumli kasalliklarni alohida operatsiyalarga ajratgan holda innovatsion yondashuv asosida amalga oshirish dars sifati va bo'lajak mutaxassislar dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi. Mazkur jarayonlarni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishda, birinchi navbatda, bo'lajak mutaxassislarga fanlararo, mavzulararo bog'liqlikni yetkazib berish maqsadga muvofiqdir. Aks holda bo'lajak mutaxassislar idrok qilmagan integratsiya davomida tushunmovchilikka duch kelishi, mavhum holatga tushib qolishi, jarayon oxirida ham noto'g'ri xulosaga kelishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон “Ўзбекистон-2030 стратегияси” тўғрисидаги Фармони.
2. Беляков В.Д., Яфаев Р.Х. Эпидемиология. Учебник - М.: Медицина, 1989. – 416 с.
3. Усманов М.К. - Эпидемиология Ўқув адабиёти. – Т.: Абу Али Ибн Сино, 1995. – 555 б.
4. Миртазаев О.М. Эпидемиологиядан амалий машғулотлар учун қўлланма. – Тошкент Давлат иккинчи тиббиёт институти 2003. – 242 б.
5. Миртазаев О.М., Зуева Л.П., Матназарова Г.С. Эпидемиология. Дарслик. – Т: Абу Али Ибн Сино, 2016. – 598 б.

LOGARIFMIK TENGSIZLIKLARNI YECHISHNING NOSTANDART USULLARI HAQIDA

Xudayarov Sa’nat Samadovich,

Buxoro davlat universiteti Matematik analiz kafedrasida katta o’qituvchisi,

fizika-matematika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

<https://orcid.org/0000-0002-6386-6958>

s.s.xudayarov@buxdu.uz

Ushbu maqolada logarifmik tengsizliklarni yechishda o’quvchilar kamida 4-5 ta murakkab tengsizliklarni yechishlariga to’g’ri keladi. Ushbu maqolada murakkab tengsizliklarga teng kuchli tengsizliklar bilan almashtirib qulay usul topilgan. Bu topilgan yechish usuli hisob-kitobni kamaytiradi.

***Kalit so’zlar:** xarakteristika, mantissa, logarifmlash, potentsirlash, logarifmik tengsizliklarni yechishda teng kuchli tengsizliklardan foydalanish, tengsizliklarni ratsionallashtirish.*

О НЕСТАНДАРТНЫХ МЕТОДАХ РЕШЕНИЯ ЛОГАРИФМИЧЕСКИХ НЕРАВЕНСТВ

В этой статье при решении логарифмических неравенств учащиеся должны решить не менее 4-5 сложных неравенств. В данной работе найден удобный метод замены комплексных неравенств равносильными неравенствами. Это найденное решение сокращает расчёт.

***Ключевые слова:** характеристика, мантисса, логарифмизация, возведение в степень, использование неравенства равных степеней при решении логарифмических неравенств, рационализация неравенств.*

ABOUT NON-STANDARD METHODS FOR SOLVING LOGARITHMIC INEQUALITIES

In this article, when solving logarithmic inequalities, students must solve at least 4-5 complex inequalities. In this paper, a convenient method is found for replacing complex inequalities with equivalent inequalities. This solution found shortens the calculation.

***Key words:** characteristic, mantissa, logarithmization, exponentiation, use of inequality of equal powers when solving logarithmic inequalities, rationalization of inequalities.*

Kirish.

Logarifm. Logarifmlar shotlandiyalik matematik J.Neper (1550-1617) va undan bexabar Shvetsariyalik mexanik hamda matematik I.Byurgi (1552-1632) tomonidan kiritilgan. Byurgi logarifmlarni birinchi bo’lib topgan, ammo o’z jadvalarini kechikib e’lon qilgan (1620-y). Neperning “**Logarifmlar ajoyib jadvalining tafsiloti**” nomli ishi esa birinchi bo’lib 1614-yil e’lon qilingan. Neper logarifmlar jadvalining asosi irratsional bo’lib, unga $(1 + \frac{1}{n})^n$

Sonlari n cheksiz o’sganda yaqinlashadi. Bu son Neper soni deyiladi va L.Eyler zamonidan boshlab e harfi bilan belgilanadi.

$$e = \lim_{n \rightarrow \infty} (1 + \frac{1}{n})^n$$

Neper e sonining o’zini emas, uning juda yaxshi yaqinlashmasini $(1 + \frac{1}{10^7})^{10^7}$ sonini asos qilib olib, jadval tuzilgan. e asosli logarifmlar natural logarifmlar deb ataladi va ln kabi belgilanadi.

O’nli logarifmlarning birinchi jadvalini mohir kashfiyotchi va tengi yo’q hisob ustasi bo’lgan ingliz matematigi G.Briggs (1561-1630) tuzgan. Uning “**logarifmik arifmetika**” sida 1 dan 20.000 gacha va 90.000 dan 100.000 gacha sonlarning o’n to’rt xonali jadvali bor edi. 1628-yil gollandiyalik matematik A.Flakk (1600-1667) 1 dan 100.000 gacha barcha sonlarning o’n raqamli mantissalaridan tuzilgan jadvalini nashr etib, Briggs jadvalidagi kamchilikni to’ldirdi. Bu jadvallar dunyoning ko’pgina mamlakatlarida nashr qilina boshladi. Rus tilida logarifmik jadvallar birinchi marta 1703-yil nashr qilindi.

Darajaga ko’tarish amaliga teskari amalni qarab chiqamiz. $a^x = b$ tenglamada x noma’lum bo’lib, uni topish ko’rsatkichni topish amali deyiladi.

Asosiy qism.

Ta’rif: [1] b sonning a asos bo’yicha logarifmi deb b sonni hosil qilish uchun a sonni ko’tarish kerak bo’ladigan daraja ko’rsatkichiga aytiladi. Quyidagi ko’rinishda topiladi.

Agar $a^x = b$ bo'lsa, ta'rifga ko'ra $x = \log_a b$. Bunda a – logarifmning asosi, b – logarifmlanayotgan son, $a > 0, a \neq 1$ deb olinadi, $b > 0$ bo'ladi, ya'ni $a^x = b, x = \log_a b$ bundan,
 $a^{\log_a b} = b$

Xarakteristika va mantissa

Ta'rif: [1] Son logarifmining butun qismi uning xarakteristikasi, kasr qismi mantissasi deyiladi. Masalan, $\log 123 = 2,0899$. Bunda: 2- xarakteristika; kasr “0899” – mantissadir.

a) Birdan katta son logarifmining xarakteristikasi, sondagi butun xonalar sonidan bitta kam bo'lgan musbat birlikka teng.

Masalan: $\lg 2,5 = 0,3973$, $\lg 82 = 1,913$, $\lg 301,5 = 2,4793$ va hokazo.

b) Birdan kichik o'nli kasr logarifmining xarakteristikasi sondagi birinchi qiymatli raqamgacha bo'lgan nollar soninig yig'indisidan iborat bo'lgan manfiy butun songa teng (nol butun ham shu hisobga kiradi).

Masalan, $\lg 0,8 = 1,9031$, $\lg 0,025 = 2,3979$, $\lg 0,00305 = 3,4843$.

Logarifmlash va potensirlash

Ta'rif. Biror ifodaning logarifmini topish, uni logarifmlash deyiladi.

Masalan, $\sqrt[3]{\frac{a^2b}{c}}$ ning o'nli logarifmi topilsin.

Logarifmlaymiz:

$$\lg \sqrt[3]{\frac{a^2b}{c}} = \frac{1}{3} \lg \frac{a^2b}{c} = \frac{1}{3} [\lg(a^2b) - \lg c] = \frac{1}{3} (2\lg a + \lg b - \lg c).$$

Ta'rif. Logarifmdan ifoda yoki sonni toppish potensirlash deyiladi.

Masalan,

$N = \frac{1}{3} (2\lg a + \lg b - \lg c)$ ni potensirlang, ya'ni N ni toping.

Potensirlaymiz: $\lg N = \frac{1}{3} (2\lg a + \lg b - \lg c) = \frac{1}{3} \lg \frac{a^2b}{c} = \lg \sqrt[3]{\frac{a^2b}{c}}$.

Bundan logarifmning 3^o- xossasiga asosan:

$$N = \sqrt[3]{\frac{a^2b}{c}}.$$

bo'ladi.

Logarifmik tengsizliklarni yechishda teng kuchli tengsizliklardan foydalanish.

Tengsizliklarni ratsionallash

Tengsizliklarni intervallar usuli bilan yechishda funksiyaning oraliqdagi qiymatlarini hisoblashda hisoblash bilan bog'liq qiyinchilik paydo bo'lishi mumkin. Ikkinchi tomondan, ratsional funksiya ishorasi navbat bilan almashish xossasidan foydalanib, hisoblashni minimumgacha keltirish mumkin.

Tengsizliklarni intervallar usuli bilan yechish imkoniyatini kengaytirish maqsadida matematikada boshqa nom bilan ma'lum bo'lgan **tengsizlikni ratsionallash** g'oyasidan foydalanamiz.

Ratsionallash usuli shundan iboratki, $F(x)$ qiyin ifodani nisbatan oson bo'lgan $G(x)$ ifodaga almashtirib, $F(x)$ ning aniqlanish sohasida $G(x) > 0 (G(x) < 0)$ tengsizlik $F(x) > 0 (F(x) < 0)$ tengsizlikka teng kuchli bo'ladi. Bu holda $G(x)$ ifoda $F(x)$ ifoda uchun ratsionallash deyiladi.

Ratsionallash usuli g'oyasida funksiyaning monotonlik xossasi qo'llaniladi. Dastlab monoton funksiya nollari haqidagi teoremani eslatib o'tamiz.

Teorema. [2] Agar $p(x)$ -M intervalda monoton funksiya va $E(p)$ –uning shu intervaldagi qiymatlari to'plami bo'lsa, u holda ixtiyoriy $c \in E(p)$ soni uchun $p(x) = c$ tenglamaning yagona $x_0 \in M$ noli mavjud.

Natija. Agar $p(x)$ funksiya M intervalda monoton o'suvchi funksiya bo'lsa, u holda $\forall x_1, x_2 \in M$ sonlari uchun $p(x_1) \geq p(x_2)$ va $x_1 \geq x_2$ tengsizliklar teng kuchli yoki $p(x_1) - p(x_2) \geq 0 \Leftrightarrow x_1 - x_2 \geq 0$ (xuddi shuningdek,

$$p(x_1) - p(x_2) > 0 \Leftrightarrow x_1 - x_2 > 0).$$

Natija. Agar $p(x)$ funksiya M intervalda kamayuvchi funksiya bo'lsa, u holda $\forall x_1, x_2 \in M$ sonlari uchun $p(x_1) \geq p(x_2)$ va $x_1 \leq x_2$ tengsizliklar teng kuchli yoki $p(x_1) - p(x_2) \geq 0 \Leftrightarrow x_1 - x_2 \leq 0$ (xuddi shuningdek,

$$p(x_1) - p(x_2) > 0 \Leftrightarrow x_1 - x_2 < 0).$$

Ta'kidlash lozimki, $p(t) = \log_a t$ va $p(t) = a^t$ funksiyalar o'zining aniqlanish sohasida monoton bo'lib, $a > 1$ bo'lganda o'suvchi, $0 < a < 1$ bo'lganda esa kamayuvchi bo'ladi.

$F(x) = \log_a f(x) - \log_a g(x), f(x) - g(x)$ va $G(x) = (a - 1)(f(x) - g(x))$ ifodalarning $F(x)$ ning

$$\begin{cases} a > 0 \\ a \neq 1 \\ f(x) > 0 \\ g(x) > 0 \end{cases}$$

bilan berilgan aniqlanish sohasida a dan bog‘liq ravishda ishorasini qaraymiz.

Teorema. [4] $a > 0$ va $a \neq 1$ bo‘lganda $\log_a f(x) - \log_a g(x)$ va $(a - 1)(f(x) - g(x))$ ifodalarning ishorasi $f(x) > 0, g(x) > 0$ x larda ustma-ust tushadi.

$a > 0$ va $a \neq 1$ hamda x ning mumkin bo‘lgan qiymatlarida $\log_a f(x) - b = \log_a f(x) - \log_a a^b$ va $\log_a f(x) - 0 = \log_a f(x) - \log_a 1$

tengliklar o‘rinli, shu sababli yuqoridagi teoremdan quyidagi natijalar kelib chiqadi:

Natija. $a > 0$ va $a \neq 1$ bo‘lganda $\log_a f(x)$ va $(a - 1)(f(x) - a^b)$ ifodalarning ishorasi $f(x) > 0$ bo‘ladigan x larda ustma-ust tushadi.

Eslatma. $\log_a f(x) + \log_a g(x)$ yoki $\log_a(f(x)g(x))$ ifoda uchun

$$\begin{cases} a > 0 \\ a \neq 1 \\ f(x) > 0 \\ g(x) > 0 \end{cases} \text{shartda } (a - 1)(f(x) - 1) \text{ ifoda ratsionallashtirish bo‘ladi.}$$

Δ orqali $\geq, >, \leq, <$ ishoralardan birini belgilaymiz. Ratsionallashtirish usuli $F(x) \Delta 0$ ko‘rinishdagi tengsizlikni yechishda ishlatiladi, bunda $F(x)$ ni ratsionallashtirish uchun,

yoki $\log_a f(x) - \log_a g(x)$ va $(a - 1)(f(x) - g(x))$ ifodalarni ko‘paytma yoki bo‘linma ko‘rinishida tasvirlash mumkin bo‘lib, ulardan har birini ratsionallashtirish mumkin. Masalan, x o‘zgaruvchining mos shartlarida:

• $(\log_a f(x))(\log_b g(x)) > 0$ tengsizlik $(a - 1)(f(x) - 1)(b - 1)(g(x) - 1) > 0$ tengsizlikka teng kuchlidir.

• $\frac{\log_a f(x) - \log_a g(x)}{\log_b h(x)} \leq 0$ tengsizlik $\frac{(a - 1)(f(x) - g(x))}{(b - 1)(h(x) - 1)} \leq 0$ tengsizlikka teng kuchlidir.

Izoh: o‘quvchilar ratsionallashtirish usulini qo‘llashda yo‘l qo‘yadigan standart xatoliklar quyidagilar:

- berilgan tengsizlikning aniqlanish sohasini inobatga olmasdan ratsionallashtiradi;
- $F(x) \Delta 0$ standart ko‘rinishga keltirilmagan tengsizlikka ratsionallashtirish usulini qo‘llaydi;
- $\log_a f(x) + \log_a g(x)$ ko‘rinishdagi ifodada $f(x) + g(x)$ ifodaga almashtirilgan ratsionallashtirish usuli qo‘llaniladi;

g) “ x ning mumkin bo‘lgan qiymatlarida ishoralari ustma-ust tushadi” deb bayon qiladilar.

Misol. $\log_{x+\frac{2}{9}} 3 \leq \log_{\sqrt{x}} 3$ tengsizlikni yeching.

Yechish. Teng kuchli almashtirishlar olib,

$$\log_{x+\frac{2}{9}} 3 \leq \log_{\sqrt{x}} 3 \Leftrightarrow \frac{1}{\log_3(x+\frac{2}{9})} \leq \frac{1}{\log_3 \sqrt{x}} \Leftrightarrow \frac{\log_3 \sqrt{x} - \log_3(x+\frac{2}{9})}{\log_3(x+\frac{2}{9}) \log_3 \sqrt{x}} \leq 0 \Leftrightarrow \begin{cases} (\sqrt{x} - (x + \frac{2}{9})) \\ (x + \frac{2}{9}) > 0 \\ x + \frac{2}{9} \neq 1 \\ \sqrt{x} > 0 \\ \sqrt{x} \neq 1 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} (-x + \sqrt{x} - \frac{2}{9})(x - \frac{7}{9})(\sqrt{x} - 1) \leq 0 \\ x \neq \frac{7}{9} \\ x > 0 \\ x \neq 1 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} (\sqrt{x} - \frac{1}{3})(\sqrt{x} - \frac{2}{3})(x - \frac{7}{9})(\sqrt{x} - 1) \geq 0 \\ x \neq \frac{7}{9} \\ x > 0 \\ x \neq 1 \end{cases}$$

$x \in (0; \frac{1}{9}] \cup [\frac{4}{9}; \frac{7}{9}) \cup (1; +\infty)$ ni hosil qilamiz

Javob: $x \in (0; \frac{1}{9}] \cup [\frac{4}{9}; \frac{7}{9}) \cup (1; +\infty)$.

Endi asosida logarifmlar qatnashgan va logarifm belgisi ostida x dan bog‘liq funksiyani saqlovchi tengsizliklarni qaraymiz.

Teorema. [5] $\log_{h(x)} f(x) - \log_{h(x)} g(x)$ va $(h(x) - 1)(f(x) - g(x))$ ifodalarning ishorasi $h(x) > 0, h(x) \neq 1, f(x) > 0, g(x) > 0$ bo‘ladigan x ning barcha qiymatlarida ustma-ust tushadi.

Isbot. $a > 0$ va $a \neq 1$ o‘zgarmas asosli logarifimga o‘tamiz:

$$\log_h f - \log_h g = \frac{\log_a f}{\log_a h} - \frac{\log_a g}{\log_a h} = \frac{\log_a f - \log_a g}{\log_a h}$$

Yuqoridagi teoreмага ko‘ra o‘zgaruvchining mos shartlarida oxirgi ifoda ishorasi

$$\frac{(a - 1)(f - g)}{(a - 1)(h - 1)}$$

va $(h-1)(f-g)$ ifoda ishorasi bilan ustma-ust tushadi.

Natija. $\log_{h(x)} f(x) - b$ va $(h(x) - 1)(f(x) - (h(x))^b)$ ifodaning ishorasi x ning $h(x) > 0, h(x) \neq 1, f(x) > 0$ bo‘ladigan qiymatlarida ustma-ust tushadi.

Natija. $\log_{h(x)} f(x)$ va $(h(x) - 1)(f(x) - 1)$ ifodaning ishorasi x ning

$h(x) > 0, h(x) \neq 1, f(x) > 0$ bo‘ladigan barcha qiymatlarida ustma-ust tushadi.

Teorema. $\log_{f(x)} h(x) - \log_{g(x)} h(x)$ va $(f(x) - 1)(g(x) - 1)(g(x) - f(x))(h(x) - 1)$ ifodalarning ishorasi x ning $f(x) > 0, f(x) \neq 1,$

$g(x) > 0, g(x) \neq 1, h(x) > 0$ bo‘ladigan qiymatlarida ustma-ust tushadi.

Isbot. $\log_f h - \log_g h = \frac{1}{\log_h f} - \frac{1}{\log_h g} = \frac{\log_h g - \log_h f}{\log_h f \log_h g} = \log_h f \log_h g (\log_h g - \log_h f)$ bo‘lganligi uchun o‘zgaruvchining mos shartlarida oxirgi ifoda ishorasi $(h - 1)(g - 1)(f - 1)(g - f)$ ning ishorasi bilan ustma-ust tushishini hosil qilamiz.

Teorema. [6] $h(x)^{f(x)} - h(x)^{g(x)}$ va $(h(x) - 1)(f(x) - g(x))$ ifodalarning ishorasi x ning $h(x) > 0$ bo‘ladigan barcha qiymatlarida ustma-ust tushadi.

Natija. x ning $h(x) > 0$ bo‘ladigan qiymatlarida $h(x)^{f(x)} - 1$ va $(h(x) - 1)(f(x))$ ifodalarning ishoralari ustma-ust tushadi.

Natija. $a > 0$ soni uchun x ning mumkin bo‘lgan qiymatlarida $a^{f(x)} - a^{g(x)}$ va $(f(x) - g(x))(a - 1)$ ifodalarning ishoralari ustma-ust tushadi.

Teorema. x ning $f(x) > 0, g(x) > 0$ bo‘ladigan qiymatlarida $f(x)^{h(x)} - g(x)^{h(x)}$ va $(f(x) - g(x))h(x)$ ifodalarning ishoralari bir xil.

Natija. x ning mumkin bo‘lgan qiymatlarida $\sqrt[2n+1]{f(x)} - \sqrt[2n]{g(x)}$ va $f(x) - g(x)$ ifodalarning ishoralari bir xil, bu yerda $n \in \mathbb{N}$.

Natija. x ning $f(x) > 0, g(x) > 0, n \in \mathbb{N}$ bo‘ladigan barcha qiymatlarida $\sqrt[2n]{f(x)} - \sqrt[2n]{g(x)}$ va $f(x) - g(x)$ ifodalarning ishoralari bir xil.

Teorema. x ning mumkin bo‘lgan qiymatlarida $|f(x)| - |g(x)|$ va $(f(x) + g(x))(f(x) - g(x))$ ifodalarning ishoralari bir xil bo‘ladi.

Ko‘rsatma. Isbotlash uchun $|f(x)| - |g(x)|$ va $f^2(x) - g^2(x)$ ifodalarni qarash kerak va $[0; +\infty)$ oraliqda $p(t) = t^2$ o‘tuvchi funksiya xossasidan foydalanish kerak.

Xulosa.

Ushbu maqolada logarifmik tengsizliklarni yechishda o‘quvchilar uchun juda qulay usul tushuntirilgan. Ushbu maqolada murakkab tengsizliklarga teng kuchli tengsizliklar bilan almashtirib yechishning qulay usul tushuntirilgan. Bu topilgan yechish usuli hisob-kitobni kamaytiradi.

Adabiyotlar:

1. Kolmogorov A.N.. Algebra va analiz asoslari, 10-11-sinflar uchun o‘quv qo‘llanma. T.1994.
2. Прокофьев А.А., Корянов А.Г. Готовим к ЕГЭ хорошистов и отличников. Лекция 4. Решение неравенств функционально графическим методом. // Математика. – М. 2011
3. Самсонов П.И. О применении метода декомпозиции неравенств // Математика. Всѣ для учителя, 2011, №10.

4. Олехник С.Н., Потапов М.К., Пасиченко П.И. Уравнения и неравенства. Нестандартные методы решения. 10-11 классы: Учебно-метод. пособие / М: Дрофа, 2001.
5. Корянов А.Г., Прокофьев А.А. Методы решения логарифмических неравенств (часть I и часть II), «Математика в школе», – М.: «Школьная пресса», 2012.
6. Шабунин М.И., Прокофьев А.А., Олейник Т.А., Соколова Т.В. Математика. Алгебра. Начала математического анализа. Профильный уровень: задачник для 10-11 классов – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний. 2009.

КОМПЕТЕНТНО–ОРИЕНТИРОВОЧНЫЕ ЗАДАНИЯ КАК СПОСОБ ФОРМИРОВАНИЯ КЛЮЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА УРОКАХ ХИМИИ

*Ажиева Мухаббат Бахтыбаевна,
доцент Нукусского государственного педагогического
института имени Ажинияза, к.п.н*

В данной статье описаны исследования по применению компетентно-ориентированных заданий на уроках химии в средней школе. Данная работа освещает уроки химии, где применяются технологии, направленные на создание атмосферы творчества, желание познавать и исследовать окружающий нас мир. Учащимся предлагается не только задания репродуктивного плана, но и компетентно-ориентированные задания, целью которых являются развитие ключевых компетенций, направленных на их умение применять полученные знания в различных жизненных ситуациях.

Ключевые слова: компетенция, ориентация, компетентно-ориентированные задания, формирование, химия, адаптация, мышление, мотивация, исследовательская работа, критерий, анализ.

KIMYO DARSLARIDA ASOSIY KOMPETENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISH USULI SIFATIDA KOMPETENTSIYAGA YO'NALTIRILGAN VAZIFALAR

Ushbu maqolada o'rta maktabda kimyo darslarida kompetentsiyaga yo'naltirilgan vazifalarni qo'llash bo'yicha tadqiqotlar tasvirlangan. Ushbu asar kimyo darslarini yoritadi, bu erda ijodkorlik muhitini yaratishga qaratilgan texnologiyalar, atrofimizdagi dunyoni o'rganish va o'rganish istagi mavjudligi ifodalanadi. Talabalarga nafaqat reproductiv rejaning vazifalari, balki kompetentsiyaga yo'naltirilgan vazifalar ham taklif etiladi, ularning maqsadi olingan bilimlarni turli xil hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatiga qaratilgan asosiy vakolatlarni rivojlantirishdir.

Kalit so'zlar: kompetentsiya, yo'nalish, kompetentsiyaga yo'naltirilgan vazifalar, shakllantirish, kimyo, moslashish, fikrlash, motivatsiya, tadqiqot ishlari, mezon, tahlil.

COMPETENCE–ORIENTED TASKS AS A WAY OF FORMING KEY COMPETENCIES IN CHEMISTRY LESSONS

This article describes research on the use of competence-oriented tasks in chemistry lessons in secondary school. This work highlights chemistry lessons, where technologies are used to create an atmosphere of creativity, a desire to learn and explore the world around us. Students are offered not only tasks of a reproductive plan, but also competence-oriented tasks, the purpose of which is to develop key competencies aimed at their ability to apply the acquired knowledge in various life situations.

Keywords: competence, orientation, competence-oriented tasks, formation, chemistry, adaptation, thinking, motivation, research work, criterion, analysis.

Введение. В «Концепции модернизации образования республики Узбекистан» делается акцент на развитие самостоятельности учебных действий учащихся. Требования, предъявляемые к выпускнику средней школы, предполагают, не только овладение учащимися предметными знаниями, умениями и навыками, но и овладение разными способами деятельности. На уроке должны создаваться условия, способствующие поддержанию природного любопытства учащихся, их интереса и стремление к самостоятельной работе над решением проблем. Приоритетной целью становится формирование компетенций и компетентностей учащихся.

Цель. В средней школе необходимо и возможно заложить основы готовности к решению проблем, готовности к самообразованию, схемы, диалог, постановка вопросов, перевод их в проблемные ситуации, игровые моменты, сравнение и аналогия, использование средств художественного воздействия, использование ИКТ.

На уроках химии мы применяем технологии, направленные на создание атмосферы творчества, желание познавать и исследовать окружающий нас мир. Учащимся предлагается не только задания репродуктивного плана, но и **компетентно-ориентированные задания**, целью которых

являются развитие ключевых компетенций, направленных на умение их применять полученные знания в различных жизненных ситуациях.

Ожидаемые результаты от компетентностно-ориентированных заданий:

- Повышение степени обученности учащихся.
- Сформированности ОУН.
- Формирование творческого потенциала личности учащегося.

Метод. Представленные ниже **компетентностно-ориентированные задания** направлены на развитие у учащихся информационных, коммуникативных компетентностей и компетентности разрешения проблем, позволяют научить их поиску и отбору информации, публично выступать перед одноклассниками, ставить и отвечать на заданные вопросы. Задания организуют деятельность учащихся, а не воспроизведение ими информации или отдельных действий. **Компетентностно-ориентированные задания:**

- «Что лишнее».

Предлагается ассоциативный ряд, отражающий содержание той или иной темы. Учащимся предлагается найти лишнее понятие, что позволяет определить уровень владения материалом. Задание направлено на развитие предметных компетентностей.

- «Верно – неверно».

Предлагается высказывания по теме, содержащие истинные и ложные высказывания. Задание позволяет учителю провести контроль за усвоением темы, пониманием причинно-следственных связей и направлено на формирование предметных компетентностей.

- «Продуктивных заданий».

Учащимся предлагают создать и представить схему, таблицу, опорный конспект по теме. Формулировка заданий содержит только вопрос – часть задания, требующую от учащегося конкретных действий. Ученик не только извлекает информацию но и производит действия по ее обработке.

Критерий наблюдений по компетентностно-ориентированным заданиям:

1 уровень – общекультурный: ученик понимает основные положения темы, может объяснить правило, применить его по образцу, отвечает на вопросы продуктивного характера.

2 уровень – прикладной: кроме перечисленного ученик выполняет задания в измененной ситуации, умеет демонстрировать понимание системности (взаимосвязей) понятийного аппарата темы, не выходя за его рамки.

3 уровень – творческий: ученик способен решить проблемы, входящие за рамки, самостоятельно выбирать цели и программу действий.

Приведем пример заданий для учащихся 11х классов и анализ ответов.

Предложите выход из безвыходной ситуации, практически реализуемый в домашних условиях: в колодец, из которого берут питьевую воду, попал электролит из автомобильного аккумулятора, других источников пресной воды нет... Подробно опишите ваши действия, приведя схематическое изображение с пояснительными надписями используемой «установки» для очистки воды.

Несмотря на то, что с момента изучения способов разделения смесей прошло 4 года (разделение смесей тема 7 класса), большая часть учащихся правильно ответила на поставленный вопрос: использование различной растворимости веществ в гетерогенной смеси с дальнейшим выпариванием растворителя и использование различий в температурах кипения веществ в гомогенной смеси (дистилляция). В некоторых работах предлагались химические способы очистки воды «подручными» материалами: гидроксидом кальция (гашенная известь), карбонатом кальция (мел, известняк) или содой с последующей перегонкой раствора.

Анализ ответов на вопрос показал, что часть учащихся хорошо усвоила химические свойства веществ, но не знает их биологического действия. При этом учащиеся использовали знания, полученные на уроках математики. Например, одна ученица пишет:

«Итак, в колодец с питьевой водой по неизвестным нам причинам попал электролит из автомобильного аккумулятора. А так, как это не что иное, как серная кислота (H_2SO_4), то нам в этой «безвыходной» ситуации необходимо нейтрализовать кислоту щелочью. В данной ситуации – 5 %-ным раствором питьевой соды. Следовательно, план наших действий будет следующим:

1. Вычисляем объем воды в нашем колодце:

а) круглый колодец: $V = \pi r^2 h$, где $r = \frac{AB}{2}$; h-уровень воды в колодце;

б) прямоугольный (квадратный) колодец $V = abh$, где а-ширина, б-длина, h-уровень воды в колодце;

Примечание: для удобства измеряем необходимые величины в литрах. Получившееся число – количество литров в колодце.

2. Вычисляем необходимое количество соды для нейтрализации кислоты.

3. Для более быстрого растворения соды в воде достаем из колодца 1 ведро (5л) воды и растворим получившуюся в результате расчета необходимую массу соды.

4. Выливаем получившийся раствор в колодец и перемешиваем (палкой).

Вывод: в ходе совершенных нами действий



мы получили сульфат натрия, безвредный в небольших количествах для человеческого организма (пить можно).

При анализе работ учащихся лишь в одной работе было указано, что образующийся сульфат натрия обладает сильным слабительным действием, поэтому воду после нейтрализации кислоты нужно обязательно перегнать.

Многие учащиеся предлагали осадить сульфат – ионы ионами бария, что верно с химической точки зрения, но, во-первых, нереализуемо в домашних условиях и, во-вторых, не учитывает высокую токсичность растворимых соединений бария.

Были предложены совершенно фантастические способы очистки воды от серной кислоты, вскрывшие полное незнание свойства веществ, с которыми современный человек встречается ежедневно: «Так, как плотность электролита меньше плотности воды, то он всплывает на поверхность и при пропускании горячей спичкой загорается и сгорит, тем самым пресная вода очистится»: «При соединении пресной воды с кислотой может получиться NaOH. Для того чтобы вывести натрий из воды, необходимо провести реакцию $\text{NaOH} + \text{HCl} = \text{NaCl} + \text{H}_2\text{O}$. При этом образуется NaCl, но она безвредна для человека».

Результаты. При анализе ответов учащихся было обнаружено, что они испытывают затруднения в представлении информации в графической форме. Большая часть учащихся, не привели рисунки «установок», которые они предлагают использовать для выделения одного из компонентов смеси, ограничившись лишь словесным описанием.

Это задание проверяло знание учащихся о способах разделения смесей, с которыми школьники познакомились в 7 классе. В дальнейшем изучении химии эти знания практически не использовались. Формулировка задания и состав смесей максимально приближали учащихся к повседневной жизни, поскольку их фактологической основой стали известные школьникам наблюдения и знания из СМИ и личного опыта.

Также можно привести несколько примеров компетентностно-ориентированных заданий:

Атомные электростанции.

Есть у атомной электростанции серьезные проблемы. Одна из них - захоронение отходов. Радиоактивные отходы АЭС губительны для всего живого. Оставлять их в отвалах, как это делают с угольной золой, нельзя. Сжечь, переплавить – тоже. Тем более что «отходами» в конечном счете становится практически все оборудование АЭС. Через 25-30 лет – а именно на такой срок эксплуатации рассчитаны атомные станции – их оборудование придется демонтировать и ... куда-то девать. Куда? Пока никто не знает. В мире просто нет еще такого опыта. Пока отработавшие графитные блоки в свинцовых контейнерах опускают в глубокие шахты, топят в океанах, заливают жидким стеклом. Сейчас таких отходов относительно мало - а когда их будет тысячи тонн? Что делать? Отказываться от АЭС, как это требуют многие? Вряд ли это удастся Потому что серьезной альтернативы атомной энергетике пока еще нет. Во всем мире действует 440 атомных электростанций. Их доля в производстве электроэнергии уже превысила 18%, а общая мощность АЭС ежегодно возрастает на 8-10%.

Какое решение предлагается для утилизации радиоактивных отходов? Сопоставьте разные подходы и выскажите свою точку зрения.

Водород в природе.

Исследование Соссюра (1806), Буссенго (1833) и особенно А.Готье (1899) показали, что в воздухе всегда, даже в высоких горах, содержится около 0,02% (по объему) водорода. Так как водород атмосферы отчасти может окисляться в воде, а отчасти должен удаляться в межпланетное пространство, обладая большой скоростью своего движения, определяющего диффузию, то

очевидно, что постоянное присутствие водорода в воздухе не может быть понято, если не найдутся постоянные источники образования водорода в природе.

Соберите информацию об источниках, поставляющих водород в атмосферу Земли.

Заключение. Использование компетентностно-ориентированных заданий предполагает умение практически применять полученные компетенции в жизненных ситуациях. Одним из подходов к мониторингу развития ключевых компетенций служит исследовательская работа учащихся, представляемой на научно-практической конференции, проводимой в конце учебного года.

Учащиеся готовят рефераты, включающие в себя собственное исследование по выбранной теме, учатся целепологанию (компетенция решения проблем), создают электронные презентации (информационная компетенция), учатся выступать на научно-практических конференциях различных уровней (коммуникативная компетенция).

Таким образом, в течении учебного года ведется отслеживание сформированности ключевых компетентностей. Сложность темы исследования, глубина ее раскрытия, способность самостоятельно добывать информацию из различных источников, рост словарного запаса, и как итог рост познавательной активности является результатом работы учителя по формированию ключевых компетентностей.

Современный урок предполагает видение учителем развивающего потенциала урока: развитие проблемно-творческого, критического мышления учащихся, формирование предметных, надпредметных, ключевых образовательных компетенций учащихся, развитие и эмоциональной и мотивационной сферы. Знание не самоцель, а средство для самоопределения человека в мире, способ вхождение ребенка в культуру и осознание им себя в культурном пространстве – вот то, к чему стремится современный учитель.

Литература:

1. Лезина О.М. Использование компетентностно-ориентированных заданий на уроках естествознаний как средство мониторинга ключевых компетенций младших школьников.
2. Максимова А.А. Развитие коммуникативных умений школьников в сюжетно-ролевых играх. Нач.шк. Плюс. До и после. 2005. №1.
3. Хуторский А.В. Ключевые компетенции: технология конструирования. Народное образование. 2003. №5.
4. Журин А.А. Интегрированное медиаобразование в средней школе. М. Из-во БИНОМ. Лаборатория знаний. 2013.

TENG KUCHLI PARAMETRLI TENGLAMALAR SISTEMASINI YECHISH USULLARI

Ubaydulloyev Alisher Nematilloevich,
Buxoro davlat universiteti Matematik
analiz kafedrası o'qituvchisi
alisherubaydullayev2022@gmail.com
orcid.org/0000-0002-4219-5155

Ushbu maqolada teng kuchli parametrlı tenglamalar sistemasini yechishda ayrim muhim xossalarini nazariy o'rganish va ular asosida uning amaliy yo'llari qisqacha tushuntirib o'tilgan. Maqolaning asosiy maqsadi teng kuchli parametrlı tenglamalar sistemasini yechish asosida uning muhim nazariy xossalarini o'rganish yechish usullari (yo'llari) ko'rsatilgan.

Teng kuchli parametrlı tenglamalar sistemasini yechish talabalarda qiyinchilik tug'diradi. Qiyinchiliklardan biri tenglamalar sistemasi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan tenglamalar sistemasini umumiy yechimini olish bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: *teng kuchli, parametr, tenglamalar sistemasi, xususiy hol, qiymatlar, o'zgaruvchi, funksiya, almashtirish, birlashma, cheksiz.*

МЕТОДЫ РЕШЕНИЯ СИСТЕМЫ УРАВНЕНИЙ С РАВНОСИЛЬНЫМИ ПАРАМЕТРАМИ

В этой статье кратко объясняется теоретическое изучение некоторых важных свойств решения системы уравнений с равными сильными параметрами и её практические пути на их основе. Основной целью статьи является исследование важнейших теоретических свойств системы уравнений с равными сильными параметрами на основе их решения с указанием методов (путей) решения.

Решение системы уравнений с одинаково сильными параметрами вызывает у студентов трудности. Одна из трудностей связана с системой уравнений, а вторая связана с получением общего решения системы уравнений.

Ключевые слова: *равная сила, параметр, система уравнений, частный случай, значения, переменная, функция, замена, объединение, бесконечность.*

METHODS FOR SOLVING A SYSTEM OF EQUATIONS WITH EQUAL STRONG PARAMETERS

This article briefly explains the theoretical study of some important properties of solving a system of equations with equal strong parameters and its practical ways based on them. The main purpose of the article is to study the most important theoretical properties of a system of equations with equal strong parameters based on their solution with indication of methods (ways) of solution.

Solving a system of equations with equally strong parameters causes students difficulties. One of the difficulties is related to the system of equations, and the second is related to obtaining a general solution to the system of equations.

Keywords: *equal force, parameter, system of equations, special case, values, variable, function, substitution, union, infinity.*

Kirish. Har bir matematika fani o'qituvchisi biror tayin mavzuni o'rgatishda yoki tenglama va tengsizliklarni yechishda har xil metodik usullarni qo'llaydi. Uning asosiy maqsadi, talabaga nazariy bilimni yetkazish, uni amalda tadbıq qilishni o'rgatishdan iborat. Ayrim hollarda bu ish oson kechmaydi. Bu holda o'qituvchi o'rgatishni induktiv usuldan foydalanishga to'g'ri keladi.

Asosiy qism. O'qituvchi talabaga parametrga bog'liq tenglamani yecha olish uchun uning birin-ketin bajaradigan qadamlarini ko'rsata olish va tasavvur qila olishni o'rgatishi kerak bo'ladi. Shu holdagina o'quvchi berilgan vazifani mustaqil yechish ko'nikmasini egallashi mumkin bo'ladi.

x, y, z, u, \dots, v o'zgaruvchilarga bog'liq $f_1(x, y, z, u, \dots, v), f_2(x, y, z, u, \dots, v), \dots, f_n(x, y, z, u, \dots, v)$ funksiyalar berilgan bo'lsin. Agar shunday tartıblangan $(x_0, y_0, z_0, u_0, \dots, v_0)$ sonlar topish kerak bo'lsaki, ularning har birida $f_1(x_0, y_0, z_0, u_0, \dots, v_0) = 0, f_2(x_0, y_0, z_0, u_0, \dots, v_0) = 0,$

tenglamalar sistemalari teng kuchli.

Agar (1) sistemaning barcha yechimlari $p(x, y, z, u, \dots, v) = 0$ tenglamaning yechimlari bo'lsa, bu tenglama (1) sistemaning “izi” deyiladi. Masalan,

$$\begin{cases} x = 10, \\ y = 10 \end{cases}$$

sistemaning “izi” $x = y$ tenglama bo'lib, u cheksiz ko'p yechimga ega.

Tenglamalar sistemasini yechishda ikkita yo'lni tutish mumkin:

1. Ayniy almashtirishlar bajarish: bu holda har bir ayniy almashtirishlardan so'ng yechimlar to'plami saqlanib qoladi va natijada berilgan sistemaning barcha yechimlari topiladi;

2. “Izli” tenglamalar sistemasiga o'tish: bu holda yot yechimlar paydo bo'lishi natijasida yechimlar to'plami kengayishi mumkin, ularni yo'qotish uchun yechimlarni tekshirish kerak.

2-misol. Sistemaning yechimini toping:

$$\begin{cases} y = x + 1, \\ 2x^2 - xy + 3y^2 - 7x - 12y + 1 = 0. \end{cases}$$

Yechish. Ikkinchi tenglamada y ni $y = x + 1$ bilan almashtirib, berilgan sistemaga teng kuchli sistema hosil qilamiz.

$$\begin{cases} y = x + 1, \\ 2x^2 - x(x + 1) + 3(x + 1)^2 - 7x - 12(x + 1) + 1 = 0. \end{cases}$$

Yana ayniy almashtirishlar bajarib, quyidagi sistemani hosil qilamiz

$$\begin{cases} y = x + 1, \\ 2x^2 - 7x - 4 = 0. \end{cases}$$

Bu sistema ham berilgan sistemaga teng kuchli sistema bo'ladi. Sistemaning $2x^2 - 7x - 4 = 0$ tenglamasi $x_1 = -\frac{1}{2}$ va $x_2 = 4$ ildizlarga ega bo'ladi va $y = x + 1$ dan $y_1 = \frac{1}{2}$ va $y_2 = 5$. Natijada berilgan sistema $\left(-\frac{1}{2}; \frac{1}{2}\right)$, $(4; 5)$ ikkita yechimga ega bo'ladi. Javob: $\left(-\frac{1}{2}; \frac{1}{2}\right)$ va $(4; 5)$.

3-misol. a va b ning qanday qiymatlarida

$$\begin{cases} ax + 2y = b + 1, \\ x + y = 3 \end{cases} \quad \text{va} \quad \begin{cases} 2x + y = a^2 + 2, \\ x + 3y = 3 \end{cases}$$

sistemalar teng kuchli bo'ladi?

Yechish. Ikkinchi sistema yagona $(x_0; y_0)$ yechimga ega, chunki uning asosiy determinanti

$$\begin{vmatrix} 2 & 1 \\ 1 & 3 \end{vmatrix} = 2 \cdot 3 - 1 \cdot 1 = 6 - 1 = 5 \neq 0$$

yoki sistema “aniqmaslik” sharti

$$\frac{2}{1} \neq \frac{1}{3}$$

bajarilayapdi. Bu sistemalar teng kuchli bo'ladi, agar birinchi sistema ham $(x_0; y_0)$ yagona yechimga ega bo'lsa. Shu yechimni topamiz. $(x_0; y_0)$ yechim birinchi sistemaning $x + y = 3$ tenglamasini va ikkinchi sistemaning $x + 3y = 3$ tenglamasini qanoatlantiradi. Natijada,

$$\begin{cases} x_0 + y_0 = 3, \\ x_0 + 3y_0 = 3 \end{cases}$$

sistemani yechib, $x_0 = 3$, $y_0 = 0$ larni topamiz. O'zgaruvchilarning bu qiymatini, ikkinchi sistemaning birinchi $2x + y = a^2 + 2$ tenglamasiga qo'yib, $a^2 = 4$ tenglamani hosil qilamiz. Bundan $a_1 = -2$ va $a_2 = 2$.

Endi $a_1 = -2$, $x = 3$, $y = 0$ larni birinchi sistemaning birinchi tenglamasi $ax + 2y = b + 1$ ga qo'yamiz. U $-2 \cdot 3 + 2 \cdot 0 = b + 1$ ko'rinishidagi tenglamani beradi va bundan $b = -7$. Agar $a_2 = 2$ olinsa birinchi sistema cheksiz ko'p yechimga ega bo'ladi, chunki noma'lum oldidagi koeffitsientlar nisbati teng bo'ladi. Javob:

$$a_1 = -2; b = -7.$$

4-misol. Ushbu

$$\begin{cases} x^2 - y^2 - ax + ay = 0, \\ xy = a^2 \end{cases}$$

sistema quyidagi sistemalar

$$\begin{cases} x - y = 0, \\ xy = a^2, \end{cases} \quad \begin{cases} x + y = a, \\ xy = a^2 \end{cases}$$

birlashmasi bilan teng kuchli ekanligini isbot qiling.

Yechish.

$$\begin{cases} x^2 - y^2 - ax + ay = 0, \\ xy = a^2, \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} (x - y)(x + y) - a(x - y) = 0, \\ xy = a^2, \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} (x - y)(x + y - a) = 0, \\ xy = a^2, \end{cases} \Leftrightarrow$$

$$\begin{cases} x - y = 0, \\ x + y = a, \\ xy = a^2, \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x - y = 0, \\ xy = a^2, \\ x + y = a, \\ xy = a^2, \end{cases} \quad \begin{cases} 6 + 2 = 2a + b \\ 2b + 2(a - 3) = 2b - a \end{cases}$$

Xulosa. Oxirgi natijadan ko'rinib turibdiki a ning ixtiyoriy qiymatida sistema va birlashma teng kuchli.

Adabiyotlar:

1. Khazratov F., Juraev Kh. Methods of creation and organization of work, technology for creating auto-navigation maps [Электронный ресурс]: URL: <http://www.jcreview.com/?mno=9704>
2. Xodjiyev S, Ubaydulloyev A, Jurayeva N.O. Funksiya grafigi yordamida uning xossalari o'rganish bo'yicha ayrim metodik tavsiyalar ERUS Scientific Journal №4 2022/4, -106-116 bet <http://erus.uz/index.php/er/article/view/16>
3. Ubaydullayev A.N. Methodology for Developing Professional Competence of Students Using Digital Technologies in Practical Training. Journal of Survey in Fisheries Sciences (SFS) 10(2S) 1355-1362, ISSN: 2368-7487, 2023. url: <https://sifisheriessciences.com/journal/index.php/journal/article/view/870>
4. Mirzaaxmedov M.A., Ismailov Sh.N., Amonov A.Q. Matematika (algebra va analiz asoslari) 11-sinf. T.: Zamin nashr. 2018 y, -37 s
5. Azlarov T., Mansurov X.. Matematik analiz, 1-qism. Toshkent. O'qituvchi. 1994
6. Beshmakov M.N.. Algebra i nachala analiza. Ucheb dlya 10-11 kl. Sred. shk.2-ye.izd.-M.:Prosveshenie, 1992. -351 s
7. Ходжиев С, Жураева Н.О. Некоторые методические советы при решении степенно показательных уравнений и неравенств. Проблемы педагогики. Москва. №6 (57), 2021 г, -23-29 с.

O‘QUVCHILARNING BILIMINI BAHOLASHDA MOBIL DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Jamolova Shahlo Qobilovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasida o‘qituvchisi

Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilar bilimni baholashning metodik tizimini takomillashtirish, o‘qitish mazmuni, maqsadi, vazifasi va barcha komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta‘minlashda innovasion texnologiyalardan foydalanish. O‘quvchilari uchun mo‘ljallangan ta‘lim saytlari, ularda berilgan o‘quv materiallari mazmuni yoritilgan. Fizika fanini o‘qitish jarayonida mobil dasturiy ilova “Physics school”dan foydalanish orqali ta‘lim sifatini yaxshilash, o‘quvchilar bilimni baholashda foydalanish imkoniyatlari bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: fizika fani, metodik tizim, ta‘lim saytlari, mobil dasturiy ilova, ta‘lim sifati, bilim, baholash.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОБИЛЬНОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРИ ОЦЕНКЕ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ

В данной статье рассматриваются совершенствование методической системы обучения физике в общеобразовательной школе, использование инновационных технологий в обеспечении взаимодействия содержания, целей, задач и всех компонентов обучения, образовательные сайты для студентов, а также содержание учебных материалов, представленных в них. Описаны возможности повышения качества образования за счёт использования мобильных программных приложений в обучении физике, применение которых при оценке знаний учащихся.

Ключевые слова: физика, методическая система, образовательные сайты, мобильное программное приложение, качество образования, знания, оценка.

POSSIBILITIES OF USING MOBILE SOFTWARE IN ASSESSING STUDENTS' KNOWLEDGE

This article discusses the improvement of the methodological system of teaching physics in general secondary schools, the use of innovative technologies in ensuring the interaction between the content, goals, objectives and all components of teaching. Educational sites for students, the content of educational materials provided in them. The possibilities of improving the quality of education through the use of mobile software applications in the teaching of physics, the use of which in the assessment of students' knowledge are described.

Keywords: physics, methodical system, educational sites, mobile software application, quality of education, knowledge, assessment

Kirish. Mobil ilovadan ta‘lim jarayonining ixtiyoriy shakli (onlayn,/oflayn)da foydalanish mumkin. An‘anaviy ta‘limda o‘qituvchi ta‘lim jarayoni bilan birgalikda mobil ilovalarni yuritishi orqali ham katta samaradorlikka erishadi. O‘quvchi ananaviy ta‘limda dars jarayonida qatnashishi bilan birgalikda mustaqil ravishda takroran darsni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi, hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni mobil ilovada turli sinovlar orqali mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Asosiy qism. Fizika o‘qitish, uzluksiz ta‘lim sharoitida axborot oqimida harakatlana oladigan shaxsni shakllantirishdir. Umuminsoniy qadriyatlardan xabardor bo‘lish o‘quvchining tegishli bilim, axloqiy va estetik tarbiyasi bilangina mumkin. Shu munosabat bilan konkretlashtirilishi mumkin: Faoliyat jarayonida maktab o‘quvchilarida umuman fanga ijobiy munosabatni tarbiyalash, jismoniy bilimlarga, ilmiy ommabop maqolalarga, hayot muammolariga qiziqishni rivojlantirish. Fizika tabiatshunoslik va zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotning asosi bo‘lib, u ta‘limning quyidagi o‘ziga xos maqsadlarini belgilaydi: o‘quvchilarning fizikaning fan va ishlab chiqarishda tutgan o‘rni to‘g‘risida xabardorligi, ekologik madaniyatini tarbiyalash, fizika bilan axloqiy muammolarini anglash va mobil ilova jarayonida ushbu jihatlarga alohida e‘tibor qaratish zarur. Maktabni rivojlantirishning hozirgi bosqichida an‘anaviy ta‘lim tizimini sifat jihatdan yangi ta‘lim tizimiga aylantirish vazifasi-jamiyat hayotining yangi sharoitlariga moslashgan savodli, samarali fikrlaydigan insonni tarbiyalash vazifasi qo‘yildi. Ta‘lim jarayonida tabiiy yo‘nalish bu o‘quvchilarning mustaqil ravishda bilim olishlariga, ularning o‘z-o‘zini tarbiyalashiga va o‘zini o‘zi bilishiga bo‘lgan

munosabatdir. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda aytish joizgi mobil ilova yuqoridagi barcha aytilganlarni qamrab oladi va qo'yilgan maqsadga erishishda yordamchi samarali usul bo'la oladi.

Fizika eksperimental fan bo'lib, u doimo namoyish eksperimenti bilan birga o'qitiladi. Zamonaviy fizika xonasida (haqiqatan ham, tabiatshunoslik bo'yicha boshqa biron bir idorada) nafaqat namoyish tajribalarini o'tkazish uchun turli xil moslamalar va qurilmalardan, balki mobil qurilmadagi virtual laboratoriyalardan dastur orqali foydalanish mumkin.

Bugungi kunda ta'lim sifatini yanada yaxshilash maqsadida turli islohotlar amalga oshirilmoqda xususan 2018-yilning oktabr oyida xalq ta'limi vazirligi hamda “KUNDALIK” kompaniyasi maktabda elektron jurnal va kundaliklarni joriy etish bo'yicha loyihani amalga oshirishi to'g'risida xabari buning yorqin misoli.

Tizim onlayn tarzda o'qituvchilarni darslarini rejalashtirish, dars jadvallarini tuzish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va davomatini elektron jurnal va kundaliklarda qayd etib borish, shuningdek ta'lim boshqaruv organlari va muassasalarga statistik hisobotlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. “KUNDALIK” tizimi o'quvchilar va ularning ota-onalariga 24 soat davomida baholar va uy vazifalari haqidagi ma'lumotlarni kuzatib borish imkonini beradi. Shu bilan birga ular himoyalangan ijtimoiy tarmoq orqali muloqot qilishlari hamda onlayn kutubxona va ta'limga oid media resurslardan foydalanish imkonini beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston maktablarida elektron jurnalni joriy etish bo'yicha “KUNDALIK” kundalik loyihasi amalga oshirilmoqda. Tizim bilan ishlash uchun internetga ulangan kompyuter lozim. Bundan tashqari o'qituvchilar mobil qurilmalar uchun moslashtirilgan versiyasidan ham foydalanishlari mumkin.

Maktabning elektron kundaligi ko'p sonli afzalliklarga ega, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Funksional imkoniyat. Butun portal foydalanuvchi o'z xohishiga ko'ra sozlanishi mumkin, siz bir nechta yorliqlarni olib tashlashingiz yoki qo'shishingiz mumkin bo'ladi.

Bolani boshqarish. Bolalar har doim maktabda nima bo'layotgani haqida gapirishmaydi, balki ota-onalar masofadanturib boshqarishlari mumkin.

- Portalning o'zi ko'rinishi oddiy kundalik yoki maktab jurnalidan farq qilmaydi.
- Kerakli savollarga javob juda qisqa vaqt ichida sodir bo'ladi.
- Ma'lumotlar bazasi doimiy ravishda yangilanib turadi, chunki o'qituvchi o'quvchi haqida har kuni ma'lumot olishi kerak.
- Xabarnomalar tizimi mukammal sozlanganligi sababli, doimiy ravishda bildirishnomalarni tekshirishi kerak emas, ular avtomatik ravishda paydo bo'ladi.

Elektron kundalik xizmatini olish uchun quyidagi hujjatlar kerak bo'ladi.

Gosuslugi.ru orqali elektron kundalik mahsulotga kirishdan oldin, maktab ma'muriyatiga zarur hujjatlar to'plami talab qilinadi, shundan so'ng ular kundalik veb-saytida ro'yxatdan o'tishlari kerak bo'ladi. Ushbu hujjatlarga quyidagilar kiradi:

1. Ota-ona pasporti yoki yuridik vakili
2. Bolaning tug'ilish sertifikatini
3. Ushbu xizmatni taqdim etish uchun ariza
4. Taqdim etilgan ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik.

Portaldan ro'yxatdan o'tish va Gosuslugi.ru orqali elektron kundalikda ro'yxatdan o'tishni ko'rib chiqaylik. Bunda quyidagi amallar ishlab chiqilishi kerak:

- Portalga kirish
- Shundan so'ng, sahifada “Davlat xizmatiga kirish” oynasi topiladi va “Ro'yxatdan o'tish” tugmasi bosiladi.
- Quyidagi oynalar familiyani va ismni shuningdek mobil raqam yoki elektron pochta manzilini belgilashingizni talab qiladi.
- Shundan so'ng foydalanuvchi barcha ma'lumotlar kerak bo'lgan foydalanuvchidan oldin ochiladi. Sahifa “Saqlash” tugmachasini bosgandan so'ng sahifa foydalanuvchi fuqarolik pasporti ma'lumotlari qayta ishlov berish nomi va qayta ishlanganligini ko'rsatadi.

Barcha ma'lumotlar ro'yxatga olingandan so'ng, ular ma'lum vaqtni talab qiladigan tizim tomonidan avtomatik tekshiruvdan o'tadi.

Bundan tashqari respublikamizda ta'lim sifatini oshishi uchun xizmat qiluvchi ta'limga oid bo'lgan internet resurslari ham mavjud. Ular quyidagilar:

1. uzedu.uz-xalq ta'limi vazirligining veb sayti
2. ziyonet.uz-ta'lim tarmog'i portali
3. eduportal.uz-xalq ta'limi vazirligi axborot ta'lim portali

4. cict.uz-xalq ta’limi sohasidagi AKT ni rivojlantirish markazi
5. [utube.uz-ta’lim](http://utube.uz-ta'lim) videoportali
6. xt.uzedu.uz-maktab ta’lim jarayonini boshqarish markazi
7. avlony.uz-avlony nomidagi XTTRMXQTMOI
8. masofa.uz-avlony nomidagi XTTRMXQTMOI masofadan o’qitish portali
9. qt.masofa.uz-avlony nomidagi XTTRMXQTMOI masofadan qayta tayyorlash kurslari
10. akt.uzedu.uz-axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish tizimi
11. tanlov.uzedu.uz-xalq ta’limi tizimidagi ko’rik tanlovlarni o’tkazish dasturi
12. [forum.uzedu.uz-O’zbekiston](http://forum.uzedu.uz-O'zbekiston) Respublikasi Xalq ta’limi forumi
13. [Mfond.uz-O’zbekiston](http://Mfond.uz-O'zbekiston) Respublikasi xayriya fondi
14. www.uz-milliy axborot qidiruv tizim

Ushbu internet resurslarining tashkil etilishidan yagona maqsad ta’limi sifatini yaxshilash va jahon miqiyosida raqobatbardosh kadrlar yetishtirib chiqarishdir.

Ta’lim jarayoni haqida so’z borar ekan diqqatni respublikamizda ta’lim-tarbiya sohasida ro’y bergan muhim o’zgarishlarga qaratish mumkin. Chunki ta’lim tizimini tuzilish va mazmun jihatdan isloh qilish maqsadida “Ta’lim to’g’risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” haqida qonunlar qabul qilindi. Bu hujjatlarda fizika o’qitish vazifalariga ham yangicha yondashildi va fizika ta’limning ajralmas qismi deb alohida ta’kidlandi. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish esa ta’lim oluvchilarni yuksak salohiyatli, bilimli, o’z aqli tafakkuri bilan ongli mushohada yuritadigan ozod va hur fikrli insonlar bo’lib yetishishi uchun muhim hissa qo’shadi.

Ta’limning eng qimmatli natijalari fikrlashning moslashuvchanligi va kengligi, o’rganish qobiliyati va xohishi hisoblanadi. Ammo amalda maktab o’quvi ma’lum darajada bilim beradi, o’quvchilarning qiziqishlari esa yetarli darajada rivojlanmayapti. O’qituvchi faoliyatida o’quvchilarga ma’lumot yetkazish bilangina emas, balki ularning bilish faoliyatini tashkil etish bo’yicha ish maksimal darajada bo’lishi lozim. Ammo o’qituvchi har doim o’quv materialini taqdim etishdagi faoliyatini ushbu material bo’yicha o’quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishdagi zaruriy ulush bilan birlashtira olmaydi. Didaktika asoslaridan ma’lumki, faqat mustaqil induvidual ta’lim faoliyati mustahkam va chuqur bilimlarni, barqaror ko’nikmalarni shakllantirishga olib kelishi mumkin. Muammolarni hal etish ehtimol ko’p, ayrim jihatdan ularga to’xtalib o’tamiz. Mavjud qiyinchiliklarni yengish uchun o’qituvchiga asosan operatsion imkoniyatlari katta didaktik salohiyatga ega bo’lgan mobil dasturiy vositalar yordam bera oladi. Shu sababli ko’plab o’qituvchilar elektron ma’lumotlarga katta umid bog’lashadi, chunki ulardan foydalanish maktab haqiqatan ham hozir beradigan va zamonaviy jamiyat yosh avloddan talab qiladigan bilimlar orasidagi farqni kamaytirishi mumkin.

Fizikani o’qitishda mobil dasturiy vositalardan foydalanishda katta imkoniyatlar mavjud. Ta’lim jarayonida kompyuterlardan foydalanish samaradorligi ko’plab omillarga, shu jumladan dasturning darajasiga, foydalaniladigan o’quv dasturlarining sifatiga va o’qituvchi tomonidan dasturga joylangan materialga ham bog’liq.

Fizika eksperimental fan bo’lib, u doimo namoyish eksperimenti bilan birga o’qitiladi. Zamonaviy fizika xonasida (haqiqatan ham, tabiatshunoslik bo’yicha boshqa biron bir idorada) nafaqat namoyish tajribalarini o’tkazish uchun turli xil moslamalar va qurilmalardan, balki mobil qurilmadagi virtual laboratoriyalardan dastur orqali foydalanish mumkin.

Fizika fanini o’qitish o’quvchilarda quyidagi ta’lim sifatlarini berish bilan ajralib turadi:

- ketma-ketligi mantiqiy to’g’ri va oddiydan murakkabga qarab borish tamoyiliga rioya qilish;
- fizik hodisalar va jarayonlarni kuzatish usullari bilan tanishtirish;
- tajriba o’tkazish uning natijalarini hisoblash ko’nikmalarini hosil qilish;
- oliy o’quv yurtida kirish uchun zarur bo’lgan bilim, malaka va ko’nikmalarni hosil qilish;
- o’quvchilarni fizik tafakkurini rivojlantirish, fikrlash qobiliyatini oshirish hamda hayotda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni to’g’ri talqin qilishga o’rgatish;
Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim muassasalarini boshqarishda rahbarlar va mutaxassislar uchun asosiy omil ularning qancha vaqtga ega ekanligi emas, balki bajariladigan vazifalarning zaruriyatidan va vaqtga bog’liqlik xususiyatlaridan kelib chiqib toifalarga ajratish va o’z faoliyatlari davomida vaqtdan unumli foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim muassasalarini boshqarishda rahbarlar va mutaxassislar bajariladigan ishlarning vaqtga bog’liqlik xususiyatlariga ko’ra kunlik - eng zarur, haftalik - zarur, oylik - ulgurilishi zarur bo’lgan va yillik - bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan ishlar kabi toifalarga ajratishlari hamda shunga ko’ra rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, rag’batlantirish, nazorat va tahlil ishlarini amalga oshirishlari mumkin. Mazkur toifalar bo’yicha bajariladigan ishlarni rejalashtirish va tashkil etishda rahbarlarning ish rejalariga rahbar o’rinbosarlari hamda mutaxassis va bajaruvchilarning rejalarini muvofiqlashtirishlari va ish boshlashdan oldin kunlik reja, ya’ni birinchi toifadagi va boshqa toifalardagi ishlarning bajarilishi yuzasidan kelishib olinishi maqsadlarga erishishda samarali hisoblanadi. Chunki rahbar kunlik ishini rejalashtirib bo’lgandan keyingi ixtiyoriy yuqori tashkilotdan kelgan ko’ng’iroq yoki rahbarning yig’ilishga chaqirilishi kunlik ishlarning bajarilishiga salbiy ta’sir ko’rsatmasligi kerak. Albatta, yuqorida keltirilgan toifalar o’zgarimas bo’lmaydi, asosan, birinchi toifa tez-tez o’zgarib yangilanib boradi, shuning uchun bular muntazam ravishda rahbarlar o’rtasida kelishish orqali muvofiqlashtirib borilishi zarur [2].

Ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, uni rivojlantirib va takomillashtirib borish ilg’or pedagogik tajribalarni, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish, fan va texnika yutuqlaridan amaliyotda foydalanish kabi vazifalar barcha ta’lim muassasalari uchun zarur bo’lib,

bular ma’lum bir muddatni belgilamaydi, chunki qanchalik tez o’zlashtirilsa shuncha yaxshi samara beradi. Bunday ishlarni rejalashtirishda rahbarlar butun bir jamoa a’zolarining faoliyatini tahlil qilgan holda, mazkur vazifalar kim tomonidan qachon va qanday qilib amalga oshiriladi, bular qancha vaqt talab qiladi, bu ishlarni amalga oshirish uchun qanday shart-sharoitlar zarur, mazkur yo’nalishda boshqa ta’lim muassasalari qanaqa tajribalarga ega kabi qator savollarga javob topgan holda amalga oshirishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ta’lim muassasasi rahbarlari ish vaqtlarini taqsimlashda o’z faoliyatlarini tahlil qilishlari, hafta kunlarini bajariladigan vazifalarning xususiyatlariga ko’ra taqsimlashlari hamda bo’sh vaqtdan unumli foydalanish uchun kunlik reglamentga ega bo’lishlari zarur. Kunlik reglamentni belgilashda rahbarlar tomonidan ta’lim muassasasining ish reglamentiga asoslanilishi muassasaning boshqa xodimlarining ham shaxsiy rejalariga ta’sir ko’rsatmaydi va mehnat unumdorligiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Rahbarlar o’zlarining boshqaruv faoliyati davomida rioya qilishi lozim bo’lgan reglamentlarni ishlab chiqishida ta’lim muassasasi maqsadi bilan bir qatorda boshqaruv maqsadlarini ham inobatga olishlari zarur. Chunki har bir maqsadga erishish uchun bajariladigan vazifalar xususiyatlari va yo’nalishlari jihatdan bir-biridan farq qilib, ma’lum bir vazifani bajarish ikkinchi bir vazifaning o’z vaqtida bajarilishiga salbiy ta’sir ko’rsatishi yoki qo’shimcha vaqt talab etuvchi muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Masalan, ta’lim muassasasida boshqaruv tizimini qayta tashkil etish zaruriyati tug’ilgan bo’lsa, ya’ni qaysidir rahbar o’rinbosarini yoki mutaxassisni yangilash butun bir jamoa a’zolarining kayfiyatiga qanday ta’sir ko’rsatishiga bog’likligini, hamda bu muassasa faoliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatsa, faoliyat samaradorligini qayta tiklash uchun qancha vaqt zarur bo’lishini, shuningdek, mazkur ishlarga sarflangan vaqt va mehnat o’zini oqlaydimi, bularni barchasini hisobga olish zarur [4].

Boshqaruvda bajariladigan vazifalarning maqsadini belgilash, maqsadiga ko’ra bajariladigan vazifalarning muhimlik darajasini aniqlash hamda ulardan qaysilari muassasa faoliyatini takomillashtirishda o’ta muhim, qaysilarini bosqichma-bosqich bajarish mumkinligini belgilab olish zarur.

Xulosa. Rahbarlar kunlik ishlarini tahlil qilishlarida, ma’lum bir vazifani bajarish uchun qancha vaqt sarfladim yoki shunga yaqin, turdosh bo’lgan vazifani bajarishga qancha vaqt sarfladim-u, qanday xatoliklarga yo’l qo’ydim va bu xatolarimni tuzatishga qancha vaqt ketdi, bu ortiqcha sarflangan vaqt davomida qancha muhim ishlarni amalga oshirishim mumkin edi, kabi savollarga javob topishlari vaqtini to’g’ri taqsimlash va faoliyatni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Абдурахмонов К. ва бошқалар. Персонални бошқариш. Т., “Шарқ”. 1998. 252 бет.
2. Джураев Р.Х. Таълим менежменти. Тошкент «Voris-Nashriyot» 2006. 263 бет.
3. Давыдова О.И., Богославец Л.Г. Тайм-менеджмент руководителей организаций дошкольного и дополнительного образования. Учебное пособие. Барнаул ФГБОУ ВО «АлтГПУ» 2020. С.149.
4. Раҳматуллаев Д. Умумий ўрта таълимни стратегик бошқариш: муаммо ва ечимлар. Т., «Фан ва технология» 2012. 48 бет.

ZAMONAVIY MAKTAB TA'LIMI SIFATINI INNOVATSION BOSHQARISH MEXANIZMLARI

*Nurulloyev Firuz No'monjonovich,
Buxoro davlat universiteti
Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrası dotsenti
G'aybullayev Shonazar Mirboboyevich,
Buxoro davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

Ushbu maqolada maktablarda ta'lim olish sifatini oshirish muammosini hal qilish zamonaviy o'quv jarayonini tashkil etish va unda amalga oshiriladigan boshqaruv xususiyatlari bilan bog'liq jarayonlar, ta'lim tizimida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish usullari yoritilgan.

***Kalit so'zlar:** ta'limi sifati, menejment, innovatsion texnologiyalar, ta'lim va tarbiya, mustaqil ta'lim, masofaviy ta'lim, zamonaviy maktab.*

МЕХАНИЗМЫ ИННОВАЦИОННОГО УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ СОВРЕМЕННОГО ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье решаются проблемы повышения качества образования в школах, процессы, связанные с организацией современного образовательного процесса и реализуемые в нём особенности управления, выделены проблемы, возникающие в системе образования, и методы их устранения..

***Ключевые слова:** качество образования, менеджмент, инновационные технологии, образование и воспитание, самостоятельное образование, дистанционное образование, современная школа.*

MECHANISMS OF INNOVATIVE MANAGEMENT OF THE QUALITY OF MODERN SCHOOL EDUCATION

In this article, solving the problem of improving the quality of education in schools, the processes related to the organization of the modern educational process and the management features implemented in it, the problems that arise in the education system and the methods of their elimination are highlighted.

***Keywords:** quality of education, management, innovative technologies, education and upbringing, independent education, distance education, modern school.*

Kirish. Ta'lim sifati maktab muvaffaqiyatining eng muhim ko'rsatkichidir va shuning uchun uni boshqarish maktab ma'muriyati faoliyatining ustuvor yo'nalishiga aylanadi. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan [1]. Ushbu konsepsiya asosida hozirgi kun maktablarining holatini tahlil qilib maqola so'ngida xulosa keltiramiz.

Asosiy qism. Pedagogik formatda ta'lim sifati ikki nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi: birinchidan, ta'lim tizimining belgilangan talablarga muvofiqlik darajasi va ta'lim muassasasi tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifati ko'rinishida; ikkinchidan, ta'lim jarayonining sifat samaradorligi ko'rinishida, ijtimoiy mijozlar ehtiyojlarini qondirish nafaqat o'quvchilarning ma'lum miqdordagi bilimlarni o'zlashtirishi, balki ularning shaxsiyati, bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish demakdir.

O'quvchilarning ta'lim sifatini oshirish muammosini hal qilish zamonaviy maktabda o'quv jarayonini tashkil etish va unda amalga oshiriladigan boshqaruv xususiyatlari bilan bog'liq. Aslida, biz ta'lim sifati bilan ta'lim muassasasida tashkil etilgan o'quv jarayoni sifati o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligi haqida gapiramiz, buning natijasida ma'lum sharoitlarda bu natijaga erishiladi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim sifatiga erishish

uchun menejment ham yuqori sifatli bo'lishi kerak, bu esa bashorat qilingan natijaga erishishni ta'minlaydigan boshqaruv faoliyati mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Ta'lim sifatini boshqarishning modeli quyidagicha ko'rinadi:



Maktablarimizda ta'lim sifatini oshirish uchun qanday sharoitlar yaratilgan? Buni G'ijduvon tumanidagi maktablar misolida ko'rib chiqamiz.

So'nggi olti yilda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyat va tuman bo'limlari hamkorligida, G'ijduvon tumani hokimligining rahnamoligida maktablarning moddiy-texnik ta'minoti sezilarli darajada yaxshilandi. Bugungi kunda G'ijduvon tumanidagi ko'plab umumta'lim maktablari AKT vositalari, laboratoriya jihozlari, sport inventarlari va texnologik oshxonalar jihozlari bilan ta'minlangan. Maktab kutubxona fondi budjetdan orttirib bajarilgan mablag'lar hisobidan har yili to'ldiriladi (*yoshlarni kitob o'qishi uchun tumanda o'zgacha yondashuv amalga oshirildi, birinchidan tuman miqyosida "Bir oyda ikkita kitob o'qiyman" loyihasi keng targ'ib qilindi. Ikkinchidan mazkur kitoblarni izlab o'quvchilar qiynalmasligi uchun maktablar kiraverishida yengil konstruksiyali "Kitob do'konlari" tashkil etildi, bularni keyingi maqolada kengroq ochib beraman*).

O'rta maktab o'quvchilari uchun ixtisoslashtirilgan o'quv (gumanitar profil) tashkil etildi. 2020-yildan boshlab maktabda elektron kundalik va jurnallar tizimi orqali o'quvchilarning bugungi kundagi yutuqlari haqida ma'lumotlar berib borilmoqda. Ta'lim muassasalarimizning axborot ochiqligi maktab sayti orqali ta'minlanadi.

G'ijduvon tumanidagi barcha maktablar 100% pedagog kadrlar bilan ta'minlangan. Faoliyat yuritayotgan jami pedagoglar 4255 nafar bo'lib (ayollar 3173 nafar 74,6 %) tashkil etadi. Shundan oliy ma'lumotli pedagoglar 3859 nafar (90,7 %), o'rta maxsus ma'lumotli 396 nafari (9,3%). Oliy ma'lumotli o'qituvchilar salohiyati ham sezilarli darajada oshdi, jumladan oliy toifali 480 nafar (11,2%), I toifali 800 nafar (18,8%), II toifali 897 nafar (21%), mutaxassis 1682 nafar (39,5 %) ni tashkil etmoqda.

Bugungi kun nafasi bilan yashash, zamon bilan hamnafas bo'lish bu iboralar zamirida biz ta'lim va kelajak avlod tarbiyasi, kamoloti uchun rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini o'rganish, izlanish bizning burchimiz vazifamiz hisoblanadi. Oldinga borish uchun yoshlarimiz doimo o'rganishi va professional darajada o'sishi lozim.

G'ijduvon tumani maktab va maktabgacha ta'lim bo'limi o'qituvchilarning malakasini oshirish va attestatsiyadan o'tkazishga jiddiy e'tibor qaratmoqda.

2017-2022-yillarda malaka oshirish kurslarida o'qitilishi belgilangan o'qituvchilarning barchasi malaka oshirish kurslarini tamomlagan.

Ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan ilg'or, izlanuvchan pedagoglarni aniqlash va ularning ishlarini ommalashtirish borasida 2021 yilda 57 nafar o'qituvchi tumanda, 40 nafar o'qituvchining ish tajribasi viloyatda, 18 nafar o'qituvchining ish tajribasi Respublika miqyosida ommalashtirildi. Bularning samarasi o'laroq, o'quvchilarimizdan Tolibov Diyorbek nufuzli xalqaro olimpiadalarda ishtirok etib, 1 ta oltin va 1 ta kumush medallarni qo'lga kiritdi. Bu ko'rsatkich yildan yilga o'sib bormoqda.

Ta'lim sifatini boshqarishning navbatdagi tarkibiy qismi – o'quv jarayonini amalga oshirishga o'tamiz.

Asosiy pedagogik vazifa o'zgarmadi. Biz hali ham kerakli ma'lumotlarni topish va olish va uni yangi bilim shaklida o'zlashtirishni biladigan kadrlarni tayyorlashimiz va hayotga chiqarishimiz kerak. O'qituvchi chaqiruvining mohiyati bolalarga imkon qadar yaqin bo'lish, o'z vaqtida yordam ko'rsatishdir. Ayni paytda o'qituvchilarning fan va uslubiy bilimlarini sifatli egallashi muhim ahamiyatga ega. Ular avvalgidek kuchli fan o'qituvchisi, sezgir ijtimoiy o'qituvchi, faol sinf rahbari, mehribon tarbiyachi, o'z sohasining mohir mutaxassisi bo'lishi kerak. Bu xususiyatlar abadiy va abadiydir.

Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha jamoa faoliyatini tahlil qilib, quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- ta'lim mazmunini yangilash;
- innovatsion texnologiyalardan foydalanish;
- uslubiy ishlar tizimini takomillashtirish;
- turli ta'lim imkoniyatlariga ega talabalar bilan ishlash tizimlari;

- tarbiyaviy ish tizimlari.

Maktabning uslubiy ishlariga metodik kengash rahbarlik qiladi, uning tarkibiga metod birlashmalari rahbarlari, tajribali o‘qituvchilar, ma’uriyat kiradi. Uslubiy kengash majlislarida metodik ish nazariyasi va amaliyoti masalalari muhokama qilinadi.

O‘qituvchilarga nazariy bilim berishda mavzuli o‘qituvchilar kengashlari katta o‘rin tutadi. Shunday qilib, o‘tgan o‘quv yilida beshta mavzuli o‘qituvchilar kengashida “Zamonaviy darsga qo‘yiladigan talablar”, “Salomatlik tejaydigan ta’lim muhitini tashkil etish”, “Faoliyatga asoslangan yondashuv – o‘quv faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti” kabi masalalar ko‘rib chiqildi. Davlat ta’lim standarti “Ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida iqtidorli bolalar bilan ishlashning xususiyatlari” muhokama qilinadi. “Motivatsiyasi past va o‘rganish qobiliyati past bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash uchun qulay shar-sharoitlarni ta’minlaydigan usullar, shakllar, vositalardan foydalanildi.

“Bolalarda turli fanlarga qiziqish uyg‘otish maqsadida aniq va gumanitar fanlar sikllari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun fan haftaliklari o‘tkazilib, ular doirasida qiziqarli tanlovlar, olimpiadalar, intellektual o‘yinlar o‘tkazilmoqda. O‘qituvchilar tomonidan ochiq darslar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ochiq darslarni o‘tkazish barcha o‘qituvchilarga o‘z pedagogik xulosalarini taqdim etish imkonini beradi va kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi.

Maktabimiz amaliyotida mahorat darslarini o‘tkazish ham muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilgan. Biz turli fanlar va olimpiada harakatiga qiziqishni oshirishga harakat qilmoqdamiz. O‘quvchilarimiz turli fanlar bo‘yicha ham kunduzgi, ham masofaviy ta’lim olimpiadalarida qatnashadilar. Shular jumlasidan **tuman hokimi olimpiadasi** 5-9 sinf o‘quvchilari o‘rtasida 3 bosqichda o‘tkaziladi (maktab, hudud va tuman). Maktab bosqichida 67 ta maktabdan har bir fandan (10 ta fan) 1-2-3-o‘rinlarni egallagan jami 2010 nafar o‘quvchilar ishtirok etadi. Hudud bosqichida 14 ta hududdan 1-2-3- o‘rinlarni egallagan 420 nafar o‘quvchilar ishtirok etadi. Tuman bosqichida barcha ballar bo‘yicha reyting e‘lon qilinadi va 4 ta chorak yakunida g‘oliblar aniqlanadi. Ushbu tanlovning barcha natijalari maxsus yaratilgan platformaga kiritib boriladi. G‘olib va sovrindor talabalar munosib taqdirlabadi, ijtimoiy tarmoqlarda e‘lon qilinadi. Ta’lim sifatini boshqarishning murakkab masalalaridan biri bo‘lgan maktab ichidagi nazorat juda katta rol o‘ynaydi, chunki u maktabdagi ishlarning haqiqiy holati to‘g‘risida ma’lumot beradi, vaziyatni to‘g‘rilash bo‘yicha ishdagi kamchiliklarning sabablarini aniqlaydi va o‘qituvchilarga o‘z vaqtida uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatiladi.

Maktab ichidagi nazorat maktab ishini tahlil qilish asosida rejalashtirilgan, aniqlangan muammolar, innovatsion jarayonlarga to‘xtalib, o‘qituvchilarning metodik mahoratini o‘rganish va ularga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatishga qaratilgan. Bu ish o‘quv ishlari boshchiligida bo‘lgan maktab ma’uriyati tomonidan amalga oshiriladi.

Bugungi kunda biz qiziqarli va rivojlanayotgan ta’lim muhitini shakllantirishga katta e’tibor qaratmoqdamiz. Maktab bolalar uchun qo‘shimcha ta’lim beradi. Har yili maktab ijodiy jamoalari hududiy ko‘rgazmalar, ko‘rik-tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda. Bolalar teatr va folklor to‘garaklarida, sport seksiyalarida qatnashishdan zavqlanadilar.

2022- yilning 5-aprel kuni prezidentimiz "Ta’lim sohasidagi islohotlar"ga bag‘ishlab o‘tkazgan videoselektorda "Ta’lim sifatini oshirishda G‘ijduvon tajribasi"ni joriy etish kerak ekanligi ta’kidlangan edilar. Shu munosabat bilan G‘ijduvon tumanidagi ta’lim fidoyilari Muborak tumanidagi 7-9-30-5-maktablarda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax viloyati va vodiyning bir nechta tumanlarida bo‘lib, maktab bitiruvchilari va ularning ota-onalari bilan ochiq muloqot tashkil etishdi, o‘qituvchilar bilan tajribalarini o‘rtoqlashdi.

Ta’limda har bir maktab hayot quvonchi, bolalar muvaffaqiyati va ijod muhitini his qilishi kerak. Ta’lim muassasasida amalga oshirilayotgan ko‘plab loyihalar ota-onalarimiz ishtirokida amalga oshirilayotganidan chin dildan quvondim. Bu maktabda ham, undan tashqarida ham bolalar hayotini o‘z uyidagidan kam bo‘lmagan holda qulay qilishni xohlaydigan qishloqning faol aholisining haqiqiy jamoasi. Shunday qilib, maktablar joylashgan hudud aholisini e’tiborini o‘zi o‘qigan dargohiga qaratgan holda, maktablarda ular bilab uchrashuvlar o‘tkazish natijasida bir qator maktablarning moddiy texnik bazasi mustahkamlandi. Tumandagi 1,2,4,7,8,13,15 va 41-maktablar shular jumlasidan.

Va nihoyat, ta’lim jarayonining natijalariga murojaat qilaylik. Bularga attestatsiya natijalari, o‘quvchilarning ijodiy yutuqlari, ta’limning davom etishini ta’minlash, o‘quvchilar va ota-onalarning ta’lim tartibini qondirish kiradi.

2021-yilda tumandagi nisbatan ta’lim sifati past bo‘lgan 14 ta maktablar ajratib olinib, ular bilan tizimli ishlar olib borildi. Dastlab 104 nafar matematika, fizika, tarix va ingliz tili fani o‘qituvchilarini o‘qitish mexanizmini shakllantirildi, mazkur fanlar bo‘yicha saralab olingan o‘qituvchilar, ya’ni kuchli o‘quv markazlarining malakali repetitorlari orqali ushbu 104 nafar pedagoglar malakasi oshirildi.2022-yildan

boshlab “Intensiv vizual” metodi orqali 1 yil davomida metod kunlarda o‘qituvchilar uchun o‘quvlar tashkil etildi.

Yuz mln. so‘m mahalliy budjet mablag‘lari hisobiga 4 ming dona o‘quv metodik qo‘llanmalar va elektron resurslar olib berildi. 104 nafar o‘qituvchilar tajriba oshirishi natijasida o‘quvchilar bilan ishlash ko‘nikmasi oshdi va hatto o‘zlari o‘quvchilarni oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishi uchun tayyorlash darajasiga yetishdi. Joylardagi 14 ta maktablarning o‘zida bitiruvchilarni oliy ta‘limga tayyorlash bo‘yicha shu o‘qituvchilarga 1800 nafar o‘quvchilar birlashtirib berildi.

Sifat uchun ishlang - birgalikda ishlang!

Xulosa. Ta‘lim sifatini boshqarish muammo bo‘lib qolmoqda va biz erishilgan natijalarga tanqidiy munosabatda bo‘lishni o‘rganmaganimizcha shunday bo‘lib qolaveradi. Ta‘lim va jamiyat uning qadriyatlarini, maqsadlarini, ma‘naviy va ijodiy salohiyatini shakllantiradi, degan fikrga qo‘shilaman. Shuning uchun ta‘limga bo‘lgan qarash tubdan o‘zgarishi kerak. Uning maqsadi nafaqat bilimlarni egallash, balki shaxsni shakllantirish, uning o‘zini, insoniy qiyofasini va o‘ziga xos individualligini egallashdir. Bu esa, agar maktab faoliyatining muhim tomoni tizimli hodisa sifatida ta‘lim sifatiga aylansa, buni ta‘minlashi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Avliyoqulov N.X., Musayeva N.N. “Yangi pedagogik texnologiyalar”- Darslik
3. Muslimov N.A. “Innovatsion ta‘lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent: 2016.
4. Рахматов М.С., Норова М.С., Давлатов И.Х. “Проблемы перспективных материалов для техники и технологии” - Современные инструментальные системы, информационные технологии и инновации. 2014.
5. Paltov A.E. Innovatsion ta‘lim texnologiyalari [Matn]: Darslik / A.E. Paltov - Vladimir: Nashriyot uyi VIDU , 2018
6. Hurtova T.V. Innovatsion o‘qitish texnologiyalari [Matn] / T.V. Hurtova // O‘quv seminarlari: kompetentsiyaga asoslangan treningni uslubiy yordam. - Volgograd: O‘qituvchi, 2007. -12 p.
7. <https://lex.uz/docs/-4312785?ONDATE=24.07.2021>

MA’NAVIYAT VA TARBIYA

OILA INSTITUTI VA DEMOGRAFIK JARAYONLARNING O’ZGARISHI ULARNING O’ZBEK OILALARINING SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

*Dovranova Oysulton Dovrankulovna,
Qarshi davlat universiteti ijtimoiy fanlar kafedrasida tadqiqotchisi*

O'zbek oilalarni shakllanishiga O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimi, iqtisodiy faoliyat, siyosat, madaniyat, diniy tushunchalar va boshqa taraqqiyot turlari ta'sir ko'rsatadi. O'zbek oilalarning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiladigan asosiy faktorlar oilalarning islom tarixidan oldin va keyin bo'lgan tartibini, siyosatdan ro'yxatdan o'tkazish va ularning uyg'onishini tahlil qilishidir. Bu holatda oliy ta'lim, iqtisodiy taraqqiyot, madaniyat, din va siyosatning o'zbek oilasini birlashtirishi, ularning rivojlanishini ta'minlaydi.

***Kalit so'zlar:** iqtisodiy faoliyat, demografik jarayonlar, asosiy faktorlar, oilalarning shakllanishi, mehnat tashkiloti, kasbiy faoliyat.*

ВЛИЯНИЕ СЕМЬИ И ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ СЕМЬИ И ЕЁ ИЗМЕНЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ

Высшая система образования, экономическая деятельность, политика, культурные и религиозные представления, а также другие виды развития оказывают влияние на формирование узбекских семей и изменения в них. Основные факторы, влияющие на структуру и развитие узбекских семей, анализируются в контексте истории ислама в семьях, регистрации браков и их адаптации к изменениям в политике. В этом контексте высшее образование, экономический рост, культура, религия и политика способствуют объединению узбекских семей и обеспечивают их развитие.

***Ключевые слова:** экономическая деятельность, демографические процессы, основные факторы, формирование семей, трудовая организация, профессиональная деятельность.*

THE CHANGE IN FAMILY INSTITUTE AND DEMOGRAPHIC PROCESSES HAS AN IMPACT ON THE FORMATION OF UZBEK FAMILIES

The formation of Uzbek families is influenced by various factors within the higher education system, economic activities, politics, culture, religious beliefs, and other types of development in the Republic of Uzbekistan. The key factors affecting the formation and development of Uzbek families include the historical order of families before and after Islam, registration through politics, and an analysis of their adaptation. In this context, higher education, economic development, culture, religion, and politics converge to unite the Uzbek family and ensure its progress.

***Keywords:** economic activity, demographic processes, key factors, family formation, labour organization, professional activities.*

Kirish. Ma'lumki, oilalar jamiyat davomiyligini ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Bu yerda, inson dunyoga kelib yashaydi, balog'ot yoshiga yetib, farzand ko'radi, nasl qoldiradi. Bu uzviy jarayon tufayli jamiyatda avlodlar almashadi, yangidan yangi oilalar barpo bo'ladi. Oilalar jamiyatning davomiyligini, aholi sonini o'sib borishini ta'minlovchi jarayondir.

Har qanday mamlakatda yuqori demografik sur'at, aholi soni va nikohlarning yuqori tezlikda ortib borishi uning iqtisodiy parametrlariga bosimni oshirish bilan birga, ushbu yo'nalishda qator muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Demografik jarayonlarning ijtimoiy sohalarga ta'siri tahlil qilinganda, ularning deyarli barchasida O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bog'liq jihatlari ishtirok etganini, ya'ni har qanday ijtimoiy sohalaridagi infratuzilmalarni yaratish, yanada takomillashtirish birinchi galda aholi soni ortishidan kelib chiqib amalga oshirilsa-da, oxir-oqibat mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri ko'zga tashlanadi. Dunyoning qator mamlakatlari, birinchi galda iqtisodiyoti sust rivojlangan davlatlar aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishi, bunga teskari proporsional tarzda iqtisodiyot rivojlanishi past bo'lganligi bilan ajralib turadi. Osiyoning janubiy, Afrikaning Sahroyi Kabirdan janubda joylashgan qator mamlakatlarda ana shu

jihatlarni ko‘rish mumkin. Lekin bularning barchasiga qaramay, agar mamlakat to‘g‘ri va samarali ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib borsa, demografik jarayonlar, jumladan, aholi sonining ortishidan ijobiy natija bo‘lishi ham mumkin. Bunga misol tariqasida inson kapitalidan samarali foydalanish orqali demografik bosimdan ijobiy natija chiqarish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Oila instituti va demografik jarayonlar esa jamoatning umumiy holatini tasvir etadi. O‘zbek oilalarni shakllanishi quyidagi yo‘llar orqali ta‘sir ko‘rsatadi:

1. Respublikadagi iqtisodiy faoliyat: Iqtisodiy taraqqiyot va ish imkoniyatlari oilalar uchun muhim o‘rin tutadi. Ish imkoniyatlari o‘zgarishi, ya‘ni ish joylaridagi o‘zgarishlar, sifatli ish o‘rniga ega bo‘lish, ish haqidagi o‘zgartirishlar o‘zbek oilalarning shakllanishiga ta‘sir qiladi. Iqtisodiy taraqqiyotning o‘zgarishi shu holatga ham ta‘sir qilishi mumkin.

2. O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim tizimi: Ta‘lim tizimi oilalarning rivojlanishida asosiy o‘rin tutadi. O‘zlashtirish (individualizatsiya) jarayonlari va ta‘lim sifatining oshirilishi, oilalar uchun rahmatli sharoitlarni yaratishda muhim asosiy holatdir. Ta‘lim inklyuziyasiya tayyorlash, mehnat tushunchasi rivojlanishi, yosh oilalar uchun ish tayyorlash kioskasida mehnat foydasi sifatida ahamiyatga ega.

3. Siyosat: Davlat siyosati ham oilalarning shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Siyosat inklyuziyasiya tizimini mustahkamlash, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash, oilaviy xavfsizlikni ta‘minlash, oilaga qarshi jinoyatlar bo‘lishlarini kamaytirish, ta‘lim va tibbiyot sohasida hamkorlik qilish, oila institutlarini yaratishda milliy va viloyat tashkilotlari tayangan siyosat muhim o‘rin tutadi.

4. Madaniyat: Madaniy hayot oilalarga taraqqiyot va o‘zaro hamkorlik imkonini beradi. Madaniyat sohasidagi o‘zgarishlar, xususan, tarjima tushunchasi, jamiyatning tarjima tajribasini oshirish, media va kommunikatsiyalar tizimida kuchli o‘rin tutadi. Madaniyat oilalarning qadrlashishi, o‘zaro hamkorlik va aloqalarini talab qiladi.

5. Din: Din tushunchasi va madaniyatining o‘zgarishi ham oilalarning shakllanishiga ta‘sir qiladi. Agar o‘zbek oilasi zamonaviy dindorlikga oid tatbiqotlardi qabul qilsa, bunda din tarixiy jihatdan o‘zbek oilalarni shakllaydigan muhokama ahamiyatiga ega bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Aholining tabiiy harakati qator omillar ta‘sirida sodir bo‘ladi. Ushbu omillar shartli uch guruhga ajratiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: ishlab chiqarish munosabatlarining xususiyatlari, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, aholining turmush darajasi, ma‘lumotlilik va madaniyat darajasi, ayollarning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, bandligi, dini, urf -odat va qadriyatlar.

Tabiiy-biologik omillar: tabiiy sharoit, tabiiy ofatlar, erkak va ayol organizmining tashqi muhitga moslashish darajasi, iqlim va uning jinsiy yutuqlikka, farzand ko‘rish davriga, turli epidemiya va kasalliklarga ta‘siri.

Demografik omillar: aholining yosh jinsiy tarkibi, nikoh va ajralish jarayonlari. Agar aholi tarkibida yoshlar salmog‘i yuqori va jinsiy mutanosiblik bo‘lsa, nikohga kirish, ya‘ni oilalar paydo bo‘lishi uchun demografik imkoniyat mavjuddir. Bu hol, o‘z navbatida, tug‘ilishga ijobiy ta‘sir etadi. Aksincha, aholi tarkibida qariyalar salmog‘i yuqori bo‘lsa, tug‘ilish kamayib, o‘lim hollari ko‘payadi.

Demak, har bir davlat mana shu mutanosiblikni saqlab turushga intiladi. Yevropa davlatlarida ham aholi o‘rtasida yoshlar salmog‘ini saqlab qolishga oid bir qancha harakatlar bo‘lgan. Ammo ular tomonidan reproduktiv yoshdagilarni moddiy, iqtisodiy, moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan say - harakatlar o‘zining ijobiy natijalarini bermagani uchun ularda qariyalar umumiy aholi ichida katta ko‘rsatkichga ega bo‘lib qolmoqda. Aholining takror barpo bo‘lishi, ya‘ni avlodlar almashinish jarayoni jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida, davlatlarda, millatlarda o‘ziga xos xususiyatga egadir. Ana shu xususiyatlarni aniq bilish uchun aholining takror barpo bo‘lishini ifodalovchi maxsus ko‘rsatkichlar, ya‘ni koeffisientlardan foydalaniladi.

Demografik o‘shishning asosiy manbasi an‘anaviy ravishda aholining tabiiy harakati hisoblanadi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, mamlakatda ham, o‘rganilayotgan mintaqada ham tug‘ilishning asosiy ko‘rsatkichlarida shuni bilish mumkinki, tabiiy o‘shishning pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Biroq ushbu tendensiya mamlakatning boshqa mintaqalariga qaraganda kamroq seziladi. Tug‘ilish va tabiiy o‘shish sur‘atlarini pasayish jarayoni Toshkent shahrida allaqachon boshlandi, asta-sekin va qo‘shni mintaqalarda davom etmoqda va janubda – Surxondaryo hamda Qashqadaryo viloyatlarida eng past ko‘rsatkichlarga erishilmoqda. Boshqacha aytganda, ushbu jarayon butun mamlakat aholisining o‘shishiga hissa qo‘shayotgan ushbu sohalarda yakunlanadi.

O‘zbekiston aholisi, asosan, tabiiy ko‘payish hisobiga o‘shib kelgan. So‘nggi yillarda tabiiy ko‘payish sur‘atining yil sayin kamayib borishiga qaramasdan, u nafaqat aholi sonining o‘shishini, balki oilalarning ko‘payishini ham ta‘minlamoqda. Tadqiq qilinayotgan davr mobaynida O‘zbekistonda tashqi migratsiya oqibatlari salbiy bo‘lib, buning natijasida aholi sonining o‘shishi uning tabiiy ko‘payishi ko‘rsatkichidan kam bo‘lishini ta‘minlagan O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 2020- yil 1- yanvar holatiga 33905,8

ming kishini tashkil etib, 2019- yilda 650,3 ming kishiga yoki 2,0 %ga o‘sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 17,1 mln kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,5 %), qishloq aholisi soni 16,7 mln kishini (49,5 %) tashkil etdi. Respublika hududlari kesimida tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020 -yil 1- yanvar holatiga eng ko‘p aholi soni Samarqand viloyatida 3719,6 ming kishini (respublika aholisi sonidagi ulushi 11,4 % ni) tashkil etib, keyingi o‘rinlarda Farg‘ona viloyatida 3620,1 ming kishini (11,1 %), Qashqadaryo viloyatida 3148,1 ming kishini (9,7 %), Andijon viloyatida 3011,6 ming kishini (9,2 %) tashkil etdi.

Tahlillar va natijalar. Oila instituti va demografik jarayonlar o‘zbek oilalarni shakllanishiga yirik ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonlar O‘zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy, va siyosiy hayotiga ko‘p o‘tkazuvchi olaylar hisoblanadi. Quyidagi yo‘nalishlarda ulashishimiz mumkin:

Tug‘ilganlik darajasi: O‘zbekistonda tug‘ilgan oilalar soni va tug‘ilgan bolalar soni o‘z-o‘zida o‘zgarib turadi. Demografik yangiliklar va davlatning tug‘ilganlikni rag‘batlantirish uchun qilgan investitsiyalarni ta’siri tug‘ilganlik darajasini o‘zgartirishi mumkin.

Oila tuzishning tarzi: O‘zbekistonning yosh avlodlari, o‘z oilalarini tuzishning tarzini o‘zgartirishganligi uchun chindan-tashqari xizmatlar va imkoniyatlar topmoqdalar. Bu oila instituti va demografik o‘zgarishlarni o‘zgartirishi mumkin.

Ta’lim va taraqqiyot: Ta’lim tizimi o‘zbek oilalarini o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi. Yaxshi ta’lim olgan oilalar ko‘proq ish topishi, o‘zlarining siyosiy va iqtisodiy o‘rni yuqori bo‘lishi mumkin.

Siyosiy o‘zgarishlar to‘g‘risida: Davlat siyosati ham o‘zbek oilalarini shakllantirishiga ta’sir ko‘rsatadi. Davlatning tug‘ilgan bolalar uchun taqdim etgan imkoniyatlar va xizmatlar, oilalar tomonidan qabul qilingan va oilalarni katta olib borish qarorlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiy taraqqiyot: O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyoti oilalar uchun o‘zaro bog‘liqdir. Yaxshi iqtisodiy imkoniyatlar oilalarning o‘sishiga va yosh avlodlarning ko‘proq bola ko‘rishiga olib keladi.

Ko‘pfarandlik siyosati: Davlatning ko‘pfarandlikni ta’lim, tarbiya va tibbiyot sohasida taqdim etishshi oilalardagi bolalarning o‘sishiga olib keladi.

Maktab o‘qituvchilari, oliygohlar va tibbiyotchilarning katta roli: Oliygo‘hlar va tibbiyotchilar tibbiyot va ta’lim sohasida oilalarga ko‘maklashadi va demografik jarayonlarni o‘zgartirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi aholisi (ming kishi)

Hududlar	1991	1995	2000	2005	2010	2015
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1270,6	1393,5	1503,0	1569,9	1632,0	1763,1
Viloyatlar:						
Andijon	1789,0	1987,0	2186,2	2342,7	2549,1	2857,3
Buxoro	1195,1	1310,7	1419,3	1507,6	1612,5	1785,4
Jizzax	797,2	885,5	974,8	1043,3	1116,8	1250,1
Qashqadaryo	1694,4	1914,6	2166,8	2378,5	2616,1	2958,9
Navoiy	682,0	731,6	783,3	810,2	851,6	913,2
Namangan	1551,8	1735,2	1924,3	2073,2	2258,5	2554,3
Samarqand	2200,9	2423,0	2670,3	2862,1	3119,0	3514,8
Surxondaryo	1332,0	1531,9	1736,7	1894,8	2075,0	2358,3
Sirdaryo	559,1	602,9	642,2	672,2	714,4	777,1
Toshkent	2129,8	2219,8	2350,2	2452,3	2585,9	2758,3
Farg‘ona	2214,6	2432,6	2664,4	2840,9	3074,6	3444,9
Xorazm	1066,0	1195,9	1323,9	1432,8	1561,6	1715,6
Toshkent sh.	2130,2	2097,4	2142,3	2135,7	2234,3	2371,3
Jami	20602,7	22461,6	24487,7	26021,3	28001,4	31022,5

Aholi tug‘ilish ko‘rsatkichi mamlakatning barcha viloyatlarida qisqarib borayotganligi kuzatilsa-da, mazkur jarayon bo‘yicha ular bir biridan keskin farq qiladi. Bu jarayon 1991- yilda Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida 40 promilledan yuqori, Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Xorazm va Qoraqalpog‘iston Respublikasida 35-40 promille, Buxoro, Navoiy, Farg‘ona viloyatlarida 30-35 promillega teng bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich Toshkent viloyati va Toshkent shahrida pastroq bo‘lgan. Aholi tug‘ilish darajasi yil sayin kamayib, 2019- yili barcha viloyatlarda 21-25 promilleni tashkil etdi va ular o‘rtasidagi farqlar qisqargan.

Xulosa. Oila instituti va demografik jarayonlarning haqiqatan ham o'zbek oilalarni shakllantirishga ko'rsatgan ta'siri kattadir. Oila instituti, O'zbekistonda eng muhim muassasalar dan biri sifatida, oila dinamikasi, qadriyat va normativ qonunlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Jamoatning o'zgaruvchan qarashlari va davlat siyosati bilan birgalikda, oila tuzilishi, vazifalari va umidlari to'g'risidagi hisobotli o'zgarishlari mavjud.

Bundan tashqari, Oila instituti oila taraqqiyoti va qo'llab-quvvatlashning yangilanayotgan yondashuvlarini demografik o'zgarishlarga moslashtirgan va jins barobariyati, ota-onalar ta'limi va oila hayotini qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ushbu o'zgarish, oila tuzilishini jamiyatning zamonaviy talablariga moslashtirishning keng tarqalganligini bildiradi.

Xulosa qilib, Oila instituti va demografik jarayonlar o'rtasidagi munosabatlar o'zbek oilalarini shakllantirishda katta o'zgarishlarga olib keldi. O'zbekistonda bu o'zgarishlarni boshqarishda davlat siyosati va institutlari oilalarning ushbu o'zgaruvchan muhitda taraqqiyot qilishiga katta ahamiyat qaratmoqda.

Adabiyotlar:

1. XXI asr oilasi konsepsiyasi. Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi. T.: NISIM, 2017. – 28 b.
2. Бўриева М.Р. Рождаемость в Узбекистане. – Т.: Фан, 2012.
3. Вишневский А. Г. Демографическая революция. М.: 2018. 240 с.
4. Во'riev Ochil. O'zbek oilasi tarixidan. – Т.: O'qituvchi, 2012. – 128 b.
5. Дарский Л.Е. Формирование семьи. М.: 2015. 63 с.
6. Добров Г.М. Прогнозирование науки и техники. - М.: 2014. 173 с.
7. Karimov X.K. O'zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: Dis. psixologiya fanlari nomzodi. – Т.: 2016. – 142 b.
8. Бўриева М.Р. Аҳоли, оила ва иқтисод // Жамият ва бошқарув. –Т.: 2017. - №.

MILLIY QADRIYATNING OILADA BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHDAGI MA'NAVIY-IJTIMOYIY AHAMIYATI

Jabborova Saodat Zoirova,

Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

Maqolada hozirgi zamon sivilizatsiyasi talablariga javob beruvchi umuminsoniy demokratik qadriyatlar, globollashuv sharoitida milliy qadriyatlarning shaxs tabiyasidagi o'rni, o'ziga xos ahamiyati, turlari, milliy qadriyatning oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashdagi ma'naviy-ijtimoiy jihatlari, oila-mahalla-maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligi tizimi doirasida bolalarni milliy qadriyatlar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning o'ziga xos imkoniyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *sivilizasiya, umuminsoniy demokratik qadriyatlar, globollashuv sharoiti, milliy qadriyatlar, shaxs tabiyasi, axloqiy tarbiya, oila-mahalla-maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligi, mintaqaviy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy qadriyatlar.*

ДУХОВНО-СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЦЕННОСТИ В ПРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ

В статье рассматриваются общечеловеческие демократические ценности, отвечающие требованиям современной цивилизации, роль национальных ценностей в природе личности в условиях глобализации, их специфическое значение, виды, духовно-социальные аспекты национальных ценностей в нравственном воспитании детей в семье, специфические возможности духовно-нравственного воспитания детей средствами национальных ценностей в рамках системы сотрудничества семья-махаля-ДОУ.

Ключевые слова: *цивилизация, общечеловеческие демократические ценности, условия глобализации, национальные ценности, природа личности, нравственное воспитание, сотрудничество семья-махаля-ДОУ, региональные, социальные, политические, правовые ценности.*

THE SPIRITUAL AND SOCIAL SIGNIFICANCE OF NATIONAL VALUE IN THE MORAL EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY

The article will talk about universal democratic values that meet the requirements of modern civilization, the role of national values in the individual sphere in the context of globalization, their specific significance, types, spiritual and social aspects of national value in the moral education of children in the family, the specific possibilities of spiritual and moral education of children in the framework of the system.

Keywords: *civilization, universal democratic values, globalization conditions, national values, personality Tabia, moral education, family-neighbourhood-preschool cooperation, regional, social, political, legal values.*

Kirish. Mamlakatimizda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda milliy qadriyatlarga asoslanish zaruriyati davlat siyosati darajasida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda ta'lim sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlar va ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan amaliyotchi pedagoglar qadriyatlar, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati, o'zaro aloqasi, qadriyatlarning inson hayotida tutgan o'rni, ularning tarbiyaviy ta'siri hamda tarbiya vositasi sifatida samarali natijani ta'minlovchi omil ekanligini asoslamoqdalar.

Hozirgi zamon sivilizatsiyasi talablariga javob beruvchi umuminsoniy demokratik qadriyatlar xalqimiz turmush tarziga kirib kela boshladi. Inson haq-huquqlariga rioya qilish, tadbirkorlik erkinligi, matbuot erkinligi ana shular jumlasidandir. “Ushbu demokratik qadriyatlar jamiyatimiz uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida gapirar ekanmiz, bu qadriyatlar tarixiy jihatdan ham xalqimizning o'ziga xos xususiyatlariga zid emasligini qayta-qayta ta'kidlashni istardik». Shu bilan birga o'tmish qadriyatlariga, an'analari va turmush tarziga betartib ravishda orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin.

Asosiy qism. Har qanday qadriyat ham inson ongi va faoliyatining mahsulidir. Boshqacha aytganimizda, har qanday qadriyatlar ajdodlar tomonidan yaratiladi, ular yaratgan qadriyatlar boshqa avlodlar tomonidan o'zlashtiriladi, kishilarning ongi va shuuriga singib, amaliy faoliyatiga qudratli stimul beradi, katta ijtimoiy kuchga aylanadi.


Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotining mahsulidir. Shuning uchun ham qadriyatlarda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o'sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, talab va ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. Zamonlar o'tishi bilan qadriyatlarning mazmuni ham o'zgarib boradi. Xuddi shuning uchun ham, qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyatiga baho berganda aniq tarixiy shart-sharoitlarni doimo nazarda tutmoq zarur.

Qadriyatlar insonning orzu-istaklari, niyatlari, umidlari, bir so'z bilan aytganda, «ideal»i sifatida namoyon bo'ladi. Faylasuflar ta'kidlaganidek, qadriyatlar hech qachon obyektga ham, subyektga ham bog'lik bo'lmagan mustaqil olamni vujudga keltiradi. Bu olam makon va zamon qonunlaridan ustun turadi. Shuningdek, insoniyatning buyuk ma'naviy xazinasini bo'lgan qadriyatlar hech qachon o'zgarmaydi, balki insonning qadriyatlar haqidagi tasavvurlari o'zgaradi. Butun olam qadriyatlar bilan to'lib-toshgan bo'ladi va borliqqa hamisha yangi ma'no ato etadi. Shuning uchun ham butun voqelik qadriyatlarining o'ziga xos namoyishidan iboratdir.

Hozirgi zamon qadriyatshunos olimlarning fikriga ko'ra, jumladan, J.Tulenov, “qadriyatlar deyilganda faqat o'tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajakdagi taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmui tushuniladi... Qadriyatlar qadr-qimmat degan ma'noni bildiradi”, Tugarinovning fikricha esa, “qadriyat deganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmuyi tushunilmog'i lozim”.

E.Y.Yusupovning fikricha, “qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy boyliklardir”. Qadriyatlarining ham o'ziga xos qonunlari bor. Bu qonunlar inson irodasiga bo'ysunmaydi. Qadriyatlar obyektiv olamning subyektiv in'ikosi bo'lgani uchun kishilarning amaliy faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Hatto odamlar turmush tarzini o'zgartiradi. Xuddi shuning uchun ham kishilar o'zlarining turmush tarzlarini insoniyat yaratgan qadriyatlar talablariga qarab o'zgartirib boradilar.

O'zbek xalqi qadimdan oila ma'naviyatiga alohida e'tibor qaratgan. Bugungi kunda ma'naviy merosdan foydalanib, mustaqil respublikamiz talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalash har bir oilaning muqaddas burchidir. Bu burchni sharafla bilan ado etish oilada yosh avlod ongiga avlodlar shajarasi, kasb-kori, urf-odatlari, an'analari, tarbiya usullari, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, o'ziga xos ijobiy tarixini singdirish, undan gururlanish hissini tarbiyalashdan boshlanadi. O'z ota-onasidan, oilasi, avlod-ajdodlari tarixidan g'ururlangan inson o'z o'lkasi, millati, xalqi, tili, dini, madaniyatidan g'ururlanishi, uni avaylab -asrashi, dunyoga ko'z ko'z qilishi tabiiydir. Buning uchun oilada bolaning ongiga yoshlikdan boshlab «sen tarixi boy, ulug millatning farzandisan», «sen ulug mutafakkirlar, allomayi-zamonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan bobokalonlarning ajdodisan», «o'zbek xalqi boy ma'naviyatli, vatanga, xalqqa, sadoqatli xalq», «Bizning mamlakat dunyoda tabiati eng go'zal, boy diyori» kabi tushunchalarni singdirib bormoq lozim.



1-rasm. Qadriyat turlari

Qadriyatlar o'zining mazmun, mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Qadriyatlarni o'rganar ekanmiz, ularning turlarini quyidagi 1-rasm bilan izohladik.

Bizning mamlakatimizda ham inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Insoniyat mavjudki, uning qadr-qimmatini ulug'lanib kelinadi. Shu boisdan insonning qadr-qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'ligini yaxshilash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Davlatimizda bo'layotgan o'zgarishlar, islohotlar, qonun va nizomlarning mohiyati ham shundadir. Qadriyatlarni jamiyat, millat hayotidagi o'rni, ijtimoiy xarakteriga qarab milliy va umuminsoniy, sinfiy yoki diniy, shuningdek, kishilarning yoshi, professional xususiyatlariga xos qadriyatlarga bo'lish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi jamiyat qurilish avj olgan mamlakatimiz sharoitida inson o'zining shaxsiy individual xususiyatlarga tayanishi, o'z baxt-iqbolini o'z qo'li bilan yaratishi haqida qayg'urishi, jamiyat va davlat muassasalariga emas, balki o'z qobiliyatiga umid bog'lashi uning qadr-qimmatini belgilovchi asosiy mezonga aylanayotir.

Shuningdek, insoniyat ehtiyojlarini qondirishda tabiiy qadriyatlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Tabiiy qadriyatlarga yer va yer osti boyliklari, suv, havo, o'rmonlar, o'simliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar kiradi. O'zbekiston zamini ham xilma-xil qazilmalarga boy. Ko'pchilik qazilma boyliklardan bugungi kunda foydalanaloyotgan bo'lsak-da, hali bizga noma'lum bo'lgan konlar ham bor. Yer yuzida mavjud bo'lgan barcha qazilma boyliklar, o'rmon va hayvonot olami va hokazolar moddiy boyliklar sanaladi. Qachonki, ular inson tomonidan o'zlashtirilganda, uning ahamiyati va qadr-qimmatini yanada oshadi.

Insonning aqliy va jismoniy mehnati natijasida yaratilgan turli tuman moddiy boyliklar, zavod fabrikalar, ishlab chiqarish kuchlari, transport vositalari, asbob uskunalar, turar joy, mol-mulk, noz-ne'mat va shu kabilar moddiy qadriyatlar hisoblanadi.

Insonning hayotida madaniy-ma'naviy qadriyatlar katta o'rin egallaydi. «Ma'naviy qadriyatlar, boyliklar inqilobiy yo'l bilan hosil qilinadigan hodisa emas, u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr hayotini aks ettiradi, u hayot o'zgarishi bilan yo'qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun ma'naviy meros bo'lib qoladi. Har bir avlod ma'naviyatni yangidan yaratmaydi, ma'naviy merosga tayanadi, biroq uni qanday bo'lsa shundayligicha ko'r-ko'rona qabul qilavermaydi, taraqqiyotparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtayi nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi».

Qay bir jamiyat bo'lmasin, uning moddiy hayoti qay darajada rivojlangan bo'lsa, ma'naviy hayoti ham shu darajada taraqqiy etgan bo'ladi. Bizning mamlakatimizda ham, bozor iqtisodiga o'tish jarayonida, avvalam bor, xalqning moddiy hayotini yaxshilash ko'zda tutilgan. Buni bozor iqtisodiga o'tishning besh tamoyili asosida ko'rishimiz mumkin. Bu degani ma'naviy hayotni orqaga surib qo'yish emas, albatta. Mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlab, milliy qadriyatlarimizni tiklash, xalqning madaniy-ma'naviy hayotini yaxshilash, yangicha dunyoqarashni shakllantirish, milliy, huquqiy ongini o'stirish borasida ko'plab ishlar qilinganligi hammaga ayondir.

Ma'naviy qadriyatlarga ilmiy texnikaviy va intellektual imkoniyatlar, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy yodgorliklar, arxitektura va boshqalar kiradi. Moddiylik va ma'naviylik uzviy bog'liqdir. Moddiy olam birlamchi, ong ikkilamchi bo'lgani kabi, moddiy hayot birlamchi, chunki oldin insonning moddiy ehtiyojlari qondirilgan bo'lishi lozim. Ma'naviy hayot ikkilamchi, chunki u moddiy olamning kishilar ongida in'ikosidir.

Yuqoridagi qadriyat haqidagi fikr va mulohazalarni o'rganib chiqqan holda, qadriyat tushunchasi haqida quyidagi izohni keltirib o'tmoqchimiz. Qadriyat inson uchun ahamiyatli va qadr-qimmatga ega bo'lgan, kishilarning manfaatlari va maqsadlari yo'lida xizmat qiladigan tabiat hamda jamiyat hodisalari majmuidan iborat dialektik birlikdir.

Oila-mahalla-maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligi tizimi doirasida bolalarni milliy qadriyatlar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda quyidagi tamoyillarga asoslanildi: vorisiylik, sulolaning muayyan an'analarga egaligi, bolalarning yosh xususiyati, farzandlarning gender mansubligi va o'ziga xos psixologik sifatlari, individual tarbiya va ijodiy yondashish, onaning pedagogik qobiliyati, ibrat, milliy-ma'naviy qadriyatlarga hurmat.

Bolalarni milliy qadriyatlar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonini ularga yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni farqlash, jamiyatning axloqiy va madaniy qadriyatlari, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlari

– saxiylik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, tinchliksevarlik haqida ma'lumot olishlariga yordam beruvchi o'zbek xalq ertaklari, topishmoq, maqol va matallar bilan to'ldirib borilishiga katta e'tibor qaratish lozim.

Bolalar yoshligidanoq xalq ogʻzaki ijodi janrlari bilan tanishtiriladi. Bular – ona allasi, oʻyinlar – bolalar bilan ermaklar (“Chapaklar”, “Qoʻl harakatlari”, “Hayvonlar harakatlariga taqlidlar”), maqollar, matallar, topishmoqlar, ertaklar. Xalq ogʻzaki ijodi bolajonlarning bilish faolligi, mustaqilligi, individualligi, hissiyotlari, atrof-olamga munosabati, nutq koʻnikmalari rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Maktabgacha taʼlim muassasasi va oilada bolalarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda xalq ogʻzaki ijodining turli shakllaridan maqsadli va tizimli foydalanish ularning ruhiy va jismoniy jihatdan kamol topishiga zamin yaratadi.

Maktabgacha taʼlim muassasasi va mahallalardagi taʼlim-tarbiya jarayonida yuqorida qayd qilingan tashkiliy va pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni amalga oshirish bolalarni alla vositasida maʼnaviy axloqiy tarbiyalashda, balogʻat yoshidagi qizlar va yosh onalarning allalardan tarbiya vositasi sifatida foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish va metodik tayyorgarlikni rivojlantirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek xalqining milliy qadriyatlarida yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashda taʼlim-tarbiya metodlari, usullari keng qoʻllanilganki, oʻzining amaliyligi, avlodan-avlodga oʻtib, tajribada sinalganligi va hayotiyiligi bilan tarbiya tizimida katta ahamiyatga egadir. Biz bu borada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qoʻllanilgan metod va usullar, farzand tarbiyasida ota-ona ibrati, oilada bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va hunar, estetik va jismoniy tarbiyasida xalq hikmatlari, maqol va iboralar, hikoyatlar, rivoyatlar, ertaklar, dostonlarda xalq foydalangan metod va usullarni hozirgi davrda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qoʻllash muhim hisoblanadi. Shuni unutmaslik kerakki, insoniyat va millatlar takomili hech qachon milliy anʼanalarni poymol etish, axloqu odob pardalarini gijimlash evaziga emas, aksincha, insonni yanada balandroq maʼnaviyat, poklik va odob choʻqqisiga olib chiqishda namoyon boʻladi. Binobarin, «Ajdodlarimizning ruhi poklari va urf-odatlarini, bizning eng yaxshi anʼanalimiz qayta tiklanganda islohatlar muvaffaqiyatga erishadi. Oʻta oʻqimishli, ruhan bardam va jismonan baquvvat kishilargina istiqloq va taraqqiyot yoʻlini bosib oʻta oladi. Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning maʼnaviy qadriyatlari iqtisodiy oʻzgartirishlarimizning mustahkam poydevori boʻlib xizmat qiladi».

Oilaviy qadriyatlar asosida oila davrasida turli bayramlarni nishonlash, kichik yoshdagi bolalar tarbiyasida alla, ertak, xalq maqol va matallaridan, qoʻshiqlaridan samarali foydalanish, birgalikda madaniy xordiq, chiqarishni, milliy sport oʻyinlari va musobaqalarini, tarixiy obidalar va qadamjolarga sayohatlar uyushtirish, boshqa millat maʼnaviyatiga hurmat bilan munsobatda boʻlish, oila kitobxonligini tashkil etish, oilada til, muloqot va kiyinish madaniyatiga alohida eʼtibor berish, farzandlarga kasb-hunar oʻrgatish, oilada boʻsh vaqtni ijtimoiy foydali mehnat vositasida samarali tashkil etish oila maʼnaviyatini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Inomova M.O. Oilada bolalarni maʼnaviy- axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari (mustaqil hayot boʻsagʻasidagi yoshlar): Pedagogika fanlari doktori...dis./ Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika in-ti. – Toshkent, 1998.
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik-T:Fan va texnologiya. 2008.152b
3. Мухсиева А.Ш. Оила педагогикаси. - Т.: Адабиёт учкунлари нашриёти, 2018 й.
4. Primova F.A. Oilaviy munosabatlarni shakllantirishda milliy va diniy qadriyatlarning oʻrni. Avto-ref.fals.fan.nomzodi. – T: 1999.
5. Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi oʻrni. T.: 1995.

OILA BARQARORLIGIGA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR TA’SIRINING SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAGI TALQINI

*Mamatova Nazira Djurakulovna,
Samarqand davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi*

Mazkur maqolada oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta’sirining sharq mutafakkirlari tomonidan talqin etilganligiga hamda oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek oila asosiy tarbiya o‘chog‘i ekanligi, avlodlarni to‘laqonli shaxs bo‘lib shakllanishida oiladagi munosabatlarni ahamiyati katta ekanligi yoritib o‘tilgan.

***Kalit so‘zlar:** nikoh, oila barqarorligi, er-xotin munosabati, ijtimoiy mavqiy, pand-nasihati, an’ana, fe’l-atvor, e’tiqod, inson kamoloti.*

ТОЛКОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА СТАБИЛЬНОСТЬ СЕМЬИ В ТРУДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

В данной статье уделено внимание тому, как влияние межличностных отношений на стабильность семьи было интерпретировано восточными мыслителями, а также социально-психологическим особенностям семейных отношений. Также было отмечено, что семья - это вечность общественной жизни, главный воспитательный очаг, большое значение имеют межличностные отношения в семье при формировании поколений полноценными лицами.

***Ключевые слова:** брак, стабильность семьи, отношения супругов, социальное положение, советы предков, традиции, убеждения, формирование личности.*

INTERPRETATION OF THE INFLUENCE OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS ON FAMILY STABILITY IN THE WORKS OF EASTERN THINKERS

This article will pay attention to how the influence of interpersonal relationships on family stability was interpreted by Eastern thinkers, as well as the socio-psychological features of family relations. It was also emphasized that the family is the eternity of social life, the main educational centre, interpersonal relationships in the family are of great importance when forming generations by full-fledged persons.

***Keywords:** marriage, family stability, marital relations, social status, ancestral advice, traditions, beliefs, personality formation.*

Kirish. Sharq mutafakkirlarining ilmiy-madaniy merosini o‘rganar ekanmiz, ularda bayon qilingan oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand kamoloti, erkak bilan ayol munosabati, insoniy fazilatlarining shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar Sharq xalqlari, xususan, o‘zbek xalqining og‘zaki ijodi, eposining (o‘zbek xalq maqollari, ertaklari, dostonlari, afsonalari, rivoyatlari) uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy-madaniy meros ekanligini ko‘ramiz.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik – xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy – ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur”.

Darhaqiqat, oiladagi sog‘lom muhit, shaxslararo munosabatlarning barqarorligi, oilaning mustahkamligi jamiyatning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi muhim omildir.

Asosiy qism. Sharqning buyuk allomalari va ma’rifatparvarlari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxruddin, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalarning asarlarida Markaziy Osiyoda yashab kelayotgan xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqining oilaviy hayoti, undagi o‘zaro munosabatlarning (ayniqsa er-xotin) milliy psixologik xususiyatlari, er-xotinning burch va vazifalari, oilaning turmush tarzi va tarbiyaviy muhiti va boshqalar haqida qimmatli fikrlar mavjud. Bu ma’naviy- ma’rifiy ma’lumotlar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Oilaviy turmush va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyatiga xos masalalar buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo‘lmish Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ham keng yoritilganidir.

Chunonchi, o‘zbek xalqining og‘zaki ijodi va eposlarida mardlik, halollik, kamtarlik, ishonch, sevgiga-sadoqat, do‘stlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, hamfikrlilik, orastalik, go‘zallik, oqillik, e‘tiqod, hurmat-ehitrom, oila sha‘ni va g‘ururini himoya qilish, tug‘ilgan joyiga muhabbat, ezgulikka intilish, halol va pok yashash ulug‘langan. Bu voqelikni biz “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Oysuluv”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho” kabi qator o‘zbek xalq dostonlarining qahramonlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Qadimiy eposlarda ayollar bilan erkaklar teng ijtimoiy mavqega ega shaxslar sifatida gavdalanadi, ayollar erlaridan qolishmaydigan jasoratli qilib tasvirlangan. Sevib turmush qurish, sevgida vafodorlik, oilaviy totuvlik kabi insoniy xislatlar o‘rta Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbek urug‘lari va elatlarining xarakterli xususiyati sifatida saqlanib qolgan.

"Qur'oni Karim"da, Hadislarda va Zartushtiylikda oilaviy munosabatlar haqida."Qur'oni Karim" va Hadislarda ham oilaviy turmushning va er-xotin munosabatlarining barcha tomonlari haqida qimmatli ma'lumotlar va shar'iy qonunlar yoritilgan. Islomda bo‘lajak oilaning vujudga kelishiga alohida e‘tibor berilgan. Shariat bo‘yicha nikohdan o‘tishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim bo‘lgan:

1. Nikohlanuvchilarning o‘zaro roziligi.
2. Nikoh yoshiga to‘lish.
3. Nikohni guvohlar ishtirokida tuzish.
4. Kelin uchun mahr to‘lash.
5. Diniy e‘tiqod birligi.
6. Nikohlanuvchilar yaqin qarindosh bo‘lmasligi.
7. Nikohdan o‘tuvchilarning ruhiy jihatdan sog‘lom bo‘lishi.

Bu shartlarga rioya qilinib tuzilgan nikohgina qonuniy hisoblanib, taraflarni tegishli huquq va majburiyatlar bilan ta‘minlagan.

Qur'oni Karimning oyatida oiladagi er bilan xotinning o‘rni belgilab berilgan. Shariat hukmicha, er, avvalo, oilaning barcha moliyaviy va ma‘naviy taraflariga javobgar, uni chetdan bo‘ladigan har qanday xurujlardan himoya qiladigan shaxsdir. Bu himoya mexanizmi erkak kishi uchun fazilat hisoblanmish og‘ir-bosiqlik, oila ro‘zg‘or tebratishdagi tadbirkorlik kabi sifatlar mavjudligi sabab bo‘lgan, u oilaning boshlig‘i ekanligini his qilish imkonini bergan. Yaxshi xotin esa diyonatli, erning uyini obod qiladigan va unga bir umr sadoqatli bo‘lgan ayoldir. Qur'oni Karimdan er-xotin yoxud oilaviy munosabatlarga xos ibratli misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Hatto ajdodlarimizning muqaddas dini hisoblangan zardushtiylikda ham nikoh va oilaviy burch masalasi muhim axloqiy o‘rinda turgan. Zardushtiylikda ko‘p xotinelilik qat‘iy man etilgan. Ayni paytda hayotni bo‘ydoq o‘tkazish ham qoralangan. Balog‘atga yetgan qiz ota-ona va jamoaning ra‘yini pisand qilmay, qasddan turmushga chiqmay yursa, u qopga solinib, 25 darra kaltaklanish bilan jazolangan. Agar erkak kishi shu yo‘lni tutsa, unga tamg‘a bosilib badnom qilish maqsadida beliga zanjir bog‘lab yurishga majbur etilgan. "Avesto"da qayd qilinishicha, erkak, avvalo, uylanish uchun moddiy va ma‘naviy tomondan to‘q va baquvvat bo‘lmog‘i lozim edi. Bundan tashqari, mazkur muqaddas kitobda oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq solish xususida ham diqqatga sazovor mulohazalar mavjud. Shuningdek, unda nikoh va taloqning (ajrashishning) o‘ziga xos mezonlari birma-bir keltirib o‘tilgan.

Zardushtiylikning axloq me‘yorlari majmuyida ayollar masalasiga ham alohida o‘rin berilgan. Zardushtiylikda oila muqaddas sanalgani uchun boshqa sabablarga ko‘ra, jumladan, ig‘vo, tuhmat, er-xotinning o‘zaro kelishmovchiligiga, ota-ona bilan chiqisha olmaslik bahonasi bilan nikohni bekor qilinishiga yo‘l qo‘yilmagan.

Umuman, Zardushtiylikda ham, Islomda ham nikohda ikki tomon teng va munosib bo‘lishi aytib o‘tilgan. Nikoh tartiblari va hayotiy tajribalariga ko‘ra, kelin va kuyov nasl nasabda, ijtimoiy mavqeyida, bilim-saviyada, did-farosatda, ilm-e‘tiqodda, mulkdorlikda bir-birlariga yaqin bo‘lishi ma‘qul topilgan. Shu bois, Sharq xalqlarida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash, ularning tengini topib uylantirishga jiddiy e‘tibor berilgan. Ayniqsa, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlashda, ularda, birinchi navbatda, insoniy fazilatlar shakllangan bo‘lishi, oilaning muqaddas ekanligi, uni avaylab-asrash aynan uy bekalariga bog‘liqligi haqida ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan nasihatnoma, pandnoma va hikmatnomalarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan qimmatli nasihatlar hikoya qilinadi.

Sharq mutafakkirlarining nikoh va oila haqidagi fikrlari tahlili.

Xalq og‘zaki ijodi va diniy g‘oyalar hamda hikmatnomalar og‘zaki tarzda avloddan-avlodga ko‘chib sayqallashgan holda saqlanib kelgan bo‘lsa, xalqimiz orasidan yetishib chiqqan donishmand va allomalar esa ana shunday qimmatli ma'lumotlarni xalq an‘analari va qadriyatlariga tayangan holda o‘z asarlarida yoritgan

va ilmiy-madaniy meros sifatida kelgusi avlodlar uchun qoldirganlar. Ulardan biri jahon ilm-fani xazinasiga munosib hissa qo‘shgan mutafakkir olim Abu Nasr Forobiydir.

Abu Nasr Forobiy (873-950) jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini va inson kamoloti bosqichlarini, insonlar yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv yo‘llarini o‘zining mashhur asari "Fozil odamlar shahri"da bayon etadi. Forobiy oqil insonlar haqida gapirib, "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, yomon ishlardan o‘zlarini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar" degan edi. Alloma oqillar bor joyda hech qachon muammolar va kelishmovchiliklar bo‘lmasligiga ishora qiladi. Uning g‘oyalarida oilaning to‘liqligi, unda qaror topgan sog‘lom ma‘naviy muhitning ahamiyatini aks ettiradigan fikrlar ham mavjud. "Har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi. U bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Bunday jamoa a‘zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi" yoki "odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos insoniylikdir. Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar (bizningcha, oila) fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi (bizningcha, oila jamoasi) fazilatli jamoadir".

Forobiy keraksiz urf-odatlardan (hozir ham oilaviy hayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt-saodatga erishish yo‘llari haqida gapirib shunday deydi: Rahbarlar (er yoki xotin) "yomon odatlarni o‘zida ifodalovchi o‘tmishni ham o‘zgartirmog‘i kerak. Aks holda o‘tmishni talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o‘zgarish va o‘shish ham bo‘lmaydi". Yoki "Baxt-saodatga erishuv yo‘lida nimaiki (bilim, axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq nimaiki zararli bo‘lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur".

Biz tadqiqotlarimizda o‘rganadigan muammo nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, Forobiyning inson kamoloti, uning jamiyatdagi, oiladagi o‘rni, yoshlarning voyaga yetishiga ta’siri to‘g‘risidagi fikrlari, insonlar jamoasidagi o‘zaro hamjihatlik, yordam haqidagi hikmatlari hozirgi oilaviy turmush masalalarini yechishda, undagi munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda farovon turmush kechirish uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o‘z ijtimoiy qarashlarini aks ettirgan yaxlit ijtimoiy ta’limot yaratmagan bo‘lsa-da, lekin u ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘zining nuqtayi nazarini ko‘pgina qomusiy asarlarida izhor etishga yoki ular yuzasidan tanqidiy fikrlar aytishga harakat qilgan. Abu Rayhon Beruniyning muayyan qarashlari oilaviy turmush, oila va nikoh, oilaviy qadriyatlar va uning a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlariga xosdir. Bunday ishoralarni Beruniy hikmatlarida ham uchratamiz. "Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir". "Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o‘rtaga kirib olishi bilan ish to‘g‘ri bo‘lmaydi". "Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldanchi ehtiroslar, g‘am-g‘ussa bo‘lmaydi, oilaviy munosabatlarda ana shunday hikmatlarga amal qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Beruniy O‘rta Osiyo, Qadimgi Yunon va Hind xalqlari hayotini yaxshi bilgani uchun ular amal qiladigan urf-odatlar, qadriyatlar va milliy madaniyatlarining o‘ziga xos tomonlarini taqqoslab tahlil qiladi. Ushbu tahlillar oila-nikoh, oiladagi o‘zaro munosabatlarga ham xosdir. Jumladan, u oilalarning "poligamiya" (erkak yoki ayol bir paytning o‘zida bittadan ortiq er yoki xotinga ega bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladigan nikoh shaklini bildiradi) turi haqida ham qimmatli ma’lumotlarni keltiradi. Masalan, Janubiy Hindiston madaniyatida tud ()erkaklari biologik nuqtayi nazardan otalikni o‘rnatish bilan qiziqmaganlar. Ularda bolaga otalik rasmini amalga oshirish chog‘ida o‘qli kamonni homilador ayolga tantanali suratda bergan erkak bolaning otasi hisoblangan. Agar keyinchalik boshqa bir erkak bolaga otalik qilishni xohlab qolsa, bu rasm ayolning navbatdagi homiladorligida takrorlangan. Bu ma’lumotlar izlanuvchilarda ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida oilaviy turmushning takomillashuvi, oila-nikoh munosabatlarining barqarorlashuvi va monogamiya oila turining kelib chiqishi tarixi haqida ilmiy tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi.

Beruniy qarashlarida oilaviy munosabatlar barqarorligining yetakchi omillari oqillik va mehnatsevarlikning ahamiyati haqida ham qimmatli fikrlar mavjud. "Muayyan vazifalarni bajarish zaruriyati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir. Insonning qadr-qimmati o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishidandir, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o‘rni mehnat bilan belgilanadi. Zero, inson o‘z xohishiga mehnat tufayli erishgan". Ushbu muammoga oid mulohazalar Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) "Donishnoma", "Risolayi ishq", "Tib qonunlari", "Uy xo‘jaligi" kabi qator asarlari Markaziy Osiyo xalqlari axloq-odobi, tarbiya psixologiyasi, falsafa va tabobat olamida alohida o‘rin tutadi. Ibn Sino oilaviy munosabatlarning turli va muhim tomonlarini yoritarkan, avvalo, oila boshlig‘i erining oldidagi mas’uliyatli vazifalarga e’tiborini qaratadi. Uning fikricha, birinchi navbatda, er oiladagi tarbiyaviy ishlarga doir ham nazariy, ham amaliy ma’lumotlarga ega bo‘lishi shart. Shundagina, u haqiqiy oila boshlig‘i bo‘la oladi.

Er-xotin munosabati tenglik hamjihatlik va o‘zaro hurmat asosida qurilishi haqida to‘xtalib, "Erkak kishi oila boshlig‘idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog‘i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir. Ayol esa erkakni yaxshi, munosib yo‘ldoshi va bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchisidir", - deb yozadi Ibn Sino. Ibn Sino oilaviy munosabatlar maromi oiladagi tinch- totuvlik, mehr-muruvvat, oila g‘ururi va sha‘ni ko‘p jihatdan ayollarga ham bog‘liq ekanligi haqida ko‘p yozgan. Jumladan, "Oila xo‘jaligi" asarida ayollar axloqan eng maqbul, yuqori insoniy fazilatlariga ega bo‘lmoqlari lozim, deb yozadi. Mazkur asarning "Ayollarning yaxshi fazilatlariga haqida" nomli bo‘limida ularning quyidagi fazilatlarini bayon qilinadi; ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatli bo‘lib, ko‘p gapirmasligi lozim; u eriga bo‘ysunmog‘i, uni sevmog‘i, farzandlar tug‘ib, doimo halol, pok, to‘g‘riso‘z, kamtar bo‘lishi kerak; injiq bo‘lmasligi, o‘z iffat va obro‘sinini to‘kmasligi lozim; u hech qachon eriga nisbatan dimog‘dorlik, viqor hissini ko‘rsatmasligi, o‘z ishlarini yaxshi, o‘z vaqtida bajarib, oilaning moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog‘i lozim; o‘z xulq-atvori bilan o‘z erining qalbida hadiksirash hissiga o‘rin qoldirmasligi kerak ("Ibn Sino va tadbiri manzil" 38 b).

Mutafakkir olimning sog‘liqni saqlashga doir risolalarida jinsiy aloqalarning me‘yorlari, unga qat‘iy amal qilish, jinsiy aloqalarda o‘zgarishning sabablari, ularni yo‘lga qo‘yish tadbirlari haqida ham qimmatli ko‘rsatmalar berilgan. Uning fikricha, er-xotin ularni yodda tutishi va unga amal qilishi oilaviy munosabatlar barqarorligiga ijobiy ta‘sir etadi. Shuningdek, Ibn Sino "Kitob ush-shifo" asarida oila inqirozi va buzilishiga sabab bo‘ladigan omillarni ham ko‘rsatib o‘tgan.

Bularga: 1. Agarda er va xotinlikdan dunyoga farzand kelmagan bo‘lsa.

2. Agarda xotin eriga xiyonat qilib, uning e‘tiborini pasaytirs.

3. Xotin kishi tarbiyasiz bo‘lsa-yu, tarbiya olishni istamasa.

4. Er va xotin bir-birlariga yoqmaydigan xarakterli bo‘lsa.

Ko‘rinib turibdiki, Ibn Sino asarlarida oila-nikoh va oilaviy turmushda er-xotin munosabatlarini ibratli misollar asosida yoritgan hamda ayollar mavqeyi undagi munosabatlarda muhim o‘rin tutishini asoslab bergan.

Kaykovus qalamiga mansub Qobusnoma asari (1082-1083 yillarda yozilgan) Sharq xalqlari orasida ma‘lum va mashhurdir. Qobusnomada qator ibratli va hayotiy pand nasihatlar bilan birgalikda "Ishq va uning odatlari zikrida", "Xotin olmoq zikrida" ham qimmatli ma‘lumotlar berilgan. "Ey farzand, to kishining ta‘bi latif bo‘lmaguncha oshiq bo‘lmag‘usidir, nedinkim ishq beshak ta‘bi latiflikdan paydo bo‘lur. Har narsaki ta‘bi latiflikdan paydo bo‘lsa, ul beshak latif bo‘lur". Bu yerda insonning qalbi toza, pok va axloqan yuksak bo‘lsa, uning ko‘ngli, sifat va fazilatlarini ham, hissiy kechinmalari ham sof va chiroyli bo‘lishiga ishora qilingan. "Bas, agar oshiq bo‘lsang, shundoq kishiga bo‘lgilki, ul ma‘shuqalikka loyiq bo‘lsin". Bunda bo‘lg‘usi er-xotinning nikohigacha davrda bir-birini ko‘rib-bilib, sinab ma‘shuqaning oqila, orasta, tejamkor, saranjom-sarishta, bola tarbiyasini, uy-ro‘zg‘or ishlarini o‘rniga qo‘yadigan kamtarin va eriga sadoqatli bo‘lishi nazarda tutiladi.

Ey farzand, agar xotin olmoq tilasang, o‘z hurmatingni yaxshi saqlagil. Garchi mol aziz bo‘lsa ham xotin va farzandingdan darig‘ tutma. Ammo xotinni pok dil, farzandni farmonbardor va mehribon tutgil bu ish sening qo‘lingdadir. Bu o‘rinda xotinga xos munosabatda bo‘lish erning ixtiyorida ekanligi ogohlantirilgan.

Xotin talab qilsang, xotinni molini talab qilmagil, xotin pok nixod (toza tabiat va pok dil) bo‘lsin. Kadbonu (uy bekasi va ishchan xotin)eriga do‘st bo‘lgay. Hayolig‘, taqvador, tili qisqa, molni yaxshi saqlaguvchi bo‘lsin. Debduurlarki, yaxshi xotin erning va umrning rohati bo‘lur. Bunda esa bo‘lg‘usi turmush o‘rtog‘ini tanlashda erning oldidagi mas‘uliyat va latif xotin bo‘lishga xos fazilatlar bayon qilingan.

Agar sen xotiningga rashklik qilmasang, u senga samimiyat bilan munosabatda bo‘lur. U senga ota-onang va farzandlarindin ham mushfiqroq bo‘lur va senga undin do‘stroq kishi topilmas. Agar unga g‘ayyaroq (rashk, qizg‘anish) ko‘rguzsang, senga ming dushmandin dushmanroq bo‘lur va begona dushmandin hazar qilsa bo‘lur, lekin undin hazar qilib bo‘lmas. Bunda er-xotinning o‘zaro munosabatlarini ziddiyatlarning shakllanishiga olib keluvchi sabablar va omillar haqida gap boradi.

Yusuf xos Hojibning mashhur asari "Qutadg‘u bilig" (Baxt- saodatga yo‘llovchi bilim)da er yoki xotin tanlashda uning qaysi sifat va fazilatlariga e‘tibor berish zarurligi, inson shaxsiga xos sifat va fazilatlarining oilaviy hayotni boshqarishdagi roli, o‘rni va ahamiyati, er-xotin o‘zaro munosabatlarining me‘yorlari, farovon turmush kechirishning muhim shartlari haqida qimmatli fikrlar aytilganki, ular hozirgi oila turmushi va er-xotin munosabatlari uchun ham ahamiyatlidir. Asarda "Sen xotin olsang, o‘zingdan quyisini ol, zoti oliysiga boqma, sen qul bo‘lib qolasan". Asli, urug‘i hamda zoti yaxshi bo‘lsin, uyatli, andishali, pokizasini istagin.

Yuzy chiroyni istama, xulqi yaxshisini ista, fe'l-atvori yaxshi bo'lsa, sening yuzingni yoritadi. Fe'lu-atvori yaxshi bo'lsa, u to'kis bo'ladi. Fe'lu-atvori to'g'ri bo'lsa, juda munosib bo'ladi, xotin chiroyi xulqdir, buni bilgan biladi.

Agar yaxshi andishali ayol topishga muyassar bo'lsang, boy berma (darhol olgin) ey ezgu kishi andishali, pokiza bo'lsa, unday kishi asl bo'ladi. Sen xotinning andishali, aqlisini ista, ey dono, andishali aqlli xotin topilsa - farosat, andisha, boylik, chiroy, nasl-nasab jam bo'ladi. "Sen xotinni qadrli tut, nima so'rasa muhayyo et".

Asarda xotin bilan bir qatorda er ham bilimdon, farosatli, aql-idrokli, zukko bo'lishi, oila tartibini saqlash va uni yuritishda intizomli (intizom o'rnatuvchi), uni kuzatib borishi kerakligi, oilaning iqtisodiy jihatdan to'kisligini ta'minlovchi, xotiniga va farzandlariga mehribon, xushmuomalali, to'g'ri so'z bo'lishi uning farovonligi va barqarorligini ta'minlovchi muhim omillar ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Alisher Navoiy (1441-1501) "Mahbub ul qulub", ya'ni "Qalblar sevgilisi" va "Vaqfiya" asarlarida oilaviy turmushi bilan bog'liq er va xotinning vazifalari, burchlari, o'zaro munosabat-muloqot madaniyati, ularning muvofiqligi va nomuvofiqligi, uning oqibatlariga haqida qimmatli nasihat va ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Jumladan, Alisher Navoiy "Mahbub ul qulub" asarining 37- fasli "Uylanganlik va xotinlar to'g'risida" ayolning fazilatlarini va uning oiladagi o'rni haqida quyidagilarni yozadi; "er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, o'rtada boylik va saranjomlik bo'lur, uy bezagi undan va uylanganing (erning) tinchligi undan.

Husni bo'lsa, ko'ngilga yoqimli bo'lur, yaxshiligi bo'lsa, jon ozig'idir. Aqlli bo'lsa, turmush intizomli va ro'zg'or kerak yarog'i tartibli va saranjomli bo'ladi. Ana shunday turmush o'rtog'i bo'lsa - g'am kulfatda sirdosh va hamdaming bo'lur, maxfiy va yashirin dard va mashaqqatda hamnafas va hamrohing bo'lur. Turmushdan har jafu yetsa, hasratdoshing ul va osmondan har bir balo kelsa, ko'makdoshing ul. Ko'ngling g'amidan ul g'am chekadi.

Nosoz juft uy uchun ham ochiq va ham yashirin qo'rqinchli kasallikdir. Uyatsiz bo'lsa, ko'ngil undan ozorlanadi, yaramas bo'lsa, ruh undan azob tortadi. Tili yomon bo'lsa kuyovning ko'ngli yaralanadi, yomon ishlik bo'lsa, erga yuz qarolik keladi. Mayxo'r bo'lsa, uy obodonligi yo'qoladi va buzuqi bo'lsa uy ichi rasvogarlikka aylanadi".

Alisher Navoiy mazkur asarida (11 qismida) har bir kishi uchun zarur bo'lgan yaxshi fe'llar va yomon xislatlar to'g'risida qanoat, sabr, tavozu' va odob, ishq, vafo, hayo, yumshoq ko'ngillilik va bir qator yomon illatlar to'g'risida qimmatli maslahatlar beradi.

Alisher Navoiyning fikrlarini psixologik nuqtayi nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, o'sha zamonlarda ham, hozir ham yigit va qizlarning o'zlariga har tomonlama mos turmush o'rtog' tanlashi, ularda zarur sifat va fazilatlar mujassamligi oilaning baxti va farovonligidir. Bir-biriga nomunosib er yoki xotin oilaning tanazzulidir.

Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) o'zining hayotdan olgan saboqlari, tajribalari asosida insonparvarlik, ijtimoiy hayot, oilaviy odob, adolat, halollik, sofdillik, to'g'rilik, rostgo'ylik haqidagi fikrlarini qiziqarli hikoyalar, rivoyatlar, pandu-nasihatlarni yordamida bayon etgan. U salbiy axloqiy xislatlarni qoralaydi va ularning inson hayoti va jamiyat uchun katta zarar olib kelishini qator ibratli rivoyatlar bilan ko'rsatadi. Koshifiy jamiyatda, odamlar o'rtasida va oiladagi o'zaro munosabatlarda axloq me'yorlari bo'lib, bu me'yorlar insonlarning xulq, fe'l-atvorlarini tartibga solib turadigan axloqiy talablardir, deb baholaydi. U ijobiy xislatlarning kishilarda bo'lishi shart bo'lgan insoniy fazilat deb tushunadi. Insoniy fazilatlar; sabr, hayo, iffat, pokizalik, sobitqadamlik, saxiylik, rostgo'ylik, shijoat, kamtarlik, xushyorlik, oliyhimmatlilik, diyonatlilik, ahdigu vafolik, andishalilik, izzat-hurmatni bilish, sir yashira olish kabi fazilatlarini birma-bir ta'riflab, ularning ahamiyati va oqibatlarini aytib o'tadi.

O'z davrining yetuk ulamosi Rizouddin ibn Faxruddin er-xotin munosabatlarining sofliqi naqadar muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etgan holda bu masalaga shunday yondashadi. "Go'zal muomalali bo'lmoq islom shariatining birinchi qoidalari ostidadir. Go'zal muomalaning eng lozim qismi xotin bilan bo'lajak muomaladir. Qur'oni Karim xotinlar bilan go'zal mushoirat etishga buyurgandir. Bunday muomala etuvchi erning dunyosi tuzuk, oxirati rohat bo'lur.

Xotingu go'zal muomala qiluvchi oliy tabiatli erlar shariatu aql tarafidan man etilgan narsalarga xotinlarini yo'llamaydilar va eng aziz bolasiga bo'lgan mehru-shafqati darajasida oqibat ko'rsatib, xotinlarini barcha mashaqqatdan saqlaydilar, qurbilari yetmagan xizmatga buyurmaydilar".

Oilaviy hayot va undagi munosabatlar bobida Ahmad Donishning qarashlari alohida e'tiborga loyiqdir. U o'zining "Nodir voqealar" asarida oilaviy hayotning turli jabhalari nikoh odoblari, uylanish shartlari, ishq-muhabbat va sevishtanlarning odobi, qaynona-kelin nizolari, farzandlarga vasiyat, kasb-hunarlarining foydasi haqida qimmatli fikrlarni bayon etgan. Uning fikricha, har bir inson muayyan yoshga yetgandan keyingina unda uylanish va oila qurishga zarurat hosil bo'ladi. Bu davrga kelib inson oila nikoh munosabatlari, oilaviy hayot quvonchlarini va tashvishlaridan boxabar, oilaviy baxt, farzand tarbiyasi, er-xotinlik va ota-onalik

burchlarini tushunib yetgandirlar. Ahmad Donish uylanish shartlariga o’sha davr uchun xos bo’lgan xislatli turmush quruvchilarning biron-bir kasb sohibi ekanligini, uy-joy sohibi bo’lishini, oila va oilaviy hayot masalalarini egallab olganliklarini nazarda tutadi. O’sha davrga xos uylanish shartlari (qiz tomonidan qo’yilgan) yangi oilaning farovonligi, to’kisligini ta’minlaydigan omillardan hisoblangan.

Ahmad Donish o’sha davrdagi uylanishning maqsadi va motivi o’ziga xosligi, shunga qaramay, xotirlarning ham erkaklarday izzat nafi borligi, ular o’zlarini erkaklardan kam tutmasligi, shuning uchun ularning haq-huquqlarini himoya qilish zarurligini aytib o’tadi. Ahmad Donishning qarashlarida ham oilaning baxti, oila farovonligi uning mustahkam va barqarorligi xotinga, uning axloqiy va ma’naviy kamolotiga bog’liqdir.

XX asr Turkiston jadidchiligining ulkan namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat "Oila" nomli asarida farzandlar tarbiyasi, qizlar ham ilm olish kerakligi va bu sohada ota-onaning vazifalari, uylanish va uylanmaslik, uylanishda qanday xotin tanlash lozim, bo’lajak er-xotin birinchi marta nimalarga e’tibor berishi lozimligi, er-xotinning qanday yashamoqlari xususida oilaning maishati va idorasi, er xotinga xos sifat va fazilatlar to’g’risida hayotiy ma’lumotlarga tayanib ilg’or g’oyalarni ilgari suradi. U "millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog’liqdir, qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo’ladi", deb yozadi.

Fitrat mazkur asarining uylanishda qanday xotin tanlash lozim mavzusida "er- xotin mushkulotdan iborat bo’lgan hayot safarida birga bo’lib, jismoniy va ruhiy osoyishtalikka sherik, insoniy vazifalarni bajarishda dastyor, qayg’u va umidsizlik damlarida g’amxo’r, saodat va baxtiyorlik chog’lari bir-birlariga hamdam bo’lishlari lozim. Shunday ekan, ular, albatta, eng avvalo, bir-birlarini kamoli diqqat va tajriba yuzasidan imtihon qilishlari zarur. Xotin erkak holidan va yigit qiz ahvolidan yaxshigina xabardor bo’lib, keyin turmush qurishlari lozim"(10;23), deb ogohlantiradi. Fitratning fikricha, uylanish uchun yana to’rt narsaga alohida e’tibor berish lozim: mol, nasab, husn va imonu-e’tiqod. "Uylanish orzusida bo’lgan er bilan xotinning mol (boylik)lari va nasablari taqriban bir xil bo’lishi lozim. Aks holda er bilan xotin bir-birlariga teng bo’lmay, hayotini mudom azobga qo’yadi".

Xulosa va takliflar. Sharq mutafakkirlarining ma’naviy merosidan bunday misollarni adoqsiz davom ettirish mumkin. Ko’rinib turibdiki, oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta’siri masalasiga Sharq mutafakkirlari va ma’rifatparvar ziyolilari alohida e’tibor bilan qaraganlar. Ularning asarlarida oilaning muqaddasligi, uning jamiyat hayotida tutgan o’rni, oila muqaddasligini belgilovchi muhim milliy-madaniy va milliy-psixologik omillar ko’rsatib o’tilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oila barqarorligini belgilovchi shaxslararo munosabatlar ta’siriga xos qimmatli ma’lumotlar hozirgi oilaviy turmush va uning barqarorligini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, oilaning asosini tashkil etuvchi er va xotinga xos sifat va fazilatlarining shakllangan bo’lishi, ular oilaviy burch va vazifalarini sadoqat bilan ado etishlari, bir-biriga mehribon va kechirimliligi eng muhim qadriyat sifatida e’zozlanadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tavsiya va xulosalardan o’spirinlarni oilaviy turmushga tayyorlashda, hokimiyat va mahallalarning bevosita oila va oilaviy munosabatlar masalalari bilan shug’ullanadigan mutasaddi xodimlarining faoliyatida, oliy o’quv yurtlari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji talabalari va umumta’lim maktablarining yuqori sinflariga mo’ljallangan "Oila psixologiyasi" kursi mashg’ulotlarida, Tarbiya" darslarida, mazkur fanlar uchun tegishli o’quv-uslubiy qo’llanmalar va dasturlar yaratishda samarali foydalanish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Akramova F.A. Insoniy munosabatlar psixologiyasi T.: “Shams ASA”. 2005.-68 b.
2. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi T.,-2006-142 b.
2. Орлов А.Б. Сущность личности: внешнее и внутреннее я человека // Вопросы психологии. 1995. №2
3. Дилигентский Г.Г. Социально-политическая психология. -М.: 1994
4. Fayziyeva M., Jaboorov A. Oilada shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. Toshkent “Yangi asr avlodi”-2006- yil.
5. Fayziyeva M. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Qarshi NMChJ -2021 yil.

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!


1. “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E‘lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
 - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
 - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
 - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma‘lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e‘lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familialari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familialari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e‘tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma‘ruzalari chop etilmaydi. **E‘lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzirimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017094100079001

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

<p>PEDAGOGIK MAHORAT</p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2023-yil 10-son (98)</p> <p>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>OBUNA INDEKSI: 3070</p>	<p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas’ul: Nigora SAYFULLAYEVA Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA Musahhh: Sarvinoz RAXIMOVA</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 29.11.2023 Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.11.2023 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Q. Murtazoyev ko‘chasi 344-uy.</p>
--	---	--